

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMAKOGNOZIYA KAFEDRASI

“FARMATSEVTIK BOTANIKA” FANIDAN O‘QUV-USLUBIY

MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
	500000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi:	110000 – Pedagogika
	510 000 – Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yo‘nalishi:	5510500 – Farmatsiya (Klinik farmatsiya)
	5510500 – Farmatsiya (Farmasevtik tahlil)
	5510500 – Farmatsiya (Farmasevtika ishi)
	5111000 – Kasb ta‘limi (5510500-Farmatsevtika ishi)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMAKOGNOZIYA KAFEDRASI

“FARMATSEVTIK BOTANIKA” FANIDAN O‘QUV-USLUBIY

MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
	500000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi:	110000 – Pedagogika
	510 000 – Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yo‘nalishi:	5510500 – Farmatsiya (Klinik farmatsiya)
	5510500 – Farmatsiya (Farmasevtik tahlil)
	5510500 – Farmatsiya (Farmasevtika ishi)
	5111000 – Kasb ta‘limi (5510500-Farmatsevtika ishi)

Toshkent -2018

Farmatsevtik botanika fanining o'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 22 avgustdagi 474-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Yulchieva M.T. – farmakognoziya kafedrasida dotsenti, b.f.n.

Atamuratova N.T – farmakognoziya kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Raximova T.T. - O'z.RFA Botanika instituti, geobotanika va o'simliklar ekologiyasi laboratoriyasining etakchi ilmiy hodimi professor, b.f.d.

Abzalov A.A.– ToshFarmi Ekologiya va mikrobiologiya kafedrasida dotsent, b.f.n.

Farmatsevtik botanika fanining o'quv-uslubiy majmuasi farmatsiya soha uslubiy kengashining 2018 yil 14 iyundagi 11-son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi: _____ Tojiev M.A.

Farmatsevtik botanika fanining o'quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashining 2018 yil _____ - son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi: _____ Nabiev T.A.

Farmatsevtik botanika fanining o'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2018 yil _____ - son yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi: _____ To'xtaev F.X.

MUNDARIJA

I. O'quv materiallar.....	5
II. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	290
III. Glossariy.....	293
IV Ilovalar	310
- na'munaviy fandasturi.....	310
- ishchi fan dasturi.....	321
-tarqatma materiallar (elektron shaklda ilova qilinadi).....	342
- testlar.....	347
-baholash mezon.....	372

MA'RUZALAR

Ma'ruza – 1

Botanika faniga kirish. Botanika fani bo'limlari va uni farmatsiyadagi ahamiyati. Hujayra. O'simlik hujayrasi. Osmotik bosim. Sitoplazma. Plastidlar

Reja:

- Tabiatdagi tirik organizmlar haqida tushuncha.
- Botanika fani va uning bo'limlari haqida tushuncha.
- O'simliklarda kechadigan fotosintez protsessi.
- Botanika fanining farmatsevtikadagi ahamiyati.
- Hujayraning kashf etilishi va hujayra nazariyasi.
- Protoplazma (sitoplazma). Hujayradagi fermentlar, vitaminlar.
- O'simlik hujayrasining tuzilishi. Yadro. Hujayraning bo'linishi
- Plastidalar klassifikatsiyasi, ahamiyati.

Tayanch iboralar: *Botanika fanining bo'limlari. O'simlik - tirik organizm. Avtotrof va geterotrof organizmlar. Hayotning paydo bo'lishi. Hujayrasiz mayda tanalar, zamburug'lar va ularning morfofiziologik xususiyatlari. Simbioz nazariyasi. Autotrof va geterotrof organizmlarning tabiatdagi modda almashinuvida tutgan o'rni. Etioplastlar va geroplastlar.*

- Tabiatdagi tirik organizmlar haqida tushuncha

Tirik organizmlar - tabiatning tarkibiy qismi bo'lib, atrof-muhit bilan chambarchas bog'langan va o'zini yashashi uchun barcha zarur sharoitni shu tabiatdan oladi. Dastlabki tirik moddalar zarrachalardan hosil bo'lgan, o'simlik va hayvonlar keyinchalik turli yashash sharoitiga tushib, unga moslashgan, natijada o'zgargan va tuzilishi murakkablashib borgan. Ularda yangi belgilar shakllanib borgan. Shu belgilarga ko'ra hozir o'simliklar olami hayvonot olamidanda keskin farq qiladi. Masalan: umurtqali hayvonlar bilan gulli o'simliklar va boshqalar. Biroq, hujayra nihoyatda murakkab biologik asos bo'lgani uchun dastlabki tirik moddalardan, hatto eng sodda tuzulgan bir hujayrali organizmgacha bir necha yuz millionlab yil davom etadigan uzoq evolyutsion rivojlanish protsessida hosil bo'lgan. O'simliklar butun er yuziga tarqalgan bo'lib, faqat quruqlikda emas, balki ko'l, daryo, dengiz va okeanlarda, ba'zan ancha chuqurliklarda ham o'sadi.

Sayyoramizda dastlabki okeanlar suvida oddiy anorganik moddalar, uglevodlar, metan va suvdan – murakkab organik birikmalar hosil bo'lgan. Akademik A.I. Oparinning fikriga ko'ra, ularning ayrimlari liqildoq tomchi – koatservantlar shakliga kirgan va keyin murakkablashib, tirik modda hosil bo'lishiga asos hisoblangan.

Mashhur shved olimi K. Linney 1767 yili dunyoni 3 qismga bo'ladi:

1. Noorganik jismlar – bular: jonsiz tabiat, toshlar
2. Organik dunyo – o'simliklar
3. Tirik harakatlanuvchi organizmlar – hayvonlar.

"Botanika" so'zi grek tilidan olingan bo'lib, ko'k-o't, sabzavot degan ma'nolarni bildiradi. Botanika fani o'simliklarning hayotiy protseslarini, ya'ni kelib chiqishini, ko'payishini, rivojlanishi, oziqlanishi, tashqi va ichki tuzilishini o'rganadigan fandır.

1.2. Botanika fani va uning bo'limlari haqida tushuncha.

Botanika fani biologik fanning bir tarmog'i hisoblanadi.

1. O'simlik hujayrasini o'rganadigan fan **sitologiya** deyiladi.

2. O'simlik to'qimalarini o'rganadigan fan **gistologiya** deyiladi.

3. O'simliklarning tashqi tuzilishini o'rganadigan fan **morfologiya** deyiladi. Morfologiya ham grek tilidan olingan bo'lib, bu shaklni o'rganadigan ilm ma'nosini bildiradi.

4. O'simliklarning ichki tuzilishini o'rganadigan fan **anatomiya** deyiladi.

5. O'simliklarning **fiziologiyasi** va **biokimyosi**. Bu so'zlar ham grek tilidan olingan bo'lib fizik - tabiat, bio - hayot ma'nosini bildiradi. Bu fanlar yordamida o'simliklarning hujayrasida bo'ladigan protsessning, masalan: nafas olish, oziqlanish, fotosintez protsesslari va boshqalar o'rganiladi.

6. O'simliklar **sistematikasi**. Bu so'z ham grek tilidan olingan bo'lib to'plash, yig'ish, birlashtirish ma'nosini bildiradi. Bu fan o'simliklarning kelib chiqishi jihatidan bir-biriga yaqinligini va shunga asoslanib er yuzidagi o'simliklarni guruhlariga bo'lib o'rganadigan fandır. Masalan: tur, turkum, oila, sinflarga bo'linadi.

7. **Genetika** fani. Bu ham grekcha so'zdan olingan bo'lib, ya'ni kelib chiqish ma'nosini bildiradi. Genetika nasl, irsiyat va o'zgaruvchanlik qonunlarini o'rganadigan fandır.

8. **Geobotanika**. Bu fan o'simliklarning er yuzida tarqalishini o'rgatadi.

9. **Ekologiya**. Bu o'simliklarning sharoitga moslashishi qaysi sharoitda qanday o'simlik o'sishini o'rganadigan fandır.

Botanika to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi IV asrlarda paydo bo'lgan. Teofrast (371-286 yy.) o'simliklar haqidagi ma'lumotlarni to'pladi va ularning klassifikatsiyasini yaratdi.

Teofrast barcha o'simliklarni – daraxt, buta, chala buta va o't o'simlik kabi guruhlariga bo'ladi. Botanika fanini rivojlantirishda o'rta asrda yashagan va jahon fani taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan buyuk olim Abu Ali ibn Sinoning xizmati kattadir.

Andrea Sezalpin o'simliklar olamini avvalo 2 bo'limga: yog'ochli o'simliklarga (daraxt, buta) hamda chala buta, o't o'simliklarga bo'ladi. Ularni o'z navbatida 15 sinfga ajratdi. Sinflarga bo'lganda guli, meva, uya va undagi urug'larning sonini hamda murtak tuzilishini asos qilib oladi va 15 - sinfga mox, qirqquloq, qirqbo'g'im va zamburug'larni kiritdi.

Ingliz botanigi Djon Rey birinchi marta o'simliklar olamini sporal (yashirin nikohli) va gulli (ochiq nikohli) o'simliklarga bo'lib, gullarni o'z navbatida bir pallalilar va ikki pallalilarga ajratdi. Djon Rey o'simliklar sistematikasiga birinchi bo'lib tur terminini kiritdi.

Botanikani rivojlantirishda shved olimi Karl Linney o'simliklarni ta'sir etish texnikasini aniqlashni sistematikaga **binar nomenklatura**, ya'ni o'simliklarni ikki nom bilan atashni, mavjud o'simliklarni ma'lum sistemaga solib, ularning sun'iy sistemasini yaratishdek buyuk ishlar qildi.

Ushbu darslikda boshida tarkibiy tashkillashtirishning umumiy qonuniyatlari ta'rifi beriladi. Bunda atomar darajadan makroskopik darajagacha ulkan oblastga to'xtab o'tiladi: **molekulyar asoslar** to'g'risida qisqacha ma'lumotdan keyin hujayra tuzilishi va ultratarkibi (**sitologiya**) ko'rib chiqiladi, keyin o'simliklar to'qimalari (**gistologiya**) va nihoyat, ularning tashqi, oddiy ko'z bilan farqlab bo'ladigan tuzilishi (**morfologiya**). Bunda biz avvalambor shakllarning turli-tumanligidan emas, ularning umumiy boshlang'ich holatlaridan kelib chiqamiz, ustiga-ustak oldingi planda tariflash turadi.

“Botanika” darsligini qismlarga va bo'limlarga bo'lganda mualliflar zamonaviy biologiya fanlararo xarakterga ega ekanligi faktini e'tibordan chetda qoldirishmagan. Bilimning qachonlardir alohida sohalar o'zaro birlashadi va tadqiqotning yangi, ayniqsa unumli sohalarini beradi. Masalan, hujayra to'g'risida ta'rifiy ta'limot (sitologiya), biokimyo va molekulyar biologiyaning qo'shilishi natijasida zamonaviy **hujayra biologiyasi** yuzaga kelgan.

1.3. O‘simliklarda kechadigan fotosintez protsessi.

O‘simliklar hayvonlardan o‘zining yashil rang beruvchi **xlorofill** pigmenti borligi hamda fotosintez protsessi bo‘lishligi bilan farq qiladi.


Biz o‘zimiz uchun kerak bo‘lgan barcha oziq moddalarni o‘simliklardan olamiz. Shuning uchun ham biz o‘simliklarsiz yashay olmaymiz. O‘simliklarda yashil rang beruvchi xlorofill pigmenti bo‘lganligi uchun fotosintez, ya’ni assimilyatsiya protsessi bo‘lib turadi. Bu protses natijasida oddiy noorganik moddalardan organik moddalar vujudga keladi.

Fotosintez protsessi bo‘lishligi uchun xlorofill pigmenti, suv, karbonat anhidrid va quyosh nurlari bo‘lishi shart. Shulardan birontasi bo‘lmasa, fotosintez protsessi ham bo‘lmaydi.

O‘simliklar tuproqdan suvni, havodan esa karbonat anhidrid gazini oladi.



O‘simliklar hujayrasida glyukoza kraxmalga aylanadi.



Biz nafas olganda kislorodni yutib karbonat anhidridni chiqaramiz. O‘simliklar esa fotosintez protsessida kislorodni chiqarib turadi, ya’ni o‘simliklar bizni kislorod bilan ta’minlab turadi.

Biz nafas olganda chiqargan karbonat anhidrididan o‘simliklar fotosintez protsessida foydalanadi. Havoda karbonat anhidridning miqdori 0.03% dan oshmaydi.

O‘simliklar bir tonna karbonat anhidridni olish uchun 5 mln. kub metr havoni tozalaydi. O‘simliklar fotosintez protsessida karbonat anhidridni oladi. Nafas olishda esa odamlarga o‘xshab kislorodni yutadi. O‘simliklar odamlarga o‘xshash kechasiyu- kunduzi kislorod bilan nafas oladi.

Yashil rangdagi o‘simliklar tuproqdan olgan oziq moddasidan tashqari fotosintez protsessi natijasida o‘ziga oziq moddalar tayyorlaydi. O‘ziga-o‘zi oziq modda tayyorlab ovqatlanishi - **avtotrof** oziqlanish deyiladi. Avtoc– o‘ziga-o‘zi ma’nosini bildiradi. Ba’zi bir o‘simliklarda ildiz bo‘lmaydi. Masalan: suv o‘tlarida. Bu o‘simliklarning oziqlanishi faqat avtotrof yo‘lda bo‘ladi. Bakteriyalarda, zamburug‘larda va gullaydigan o‘simliklardan zarpechak, devpechak va shumg‘iya deb ataladigan o‘simliklarda yashil rang beruvchi xlorofill bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bu o‘simliklar o‘zlariga oziq modda tayyorlay olmaydi. Bunday o‘simliklar **geterotrof** yo‘lda oziqlanadi. Geteroc – o‘zgalar hisobiga ma’nosini bildiradi. Geterotrof oziqlanish o‘z galida 2 ga bo‘linadi:

- Parazit
- Saprofit

Parazit oziqlanish tirik organizm hisobiga, saprofit oziqlanish o‘lik organizm hisobiga bo‘ladi.

• **Botanika fanining farmatsevtikadagi ahamiyati.**

Hozirgi kunda ko‘pgina dori-darmonlar o‘simliklardan olingani uchun botanika fanining farmatsevtikadagi ahamiyati nihoyatda kattadir. MDX florasi juda boy bo‘lib, 19000 o‘simlik turini o‘z ichiga oladi. Ularning orasida dorivor o‘simliklar juda ko‘p.

So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, 159 tur yovvoyi dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dori turlari va preparatlari tibbiyotda ishlatiladi. Yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklar har yili tayyorlanadi.

MDX dorivor o‘simliklaridan olinadigan dorivor mahsulotlar farmatsevtika zavodlari va dorixonalar bosh boshqarmasining talabini qondirmaydi. Shuning uchun dorivor o‘simliklarni ekish keng yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi kunda aholining dorivor o‘simlik uchun talabi juda katta.

1.5. Hujayraning kashf etilishi va hujayra nazariyasi

Hujayra - tirik organizmning asosiy bir bo'lagi bo'lib tiriklikda bo'ladigan hamma protsesslar hujayrada bo'lib turadi. Hujayra oziqlanish, ko'payish, o'sish, nafas olish, tashqi ta'sirotni sezish xususiyatiga ega. O'simlik organlari hujayradan tashkil topganligini ingliz olimi fizik **Robert Guk** 1665 yilda topgan. R. Guk birinchi marotaba hujayrani mikroskopda ko'rgan va o'simlik to'qimalari hujayradan iborat ekanligini aniqlagan. R. Guk hujayra to'g'risida "**Mikrografiya**" deb kitob yozgan. Bu kitobda ukrop, marjon daraxti (buzina) va probkaning ichki tuzilishini ko'rsatib bergan.

XIX - asrning boshlarida hujayra nazariyasi paydo bo'ldi. Bu nazariyaning ko'rsatishicha har bir organizm va organ, to'qimalari hujayralardan tuzilgan. Hujayra esa bo'linib ko'payib turadi.

1834 yilda rus olimi, Peterburg meditsina akademiyasining professori Goryaninov tirik organizm, albatta hujayralardan tashkil topgan deydi. Organik dunyo noorganik dunyodan hujayraviy tuzilishi bilan farq qilishligini isbotlagan.

1838 yilda nemis olimlari Shleyden (botanik) va Shvan (zoolog) hujayra nazariyasini ilmiy asosda tuzib chiqadi. Bu nazariyaga binoan har bir o'simlik va hayvon organlari hujayradan tuzilgan.

Hujayralar bo'linib ko'payib turadi. Tiriklikka xos bo'lgan protsesslarning hammasi hujayrada bo'lib turadi (nafas olish, oziqlanish, ko'payish va boshqalar).

Fridrix Engels XIX - asrda tabiat fanidan 3 ta katta kashfiyotlar bo'lganligini ko'rsatadi. Bular:

- Hujayra nazariyasi.
- Darvinning evolyutsion ta'limoti.
- Materiyaning yo'qolmasligi. Energiya saqlanish qonuni.

Hujayraning katta-kichikligi turlicha bo'ladi. Hujayralar odatda mayda bo'ladi. O'rta hisobda gullaydigan o'simliklar hujayralarining katta-kichikligi 10-60 mk gacha bo'ladi. Lekin er yuzida undan ham mayda hujayralar bor.

1865 yilda gollandiya olimi Leven Guk tabiatda ko'zga ko'rinmaydigan o'simliklarni topgan. Bu o'simliklarni **bakterion** deb ataydi. Bakteriya tayoqcha ma'nosini bildiradi. U o'zining "Tabiat sirlari" asarida shu bakteriyalarni tasvirlaydi.

Bakteriyalarning kattaligi o'rtacha hisobda 0.5-1.0 mk gacha bo'ladi. 1898 yilda rus olimi Ivanivskiy bakteriyalardan ham mayda organizmlarni topgan. Bu organizmlarni **virus** deb ataydi. Viruslarning kattaligi o'rta hisobda 0.015-0.07 mk gacha bo'ladi. Lekin o'simliklar dunyosida yirik hujayralar ham uchraydi. Bunday hujayralarni oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin. Masalan: pomidor, tarvuz, limon, apelsin, olma mevalari hujayrasida. Paxta tolasining hujayrasi 6-6.5 sm, suv o'tlaridan xaraning hujayrasi 15 sm ga etadi. O'rta dengiz suvlarida o'sadigan kaulerpa suv o'ti hujayrasining kattaligi 1 metr ga etadi (10-100 sm).

Hujayra shakllari ham turlicha bo'ladi. Tekshirish natijasida hujayra 76 xil shakldan iborat ekanligi aniqlangan. Ularning hammasi 2 ta gruppaga bo'linadi:

- Parenximatik hujayra.
- Prozenximatik hujayra.

Parenxima hujayrasining bo'yi bilan eni bir-biriga tengroq yoki bo'yi enidan 4 martadan 8 martagacha kattaroq bo'ladi. Prozenxima hujayrasining bo'yi esa enidan 10 martadan 1000 martagacha katta bo'ladi. Hujayraning eng asosiy va ahamiyatli tirik qismini **protoplast** deb ataladi. Protoplast quyidagi qismlardan tashkil topgan:

- Yadro.
- Protoplazma (sitoplazma)
- Plastidlar
- Xondriosoma.

Bulardan tashqari hujayra po'sti, hujayra shirasi va oziqli hamda chiqindi moddalar bor. Bularning hammasini protoplast ishlab chiqaradi.

1.6. Protoplazma (sitoplazma). Hujayradagi fermentlar, vitaminlar.

Protoplazma yarim suyuqlik, rangsiz, shilimshiq modda bo'lib asosan oqsildan tashkil topgan.

Oqsil juda murakkab tuzilgan organik modda bo'lib C, H, O dan tuzilgan. Ba'zi bir oqsillarning tarkibida Fe, P ham uchraydi.

Oqsil molekulasi juda ham murakkab tuzilgan. Bug'doyning oqsilida C-685, H-1068, O-196, jo'xorining oqsilida C-736, H-116, O-208 lar bor.

Protoplazma quruq qismining 70% ni suv tashkil etadi. F. Engels hayot oqsilga bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tadi. Oqsildan tashqari protoplazmada yog', karbon suvlari, mineral moddalar va suv bo'ladi. Barg, poya va ildizda suvning miqdori 50-80%, urug' va quruq mevalarda esa suvning miqdori 10-15 % bo'ladi.

Rus olimi Lepeshkinning ko'rsatishicha, shilimshiq zamburug'larning tarkibida 82.6 % suv, 17.4 % quruq moddalar bor. Shu quruq moddalardan 40.7% suvda eriydi, 59.3% suvda erimaydi.

Sitoplazmada reaksiya ko'proq ishqoriy bo'lib qizil lakmusni ko'kka bo'laydi. Protoplazma 3 qavatdan tashkil topgan:

- Eng tashqi qobig' qavati – ektoplazma
- O'rta suyuq qavati – mezoplazma.
- Ichki qavat, ya'ni harakatsiz qavati – endoplazma.

Ichki va tashqi qavati (ektoplazma va endoplazma) pardasimon bo'lib yarim o'tkazuvchanlik vazifasini bajaradi. Masalan: suvni yaxshi o'tkazadi, bo'yoqlarni o'tkazmaydi.

Protoplazmaning o'rta qavatidagi mezoplazmada 2 xil jism uchraydi:

1.Xondriosoma

2.Mikrosoma. Bu mikrosoma juda kichkina donacha ma'nosini bildiradi.

Xondriosomalar yumaloq shaklda bo'ladi. **Mikrosomalar** esa nuqtaga o'xshaydi. *Xondriosomalardan kelajakda plastidalar vujudga keladi. Mikrosomalardan esa oziqli va chiqindi moddalar hosil bo'ladi.* Protoplazma hujayra ichida doimo harakatlanib turadi. Bir minutda **0.3 mm dan 10 mm gacha** bo'lgan masofani bosadi. Bir soatda 7 sm masofani bosadi.

Protoplazmaning harakatlanishi 2 xil tipda bo'ladi:

- Aylana harakat – vrashatelnoe dvijenie
- Sochilib harakatlanish - struychatoe dvijenie.

Aylana harakatda protoplazma hujayraning aylanasi bo'yicha harakatlanadi.

Sochilib harakatlanishda esa yadrodan hujayra po'stiga, hujayra po'stidan yadrochaga qarab harakatlanadi. Protoplazmaning harakatlanishi modda almashinuvini tezlashtiradi.

Hujayra protoplazmasida turli reaksiyalar bo'lib turadi. Buning natijasida ko'plab organik moddalar tuziladi va parchalanib turadi. Bu protsesslarning hammasi fermentlar ta'sirida bo'ladi.

Hujayraning butun hayot faoliyatida ishtirok etadigan sitoplazmada uchraydigan organoidlarning qisqacha ta'rifiga to'xtalib o'tamiz. Bu organoidlar electron mikroskoplar kashf qilingandan keyingina o'rganila boshlandi.

Mitoxondriyalar - (yunon. "mitos" – ip, "xondrion" – granula) donacha, tayoqcha, ipcha shaklida bo'lub, bakteriyalar va ko'k-yashil suvo'tlardan tashqari barcha o'simlik hamda hayvon hujayralarida uchraydi. Mitoxondriyalar asosan ADF dan ATF ni va qisman DNK kuzatuvda oqsillarni sintez qiladi. Mitoxondriyalarda oqsillar, lipidlar, nafas olishda ishtirok etadigan fermentlar, RNK lar bilan A, B, K, E kabi vitaminlar uchraydi.

Ribosomalar – 1955 yilda G.Palade tomonidan aniqlangan. Ribosomalarda 50% oqsil va ribonuklein kislotalar, mineral tuzlardan magniy va kalsiy bo'ladi. Ribosomalarning asosiy vazifasi oqsil sintezidir. Ayniqsa, endoplazmatik to'r atrofidagi ribosomalar oqsil sintezida aktiv qatnashadi.

Golji kompleksi - 1898 yilda italiyalik olim Golji tomonidan kashf qilingan bo'lib, uni diktiosoma deb ataladi. Diktiosoma tarkibida oqsillar, lipidlar, polisaxaridlar, fermentlar bo'lib,

ular hujayradagi suv balansini tartibga solishda, chiqindi va zaharli moddalarni to'plashda hamda hujayra vakuolasi hosil qilishda ishtirok etadi.

Endoplazmatik to'r – nozik kanalchalardan tuzilgan murakkab sistema bo'lib, ikki xil shaklga ega. Tashqi membranasi donador (ribosoma bo'lsa) yoki silliq (ribosoma bo'lmasa) endoplazmatik to'r bo'ladi.

Fermentlar katalizatorlik vazifasini bajarib turadi. Fermentlar 4 ta gruppaga bo'linadi.

1. Achituvchi fermentlar – **oksidaza**.

2. **Proteaza**. Bu ferment ta'sirida oqsil moddalar aminokislotalargacha parchalanadi. Bu ferment ta'sirida oqsil moddalar tiklanadi.

3. **Esteraza**. Bu ferment ta'sirida moylar spirt bilan kislotaga parchalanadi. Shu gruppaga kiruvchi lipaza fermenti ta'sirida yog' glitserin va kislotasigacha parchalanadi.

4. **Karbohidraza**. Bu ferment ta'sirida har xil karbon suvlar parchalanadi. Bu gruppaga kiruvchi diastaza fermenti ta'sirida shakar kraxmalga aylanadi.

Fermentlar faoliyati temperatura ko'tarilganda ya'ni 40-50° C da ko'payadi. 50° C dan yuqorida susayadi. 100° C da esa fermentlar ishdan chiqadi.

Vitaminlar yunoncha vita so'zidan olingan bo'lib, hayot degan ma'noni bildiradi. Ularni 1880 yilda rus olimi N.Lunin hamda 1912 yilda esa K.Funk kashf etganlar. Tarkibida turli-tuman organik moddalar saqlovchi vitaminlar fermentlar komponentlari bo'lib hujayrada katalizator rolini o'ynaydi. Organizmda vitaminlar etishmasa modda almashinish jarayoni buziladi. Agar ular mutlaqo bo'lmasa organizmning hayotiy funksiyalari buziladi. Hozirgacha 40 ga yaqin vitaminlar aniqlangan, ularning hammasi toza holda sanoatda ishlab chiqilmoqda va oziq-ovqat ratsionida ishlatilmoqda. Vitaminlarning nomlari yunon alfavitining bosh harflari bilan belgilanadi. Shu sababli ularni A, B, C, D vitaminlari deb aytiladi. Vitaminlar o'simliklarning ma'lum bir qismlarida joylashadi.

Masalan, B (B₁, B₂) gruppada vitaminlar ko'pincha urug' murtagi va po'stida yoki javdar, bug'doy kabi o'simliklarning yosh maysalarida bo'ladi. C vitamin na'matak, limon, qora smorodina mevalarida hamda piyoz boshlarida, E vitamini o'simlik yog'larida, bug'doy, makkajo'xori maysalarida, sitrus o'simliklari va pomidor mevasida, K vitamini chayon o'ti bargida, sabzi ildizmevasida ko'p bo'ladi.

Vitaminlar fermentlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'simlik organizmida faqat moddalar almashinuvi jarayonida qatnashadi. Vitaminlar tabiatdagi barcha o'simliklarda oz miqdorda bo'lib, hujayraning hayotiy jarayonlarida faol ishtirok etadi. Vitaminlar etishmasa o'simlikning rivojlanishi yaxshi bormaydi.

Sitoskelet (ing. cytoskeleton) – ichki skelet (endoskelet) u alohida joylarda sitoplazmani mustahkamlashi (kul - gel); boshqa tomondan motor molekular yordamida hujayra ichida jarayon harakatini ta'minlaydi (misol uchun, sitoplazma toki, pufakchalar joylashishi, xromosomalar harakati – yadro bo'linishida); o'simliklarda avvalambor mikrotrubkachalar va aktinli mikrofilamentlar (lot.tubulus- trubochka, filum-un).

Peroksisomlar va glioksisomalar

Aktiv eukariot hujayra sitoplazmasida ko'pgina mayda sferik strukturalar assotsilashgan ular faqat bitta membrana bilan chegaralangan. Electron mikroskop paydo bo'lguncha ular pufakchalar yoki vezikulalar kabi nomlangan. Lekin ularning vazifalari juda farqlanadi: zaxira, tashuvchi va reaksiya vezikulalar ajratish mumkin. Ekzo – va endositozda membrana oqimini tashuvchi sharchalar ta'minlaydi, ular konteyner vazifasini bajaradi, zaxira sharchalar bu misol uchun aleyron urug'i (pastga qarang). Electron mikroskop davr boshlarida 0.3-1.5 mkm o'lchamli zich tarkibli sharchalar mikrotangachalar kabi belgilangan. Ular modda almashinuvida maxsus vazifalarni bajaradi va yuqori konsentratsiyada ma'lum fermentlarni saqlaydi. Mikrotangachalarning vazifasi aniq konkret hujayra (to'qima) ga bog'liq. Lekin oldingi qatorda doimo oksidlovchi reaksiyalar kam hollarda – turli moddalarning parchalanishi turadi.

O‘simlik hujayrasining tuzilishi. Yadro.

Yadro – “nucleus”, grekcha “karion”. Yadro protoplazmaga o‘xshash hujayraning eng asosiy qismlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Protoplazma yadrosiz, yadro esa protoplazmasiz yashay olmaydi. Rus olimi Gerasimovning ko‘rsatishicha, hujayradagi hamma protsesslarda yadro ishtirok etadi. Yadrosiz hujayra bo‘lishi mumkin emasligini ko‘rsatadi. 1890 yilda Gerasimov **spirogira suv o‘ti** hujayrasidan yadroni ajratib oladi. Yadrosi bor hujayra normal yashagan. Yadrosi olib tashlangan hujayra esa **42 kundan so‘ng o‘lgan. Yadroni birinchi marta 1831 yilda ingliz olimi botanik Robert Brown orxideya** deb atalgan o‘simlik hujayrasida ko‘radi.

Yadroning shakli yumaloq yoki ellipsimon, ba‘zan cho‘ziq va yulduzsimon yadrolar ham uchraydi.

Yadroning katta-kichikligi o‘rtacha hisobda 4-36 mk gacha bo‘ladi. Bundan ham kichkina va katta yadrolar uchraydi. Masalan, mog‘or zamburug‘ining yadrosi 1 mk, sagovnik deb atalgan o‘simlikning yadrosi 500-600 mk gacha bo‘ladi. Odatda o‘simlik hujayrasida 1 tadan yadro bo‘ladi.

Ba‘zi bir hujayralar 2 ta yoki undan ko‘p yadroli bo‘ladi. Masalan, yashil suv o‘tlarida va tuban zamburug‘larida yuztagacha yadro uchraydi. Dengizda yashaydigan ba‘zi bir **qizil suv o‘tlari** hujayrasida 4000 tagacha yadro uchraydi. Ko‘knorining sutli nayida 1000 tagacha yadro bor.

Ba‘zi bir o‘simliklarning hujayrasida yadro bo‘lmaydi. Masalan, **ko‘k-yashil suv o‘tlari va bakteriyalarda**. Rus olimi Peshkovning ko‘rsatishicha, bunday o‘simliklarda yadro elementlari **protoplazmada tarqoq holda uchraydi**.

Odatda, yadro hujayraning turli joylarida uchraydi. Yosh hujayralarda yadro hujayraning 1/3 qismini tashkil etadi. Bunda yadro hujayraning markazida joylashgan. Qari hujayralarda esa yadro hujayraning chetida joylashgan bo‘ladi.

Yadro rangsiz, tiniq protoplazmaga nisbatan qattiq kolloid modda. Yadro protoplazmadan o‘zining yupqa oq pardasi bilan ajralib turadi. Yadroda ikki xil, ya‘ni tashqi va ichki po‘sti bor. Tashqi po‘stining teshikchasi bor. Yadro ichida yadro suyuqligi joylashgan. Yadro suyuqligi **kariolimfa** deb ataladi. Kariolimfa 2 xil bo‘ladi:

1. Xromatin (bo‘yaladigan)
2. Axromatin (bo‘yalmaydigan).

Yadro sitoplazmaga o‘xshash oqsil moddadan tashkil topgan. Yadro oqsilida C, H, O lardan tashqari Fe, P ham bor. Shuning uchun **ham yadro oqsilini nukleoproteid** deb yuritiladi. Bu oqsil oshqozonda hazm bo‘lmasligi bilan boshqa oqsillardan farq qiladi. Xromatin nukleoproteiddan tuzilgan. Yadro tarkibida timonuklein kislotasi bor. Nukleoproteidlarning reaksiyasi kislotali bo‘ladi, ya‘ni ko‘k lakmusni qizartiradi.

Yadro tarkibida yadrochalar bor. Yadrolarning tarkibi va vazifasi to‘liq o‘rganilmagan. Yadro harakatlanib turadi. Birinchi harakati protoplazma bilan birgalikda. Bu harakatni sekin harakatlanish deyiladi. Ikkinchi harakati protoplazmasiz o‘zi harakat qiladi. Bunday harakatni tez harakatlanish deyiladi. Demak, yadro hujayrada bo‘ladigan hamma protsesslarda ishtirok etadi. **Yadro achituvchi fermentlarni ishlab chiqaradi. Hujayraning bo‘linishi protsesslarida ishtirok etadi.** Yadroning bo‘linishi – hujayraning bo‘linishidir.

Hujayraning bo‘linishiga hujayradagi jamiki moddalarning har xil ta‘sirotlar natijasida ko‘payishi va DNK ning ikki marta oshishi sabab bo‘ladi. Tirik tanalar uch xil yo‘lda bo‘linib ko‘payadi: amitoz, mitoz, meyoza. Xromosomalarda esa endomitoz bo‘linish ham sodir bo‘ladi.

Hujayraning oddiy yo‘l bilan bo‘linish – amitoz, tuban tuzilgan o‘simliklarning hujayralarida va qarigan, kasallikka duchor bo‘lgan hujayralarda sodir bo‘ladi.

Qari yoki kasallangan hujayralarda ba‘zan yadrolar bo‘linadi, ammo hujayra ikkiga ajralmay poliploidli yoki patologik hujayralarni hosil qiladi.

Yadroning murakkab bo‘linishi ikki xil yo‘l bilan:

- o‘simlikning vegetativ organlarida kariokinez bo‘linish yoki mitoz bo‘linish sodir bo‘ladi.

- generativ organlarida jinsiy hujayralarda reduksion boʻlinish yoki meyoza boʻlinish sodir boʻladi.

1.7. Plastidalar klassifikatsiyasi, ahamiyati.

Bitta oʻsimlikda plastidalar turli shakllarda uchraydi. Mikroskop ostida bu endi tashqi turli **pigmentatsiya** boʻlib koʻrinadi. Shunda, protoplastidalar hosil qiluvchi, zahiralovchi va asosiy toʻqima leykoplastlari rangsiz, fotosintetik faol, xlorofill saqlovchi xloroplastlar yashil, kuzgi barglar gerontoplastlari va gul va mevalardagi karatinoidli xromoplastlari sariqdan qizilgacha boʻyalgan. Barcha shakldagi plastidalar bir-biriga oʻta oladi, faqat gerontoplastlar qaytmas rivojlanish bosqichini namoyon qiladi. Mitoxondriy kabi, plastidalar sitoplazmadan 2 ta membranali qobiq bilan chegaralangan (plastid envelope), plastidaning tashqi membranasini shunday sezilarli oʻtkazuvchan ichkiga qaraganda, u spetsifik translakatorlar bilan taʼminlangan. Plastidalarning ichki membranasini, oʻsimlik hujayralarida lipidlar sintezi uchun yaxshi joy hisoblanadi. Plastidalar oqsilida C, O, H lardan tashqari Fe uchraydi. Plastidalar oddiy yoʻl bilan boʻlinib koʻpayib turadi. Plastidalar protoplazma bilan birgalikda hamda oʻzi harakatlanib turadi. Bir sekund 0.12 mm masofani bosadi. Plastidalarning kattaligi oʻrta hisobda 1-12 mk boʻladi. Bitta hujayra 20 tadan 100 tagacha uchraydi. Plastidalar 3 ta gruppaga boʻlinadi.

1. Leykoplastlar – rangsiz plastidalar.
2. Xromoplastlar – rangli plastidalar.
3. Xloroplastlar - rangli plastidalar.

Xloroplast – xloro - yashil rang maʼnosini bildiradi. Xloroplast tarkibida yashil rang beruvchi xlorofill pigmentini saqlaydi. Xloroplast oʻsimliklarning er ustki qismida uchraydi. Xloroplastni birinchi marta fransuz farmatsevti Plyate M.C. oʻtgan asrning 90-yillarida, yashil rang beruvchi xlorofill pigmenti 2 ta pigmentdan tashkil topganligini koʻrsatadi:


- Xlorofill “a” $C_{55}H_{72}O_5N_4Mg$
- Xlorofill “b” $C_{55}H_{70}O_6N_4Mg$

Xlorofill “a” toʻq yashil, xlorofill “b” sargʻish yashil rang beradi. Xlorofill murakkab efirga kiradi. Xlorofill gulli oʻsimliklarda yumaloq doira shaklida boʻlganligi uchun xlorofill donachalari deb yuritiladi. Xlorofillning kattaligi oʻrta hisobda 3-10 mk gacha boʻladi. Har xil oʻsimlikning hujayrasida xlorofill donachalarining soni turlicha boʻladi. Xlorofill donachalari hujayrada 20, 40, 60 ta, baʼzan 100 tagacha boʻlishi mumkin.

Xlorofill faqat oʻsimliklar uchun emas, odamlar va hayvonlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki organik moddalar birinchi marotaba xlorofill ichida hosil boʻladi. Organik moddalar fotosintez protsessi ishtirokida hosil boʻladi. Fotosintez protsessini assimilyatsiya protsessi deb ham yuritiladi. Rus olimi K. A. Timiryazev fotosintez protsessida xlorofill quyosh nurini yutishini koʻrsatadi. Uning koʻrsatishicha, xlorofill quyosh spektorining B bilan C oraligʻida qizil va koʻk, binafsha nurlarini koʻproq yutadi.

Oʻsimliklar quyosh nurining 75% ini yutadi, shundan 5 % gina fotosintez protsessida ishtirok etsa, qolgan 70% oʻsimliklarning suv bugʻlatishiga sarf boʻladi.

Fotosintez protsessida xlorofill va quyosh nuridan tashqari suv va karbonat anhidrid kerak boʻladi. Bularning qoʻshilishi natijasida oldin chumoli aldegidining 6 molekulasi bir-biri bilan qoʻshilib bir molekula glyukoza hosil qiladi. Bu protsessning qanday mexanizmida borishini olimlar hozirgacha aniqlay olishmayapti.



Suv o‘tlarida plastidalarni xromotofor deb yuritiladi. Chunki bu o‘simliklarda plastidlar shakl jihatidan boshqa o‘simliklardan farq qiladi. Masalan: spiralga, yulduzga va boshqa shakllarga o‘xshash bo‘ladi.

Xromoplast. Xroma – bo‘yoq rang ma’nosini bildiradi. Xromoplast o‘simliklarning er osti va er ustki organlarida uchraydi. Shakli turlicha bo‘ladi. Ba’zi o‘simliklarda yumaloq, boshqalarida esa uch qirrali yoki ninasimon shakllarida bo‘ladi. Xromoplastda zapas oziq moddalar to‘planadi. Xromoplastda rang beruvchi pigmentlar, ya’ni karotinoidlar bor. O‘simliklarga sariq, qizil, qo‘ng‘ir rang beradi.

Xromoplast pigmentlaridan karotin - $C_{40}H_{56}$ qizil rang beradi. Ksantofill - $C_{40}H_{56}O_2$ sariq rang beradi. Qo‘ng‘ir rang beruvchilarning pigmentini fukoksantin - $C_{40}H_{56}O_6$ deyiladi. Odam organizmida karotinoidlar oksidlanib, vitamin A ni vujudga keltiradi.

Xromoplastlarning katta kichikligi o‘rta hisobda 4-24 mk bo‘ladi. Xromoplastlar o‘simliklar dunyosini er yuzida tarqalishida katta ahamiyatga ega. Chunki xromoplast o‘simliklarini gulida va mevasida uchraydi. Meva o‘zining chiroyli rangi bilan qushlarni, hayvonlarni o‘ziga jalb qiladi. Mevasini eb urug‘i tashlanadi. Urug‘idan yangi o‘simlik o‘sib chiqadi.

Leykoplast. Leykoc – oq, rangsiz degan ma’noni bildiradi. Leykoplastda rang beruvchi pigment bo‘lmaydi. Leykoplast o‘simliklarning er ostki va er ustki organlarida uchraydi. Masalan, o‘simliklar bargining epidermasida, kartoshka tugunagida, lavlagining ildiz mevasida uchrashi mumkin. Leykoplastning shakli – sharsimon, tayoqchasimon va boshqa shakllarda bo‘ladi. Katta kichikligi ham turlicha. Leykoplastda ikkilamchi kraxmal va ikkilamchi shakar to‘planadi. Masalan, kartoshka tugunagida ikkilamchi kraxmal, lavlagida esa ikkilamchi shakar bor.

Plastidlar tashqi muhit ta’sirida o‘zgarib bir turdan ikkinchi turga o‘tib turadi. Masalan, leykoplast xloroplastga (kartoshka tugunagida er betiga chiqib qolsa ko‘karib qoladi). Xloroplast xromoplastga (yashil bargining sarg‘ayishi, mevalarning pishishi).

Qaysi bir o‘simlikda xloroplast bo‘lsa bunday o‘simliklar autotrof o‘simliklarga kiradi. Xloroplasti bo‘lmagan o‘simliklarni geterotrof o‘simliklarga kiritiladi.

Ko‘pgina (hammasida emas) gulli o‘simliklarda tilakoidlar hosil bo‘lishi oxirgi bosqichi yorug‘likka bog‘liq. Bu o‘simliklarning plastidlari yorug‘lik yetishmaganda **etioplastlarga** aylanadi, u xloroplastlar biogenezing spetsifik shakli. Etioplastlarda tilakoid membranalari komponentlari yoki ularning davomchilari **prolomellar** tana shaklida yig‘iladi.

Nazorat savollari:

1. Botanika fani qanday bo‘limlardan iborat?
2. Botanika fanining rivojlanish tarixi qanday?
3. Farmatsevtikada botanika fanining o‘rni qanday?
4. Hujayra qanday tuzilishga ega?
5. Sitoplazmada qanday organoidlar uchraydi?
6. O‘simlik hujayrasida qanday vitaminlar uchraydi?
7. Hujayrada qanday fermentlar uchraydi?
8. Yadroning tuzilishi va uning vazifasi?
9. Hujayra qanday usullarda bo‘linadi?
10. Plastidalar qanday organoidlar va ularning shakllari, hamda rangiga qarab necha guruhga bo‘linadi?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

- П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
- Яковлев Г. П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001. -230 с.
- Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
- Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova Sh. O'simliklar sistemikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
- Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elektron darslik.-T.: 2008.
- Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –14 p.
- V. Ch. Evans. Farmakognoziya. – Xalqaronashr: Edinburg, London, Nyu– York, Philadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
- Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
- Василев А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
- Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forschacha-tojikcha lug'ati. -T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
- Березовская Т.П., Дмитрук С.Е., Гришина Е.И., Белоусов М.В. Основы фармацевтической ботаники. – Томск: Печатная мануфактура, 2004. - 294 с.
- Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Ma'ruza – 2

Hujayradagi oziqli moddalar.Kristallar. O'simlik to'qimalari. Hosil qiluvchi va qoplovchi to'qimalar

Reja:

- Hujayradagi oziqli moddalar, ularni aniqlash reaksiyalari.
- Vakuolalar, hujayra shirasi.
- Hujayra shirasidagi zaharli moddalar.
- Hujayra pigmentlari.
- Kristallar, ularning ahamiyati.
- Hujayra po'sti.
- To'qima tasnifi.
- To'qimalarning kelib chiqishi va bajaradigan vazifalariga qarab xillari.
- Hosil qiluvchi to'qima. Birlamchi meristema va ikkilamchi meristema.
- Hujayraning ko'payishi: kariokinez bo'linish, reduksion bo'linish.
- Qoplovchi to'qima, epidermis.
- Ikkilamchi qoplovchi to'qima – periderma.
- Uchlamchi qoplovchi to'qima (qobiq).

Tayanch iboralar: *o'simlik hujayrasining tuzilishi, undagi plastidlar. Hujayradagi oziqli moddalar, ularni aniqlash reaksiyalari. Strukturali va zahiradagi polisaxaridlar, lipidlar. Kristallar va ularning ahamiyati haqida tushuncha beriladi. O'simlik to'qimalari, ularning klassifikatsiyasi. Hosil qiluvchi apikal, lateral va interkolyar meristemalar. Qoplovchi to'qimalar hamda ularning vazifalari haqida tushuncha berish.*

HUJAYRADA UCHRAYDIGAN MODDALAR

Hujayrada uchraydigan moddalarni hujayraning protoplasti ishlab chiqaradi. Hujayrada zapas oziq moddalar va qisman chiqindi moddalar uchraydi. Hujayradagi zapas oziq moddalarga uglevodlar, yog'lar va oqsillar kiradi.

Polisaxaridlar

Nuklein kislotalar va oqsillar bilan bir qatorda polisaxaridlar eng muhim biopolimerlarning uchinchi katta guruhini tashkil etadi. **Polisaxaridlar (glikanlar)monosaxaridlarning** bog'lanishi sababli, aynan esa **geksoz** yoki **pentozlarning** tarmoqlanmagan yoki tarmoqlangan zanjirlarga - makromolekulalarga bog'lanishidan tashkil topadi. Qurilish bloklari - monomerlarning faqat bitta navidan tashkil topuvchi polisaxaridlar **gomoklikanlar** deb ataladi, monomerlarning ikkita yoki ko'p navlaridan tashkil topganlari **geteroglikanlar** deb ataladi. **Tarkibiy polisaxaridlar** hujayralar tashqarisida joylashadi. Ular hujayrali o'simliklarning to'qima devorlari tuzilishida ishtirok etadi. Hujayralarning ichida ham, tashqarisida ham modda va energiya rezervi bo'lib xizmat qiluvchi **zaxira polisaxaridlar** to'planadi.

Zahira va tarkibiy polisaxaridlar

Polisaxaridlar (6.17.1 ga qarang) o'simliklarga **tarkib tashkil etuvchi moddalar** (tarkibiy polisaxaridlar) sifatida xizmat qiladi va unda hujayradan tashqarida joylashgan, yohud o'simliklar tomonidan **rezerv moddalar** (zaxira polisaxaridlar) sifatida foydalaniladi, ya'ni tiklangan uglerod to'plovchilari hisoblanadi. Zaxira polisaxaridlar asosan hujayralar ichida to'planadi; to'g'ri, mevalarda va urug'larda ayrim paytlarda shilliq moddalar shaklida hujayradan tashqari zaxira uglevodlar uchraydi. Polisaxaridlar ularni tashkil etuvchi monomerlar turi bo'yicha guruhlariga bo'linadi. **Glyukanlar** yoki faqat (gomoglikanlar) yoki asosan (geteroklikanlar) glyukozadan tashkil topadi, **fruktanlar** tegishli tarzda fruktozadan, galaktanlar **galaktozadan** tashkil topadi va hokazo. Agar ikkita monosaxarid taxminan teng (taqqoslanadigan) nisbatlarda mavjud bo'lsa, bu nomda aks etadi.

Kraxmal birinchi marotaba assimilyatsiya protsessi natijasida xlorofill donachalari ichida hosil bo'ladi. Xlorofill donachalari ichida hosil bo'lgan kraxmalni **birlamchi yoki assimilyatsion kraxmal** deyiladi. Birlamchi kraxmal xlorofill donachalari ichida uzoq muddat saqlanmaydi. Kraxmalning bir qismi nafas olishga sarf bo'ladi, bir qismi o'simlikni boshqa organlariga o'tadi, yana bir qismi shakarga aylanadi. O'simlik organlariga tarqaluvchi kraxmalni tranzitor kraxmal deyiladi. Zapas oziq modda sifatida to'planadigan kraxmalni zapas kraxmal yoki ikkilamchi kraxmal deb yuritiladi.

Kraxmal zapas oziq modda sifatida o'simlik urug'larida va erosti qismlarida to'planadi. Masalan, bug'doyda 54-75%, guruchda 62-86%, dukkakli o'simliklarda 33-43%, jo'xorida 57-72%, kartoshka tugunagida 12-24% bo'ladi. Zapas ya'ni ikkilamchi kraxmal leykoplastda hosil bo'ladi.

Kraxmal rangsiz, tuxumsimon, yumaloq, ko'p qirrali yoki tayoqcha shaklida bo'ladi. Jo'xori va guruchning kraxmali ko'p qirrali, kartoshka kraxmali yumaloq, suv o'ti o'simligining kraxmali tayoqchasimon. Kraxmalning o'rtacha hisobda kattaligi 2- 2.75 mk bo'ladi. Kraxmal donachasi tuzilishiga qarab 2 xil bo'ladi:


- Ekssentrik kraxmal
- Konsentrik kraxmal.

Ekssentrik kraxmalning tuzilishida yadrosi chetga joylashgan, konsentrik kraxmalning tuzilishida esa yadrosi markazda joylashgan bo'ladi. Ekssentrik kraxmalga misol qilib kartoshka kraxmalini olish mumkin.

Kraxmal organik birikma bo'lib, u karbon suvlarning uchinchi gruppasiga, ya'ni polisaxaridlarga kiradi. Kraxmal tarkibida biroz suv, fosfor kislotasi ham bo'ladi. Kraxmal

suvda erimaydi. 70-75 li suvda bo'kib yoriladi. Natijada kleyster hosil bo'ladi. Zavodlarda kraxmalni kuchsiz kislotada eritib ishlatiladi.

O'simlik hujayrasidagi kraxmal diastaza deb ataladigan ferment ta'sirida shakarga aylanadi. Kraxmalni shakarga aylanishida bir molekula suv talab etiladi:



Kraxmal lyugol eritmasida (KJ + J₂ + H₂O) binafsha rangga bo'yaladi.

Kraxmal oddiy, yarim murakkab va murakkab bo'ladi. Oddiy kraxmallar tuzilishida yadrosi bitta, murakkab kraxmalda esa tuzilish yadrosi ko'p bo'ladi. Yarim murakkab kraxmalda bir nechta kraxmal donachalari bir-biri bilan qo'shilib ketgan bo'ladi.

Yarim murakkab kraxmalni kartoshka tugunagida, murakkab kraxmalni esa sulida ko'rish mumkin. O'simlikda zapas oziq modda sifatida oqsil uchraydi. Masalan, kartoshkada 2 %, no'xatda 22 %, soyada 40 %, jo'xorida 10%, bug'doyda 20%, bedada 5%, lavlagida 1%, zamburug'da 53% gacha uchraydi. Oqsil modda hujayraning sitoplazmasida, vakuolasida va aleyron donachasi ichida uchraydi. Aleyron donasining kattaligi 1 mk-55mk gacha bo'ladi. Aleyron donalari o'zining yupqa pardasi bilan ajralib turadi, o'simliklarda, masalan, kanakunjut urug'ida aleyron donachalarining ichida kristallar bor.

Oqsillar

Oqsillar, turli xillari ham (ayrim paytlarda ularni proteinlar deb ham atashadi, grekcha protos – birinchi) barcha hujayralarda bo'ladi. Ularning ko'plari **fermentlar** hisoblanadi, ular metabolizmni (moddalar almashinuvini) spetsifik biokatalizatorlar sifatida amalga oshiradi (6.1.6 ga qarang) yoki yangi paydo bo'lgan oqsil molekulalarining uchlanchi va to'rtlamchi tarkiblarga o'ralishi katalizatorlar bo'lib xizmat qiladi. Bu oqsil yordamchilarni ikki sinfga bo'lishadi – **shaperonlar** va **shaperoninlar** (fransuzcha chaperon – sherik) **Zaxira oqsillar** urug'larda hamda vegetativ zaxiralovchi organlarda ko'p miqdorlarda to'planadi, shuningdek hujayralarning ko'p turlarida kamroq to'planadi. Proteoliz tufayli zaxira oqsillardan yangi boshqa oqsillar sintezi uchun zarur aminokislotalar ajralib chiqadi.

Oqsilni aniqlaydigan reaksiyalar:

- *Raspaylya reaksiyasi*
Oqsil + C₁₂H₂₂O₁₁ + H₂O₄ ----- oqsil pushti rangga bo'yaladi.
- *Ksantoprotein reaksiyasi:*
Oqsil + HNO₃ + H₂ ----- oqsil qizil rangga bo'yaladi.
- Oqsil + *lyugol eritmasi* ta'sirida **tilla sariq rangga** bo'yaladi.

YOG'. O'simlik hujayrasida zapas oziq modda sifatida yog' ham uchraydi. Masalan, no'xatda 3%, bug'doyda 1.5%, jo'xori 7%, zig'irda 34%, ko'knorida 40%, nashada 33%, oshqovoqda 50%, kungaboqarda 53% gacha bo'ladi.

Yog' ham karbon suvga o'xshash C, O, H lardan tuzilgan. Yog' tarkibida glitserin va yog' kislotalari uchraydi. Yog' karbon suvlariga nisbatan energiya ko'proq beradi. 1 gr karbon suv 4.2 kkal energiya bersa, 1 g yog' 9.3 kkal energiya beradi. Yog' suvda erimaydi, efirda, benzinda va boshqa erituvchilarda eriydi. Yog' ishqor ta'sirida sovunga aylanadi. Yog' glitserin va organik kislotalarga parchalanadi.

Yog' tirik hujayrada *lipaza* deb ataladigan ferment ta'sirida eriydi. Yog' **alkanin** deb ataladigan **reaktiv** ta'sirida **qizil rangga** bo'yaladi. Sudan III eritmasi ta'sirida (biroz qizdirilgandan so'ng) pushti rangga bo'yaladi.

O'simlikda uchraydigan yog'lar 2 xil bo'ladi:

1. Iz qoldiradigan.

2. Iz qoldirmaydigan yog‘ – efir moylar.

Efir moylar tarkibida kislorodning miqdori juda oz bo‘ladi. Ba’zida esa kislorod bo‘lmaydi, uning o‘rnida S uchraydi, efir moylar limon, geran, lavanda, kashnich, arpabodiyon, yalpiz va boshqa o‘simliklarda uchrashi mumkin. Efir moylar o‘simliklarda xushbo‘y xidga ega bo‘ladi. Masalan, sarimsoq (chesnok) efir moyi. Sarimsoq yoqimsiz hidga ega bo‘lsa ham foydali hisoblanadi.

Zaxira lipidlar

Moddalar almashinuvi uchun energiya va uglerodning oraliq deposi bo‘lib xizmat qiluvchi **zaxira lipidlar** sifatida noqutbiy va shu sababli suvda erimaydigan **triatsilglitserinlar** uchraydi (=trigiletsiridlar). Agar ular xona haroratida qattiq bo‘lsa, **yog‘lar** to‘g‘risida gapirishadi, suyuq bo‘lsa, **moylar** to‘g‘risida gapiriladi. Triatsilglitsiril uchta gidroksil guruhlari yog‘li kislotalar bilan efir aloqalar tashkil etgan glitserindan tashkil topadi. Yog‘li kislotalar bir xil bo‘lishi mumkin, lekin odatda ma’lum bir farqlari bor. Zaxira lipidlarda to‘yintirilgan yog‘li kislotalar (palmitin va stearin) hamda to‘yintirilmagan (olein, linol va linolen) kislotalar uchraydi.

O‘simlik hujayrasida chiqindi modda sifatida har xil kristallar uchraydi. Kristallar asosan C_2O_4 , $CaCO_3$, $CaSO_4$, SO_2 dan tashkil topgan. Kristallar faqat butguldoshlar oilasiga kiradigan o‘simliklarda uchramaydi. Masalan, karam, rediska, sholg‘om, turp va boshqalar. Boshqa oilaga kiradigan o‘simliklarda esa kristallar uchraydi. Kristal tuzilishi jihatidan bir necha xil bo‘ladi:

1. **Yakka kristallar.** Bu kristallar kub, rombik, prizma va boshqa shakllarda uchraydi. Yakka kristallarni piyozning ustki po‘stida, mingdevona o‘simligida ko‘rish mumkin. Kristallarning shakli yulduzsimon bo‘lsa **druz** deyiladi. Druzlarni lipa daraxti poyasining po‘stloq qismida, bangidevona o‘simligi bargida, g‘o‘za bargida ko‘rish mumkin. Kristallning shakllari ninasimon bo‘lsa **rafid** deyiladi. Rafidlarni marvaridgul o‘simligi bargida, kovrak, ungerniya o‘simligining piyoz po‘stida ko‘rish mumkin. Ba’zan kristallar **qumga** o‘xshash bo‘ladi. Bularning esa krasavka o‘simligi bargida qumga to‘la xalta hujayrani ko‘rish mumkin.

VAKUOLALAR VA HUYAYRA SHIRASI

Hujayraning shirasi vakuolalarida joylashgan. “Vakuc” - bo‘shliq ma’nosini bildiradi. Bir necha yosh hujayralarda vakuslar bo‘lmaydi. Bo‘linishdan to‘xtab o‘sa boshlagan hujayralarda vakuslar vujudga keladi. Hujayraning yoshlik vaqtida vakuslari ko‘p mayda bo‘ladi. Hujayra qarigach mayday vakuslar bir-biri bilan birlashib katta vakuslarni vujudga keltiradi. Bu katta vakuslar hujayraning markaz qismiga joylashib oladi. Hujayradagi protoplazma va yadrolar esa hujayraning chet qismiga chiqib oladi. Vakuolada suvda erigan moddalar to‘planadi. Bo‘linib o‘sa boshlagan hujayralarda vakuola yumaloq va cho‘ziq shaklda uchraydi. Bu vaqtda vakuolalar tarkibida erigan moddalari bo‘lgan suv va gel holatda kolloid bilan to‘lgan bo‘ladi. Keyinchalik vakuolalar yiriklashib shira bilan to‘ladi va hujayra markazini egallab hujayraning 70-90% qismini tashkil etadi. Vakuoladagi shira protoplast ishlab chiqargan moddalar, ya’ni tonoplast (vakuola membranasi) tanlab o‘tkazgan suyuqlikdir. Vakuoladagi suyuqlik **hujayra shirasi** deyilib, 2-5 pH ga teng bo‘ladi, u turli organik va anorganik moddalarning turli miqdordagi eritmasidir. Vakuolani ximiyaviy tarkibi protoplazmaning ximiyaviy tarkibidan farq qiladi.

Vakuolalarda uchraydigan oziq moddalar azotli yoki azotsiz bo‘ladi. Azotli moddalardan tuzilgan albumin, sho‘r suvda eriydigan globulin oqsillari ham olinadi.

Hujayra shirasida karbon suvlaridan glyukoza, fruktoza, saxaroza, inulin uchraydi. Inulin polisaxaridlarga kiradi ($C_6H_{10}O_5$)_n. Inulin qoqio‘t o‘simligining ildizida uchraydi. Inulin suvda eriydi. Saxaroza, glyukozaga nisbatan 1.5 marta, fruktoza glyukozaga nisbatan 2.5 marta shirinroq. Glyukoza lavlagida 26 %, shakarqamishda 20%.

Ba'zi bir o'simliklarning hujayra shirasida organik kislotalar uchraydi. Masalan, otquloq o'simligida shavel kislota, olmada olma kislotasi, limonda limon kislotasi, tamaki bargida nikotin kislotasi bor. Antonovka olmasida – 0.5%, uzumda 0.3%, limonda 9%, moxorkada 8-10% nikotin kislotasi bor. Ba'zi o'simliklarda organik kislotalar juda kam bo'ladi yoki bo'lmaydi. Ularning reaksiyasi neytral yoki ishqoriy bo'ladi. Masalan, bodring, qovoqda.

Ba'zi o'simliklarning hujayra shirasida oshlovchi modda uchraydi. Oshlovchi moddalar meditsinada oshqozon-ichak kasalliklarida burishtiruvchi modda sifatida ishlatiladi. Og'iz va tomoq shilliq qavatlar yallig'langanda, milkdan qon oqqanda, og'iz va tamoqni chayish uchun ham ishlatiladi. Oshlovchi moddalar eman daraxti po'stlog'ida 10-20% , tol po'stlog'ida 9-13%, choyda 15-20%, evkalipt galasida 30-40% gacha oshlovchi moddalar uchraydi.

Oshlovchi moddalar $FeCl_3$ eritmasi ta'sirida to'q ko'k rangdan qora ranggacha bo'yaladi, ba'zi bir o'simliklarning hujayra shirasida zaharli moddalar uchraydi. Zaharli moddalar 2 ga bo'linadi:

- Alkaloidlar.
- Glikozidlar.

Bu har ikkala moddalar murakkab tuzilgan organik moddalar bo'lib alkaloidlar tarkibida azot bo'ladi, glikozidlar tarkibida esa azot bo'lmaydi. Ko'knori o'simligining mevasidan (pichoq bilan tilgandan so'ng) oqib chiqqan shirani opiy deb yuritiladi. Opiyning tarkibida 26 xil alkaloidlar bor. Asosiy alkaloidlari morfin, kodein, papaverin, heroin va boshqalar. Mingdevona o'simligi tarkibida giossiamin, atropin va skopolamin, bangidevona o'simligida ham mingdevonada uchraydigan alkaloidlar uchraydi. Xin daraxti po'stlog'ida xinin, sinxonin, sinxonidin deb ataladigan alkaloidlar uchraydi. Xin daraxti tropik mamlakatlarda o'sadi, tamaki o'simligida nikotin alkaloidi uchraydi. Choy, kofein, teofellin, teobromin alkaloidlari uchraydi.


Glikozidlar saqlaydigan o'simliklarga misollar: angishvonagul tarkibida digitoksin, gitoksin. Marvaridgulda kavallatoksin, kanvalletoksol, kanval-lozid, adonis-mushuko't simarin, adonitoksin deb atalgan yurak glikozidlari uchraydi.

Ra'noguldoshlar, g'alladoshlar oilasiga kiradigan o'simliklarda alkaloidlar bo'lmaydi. Hujayra vakuolasida o'simliklarga har xil rang beruvchi pigmentlar bor. Bular asosan ikki gruppaga bo'linadi.

- Antotsian
- Antoxlor.

Antotsian o'simliklarning hujayra shirasini ranggiga qarab nordonlik berib turadi. Hujayra shirasi nordon bo'lsa, o'simliklarga qizil rang berib turadi. Ishqor reaksiyasida ko'k rang beradi, neytral reaksiyada binafsha rang beradi. Antotsian o'simliklarni sovuqdan, quyoshning issiq nuridan saqlab turadi.

Antoxlor o'simliklarga faqat sariq rang berib turadi. Masalan, kartoshkagul, tirnoqgul. O'simlik hujayrasining vakuolasida vitaminlar bo'ladi. Organizmda vitaminlar etishmasligi sababli avitaminoz kasalligi kelib chiqadi. Vitamin A etishmasa (shapko'r), vitamin C etishmasa singa, vitamin D etishmasa raxit kasalliklari kelib chiqadi. Vitaminlardan vakuolalarda faqat B, C, D lar uchraydi. Chunki bu vitaminlar suvda eriydi, qolgan vitaminlar suvda erimaydi. Suvda erimaydigan vitaminlar esa hujayraning protoplazmasida uchraydi. Vitaminlar asosan sabzavot o'simliklarda va g'alladoshlarda uchraydi. Achchiq danakli bodomning hujayra vakuolasida amigdalin glikozidi bor.



Rasm 1. Kalsiy oksalat kristallari turli shakli(A-D – D von Denffer bo'yicha) A, B rafidlar (ninasimon kristallar, monogidratlar to'plami); Impatiens, ko'ndalang va uzunasiga kesma (200x); C-druz, monogidrat (Opuntia , 200x); D – tetragonal bittali kristall – hujayra epidermisida Vanilla (digidrat,150x); E - qurigan (bigizsimon tuzilish) Allium cepa qizil piyoz jigarrang po'stida oksalat stiloidlari (digidrat, qorong'u fonda 65x tasvir).

HUJAYRA PO'STI

Hujayra po'sti hujayraga shakl beradi va ikkinchi bir hujayradan ajratib turadi. Hujayra po'stini hujayraning tirik qismi bo'lgan protoplast ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham hujayra po'sti ichki tomondan o'sib qalinlashadi.

Tabiatda uchraydigan tuban o'simliklardan xivchinlilar, zamburug'larning sodda tuzilgan vakillari va ayrim suv o'tlarda hujayra po'sti bo'lmaydi. Bunday hujayralarning protoplasti tashqi tomondan yupqa elastic qatlam – plazmatika pardasi bilan chegaralanadi. Hujayra po'sti protoplastning hayotiy jarayonida hosil bo'ladi. Hujayra po'sti juda pishiq bo'lsa ham hujayraning o'sishiga va cho'zilishiga xalaqit bermaydi. Chunki ularning tuzilishi va ximiyaviy tarkibi shunga moslashgan.

O'simlik hujayra po'sti, ayniqsa yosh hujayralarning po'sti selluloza (kletchatka) deb ataladigan organik moddadan tashkil topgan. Kletchatka (selluloza) karbon suvlarining uchinchi gruppasiga kiruvchi polisaxaridlardan tashkil topgan. Formulasi $(C_6H_{10}O_5)_n$. Sellyuloza suvda erimaydi, bo'kadi va shishadi. Sellyuloza sitoza deb atalgan ferment ta'sirida shakarga aylanadi. Sellyulozaga misol qilib paxtani olish mumkin. Paxtaning 90% i sellulozadan tashkil topgan. Sellyulozadan qog'oz, portlovchi moddalar, sun'iy shoyi, kinoplyonka, sinmaydigan oyna va boshqalar olinadi. Ba'zi bir o'simliklarning hujayra po'stida yarim kletchatka bo'ladi. Gemisellyuloza ham karbon suvlariga kiradi. Gemisellyulozani zapas oziq modda sifatida piyozda, kofe urug'ida uchratish mumkin. Urug'larning unib chiqish davrida selluloza va gemisellyuloza oziq modda sifatida embrionning o'sib chiqishiga sarf bo'ladi. Ba'zi bir o'simliklarning hujayra po'stida pektin deb ataladigan modda bo'ladi. Pektin zapas oziq modda sifatida olmada, qovunda, lavlagi ildiz mevasida bo'ladi.

Hujayraning po'sti o'z hayotida bir qancha o'zgarishlarga uchraydi. Ba'zi bir o'simliklarning hujayra po'sti probkalanadi, ba'zi birlari shilimshiqlanadi, ba'zi birlari esa mineral moddalar bilan to'yinadi.

Agar hujayra po'sti *lignin* deb ataladigan modda bilan to'yinsa hujayra po'sti yog'ochlanadi. Yog'ochlangan hujayra o'zidan suvni va havoni yaxshi o'tkazmaydi. Shuning uchun ham yog'ochlangan hujayra o'lik bo'ladi. O'tkazuvchi to'qimaning suv naylari, traxeidlari, mexanik to'qima hujayralari lignin moddasi bilan sug'orilgan bo'ladi. Suv naylari

orqali suv erigan xoldagi mineral moddalar pastdan yuqoriga, ya'ni ildizdan poyaga, poya orqali bargga boradi, mexanik to'qimalar esa o'simlikka qattqlik berib turadi. Demak, o'simlik hujayrasi o'lik bo'lsa ham har xil vazifalarni bajarib turadi. Lignin tarkibida karbonning miqdori kletchatkaga nisbatan yuqori bo'ladi. Masalan, kletchatkada 44% karbon suvi bo'lsa, ligninda esa 60% bo'ladi. Shuning uchun ham lignin yoquv ashyosidir. Kletchatkaga nisbatan lignin qizil rangga kiradi. Floroglyutsin eritmasi va konsentrlangan xlorid kislota ta'sir ettirilsa lignin qizil rangga bo'yaladi. **Lignin safranin deb ataladigan bo'yoqda qizil rangga bo'yaladi.**

Kletchatka xlor zink-yod eritmasi ta'sirida xiraroq binafsha rangga bo'yaladi. O'simliklarning ba'zi hujayralari *suberin* deb ataladigan modda bilan sug'orilib probkalanadi. Probkalanagan hujayra o'zidan suvni va havoni mutlaqo o'tkazmaydi. Bu hujayraning ichi havo bilan to'lgan bo'ladi. Probkalanagan hujayra o'simliklarning tashqi qismida bo'ladi. Masalan, kartoshka tugunagining ustki qismida, daraxtlarning poyasi va shoxlarida.

Probka (po'kak) asosan eman daraxtidan olinadi. Boshqa o'simliklarda esa hujayrada suberinning miqdori kam bo'ladi. Probka olinadigan eman daraxti Qrim va Kavkazda uchraydi.

Probka o'simliklarning tashqi sharoitlaridan, ya'ni issiqdan, sovuqdan va mikroorganizmlardan saqlab turadi. Probka samolyotsozlikda, muzlatgichlar ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda keng miqyosda ishlatiladi. Chunki, probka issiqlikni o'tkazmaydi. **Suberin moddasi Sudan-3 eritmasi ta'sirida pushti rangga bo'yaladi.** Ba'zi bir o'simliklarning hujayra po'sti, ayniqsa o't o'simliklarning hujayra po'sti **kutin** drb ataladigan yog'simon modda bilan qoplangan. Kutin moddasini hujayraning protoplasti ishlab chiqaradi. Kutin ham o'zidan suvni va havoni o'tkazmaydi. Kutin bargning tashqi tomonidan qoplagan bo'lib kutikula qavati qalin bo'ladi. O'rta iqlimda yashaydigan o'simliklarda esa kutikula qavati yupqa bo'ladi. Ba'zi bir o'simliklarni qurg'oqchilikdan saqlaydi. Shilimshiq modda ayniqsa suv o'tlarida bo'ladi. Gullaydigan o'simliklardan bexi va zig'irning urug'ida ham shilimshiq moddalar bor.

Ba'zi bir o'simliklarning hujayra po'sti **xitin** moddasi bilan sug'orilgan. Xitin bu azotli birikma bo'lib, **zamburug'larning va bakteriyalarining po'stida bo'ladi.** Formulasi $C_{18}H_{13}O_5$. Xitin moddasi yod ishtirokida qo'ng'ir rangga bo'yaladi. Ba'zi bir o'simliklarning hujayra po'sti mineral moddalar bilan sug'orilgan bo'ladi.

Mineral moddalar bilan sug'orilgan o'simliklarga misol qilib, diatom suv o'tlari va kiyiko't, qirqbo'g'im o'simliklarida ko'rish mumkin. Ba'zi bir o'simliklarning, ayniqsa daraxtlarning poyasidan shilimshiq modda oqib chiqadi. Bu modda tashqariga chiqqandan so'ng qotib qoladi. Qotib qolgan moddani elim deyiladi. O'rik elimi farmatsevtika praktikasida emulsiya tayyorlashda ishlatiladi.

Hujayra po'sti ichki tomondan qalinlashadi. Uning ichida qalinlashib qolgan joyi ham bo'ladi. Bu qalinlashib qolgan joyini teshik deyiladi. Hujayralar bir – birlari bilan shu teshiklar orqali aloqada bo'ladi. Ya'ni shu teshiklar orqali bir-birlariga oziq moddalar o'tib turadi. Bu teshiklardan plazma iplari o'tgan bo'ladi.

Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hujayra tarkibi va po'sti murakkab organik va anorganik birikmalardan tashkil topgan. Shu bilan birga o'simliklar va hayvon hujayrasi bir-biridan farq qiladi, shu bilan birga o'simlik organlaridagi hujayralar ham bir-biriga o'xshamaydi. Bu haqda to'qimalar mavzusida batafsil to'xtalamiz.

O'sish va differensirovka

O'simlik hujayra devorining rivojlanishi hujayra o'rta plastinkasini hosil qilib bo'linishidan boshlanadi, bu Goldji pufakchalari fragmoplastga qo'shilish yo'li bilan amalga oshadi. Hujayra plastinkasi faqat matriks moddalari (hujayra devorining asosi) ya'ni pektinlardan, kam qismi esa oqsillardan tuzilgan. U keyinchalik o'rta plastinka sifatida saqlanadi, shunday ekan hujayra devori asosan uch qavatli. **O'rta plastinka** fibrilyar skelet saqlamaydi, u juda tez parchalanadi. To'qima uni

tashkil qiladigan hujayra qismlariga ajraladi (**matserasiya** sodir bo'ladi; lotincha macerare – yumshoq bo'lish, ilvirash; mashhur misol olma mevasi to'qimasi pishayotganda yumshoqlashadi).

Hujayra bo'linishidan keyin har bir qiz hujayrada yangi hujayra devorlari qavati hosil bo'la boshlaydi. Buning hisobiga plastid birlamchi devor hosil bo'ladi. Ular uzoq muddatli embrional va tezroq postembrional hujayra o'sishda, turgor tasirida cho'zilib ishtirok etadi. Bu yerda biz haqiqiy o'sish bilan to'qnashamiz, chunki birlamchi devor qavatlarini yig'lishi hisobiga qalinlashadi va quruq massa kattalashadi. Hujayralar fiziologiyasidan bilamizki hujayra o'sishi hisobiga faqatgina turgor emas, hujayra devori egiluvchanligi ham oshadi, hamda yangi material sintezlanadi, avvolambor matriks moddalari. Skelet fibrillari ham kattalashadi, birlamchi devorda ular quruq massaning $\frac{1}{4}$ tashkil qiladi. Skelet fibrillari (ko'pchilik yashil suvo'tlarida va selluozali yuqori o'simliklarda bo'ladi) egiluvchan, lekin mustahkam. Xullas, hujayra o'zi-o'zini korsetga bog'laydi, avval elastik, keyin plastik cho'zilmaydigan. Birlamchi hujayra devori holati stabillashadi, u hujayra o'lguncha saqlanadi. Hujayra devori stabil holati sakkoderma (grek.sakkos – kiyim, derma – teri) deb ataladi.

Shakli jixatdan o'xshash bo'lib, ma'lum bir yoki bir necha vazifani bajaradigan hujayralar gruppasiga (to'plamiga) **to'qima** deyiladi. To'qimalar ularni hosil qilgan hujayralarning shakliga qarab parenxima hujayralaridan tashkil topgan parenximatik to'qimalar va prozenxima hujayralaridan tashkil topgan prozenximatik to'qimalarga bo'linadi.

Po'stlari bir-biriga zich taqalgan hujayralardan iborat to'qima zich to'qima deyiladi, hujayra orqali yaxshi taraqqiy etgan to'qima g'ovak to'qima deyiladi. To'qima hosil qiluvchi hujayralar po'stlarining kimyoviy tarkibiga qarab yog'ochlashgan, po'kaklashgan va x.k. deb ta'riflanadi. Hujayra po'stlarining qalinligiga qarab qalin devorli yoki yupqa devorli to'qima deyiladi. Bulardan tashqari tirik va o'lik hujayralardan tuzilgan to'qimalar mavjud. To'qimalar kelib chiqishi jixatidan 2 gruppaga: 1) embrional va 2) Doimiy to'qimalarga bo'linadi: ular birlamchi va ikkilamchi bo'ladi. Embrional to'qima o'zida boshqa hujayralari bo'linib yana yangi hujayralarni hosil qiladi.

Rus botaniklari akademik Borodin, Paladinlar, professor Ivanov, Aleksandrov va Rozdorskiylar to'qimalarning bajaradigan vazifalariga binoan, ya'ni fiziologik xususiyatiga asoslanib to'qimalarni 5 gruppaga bo'lishdi.

1. Embrional (tuzuvchi, tashkil etuvchi, yaratuvchi meristema).
2. Qoplovchi to'qima (pokrovnaya tkan)
3. Mexanik to'qima (mexanicheskaya tkan)
4. O'tkazuvchi to'qima (provodyashaya tkan)
5. Asosiy negiz to'qima (osnovnaya tkan).
6. Hosil qiluvchi to'qimalar (obrazovatel'naya tkan).

Hosil qiluvchi to'qimalar

O'simliklarning o'suvchi qismlarida bitta yoki bir nechta initsial hujayralar bo'ladi. Masalan: qirqbo'g'im, qirqquloq poyasining uchida bitta initsial hujayra, gulli o'simliklar ildizining, poyasining uchida bir nechta initsial ya'ni boshlang'ich hujayra bo'ladi. Initsial hujayralarning bo'linib ko'payib turishi natijasida «birlamchi meristema» paydo bo'ladi. Birlamchi meristemaning hujayralari kariokinez yo'lida bo'linib ko'payib uch xil qavat hujayralarni paydo qiladi.

1. Tashqi qavat - dermatogen
2. O'rta qavat - periblema
3. Ichki qavat - pleroma

Dermatogen qatlami hujayralarning antiklinal, ya'ni o'sish konusi yuzasiga nisbatan perpendikulyar bo'linishi natijasida keyinchalik ildizning birlamchi qoplovchi to'qimasi kelib chiqadi.

Periblema qavati bir necha kator hujayralardan iborat bo'lib, uning hujayralari periklinal, ya'ni o'sish konusi yuzasiga nisbatan parallel bo'linadi va ulardan asosiy to'qima hosil bo'ladi.

Pleroma hujayralari turli yo'nalishda bo'linish xususiyatiga ega bo'lib, ulardan ildizning mexanik va o'tkazuvchi to'qimalari hosil bo'ladi. Poyaning o'sish konusi biri ikkinchisini yopib turuvchi mayda barglar bilan o'ralgan. Ular poyaning uchki qismi bilan birgalikda kurtak hosil qiladi.

Poyaning o'sish konusida odatda 2 turdagi hujayralar guruxi ajratiladi: tashki qavat (tunika) va ichki (korpus). Tunika hujayralari dermatogen hujayralariga o'xshash xususiyatiga ega va ulardan poyaning epidermasi hosil bo'ladi. Korpus qavati hujayralari turli yo'nalishda bo'linishi sababli ulardan poyaning birlamchi tuzilishiga xos bo'lgan barcha to'qimalari kelib chiqadi.

BIRLAMCHI MERISTEMA

Kelib chiqishga ko'ra hosil qiluvchi to'qimalar va ikkilamchi to'qimalarga bo'linadi. Birlamchi meristema urug' murtagida, poya, ildiz va ularning uchlarida yon poyalarda hamda kurtaklarda joylashib, yangi organlarning hosil bo'lishini, shuningdek o'simliklarning bo'yiga o'sishini ta'minlaydi. Birlamchi meristemadan paydo bo'lgan to'qimalarning hammasi birlamchi to'qima deb ataladi. Bir pallali o'simliklarning to'qimalari birlamchi to'qima. Ikki pallali o'simliklarda birlamchi va ikkilamchi to'qimalar bo'ladi.

IKKILAMCHI MERISTEMA

Ikkilamchi meristemaga boylamlar va probka kambiy yoki fellogen kiradi. Boylamlararo kambiy o'simlik organlarining eniga o'sishini ta'minlaydi, fellogen esa ikkilamchi to'qima - peridermani hosil qiladi. O'sayotgan meristema tik hujayralar po'stini tarkibida 92,5% suv, qolgan 7,5% quruq qismining tarkibida pektin, gemitsellyuloza, protein va shu kabi moddalar uchraydi. Bu hujayralarning yadrosi ham katta bo'ladi. Yadro hajmining hujayra sitoplazmasi hajmiga nisbati $3/2$ - $4/3$ ni tashkil etadi. Meristema hujayrasida ko'pincha 1 ta yadrocha bo'lib, uning tarkibida proteindan tashqari RNK, fosfolipidlar, oltingugurt, kaliy, kalsiy bor.

1. Uchki meristema (verxushechnaya - apikal meristema).
2. Yon meristema (bokovaya meristema - lateral meristema). Bunga kambiy va fellogen kiradi.
3. Oraliq meristema (vstavochnaya meristema - interkolyar meristema).


Bular g'alladoshlarni poyasidagi bo'g'im oraliq'i bo'ladi.

Uchki meristema (Apikal)

Uchki meristema vegetativ novda va gul novda hosil qiluvchi hamda ildiz uchi meristemalariga bo'linadi va ular ildiz bilan poyalarning uchida joylashadi. Bu meristema hisobiga organlar doimo bo'yiga o'sib turadi. Apikal meristemaning tuzilishi turli organlarda har xil. Masalan, endogen usulda o'sadigan ildiz apeksi barglar va yon novdalar hosil qilmaydi. Poya apeksi ekzogen usulda o'sib undan barglar va yon novdalar hosil bo'ladi. Apikal meristemada 3 xil to'qimalar:

- 1) protoderma - qoplovchi to'qima
- 2) prokambiy - o'tkazuvchi to'qima
- 3) meristema - asosiy tuqima, hosil qiluvchi gruppaga hujayralar mavjud.

Novda va ildizlar meristematik hujayralari izodiametrik va kichik bo'ladi (diametri 10-20 mkm). Ularning devorlari yupqa va selluloza kam. Barcha hujayralar bir-biriga mahkam birikib turadi, hujayralararo bo'shliqsiz. Hujayra ribosomalarga boy sitoplazma bilan to'lgan va markazida yirik yadrosi mavjud. Yirik markaziy vakuola va zaxira moddalar yo'q, plastidalarni o'rniga proplastidalar mavjud. Ko'pchilik o'simliklarda novda va ildizning apikal va birlamchi meristema majmuasi konus ko'rinishida bo'ladi (rasm.1 o'sishkonusi)



Rasm. 2. Qirqbo'g'im novdasining apeksi

(Ye. Strasburger):

A-bo'ylama kesim; **V**-yuqoridan ko'rinishi (**180x**). Apikal hujayralar devorlar bilan S',S'' segmentlarni ajratadi. Keyinchalik segmentlar yana qo'shimcha devorlarga bo'linadi; f, f', f'' - barg yaprog'i; g-yon tomon initsial hujayrasi; I- segment yon devori.

Yon meristema (Lateral meristema).

Yon meristemalarga ildiz va poyalar markaziy silindrining atrofida joylashgan perisikl, prokambiy va kambiyalar kiradi. Yon meristema kelib chiqishi jihatidan ikkilamchi meristema bo'lib, u ko'p yillik, ikki pallali o'simliklar ildizi va poyasining ksilema hamda floema qismining o'rtasida, ular yuzasiga parallel bo'lib joylashadi va u kambiy deyiladi. Yon meristema organlarning eniga o'sishini ta'minlaydi.

Oraliq meristema (Interkolyar meristema)

Bu meristema poya bo'g'im oralig'ining bazal qismida, ya'ni ostida hamda bargda hosil bo'ladi. Interkolyar o'sish keng tarqalgan u qirqbo'g'im, shuningdek, qo'ng'irboshdoshlar o'simliklarda, seldergullilar va shu kabi boshqa ikki pallali larning vakillarida bo'ladi. Interkolyar o'sish hamma poyalarda uchraydi. Ammo har xil o'simliklarda uning intensivligi va o'sish muddati turlichadir. Masalan, eryleng'och (araxic) o'simligida aktiv interkolyar meristema hujayralarining uzluksiz bo'linishi natijasida rivojlanayotgan meva tuproq ostida hosil bo'ladi. Qo'ng'irboshdoshlar (bug'doy, arpa, javdar, makkajo'xori, sholi) da interkolyar o'sish hisobiga bo'g'im oralig'i uzayadi. Ma'lum vaqtdan keyin bo'g'im oralig'ida o'sish to'xtaydi, amma uning ba'zi joylarida kichik interkolyar o'sish to'qimalari o'z faoliyatini to'xtatmaydi. Shu sababli yotib qolgan poyalar ana shu to'qimalar hisobiga yana qayta tiklanadi.

Meristema avvalo urug'ning embrionida vujudga keladi. Urug'ning unib chiqishida meristema ayrim uchastkalarga bo'linib ketadi. Bular xar bir poyaning, ildizning uchida, xar bir bargning asosiy qismida va poyalarini bo'g'im oraliqlarida joylashgan bo'ladi. Meristemaning hujayrasi yupqa va silliq parda bilan o'ralib olgan. Pardasi toza sellyulozadan tuzilgan. Bunda suberin, lignin yo'q. Hujayrasining ichi protoplazma bilan to'lgan. YAdrosi hujayraning markazida joylashgan. Vakuola va plastidlar boshlang'ich davrlardagina bo'lgan.

Ikkilamchi meristema - fellogendan ikkilamchi qoplovchi to'qima paydo bo'ladi.

Yara meristema

O'simlikning biror qismi zararlangan o'sha erda bu meristema hosil bo'lishi mumkin. Yara meristema parenxima to'qimalarning tirik hujayralaridan hosil bo'ladi. Meristema bir-biri bilan jich

joylashgan katta yadroli, po'sti yupqa (pectin va sellyulozali), ichi faqat sitoplazma to'lgan vakuolasiz, tirik hujayralar yig'indisidan tashkil topgan. Bu hujayralar intensiv bo'linishi va differensiyalanish xususiyatiga ega. Ya'ni ulardan har xil to'qimalar hosil bo'lib turadi.

Hujayraning ko'payishi

Hujayra bo'linishi natijasida bir va ko'p hujayrali organizmlarning miqdori oshib boradi. Hujayra bo'linishiga olib keladigan sabablar turlicha: 1. Yadro va sitoplazma hajmi nisbatining buzilishi sitoplazma hajmining haddan tashqari ortishiga olib keladi, bu esa yadro tomonidan sitoplazmada bo'lib turadigan hayotiy jarayonlarni boshqarishni mutloqo qiyinlashtiradi. 2. Hujayra ichidagi hosilalar shu darajada ko'payadiki, bu hajmni hujayra po'sti sig'dirolmay qoladi. 3. Turli xil stimulyatorlar ta'siri ham hujayralarning bo'linishiga olib keladi. Ana shunday ta'sir ko'rsatuvchi moddalarga marganets, kaliy tuzlari, gormonlar va boshqalar kiradi. Hujayra bo'linishidan oldin hujayrada kerakli miqdorda oqsil, nuklein kislota hamda energetik moddalar to'planadi. Natijada DNK ikki barobar ko'payadi. Yadro va hujayra asosan uch xil:

1. Oddiy yo'lda bo'linish - amitoz
2. Murakkab bo'linish - mitoz
3. Endomitoz (ba'zi xollarda)

Amitoz bo'linish

Bu bo'linishni birinchi bo'lib rus olimi N.Jeleznov 1840 yilda aniqlangan. Amitoz bo'linishining mohiyati shundaki, bunda hujayra organellalari hamda yadroning strukturaviy o'zgarishsiz hujayra qismi ikkiga bo'linadi. Bunda optik mikroskopda xromosomalarning mitoz bo'linishda bo'ladigan o'zgarishlari kuzatilmaydi. Ba'zan yadroning yadrocha va yadro po'sti erimasdan turib ikkiga bo'linadi. Axromatin iplari hosil bo'lmaydi. Ayrim vaqtlarda amitoz bo'linishda hujayra emas, faqat yadro bo'linadi va natijada ko'p yadroli hujayra yoki poliploidiya hosil bo'ladi.

Shunday qilib, amitozda yadro moddasi yangi hosil bo'gan hujayralar orasida ko'pincha tang taqsimlanmaydi hamda biologik (genetik) bir xil tenglikdagi hujayralar shakllanmaydi. Shu sababli amitoz patologik hodisa deb qaraladi, bu bo'linish ko'pincha qarigan va kasallikka duchor bo'lgan hujayralarda kuzatiladi.

Bakteriyalar hamda ba'zi suv o'tlari oddiy yo'lda bo'linib ko'payadi. Prof. Karolinskaya 1947 yil gulli o'simliklarning ham ba'zi birlari oddiy yo'lda bo'linishligini ko'rsatadi.

Buni piyozni po'stida va ba'zi bir o'simliklarning poyasida ko'rish mumkin. Hujayraning murakkab yo'lda bo'linishi o'z galida 2 ga bo'linadi.

1. Kariokinez yo'lda bo'linish.
2. Reduksion yo'lda bo'linish.

O'simliklarning vegetativ organlarining (ildiz, poya, barg) hujayralari kariokinez yo'lda ko'payadi. O'simlikning generativ organlari (gul, meva, urug') ning hujayralari reduksion yo'lda bo'linadi.

K A R I O K I N E Z (MITOZ)

Kario - yadro, kinez - o'zgarish. Hujayraning kariokinez yo'lda bo'linib ko'payishini 1874 yilda Moskva universitetining prof. Chistyakov plaun va qirqbo'g'im sporalarining rivojlanishini o'rganayotgan paytda o'simliklardagi bo'linishini kashf etgan. Keyinchalik 1875 yilda Bonn universitetining professori Strasburger bu bo'linishni batafsil o'rganib unga mitoz ("mito"- ipcha) deb nom bergan. Bu termin hozirgi vaqtda 1878 yilda Shleyxer taklif qilgan "kariokinez " termini o'rniga ishlatiladi.

Yadro bo‘linishidan so‘ng butun hujayrani bo‘linishi ro‘y beradi va yangi hujayra po‘sti vujudga keladi. Mitoz bo‘linishini mohiyati shundaki, bu bo‘linishdan so‘ng hosil bo‘lgan yangi ikki hujayralarning har qaysisida irsiy materiallar, ya‘ni xromosomalar miqdori bo‘linishga qadar bo‘lgan ona hujayra xromosomalar miqdoriga teng bo‘ladi, bu bo‘linishdan keyin hosil bo‘lgan ikki hujayrada xromosomalar miqdori kamaymaydi. Boshqacha qilib aytganda xromosomalarining xususiyati saqlanadi.

Hujayraning bo‘linishidan navbatdagi bo‘lgan davr interfaza yoki interkinez deyiladi. Interfazadan keyin esa mitoz boshlanadi. Interfazada hujayradagi xromosomalarda DNK sintezi bo‘ladi, oqsillar va energetik material to‘planadi. Bu davrda yana eng muxim vakillardan biri xromosomalarining reduplikatsiyasi, ya‘ni ular miqdorining ikki barobar oshishi kuzatiladi. Mitoz bir soatga davom etadi, metotik sikl esa 10-20 soat chamasida bo‘ladi. Hujayra kariokinez yo‘lida bo‘linib, o‘z boshidan 4 ta davrni kechiradi:

1. Profaza
2. Metofaza
3. Anafaza
4. Telofaza

Profazada yadroning xromatin moddasidan xromosoma vujudga keladi. Xromosomaning borligini 1871 yilda Moskva universitetining prof. Chistyakov topgan. Xromosomaning soni har xil o‘simlik hujayrasida har xil bo‘ladi. Xromosomaning shakli taqasimon bo‘ladi. Xromosomaning bo‘yi 20 mk, eni 3 mk. Xromosomaning soni va sifatini tashqi muhit hamda odamlar ta‘sirida o‘zgartirish mumkin. Rus olimlari xromosoma sonini o‘zgartirish bilan bahorgi bug‘doyni kuzgi bug‘doyga aylantirganlar.

(bahorgi) 28 ta xromosoma


(kuzgi) 42 ta xromosoma

Metafazada yadroning pardasi va yadrocha erib ketadi.

Xromosomalar hujayraning markaziga to‘planadi. Bu fazada xromosomalar uzunasiga har qaysisi o‘rtasidan 2 ga bo‘linadi. Demak, xromosomalarining soni 2 marta oshdi.

Anafaza xromosomalarining yarmi hujayraning bir tomoniga, ikkinchi yarmi 2 tomoniga joylashadi. Xromosomalar bir - birlari bilan axromatin iplari yordamida tortilib turadi. Demak, bu faza xromosomalar hujayralarning 2 ta qutbiga joylashadi.

Telofazada hujayraning har ikkala tomonidan 1 tadan 2 ta yadro hosil bo‘ladi. Shundan so‘ng hujayra o‘rtasidan 2 ga bo‘linadi. Natijada, «bitta ona hujayradan 2 ta qiz hujayrasi hosil bo‘ladi».



Ona hujayraning xromosomalarining soni qiz hujayralarining xromosomalar soni bilan teng bo‘ladi.

Rasm3. Mitoz va embrional hujayralarning bo'linishi (Aloe thraskii ildiz uchi)(G Schaffastein bo'yicha) **A-** interfaza , **B-D** – profaza **E-** prometafaza . **F-** metafaza; **G-** anafaza ; **H,J-** telofaza va hujayra bo'linishi (1000x) , **n** –yadro , **nl**-yadrocha ; **ch** – xromosomalar, **pl** – sitoplazma; **S** – vereteno, **k-** qutbli qalpoq ; **kr** –ekvatorial plastinka ; **t** –qiz hujayralar; **z-** fragmoplastdagi o'suvchi o'rta plastinka ; **m** – hujayra plastinkasi ; **y** – keyinchalik yangi hujayra devorining o'rta plastinkasiga aylanadi.

ENDOMITOZ


Bu bo'linish hujayraning interfaza holatida, ya'ni uning ichida ro'y beradi. Bunda hujayraning o'zi bo'linmaydi. Endomitozda xromosomalar reduplikatsiyasi (xromosomalarning ikki barobar ortishi) kuzatiladi, lekin xromosomalar hujayra qutbiga tomon ajralmaydi. Bu hodisani birinchi bo'lib, 1925 yilda K.I.Meyer kuzatgan. Endomitoz bo'linishda xromosomalar soni ortadi-yu, axromatin iplari hosil bo'lmaydi, yadrocha va yadro po'sti saqlanib qoladi. Endomitoz hujayralarda bir necha marta takrorlansa unda hosil bo'lgan yadro juda kattalashib, u ko'p miqdorli xromosomaga ega bo'ladi. Mazkur jarayon poliploidga olib keladi. Poliploidlarda xromosomalar soni gaploid yadrodagiga nisbatan uch marta ortsa triploid, to'rt marta ortsa tetraploid yadro deyiladi. Tabiatda poliploidlarni hosil bo'lishi juda katta ahamiyatga ega, chunki ular xo'jalikda ishlatiladigan qimmatbaho maxsulotlarni yaratadi, tanlash va ko'paytirishda keng ishlatiladi.

REDUKSION BO'LINISH

Hujayraning reduksion yo'lda bo'linishi 2 tipdan iborat:

1. Geterotipik
2. Gomeotipik

Reduksion bo'linishda ham yadro 4 davrni boshidan kechiradi: Reduksion bo'linishning geterotipik tipida metafazada xromosomalar 2 ga bo'linmaydi. Shuning uchun ham **geterotipik** bo'linishning oxirgi davri telofazada hosil bo'lgan qiz hujayralarda xromosomalarning soni ona hujayrasinikidan 2 marta kam bo'ladi. Hosil bo'lgan hujayra **diploid** reduksion bo'linishning **gomeotipik** tipida hosil bo'lgan qiz hujayralar yadrosi yana bo'lina boshlaydi. Bu bo'linish kariokinezga o'xshash bo'ladi, ya'ni metafazada xromosomalar o'rtasidan 2 ga bo'linadi. Bu tipda 1 ta ona hujayradan 4 ta qiz hujayra hosil bo'ladi. Bu hujayralarning **tetrada** deyiladi. Qiz hujayralarning xromosomalari soni ona hujayralarning xromosomasi sonidan 2 marta kam bo'ladi.



Rasm.4 Aloe thraski changchi hujayrasini meyozi jarayoni (1000x) (G.Schaffstein bo'yicha) A-E meyozi profaza I (A-leptotena, B-zigotena, C-paxitena, D-diplotena, E-diakinez); F-metafazi; G-anafaza I, I-interkinez, K-M-meyoz II, 4ta yadro gonlarni hosil bo'lishi

QOPLOVCHI TO‘QIMA

Qoplovchi to‘qima deganda, o‘simlik tanasini ustki tomondan qoplab turuvchi hujayralar yig‘indisi tushuniladi. O‘simlik tanasini qoplovchi to‘qimalar tuzilishi va bajaradigan vazifasiga ko‘ra har xil bo‘ladi. Qoplovchi to‘qima o‘simlikning barcha organlarini qurib qolishdan va tashqi muhitning boshqa noqulay sharoitlaridan, ya‘ni ortiqcha quyosh ta‘siridan, kuchli isib ketishdan mexanik shikastlanishdan, zararkuranda mikroorganizmlarning ichki to‘qimalarga kirishidan himoya qiladi. Ildizdagi qoplovchi to‘qimalar esa suv va unda erigan mineral moddalarni shimishda, tuproqda uchraydigan ba‘zi qattiq elementlarni eritish jarayoni hamda ildizning ichki to‘qimalarini mexanik taassurotlardan saqlaydi. Qoplovchi to‘qima kelib chiqishi va joylashishi jihatdan 3 xil bo‘ladi.

1. Birlamchi qoplovchi to‘qima - epidermis
2. Ikkilamchi qoplovchi to‘qima - periblema.
3. Quruq po‘stloq

Epidermis dermatogendan hosil bo‘ladi. Ikkilamchi qoplovchi to‘qima esa fellogendan hosil bo‘ladi.

Bir pallali o‘simliklarning hamma organlari, ikki pallali o‘simliklarning barglari va yosh novdalari epidermis bilan qoplangan, qolgan organlari esa ikkilamchi qoplovchi to‘qima bilan qoplangan.

EPIDERMIS

Epidermis bir-biri bilan zich joylashgan tirik parenxima hujayralardan tashkil topgan. O‘simlikning yosh organlarini quyosh nuri ta‘sirida qurib qolishdan saqlaydi. Barg orqali bo‘lib turadigan transpiratsiyani chegaralaydi va boshqa mexanik ta‘sirlardan ximoya qiladi. Epidermis hujayralarida hujayra oralig‘i bo‘lmaydi. Bir pallali o‘simliklarda epidermis hujayra po‘sti to‘g‘ri chiziqli, ikki pallali o‘simliklarda esa egri - bugri bo‘ladi.

Epidermis hujayralari odatda rangsiz bo‘ladi. Ba‘zi bir o‘simliklarning epidermisida, masalan, qirqquloq o‘simligida shuningdek soya va salqin erda yashaydigan o‘simliklarning epidermisida xlorofil donachalari bo‘ladi. Ba‘zi bir o‘simliklarning epidermisida antotsian deb atalgan pigment bo‘ladi. Masalan, begoniya, tradeskansiya deb atalgan o‘simliklarning ranggi qizil va binafsha bo‘ladi. Epidermis hujayralarning tashqi qisman, yon po‘sti qalinlashgan bo‘ladi. Tashqi po‘sti kutin moddasi bilan sug‘orilgan. Kutin moddadan epidermisning ustida kutikula qavati hosil bo‘ladi. Kutikula o‘zidan suvni va havoni o‘tkazmaydi. Shuning uchun epidermis o‘simliklarning ko‘p suv bug‘latishdan va qurg‘oqchilikdan saqlaydi. Ba‘zan epidermisda suv to‘planadi. Ba‘zi o‘simliklarning ustida mum izlari ham bo‘ladi. Masalan, olxo‘rining mevasida, chinnigulning mevasida, karam bargida. Mum izlari qalinligi 0,1 mm gacha bo‘lishi mumkin. Janubiy Amerikadagi, Voskovaya palma deb atalgan o‘simlikda mum izlari 5 mm qalinlikda bo‘ladi. Mum murakkab tuzilgan efir bo‘lib, 100⁰ C da eriydi. Mum ham kutikulaga o‘xshash vazifasini bajarib turadi(4 rasm). Epidermisda teshikchalar bo‘ladi. Bu teshikchalarni ustitsa (ba‘zan og‘izchalar deb ham ataladi) deb yuritiladi.


Epidermis bilan qoplangan o‘simlik organlari ustitsa yordamida suvlarni bug‘latib turadi. Gaz almashish protsessi ham ustitsalar yordamida bo‘ladi. Ustitsalar doimo ochilib ham yopilib turadi. Ustitsalarning ochilib ham yopilib turishi sharoitga bog‘liq bo‘ladi. Ustitsalarning ikki tomonida berkituvchi (qamrovchi - zamikayushie kletki) hujayra bor. Bu hujayra xlorofil donachalari bo‘ladi.

Xlorofil donachalarida fotosintez protsessi bo‘lib, shakar to‘planadi. Shakarlarga to‘yingan hujayra o‘ziga suvni tortadi. Natijada bu hujayrada TURGOR xolati ro‘y beradi. Ana shu vaqtda ustitsalarning teshigi ochiladi. Aksincha xolatda ya‘ni fotosintez protsessi to‘xtagan vaqtda ustitsalarning hujayralari so‘liydi, ya‘ni plazmoliz ro‘y beradi.

Bu xolatda esa ustitsalarning teshiklari yopiladi. Demak ustitsalar ham ochilib, ham yopilib turadi. Ustitsalarning tagida xavo turadigan bo‘shliq joyi bor. Demak, mana shu ustitsalar orqali

o'simliklar nafas olib, oziqlanib va ortiqcha suvlarni parlantirib turadi. O'simliklarda xavo ustitsalardan tashqari suv chiqarib turadigan ustitsalar ham bo'ladi. Bu ustitsalar gidatodalar deb ataladi. Gidatodalar hamma vaqt ochiq bo'ladi. Chunki uning hujayralari hamma vaqt turgor holatda turadi. Suvni chiqarib turishi guttatsiya deb ataladi. (gutta tomchi). Gidatodalar o'simliklarning er ustki organlarida bo'ladi. Masalan, poya, barg va boshqalar. O'simlik ildizida ustitsalar bo'lmaydi. Ustitsalar o'simliklarning yashash sharoitiga qarab bargning pastki epidermisi 1 kv mm satxda 100-300 tagacha ustitsalar bo'lishi mumkin. Kungaboqar bargining 1 kv, mm satxida 200 tagacha ustitsa bor.

Epidermisdan har xil tuklar o'sib chiqadi. (valoski, trixoma) Tuklar havoning harakatini susaytiradi, shuning natijasida o'simliklar suvni kam bug'latadi. Shuningdek tuklar o'simliklar issiqdan va sovuqdan saqlab turadi. Ba'zan tuklar boshqa vazifalarni ham bajarib turadi. Masalan, labguldoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklardan bezli tuklar efir moylarini ishlab chiqaradi. Qichitqi, chayono't (krapiva) deb atalgan o'simliklarning tuklari zaxarli bo'ladi. Shu bilan bu tuklar o'simlikni muhofaza qiladi. Ba'zi bir o'simliklarda tuklar tikanga aylanib ketgan bo'ladi. Masalan, yantoq, chaqir tikanak va boshqalar. Jiyda daraxti bargidagi tuklar yulduzsimon shaklda bo'ladi. Bu tuklar ko'p hujayrali, o'siq bo'ladi. Shuning uchun ham jiyda bargi oqish bo'lib ko'rinadi. Ildiz tuklari orqali oziq moddalarni suvda erigan xolda shimadi. Ildiz tuklari tirik bo'ladi. Ular qisqa umrli efemerdir. 10-20 kungacha yashaydi. Shuning uchun ham ularning soni nixoyat darajada ko'p bo'ladi. Tuklar ildizning shimuvchi satxini kengaytirib turadi.



Rasm5. Kutikularlar chiziqlari (SEM-mikrografii A — WBarthlotti N.Ehler; V, D— W. Barthlott): **A** — zargo'sh o'simligining yuqori epidermisi *Anthemistinctoria*(140x); **V** — shuningdek *Viola tricolor*, bundagi epiderma hujayralari *Anthemis ga qaraganda ancha qavariq*, «papilloz» (95x); **S** — *Parthenocissustr/cuspidatabargining pastki tomoni* (700x); **D** — kaktus urug'i yuzasi *Neoportenabrevicylindrica*(120x)

IKKILAMCHI QOPLOVCHI TO'QIMA - PERIDERMA

Birlamchi qoplovchi to'qima epidermisning o'simlik tanasining o'sishi ta'siri oqibatida bo'lina borishi va ko'payishi xar xil o'simliklarda har xil kechadi. Ayrim o'simliklarda epidermis bir necha oy, hatto bir necha yilgacha yashasa, boshqa o'simliklarda bir necha haftadan bir necha oyga qadar davom etadi. Ikkilamchi qoplovchi to'qima fellogen deb atalgan tug'diruvchi to'qimadan hosil bo'ladi. Ba'zi bir o'simliklarda fellogen epidermis tagida joylashgan hujayralardan tuzilgan bo'ladi. Masalan, qayin, eman, chinor, zarang daraxtlari. Ba'zan fellogen epidermisning o'zidan ham hosil bo'ladi. Masalan, olma, tol va boshqalar. Ba'zan fellogen po'stloqning ichkariroq joylashgan hujayralaridan hosil bo'ladi. Fellogening hujayralari kariokinez usulda bo'linib ko'payib turadi.

Natijada fellogen oʻzidan yuqoriga probkani (fellemani), ichkariga fellodermani (poʻstloqni) ishlab chiqaradi.

Fellemaning tashqi tomoni suberin moddasi bilan sugʻorilib probkalanadi. Probka tarkibidagi suberin 58%, sellyuloza 22 %, lignin 15%, suv 5% dir. Probkalanagan hujayra oʻzidan, suvni, havoni, changlarni, tovushni, elektrni oʻtkazmaydi. Shuning uchun sanoatda probka katta ahamiyatga ega. Masalan, samolyotsozlikda, muzlatgichlarni ishlab chiqarishda va boshqalarda ishlatiladi.

Probka eman daraxtining poʻstlogʻidan olinadi. Probka beradigan eman daraxti Qora dengiz boʻylarida oʻsadi. Probkasi 15 sm gacha boʻladi. Probka tushib ketmaydi. Probka eman daraxtidan har 10-15 yilda kesib olinadi. Probkani amurskoe barxatnoe derevo daraxtidan olish mumkin. Bu daraxtning probkasi uncha qalin emas, sifati ham probka emanidan past boʻladi, shuning uchun ham undan qutqaruvchi moddalar tayyorlanadi. Probkaning ichi odatda havo bilan toʻla boʻladi. Probka oʻsimliklarning meva poʻstida (anor meva poʻsti), tugunagida (kartoshka tugunagida) ham uchraydi. Probka bilan qoplangan oʻsimlik organlari chechevichkalar orqali nafas olib, suv bugʻlatib turadi. Chechevichka bor joyda probka boʻlmaydi. Probka oʻrnida yumshoq, siyrak joylashgan hujayralar boʻladi. Ana shu hujayralar orqali suv bugʻlanadi va gaz almashish protsessi boʻladi. Chechevichkani ustitsadan farqi shu.

Periderma baʼzan poʻkak toʻqima deb ham ataladi. Poʻkak toʻqima epidermisning nobud boʻlishi natijasida meristema deb ataladigan maxsus gormonlar taʼsiri hosil qiluvchi toʻqima hisobiga shakllanadi.

UCHLAMCHI QOPLOVCHI TOʻQIMA (KORKA - QOBIQ)

Koʻp yillik daraxt oʻsimliklarning poyalarida probka oʻrnini asta-sekin quruq poʻstloq egallaydi. Shu sababli uni baʼzan uchlamchi qoplovchi toʻqima deb ham yuritiladi. Daraxtsimon oʻsimliklar poyasi kambiy qavatini uzluksiz rivojlanishi natijasida doimo eniga oʻsib yoʻgʻonlashib turadi, poyaning ana shunday eniga oʻsish davomida 2 -3 yildan soʻng periderma yoriladi. Fellogen faoliyatining harakteriga koʻra turli koʻrinishdagi poʻstloq hosil boʻlishi mumkin. Fellogenning doira shaklda joy olishdan xalqasimon poʻstloq hosil boʻladi. Agarda fellogen ayrim boʻlaklar shaklida hosil boʻlsa, tangachasimon poʻstloq hosil boʻladi.

Poya poʻstlogʻining ichki qatlamlaridan yangi fellogen hosil boʻladi va undan yangi probka qavati rivojlanadi.

Fellogen bir necha yillar davomida probkani ishlab chiqazib turadi. Keyinchalik fellogen hujayralari oʻladi. Poʻstloqning ichkari tomonidagi hujayralardan yangi fellogen hosil boʻladi. Bu hosil boʻlgan fellogen oʻzidan yuqoriga probkani, ichkari tomonga esa fellodermani ishlab chiqaradi. Qaytadan hosil boʻlgan probkani tashqari tomondagi hujayralarning hammasi oʻladi. Chunki oʻzidan suvni va havoni oʻtkazmaydi. Bu hujayralardan oziq moddalar etib bormaydi.

Bu oʻlgan hujayralar qobiqqa aylanadi. Qayin daraxtida qobigʻ 8-10 yildan soʻng, eman daraxtida 25 yildan soʻng, paxtada esa 50 yildan qobigʻ vujudga keladi. Qobigʻning qadinligi 10 sm ga etadi. Qobigʻ daraxtlarda vaqti bilan tushib turadi. Qobigʻning tushishi daraxtlarga zarar etkazmaydi. Qobigʻ 1 qatorda hashoratlar ham tushib turadi.

Nazorat savollari

1. Hujayrada qanday oziqa moddalar uchraydi?
2. Hujayradagi zapas oziqa moddalarni (kraxmal, oqsil, yogʻ) aniqlash reaksiyalari?
3. Hujayra shirasida uchraydigan moddalar (oshlovchi moddalar, inulin va shilimshiq moddalar - sliz) va ularni aniqlash reaksiyalari?
4. Hujayrada qanday kristallar uchraydi?
5. Hujayra shirasida qanday pigmentlar uchraydi?

6. Hujayra po'stining tuzilishi, vazifasi va kimyoviy tarkibini o'zgarishi va ularni aniqlash reaksiyalari?
7. To'qima nima va ular qanday guruhlariga bo'linadi?
8. Hosil qiluvchi to'qima va uning vazifasi?
9. Hujayraning reduksion bo'linishi qanday sodir bo'ladi?
10. Qoplovchi to'qimalarning vazifalari va ularning xillari?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
2. Яковлев Г. П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
4. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
5. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaro nashr: Edinburg, London Nyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Березовская Т.П., Дмитрук С.Е., Гришина Е.И., Белоусов М.В. Основы фармацевтической ботаники. – Томск: Печатная мануфактура, 2004. -294 с.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Ma'ruza – 3

Mexanik, o'tkazuvchi, ajratuvchi va asosiy to'qimalar.

Reja:

1. Mexanik to'qima, ularning vazifasi
2. O'tkazuvchi to'qima, ularning vazifasi
3. Asosiy to'qima, ularning vazifasi
4. Ajratuvchi to'qima, ularning vazifasi
5. Hazm bezlari va osmaforalar
6. O'simlik organlari (Organografiya)
7. Ildiz morfologiyasi
8. Ildiz anatomiyasi
9. Birlamchi ildizning anatomiyasi
10. Ikkilamchi ildizning anatomiyasi
11. Shakli o'zgargan (metamorfoz) ildizlar.
12. Ildizdagi tugunak bakteriyalar va mikoriza

Tayanch iboralar:*Mexanik to'qima. Uning xillari. Mexanik to'qimalarning umumiy xususiyati va vazifasi. Mexanik to'qima xillari: kollennima, sklereid va sklerennima. Burchakli, plastinkali va yumshoq kollennimalarning tuzilishi va uchraydigan joylari. Sklereid tuzilishi.*

Sklerenximaning umumiy xususiyati, tuzilishi va vazifasi. Sklerenxima turlari: tolalar va sklereid. Ksilema tolasi (yog'och tolasi). O'simlik tanasida mexanik to'qimalarning joylanishi.

O'tkazuvchi to'qimalar, ksilema va floema. Birlamchi va ikkilamchi ksilema hamda ularning elementlari, xususiyati, bajaradigan vazifasi. Ksilema (yog'ochlik) elementlari. Floema (lub) elementlari.

MEXANIK TO'QIMA

Ma'lumki, o'simliklarda ularning tanasini tik tutib turadigan va har qanday tashqi muhitning qarshiligiga bardosh bera oladigan skelet yo'q. Bundan tashqari, o'simlikda tashqi muhit qarshiliklari (shamol, bo'ron)ga bardosh beradigan, muskul va uni boshqarib turadigan sistema yo'q. Lekin o'simlik, ko'pincha bu qarshiliklarga osonlik bilan bardosh beradi. Chunki unda tashqi muhit ta'siriga bardosh beradigan, uni mustahkam tutib turadigan to'qimalar kompleksi, mavjud. Ular **mexanik to'qimalar** deb yuritiladi.

Mexanik to'qimalar kelib chiqishi jixatidan 2 ga bo'linadi.

1. Parenxim xujayradan kelib chiqqan mexanik to'qima, shakli parenxim xujayraga o'xshash.
2. Prozenxim xujayradan kelib chiqqan mexanik to'qima.


Shakli prozenxim hujayraga o'xshash.

Parenxim hujayradan kelib chiqqan mexanik to'qima 2 xil buladi:

1. Kollenxima.
2. Sklereid.

Prozenxim xujayradan kelib chiqqan mexanik to'qimaga sklerenxima kiradi. Biz bular to'g'risida alohida to'htalib o'tamiz.

Kollenxima hujayralari devorining hamma joyi ham bir xilda qalinlashmaganligi bilan xarakterlanadi. Qalinlashish yoki hujayra burchaklarida sodir bo'ladigan jarayon **burchaksimon kollenxima** deb yuritiladi. Odatda, hujayra devorining bunday qalinlashishi tangental ravishda sodir bo'lib, bu plastinkasimon kollenximadir (1-rasm). Qalinlashish selluloza va pektin moddalari aralashmasining hujayra devoriga qatlam-qatlam bo'lib joylashishi natijasida sodir bo'ladi. Bunda lignin moddasi ishtirok etmaydi. Kollenxima hujayralarining shakli parenximatik hujayra shaklidan prozenximatik hujayra shakliga qadar o'zgarib turadi. Uning o'tmas qirra yon uzunligi ko'pincha 2 mm dan oshmaydi. Kollenxima to'qimalari lub to'qimalariga nisbatan kuchsiz. Uning hujayralari tirik, xlorofilli bo'lib, organlarining o'sishiga halaqit bermaydi. Aksincha, kollenxima hamma vaqt o'sish qismlari bilan bog'liq bo'ladi, unga halaqit bermagan holda mahkamligini oshira boradi. Kollenximaning cho'zilish qobiliyati vaqt o'tishi, o'simlik yoshining ulg'aya borishi bilan pasaya boradi. O'simlik poyasida ikkilamchi qoplovchi to'qimaning shakllanishi bilan bir vaqtda birlamchi to'qima kollenximaning faoliyati to'xtaydi. Ikki pallali o'simliklarda kollenxima epidermis ostida joylashgan bo'ladi. Aksariyat hollarda birlamchi po'stning periferik qismida, barg bandi (qovoq)da, g'alladoshlar poyasining barg bilan tutashgan bo'g'imida uchraydi.



Маржон дарахти (*Sambucus canadensis*) пояси кесимининг қўндаланг кесими.

Колленхима хужайра девори нотекис калинлашган - юкорида; пастда - паренхима хужайралари; улар орасида - хужайра ораликлари

Колленхима

Қовоқ поясидаги колленхима хужайраларини кўрсатувчи бўйича кесим

Rasm. 1

Sklerenxima urugli o‘simliklarning barcha organlari (ildiz, poya, barg va guli)da keng tarqalgan. Uning hujayralari bir qadar uzun tortgan, burchaklari o‘tkirlashgan bo‘lib, hujayra devori bir tekisda qalinlashgan. Odatda, sklerenxima hujayralari juda zich joylashgan bo‘lib, hujayra oraliqlarida bo‘shliq bo‘lmaydi. Alohida olingan sklerenxima hujayrasini qalin devorli yoki **elementar tola** deb atash mumkin).


Qo‘shimcha elementar tolalar parenximada tola bog‘lamlari shaklida dasta-dasta bo‘lib joylashadi. Alohida olingan tola bog‘lami **mexanik tola** deyiladi. Sklerenxima hujayralarining po‘sti yog‘ochlangan bo‘lishi yoki selluloza holda qolishi mumkin. Hujayralarning tirik qismi ko‘pincha o‘z hayotchanligini yo‘qotib, qurib qoladi.

O‘zining kelib chiqishiga ko‘ra, sklerenxima prokambial hujayralardan yoki perisikl bogiamlaridan hosil bo‘ladi. Ikkilamchi sklerenxima kambiydan shakllanadi. O‘simlik poyasining po‘st qismida joylashgan sklerenxima tolalari **lub tolalar** deb ataladi. Perisiklik tolalarning hujayra devori uzoq vaqtga qadar o‘z holatini yo‘qotmaydi, lekin ayrim hollarda yog‘ochlanishi mumkin.

Kambiydan shakllangan va ksilema (yog‘ochlik)da joylashgan sklerenxima tolalari **yog‘ochlangan tolalar** deyiladi. Bu tolalarga traxeya tolalari va libriform (Libes — lub, forma — shakl degan ma‘noni anglatadi) o‘simlikka mahkamlik beradigan yog‘ochlik hujayralariga taalluqlidir. Ularning hujayra devori lub tolalaridan farqli ravishda har qanday holda ham yog‘ochlangan bo‘ladi. Lub tolalari poya va ildizning po‘stida, barg bandi va shapalog‘ida, gul va meva bandida, ayrim hollarda mevalarda uchraydi. Ular o‘t o‘simliklarda daraxt va butalardagiga nisbatan ko‘proq uchraydi. Xurmo daraxti bargida lub tolalari hosil bo‘ladi. Lub hujayrasi juda uzun bo‘lib, uning devori nihoyatda qalinlashgan bo‘ladi. Masalan, zig‘ir o‘simligining lub hujayralari devori umumiy hajmining 90% gacha boigan qismini tashkil etadi. Lub tolalarining uzunligi bir xil emas, masalan, zig‘irda uning o‘rtacha uzunligi 40-60 mm, kendirda 2-55 mm, rami o‘simligida 350-420 mm ga etadi. Lub tolalarining eni esa hammasi bo‘lib bir necha mikron keladi.

Lub tolalarining muhim xususiyati, uning elastikligi bo‘lib, to‘qimachilik sanoatida ishlatish uchun juda qulay. Shu sababli sanoat uchun sifatli lub tolalarini beradigan o‘simliklar zarur. Zig‘ir (*Linum usitatissimum*), kanop (*Cannabis sativa*), dag‘al kanop (*Hibiscus cannabinus*), rami (*Bochntria nivea*) singari o‘simliklar sharq mamlakatlari (Xitoy, Hindiston, Pokiston, Misr)da qadimdan qimmatbaho tola beradigan o‘simliklar sifatida ishlatilib kelingan.

Libriform, ikkilamchi yog'ochlikda shakllanadi, unda prozenximatik hujayralarning bo'yi eniga nisbatan bir necha marta ortiq bo'ladi. Libriform hujayralarining uzunligi 1-1,5 mm dan oshmaydi. Hujayra devori eman, temir daraxti, kashtan singari o'simliklarda nihoyatda qalinlashgan, terak, zarang singari daraxtlarda esa uncha qalinlashmagan bo'ladi. Hujayralararo tirqishlari oddiy tuxumsimon shaklda, unchalik ko'p emas, spiral shaklda joylashgan. Hujayra devori yog'ochlangan bo'lsa, ular juda qattiq va og'ir bo'ladi. Hujayra devorining shakllanishida libriform asosiy rol o'ynaydi.




Rasm 2. Turli xil o'simliklarda uchraydigan lub tolalari.

A-kapor poyasining lub tolalari; B-marvarid, tut poyasida; D-temn poyasining lub tolalari va zig'ir poyasi lub tolalari.

Sklereidlar. Pishiq to'qimalarning bu turida hujayra devori yog'ochlangan, nihoyatda qalin, izometrik shakldagi toshsimon hujayralar hisoblanadi. Tashqi ko'rinishi jihatidan ular parenximatik hujayralarga o'xshash. **Sklereidlar**, odatda, yog'ochlangan, o'lik hujayralardir. (2,3 rasm). Ular o'simliklarning poyasi, mevalarning qattiq eti va po'stida, danakli o'simliklarning danak qobig'ida boiadi. O'rik, bodom, olxo'ri, gilos, olcha va yong'oc singari o'simliklar danagining qattiqligi sklereid to'qimalari tufaylidir. Ayrim nok, behi singari o'simliklar mevasida toshsimon moddalarning uchrashi sklereid hujayralarning mavjudligidan dalolat beradi. Ma'lumki, ayrim danagi va po'sti qattiq bo'lgan o'simliklarning urug'lari hamda mevalarining mag'zi o'n, hatto yuz yillar davomida saqlanadi. Ayrim tropik o'simliklarning mevasi bir necha yillab dengiz va daryo suvlarida suzib yuradi, nam erlarda saqlanishiga qaramasdan ularning sklereid to'qimalari juda sekinlik bilan parchalanadi.

Bunday o'simliklar tashqi muhit ta'siriga nihoyatda chidamli boiadi. Bug'doy, arpa, suli va javdar kabilarning ingichka poyasi qanchadan-qancha barg va o'ziga nisbatan bir necha barobar og'ir bo'lgan boshqni har xil shamol va to'zonlar ta'siriga qarshi tik tutib turadi. Daraxtlarning tanasi o'zidan bir necha o'n barobar og'ir yukni ko'tarib tura oladi.



Нимфия (*Nymphaea odorata*) баргидаги шохланган склеридлар

Склеридлар

Rasm 3.

О‘TKAZUVCHI TO‘QIMA

O‘tkazuvchi to‘qimalar ham o‘simlik organlarida ma’lum bir vazifani bajaradi, ya’ni o‘tkazish vazifasini bajaradi.

O‘tkazuvchi to‘qimalar suv va suvda erigan moddalar usimlik tanasi bo‘ylab bir organdan ikkinchi organga o‘tib turadi. O‘simliklarda asosan 2 xil moddalar harakat qilib turadi.

1. Ildiz tuklari yordamida tuproqdan shimib olingan suv va suvda erigan holdagi mineral moddalar.
2. O‘simlik organlarida hosil bo‘ladigan organik modda ya’ni, uglevodlar, aminokislotalar va boshqalarning suvli eritmasi.

O‘tkazuvchi to‘qima kelib chiqishi jihatidan 2 xil bo‘ladi.

1. Birlamchi o‘tkazuvchi to‘qima.
2. Ikkilamchi o‘tkazuvchi to‘qima.

Birlamchi o‘tkazuvchi to‘qima meristemadagi prokambiy - ikkilamchi o‘tkazuvchi to‘qima kambiydan hosil bo‘ladi. Pallali o‘simliklarning o‘tkazuvchi to‘qimasi birlamchi ikkilamchi buladi. Bir pallali o‘simliklarda kambiy bo‘lmaydi. Kambiy o‘simliklar tanasining eniga o‘stiradi. O‘tkazuvchi to‘qimalar bajaradigan vazifasiga ko‘r 2 ga bo‘linadi:

1. Ksilema (yog‘ochlik)
2. Floema (lub)

Ksilema orqali erigan ildiz tuklari shimib olgan suv va suvda erigan holdagi mineral moddalar poyaga va so‘ngra bargga o‘tib turadi. Floema orqali bargdan fotosintez protsessi natijasida tayyorlangan organik moddalar poyaga va ildizga o‘tib turadi. Ksilemani yuqoriga ko‘taruvchi oqim. Floemani tushuvchi oqim deyiladi. Ksilema va floema mahsus elementlardan tashkil topgan.

Ksilemaga o‘tkazuvchi, jamg‘aruvchi va mahkamlik beruvchi bo-shqa to‘qimalar kiradi. U traxeya va traxeidlar deb ataladigan ikkita o‘tkazuvchi to‘qimalar sistemasiga bo‘linadi. Traxeidlar uchi o‘tkir uzunchoq bir butun hujayralardan shakllanadi. Hujayraning oxiri o‘tkir uchli qiyshaygan bo‘lib, ularning uch qismi bilan birlashgan joyi umumiy traxeid naylarini tashkil etuvchi hujayralar o‘rtasidagi to‘siqqa almashadi.(3 rasm)

Traxeidlarda harakat qiladigan suv va unda erigan moddalar shu to‘siqda mavjud bo‘lgan yupqa parda shaklidagi to‘siq tuynuklari orqali o‘tadi. Traxeidlar tuynuklarning katta-kichikligiga qarab ikkiga bo‘linadi. Naysimon ko‘p sonli, keng teshikli va tolasimon — ensiz teshikli traxeidlar. Traxeid hujayralarining uzunligi 1—4 mm ga, eni mm ning yuzdan biriga teng keladi.

Traxeidlar prokambiy tolasi bog‘lamlaridan shakllanadi. Ular o‘tkazuvchi traxeya nayida siljib, sirg‘anib o‘shish va boshqa o‘svuvchi traxeidlarning orasiga o‘zining o‘tkir uchi bilan suqulib kirish xususiyati bilan farq qiladi.

“Traxeidlar 2 xil vazifani bajaradi.

1. Suv va suvda erigan mineral moddalarni pastdan yuk, or utkazish. 2. O‘simlik organlariga lqattqlik berib turadi.

Suv naylari. Suv naylari ham traxeidlarga o‘xshash er ildiz tuklari shimib olgan suv va suvda erigan moddala pastdan yukriga utkazib turadi. Bundan tashqari o‘sim tanasiga qattikdik beradi. Chunki suv naylarining lignin moddasi bilan sugorilib yogochlangan. Shuning uchun : suv naylari o‘lik buladi. Suv naylari bir necha xil shaklda uchraydi. Xalkasimon, buramasimon, narvonsimon, turssh nuk,tasimon.

Traxeidlar bilan suv naylarining tarakdiy etish tarix] rus olimi Yassenko,Xmelniskiy va Rotgertlar tekshi] chikqganlar. Bu olimlarning kursatishicha avval traxeid; sungra suv naylari paydo buladi.

Biz usimliklarning taraqqiy etish tarixidan birinchi avval ochiq, urug‘li o‘simliklar, so‘ngra yopiq, urug‘li o‘simlik kelib chiqqan. Ochiq, urug‘li o‘simliklarga archa qaragay kiradi. Mana shu archa va qaragaylarda traxeidlar bor, naylari esa bularda uchramaydi. Yopiq, urug‘li o‘simliklar olma, o‘rik, yong‘oq, va xokazolarda suv naylari xamda traxeid bor. Demak ochiq, urug‘li o‘simliklarda faqat traxeidlar, yopiq urug‘li o‘simliklarda esa traxeidlar xamda suv naylari uchraydi. Suv naylari xam bir vaqtning o‘zida paydo bulmaydi. Avvalo xalkasimon, buramasimon, narvonsimon naylari, keyinrok, esa tursimon va nuktasimon suv naylarivujudga kelgan. Shuning uchun xam suv naylari 2 ga bulinadi.


1. Birlamchi suv naylari.
2. Ikkilamchi suv naylari.

Birlamchi suv naylariga xalkasimon, narvonsimburamasimon suv naylari kiradi. Ikkilamchiga: nuktasimon va tursimon suv naylari kiradi. Ikkilamchi naylari kambiydan xosil buladi. Shuning uchun xam 2pallali o‘simliklarda xamda bargda nuqtasimon suv naylari uchramaydi.

Traxeya yoki o‘tkazuvchi naylar bir-biriga nisbatan tik qatorlai bo‘ylab joylashuvchi, uzun tortgan hujayralardan shakllanadi. Uzunasiga joylashgan hujayralar orasida suv va unda erigan moddalai bemalol o‘tadigan va umumiy nayni hosil qiladigan maxsus teshiklai bo‘ladi. Har bir nay son-sanoqsiz qismlardan iborat bo‘lishi mumkin. Traxeyaning o‘tkazuvchi naylari traxeidlarga nisbatan ancha keng va uzun bo‘ladi. Traxeya naylarining uzunligi ayrim hollarda bir necha metrqa qadar borishi mumkin. Tropik va subtropil< mamlakatlarda tarqalgan lian o‘simliklarining traxeya naylari bii necha o‘n metrni tashkil qilgan holda, eni 0,1—0,7 mm dan oshmaydi.

Traxeya naylari poya va ildizning uzunligi bo‘ylab ustma-ust joylashgan prokambial hujayralardan shakllanadi. O‘shish jarayonida bu hujayralar uzayib, suv va unda erigan moddalarni harakatga keltiradi. Bu harakat o‘tkazuvchi traxeya naylarining tez o‘shishi, vakuolasi kattalasha borishi, hujayra devorining qalinlasha borishini tezlashtiradi. Qalinlashgan hujayra devori asta-sekin yog‘ ochlanadi. SHu paytga kelib o‘tkazuvchi naylarning suv o‘tkazuvchanlik qobiliyati kuchayadi. Suv va unda erigan moddalaming kuchli bosimi to‘siqlarga ta‘sir qiladi, natijada hujayralar orasidagi yupqa po‘st teshiklarida o‘tkazuvchi naylar vujudga keladi. O‘tkazuvchi naylardagi to‘siqlarda hosil bo‘lgan teshiklar *perforatsiyalar* deyiladi. Hosil bo‘lgan teshiklar atrofidagi yupqa teshilgan po‘st qoldig‘i *perforatsiyic belbog‘idir*. Perforatsiyaning bir necha turi mavjud. Agai perforatsiyani bir belbog‘ o‘rab turgan bo‘lsa, u *oddly perforatsiyadeyiladi*. Ayrim hollarda belbog‘ bilinmay ham qoladi va hujayralar qo‘shilish chegarasini faqat nayning bir qadar taraigan joyida aniqlash mumkin. O‘tkazuvchi naylaming vujudga kelishi tez sodir bo‘ladi. Endigina unayotgan kurtaklarda ksilema elementlari shakllanib, ularning devori yog‘ ochlana boshlaydi.

O‘tkazuvchi nay va traxeidlarning hujayra devorining yo‘g‘onla-shish xarakteriga qarab halqa, spiral, narvonsimon, nuqta va elaksimon shakldagi turlari farq qilinadi.



Rasm4. Ksilema elementlari va o'tkazuvchi nay tiplari.

1-yog'och parenximasi; 2-nuqtasimon o'kazuvchi nay; 3-qoziqsimon; 4-narvonsimon; 5-spiral o'tkazuvchi naylar.

Halqa shaklidagi o'tkazuvchi naylar devorida bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ikkilamchi devorning yo'g'onlashishi kuzatildi. Spiral shaklidagi o'tkazuvchi naylarning devorida ikkilamchi po'stning yo'g'onlashishi lenta shaklida, bir tekisda boradi, Halqali va spiral o'tkazuvchi naylar devorida turli xil tirqish joylashadur. Spiral va halqasimon o'tkazuvchi nay elementlari deyarli barcha yopiq urug'li o'simliklarda dastlab ularning o'sish nuqtasida shakllanadi.

O'tkazuvchi nay va traxeidlarni ko'pincha tirik parenximato'qimalari o'rab turadi. Ular yog'och parenximasi bo'lib, devorijuda qalin yog'ochlashgan, sklereid deb yuritiladigan mexanikhujayralarga aylangan. Yog'och parenximasi hujayralari traxeya vatraxeidlarni o'rab olib, ularning o'sish qobiliyatini kuchaytiradi. Ksilemaning mahkamlik elementlari esa o'simlik uchun tayanchvazifasini bajaradi.

Traxeidlar 2 xil vazifani bajaradi.

1. Suv va suvda erigan mineral moddalarni pastdan yuqoriga o'tkazish. 2. O'simlik organlariga qattqlik berib turadi.

Suv naylari. Suv naylari ham traxeidlarga o'xshash erdan ildiz tuklari shimib olgan suv va suvda erigan moddalarni pastdan yuqoriga o'tkazib turadi. Bundan tashqari o'simlik tanasiga qattqlik beradi. Chunki suv naylarining po'sti lignin moddasi bilan sug'orilib yog'ochlangan. Shuning uchun suv naylari o'lik bo'ladi. Suv naylari bir necha xil shaklda uchraydi. Xalqasimon, buramasimon, narvonsimon, to'rsimon nuqtasimon.

Traxeidlar bilan suv naylarining taraqqiy etish tarixini rus olimi YAtsenko, Xmelnitskiy va Rotgerlar tekshirib chiqqanlar. Bu olimlarning ko'rsatishicha avval traxeidlar, so'ngra suv naylari paydo bo'ladi.

Biz o'simliklarning taraqqiy etish tarixidan bilamizki avval ochiq urug'li o'simliklar, so'ngra yopiq urug'li o'simlik kelib chiqqan. Ochiq urug'li o'simliklarga archa, qarag'ay kiradi. Mana shu archa va qarag'aylarda traxeidlar bor, naylari esa bularda uchramaydi. Yopiq urug'li o'simliklar olma, o'rik, yong'oq va hakazolarda suv naylari xamda traxeid bor. Demak ochiq urug'li o'simliklarda faqat traxeidlar, yopiq urug'li o'simliklarda esa traxeidlar xamda suv naylari uchraydi. Suv naylari ham bir vaqtning o'zida paydo bo'lgan emas. Avvalo xalqasimon, buramasimon, narvonsimon naylari, keyinroq esa to'rsimon va nuqtasimon suv naylari vujudga kelgan. Shuning uchun ham suv naylari 2 ga bo'linadi.

1. Birlamchi suv naylari.
2. Ikkilamchi suv naylari.

Birlamchi suv naylariga xalqasimon, narvonsimon, buramasimon suv naylari kiradi. Ikkilamchi esa nuqtasimon va to'rsimon suv naylari kiradi. Ikkilamchi suv naylari kambiydan xosil buladi. Shuning uchun ham bir pallali o'simliklarda hamda bargda nuqtasimon suv naylari uchramaydi.

Suv naylarining po'stida oddiy va xoshiyali teshikchalar bor. Ana shu teshikchalar orqali bopcha xujayralarga suv va suvda erigan mineral moddalar o'tib turadi. Suv naylarning uzunligi asosan 10sm-1m gacha bo'ladi. Ba'zan 5 metrgacha xatto 9 m gacha ham bo'ladi. Masalan akatsiya daraxtida 1m_g dub daraxtida 2m, liann o'simliklarida 9 m gacha bo'ladi. Qishda suv naylari tola bilan berkilib qoladi. SHuning uchun ham qishda yuqoriga ko'tarilish oqim to'xtatiladi. Baxorda tolalar erib ketib suv naylarining yo'llari ochiladi.

Ksilemaning parenximasi. Ksilemaning parenximasi tirik xujayradan iborat, boʻlib odatda unga oziq moddalar toʻplanadi.

Ksilemaning tolasi- libriform. Libriform mexanik toʻqimaga kiradi. Libriformning xujayra poʻsti qalin yogʻochlangan, qattiq boʻladi.

Asosiy vazifasi oʻsimlikka qattqlik berib turish.

Floema elementlari. Floema quyidagi elementlardan tashkil topgan:

1. Elaksimon nay.
2. Yoʻldosh xujayra.
3. Floemaning parenximasi
4. Floemaning tolasi stereid

Floema. Floemaning barcha gistologik elementlari orqali fotosintez jarayoni tufayli oʻsimlikda hosil boʻlgan murakkab organik moddalar (aminokislotalar, karbonsuvlar, oqsillar, yogʻlar, vitaminlar va hokazo) uning barcha organlariga tarqaladi. Bu moddalar harakati, ayniqsa oʻsayotgan yosh oʻsimlik tanasida jadal boradi.

Floema ikki pallali oʻsimliklarning Odizi va poyasining poʻst qismida shakllanadi. SHakllanish vaqtiga koʻra birlamchi va ikkilamchi floema farq qilinadi. Birlamchi floema oʻsish konusi (nuqtasi)da prokambial bogʻlamlarining uchki meristema toʻqimalarida shakllanadi. Ikkilamchi floema kamby faoliyati tufayli hosil boʻladi.

Elaksimon naylar oʻtkazuvchi naylardan oʻzining tirik holati bilan farq qiladi. Elaksimon naylarning koʻndalang toʻsiqlarida mavjud boʻlgan teshiklar elaksimon shaklida boʻlganligidan ularga shunday nom berilgan. Dastlab elaksimon naylar uzunasiga qator boʻlib joylashgan prokambial hujayralardan hosil boʻladi. Bunda boshlangʻich elaksimon naylarni hosil qiladigan birinchi ona hujayra eniga boʻlinadi va elaksimon naylarning yoʻldosh hujayralarini vujudga keltiradi. Ayrim hollarda boshlangʻich ona hujayra eniga boʻlinadi va elaksimon naylarning yoʻldosh hujayralarini vujudga keltiradi. Ayrim hollarda boshlangʻich ona hujayra birdaniga 2—3 marta boʻlinadi. Unda bitta elaksimon oʻtkazuvchi nayda 2—3 ta yoʻldosh hujayra hosil boʻladi.

SHakllanishning dastlabki davrida elaksimon naylar hosil qiladigan hujayra, hujayra devori boʻylab joylashgan sitoplazma, yadro, vakuola va yuqori poʻstga ega boʻladi. Funktsional faoliyatning boshlanishi bilan u uzayadi va devori bir qadar qalinlashadi. Elaksimon nayni hosil qiladigan hujayraning oʻsishi uning devorining choʻzilishi hisobiga boradi.

Choʻzilishi davomida tuynuklar hosil boʻladi. Vujudga kelgan elaksimon naylar orqali organik moddalarning harakati natijasida koʻndalang toʻsiq devoriga kuchli bosim ostida koʻp sonliteshMar vujudga keladi. Devori qalinlashadi, yaltiroq holga keladi va quyosh nurini kuchli ravishda qaytarish qobiyatiga ega boʻladi. Elaksimon naylar hosil boʻlishi bilan protoplast kesimi oʻzgaradi. Organik moddalar oqimi yangi hosil boʻlgan elaksimon naylarni hosil qilgan hujayra sitoplazmasiga kuchli taʻsir koʻrsatadi. Yadro va leykoplast eriydi, sitoplazma va vakuola oʻrtasidagi chegara yoʻqoladi. Hujayraning hamma organlari bir butun tirik mas-saga aylanadi, hujayra sitoplazmasining harakati toʻxtaydi. Sitoplazma oʻzining yarim oʻtkazuvchanlik qobiliyatini ham yoʻqotadi. Unga eritma holdagi har qanday organik va anorganik moddalar bemaol oʻta oladi. SHu bilan elaksimon naylarning shakllanishi oxiriga etadi.

Elaksimon oʻtkazuvchi naylar suv oʻtkazuvchi elementlarga nisbatan bir xilligi, maydaligi, kalta va ingichkaligi bilan farq qiladi.

Chunonchi kartoshka oʻsimligida elaksimon nayning uzunligi 138

mk ga, nastursiya bargida 240 mkga, ayrim liana oʻsimliklarida ISO-BOO mk ga qadar boradi. Lekin elaksimon naylarning eni 20—30 mk dan oshmaydi.

Elaksimon oʻtkazuvchi naylarning umri ham qisqa boʻladi. Bir yillik va koʻp yillik oʻt oʻsimliklarda elaksimon oʻtkazuvchi naylarning umri bir vegetatsiya davriga boradi. Daraxt va butalarda ularning umri 1 yil, ayrim daraxtlarda 3—4 yilga qadar choʻzilishi mumkin. Umri 3—4 yil davom etadigan naylar qishga yaqin unchalik yaxshi oʻrganilmagan maxsus amorf modda bilan birikadi. Bahor kelishi bilan yana ochilib, oʻz faoliyatini davom ettiradi.

Yoʻldosh xoʻjayralar. Koʻpchilik oʻsimliklarning elaksi nayi yonida yoʻldosh xoʻjayra joylashgan. Elaksimon nayga nisbatan yoʻldosh xoʻjayra kichik boʻladi. Yoʻldosh xoʻja tirik boʻlib oʻnda oʻsimliklarni oʻstiradigan Auksin kabi bezlar bor.

Floemaning parenximasi. Floemaning parenximasi po'sti selyullozadan tashkil topgan. Floemaning parenximasida zapas oziq moddalar to'planadi.

Floemaning tolasi-stereid. Floemaning tolasi-stereidn xo'jayra po'sti yog'ochlangan yoki yog'ochlanmagan bo'ladi. Floema tolasi juda ham mustaxkam, sinmaydigan, elastik bo'lib o'simlikka qattqlik berib turadi.

Shunday qilib biz ksilema va floema elementlarini ko'rib chiqdik.

YOg'ochlangan o'simliklarda floema po'stloq qismiga joylashgan. YOg'ochlik qismi ksilema xisoblanadi. O'tli o'simliklarning poyasida, ildizida, bargning tomir o'tgan qismida floema bilan ksilema birlashib o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari tashkil etadi. O'tkazuvchi to'qima bog'lamlari asosan 4 tipda tuzilgan.


4. Kollotal.

2. Bikollotal.

Z. Kotsentrik.

4. Radial.

Kollateral o'tkazuvchi nay bog'lamlari. Bunda floema va ksilema yonma-yon, ya'ni o'tkazuvchi nayning ksilema bog'lamlari, ikkinchi yonida esa floema bog'lamlari joylashgan bo'ladi.



Айнктовон (*Ranunculus*)нинг o'tkazuvchi бойламини кўндаланг кесими. O'tkazuvchi бойлам ёник бирламчи ксилема ва бирламчи флоэма склеренхима билан уралган.

Poya va ildizning uch qismida, odatda, ksilema markazga qaragan bo'lib, adekvat holda markazga yaqin joylashadi. Floema esa sirt qismida, ya'ni markazdan uzoqda, abaksial holda joylashadi. Bargda uning yuza tomonida ksilema esa uning ost tomonida floema joylashgan

bo'ladi. O'tkazuvchi bog'lamlarning bu tipi barcha o'simliklar uchun xos

Rasm 5. Bikollateral o'tkazuvchi nay bog'lamlari. O'tkazuvchi nay bog'lamlarining bu tipida floema ksilemaning har ikkala yon tomonida, va'ni linine ich va sirt aismida iovlashean bo'ladi. Bikollateral o'tkazuvchi

nay bog'lamlari ksilemaning 2 ta kollateral bog'lamlarining qo'shilishi tufayli vujudga kelgan.

Ochiq kollateral bog'lamlar daprokambiyning bir qismikambiyga aylandib,

floemabilank silema o'rtasida saqlanib qoladi. (5. rasm)

Konsentrik yoki markazlashgan o'tkazuvchi nay bog'lamlari.

O'tkazuvchi naylarning bu tipida floema markazda joylashib, ksilema uni o'rab turadi yoki ksilema markazda bo'lib, floema uni o'rab turadi. Markazlashgan bog'lamlar ko'pchilik paparotniklarda, bir pallalilarda esa marvaridgul o'simligida uchraydi.

Radial yoki nursimon tuzulishli nay o'tkazuvchi bog'lamlari.

O'tkazuvchi nay bog'lamlarining bu tipi o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib odatdagi nay bog'lamlar tuzilishidan keskin farq qiladi. U

Ikkipallali o'simliklar ildizining birlamchi tuzilishida namoyon bo'ladi. Bir pallali o'simliklarda esa bunday tuzilishdagi nay bog'lamlari o'simlik umrining oxirigacha saqlanadi. Radial nay bog'lamlari juda murakkab tuzilishga ega.

Floema ksilema bog'lamlari radius bo'ylab navbatlashadi va radius bo'ylab radial nur simmetriyasini hosil qiladi.

Ikkipallali o'simliklarda dastlabki, birlamchi tuzilishdan ikkilamchi tuzilishga o'tishda floema va ksilema bog'lamlarida radial joylashish kollotal joylashish bilan almashinadi. Turli hil o'simliklarda ildiz birlamchi tuzilishining shakillanishida ksilema va floemaning ma'lum sondagi turlari qonuniy ravishda tarkib topgan shumisi qiziqki radial o'tkazuvchi bog'lamlarning bir nurli (Monarx), ikki nurli (Diarx), uch nurli (Triarx), to'rt nurli (Tetrarx), ko'pnurli (Polarx), turlari mavjud. Radial o'tkazuvchi nay bog'lamlari ichida ma'lum darajada keng tarqalgan besh nurli (pentaerx) radial o'tkazuvchi bog'lami hisoblanadi.

ASOSIY TO'QIMA

Asosiy to'qima tirik parenxima xujayradan tuzilgan bo'lib turli vazifalarni bajarib turadi. Asosiy to'qimalarning xujayrasi yumaloq yoki ko'p burchakli bo'lib uning xujayra oralig'i

hambo'ladi. Xujayra po'sti selyullozadan tuzilgan yupqa ba'zan lignin bilan sug'orilib, yog'ochlangan bo'ladi.

Asosiy to'qima vazifasiga qarab bir necha gruppalariga bo'linadi.

1. O'tkazuvchilik vazifasini bajaradigan asosiy to'qima Masalan, ildizning po'stloq xujayralari, o'zak nur xujayralari. O'zak nur xujayralari poyaning yog'ochlik qismida suv va suvda erigan moddalarni o'tkazib turadi.

2. Organik moddalarni tayyorlaydigan to'qimani assimilyatsion to'qima deyiladi. Assimilyatsion to'qima o'simlik bargida, poyasida va boshqa o'rganlarida uchraydi. Assimilyatsion to'qimada xlorofill donachalari bo'lib unda fotosintez prosessi bo'lib turadi. Assimilyatsion to'qima

3 xil buladi. Masalan, bargda. (5 rasm)

1. Qoziqsimon to'qima. (ustinsimon)

2. Bulutsimon to'qima.

3. Chokli parenxima.

Qoziqsimon parenximning bo'yi cho'ziqroq va bir-biri bilan zich joylashgan, bulutsimon parenxema yumaloq hujayra oraliq bo'ladi. Bulutsimon parenxema bargda havo almashinib turishida katta ro'l o'ynaydi. Shuning uchun ham uni ventilyatsioniy to'qima deb ham yuritiladi. Bulutsimon parenxemaga qaraganda qoziqsimon parenximada xlorofil donalari ko'p bo'ladi. Chokli parenxima ochiq urug'li o'simliklarning bargida uchraydi masalan.

Qarag'ay, archa barglari. Choklari Parenximani hujayra po'sti ichkariga kirib ketgan shuning uchun ham chokli parenxima deyiladi.

Oziqli moddalarni to'plovchi asosiy to'qima. O'simliklarning xar-hil o'rganlarida ildiz, poya, barg, urug' va mevalarida to'planadi.

Masalan: sabzi, lavlagi rediska, sholg'om va boshqalarning ildiz mevasida, kartoshka tugunagida, karam bargida, g'alladonli o'simliklarning urug'ida, mevali daraxtlarning mevasida to'planadi.



Rasm 6.

Ayirish to'qimalari. Moddalar almashinuvi jarayonida hujayralarida o'simlikning o'sishiva rivojlanishi uchun sarflanmaydigan moddalar to'planadi. Ko'pincha bu moddalar almashinuvining oxirgi chiqindi mahsuli hisoblanadi. Chiqindi moddalar maxsus to'qimalarda to'planib, **ular ayirish to'qimalari** deyiladi. Ayirish to'qimalari o'simliklarning turli-tuman a'zolaridan joy olgan bo'lishi mumkin. Ayirish to'qimalarida nihoyatda turli-tuman moddalar to'planadi va ular shakl hamda tuzilishi jihatidan bir-biriga umuman o'xshamaydi.

Ayirish to'qimalar, ichki va tashqi sekretiya to'qimalariga bo'linadi. Tashqi sekretiya ayirish to'qimalariga nektar hosil qiladigan gul bezlari, efir moylari ajratadigan yopishqoq moddalar, alkaloidlar, glukoziidlar ajratadigan

epidermisda joylashgan bezlar va tuklar (trixomalar 7 rasm.) kiradi. Tashqi sekretiya to'qimalari bir qadar chuqur joylashgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, limon, apelsin o'zidan efir moylari ajratadi. Olma, behi, handalak, qovun singari o'simliklarning mevasida epidermis ham hushbo'y hid tarqatadi.

Ichki sekretiya to'qimalariga ideoblast parenximasi to'qimalaridan shakllangan bezva bez ajratadigan chiqindi yo'llar taalluqlidir. Ichki sekretiya bezlari ajratadigan chiqindi yo'llar, ayniqsa, poya va ildizda, qisman bargda uchraydi. Ularda smola, efir moylari, shilimshiq moddalar, mum va boshqalar to'planadi. Chiqindi yo'llar qarag'ay daraxtida, kamfora

Daraxtida, tragakant astragalida, petrushka ildizida bo'ladi.


Kuknorining sutlik nayidan oqib chiqqan shirani opiy deb ataladi. Opiy tarkibida 26 xil alkaloid bor.

Tarmokdangan sutlik nayni semiz o't o'simligida uchratish mumkin. Bo'g'imlik sut naylari suv naylariga o'xshash bo'ladi. Tarmoqlangan sutlik naylar urug'ning embrionida bo'ladi. Urug'dan o'sib chiqqan bu sutlik nay tarmoklanib ildizga, poyaga o'tib ketadi. Sutlik naylari tirik bo'ladi. Sutlik naylar protoplazmasida minglab yadro uchraydi.

Asosiy to'qimalar chiqaruvchi to'qimalar ham o'simlik hayoti uchun muxim to'qimalardan hisoblanadi.


Xazm bezlari va osmaforalar ba'zi xashoratho'r o'simliklarda (rosyanka, muxolovka) uchraydigan hazm bezlaridan tashqi sekretiya kiradi. Mazkur hazm bezlaridan ajralib chiqadigan fermentlar va kislotalar yordamida xashoratlarni tutib oziqlanadilar.

Osmoforalar. X,ushbuy gullarning tojbarlari odatda uchuvchan moddalar ajratib turadi. Bu esa changlatuvchi xashoratlarni o'ziga jalb etadi. Ana shu vazifani epiderma qisqa muddat ichida bajaradi. Uzoq muddat gullaydigan o'simliklarda alohida to'qima, xatto organlar shakllanib, unda uchuvchan efir moylari ajratiladi. Osmoforalar deb, shularga aytilib, ular ba'zan qanotsimon yoki tuksimon, kipriksimon shaklda bo'ladi, kup qavatli ajratuvchi tuqimadan tashkil topadi.



Rasm. 7. Trixomalar (SEM-mikrografiya S —F— WBarthlott, G— S Grunfelder)

A— maymunjon bargining pastki tomonidagi bir hujayrali tukcha (400x), **V** — o‘tlar bargining pastki tomonidagi gigroskopik tukcha *Dryas octopetala* (350x), **S** — u *Vr folasur mamensis* (Myristicaceae) yulduzmison tukchalari, yomg‘irli o‘rmonlar daraxtlari, mum changi bilan qoplangan papilloz epidermal hujayralar, epikutilyar mumsiz tuklar (285x), **D**— rosyanka bargidagi temir moddasi mavjud emergensilar *Drosera capensis* (65x), **Ye** — loviya bargidagi limoqsimon tuklar (220x), **F**— birlashtiruvchi xususiyat shuningdek langar ko‘rinishidagi shakllanishda ham bo‘ladi *Cynoglossum officinale* (bu shakllanishlar trixomalariga tegishli bo‘lmaydi—), (60x) Bu albatta tuklar emas balki emergensiya bo‘ladi, **G**— ko‘p hujayrali konsentrik tuklar *Hippophae ramnoides*, transpiratsiyani pasaytiruvchi epiderma ustidagi qoplam (160x), **N**— suv o‘simliklarining suzuvchi bargidagi tuklar to‘plami *Salvinia natans* (50x) Po‘stloq tuklari epikutikulyar mumli bo‘ladi, shuning uchun ular barg yuzasiga tommaydigan bo‘ladi.



Трихомалар

Rasm 8.

Nazorat savollari

1. O'tkazuvchi to'qimalar qanday vazifani bajaradi va ular necha xil bo'ladi?
2. Asosiy to'qimaning xillari va ularning vazifasi?
3. Asosiy to'qima vazifasi, uning xillari
4. Assimilyatsion (xlorenxima) to'qima
5. hamlovchi to'qima
6. Shamollatuvchi (aerenxima) to'qima
7. So'ruvchi to'qima
8. Vellamen – suv shimuvchi to'qima
9. Ajratuvchi to'qima vazifasi, uning xillari
10. Tashqi chiharuvchi to'qimalar:

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
2. V. Ch. Evans Farmakognosiya. –Xalqaronashr:Edinburg, London Nyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
3. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –16p.
4. Яковлев Г. П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
5. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
6. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
7. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василева А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Березовская Т.П., Дмитрук С.Е., Гришина Е.И., Белоусов М.В. Основы фармацевтической ботаники. – Томск: Печатная мануфактура, 2004.-294 с.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognosiya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Ildiz morfologiyasi va anatomik tuzilishi. Ildiz metamorfozi. Geterogen va gomogen ildizlar sistemasi.

Ma'ruzaning maqsadi: Ildiz morfologiyasi, anatomiyasi va metamorfozi haqida tushuncha berish.

Ma'ruzaning rejasi:

1. O'simlik organlari
2. Ildiz morfologiyasi
3. Ildizning anatomiyasi
4. Ildiz metamorfozi.
5. Ildizdagi tugunak bakteriyalar va mikoriza

Tayanch iboralar:Yuksak o'simlik organlarining tuzilishi. Vegetativ va generativ organlar. Asosiy morfologik qonuniyatlar: simmetriya turlari, metamorfoz. Analogik va gamologik organlar. qutblanish, yuksak o'simliklarni vegetativ organlari, poya, ildiz. Kurtak tuzilishi va o'sish nuqtasi. Vegetativ va aralash kurtaklar. G'uncha. Ildiz. Ildiz zonlari. Ildizning o'sish nuqtasi. Initsial hujayra. Ildiz qinining hosil bo'lishi va vazifalari. Birlamchi ildiz tuzilishi. Epiblema (rizoderma), birlamchi po'stloq, markiziy silindr. Meristema hosil qilgan qavatlar: dermatogen, periblema, pleroma. Birlamchi po'stloq qavati: ekzoderma, mezoderma va endoderma. Endodermaning tuzilishi, vazifasi. Hidrostatik bosim. Peritsikl. Yon ildizning hosil bo'lishi. Geterogen, gomogen ildizlar sistemasi.

Ildiz (Radix)

Ildiz o'simliklarning asosiy vegetativ organi bo'lib birinchi marta urug' embrionidan o'sib chiqadi. Urug' embrio-nidan o'sib chiqqan ildiz yaxshi taraqqiy etib ketsa uni bosh ildiz deb ataladi. Asosiy bosh ildizdan yon ildizlar o'sib chiqadi. Yon ildizlar asosiy bosh ildizning ichki to'qimalaridan o'sib chiqadi. Yon ildiz ichki to'qimalardan o'sib chiqqani uchun endogen tipda o'sish deyiladi. Asosiy bosh ildiz va undan o'sib chiqqan birinchi tartibdagi yon ildizlar geotropizm, ya'ni erga qarab o'sish xususiyatiga ega (tikka, yotib, yuqoriga qarab, pastga qarab). Bu ildizlar geotropizm xususiyatiga ega emas. Asosiy bosh ildiz yon ildizlarga nisbatan katta bo'lsa o'q ildiz deyiladi. (1. rasm)

Masalan: beda, g'oz, otquloq, yantoq, qoqio't kabi o'simlik ildizlari. Yantoqning asosiy bosh ildizining uzunligi 20 m bo'ladi. Chunki yantoq suvsiz joyda yashaydi. O'q ildiz shoxlangan yoki shoxlanmagan bo'lishi mumkin. Agar o'q ildiz er yuzasiga yaqin joyda shoxlangan bo'lsa shoxlangan o'q ildiz deyiladi. Agar o'q ildiz er ostining chuqurroq erida shoxlanmagan bo'lsa shoxlanmagan o'q ildiz deyiladi. Ikki pallali o'simliklarning ildizi asosan o'q ildiz bo'ladi. Bir pallali o'simliklarda urug' embrionidan o'sib chiqqan bosh ildiz yaxshi taraqqiy etmaydi, bu o'simliklarda bosh ildiz yon ildizlarga nisbatan teng bo'ladi. Shuning uchun xam bir pallali o'simliklarning ildizi (mochkovat'sh koren) deyiladi. Masalan: bug'doy, arpa, sholi, piyoz va boshqa ildizlar. Ildiz o'simliklarning poyasida ba'zan bargidan xam o'sib chiqishi mumkin. Poyadan yoki bargdan o'sib chiqqan ildiz qo'shimcha ildiz (pridatochnsh koren) deyiladi. Bir pallali va ikki pallali o'simliklarda, qo'shimcha ildiz taraqqiy etgan bo'ladi. Ildizning taraqqiy etishi o'simlikning yashash sharoitiga bog'liq. Masalan: tog'larda, toshlarning ustida o'suvchi o'simliklarda ildizning probka qismi yaxshi taraqqiy etgan bo'ladi. Ildiz qinlari esa ko'mir kislotalarini va yana olma kislotalarini ishlab chiqarib turadi. Qumli cho'llarda yashaydigan o'simliklarda yon ildizlar yaxshi taraqqiy etgan bo'ladi. Masalan: qumli cho'llarda ya'ni Qora Qum va Qizil Qumda o'suvchi juzg'unni olsak uning asosiy bosh ildizi 1,5-2m bo'ladi. Yon ildizlari esa 20 m gacha bo'ladi. Saksuvulni olsak ildizi er yuzida bir marta shoxlanadi va 3.5-4m chuqurlikda yana bir marta shoxlanadi. Ildizda oziq moddalar xam to'planishi mumkin. Bunday ildizlarni ildiz mevalar-(kroneplodi) deb yuritiladi: sabzi, turp, lavlagi, sholg'om, rediska va boshqalar. Bunday ildiz mevalarni qiyofasini o'zgartirgan ildizlar deb

yuritiladi. (metamorfoz kornya).Sabzi, turp, lavlagi ildiz mevalari asosiy bosh ildizdan xosil bo'ladi.Bundan tashqari yon ildizlardan xosil bo'lgan ildiz mevalar ham uchraydi. Masalan: kartoshka guli (georgin), parpi (akonit). Qiyofasini o'zgartirgan ildizlar xar xil qo'shimcha vazifalarni bajarib turadi. Ba'zi bir o'simliklarda havo ildizi (vozdushniy koren) bo'ladi. Havo ildizlari yordamida o'simlik havodan namlik olib turadi. Bundan tashqari havo ildizi o'simlikning tanasini tutib turishga yordam beradi. Masalan: tropik o'rmonlarda (daraxt ustida) yashaydigan epifit o'simligining ildizi ingichka bo'lib yuqoridan pastga qarab 'sadi. Buyining uzunligi 4-6 m, enining diametri 1-2 sm, jo'xorida xam havo ildizi bor.Felodendron o'simligida xam havo ildizi bor.

Ildizlar metamorfozi.

Ko'p tomonlama moslashgan ildizlar ayrim funksiyasialarni bajaradi. Ildizlarni yer ostida ushlab turuvchi funksiyasiga qarab tashqi ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Qo'shimcha **ilashgan ildizlar** chirmashib o'suvchi o'simliklar va epifitlarda uchraydi. Mangroli o'simliklarning **tirgak ildizlar** mustaxkamligiga suv tez xaroratlanadigan,suvni ko'p joylar yordam beradi. Baland boshqli o'simliklarda xam shu sharoitlarda asosiy rol o'ynaydi.Yog'och ko'rinishidagi, ildizlar shakllanadi 1 metr balandlikda tanasining atrofida.

Ildizlarning o'ziga xos simiruvchi funksiyasi,chuqurlashgan yerosti novdalari – ildizpoya,tuganak va piyozbosh. Bu ildizlarning qisqarishi shunga asoslanganki, yani xujayralarning kondalangiga uzunlashgan devorlari birlamchi qobiqida tselyulozani kondalang orientirki fibrillari bor,shuning uchun ular turgor xolatga ular qusqarib javob qaytarashadi.

Bazi o'simliklar **g'amlovchiildizlarni** xosil qilaishadi, ayrim ildizpoyalarda xam gamlovchi toqimalar qisman bolsaxam ildizlarga mansub.

Anormal ikkilamchi yog'onlanish qalin,ammo kam shoxlangan ildizni qismi yuzaga keladi;ayrim xolarda yon ildissiz sharsimon ildizli tuganaklar xosil boladi.Oziqa vositasi sifatida kopro di- oligopolisaxaridlar uchraydi.(saxaroza,inuli,kraxmal)

Ildizli tikkanaklar bu qoshimch ochiq ildizlarning kalta, yog'ochlangan,choqqili yon ildizlari.Bazi palmalarda ular poyaning asosini ximoya qilishadi.

Ochiq ildizlar,ular substratni ustida novdali sistemani ushabturuvchi funksiyani bajarishadi. Epifitlar ochiq ildizlar orqali suv istemol qilishadi, ular yer namligiga yetaolishmaydi (aayrim xolarda barg orqali).Bunday ildizlarda oziga xos ustki toqimalar mavjud. (velamen) U protodermadan pereklinial yolim xujaralar bolinishidan paydo bolgan. Xuddi torfli mox sfangum barglaridagi suvli xujayralari kabi bu bosh xujayralar yomgir suvi bn tolib qoladi ,velamen suvni shimib xuddi gubkadek ushabturadi.

Har doim kop namlangan yerda mustaxkam ildizlar kislorod tanqislikga uchradi uni suvda kam erigani uchun.Shuning uchun kop daraxtlar va butalar tropic ormonlarda tepaga(musbat geotrop)osuvchi Nafas oluvchi ildizlar-pnevmatofor xosil qilishadi,ular yer(suv)yuzasidan tepaga shunday kotarilishadiki xujayralararo xujayra qobigida xovo bn kontaktda bolishadi.Ozgacha forma-Bog'im bog'imli ildizlar,ular boshida tepaga qarab o'sishadi ,keyin yerga yetgandan, bukilib yana yer tegiga qarab ketadi.Birtarafli qalinganlashgani sababli bukilgan joyida xovoda chiqib turuvchi bortiqli ildizlar patdo boladi.

Tayanch ildizlar. Poyadan chiqqan qo'shimcha ildizlar uni tik tutib turishga yordam beradi. Bunday ildizlarning ko'pincha kechpishar, baland bo'yli makkajo'xori, oq jo'xori o'simliklarning pastki bo'ginlarida ko'rish mumkin. So'rg'ich ildizlar. Tekinxo'r o'simliklarda xlorofill donachalari bo'lmaganligi uchun ular boshqa o'simliklardan oziq moddalar hisobiga yashaydi.Bunday o'simliklarda asosiy ildizlar o'rnida so'rg'ich ildizlar bo'ladi. So'rg'ich ildizning po'stloq parenxima xujayralari,o'tkazuvchi bog'lamlari ona o'simlikning floemadagi o'tkazuvchi bog'lamlariga qarab o'sadi. O'sayotgan ildizning uzunchoq parenxima xujayralari gaustoriya xujayralari deb ataladi. Bu zarpechakda, shamqiyada bo'ladi.

Botqoqlik joylarda o'sadigan o'simliklarda nafas oluvchi ildizlar Ham bo'ladi. Nafas oluvchi ildizlar o'simlikning pastki qismida, ya'ni er tagiga er ustiga qarab o'sadi. M: Botqoq sarvisi-kirishi mumkin. Ba'zi bir o'simliklarda tirgak ildizlar bo'ladi. M: tropik o'simliklardan fikusda ko'rish mumkin. Tirgak ildizlar o'simlikning yuqori qismidan chiqib pastga qarab O'sadi. Shu bilan u erga

qadalib o‘simlikning tanasini tutib turadi. Ildiz sistemasi o‘simliklarning er ustki qismlariga nisbatan baʼzan 5-15 martagacha katta bo‘ladi.

Ildiz faqat murakkab tuzilgan yuqori o‘simliklarda bo‘ladi. Suv o‘tlarida va moxlarda ildiz bo‘lmaydi. Bu o‘simliklarda ildiz o‘rnida bir yoki ko‘p xujayrali tuklar bo‘ladi. Bu tuklarni rezoidlar deb ataydi. Shu rezoidlar yordamida suv va suvda erigan mineral moddalarni shimib oladi. Yuqori sporali o‘simliklarda suv qirqquloqida Ham ildiz bo‘lmaydi. Ildiz vazifasini qiyofasini o‘zgartirgan barglar bajarib turadi. Yuqori o‘simliklardan shumqiya, zarpechak, devpechak o‘simliklarida Ham ildiz bo‘lmaydi. Bu o‘simliklar parazit holda hayot kechiradilar. Uzining so‘rg‘ich tuklari yordamida boshqa o‘simliklardan oziqli moddalarni so‘rib oladi. Dukkakdoshlar oilasiga kiruvchi o‘simliklarning ildizida tugunak bakteriyalar bo‘ladi. Bu bakteriyalar dukakli o‘simliklar bilan simbioz xolda yashaydi. (Xamkorlik va qarama-qarshi kurash), tugunak bakteriyalar havoning erkin azotini yutish xususiyatiga ega. SHuning uchun xam tugunak bakteriyalar o‘simlikni azot bilan ta‘minlab turadi. O‘simlikdan esa organik modda oladi. Shuning uchun xam dukkakli o‘simliklar ekilgan er azotli birikmaga, o‘simlik esa oqsilga boy bo‘ladi.


Akademik Vilyams o‘simliklarni almashlab ekishda dukkaklilarga katta ahamiyat beradi. O‘simlik ildizida zamburug‘lar xam bo‘ladi. O‘simlik ildizidagi zamburug‘lar mikoriza deb ataladi. Grekcha miks-zamburug‘, riza-ildiz (zamburug‘li ildiz). Mikorizalar o‘simlik ildizida 3 xil shaklda bo‘ladi.

1. Mikorizalar ildizning tashqi tomonida bo‘lsa ektotrof mikoriza deyiladi. M: Olxo‘ri, dub, terak daraxtlari ildizida bo‘ladi.

2. Mikorizalar O‘simlik ildizining ichki Qismida uchrasa endotrof mikoriza deyiladi. M: Bug‘doy, jo‘xori, qulupnay, piyoz ildizlarida ko‘rish mumkin.

3. Mikorizalar ildizning tashqi tomonidan tugunak xosil qilsa tugunak mikoriza deyiladi. M: Tamaki, qalampir, pomidor o‘simliklarining ildizida ko‘rish mumkin.

1881 yilda rus olimi Kamenskiy mikorizalarning tabiatini aniqlagan. Mikorizalar erimaydigan moddalarni eriydigan qolga ketirishda katta ahamiyatga ega. O‘simlikning ildizining V_1 vitamin (tiamin) bilan taminlab turadi. Vitamin V_1 ta‘sirida o‘simlik ildizi kuchli ravishda taraqqiy etadi. Ba‘zi bir mikorizalar havoning azotini yutish xususiyatiga ega. SHu bilan o‘simlik ildizining azotli birikma bilan taminlab turadi.



Rasm 1. Ildizlar.

A - ipsimon ildiz, B - urchiqsimon ildiz, V - ildiz meva. G – o‘kildiz, D - popuk ildiz.

Geterogen ildizli sistema. Ko'p o'simliklarda murtakdan ildizcha ,boshidan yoki birlamchi ildiz bo'lib o'sib chiqadi vertikal amalga oshirish o'zakli ildizni xosil qiladi.Undan ikkilamchi ildiz va yon ildizlar,birinchi tartibli.Asosiy xamda qo'shimcha ildiz bn birgalikdagi ildiz sistemasi alloriza sistemasi deyiladi(yun Allos o'zgacha demakdir).

Gomogen ildiz tizimlari Gomogen tizim butunlay yoki ko'pincha birinchi ildizdan shoxlangan, o'xshash ko'rinishli, shoxlanmagan yoki kam shoxlangan ildizlardan tashkil topgan. Xamma paporotniklar oilasiga mansub o'simliklarda gomogen ildizli sistema.

ILDIZ ANATOMIYASI

Ildiz uchki qismi bilan pastga qarab o'sadi. Uning uchida uch qator birlamchi meristema joylashgan xar bir qatorda odatda 4 tadan xujayra bo'ladi, pastki qatordagi meristemada ildizning qini va dermatogen xosil bo'ladi. O'rta qatordagi meristemada pereblema, yuqori qatordagi meristemada esa pleroma xosil bo'ladi. Dermatogendan birlamchi qoplagich to'qima (epidermis), pereblemadan ildizning po'stloqi, pleromadan esa ildizning markaziy silindr qismi tashkil topadi.

Ildiz uchki qismi bilan pastga qarab o'sadi.Uning uchida uch qator birlamchi meristema joylashgan xar bir qatorda odatda 4 tadan xujayra bo'ladi, pastki qatordagi meristemada ildizning qini va dermatogen xosil bo'ladi. O'rta qatordagi meristemada pereblema, yuqori qatordagi meristemada esa pleroma xosil bo'ladi. Dermatogendan birlamchi qoplagich to'qima (epidermis), pereblemadan ildizning po'stlog'i, pleromadan esa ildizning markaziy silindr qismi tashkil topadi.

Ildizning o'suvchi qismi quyidagi 4 ta zonalardan iborat.

1. Ildiz qini zonasi. Ildiz qini meristemani shikastlanishidan saqlab turadi. Hamda ildizning pastga qarab erni yorib o'sishga imkoniyat yaratib beradi. Ildiz qini xujayrasida kraxmal bor. Kraxmallar o'z og'irligi bilan ildizning tikka va to'g'ri o'sishiga yordam beradi.

2. Bo'linuvchi zona. Bu zonada meristema joylashgan meristema xujayralari oddiy yoki kariokinez yo'lida bo'linib ko'payib turadi. Bu bo'linuvchi xujayralarda vakuola bo'lmaydi, yadro xujayralarining markaziga joylashgan. Bu zonaning kattaligi 2 mm oralig'ida bo'ladi.

3. O'suvchi zona. Bu zonada xujayralar bo'linishdan to'xtab o'sa boshlaydi. O'suvchi zonadagi xujayralarda vakuolalar paydo bo'lgan bo'ladi. Bo'linuvchi zona bilan o'suvchi zona birgalikda 3-4 mm kattalikda bo'lib bular ildizning o'suvchi nuqtasi deb ataladi.

4. Shimuvchi zona yoki ildiz tuklari xosil bo'luvchi zona bu zonada birinchi marotaba to'qimalar vujudga keladi. Bu zonaning kattaligi bir necha sm bo'ladi. Ildizning epidermasidan tuklar o'sib chiqadi. Ildiz epidermasini epiblema ham deb yuritiladi. epidermis xujayralarining po'sti yupqa, piktin moddasi bilan qoplangan.

Ildiz epidermisida kutikula qavati va ustitsalari bo'lmaydi. Epidermisdan o'sib chiqqan tuklar bir xujayrali o'simtalar bo'lib,uzunligi 0,16 mm dan 1sm gacha bo'ladi. Tuklarning umri qisqa bo'ladi. Oz muddat kechiruvchi organlar efemer organlar deyiladi. Tuklar faqat 10-20 kun hayot kechiradi, lekin ularning miqdori juda ko'p bo'ladi. M: Jo'xori ildizining 1mm 52 0 sathida 425 ta, no'xatda 232 ta tuk bor. Ildiz tuklari tirik bo'ladi.Tuklar ildizning shimuvchi satxini 5 martada n 20 martagacha ortiradi. Ildiz tuklarining ba'zilari olma, ko'mir kislotalarini ishlab chiqaradi. Ildiz tuklari orqali erdan suv va suvda erigan mineral moddalarning shimadi.

Ildizning anatomiyasi 2 ga bo'linadi.

1.Birlamchi ildiz anatomiyasi

2.Ikkilamchi ildiz anatomiyasi

Bir pallali o'simliklarning ildizi birlamchi, Ikki pallali o'simliklarning ildizi esa ikkilamchi, yosh paytda esa birlamchi bo'ladi.Ildiz tashqi tomondan epidermis bilan qoplangan. Epidermisdan tuklar o'sib chiqadi. Ildizning shimuvchi zonasi kundalang kesganimizda ikki qismdan iborat ekanligini ko'rish mumkin.(2.rasm)

1.Ildizning po'stloq qismi.

2.Markaziy silindr qismi.

Ildizning po'stloq qismi 3 xil qavat xujayralardan tashkil topgan.


1. Tashqi qavat-ekzoderma.

2. O'rta qavat-mezoderma.

3. Ichki qavat -endoderma.

Ekzoderma-bir necha qator zich joylashgan ko'p qirrali parenxim xujayralardan iborat. Ekzoderma xujayralari o'lik bo'ladi, ya'ni suberin moddasi bilan sug'orilib probkalangan. Ikki pallali o'simliklarda epidermis tushib ketib o'rniga probka hosil bo'lgunga qadar qoplog'ichlik

vazifasini bajarib turadi. Ba'zan egzodermada mexanik to'qima sklerenxima xalqasi ham joylangan bo'ladi.



Mezoderma-bir necha qavat siyrak joylashgan parenxim xujayralardan tashkil topgan. Ba'zan mezoderma xujayra-sida bo'shliq joy xam uchraydi. Bu bo'shliq joyni aerinxima deyiladi. Mezodermada suv va suvda erigan oziq moddalar to'planadi. Ba'zan mezodermada chiqaruvchi organ va yo'llar bo'ladi. Mezoderma oziq moddalarni to'plashdan tashqari o'tkazuvchanlik vazifasini bajarib

turadi. Ildiz tuklari shimib olgan oziq moddalar mezoderma orqali markazga o'tadi. Markazga joylashgan ksilemaning suv naylarga tushgan suv va suvda erigan mineral moddalar yuqoriga ko'tarilib ketadi.

Endoderma-odatda bir qator ba'zan ikki qator zich

Rasm 2.

joylashgan parenxim xujayralardan iborat. Endoderma hujayralarning ichki va yon tomonlari probkalangan bo'lib faqat tashqi mezodermaga qaraganda po'sti yupqaligicha qoladi. Ba'zi endodermaning tashqi va ichki tomoni yupqaligicha qolib yon tomon probkalanadi. Probkalangan xujayralar o'lik bo'ladi. Bularning orasida ba'zi xujayralar probkalanmaydi. Prokalanmagan xujayralar tirikligicha saqlanib qoladi. Bu xujayraning endodermaning tirik o'tkazuvchi xujayrasi deyiladi. Chunki bu xujayralari markaziy silindr qismiga suv va suvda erigan xoldagi mineral moddalar o'tib turadi. **Ildizning markaziy qismi peretsikl deb ataladi.**

Tug'diruvchi to'qimadan boshlanadi. Peretsikl odatda bir qator ba'zan bir necha qator bo'lib joylashgan parenxim xujayralardan tashkil topgan. Peretsikl xujayralari kariokinez yo'lda bo'linib ko'payib turadi. Natijada peretsikldan yon ildizlar o'sib chiqadi. Peretsiklni kambiydan farqi kambiy erta bahordan kech kuzgacha bo'linib ko'payib turadi. Peretsikl esa ma'lum vaqtgacha bo'linib ko'payadi. Ikki pallali o'simliklardan peretsiklda fellogen ham hosil bo'ladi. Ildiz markazida o'zak xujayralari bo'lib uning atrofida ksilema so'ngra floema joylashgan. Ksilema bilan floema radial tipda joylashgan.

Ikki pallali o'simliklarning ildizi yosh vaqtida bir-lamchi so'ngra ikkilamchi tuzilishda bo'ladi. Ildizning ikkilamchi tuzilishida ikkilamchi o'tkazuvchi to'qimalar va ikkilamchi qoplag'ich to'qimalar vujudga keladi. Kambiydan ikkilamchi ksilema va floemalar probka kambiydan (Fellogenidan) ikkilamchi qoplag'ich to'qima hosil bo'ladi. Kambiy floema bilan ksilemaning orasiga joylashgan bo'lib o'zidan yuqoriga floema elementlarini ichkariga esa ksilema elementlarini ishlab chiqarib turadi. SHuning uchun ham ikki pallali o'simliklarning poyasi va ildizi bo'yigagina emas eniga ham o'sib turadi. Kambiydan hosil bo'lgan floema, ksilema ikkilamchi ksilema va floema deb yuritiladi. Ikkilamchi ildizning markazida birlamchi ksilema (ya'ni o'zak o'rnida), uning ortida ikkilamchi ksilema joylashgan. Ikkilamchi ksilema ustida kambiy va uning yuqorisida floema so'ngra peretsikl o'rnashgan, peretsiklning yuqorisida ildizning po'stloq qismi bo'ladi. Yon ildizlar mana shu peretsikldan vujudga keladi.

Ko'p yillik, ikki pallali o'simliklarning ildizi boshqa tomondan periderma bilan qoplangan. Ildiz markazidan toki po'stlog'iga qadar o'zak nur xujayralari joylashgan. O'zak nur xujayralari ko'ndalangiga yana o'zakdan po'stloqqa tomon oziq moddalarni etkazib turadi.

Ildiz mevalik o'simliklarning ildiz tuzilish jixatidan 3 xil bo'ladi.

1. Ildizning po'stloq qismi kuchli taraqqiy etgan bo'lib, oziqli moddalar asosan po'stloqda to'planadi. M: sabzi.

2. Ildizning markaziy ya'ni ksilema qismi kuchli taraqqiy etgan bo'lib oziqli moddalar shu qismga to'planadi. M: turp, rediska.

3. Ildizning po'stloq hamda markaziy qismi yaxshi taraqqiy etgan bo'lib oziqli moddalar xar ikkalasida to'planadi. M: lavlagi.


Ildiz mevalarni ildiz metamorfozlari ham deb yuritiladi. Ularda oziq moddalar to'planadi. To'plangan oziq moddalar o'simlik, hayvon va inson organizmlari uchun muhim ahamiyatga ega. Ularda turli xildagi organik birikmalar xam to'planadi.

1. Ildiz qini zonasi. Ildiz Qini meristemani shikastlanishidan saqlab turadi. Hamda ildizning pastga qarab erni yorib o'sishga imkoniyat yaratib beradi. Ildiz qini hujayrasida kraxmal bor. Kraxmallar o'z og'irligi bilan ildizning tikka va to'g'ri o'sishiga yordam beradi.

2. Bo'linuvchi zona. Bu zonada meristema joylashgan meristema xujayralari oddiy yoki kariokinez yo'lida bo'linib ko'payib turadi. Bu bo'linuvchi xujayralarda vakuola bo'lmaydi, yadro xujayralarining markaziga joylashgan. Bu zonaning kattaligi 2 mm oralig'ida bo'ladi.

3. Usuvchi zona. Bu zonada xujayralar bo'linishdan to'xtab o'sa boshlaydi. O'suvchi zonadagi xujairalarda vakuolalar paydo bo'lgan o'ladi. Bo'linuvchi zona bilan o'suvchi zona birgalikda 3-4 mm kattalikda bo'lib bular ildizning o'suvchi nuqtasi deb ataladi.

4. Shimuvchi zona yoki ildiz tuklari xosil bo'luvchi zona. Bu zonada birinchi marotaba to'qimalar vujudga keladi. Bu zonaning kattaligi bir necha sm bo'ladi. Ildizning epidermasidan tuklar o'sib chiqadi. Ildiz epidermasini epiblema ham deb yuritiladi. Epidermis xujayralarining po'sti yupqa, piktin moddasi bilan qoplangan. (3.rasm)



Rasm 3. A. Bug'doy ildizining uzunasiga kesimi.

1 - ildiz qini, 2 - meristema, 3 - dermatogen, 4 - periblema, 5 - pleroma, 6 - epiblema, 7 - birlamchi po'stlok, 8 - markaziy silindr, 9 - tukcha, a - ximoya zonasi, b - bo'linish zonasi, v - o'sish zonasi, g- surish zonasi.

Ildiz epidermisida kutikula qavati va ustitsalari bo'lmaydi. Epidermisdan o'sib chiqqan tuklar bir xujayrali o'simtalar bo'lib, uzunligi 0,16 mm dan 1sm gacha bo'ladi. Tuklarning umri qisqa bo'ladi. Oz muddat kechiruvchi organlar efemer organlar deyiladi. Tuklar faqat 10-20 kun hayot kechiradi, lekin ularning miqdori juda ko'p bo'ladi. M: Jo'xori ildizining 1mm 520 sathida 425 ta, no'xatda 232 ta tuk bor. Ildiz tuklari tirik bo'ladi. Tuklar ildizning shimuvchi satxini 5 martada n 20 martagacha ortiradi. Ildiz tuklarining ba'zilari olma, ko'mir kislotalarini ishlab chiqaradi. Ildiz tuklari orqali erdan suv va suvda erigan mineral moddalarning shimadi.

Ildizning anatomiyasi 2 ga bo'linadi.

1. Birlamchi ildiz anatomiyasi

2. Ikkilamchi ildiz anatomiyasi

Bir pallali o'simliklarning ildizi birlamchi, ikki pallali o'simliklarning ildizi esa ikkilamchi, yosh paytda esa birlamchi bo'ladi.

BIRLAMCHI ILDIZ ANATOMIYASI.

Ildiz tashqi tomondan epidermis bilan qoplangan. Epidermisdan tuklar o'sib chiqadi. Ildizning shimuvchi zonasi kundalang kesganimizda ikki qismdan iborat ekanligini ko'rish mumkin.

1. Ildizning po'stloq qismi.

2. Markaziy silindr qismi.

Ildizning po'stloq qismi 3 xil qavat xujayralardan tashkil topgan.

1. Tashqi qavat - ekzoderma.

2. O'rta qavat - mezoderma.

3. Ichki qavat - endoderma.

Ekzoderma - bir necha qator zich joylashgan ko'p qirrali parenxim xujayralardan iborat. Ekzoderma xujayralari o'lik bo'ladi, ya'ni suberin moddasi bilan suqorilib probkalangan. Ikki pallali o'simliklarda epidermis tushib ketib o'rniga probkahosil bo'lgunga qadar qoplog'ichlik vazifasini bajarib turadi. Ba'zan ekzodermada mexanik to'qima sklerenxima xalqasi Ham joylangan bo'ladi.

Mezoderma-bir necha qavat siyrak joylashgan parenxim xujayralardan tashkil topgan. Ba'zan mezoderma xujayrasida bo'shliq joy xam uchraydi. Bu bo'shliq joyni aerinxima deyiladi. Mezodermada suv va suvda erigan oziq moddalar to'planadi. Ba'zan mezodermada chiqaruvchi organ va yo'llar bo'ladi. Mezoderma oziq moddalarni to'plashdan tashqari o'tkazuvchanlik vazifasini bajarib turadi. Ildiz tuklari shimib olgan oziq moddalar mezoderma orqali markazga o'tadi. Markazga joylashgan ksilemaning suv naylarga tushgan suv va suvda erigan mineral moddalar yuqoriga ko'tarilib ketadi.

Endoderma-odatda bir qator ba'zan ikki qator zich joylashgan parenxim xujayralardan iborat. Endoderma hujayralarning ichki va yon tomonlari probkalangan bo'lib faqat tashqi mezodermaga qaraganda po'sti yupqaligicha qoladi. Ba'zi endodermaning tashqi va ichki tomoni yupqaligicha qolib yon tomon probkalanadi. Probkalangan xujayralar o'lik bo'ladi. Bularning orasida ba'zi xujayralar probkalanmaydi. Prokalanmagan xujayralar tirikligicha saqlanib qoladi. Bu xujayraning endodermaning tirik o'tkazuchi xujayrasi deyiladi. CHunki bu xujayralari markaziy silindr Qismiga suv va suvda erigan xoldagi mineral moddalar o'tib turadi. Ildizning markaziy qismi peretsikl deb ataladi.

Tug'diruvchi to'qimadan boshlanadi. Peretsikl odatda bir qator ba'zan bir necha qator bo'lib joylashgan parenxim xujayralardan tashkil topgan. Peretsikl xujayralari kariokinez yo'lda bo'linib ko'payib turadi. Natijada peretsikldan yon ildizlar o'sib chiqadi. Peretsiklni kambiydan farqi kambiy erta baqordan kech kuzgacha bo'linib ko'payib turadi. Peretsikl esa ma'lum vaqtgacha bo'linib ko'payadi. Ikki pallali o'simliklardan peretsiklda fellogen ham hosil bo'ladi. Ildiz markazida o'zak xujayralari bo'lib uning atrofida ksilema so'ngra floema joylashgan. Ksilema bilan floema radial tipda joylashgan.

IKKILAMCHI ILDIZ ANATOMIYASI.

Ikki pallali o'simliklarning ildizi yosh vaqtida birlamchi so'ngra ikkilamchi tuzilishda bo'ladi. Ildizning ikkilamchi tuzilishida ikkilamchi o'tkazuvchi to'qimalar va ikkilamchi qoplag'ich to'qimalar vujudga keladi. Kambiydan ikkilamchi ksilema va floemalar probka kambisidan (Felloqendan) ikkilamchi qoplag'ich to'qima xosil bo'ladi. Kambiy floema bilan ksilemaning orasiga joylashgan bo'lib o'zidan yuqoriga floema elementlarini ichkariga esa ksilema elementlarini ishlab chiqarib turadi.(4. rasm) Shuning uchun ham ikki pallali o'simliklarning poyasi va ildizi bo'yigagina emas eniga ham o'sib turadi. Kambiydan hosil bo'lgan floema, ksilema ikkilamchi ksilema va floema deb yuritiladi. Ikkilamchi ildizning markazida birlamchi ksilema (ya'ni o'zak o'rnida), uning ortida ikkilamchi ksilema joylashgan. Ikkilamchi ksilema ustida kambiy va uning yuqorisida floema so'ngra peretsikl o'mashgan, peretsiklning yuqorisida ildizning po'stloq qismi bo'ladi. Yon ildizlar mana shu peritsikldan vujudga keladi.

Ko'p yillik, ikki pallali o'simliklarning ildizi boshqa tomondan periderma bilan qoplangan. Ildiz markazidan toki po'stloqiga qadar o'zak nur xujayralari joylashgan. O'zak nur xujayralari ko'ndalangiga yana o'zakdan po'stloqqa tomon oziq moddalarni etkazib turadi.


Ildiz mevalik o'simliklarning ildiz tuzilish jixatidan 3 xil bo'ladi.

1. Ildizning po'stloq qismi kuchli taraqqiy etgan bo'lib, oziqli moddalar asosan po'stloqda to'planadi. M: sabzi.

2. Ildizning markaziy ya'ni ksilema qismi kuchli taraqqiy etgan bo'lib oziqli moddalar shu qismga to'planadi. M: turp, rediska.

3. Ildizning po'stloq hamda markaziy qismi yaxshi taraqqiy etgan bo'lib oziqli moddalar xar ikkalasida to'planadi. M: lavlagi.

Ildiz mevalarni ildiz metamorfozlari ham deb yuritiladi. Ularda oziq moddalar to'planadi. To'plangan oziq moddalar O'simlik, hayvon va inson organizmlari uchun muhim axamiyatga ega. Ularda turli xildagi organik birikmalar xam to'planadi.



Rasm 4. Kovok ildizining ikkilamchi tuzilishi.

1 - birlamchi yog'ochlik, 2 – ikkilamchi yog'ochlik, 3 - kambiy, 4 - floema, 5 – o'zak nurlari, 6 - koplogich tukima.

Nazorat savollari

1. Ildizlar necha xil bo'ladi va qanday vazifani bajaradi?
2. Bir pallali o'simliklar ildizining ichiki tuzilishida qanday to'qimalar uchraydi?
3. Ikki pallali o'simlik ildizida to'qimalarning joylanishi qanday?
4. Ildiz vegetativ organ va uning vazifasi
5. Ildizning kelib chiqishiga ko'ra xillari.
6. O'q ildizning tuzilishi.
7. Popuk ildizning tuzilishi.
8. Shakli o'zgargan ildizlarga nima kiradi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. П.Зигте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
2. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
3. Яковлев Г. П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
4. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
5. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
6. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.

7. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –16p.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. БерезовскаяТ.П., ДмитрукС.Е., ГришинаЕ.И., БелоусовМ.В. Основыфармацевтическойботаники. – Томск: Печатная мануфактура, 2004.-294 с.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Ma’ruza № 5

Poya morfologiyasi. O‘t o‘simliklar poyasining anatomik tuzilishi. Daraxtsimon o‘simliklar poyasining anatomik tuzilishi.

Ma’ruzaning maqsadi: Poya morfologiyasi.O‘t o‘simliklar va daraxtsimon o‘simliklar poyasining anatomik tuzilishi haqida tushuncha berish.

Ma’ruzaning maqsadi: Poya morfologiyasi.O‘t o‘simliklar va daraxtsimon o‘simliklar poyasining anatomik tuzilishi haqida tushuncha berish.

Reja:

- 1.Novda va uning qismlari.
- 2.Poyaning yo‘nalish bo‘yicha turlari
- 3.Poyaning shoxlanishi.
- 4.Poyaning shakllari.
- 5.Qiyofasini o‘zgartirgan poyalar yoki poya metamorfozi.
- 6.O‘t o‘simliklar,daraxtsimon o‘simliklar poyasining anatomik tuzilishi.
- 7.Bir pallali o‘simliklar poyasining tuzilishi.
- 8.Bir pallali o‘simliklarning o‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamlari
- 9.Ikki pallali o‘simliklar poyasining ichki tuzilishi.
- 10.Ikkilamchi qoplovchi to‘qima periderma va uning tuzilishi.
- 11.Ko‘p yillik yog‘ochli o‘simliklarning poyasining ichki tuzilishi.
- 12.Daraxtsimon o‘simliklarda yillik halqaning paydo bo‘lishi.
- 13.Ochiq urug‘li o‘simliklar poyasining ichki tuzilishi.

Tayanch iboralar:*Poya o‘simlikning asosiy o‘q qismi. Poyaning xillari. Tik o‘sovchi, ko‘tarilib o‘sovchi, sudralib o‘sovchi, chirmashib o‘sovchi, ilashib o‘sovchi lianalar. Poyaning shakli. Ko‘ndalang kesimi bo‘yicha poyaning xilma – xilligi. Poya sirtining tuzilishi. YAshash sharoitiga qarab o‘simlik poyalarining turlari. Novda. Novdani aniqlash. Novda qismining morfologik tuzilishi: barg va poya. Novdaning shakllanishi. Bargning novdaga joylanish qonunlari. Bo‘g‘im va bo‘g‘im oralig‘i. Uzun va qisqargan novdalar va ularning biologik o‘rni.Novdaning shoxlanishi. qiyofasini o‘zgartirgan er ostki va ustki poyalar. Poyaning ichki tuzilishi. prokambiy va o‘tkazuvchi to‘qimalarning o‘zgarishi. Poya va barglarning o‘tkazuvchi to‘qima bog‘lami. Bir va ikki pallali poyalarda o‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamlarini paydo bo‘lishi. Bog‘lamli va bog‘lamsiz poya tuzilishi. **Daraxtsimon va butasimon o‘simliklarning hayotiy shakllari.Kaulifloriya.***

Poya o'simliklarning asosiy vegetative organi bo'lib, birinchi marotaba urug' embrionidan, so'ngra kurtakdan o'sib chiqadi. Poyaning ichida hamma vaqt bosh kurtak bo'ladi. Ba'zan kurtaklar ildiz vabarglardan hosil bo'ladi. YOn novdalar yon kurtaklardan o'sib chiqadi. Qalamcha-lardan kurtaklar hosil bo'ladi. Bunday kurtak qo'shimcha kurtaklar deyiladi. Qo'shimcha kurtaklarning hosil bo'lishiga asosan qalamcha yoki parxish qilib ko'paytiriladi. Kurtaklar 2 xil bo'ladi. 1. vegetativ kurtak. 2. generativ kurtak.

Vegetativ kurtakdan novda va barg hosil bo'ladi. Generativ kurtakdan esa gullar ochiladi. Generativ kurtaklarning bandi qisqa o'zi yirik bo'ladi. Kurtaklarning tashqi tomonida qo'biqqa o'xshash qalin qattiq barglari bo'ladi. Bu barglar kurtaklarning sovuqdan chirishiga yo'l qo'ymaydi. Daraxtlar odatda kuzda kurtaklana boshlaydi. Bahorda o'simliklar oldin barg chiqaradi, so'ng gullaydi. Ba'zi o'simliklar esa teskarisi. Masalan: o'rik, yong'oq. Poya o'simliklarning shox – shabbalarini ko'tarib turadi. Erdan olingan tuz va mineral moddalarni barglarga beradi. Buni chiqish oqimi deyiladi. Barglar fotosintez protsessi orqali hosil bo'lgan poya orqali ildizga tushadi, buni tushish oqimi deyiladi.

Poya yordamida o'simliklar vegetativ ravishda ko'payadi. Vegetativ ko'payishga qalamcha, parxish kiradi. Poya o'zining uchki qismi bilan yuqoriga qarab o'sadi. Bir pallalik o'simliklarning poyasi bo'g'inlari bilan ham o'sadi (bug'doy, qamish, jo'xori). Chunki ularning bo'g'inlarida meristema bor. Bunday o'sishga interkolyar o'sish deyiladi. O'simliklarning poyasi o'tli yog'ochlangan bo'ladi. O'tli o'simliklar bir yillik yoki ko'p yillik bo'lishi mumkin. Bir yillik o'simliklar vegetatsion davrda ya'ni shu yilning o'zida urug'dan o'sib chiqib shu yilning o'zida urug' hosil qiladi. Masalan: qovun, tarvuz, jo'xori: 2 yillik o'simliklar birinchi yili urug'dan o'sib chiqib, ikkinchi yili urug' beradi. Masalan: sabzi, lavlagi. Ko'p yillik o'simliklar bir necha yillar yashab har yili urug' berishi mumkin. Masalan: ajriq, beda, g'umay, kartoshka, piyoz. Daraxt va butalar h belgi qo'yiladi. Daraxt va butalarning poyasi yog'ochlangan bo'ladi. Daraxtlarning butalardan farqi daraxtlarda ildizdan bitta asosiy poya o'sib chiqadi, bu asosiy poya shoxlanib, o'sib turadi. Butalarda ildizdan bir nechta poya o'sib chiqadi, ularning bo'yi daraxtlardan past bo'ladi. Masalan: na'matak, saksovul, anor. Daraxtlarning bo'yi baland bo'lib, bir necha yil yashaydi, masalan: chinorning bo'yi 30 m, oqterakning bo'yi 40 m, qarag'ay bo'yi 50 m, mamont daraxti 140 m, evkalip daraxtining bo'yi 150 m, xurmo daraxtining bo'yi 500 m bo'ladi, yashash mudati: qarag'ay 500 yil, oqterak 600 yil, olcha 1200 yil, kashtan daraxti 2000 yil, savri daraxti 3000 yil, mamont daraxti 5000 yil. Ba'zi o'tli o'simliklar poyasi juda qisqa (bir necha sm) bo'ladi. Masalan: qoqio't poyasi. O'tli o'simliklarning poyasi silindrsimon, uch qirrali (kartoshka, kiyik o't); 4 qirrali (yalpiz, rayxon); ko'p qirrali (nasha, valeriana). Poya o'zakli yoki o'zaksiz (ichi) bo'lishi mumkin. Masalan: g'alladoshlar olasiga, kovaksimionlar oilasiga vasoyabon gullilar oilasiga kiruvchi o'simliklarning poyasida o'zak bo'lmaydi. Poya er ustida tikka o'sadi. SHuning bilan bir qatorda poya yotib o'sadi (tarvuz, qovun). Ba'zi poyalar osilib o'sadi (mosh, loviya). Ba'zi poyalar chirmashib o'sadi (pechak).

Poya 4xil yo'lda shoxlanib o'sadi.

1. Monopodial shoxlanish
2. Simpodial shoxlanish
3. Dixatomik shoxlanish
4. Soxta dixatomik.

Monopodial. shoxlanganda bosh kurtak o'sishdan to'xtamaydi. YOn kurtakdan o'sib chiqqan novdalar asosiy poyaga eta olmaydi. Masalan: terak, qarag'ay, qayrag'och.

Simpodial. Tipda shoxlanganda bosh kurtak o'sishdan to'xtaganda yon kurtaklarning biri o'sishni davom ettiradi. U ham o'sishdan to'xtagach boshqasi o'sishda davom etadi (olma, o'rik, nok, kartoshka, pomidor). G'o'za monopodial va simpodial shoxlangan bo'ladi. (chekonka qilinmasa monopodial, qilinmasa simpodial).


Dixotomik. Shoxlanish-ko'pincha tuban o'simliklarda bo'ladi. Bu shoxlanishda o'simlik tanasining o'sish nuqtasi hujayralari bo'linib 2 ta bir-biriga teng bo'lgan yangi novda hosil qiladi. Bu yangi novdalar ham o'z navbatida 1 xilda bo'linib o'sadi.

Soxta dixotomik. SHoxlanish-bunda uchki kurtak gullash bilan tugallanadi yoki qurib tushib ketadi. Oʻrnida iz qoladi uning ostida qarama-qarshi joylashgan 2 ta kurtak 1 vaqtida oʻsib ayri hosil qiladi. Bu yangi novdalar ham yana shunday shoxlanadi. Masalan: siren, soxta kashtan.

Baʼzi oʻsimliklarning poyasi qiyofasini oʻzgartirib turli vazifani bajaradi. Masalan: poya tikanga aylanadi yaʼni bunda novdalar oʻsishdan toʻxtab hujayra poʻsti yogʻochlanib tikanga aylangan boʻladi. Tikanga aylangan poya oʻsimlikni himoya qiladi. Masalan akatsiya tikani, jiydaning tikani, gledichiya daraxtining tikani. Baʼzi oʻsimliklarda novdaning bir qismi yaxshi taraqqiy etmasdan ingichka boʻlib gajakka aylangan boʻladi. Gajakka aylangan poya oʻsimliklarning biror narsaga osilib oʻsishiga imkoniyat tugʻdiradi. M: tokning poyasi. Baʼzi oʻsimliklarning poyasi barg vazifasini ham bajaradi. SHuningdek poyada suv zapaslari va oziqli moddalar ham toʻplanadi. M: kaktus va semiz oʻt. Koʻp yillik oʻtli oʻsimliklarning poyasi er ostida ham boʻladi. Baʼzilariniki esa, er ustidam, er ostida ham boʻladi. Er ostidagi poyaga ildiz poya kiradi. Ildizpoyaga misol qilib gulsapsar, sariq gʻumay, beda va boshqalar. Ildizpoya yotib va tik oʻsadi, ajriq, gʻumay, gulsapsarda ildizpoya yotib oʻsadi. Ildizpoyaning ildizdan farqi shundan iboratki ildizpoyada qin va tuklar boʻlmaydi. Ildizpoyani qiyofasini oʻzgartirgan poya deymiz. Chunki bundan barg qoldiqlari va kurtaklar bor. Ildizpoyada oziqli moddalar toʻplanadi va uning yordamida oʻsimliklar vegetative urchiydi koʻpayadi.

Daraxtsimon oʻsimliklarning hayot shakllari: buta va daraxt

Buta (koʻp poyali oʻsimlik) gabitusi novdaning asosida joylashgan kurtaklar yoki yon shoxlar yuqoridagilariga qaraganda kuchliroq oʻsishi bilan aniqlanadi: **bazitoniya** (1-rasm). Shu sababli, butalar bazal tiklanish zonasida kuchli yangi novdalar hosil qilib, har vegetatsiya davrida pastdan yosharish qobiliyatiga ega. Shoxlar, ayniqsa uchlardagi shoxlar zaif shoxlanadi va koʻp hollarda cheklangan hayot davomiyligi hamda balandlikka ega boʻladilar. Har yili yangi tiklanish novdalari hosil qiladigan butaning yogʻochlashgan asosi oz-ozdan qisqa tugunli **ksilopodiyga** oʻsadi. Butalarning oʻsish tizimi asosiga koʻra simpodialdir.



Rasm.1 Butalarning oʻsish va shoxlanish shakllari (W. Rauh ga koʻra):

A – oʻrmon yongʻogʻi *Corylus avellana*; **B** – marjondaraxt *Sambucus nigra*; ildiz tizimi bilan W asosiy ildiz ancha sodda tasvirlangan; P – asosiy novda; 1-4 – alohida yillik novdalar; o – yuqori tomonning kuchli shoxlari; u – pastki tomonning kuchsizlashgan shoxlari; E – turli generatsiya novdalarining qurigan uchlari; Ek – ksilopodiy tiklanish zonasidagi kurtaklar; C – urugʻpallali tugunlar; H – gipokotil.

Daraxtlarning oʻq tizimida, u hoh monopodial, hoh monoxazial boʻlsin, **akrotoniya** (yunoncha akros – eng baland; tonos – zoʻriqish, kuchayish) hukmronlik qiladi: bunda butalardagidan farqli ravishda uchki novda va unga yaqin yon kurtaklar kuchliroq oʻsadi. Shunday qilib, har yillik oʻsish asosan yagona poyada joylashgan shox-butoqning periferik qismida roʻy beradi. (1.rasm)

Kaulifloriya – gullarning oʻsimlik tanasida hosil boʻlishi. Kaulifloriyada ham qoʻltiqsimon shoxlanish goʻyoki yoʻqoladi: shoxlar yoki kuchli tanalardan mevasi yoki guli bor qisqa novdalar chiqadi. Bunday novdalar paydo boʻlishiga uzoq uyqudagi kurtaklar sabab boʻladi²

TUGUNAK POYA

Bu poyaga kartoshka tugunagini misol qilib olishimiz mumkin. Kartoshka tugunagi ham qiyofasini o'zgartirgan poya hisoblanadi. Chunki kartoshka tugunagi birinchidan poyadan hosil bo'ladi, ikkinchidan unda kurtaklar bor. Kurtaklar kartoshkaning ko'ziga joylashgan bo'ladi. Kartoshka yordamida o'simlik vegetativ ko'payadi. Kartoshka tugunagida zapas oziq modda-kraxmal to'planadi.

Piyoz boshi. Bunga lolaning piyozi, chuchmoma, boychechak piyoz, chesnok va boshqalar kiradi. Piyoz bosh ham qiyofasini o'zgartirib poyaga kiradi. Piyoz boshining pastki tomonida kichkina o'zak bor. Bu o'zak poyasidan yuqoriga qarab barglar, pastga qarab sochma ildiz o'sib chiqadi.

POYANING ANATOMIYASI

Poyaning anatomiyasi 3 xil bo'ladi.


1. BIR PALLALI O'SIMLIKLARNING POYASINI ANATOMIYASI

2. O'TLI IKKI PALLALI O'SIMLIKLAR POYASINING ANATOMIYASI

3. YOG'OCHLI O'SIMLIKLAR POYASINING ANATOMIYASI

Bir pallali o'simliklarning poyasi birlamchi tuzilishda bo'ladi.

Poya tashqi tomondan epidermis bilan qoplangan. Epidermis faqat bir qavat hujayralardan iborat. Epidermisda ustitsalar bor. Ustitsalar bargdagiga qaraganda kamroq uchraydi. Epidermisdan har xil tuklar bir hujayrali tuklar, ko'p hujayrali tuklar, bezli tuklar va boshqalar o'sib chiqadi. Poya ko'ndalang qismida epidermisning ichkarisi (tagi)da birlamchi po'stloqning tirik parenximalari joylashgan. Ba'zan epidermis tagida mexanik to'qima-sklerinxima joylashadi. Masalan: jo'xori poyasida. Sklerenxi-ma ma'lum joyda yoki doira bo'yicha bir necha qator joylashgan bo'ladi. Po'tloqning tirik hujayralarida xlorofil donachalari bo'lib, u erda fotosintez protsessi boradi. Fotosintez protsessida organik moddalar to'planadi. Po'stloqning ichki qavatini endoderma deb ataladi. Ba'zan endoderma o'rnida kraxmalga boy bo'lgan hujayralar uchraydi. Poyaning markaziy silindr qismi tug'diruvchi to'qima peresikldan boshlanadi. Peresikl poyada bir necha hujayralardan iborat. Peresikl ichkarida, ya'ni poyaning markaziy qismida o'tkazuvchi bog'lamlari asosiy to'qimalarda tarqoq joylashgan. Bir pallali o'simliklarda o'tkazuvchi to'qima bog'lami yopiq, ya'ni floema bilan ksilema o'rtasida kambiy bo'lmaydi. O'tkazuvchi to'qima bog'lami kolloterial tipda tuzilgan. Ya'ni floema ksilemaning bir tomoniga o'rnashgan. Poyaning markaziy qismidagi o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari yirik va katta, chet tomondagilari esa, maydaroq bo'ladi. Lekin o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari poyaning chetroq qismida ko'proq bo'ladi. Sababi o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari bargdan poyaga o'tib turadi. Bir pallali o'simliklar poyasining markazida o'zak bo'lmaydi (bug'doy poyasining ichi kovak, makkajo'xori poyasining ichi esa g'ovak bo'ladi). (2. rasm)



Rasm 2.

O'tli ikki pallali o'siliklar ham tashqi tomondan epidermis bilan qoplangan. Poya ko'ndalang kesimida epidermis tagida birlamchi po'stloq joylashgan. Birlamchi po'stloqda 2xil mexanik to'qimalarni uchratish mumkin.:

1.Kollenxima.

2.Sklerenxima.

Kollenxima 2 xil bo'ladi: Burchakli va plastinkali.Kollenxima tirik hujayralardan tashkil topgan bo'lib, unda fotosintez protsesslar bo'lib turadi. Poyada ko'proq burchakli kollenxima uchraydi. Bunday hujayralarning faqat 4 ta burchagi yog'ochlangan bo'ladi. Sklerenxima hujayralari hamma tomonidan yog'ochlangan ya'ni o'lik bo'ladi. Sklerenxima poyaga qattiqlik beradi. Kollenxima esa 2 xil vazifani bajaradi. Poyaga elastiklik berish va oziq moddalarni tayyorlash va to'plash. O'tkazuvchi to'qima bog'lamlari poyaning markaziy slindrida, ya'ni asosiy to'qimalarida doira bo'yicha, odatda bir qator, ba'zan ikki qator joylashgan. O'tli ikki pallali o'simliklarning o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari ochiq (floema bilan ksilema o'rtasida kambiy bor) hamda kolloterial (ksilemaning bir tomoniga floema joylashgan) yoki bikolloterial (ksilemaning har ikki tomoniga floema joylashgan) tipda tuzilgan. Masalan: Oshqovoq poyasidagi o'tkazuvchi to'qima shunday tipda tuzilgan. O'tkazuvchi to'qima bog'larining orasida oraliq kambiydan yangi o'tkazuvchi to'qima bog'lari hosil bo'lib turadi. Bu yangi hosil bo'lgan o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari birinchi hosil bo'lgan bog'lamlarga nisbatan kichikroq bo'ladi. To'plam oralig'idagi kambiy oldingi bog'lamlardagi kambiy bilan qo'shib, kambiy halqasini tashkil qiladi. Ksilema kambiy halqasining ichki tomonidan, floema esa tashqi tomoniga joylashadi. Poyaning markazida odatda o'zak bo'ladi. Labsimongullilar oilasiga, soyabon gullilar oilasiga kiruvchi o'simliklar poyasining o'zagi tez fursatdat nobud bo'lib, poyaning ichi kovak bo'lib qoladi (shalfey,yalpiz,sabzi,ukrop,tmin).O'zakning chetki hujayralari tirik saqlanib qoladi.Markazdagi hujayralarning po'sti yog'ochlanadi, ya'ni o'lik bo'ladi.

Yog'ochli o'simliklarning poyasi yosh davrida epidermis bilan, keyichalik ikkilamchi qoplovchi to'qima periderma bilan o'ralib oladi. Peridermani probka kambiyi, ya'ni fellojen ishlab chiqaradi. Fellojen o'zidan yuqoriga fellemani, ichkariga fellodermani ishlab chiqaradi. Fellogenning o'zi epidermisdan yoki po'stloqning tirik hujayralaridan hosil bo'ladi. Probka bilan qoplangan qavat o'zidan suv va havoni o'tkazmaydi. Probka bilan qoplangan poyalarda chechevichkalar bo'ladi. O'simlik chechevichka orqali nafas oladi hamda ortiqcha suvlarni bug'latib turadi. Peridermaning ichkarisida birlamchi po'stloqning hujayralari joylashgan. Ularda oziq moddalar to'planadi. Ba'zan bu hujayralarda kristallar ham uchraydi. Masalan: Lipaning poyasida ko'rish mumkin. Ba'zi bir o'simliklarning po'stloq'ida smola yo'llari yoki efir moylari ishlab chiqaruvchi bezli hujayralar joylashgan bo'ladi. Poyaning markaziy slindri peresikldan boshlanadi. Peresikldan ichkarida, ya'ni ikkilamchi po'stloqda floema joylashgan. Poyaning yog'ochli qismi ksilema va o'zakdan iborat. Ksilema bilan floema o'rtasida kambiy bo'linib ko'payib turadi. Kambiy hujayralari faqat qishda bo'linishdan to'xtaydi. Kambiy o'zidan yuqoriga floema elementlarini ichkari tomonga esa,ksilema elementlarini ishlab chiqaradi. Floemaga nisbatan ksilema qismi bir necha marotaba ortiq ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham poyaning po'stloq qismiga nisbatan yog'ochlik qismi qalin bo'ladi. Daraxtlarning yog'ochlik qismiga qarab, yoshini aytish mumkin. Kambiyning kuzda ishlab chiqargan suv naylari mayday, qalin po'stlik, ksilema elementlari zich joylashgan bo'ladi. Natijada bahor bilan kuz o'rtasida yillik chegara halqa hosil bo'ladi. Bu halqalarni yillik halqa deyishadi. Yillik halqalarning soniga qarab, o'simliklarning yoshi aytiladi. O'zakdan po'stloqqa qarab o'zak nur hujayralari joylashgan bo'ladi. O'zak nur hujayralari po'stloqqa suv va mineral moddalarni, po'stloq-dan markazga esa,organik moddalarni o'tkazadi. Daraxtlarning yog'ochlik qismi markaziy tomoni **Yadro** bo'lib hisoblanadi. Markazda bo'lgan suv naylari berkiladi. Suv naylari hamda ksilemaning parenxim hujayralarining po'sti oshlovchi moddalar, smola yoki boshqa organik moddalar bilan sug'oriladi. Shuning uchun daraxtning poyasi juda mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ham paxtaning poyasi duradgorlikda ishlatiladi. Daraxtlarda **Yadro** 30 yilda tuziladi. Yadroning qattiqligi o'simlikning yoshiga bog'liq emas, ob-havoga, tuproqqa bog'liq.


Yadro tuzilgandan so'ng ksilemaning **Yadro** atrofidagi yosh qismi o'tkazuvchanlik vazifasini bajarib turadi.

Ochiq urug'li o'simliklar poyasining ichki tuzilishi.

Igna bargli daraxtlar yog'ochi asosan traxeidlardan tashkil topgan bo'lib (1-rasm), ancha gomogen va bir tarzdadir. Zich jipslashgan traxeidlar bu yerda, bir vaqtning o'zida suv o'tkazuvchi va mexanik tizimlarishini bajaradilar. Suv naylari yo'q. Parenxima yog'och nurlari va smola yo'llarining (agar ular bo'lsa) bezli epiteliysidan tashkil topgan.

Traxeidlar va yog'och nurlarining parenxima hujayralari orasida yarim hoshiyalangan teshiklar (poralar) hosil bo'ladi. Bunday teshiklar (poralar) ayniqsa qarag'ayda ancha yirik. Yog'och nurlarining yuqori va pastki chegaralari bo'ylab nurli traxeidlarning tasmasi o'tadi. Nurli traxeidlar – bo'ylamasiga cho'ziq, devorlarida hoshiyalangan teshiklari (poralar) bor o'lik hujayralardir. Ushbu hujayralar radial suv transportini ta'minlaydilar.

Smola yo'llari nurlarda qisman bo'ylama va qisman radialdir. Ular igna bargli daraxt tanasidagi o'zaro bog'liq naylar tizimini tashkil etadi. Ignabargli daraxt tanasi jarohatlanganda oqib chiqadigan smola jarohat joyida antiseptik "пластырь" hosil qiladi. Daraxt tanasi zararlanganda qo'shimcha smola yo'llari hosil bo'ladi. Oqqarag'ay (pixta) smola yo'llari yo'q zararlanmagan yog'och zararlanadigan bo'lsa travmatik smola yo'llari hosil bo'ladi. O'rta kengliklarda o'sadigan daraxtsimon o'simliklarda ikkilamchi yo'g'onlashuv aprelning oxirlaridan sentyabrning boshlarigacha bo'lgan davr bilan cheklangan. Ya'ni, ushbu jarayon diskret ro'y beradi. Bunda iyul oyigacha **ertangi yog'och** hosil bo'lsa, keyinchalik davom etayotgan kambiy faolligida **kechki yog'och** hosil bo'ladi. Kechki yog'och traxeidlari ertangi yog'och traxeidlari qaraganda qalinroq devorlarga va mos ravishda ingichkaroq bo'shliqlarga egadirlar. Ammo ertangi yog'ochdan kechki yog'ochga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi.¹(3.rasm)



Rasm.3. Ignabargli daraxt tanasidagi kambiy sohasi qismining sxematik tasviri (K. Magdefrau gako'ra).

Kesiklar yo'nalishi: yuqorida – ko'ndalang; o'ngda – radial; chapda – tangensial. **1** – vertikal va gorizontal smola yo'llari (yog'och nurida) ga ega kechki yog'och, bezli hujayralar (bu epiteliy hujayralari – *Muharririzohi.*) qora rangda. **2** – ertangi yog'och; traxeidlar orasidagi yirik hoshiyalangan teshiklar (poralar) faqat radial devorlarda joylashgan; C – kambiy; S – tasmali parenximaga ega o'tkazuvchi lub; P – obli terlangan tashqi g'alvirsimon hujayralar. Pastdagi radial kesikda bo'ylamasiga kesilgan o'zak nuri ko'rsatilgan. Ushbu o'zak nuri yuqoridan va pastdan bir qator nurli traxeidlar bilan chegaralangan. (250x)

Nazorat savollari

1. Poya deb nimaga aytiladi va u qanday vazifalarni bajaradi?
2. Poyalar necha xil shoxlanadi?
3. Er ustki va er ostki qiyofasini o'zgartirgan poyalar necha xil bo'ladi?
4. Poyaning ichki tuzilishi necha xil bo'ladi?
5. Bir pallali o'tli o'simliklar ichki tuzilishi qanday?

¹П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.

6. O'tli ikki pallali o'simliklar poyasining ichki tuzilishi qanday bo'ladi?
7. Ko'p yillik yog'ochli o'simliklar poyasining ichki tuzilishi qanday?
8. Poya vegetativ organ va uning vazifasi
9. Poyaning tuzilishi va o'sishi qanday.
10. O'simliklar turiga qarab, poyaning shakllari.
11. Tabiatning tashqi muhitiga moslashgan poyaning xillari.
12. Poyaning shoxlanish xillari.
13. Poyaning shoxlanish xillarini ta'riflang
14. Yer ustki shakli o'zgargan poyalar.
15. Yer ostki shakli o'zgargan poyalar.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
2. Pharmaceutical Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –15 p.
3. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
4. Яковлев Г. П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
5. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
6. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
7. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василева А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Березовская Т.П., Дмитрук С.Е., Гришина Е.И., Белоусов М.В. Основы фармацевтической ботаники. – Томск: Печатная мануфактура, 2004.-294 с.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Ma'ruza - 6

Barg morfologiyasi. Bargning anatomik tuzilishi. Shakli o'zgargan barglar.

Ma'ruzaning maqsadi:

Barg vazifasi, uning qismlari. Bargning poyada joylanishi. Oddiy va murakkab barglar, qiyofasini o'zgartirgan barglar, bargning ichki tuzilishi to'g'risida tushuncha beriladi.

Reja:

- Barg vazifasi
- Barg qismlari
- Barg plastinkasining tuzilishi
- Bargning poyaga joylanishi

- Murakkab barglar
- Barg metamorfozasi
- Barg ichki tuzilishining xillari
- Barg ichki tuzilishining o‘simlikning yashash sharoitiga bog‘liqligi
- Dorzoventral barg anatomiyasi
- Izoloterial barg anatomiyasi
- Radial barg anatomiyasi

Tayanch iboralar: Barg. Barg yuksak o‘simliklarning asosiy vegetativ organi. Bargdagi muhim biologik jarayonlar: fotosintez, transpiratsiya (suvni bug‘latish). To‘liq va to‘liqsiz barglar. Shakllangan barg qismi: barg plastinkasi, bandli va qo‘shimcha barg (yon bargcha). Oddiy va murakkab barglar va ularning xillari. Barg plastinkasining cheti, shakli, uchi, asosi va tomirlanishi. Shaklini o‘zgartirgan barglar. Barg metamorfozi. Kseromorf barglar Vazifasiga qarab ichki tuzilishi: dorzoventral, izoloterial, radial barglar. Tashqi muhitga qarab barg tuzilishini moslanishi.

Barg mezofili. Ustunsimon to‘qima hujayralari. Bulutsimon g‘ovak to‘qimalar. Motor hujayralar. hoshiyali parenxima hujayralari. Smola yo‘li. Epitilial qatlam. O‘tkazuvchi sistema.

Barg tomir o‘tgan qismi: mexanik, asosiy, o‘tkazuvchi to‘qimalar.

BARG MORFOLOGIYASI- Folium.

Barg vegetativ a‘zo sifatida yuksak o‘simliklar uchun xosdir. Barg vositasida o‘simliklarning tashqi muhit bilan munosabati amalga oshadi. Barg poyada joylashgan bo‘lib, uning o‘sish konusidagi merestema hujayralarining rivojlanishidan hosil bo‘ladi. Ular poyada o‘ziga xos navbat bilan joylashgan bo‘lib, uning eniga va bo‘yiga o‘sishi bargning asosini va barg yaprog‘ini hosil qiladi. (1.rasm) Barg birinchi marotaba urug‘ embrionidan yoki kurtakdan o‘sib chiqadi. Barg pastki tomoni bilan o‘sadi. Ba‘zi o‘simliklarda masalan qirqquloqsimonlarda barg uchi bilan o‘sadi. Ko‘pchilik o‘simliklar bargi bahorda chiqib kuzda to‘kiladi. Ba‘zi o‘simliklarning bargi esa bir necha yil to‘kilmasdan turadi. Masalan: qarag‘ayning bargi 3 yil, archaning bargi 10 yil, velvichiya deb atalgan o‘simlikning bargi 100 yil to‘kilmasdan tura oladi.

Barg quyidagi funksiyalarni bajaradi.

1. Fotosintez
2. Gazlar almashinuvi
3. Suv bug‘latish
4. Zahira oziq moddalarni saqlash (karam, piyoz)
5. Himoya vazifasi (tikanaklar)
6. Vegetativ ko‘payishga, xizmat qiladi (yapon binafshasi, begoniya)

Barg quyidagi qismlardan tuzilgan bo‘ladi va barg bandi, plastinkasi, yon bargcha va barg asosi. Barg asosi bilan novdaga birlashib turadi. Barg bandi barg asosi va yaprog‘ini orasida hosil bo‘ladi. Uning vazifasi bargni yorug‘likka qaratib, maxanik vazifani bajarishidir. U ayrim o‘simliklarda yaxshi rivojlangan bo‘lsa, ayrimlarida bo‘lmaydi, bunday barglar o‘troq barglar deyiladi. Bunday barglar g‘allagulli o‘simliklarda hosil bo‘lib, barg qinchasi, tilchasini hosil qilib

bo‘g‘indan bo‘g‘ingacha masofada joylashadi. Yon bargchalar mayda bo‘lib, asosan 2 tadan bo‘ladi.

Vazifasi kurtakni himoya qilishidir. Ayrim o‘simliklarda ular tushib ketadi. (qamish, olma, nok). Masalan: moshda, g‘o‘zada uch burchakli bo‘lsa, akatsiyada tikanaklarga aylanadi. Vegetatsiya davrida har bir o‘simlikda quyidagi toifadagi barglar hosil bo‘ladi.



Rasm 1.

1. Pastki yarusdagi barglarga kurtakdagi, ildizpoyadagi, piyoz boshlardagi barglar kiradi.
2. O'rtayarusdagi barglar haqiqiy yashil barglar hisoblanadi.
3. Yuqori yarusdagi barglarga. G'unchani va to'p gullarni o'rab turuvchi barglar kiradi.

Ba'zi o'simliklarning bargi bandsiz bo'ladi, Masalan, ko'knorining bargi. Ba'zi o'simliklarning bargi qinli. Masalan: g'alladoshlarning bargi, soyabongullilarning oilasiga kirgan o'simliklar.

Barg bandli ham bo'ladi. Ba'zi o'simliklarning bargining tagida qo'shimcha bargi ham bo'ladi. Masalan: no'xat, g'o'za barglari tagida.

Agar barg plastinkasi 1 ta bo'lsa *oddiy barg* deyiladi. Barg plastinkasi butun yoki qirqilgan bo'lishi mumkin. Agar barg plastinkasi o'rta tomiriga nisbatan 1/3 qismi qirqilgan bo'lsa, bo'lakli barg deyiladi. masalan: chinor, anjir, g'o'za, terak, dub barglari. Agar barg plastinkasi bundan ham chuqurroq qirqilgan bo'lsa, ammo o'rta tomirigacha etmagan bo'lsa, kesik barg deyiladi. Masalan: qoqio't, jag'-jag'.


Agar barg plastinkasi o'rta tomirigacha qirqilgan bo'lsa, ajralgan barg deyiladi. Masalan: pomidor, kartoshka.

Barg plastinkasining cheti tekis qirrali yoki tishsimon, arrasimon yoki o'yiqsimon bo'lishi mumkin.

Barg plastinkasi har xil shaklda: ninasimon (qarag'ay), chiziqsimon (g'alladoshlar), lantsetsimon (shaftoli, tol), yuraksimon (o'rik), buyraksimon (tugmachagul), tuxumsimon (qora ituzum), o'roqsimon (evkalipt), strelkasimon (pechagul) va boshqa bo'lishi mumkin.

Barg plastinkasi xar xil kattalikda bo'ladi. (2. rasm) Masalan: Gruziyada o'suvchi *Pterium* o'simligi bargi nihoyat darajada katta bo'ladi. Odam bemalol ko'rpa qilib ustiga yopsa bo'ladi.¹

Оддий барглар Барг япроғининг шакллари



Rasm 2.

Barg poyaga xar xil ravishda o'rnashadi. Ba'zi o'simliklarning bargi poyada ketma-ket o'rnashadi. Masalan: tol, terak barglari. Barg poyada qarama-qarshi o'rnashgan. Masalan: labsimongullilar oilasiga kiradigan o'simliklar (yalpiz, shalfey). Ba'zi o'simliklarning bargi poyada halqasimon ravishda joylashgan. Sambitgul o'simligining bargi 3 tasi bitta joydan chiqqan bo'ladi.

Bargning asosiy bandi bo'lib, shu asosiy bandga bir nechta bargchalar o'zlarining bandchalari bilan joylashgan bo'lsa, *murakkab barg* deyiladi. (3. rasm) Murakkab barglar birnechaxil bo'ladi:

- 3 plastinkali murakkab barg Masalan: qulupnay, bedaning bargi.
- Toq patli murakkab barg. Masalan: na'matak, yong'oq, akatsiya bargi kiradi.
- Juft patli murakkab barg Masalan: no'xatning bargi, sariq akatsiyaning bargi.
- Panjasimon murakkab barg Masalan: nasha, kashtanningbargi

Мураккаб барглр



Rasm. 3

Barg plastinkasining tomirlanishi har xil bo'ladi. Bir pallali o'simliklarning bargi parallel yoki yoysimon tomirlangan bo'ladi. Moy landishining bargi yoysimon, bug'doy, jo'xori, arpaning bargi parallel tomirlangan bo'ladi. Ikki pallali o'simliklarning bargi to'rsimon tomirlangan bo'ladi. To'rsimon tomirlanish 3 xil bo'ladi:

- Patsimon tomirlanish
- Barmoqsimon (panjasimon)
- Yulduzsimon

SHAKLINI O'ZGARTIRGAN BARGLAR

Evolyutsiya jaryonida ko'pchilik yuksak o'simliklar vegetativ organlarida bo'lgani singari barg ham o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirib boshqa fiziologik funksiyani bajaradigan bo'lgan.

Barg metamorfoziga tikanaklar, mo'ylovlar, zahira oziq modda to'plovchi barglar, tangacha barglar va hashoratxo'r o'simlik barglari misol bo'ladi. Ko'pchilik hashoratxo'r o'simliklarda barg bandi barg plastinkasi vazifasini bajaradi. Bunga fillodiya deyiladi. Kaktus, astragal, qushqo'nmas o'simliklarida barg plastinkasi tikanaklarga aylanadi. Mosh, no'xot, qovoq, yovvoyi no'xot o'simliklarida barg plastinkasi o'ziga xos mo'ylovlar hosil qiladi. Oq akatsiyada kovil, qarag'ayda yon barglar tikanlar hosil qiladi. Hashoratxo'r o'simliklarda bezli to'qimalar bo'lib, ulardan ishlab chiqarilgan sekretlar hashoratlarni jalb qilish va parchalash xususiyatiga ega. Hashoratxo'r o'simliklarni 450 dan ortiq turi mavjud bo'lib, ular rossiyankalilar, puzirchatkalilar, nepentesoviklar oilasiga mansubdir. Ba'zi o'simliklarning bargi asosiy vazifadan tashqari qo'shimcha vazifalarni ham bajaradi.

Masalan, kurtaklarning tashqi tomonidagi qobiqsimon barglar meristemani tashqi sharoitdan saqlab turadi. Piyozning tashqi tomonidagi quruq barglar ichki tomonidagi qismlarini qurib qolishidan saqlaydi. Makkajo'xorining so'tasini o'rab olgan barglar ham jo'xori donini quyosh ta'sirida qurib qolish, chirish va kurtalarning eb ketilishidan saqlaydi.

Kseromorf barglar quruq joylardagi o'simliklar (Cho'l saxro) yoki turar joy (qoya tuproqli yer Yunoncha-xeros-quruq) kritik ma'noda suv bilan ta'minlashga moslashadi. O'zlashtirayotgan suvi suvga bo'lgan extiyojini qondira olmaydi, shuning uchun o'zini suv bn taminlanishini chegaralay olmaydi yani transpiratsiyani, ya'ni ular faol xayotini to'xtatmasa qurib qoladi. Ko'rib turganimizdek ko'p kserofitlar barglarini shakli tikanga aylanadi yoki mayda tangachalar xosil qiladi. Qalinlashgan poyalarda fotosintez bo'ladi ularda transpiratsiyon to'qima bo'lmasa xam yuzasiga nisbatan xajmi katta. Kutikulali transpiratsiya ortiqcha chegaralangan ko'p xollarda suv saqlaydigan sistemalar paydo bo'ladi.

Ba'zi o'simliklarning barglari qisman yoki butunlay tikonga aylangan bo'ladi. Masalan: qushqo'nmas, qo'y tikan deb atalgan o'simliklarning barglari qisman tikanga aylangan bo'ladi. Kaktus va barbaris o'simliklarining barglari esa butunlay tikanga aylangan. Demak, tikanlar o'simliklarni himoya qiladi. Agava va aloe o'simliklarning barglarida suv zapaslari to'planadi. Ba'zi

bir o‘simliklarning barglari gajakka aylangan. Bu gajakka aylangan barglar yordamida o‘simlik biror narsaga osilib yoki chirmashib o‘sad. Masalan, mosh, loviya, no‘xat. Avstraliyada o‘sovchi Avstraliya akatsiyasining barg bandi yaxshi taraqqiy etib, barg plastinkasiga aylangan bo‘ladi. Bunday barglarni fillodiya deb ataladi. Plastinkaga aylangan barg bandida fotosintez protsessi bo‘ladi. Demak, barg bandining plastinkasiga aylanishi fotosintez protsessiga bo‘lgan talabdan dei hisoblanadi. Ba’zi bir o‘simliklarda oqsil modda etishmaganligi sababli barg hashorat tutadigan qopqonga aylanadi. Bunday o‘simliklarga: rosyanka, muxolovka, puzirchatka, kuvshinkalar kiradi. O‘simlik gul kosachasi, otalik va onalıkları qiyofasini o‘zgartirgan barg ekanligini nemis shoiri va tabiatshunosi Gyote aniqlagan. Ba’zi bir o‘simliklarning barglari yordamida vegetativ ko‘payishi mumkin. Masalan: begoniya va fikus. Ba’zi bir o‘simliklarning barglari ildiz vazifasini ham bajaradi. Masalan: suv qirqqulog‘i - salviniya Salviniya natans. Bu o‘simliklarda 2 xil barg: suvning yuzasidagi va suvning ichkarisidagi barg bor. Suvning ichkarisidagi barg ildiz vazifasini bajaradi. Barg juda ham o‘zgaruvchan organ. Bargning o‘zgarishi o‘simlikning yashash sharoitiga bog‘liq. Ba’zan bir tup o‘simlikning o‘zida ham har xil barglar uchraydi. O‘simlikning pastki, o‘rtasidagi, yuqoridagi barglari farqlanadi. Odatda o‘rta barglar o‘simliklar uchun tipik barg bo‘lib hisoblanadi.

BARG ANATOMIYASI

Bargning ichki tuzilishi 3 xil bo‘ladi:

- DORZOVENTRAL
- IZOLOTERIAL
- RADIAL

Dorzoventral bargning yuqori tomoni pastki tomonga o‘xshash bo‘lmaydi. Chunki yuqori tomonda qoziqsimon to‘qimalar, pastki tomonda esa bulutsimon to‘qimalar joylashgan.

Izoloterial bargning yuqori tomoni pastki tomoniga o‘xshash bo‘ladi. Bargning yuqorisida ham pastki tomonida ham qoziqsimon to‘qimalar joylashgan.

Radial bargning tuzilishi novdaga o‘xshash bo‘ladi. Bargning ichki tuzilishi o‘simlikning yashash sharoitiga ham bog‘likdir.

Issiq sharoitda yashaydigan o‘simliklarni **kserofit** o‘simliklar deyiladi. O‘rta iqlimda yashaydigan o‘simliklarni **mezofit** deyiladi.

Suv va nam sharoitda yashaydigan o‘simliklarni **gidrofit** deyiladi. O‘simliklarning bargi epidermis bilan qoplangan. Ba’zi o‘simliklarning bargi ko‘p yillik bo‘lsa ham, (archa, qarag‘ay) epidermis bilan qoplangan. Epidermisning ustida kutikula qavati yoki mum izlari bo‘ladi. Kserofit sharoitda yashaydigan o‘simliklarning bargining epidermisida kutikula qavat qalin, epidermis bir necha qavat bo‘ladi. Bu o‘simliklarda qoziqsimon to‘qima yaxshi taraqqiy etgan. Mezofit sharoitda yashaydigan o‘simliklarda epidermis bir qavat, qoziqsimon to‘qima ham bargning yuqori tomonidan odatda bir qavat joylashgan bo‘ladi. Ba’zan ikki qavat ham bo‘lishi mumkin. Gidrofit sharoitda yashaydigan o‘simliklarda qoziqsimon to‘qima bo‘lmaydi. Kserofit sharoitda yashaydigan o‘simliklarda og‘izchalar faqat bargning pastki tomoniga joylashgan bo‘ladi. Mezofit sharoitda yashaydigan o‘simliklarda og‘izchalar bargning asosan pastki tomonida, qisman yuqori tomonda joylashgan bo‘ladi. Gidrofit sharoitda yashaydigan o‘simliklarda esa og‘izchalar bargning yuqori va pastki tomonida joylashgan bo‘ladi.

Barg plastinkasi 2 qismdan iborat:


- Bargning yumshoq qismi- mezofill
- Bargning tomir o‘tgan qismi

Bargning yumshoq qismi mezofillda qoziqsimon va bulutsimon to‘qimalar joylashgan. Odatda qoziqsimon to‘qimaning ichkari tomonida bulutsimon to‘qima joylashgan. Qoziqsimon to‘qima zich joylashgan bo‘ladi. Bulutsimon to‘qimaning hujayralari orasida bo‘shliq bo‘ladi. Bargning mezofill qismida ba’zi hujayralarda kristallar to‘planadi. Ba’zilarning hujayrasida suv zapaslari to‘planadi. Ba’zan mezofillda toshsimon hujayra sklereid uchraydi. Masalan: choyning bargida. Ba’zan o‘simliklarning mezofilida oshlovchi dubil moddalar, efir moylari va boshqa

moddalarni ishlab chiqaradigan hujayralari uchraydi. Masalan: lavr, evkalipta, magnoliya va boshqalar. Qoziqsimon va bulutsimon to‘qimalarni - assimilyatsion to‘qima deb ham yuritiladi. Chunki ularning hujayrasida fotosintez protsessi bo‘lib turadi. Bulutsimon to‘qima siyrak joylashganligi uchun hujayralar oralaridan havo o‘tib turadi. Natijada barg shamollatib turiladi. Shuning uchun bu to‘qimani ventilyatsion to‘qima deb ham yuritiladi. Bargning tomir o‘tgan qismida mexanik to‘qima kollinxima, asosiy to‘qima, hamda o‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamlari joylashgan. O‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamlarining soni 1 dan 7 tagacha boradi. O‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamida kambiy bo‘lmaydi. Ya’ni o‘tkazuvchi to‘qima bog‘lami yopiq bo‘ladi. O‘tkazuvchi to‘qima bog‘lami kollotal tipda tuzilgan. Bargning poyadan farqi shundaki unda floema kollinximaning pastki tomoniga joylashgan bo‘ladi. Bargning yumshoq qismiga qattiqlik beruvchi moddalarni idioblast deyiladi.

DORZOVENTRAL BARG TUZILISHI

Barg plastinkasining dorsoventralligi shunda namoyon bo‘ladiki, ko‘pgina barglar **bifatsialdirlar**, ya’ni ularning yuqori va pastki tomonlari turlicha ko‘rinishda bo‘ladi. Dorzoventral bargda yuqori tomonida ustunsimon, pastki tomonida bulutsimon yoki g‘ovaksimon to‘qimalar joylashgan bo‘ladi. Cho‘ziq barg sathiga nisbatan perpendikulyar joylashgan hujayralar ustunsimon parenxima deb atalib, ba’zi o‘simliklarda bir qator (g‘o‘za bargi), ba’zilarida 2—3 qator (sambitgulda) bo‘lib joylanadi. Turli shakldagi hujayralardan iborat to‘qima bulutsimon yoki g‘ovak to‘qima deb ataladi. (1.rasm)



Rasm.4Dorzoventral bargning tuzilishi.

jv — bezli tukcha, kv — oddiy tukcha, ve — ustki epidermis, pm — qoziqsimon to‘qima, gm — bulutsimon to‘qima, ne — ostki epidermis, ks — ksilema, f — floema, s — sklerenxima, koll — kollinxima, ok — bog‘lamni o‘rab turuvchi hujayra, u — og‘izcha.

Ustunsimon to‘qimalarning zich joylashganligi fotosintez hodisasida quyosh nuridan samarali foydalanishga, assimilyatsiya natijasida hosil bo‘ladigan moddalarni boshqa to‘qimalarga o‘tkazishga yordam beradi.

Bulutsimon to‘qimalar orasida hujayralararo bo‘shliqlar bo‘lyb, ular siyrak joylashgan. Ustunsimon hujayralarda xloroplast ko‘proq, shuning uchun barg ustki tomondan to‘q yashil bo‘lib ko‘rinsa, bulutsimon to‘qima hujayralarida esa xlorofill donachalari kamroq, shu sababli barg ostki tomondan och yashil rangda bo‘ladi. Hujayralararo bo‘shliq orqali suv, havo bug‘lari harakatlanib, ortiqcha miqdordagisi havo yo‘llari orqali tashqi muhitga chiqariladi.

Ustunsimon to‘qimalarda fotosintez jarayoni faol ketsa, bulutsimon to‘qimalarda ko‘proq transpiratsiya (bug‘lanish) hodisasi sodir bo‘ladi. Ustunsimon to‘qima hujayralari o‘tkazuvchi to‘qima hujayralariga yondashgan holda yoki bulutsimon to‘qima o‘zining yassi tomoni bilan


ustunsimon to‘qimaga birikib, unda tayyor bo‘lgan organik moddalarni floemaga etkazib beradi. Bu organik moddalarning bir qismi bargning taraqqiyoti uchun sarflansa, qolgan qismi o‘simlikning boshqa organlariga tarqaladi.

Dorzoventral tuzilishga ega bo‘lgan barglar ko‘pincha mezofit o‘rta sharoitda yashaydigan o‘simliklarda uchraydi.

IZOLATERIAL BARG TUZILISHI

Ekvifatsial barglar ham bo‘ladi (ayniqsa quyoshli joylarda o‘sadigan o‘simliklarda). Bunday barglarning har ikkala tomoni ham bir xil tuzilishga ega: masalan, og‘izchalarining zichligi bir xil va abaksial epiderma ostida palisad mezofillga egadirlar.


Izolateral tuzilishdagi (palisad) barglarda yuqori va pastki epiderma ostida, ya‘ni ikki tomonlama ustunsimon to‘qima joylashgan bo‘ladi. Ustunsimon to‘qimalar orasida bulutsimon to‘qima hujayralari va o‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamlari joylashgan bo‘ladi. Bunday barglar asosan kserofit o‘simliklarda (shuvoq, sambitgul), ba‘zan mezofit o‘simliklarda (tol, zig‘ir) uchraydi. Bunday tuzilishdagi barglarda ko‘pincha havo yo‘llari bargning pastki tomonidagi chuqurchalarda joylashadi. Natijada o‘simlik suvni tejab sarflaydi. (2 rasm)



Rasm. 5 Shuvoq bargining ko‘ndalang kesimi.

v — tuk, jv — bezli tuk, ev — ustki epidermis, en — ostki epidermis, pt — ustunsimon to‘qima, kss — o‘rtangi qavat hujayralar, pp — o‘tkazuvchi boqlam, k — kutikula.

RADIAL BARG TUZILISHI



Rasm.6 Qarag‘ay bargining mikroskopik tuzilishi: 1-epidermis, 2-chokli parenxima, 3-smola yo‘llari, 4-og‘izcha, 5-endoderma, 6-parenxima hujayralari, 7-sklerenxima, 8-floema.

Radial bargda barg mezofili radius bo‘ylab, ya‘ni aylana bo‘ylab joylashadi. Radial bargga misol qilib, qarag‘ay bargini olamiz. (3 rasm) Bargning rivojlanishida hamma to‘qimalar ham bir tekisda o‘sadi. Lekin ninabargli o‘simliklarda barg epidermisining o‘sishi assimilyatsion to‘qimaga nisbatan barvaqt to‘xtaydi, natijada assimilyatsion to‘qimani hosil qilayotgan hujayralar o‘sishda davom etib,

ular egri-bugri holatdagi hoshiyali parenximani hosil qiladi. Qarag'ayning bargi ko'p yillik bo'lsa ham, boshqa barglarga o'xshash epidermis bilan qoplangan. Epidermis hujayra-larining po'sti qalin, tashqi tomondan kutikula bilan qoplangan. Og'izchalar epidermisdan chuquroqda joylashgan. Epidermisni ichkari tomonida mexanik to'qima gipoderma joylashgan. Gipoderma bargga qattqlik berishdan tashqari, epidermis shikastlanganda qoplog'ichlik vazifasini bajarib turadi. Bargning assimilyatsion to'qimasi chokli parenximadan tashkil topgan. CHokli parenximada hujayra ichkari tomonga kiradi. Assimilyatsion to'qima bargning po'stloq qismida joylashgan. Bargning po'stloq qismida smola yo'llari bor. Smola yo'li atrofida 2 qavat hujayralar joylashgan. Bir qavati tirik hujayralardan iborat bo'lib, uni epitelial hujayra deyiladi. Ba'zi olimlarning fikricha epitelial hujayralar smola ishlab chiqaradi. Epitelial hujayra atrofida mexanik to'qimaga kiruvchi o'lik hujayralar joylashgan. Bargning markaziy qismi ichkari tomoniga joylashgan. Markaziy qismida asosiy to'qima, mexanik to'qima-sklerenxima hamda o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari joylashgan.

Nazorat savollari

1. Barg qanday vazifani bajaradi?
2. Barg qismlari va ularning morfologik tuzilishi qanday?
3. Qanday turini o'zgartirgan barglarni bilasiz?
4. Bargning ichki tuzilishi necha xil bo'ladi?
5. To'liq barg to'liqsiz bargdan nima bilan farq qiladi.
6. Barglarning morfologik tuzilishi.
7. Oddiy barg formalari (misol)
8. Murakkab barg formalariga (misol)
9. Barg qirralari xilma-xilligi.
10. Barg plastinkasining qirqilishiga qarab xillari.
11. Barg plastinkasining tomirlanishi.
12. Barglarning katta-kichikligi va yashovchanligi.
13. Barglarning novdalarda joylanish xillari

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
2. Pharmaceutical Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –15 p.
3. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
4. Яковлев Г. П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
5. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
6. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
7. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василева.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Березовская Т.П., ДмитрукС.Е., ГришинаЕ.И., БелоусовМ.В. Основы фармацевтической ботаники. – Томск: Печатная мануфактура, 2004.-294 с.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Ma'ruza - 7

Bargdagi fiziologik jarayonlar. O'simliklarning ko'payishi, o'sishi va rivojlanishi.

Ma'ruzaning maqsadi: Bargdagi assimilyatsiya, dissimilyatsiya va transpiratsiya jarayonlari, ularning ahamiyati.

Reja

1. Bargdagi assimilyatsiya protsessi.
2. Bargdagi dissimilyatsiya protsessi.
3. Bargdagi transpiratsiya protsessi.
4. Bargdagi fiziologik protsesslar ahamiyati.
5. O'simliklarni ko'payishi va rivojlanishi.

Tayanch iboralar: *O'simlik fiziologiyasi: fotosintez. Fotosintezning ochilish tarixi. Pristli tajribasi. YAn Ingixauz ishlari. Fotosintez haqida zamonaviy tushuncha. Xlorofill tarkibi, tuzilishi, yorug'lik spektorning hosil bo'lishi. Xlorofill, karotin va boshqa pigmentlarni fotosintezda ishtirok etishi. Fotosintezni 2 fazasi: yorug'lik va qorong'ulikda bo'ladigan jarayonlar. Tashqi ta'surotni fotosintez jarayoniga ta'siri.*

O'simliklarni nafas olishi. O'simliklar hayotida nafas olishning ahamiyati va umumiy xususiyatlari. Nafas olishda ishtirok etadigan fermentlar va kimyoviy jarayon. Nafas olishni ichki va tashqi sharoitga bog'liqligi.

BARGNING ASOSIY VAZIFALARI

Assimilyatsiya. Dissimilyatsiya. Traspiratsiya.

1771 yili ingliz olimi Pristli havoda O₂ borligini aniqlaydi. Pristli o'simliklar tomonidan CO₂ o'zlashtirilishi masalasini tekshiradi. Havo tarkibida CO₂ ning miqdori 0,03%. Ammo Pristli qaysi vaqtda o'simliklar CO₂ ni yutishini aniklay olmaydi. Uning shogirdi Gollandiya olimi YAn Ingengauz 1779-yilda o'simliklar CO₂ kunduzgi quyosh bor vaqtda yutilishini aniqladi. Bulardan keyin SHvetsariya olimlari Senebe, Sossyur quyosh bor vaqtda havoda CO₂ kamayib O₂ ko'payishini, rus olimi Vinogradov CO₂ o'simlik hujayrasida O₂ va karbonga parchalanib, havoga chiqib ketishini payqaydi. 1860-yili nemis olimi Saks o'simliklarning hujayrasida CO₂ ning suv bilan qo'shilishidan kraxmal (C₆H₁₂O₅)_n hosil bo'lganligini aniqladi. Kraxmal hosil bo'lishi quyosh nuriga bog'liq bo'lgani uchun, bu protsess "fotosintez" deb ham ataladi.¹

Quyosh nurining ahamiyatini K.A Timiryazov aniqladi. Timiryazovning ko'rsatishicha o'simlik quyosh nurining 75% ini yutadi. Qolgan 25% i o'simlik organidan yutilmasdan o'tib ketadi. Yutilgan 75% nurning 1-5% i fotosintezda ishtirok etadi. Ba'zan 10% ga yaqini o'simliklar tomonidan sun'iy bug'lantirishga sarf bo'ladi. Timiryazov xlorofillning spektrini aniqladi. Ya'ni quyosh spektri 7 ta nurdan iborat bo'lsa, xlorofill 3 tasini yutadi. Timiryazov ko'rsatishicha xlorofill quyoshning B bilan C orasidagi qizil nurni, ko'k va binafsha nurini ko'p yutadi. O'simliklarning bir yildagi fotosintezi uchun 162 trillion kkal issiqlik sarf bo'ladi. Rus olimi Vinogradov fotosintez protsessida CO₂ emas, balki H₂O parchalanishini isbotladi. U H₂O karbon bilan birikadi O₂ esa havoga chiqib ketadi deb, hisoblaydi. Ya'ni u Timiryazov kursatgan fikrni tasdiqlaydi.



CO₂ ildiz orqali olingan suv bilan birikib, chumoli aldegid hosil qiladi. Ortiqcha O₂ havoga chiqib ketadi. CHOH ning 6 molekulasini xlorofill donalarida birikib, 1 molekula shakar hosil bo'ladi (C₆H₁₂O₆).

¹Яковлев Г. П., Челомбитько В.А. Ботаника. – М.: "Высшая школа", 2001.-230 с.

Rus olimi Butlerov laboratoriyada chumoli aldegid CHOH dan glyukoza $C_6H_{12}O_6$ olgan, 1 molekula shakar hosil bo'lishi uchun 674 kkal quyosh energiyasi sarf bo'ladi. Assimilyatsiya protsessining formulasini quyidagicha yoziladi.



Ko'pchilik o'simliklarda shakar darhol xlorofill donalari ichida kraxmalga aylanadi.




Shakarning ta'sirida bo'ladi. Kraxmal ba'zi o'simliklardalolagullilar o'simliklarda (lola, piyoz, sarimsoq piyoz)da bo'lmaydi. Bu o'simliklarda oziqli modda sifatida ikkilamchi shakar va kraxmal to'planadi. Birlamchi shakar va kraxmal qismansarflanadi, qisman oziqli modda sifatida to'planadi. Oziqli modda sifatida to'plangan shakar va kraxmal "ikkilamchi" deyiladi. Fotosintez jarayoni natijasida barcha tirik organizmlar uchun zarur bo'lgan organik moddalar hosil bo'ladi. Olimlarning hisoblashlaricha Er sharidagi barcha yashil o'simliklar har yili 2 mlrd. t azot, 6 mlrd. t fosforini o'zlashtirib 170 mlrd. t uglerod hosil qiladi. Bunda 500 mlrd. t suvni parlatib, 400 mlrd. t organik moddalar hosil qiladi va 460 mlrd. t kislorod ajratib chiqaradi. Nafas olish barg uchun asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon natijasida murakkab organik moddalar kislorod ishtirokida suv va karbonat anhidridga parchalanadi. Parchalanish natijasida hosil bo'lgan energiya organizmlar tomonidan foydalaniladi.

DISSIMILYATSIYA (nafas olish)


O'simliklar hayvon va odamlarga o'xshash havodan O_2 yutib CO_2 chiqaradi. O_2 achitish xususiyatiga ega, yonishga yordam beradi. O_2 ta'sirida oziqli moddalar tuzilgan qismlarga parchalanadi. Natijada oziqli moddalar tarkibidagi yashirin potensial energiya ajralib chiqadi, ya'ni kinetik energiyaga aylanadi. Kinetik energiya hisobiga organizm yashaydi, o'sadi va taraqqiy etadi. Nafas olish protsessini mohiyatini akademik Palladin va professor Kostichevlar tekshirishgan. O'simliklarning yosh va o'suvchi organlarining nafas olishi odamlarning nafas olishi bilan barobar, ba'zan undan ortiq bo'ladi. Masalan, nafas olish protsessida o'z og'irligidan 1-2% yo'qotadi. Unib chiqmoqchi bo'lgan urug'lar ham shuncha og'irligini yo'qotadi. Xamirturish zamburug'ining nafas olishi odamlarga nisbatan 6 marta, bakteriyalarniki 200 martadan ko'p. Nafas olish protsessiga havodagi O_2 va H_2O larning miqdoriga bog'liq.

Harorat 10° ga ko'tarilsa o'simliklarning nafas olishi 2 marta kuchayadi. Ammo bu kuchayishi 40° - 50° gacha boradi. 50° darajadan yuqorida nafas olish protsessi susayadi. Ba'zi o'simliklar qishda nafas olishni davom ettiradi. Masalan: lishayniklar 10° da ham nafas oladi. Daraxtlarning kurtaklari hamda archa va qaragayning ignasimon barglari 20° - 25° da ham nafas olishni davom ettiradi. Urug'lar quruqlikda juda sust nafas oladi. Chunki uning tarkibida 10-15% H_2O bor. Una boshlagan urug'larda nafas olish 10.000 marta kuchayadi. Una boshlagan urug'larda 30% H_2O bor. Nafas olish o'simliklarning yoshiga ham bog'liq. Nafas olish yosh organda tez, qari organda sustroq bo'ladi. Ba'zi o'simliklar masalan, ba'zi bakteriya va zamburug'lar O_2 siz ham yashay oladi. O_2 bilan yashovchi o'simliklar aerob o'simliklar deyiladi. Kislorodsiz yashovchilarni anaerob o'simliklar deyiladi. O_2 bilan nafas olishi oksidaza fermenti, kislorodsiz nafas olish esa zimaza fermenti ta'sirida bo'ladi. YA'ni aerob o'simliklar oksidaza fermenti ishtirokida, anaerob o'simliklar zimaza fermenti ishtirokida nafas oladi.

Aerob O_2 bilan nafas olishning reaksiyasi:



Anaerob O_2 siz nafas olish reaksiyasi:



O_2 bilan nafas olishda oziqli modda to'liq parchalanadi. SHuning uchun ham 1g molekula shakar hosil bo'lishida ketgan energiyaning hammasi ajralib chiqadi.

O₂ siz nafas olishda oziqli modda qisman parchalanadi. SHakar etil spirtiga aylanadi. SHuning uchun energiya qisman (25 kkal) ajraladi. Energiya spirt tarkibida qoladi.

Assimilyatsion va dissimilyatsion protsessining qarama-qarshiligi quyidagilardan iborat:

1. Assimilyatsiyada o'simliklar CO₂ yutib, O₂ ni chik,aradi. Dissimilyatsiyada usimliklar O₂ ni yutib, CO₂ ni chiqaradi. 2. Assimilyatsiyada oddiy anorganik moddalardan murakkab organik moddalar tuziladi.

Dissimilyatsiyada esa murakkab organik moddalar anorganik moddalarga parchalanadi.

3. Assimilyatsiya natijasida organizm og'irlashadi. Dissimilyatsiya natijasida organizm engillashadi.

4. Assimilyatsiya faqat xlorofill bor hujayralarda bo'ladi. Dissimilyatsiya protsessi hamma tirik hujayralarda bo'ladi. 5. Assimilyatsiya faqat quyosh bor vaqtda, dissimilyatsiya esa hamma vaqtda bo'lib turadi.

6. Assimilyatsiyada energiya to'planadi. Dissimilyatsiyada energiya sarflanadi.

Bu qarama-qarshi protsesslar har bir organizmda bo'lib turadi. Ularning birligi ham bor. Birligi shundan iboratki, tirik organizmning yashashi, o'sishi, taraqqiy etishidir. Bu 2 protsess to'xtasa, organizm halok bo'ladi.

TRANSPIRATSIYA (Suv bug'latish)

O'simliklar suvni erdan juda ko'p miqdorda oladi. Ammo olingan suvlarning 99,8% ini havoga bug'latib chiqaradi. Faqat 0,2% o'simlik hujayrasida qoladi.

O'simliklar tezda ayniqsa tun vaqtida suvni ko'p bug'latadi. Buning natijasida o'simliklarning harorati 1°-4°-6° pasayadi. Natijada o'simliklar o'zini issiqdan saqlab qoladi. Bir tup suli hayoti davomida 6,8 kg suv parlatadi.

Jo'xori 150kg, kungaboqar 200 kg, 1 ga erdagi suli 3.200000 kg (3200 tonna) suv parlatadi.¹

O'simliklarni ko'payishi. O'sishi va uning qonuniyatlari.

1. O'simliklarni ko'payishi.

2. O'simliklarni vegetativ ko'payishi.

3. Tabiiy vegetativ ko'payish.

4. Ildizpoya, tuganak poya, piyozboshi va boshqalar - maxsus organlar orqali ko'payish.

5. Su'niy vegetativ ko'payish - qalamcha qilish, payvandlash.

Michurin ishlari.

6. Jinssiz ko'payish va uning xarakteristikasi.

7. Jinsli ko'payish. Gameta va zigota. Izogamiya. Geterogamiya. Oogamiya.

8. Jinssiz va jinsli ko'payishning gallanishi.

9. O'simliklarni o'sishi. Ichki va tashqi faktorlarni ta'siri. O'stiruvchi moddalar. O'stiruvchi harakatlar.

-geotropizm

-fototropizm

-magnitotropizm.

O'simliklarni ko'payishi.

O'simliklar jinsli, jinssiz va vegetativ yo'llar bilan ko'payadi.

Vegetativ ko'payish ikkiga bo'linadi:

1. Tabiiy vegetativ ko'payish (ildiz poya, tuganak poya, piyozcha 1.rasm)

2. Sun'iy vegetativ ko'payish (qalamcha, parxesh, payvandlash).

¹Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.

O'simliklarni ko'payishini Ch.Davrin tekshirgan, keyinchalik N.I.Vavilov tomonidan o'rganilgan. O'simliklarni ko'payishi uzoq, evolyutsion yo'lni bosib o'tgan va natijada maxsus ko'paytiruvchi organlar paydo bo'lgan.

Ildizpoya yordamida ko'payishi.

-Banan, bambuk, shakarqamish, iris, reven, landish, yalpiz, sparja va boshqalar. Bo'yimodaron, dala qirqbo'g'imini ildizpoyasi 10-15sm, saxamil grechixasiniki 150-300sm.

Tuganak poya orqali ko'payishi.

Kelib chiqishiga ko'ra tuganak

1)tuganak poya (kartoshka, begoniya, siklamen ernok) va

2)ildiz tuganagi (georgina ildiz tuganagi) bo'ladi.

Tuganak poyada ko'zchalari bo'ladi. Ildiz tuganagida zapas oziqa moddalar bo'ladi. Vegetativ ko'payishda ildiz tuganagini ildiz bo'yinchasida kurtaklar hosil qilib ko'payadi.

Piyozboshi bilan ko'payish.

Piyozboshi - poya metamorfozidir.

-lola

-liliya

-sarimsoq piyoz

-narsiss

Sudralib o'suvchi poya orqali ko'payish.

-qulupnay

-barvinok(vinka)

-malina

-ejevika.

Maxsus organlarsiz vegetativ kupayish.

-qalamcha

-parxesh

Parxesh qilib ko'paytirish.

-siren

-buldonesh

-atirgul

Qalamcha qilib ko'paytirish.

-poya


-ildiz

-barg

Payvand.


Payvand tag

Payvandust.(2.rasm)



Rasm.1 Vegetativ ko'payish:

A-tog' olmasining ildizlar yordamida ko'payishi; B- qulupnayda yashil novda-gajaklar orqali ko'payish; V-krijovnikni parxish usulida ko'paytirish.



Rasm.2 Payvandlashning turlari:

1-kopulirovka; 2-yorma payvand; 3-okulirovka (kurtak payvand); a-payvandust; b-payvandtag.

I.V.Michurin metodlari.

- 1.Yangi yaxshi sort mevali daraxtlarni etishtirish.
- 2.Janubdan shimolga ko'chirish.

O'simliklarni o'sish qonuniyatlari.

Poya va ildiz uchki qismi bilan o'sadi.

Barg asos qismi bilan o'sadi.

Poya va ildiz hamma hayotiy davrda o'sadi, barglari ma'lum bir o'lchamgacha o'sadi. O'sish zonasi:
-ildizda-1sm

-poyada- 10sm

-havo ildizlarida-8-10 sm.

Qirqquloqsimonlilardan o'rmon qirqqulog'ini bargi poya kabi uchi bilan o'sadi. Eniga o'sish kambiy yordamida bo'ladi.

Jinssiz ko'payish

Bakteriya, suv o'tlari, zamburug'lar, lishayniklar hujayrani bo'linishi yoki sporasi bilan ko'payadi.

O'simliklarni o'sishiga ichki va tashqi faktorlar ta'sir qiladi:

1.Temperaturani o'sishga ta'siri

-minimum

-optimum

-maksimum.

Ba'zi o'simliklar uchun o'sish temperaturalari

O'simlik	Minimum temperatura	Optimum temperatura	Maksimum temperatura
Bug'doy	0-5°	25-31°	31-37°
Jo'xori	5-10°	37-44°	44-50°
Qovoq	10-15°	37-44 °	44-50 °.
Qovun	15-18°	31-37°	44-50°

O‘simliklarnio‘shigayorug‘liknita’siri :

Daraxtlar: yorug‘liknikamsevadi (el, pixta, tis, buk, lipa)

yorug‘liknisevuvchi:(qarag‘ay, akatsiya, qayin).

Namliknio‘shigata’siri.

Protoplazmanisuvгато‘yinishi.

Kislorodnio‘shigata’siri.

Hammayuksako‘simliklarkislorodbilanhayotkechiradi.

Qanchaliktezo‘ssashunchalikko‘pkislorodkerak.

Fitogarmonlarni o‘shigata’siri.

4 gruppaga fitogarmonlar ma‘lum

-auksinlar,

-gibberlinlar,

-kininlar,

-ingibitorlar.

(abetsizovaya kislota, kumarinlar).

Jinsiy ko‘payish 2ta hujayra-gametalarning qo‘shilishi orqali sodir bo‘ladi. Bu hujayralarningtashqi ko‘rinishi bir-biriga o‘xshasa ham ichki tuzilishi o‘xshamaydi. Bu hujayralarning birini erkak gameta, ikkinchisini urg‘ochi gameta deyiladi. Ularning qo‘shilishidan zigota hosil bo‘ladi. Zigota yangi o‘simlikning dastlabki rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lgan hujayradir. U o‘zida ikki organizmning gametalarining qo‘shilishi natijasida olgan irsiy belgilarini saqlab qoladi va kelgusida namoyon qiladi. SHu bilan birga yangi belgilar ham paydo qilishi mumkin. Jinsiy ko‘payishda organizm yangilanadi va asta sekin sharoitga moslasha boradi. Jinsiy ko‘payish ko‘pchilik tuban va yuksak o‘simliklarda bo‘ladi. Ayniqsa suv o‘tlaridan qizil va ko‘k yashil suv o‘tlarida ham bu xildagi ko‘payishni ko‘rishimiz mumkin. Jinsiy ko‘payish qo‘shiluvchi hujayralarning ko‘rinishlariga qarab 3 turda, ya’ni izogamiya, oogamiya va geterogamiya ko‘rinishda sodir bo‘ladi.¹

Izogamiyada morfologik bir xil, lekin fiziologik har xil hujayralar- gametalar qo‘shiladi, populyatsiyalanadi. Ulardan biri erkak, ikkinchisi esa urg‘ochi gameta hisoblanadi. Ma‘lum vaqt o‘tgandan so‘ng shu zigotadan yangi o‘simlik o‘sib chiqadi. Ulotrikslarda kuzatiladi.

Geterogamiyada morfologik va fiziologik har xil gametalar qo‘shiladi. Bunda urg‘ochi gameta yirikroq bo‘lib kamroq harakat qiladi. Erkak gameta buning aksi bo‘ladi.

Oogamiyada kupayishda urg‘ochi gameta sharsimon ko‘rinishda bo‘lib, mutloq harakat qilmaydi. Erkak gameta harakatchan bo‘lib mayda bo‘ladi. Qizil va qo‘ng‘ir suv o‘tlarida bunday bo‘linish sodir bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan jinsiy ko‘payishda yadrolar bir-biriga qo‘shilganda xromosomalar qo‘shilib ketmaydi, balki juftlanadi, qo‘shilish natijasida hosil bulgan populyatsiya yadrosi deb ataladi. YAdro xromosomalar soni ikki baravar ko‘payadi. Bunda yadro diploid yadro deb ataladi.

GULLI O‘SIMLIKLARDA JINSIY KO‘PAYISH

Yopiq urug‘li o‘simliklarda jinsiy ko‘payish gulning paydo bo‘lishiga bog‘liq. Gul o‘simliklarning jinsiy ko‘payishi uchun xizmat qiladigan eng muhim organdir. O‘simliklarda gullar ma‘lum tuzilishga ega, bu tuzilish yopiq urug‘lilarning har qaysi tiplarida o‘ziga xos bo‘ladi.

Bizga ma‘lumki gul bir necha qismdan iborat bo‘ladi: otaliklar, onaliklar, gulkosa barg va gultoji barglaridan tashkil topgan. Gul o‘simliklarni jinsiy organi hisoblanadi. Sun‘iy chatishtirish orqali bir gul onaligiga boshqa o‘simlik changini solib, ya’ni chetdan changlatib yangi nav o‘simliklar yaratiladi. Bu soh,ada I.V.Michurin mevali o‘simlik xillarini yaratdi, rayonlashtirdi. Michurining ishlari seleksiyaning muhim nazariy asosi bo‘lib qoldi.

O‘simliklarni quyidagi vegetativ ko‘payish usullari mavjud :

Novdalardanparxeshyo‘libilanko‘paytirish. Bunda o‘simlikdan chiqqan novdalar egilib tuproq ostiga tushiriladi va ustiga tuproq tortiladi. O‘simlik uchlari er yuziga chiqarilib qo‘yiladi. Bir yil davomida o‘simlik novdalari ko‘karib ona o‘simlikdan oziq oladi va shu bilan birga er ostida

¹Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013.

poyadan iddizchalar chiqaradi. Kuzga borib ona o'simlikdan ajratib qo'yilganda ham parxesh qilingan o'simlik mustaqil yashayveradi. Bu usul bilan ko'paytirish ayniqsa bog'dorchilikda qo'l keladi. Tok, tut, malina, krijovnak, ayrim chinnigullar, fikuslar va boshqa o'simliklar parxesh orqali ko'paytiriladi.

Payvand. Payvand yoki transplantatsiya deb, tirik o'simlikning kurtak yoki kurtaklari bor qismini boshqa o'simlikka o'tkazishni aytiladi. O'tkaziladigan o'simlik payvandust, payvandlanadigan o'simlik payvandtag deb ataladi. Payvandni tuban o'simliklarda va gulli o'simliklarda o'tkazish mumkin. Payvandtag payvandustdan organik moddalarni olsa, o'zi esa payvandust uchun suv va suvda erigan mineral moddalarni etkazib beradi. Payvandlash ko'pchilik daraxt o'simliklarda, buta va chala buta o'simliklarda o'tkaziladi. Ayniqsa, urug'dan chiqqanda aynib ketuvchi gibrid o'simlikda payvandlash olib boriladi. Payvandlashning yuzdan ortiq xilma-xil turlari ishlab chiqilgan. O'zbekistan sharoitida keng tarqalgan payvandlash usullaridan:

1.Kurtak payvand. Bu payvand ko'pincha butalar, chala butalar va daraxtlarda o'tkaziladi. Shaftoli, o'rik, gilos, atirgullardan kurtak payvand o'tkaziladi. Buning uchun yuqorida aytilgan o'simliklarni urug'lari ekilib erta bahordan to avgust oylarigacha yaxshilab parvarish qilinadi. Avgust oylarida payvand qilinishi lozim bo'lgan o'simlik ildiz bo'g'izining diametri taxminan 2-3smga etadi. Avgust oylarida ulanish uchun olinishi lozim bo'lgan kurtaklar qalamchalar ko'rinishida tanlab kesib olinib, o'simlik barg bandidan 1,5-2sm qoldirib, barg plastinkasi kesib tashlanadi. Olingan qalamchadan kurtak ohista ko'chirib olinadi va payvandtag o'simlikning ildiz bo'g'zi "T" xarfi shaklida kesiladi va ko'chirilgan po'stloq orasiga kurtak tushirilib, mahkam qilib bog'lab qo'yiladi. O'simlik ulangan, ya'ni payvand qilingan joyiga tuproq tortilib, ko'mib qo'yiladi. Erta bahorda tuproq olinib, ulangan joyining yuqorigi qismi kesib tashlanadi. Shu vaqtdan boshlab o'simlik kurtakdan ko'kara boshlaydi. Bu xildagi payvand orqali juda ko'p xildagi mevali daraxtlarni payvandlash mumkin. Ivan Vladimirovich Michurin ham o'zining noyob mevalarini shu xildagi payvand orqali yaratgan.

2.Iskana yoki yorma payvand. Bu payvandda payvandtag daraxt o'simlik poyasini ko'ndalangiga arralab ajratib olinadi va shu eri yorib uning ichiga payvandust novda ko'rinishida olinib, pastki qismi yo'niladi, uchi o'tkirlab tushiriladi va so'ng mahkam qilib bog'lab qo'yiladi. Bu payvand erta bahorda bizning sharoitda fevral-mart oyining boshlarida o'tkaziladi. CHunki bunda o'simliklar hali uyg'onmagan bo'ladi.

Yuqorida aytilgan har ikki payvand ham bog'dorchilikda keng qo'llaniladi. Bugungi kunda mevali daraxtlarning hammasi ham payvand orqali ko'paytirilmoqda.

O'simliklarning rivojlanish etaplari

O'simlik rivojlanish davrida ularda aniq morfologik va fizologik belgilar paydo bo'ladi. Mana shu belgilarni aniq o'zgarishini etaplar yoki davrlar deyiladi. M.X.CHaylaxyan urug'li o'simliklarni quyidagi etaplarga bo'ladi.

1.Embrional davri- bu o'simlik changlangandan to murtak hosil bo'lgungacha davrni o'z ichiga oladi. Bu davr 2 qismdan iborat:

a) embrion qism- bunda embrion ona o'simlikda hosil bo'lib saqlanib turadi; b)tinchlik qismida o'simlik urug'i hosil bo'lgandan to unishigacha bo'lgan muddat.

2.Yoshlik davri- bu o'simlik urug'i unngandan to gul organlari hosil bo'lguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr turli o'simliklarda turlicha vaqt oralig'ida o'tadi. Masalan: qisqa muddatli efemer o'simlikda bir necha kun bo'lsa, ayrim o'simliklarda bir necha oy va hatto bir necha yilgacha davom etadi. Masalan: rediskada. Bularada o'simlik ildizmevasi etilgandan so'ng uni olib boshqa erga eksak yoki shu joyda turgan holda parvarish qilsak, o'simlik poyasida gul hosil qiluvchi belgilar sodir bo'ladi. Sabzi, sholg'om, turp o'simliklarida esa ikkinchi yili gullash alomati kuzatiladi. SHuning uchun ular ikki yillik o't o'simliklardar. Daraxtli o'simliklarda yoki ba'zi ko'p yillik o'simliklarda gullaguncha bo'ladigan davr bir necha yilni tashkil etadi. Bu davrda o'simlikning tez o'sishi yoki ba'zi o'simlikda vegetativ yo'llar bilan ko'payishi kuzatilgan.

3. Etuklik davri - bu davr o'simlikda gul organlarining hosil bo'lishi va otalanguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr ham turli o'simliklarda turlicha vaqtda o'tadi.

4. Changlangandan to urug'ining to'liq pishgunicha bo'lgan davr. Qarish davri hisoblanib, bunda o'simlik o'sishi bir muncha sekinroq, boradi. Gullash ancha sust boradi yoki gullamaydi ham.

O'simliklarda gullash turlicha bo'ladi. Masalan: ba'zi o'simliklar har yili gullab, har yili meva beradi, ba'zilar esa hayoti davomida bir marta gullab qurib ketadi. Masalan: sholg'om, turp, sabzi, rediska o'simliklari o'z hayoti davomida bir marta gullaydi. Bu xildagi o'simlikni *monokarp o'simlik* deyiladi.

O't o'simlikdan qulupnay, qo'ypechak, g'umay va boshqalar, ko'pchilik buta va chala butalar, daraxtlar har yili gullaydi va meva beradi. Bunday o'simlikni *polikarp o'simlik* deyiladi

O'simlik organlarida o'sish protsessi.

O'sish - o'simlik hayotining aniq ifodalangan xususiyatlaridan biridir. U o'simlik organizmining ma'lum darajagacha kattalashishidan iborat bo'lib, hujayra va to'qimalarda sodir bo'ladigan ichki jarayon va o'zgarishlarga hamda tashqi sharoitga bog'liq. O'sish jarayonida o'simlik hujayralarining soni va o'lchami ortishi bilan yangi organlar va yangi elementlar hosil bo'ladi. O'sish hujayralarning ko'payishi va o'simliklar tarkibidagi moddalarning qayta taqsimlanishiga ham bo'g'liq. O'sish tashqaridan qaraganda juda sekin borayotganga o'xshaydi. O'suvchi o'simlik o'z tanasini rostlab ildiz sistemasi tuproqda mahkam o'rnashadi, poya o'zida shox-shabbalarni tutib turadi, ayrim o'simliklarda ilashuvchi, chirmashuvchi organlar orqali poya mustahkamlanadi. O'sish jarayoni oddiy jarayon deb bo'lmaydi, chunki bunda o'simlik o'z organlari shaklini faqat yiriklashtirib qolmasdan u o'z formasini ham o'zgartirishi mumkin. Masalan: bir o'simlikda bir xildagi barg hosil bo'lmasdan ular turlicha shaklda bo'lishi mumkin. Ayrim o'simlikda shakli o'zgargan barglar yoki poyalar hosil bo'ladi. O'sish jarayonida hujayralarning muttasil bo'linishi va shu bilan birga buhujayralarning cho'zilishi, yiriklashishi ko'zda tutiladi. Bu jarayon o'simlik ildiz uchlarida va poyaninguchki meristemasida sodir bo'ladi. O'simlik organlarining o'sishida oziq moddalarning, yorug'likning etarli bo'lishi va shu bilan birga o'sishga salbiy ta'sir qiluvchi faktorlar: havoning qattiq isib ketishi yoki sovib ketishi, qattiq shamol va hokozolar juda katta ahamiyatga ega. O'simlik o'sishiga ta'sir etuvchi faktorlar *ekologik faktorlar* deb ataladi.

Temperatura. Temperatura ham asosiy omillardan hisoblanadi. Har bir o'simlik ma'lum issiq yoki sovuq temperaturada unib chiqadi. Ekiladigan o'simliklarni unib chiqishi tuproq temperaturasiga bog'liq. Masalan: makkajo'xori erta bahorda ekiladi va tuproq temperaturasi 10° atrofida bo'lganda unib chiqadi. Chigit esa kechroq ekiladi, chunki u 12°-14° temperaturani talab qiladi. Demak, o'simliklar ma'lum temperaturada unib chiqadi. Buni optimal temperatura deb ataladi. Ayrim begona o'tlar anchagina past temperaturada o'sishga moslashgan.

Namlik (suv). O'suvchi o'simlik urug'i temperatura bo'lgani bilan namlik bo'lmasa u unib chiqmaydi. Urug' o'ziga suvni shimib oladi va bo'kadi. Bunda urug'ning hajmi va og'irligi ortadi. Urug' o'z og'irligiga nisbatan bir necha barobar og'irlikdagi suvni shimib olishi mumkin. Suv o'simlik urug'iga kirgandan so'ng u erda fiziologik jarayonlar ketadi. Urug'dagi kraxmal parchalanadi. Urug'dagi ildizcha va bargehalar o'sa boshlaydi. Ayrim o'simliklar suvda o'sadi, ular *gidrofitlar* deyiladi. Masalan., nimfa - nilufar yoki kuvshinka. Namlikni yaxshi ko'ruvchi o'simliklar *mezofitlar* deyiladi. Ular asosan tog'da o'suvchi o'simliklar. Qurukda issiqni yaxshi ko'ruvchi o'simliklar hayoti davomida suv tanqisligiga bardosh beradi. Masalan, yantoq.

Yorug'lik. O'sayotgan o'simlikka yorug'likni normal tushib turishi juda katta ahamiyatga ega. Aks holda unib kelayotgan o'simlik o'sishdan to'xtaydi. Yorug'lik natijasida o'simlikda fotosintez protsessi ketadi va asta-sekin o'simlik avtotrof oziqlanishga o'tadi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki o'simliklarni yorug'likka bo'lgan talabi turli xildagi o'simliklarda turlicha bo'ladi. Agar o'simlik uchun yorug'lik etarli bo'lmasa bargda ustunsimon hujayralar yaxshi taraqqiy etmaydi, poyada mexanik to'qimalar ham yaxshi taraqqiy etmaydi. Masalan: qamish, zich ekilgan makkajo'xori yoki g'o'za o'simliklari o'zini tik tuta olmasdan tez yiqilib yotib qoladi. Bulardan tashqari g'uza o'simligi o'sish davrida yorug'lik yuqori bo'lgan uzun kunlarni talab qiladi. Yozning o'rtalarida bizning iqlimda kunduz kuni uzoq bo'ladi. Shuning hisobiga tez o'sadi va shonalab gullashga o'tadi.

Shamol. Bu factor ham o'simliklarni o'sishi uchun katta ahamiyatga ega. Ma'lum darajada shamol bo'lib turishi o'simlikni havo olishiga va shu bilan birga suv parlatishiga yordam beradi. Masalan: 4 tomoni devor bilan o'ralgan tor joylarda mevali va mevasiz daraxtlar yuqoridagi faktorlar etarli bo'lsa ham yaxshi o'smaydi va yaxshi shoxlanmaydi. Mutassil shamol bo'lishi ham o'simlikka salbiy ta'sir etadi. Bunda shoxlar sinishi mumkin.

O'simlik organlarining o'sish yo'nalishlariga *tropizm* deyiladi.

Geotropizm. O'simliklarda ildizning doimo vertikal er ostiga kirib borishiga *geotropizm* deyiladi. O'q ildiz doimo er ostiga qarab kirib boradi. Geotropizmga salbiy ta'sir etuvchi omillar past temperatura, oziq moddalarning tuproqda etishmasligi, namlikning etishmasligi va boshqalar.

Fototropizm. O'simliklar doimo yorug'likka intiladi. Yuksak o'simliklarning poyasi qorong'ilikdan qochib yorug'likka tomon harakatlanadi. Bu hodisaga *fototropizm* deb ataladi. Bunda o'simlik yorug'lik energiyasidan to'liq foydalanadi. Yorug'lik tushib turuvchi tomonda o'simlik organlari shoxlanadi va barglar hosil bo'ladi. Oftob tik tushgan tomonda mevalar ham chiroyli bo'lib pishadi. Masalan: uzum, olma, nok va boshqalar.

Xemotropizm. Kimyoviy birikmalar o'simlikning bir tomonlama harakatlanishiga yordam beradi. Bunda ayniqsa ildizlar qayerda oziq modda ko'proq bo'lsa, shu tomonga qarab harakatlanadi.

Gidrotropizm. Bunda o'simlik ildizlarining suvga yoki namlikka qarab o'sishi kuzatiladi.

Magnitropizm. Bunda o'simliklar tuproqda ma'lum metallar ko'p bo'lgandagina o'sishi va shu joyni egallab olishi kuzatilgan. Shunga qarab turib er ostidagi ma'danlar - rudalar topilmoqda. Masalan, artemiziyalar-shuvoqlarning ba'zi turlari tuproqda oltin elementi ko'p erlarda keng tarqalgan. Ba'zi o'simliklar sho'r tuproqlarda keng tarqalgan. Bunda tuproqda K, Mg elementlari tuzlari ko'proq protsentsda bo'ladi. Bunday o'simliklarni *gallofit o'simliklar* deyiladi.

Yorug'likning davriyligi. 1920-yilda Amerika olimi Garner va Allar o'simlik gullarini yorug'likka bog'liqligini aniqladilar. Ular tamaki,soya va xrizantema o'simliklarini yorug'ik uzoq muddat tushuvchi kunlarda gullash protsessi bo'lmasligini aniqladilar. Agarda qorong'ilik bilan almashtirilganda ularning gullashi kuzatiladi.

O'simlikda rivojlanishning kun va tunga bog'liqligini yorug'likning davriyligi deb nomladilar. Qisqa qilib aytganda kun bilan tunning almashinishi o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga bog'liqdir. Demak, o'simlikning o'sishiga va rivojlanishiga yorug'lik va qorong'ilik to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Shunga qarab turib biz o'simliklarni qisqa kunli va uzun kunli o'simliklarga bo'lamiz va shu bilan birga neytral o'simliklar (uzun kunda ham, qisqa kunda ham rivojlanish protsessi sodir bo'ladi) ham bor. Kuzda yorug'lik tushishining kamayishi natijasida o'simlikda maxsus ingibitorlar hosil bo'ladi. Kurtaklarda kislota va fenol birikmalari hosil bo'lib, ular o'sish protsessini sekinlashtiradi. Bu moddalarning yo'qolishi o'simlik o'sishini tezlatadi. Shu bilan birga hujayralardagi yog'simon moddalar o'simlikni sovuq urishidan saqlab sovuqqa chidamliligini oshiradi.

Rivojlanish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar.

Rivojlanish protsessi o'simlikning vegetativ organlari o'sgandan so'ng generativ organlari hosil bo'lishi bilan bog'liq. Rivojlanishga to'g'ridan-to'g'ri 2 ta faktor ta'sir etishi mumkin. Ulardan biri temperatura va ikkinchisi yorug'likdir. Rivojlanishning temperaturaga bog'liqligini *yarovizatsiya* deyiladi. Bunda o'simlik urug'lari yoki vegetativ organlari ma'lum temperaturada ma'lum muddat ushlab turilishi kerak. O'simlik urug'larida buni *tinim davri* deyiladi. Mana bu tinim davri turli o'simliklarda turlicha vaqtni egallaydi. Masalan: ba'zan o'simliklarda bir necha kun bo'lsa, boshqa o'simliklarda bu bir necha oy yillarni tashkil qiladi. Tinim davrida turgan o'simliklarni ekologik faktorlar orqali uyg'otish yoki ko'kartirish mumkin. Ayrim o'simliklarda urug' po'sti qalinlashib unish xususiyatini uzoq vaqtgacha saqlab qolishi mumkin. Ular tashqaridan ta'sir bo'lgandagina ko'karib chiqishi mumkin. Bu narsa o'simlik urug'ining uzoq muddat saqlanganda turlarning saqlanib qolishiga yordam beradi.

Rivojlanish

Gulli o'simlikka chang onalik tugunchasiga tushgandan so'ng otalanish protsessi sodir bo'ladi. SHundan so'ng zigota hosil bo'ladi. Mana shu zigota hosil bo'lgandan so'ng o'simlikning o'sib, gullab va yana zigota hosil bo'lgungacha o'tgan vaqtga o'simlikning *ontogenezi* deyiladi.

Har bir o'simlik o'z ontogenez davrida o'sish va rivojlanish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu 2 xususiyat bir-biriga bog'liq, aloqador va shu bilan birga biri ikkinchisiz sodir bo'lmaydigan protsessdir.

O'simlikni o'sishiga o'stirish garmonlari ta'sir qiladi. O'simlik hujayralarini va organlarini o'sishini ta'minlovchi moddalarni *garmonlar* deb ataladi. Garmonlar o'simlik organizmida hosil bo'ladi. Bunday garmonlarni *fitogarmonlar* deb ataladi. Garmonlar o'simlikni o'sishini, rivojlanishini va shu bilan birga o'simlikni sharoitga moslashishini ta'minlaydi. Fitogarmonlarning 4 turi ma'lum:

1. Auksinlar - indolilsirka kislota
2. Gerberellinlar
3. Kininlar
4. O'stiruvchi ingibitorlar.

Yuqorida ko'rsatilgan o'stiruvchi moddalar bilan ishlangan o'simlik organlari intensiv - tezroq ko' karadi. Ularda idizlar chiqishi tezlashadi. Shuning uchun ham ko'pchilik qalamchalar auksinlar bilan ishlanadi.

Ba'zi auksinlar o'simlik gullaganda ishlatiladi, bunda o'simlik urug'i etilmaydi, urug' hosil bo'lmaydi. Aks holda etli meva etilishi mumkin. Lekin mevada shakar moddalar yuqori protsentda bo'ladi. Ayrim kimyoviy birikmalar o'simlik urug'ini unishini tezlatadi

Nazorat savollari

1. Bargda qanday fiziologik jarayonlar bo'ladi?
2. Fotosintez jarayonni yoritishda K.A. Timiryazev ishlari?
3. O'simliklarda transpiratsiya jarayoni qanday boradi?
4. O'simliklar qanday yo'l bilan ko'payadi?
5. O'simliklarni o'sishiga ta'sir qiladigan qanday omillarni bilasiz?
6. Tuban sporali o'simliklarda jinsli ko'payish qanday bo'ladi?
7. O'simliklarni qanday vegetativ ko'payish usullari bor?
8. O'simlik organlarining o'sish yo'nalishlari qanday bo'ladi?
9. O'simliklarni o'sishiga ta'sir qiladigan qanday garmonlar bor?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
12. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.

**O'simliklar sistematikasi. Tuban o'simliklarga xarakteristika.
Bakteriyalarning tuzilishi va ko'payishi.**

Ma'ruzaning maqsadi: O'simliklar sistematikasi tarixi, K.Linney, Engler sistemasi. Tuban o'simliklar haqida tushuncha berish. Bakteriyalarning tuzilishi.

Reja

1. o'simliklar sistematikasi nimani o'rgatadi.
2. o'simliklar sistematikasi tarixi.
3. K.Linney sistemasi.
4. Engler sistemasi.
5. Tuban o'simliklarga xarakteristika.

Tayanch iboralar: *Tuban o'simliklarning umumiy hususiyati. Suv o'tlarining tuzilishi, nomlanishi, pigmentlari. O'simliklarning kelib chiqishi. Bakteriyalar, haqiqiy suv o'tlari va yuksak o'simliklar. qizil va haqiqiy suv o'tlari. Suv o'tlarining asosiy sinflari: qizil, diatom, qo'ng'ir, yashil suv o'tlari. Suv o'tlarining kelib chiqishi, tanalarining tuzilishi, turlari va evolyutsiyasi. Xloroplast va perenoid xususiyatlari. Evolyutsiyada jinsli jarayonning turlari.*

O'SIMLIKLAR SISTEMATIKASI

Sistematika bu o'simliklarni tuzilishi jixatidan bir-biriga yaqinligini aniqlab, gruppaga ajratadi. o'simliklar er yuzida eramizdan 1700 yil ilgari paydo bo'lgan. Er yuzida 500.000 xil o'simlik bor. Yovvoyi o'simliklarning turi 350000, shulardan 200.000 gulli o'simliklar, 150.000 gullamaydigan sporal o'simliklar. MDX florasida 18.000 xil o'simlik borligi aniqlandi. o'simliklarga ayniqsa Kavkaz va o'rta Osiyo boydir. o'rta Osiyo va Kavkaz florasida 7000 o'simlik turi uchraydi. Botanikaning sistematika va morfologiya qismi qadimgi zamonlardan beri tekshirilib kelingan. Misrda bizning eramizdan 3000 yil ilgari uzumchilik taraqqiy eta boshlagan. Misrda dorivor o'simliklarni ekish boshqa mamlakatlarga nisbatan oldin boshlangan. Bu erda bizning eramizdan 2000 yil ilgari kanakunjut-Ricinus comunis.

Bizning davrimizgacha saqlanib qolgan qadimgi zamon o'simliklari haqidagi ma'lumotlarni grek adabiyotlarida uchratish mumkin. o'sha vaqtda grek olimlaridan Gippokrat, Aristotel, Dioskarid. Gippokrat bizning eramizdan 460-377 yillar ilgari 236 xil dorivor o'simliklarni tasvirlagan. Aristotel va uning shogirdi Teofrast bizning eramizdan 4 asr oldin ko'pgina o'simlik turlarini yozib, ularning foydali xususiyatlarini aniqlaganlar, qamda o'simliklarning 1 pallali va 2 pallali bo'lishini ko'rsatganlar. Teofrast botanikaning otasi xisoblanadi. Chunki uning yozgan kitoblaridan 15 tasi shu fanga baqishlangan. Dioskarid bizning eramizning 1 asrida yashagan. o'zining mashhur "Materia Medica" degan kitobida ko'p dorivor o'simliklarni rasmlari bilan tasvirlagan. qadimgi Rimning o'simliklar bilan shu'ullanganlaridan Pliney Starshiydir. Dioskarid va Pliney Starshiy gullaydigan va gullamaydigan o'simliklarni aniqlab, ularga lotincha nom bera boshlaganlar. Mas: Achillea, Adonis va boshqalar. o'adimgi zamonlarda dorivor o'simliklar soqasida yozilgan xind kitoblaridan eng aqamiyatlisi "Yadjur veda" qisoblanadi. Bu kitobda ko'rsatilgan dorivor o'simliklar hozir qam o'z qimmatini yo'qotgan emas. Xitoyda o'simliklar haqida Xon-shen-nun bizning eramizdan 3000 yil ilgari "Bentsao" degan kitob yozgan. o'rta asrlarda o'tgan olimlardan butun dunyoga mashhur bo'lgan atoqli vrach Abu Ali Ibn Sino qisoblanadi (980-1037).

Avitsenna Buxoroga yaqin joydagi qishloqda tuqilgan. 1020 yilda "Alqonunfit Tib" deb atalgan 5 tomli kitob yozgan. Petr 1 1724 yilda Rossiyada fanlar Akademiyasini ochish to'qrisida buyruq chiqardi. U fanlar akademiyasi oldiga Rossiya florasini tekshirish vazifasini qo'yadi. SHU maqsadda bir qancha ekspeditsiyalar tashkil etiladi. Ekspeditsiya qatnashchisi akademik Pallas "Flora Rossica" degan kitob yozgan.

18 asrning boshlarida shved olimi Karl Linney (1707-1778) o'simliklarning sistematikasini tuzadi. U 1000 ga yaqin o'simliklarni morfologik terminlarini ishlab chiqaradi. K.Linney

"o'simliklarning turlari:degan asarida 10.000 xil o'simlik turini tasvirlab ularni 1000 ta avlodga, bu avlodni 116 tartibga, tartibni esa 24 sinfga bo'lib chiqadi.

TUR -VID	10.000
AVLOD- ROD	1000
TARTIB - PORYADOK	116
SINF - KLASS	24

Shulardan 23 sinfga gullaydigan o'simliklarni, 1ta sinfga esa, gullamaydigan o'simliklarni kiritadi. Gullamaydigan o'simliklarga suv o'tlarini, zamburuqlarni, moxlarni va qirqquloqsimonlarni kiritadi. K. Lin

ney gullaydigan o'simliklarni "jinsiy urchishi anio'langan" o'YAvnobrachno`e), gullamaydigan o'simliklarni "jinsi ma'lum emas"o'Taynobrachno`e)deb ataydi. K. Linney qar bir o'simlikni 2 nom bilan atalishini kiritadi.

"Binarnaya nomenklatura"deyiladi.Bunda oldin avlod, so'ngra tur nomi yoziladi. Avlod nomini ot, tur nomini sifat qilib olinadi. Mas:paxtaning avlodi, Gossypium Amerika paxtasi.-Gossypium hirsutum, Misr paxtasi -Gossypium barbadense

Oq tut- Morus alba

qora tut- Morus nigra

qizil tut- Morus rubra

K.Linney sistemasi sun'iy sistema qisoblanadi. CHunki Linney o'simliklarning kelib chiqishini, bir-biriga yaqinligini va rivojlanishini qisobga olmagan. Linney idealist olim bo'lgan. Uning fikricha o'simliklar va xayvonlar o'zgarmaydi, ular bir vaqtda yaratilgan. Biz turni shunday tushunamizki,tur bir qancha individlardan iborat bo'lib, tashqi sharoit ta'sirida, odam vositasida, ichki protsesslar natijasida o'zgarib rivojlanib turadi. Tur o'zgarishi mumkin. K. Linneyning o'simliklarni gruppaga bo'lib tekshirishga qozir o'zgartirish kiritilgan:

1. Tur - vid- Specis eng kichik -Sub species
2. Avlod - rod- genus
3. Oila - simeystvo- Familia
4. Tartib - poryadok- Ordo
5. Sinf - klass- clasis
6. Tip - tip- tipus
7. Bo'lim - otdel- divisio

Ba'zan tur yana kichik turlarga bo'linadi. Kichik turni -Sub species deyiladi. Tabiiy sistemani 1-marta 1841 yil Peterburg akademiyasining professori Goryaninov tuzgan. Bu o'simliklarni 4 gruppaga bo'lgan. 1-gruppasida sporali o'simliklar, lishayniklar, moxlar, qirqquloqsimonlar va boshqalar. 2 gruppasiga "soxta uruqlilar"-igna barglilar, qaraqay, archa. 3-gruppasiga "qalla donli o'simliklar, ya'ni bir pallali o'simliklar. 4-gruppasiga-" qaqiqiy uruqli o'simliklar"- 2 pallalilar gruppasi.¹

Suv o'tlari, zamburuqlarni esa, o'ayvonot va o'simliklar dunyosi oraliqidagi organizm deb qisoblaydi. Tabiiy filogenetik sistemani o'simliklarning rivojlanishiga asoslanib, rus olimlaridan Varshava Universitetining professorlaridan Belyaev, Moskva Universitetining professori Gorjankinlar tuzgan. Ular sistemani tuzishda uruqli o'simliklar sporali o'simliklardan paydo bo'lishiga asolanganlar. Ular o'z sistemasini buyuk ingliz olimi CHarlz Darwin nazariyasiga asoslanib tuzganlar. Darvinning 1859 yilda "Turlarning tabiiy saralanish natijasida kelib chiqishi"degan asari bosilib chiqadi. Bu asarida Darwin o'simlik va qayvon turlarining er yuzida paydo bo'lishi va rivojlanishini ko'rsatadi. Darwin materialist olim bo'lgan. Darwin 3 faktorga asoslanadi:

- 1.IRSIYAT-nasledstvennost
- 2.O'ZGARUVCHANLIK-izmenchivost
- 3.Tabiiy saralanish estetstvenno`y stbor.

¹Mustafaev S.M., Ahmedov O.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: "YUNAKS-PRINT" MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.

1897 yilda Gorojankinning tuzgan "tabiiy filogenetik sistemasi bo'yicha o'simliklar sistemasini 3 ta bo'lim, 7 ta sinfga bo'lgan.

1-bo'lim. -Tuban sporali o'simliklar - Oogoniata

Bu bo'limga 2 ta sinf kiradi a) Algae -suv o'tlari

b) Fungi -zamburuqlar - Mucophyta

2-bo'lim-Yuqori sporali o'simliklar- Archimycetes

Bu bo'limga 3 ta sinf kiradi a)Moxlar - Bryophyta

b) qirqquloqsimonlar- Polyhodyophyta

v) Ochiq uruqlilar- pinophyta

3-bo'lim yopiq uruqli o'simliklar- Angiospermae

Bu bo'limga 2 ta sinf kiradi

a)Bir pallalilar- Monocotyledoneae

b)Ikki pallalilar-Dicotyledoneae

Bundan keyin qam o'simliklar sistemasini o'zgartirilib, mukammallashtirilgan. Xozirgi sistema nemis olimi engler sistemasiga asoslangan.

er yuzidagi qamma o'simliklar 2 ta gruppaga bo'linadi:

1.SPORALILAR- Sporophyta

2.URUG'LILAR- Spermatophyta

a)Sporalilar 2 ta otdelga bo'linadi:

1)Tuban sporali o'simliklar-Oogoniatae

2)Yuqori sporali o'simliklar- Archegoniatae

TUBAN SPORALILARGA:

Suv o'tlari -Algae ,Bakteriyalar- Bacteriophyta, Zamburuqlar-Fungi Lishayniklar Lichenophyta kiradi.

YUQORI SPORALI O'SIMLIKLARGA:

Moxlar- Bryophyta, qirqquloqsimonlar- Pteridophyta kiradi.

b) URUG'LILARGA

1.Ochiq uruqli o'simliklar- gymnospermae yoki Pinophyta

2.Yopiq uruqli o'simliklar- Angiospermae Magnoliophyta

Tuban sporali o'simliklarning jinsiy organlari bir xujayrali,oddiy tuzilgan.Bularning tanasi organlarga bo'linmaydi.

Yuqori sporali o'simliklarning jinsiy organlari, ko'p xujayrali, murakkab tuzilgan. Bularning tanasi organlarga bo'linadi.

YOpiq uruqli o'simliklarning uruqi meva ichida bo'ladi.

Ochiq uruqli o'simliklarning mevasi bo'lmaydi.

engler sistemasini bo'yicha o'simliklar quyidagi tipga bo'linadi.

1.Bakteriya- Bacteria

2.Ko'k yashil suv o'tlari-Cyanophyceae

3.Yashil suv o'tlari- Chlorophyceae

4.Sariq- Diatomea

5.qo'nqir- Phacophyceae

6.qizil- Rhodophyceae

7.Shilimshiqlar yoki miksomitsetlar-Myxophyta

8.Zamburuqlar-fungi

9.Lishayniklar- Lichenes

10.Moxlar- Bryophyta

11.qirqquloqsimonlar- Pteridophyta

12.Ochiq urug'lilar- gymnospermae

13.Yopiq urug'lilar- Angiospermae

Bakteriyalar bir hujayrali mayda organizmlardir, ularni faqat mikroskopdagina ko'rish mumkin. Ularning hujayralari azot moddadan petin modda aralashgan gemitsellyulozadan tashkil topgan po'stdan va nuklein moddasi tarqoq holda joylashgan protoplastdan tashkil topgan.

Bakteriyalar tuzilishiga ko'ra sharsimon-kokklar, tayoqchasimon-batsilalar, egilgan va bukilgan spirillalar, spiroxitalargabo'linadi. Bakteriyalar hujayrasining oddiy bo'linish yo'li bilan juda tez ko'payadi. Ba'zi turlarning hujayrasi har 12-15 takror bo'linish xususiyatiga ega. Ular oziqlanish usuliga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Bir guruh bakteriyalar saprofit- ya'ni tayyor organik parchalanishi hisobiga yashaydi. Ikkinchi guruh bakteriyalar parazit ya'ni tirik o'simlik, yoki hayvonlar hisobiga yashaydi. Bakteriyalar havo kislorodiga munosabatiga ko'ra ham turlicha yashaydi. Ko'pchilik turlari aerob ya'ni faqat kislorod bo'lganidagina yashay oladi, ba'zilari anaerob bo'lib, kislorodsiz sharoitda ham yashay oladi. Fakultativ aerob yoki fakultativ anaerob bakteriyalar ham bor ular kislorod bor joyda ham yuq joyda ham yashash xususiyatiga ega. Bakteriyalar tabiatda juda katta rol o'ynaydi ular boshqa organizmlar bilan birganlikda tabiatda moddalarning doimiy aylanishida ishtirok etadi. Ular organik substratga tushgandan keyin uni parchalaydi, natijada tuproqqa atmosferaga o'tuvchi yoki yuksak o'simliklar o'zlashtiradigan bir muncha oddiy moddalarni hosil qiladi.¹

Nazorat savollari

1. Suv o'tlarining tuzilishi.
2. Suv o'tlarining autotrof oziqlanishi.
3. Suv o'tlarining hujayralarida qanaqa pigmentlar uchraydi.
4. Ko'k yashil suv o'tlarining ko'payish xillari.
5. Fikotsian pigmenti qaysi suv o'tlar turida uchraydi.
6. Yashil suv o'tlarning ko'payish xillari.
7. Yashil suv o'tlariga kiruvchi vakillari haqida ma'lumot.
8. Diatom suv o'tlarida qanaqa pigment uchraydi.
9. Pinulyariya suv o'tining tuzilishi va ko'payishi.
10. Suv o'tlarning ahamiyati.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

¹V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaro nashr: Edinburg, London Nyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.

Ma'ruza - 9

Suvo'tlari, zamburug'lar va lishayniklar.

Ma'ruzaning maqsadi: Suvo'tlarining tuzilishi, klassifikatsiya, ko'payishi va ahamiyati. Zamburug'larning tuzilishi, oziqlanishi, klassifikatsiyasi, ko'payishi, zarari va ahamiyati. Lishayniklarning tuzilishi, xillari, ko'payishi va ahamiyati haqida tushuncha berish.


Reja

1. Suvo'tlarining tuzilishi
2. Suvo'tlarining yashash sharoiti
3. Suvo'tlarining klassifikatsiyasi
4. Suvo'tlarining ko'payishi
5. Suvo'tlarining kelib chiqishi
6. Suvo'tlarining ahamiyati
7. Zamburug'lar tuzilishi
8. Zamburug'larning oziqlanishi
9. Zamburug'larning klassifikatsiyasi
10. Zamburug'larning ko'payishi
11. Zamburug'larning kelib chiqishi
12. Zamburug'larning zarari va ahamiyati
13. Lishayniklarning tuzilishi va xillari
14. Lishayniklarning ko'payishi
15. Lishayniklarning ahamiyati

Tayanch iboralar: *Suv o'tlari va ularni yashash muhitlari. Bentos, plankton va qurug'likda yashovchi suv o'tlar. qizil suv o'tlari, pigmentlari va oziq moddalari. Ko'payish usullari. Rivojlanish davri. Tarqalishi va ishlatilishi. Diatom suv o'tlarining umumiy tuzilishi, hujayra po'sti, pigmentlari, oziqa moddalari. Yashil o'simliklar bo'limi va ularning xususiyatlari, pigmentlari, oziqlik moddalar. Rivojlanish davri va sinflarga bo'linishi: volvokslar, ulotrikslar, sifonlilar, konyugatlar, ularning umumiy xususiyatlari. Asosiy vakillari (xlomidomanada, volvoks, xlorella, ulotriks, ulva, koularpa, vosheriya, spirogira). Yashil suv o'tlarining ahamiyati. Xara suv o'tlari bo'limi, ularning umumiy xususiyatlari. Tanasining umumiy tuzilishi, ko'payishi. Tuban o'simliklar: zamburug'lar va lishayniklar. Zamburug'lar mitselliysi, oziqlanishi, ko'payishi. Tuban va yuksak zamburug'lar. Zamburug'larning asosiy sinflari: xitridomitsetlar, oomitsetlar, zigomitsetlar, askomitsetlar, bazidiomitsetlar, takomillashmagan zamburug'lar vakillari.*

SUVO'TLARI -Vodorsli

Suvo'tlari morfologik jihatdan juda xilma-xil bo'lib, ular orasida mikroskopik bir hujayralilar bilan bir qatorda bir necha o'n metrga boradigan vakillari ham bor. Suvo'tlari tana holatida yashaydigan o'simliklar, ularda ildiz, poya, barg bo'lmaydi. Biroq ba'zi vakillarning tanasi – tallomi birmuncha murakkab tuzilgan bo'lib, tanasi ayrim qismlarga ajralgan. (1.rasm) Suvo'tlarining hujayrasi tashqi tomondan qattiq devor bilan qoplangan. Hujayra sitoplazmasi devor atrofida joylashgan bo'lib, hujayrani to'ldirib turadi. Hujayrada bitta yoki bir nechta mayda vakoulalar mavjud. Yadroning soni ham bir yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Hujayradagi xromatoforlarda pigmentlar saqlanadi. Xromatoforning shakllari turli–tuman: plastinkali, spiral, lentasimon, to'rsimon, yulduzsimon.



Rasm. 1 Xlorella:
1-hujayra qobig`I;
2-sitoplazma; 3-mag`iz;
4-xromotofor.

Suvo`tlari chuchuk suvlarda, dengiz va okeanlarda, zax erlarda yashaydi. Ularning ko`p miqdorini tashkil etuvchi mikroskopik to`dasi erkin suzib, fitoplankton hosil qiladi. Suvda yashaydiganlari 3 guruhga bo`linadi:

- 1.Suv ostida yashovchilar – ENTOS
- 2.Suv ichida yashovchilar – PLANKTON
- 3.Suv yuzida yashovchilar

Planktonning chuqurligi 300 m gacha bo`lishi mumkin. Suv havzasining 300 metrdan chuqurroq joyida yashovchi suvo`tlari bentos deyiladi. Ayrim suvo`tlari juda past haroratda ham hayot kechirish qobiliyatini yo`qotmaydi. Hatto qutbda, tog` cho`qqilarida ham yashaydi. Qor xlomidomonadasi qorni qizil, sariq, yashil, qo`ng`ir ranglarga bo`yashi mumkin. Xlorellaning ayrim vakillari ham havoda yashay oladi. Suvo`tlari hujayrasida yashil rang beruvchi xlorofill pigmenti bo`lganligi sababli ovqatlanish jihatidan avtotrof organizm hisoblanadi. Hayot kechirish uchun zarur bo`lgan, oziq moddani o`zlariga o`zi tayyorlaydi, ya`ni hujayrasida fotosintez protsessi bo`ladi.


Ba`zi bir ko`k – yashil suvo`tlari tayyor organik modda hisobiga ham yashaydi, ya`ni ular saprofit holatda yashaydi. Ko`k – yashil suvo`tlarining xromatoforida xlorofilldan tashqari ko`k rang beruvchi fikotsian pigmenti uchraydi. Yashil suvo`tlarida faqat yashil rang beruvchi xlorofill pigmenti uchraydi. Diatom suvo`tlarida xlorofilldan tashqari sariq rang beruvchi diatomin pigmenti bo`ladi. Qo`ng`ir rangli suvo`tlarining xromatoforida xlorofilldan tashqari qo`ng`ir rang beruvchi fukoktsiantin pigmenti uchraydi. Qizil suvo`tlarida xlorofilldan tashqari qizil rang beruvchi fikoeitrin pigmenti bo`ladi. Suvo`tlarining hujayrasida oziqli modda sifatida kraxmal, yog`, oqsil hamda hayvonlarga xos bo`lgan kraxmal – glikogen uchraydi. Glikogen yod ta`sirida qo`ng`ir rangga bo`yaladi. Hozirgi kunda er yuzida 100000 xil suvo`tlari bo`lib, bularning hammasi 5 ta tipga bo`linadi:

- 1.Ko`k – yashil suvo`tlari
- 2.Yashil suvo`tlari
- 3.Sariq suvo`tlari
- 4.Qo`ng`ir suvo`tlari
- 5.Qizil suvo`tlari

Suvo`tlari 3 xil yo`lda ko`payadi.

- 1.Vegetativ ko`payish
- 2.Jinssiz ko`payish
- 3.Jinli ko`payish

Vegetativ ko`payishda hujayra kariokinez yo`lda bo`linib ko`payadi. Shuningdek hujayrada zoosporalar hosil bo`ladi. Zoosporalarning xivchinlari bor. Xivchinlari yordamida suvda harakatlanib yuradi. Har bir hujayradan 4, 8, 16 dan 64 tagacha 300 spora etilishi mumkin. Zoosporalar suvda bir necha sek yoki minut suzib yurgach to`xtaydi. Xivchinlarini tashlab, o`sib rivojlanadi.



Rasm 2.

Xlamidomonada:
 1—xivchini; 2—vakuoli;
 3—qobig'i; 4—mag'izi;
 5—xromatofori.

Jinssiz ko'payish zoospora yoki spora yordamida bo'ladi. Mas: ko'k – yashil suvo'tlari , qizil suvo'tlarning jinssiz ko'payishi esa zoosporalar yordamida bo'ladi. Jinssiz ko'payishdagi zoospora va sporalar hujayralarning reduksion bo'lishi

natijasida vujudga keladi.

Jinsiy ko'payishda 3 xil tip bor:

1. **Izogamiya**
2. **Geterogamiya**
3. **Oogamiya**

Izogamiya tipda ko'payishda 2 ta morfologik jihatdan o'xshash, fiziologik jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lmagan GAMETALAR qo'shib ko'payadi. GAMETA – jinsli hujayradir.

Geterogamiya tipda ko'payishda morfologik va fiziologik jihatdan har xil bo'lgan gametalar qoshilib ko'payadi. Bu gametalarning 1 tasi katta, sust xarakatchan bo'lib, buni Makrogameta deyiladi. 2-xili kichik, tez xarakatchan bo'lib, buni Mikrogameta deyiladi. Mikrogameta otalik gameta, makrogameta onalik gameta hisoblanadi.

Oogamiya tipda ko'payishda otalik va onalik jinsiy organlari paydo bo'ladi. Otalik jinsiy organini Anteridiya onalik jinsiy organini Oogamiya deyiladi. Anteridiyada spermatozoidlar etishadi. Oogamiyada esa tuxum xujayra rivojlanadi. Anteridiya spermatozoidlarni suvga ishlab chiqaradi. Oogamiya xam tuxum hujayralarni suvga ishlab chiqaradi. Spermatozoidlar suvdagi tuxum hujayralar bilan qo'shiladi. Otolangan tuxum hujayrani Oospora deyiladi. Suvo'tlarining ko'payishini Tsenkovskiy, Meer, Kursanov va boshqalar tekshirganlar.¹

SUVO'TLARINING AHAMIYATI

Suvo'tlari suvning havosinidan tozalab, bilan boyitib turadi. Suvo'tlari suvda yashovchi hayvonlar uchun ovqat hisoblanadi. Suvo'tlarining ba'zi turlari odamlar tomonidan ham iste'mol qilinadi. Mas: Laminaria-dengiz karami nomi bilan mashxurdir. Laminarianing bargiga o'xshash qismi 50 m gacha boradi. SHu qismi ovqatga ishlatiladi. Laminariada oqsil, yog' va uglevodlar bor. Suvo'tlari vitaminlarga ham boy bo'ladi. Yaponiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda suvo'tlari bilan er o'g'itlanadi. CHunki uning tarkibida N, Br, C va boshqa birikmalar bo'ladi. Qizil suvo'tlaridan "agar-agar" degan modda olinadi. Bu moddani mikrobiologiya praktikasida bakteriyalarni rivojlantirishda va o'stirishda ishlatiladi. Oziq-ovqat sanoatida esa, marmelad tayyorlashda ishlatiladi. Ba'zi qo'ngir suvo'tlaridan sifatli elim olinadi. Suvo'tlaridan olingan Algin preparati engil ich yumshatuvchi ta'siriga ega (algenat natriy). Sariq suvo'tlarini qoldiqlarini "trepel" deb aytiladi. Bu modda dinamit tayyorlashda va binokorlikda toshlarni pardozlashda ishlatiladi. Shuning uchun uzoq vaqt chirimaydi. Ko'k – yashil suvo'tlarining ba'zi turlari: Anavena va Stratanastoc boshqalar havodagi ni yutish hususiyatiga ega. Ular havodagi ni yutib, erni N li birikma bilan boyitadi. Ko'k-yashil suvo'tlari, yashil suvo'tlari, sariq suvo'tlari dengizlarda organik cho'kmalar hosil qiladi. Bu organik cho'kmalarni Sapropel deyiladi. Sapropel oziq modda va og'it sifatida katta ahamiyatga egadir. Suvo'tlarining ba'zi birlarida Xlorella deb

¹Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.

atalgan antibiotik dori olinadi. Xlorella oshqozon kasali, singa, buqoq, gipertomiya kasalliklariga davo.

ZAMBURUG‘LAR-Fungi

Rasm 3.

Zamburug‘lar er yuzida juda ko‘p tarqalgan o‘simlik bo‘lib, hozirgi kunda 100000 xil turi ma‘lum. Zamburug‘lar asosan quruqlikda, ba‘zilari esa suvda yashaydi. Zamburug‘lar oziqlanishi jixatidan geteratrof organizmdir. Geteratrof oziqlanish o‘z galida ikkiga bo‘linadi.

1. Parazit holda ovqatlanish

2. Saprofit holda ovqatlanish

Parazit holda ovqatlanish tirik organizm hisobiga, saprofit holda oziqlanish o‘lik organizm hisobigabo‘ladi. Zamburug‘larda xlorofill donachasi bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘zlariga o‘zi ovqat tayyorlay olmaydi. Zamburug‘larning tanasi GIF deb ataladi. Giflar bir hujayrali yoki ko‘p hujayrali tarmoqlangan yoki tamoqlanmagan bo‘ladi.

Giflarning eni 1-1,5 mm, bo‘yi esa bir necha metrgacha bo‘lishi mumkin. Giflar asosan monopodial, qisman simpodial o‘sadi. Giflarning hujayra po‘sti xitin moddasidan tuzilgan. Hujayralari 1ta yadroli yoki ko‘p yadroli bo‘ladi. Hujayrada oziqli modda sifatida glikogen va yog‘ tomchilari to‘planadi. Giflarni yig‘indisi mitseli deb yuritiladi. Zamburug‘larning tanasi yoki mitseliyasi ochiq yoki yopiq erda taraqqiy etadi. Ochiq erda taraqqiy etsa, ekzogen, yopiq joylarda taraqqiy etsa endogen deyiladi. Zamburug‘larda qoplovchi, o‘tkazuvchi to‘qimalari bo‘lmaydi. Ularda faqat chiqaruvchi to‘qima, ba‘zilarida sutli naylar bo‘ladi. Chiqaruvchi to‘qimada oshlovchi modda-dubil hamda smolaga o‘xshash modda chiqarilib turadi. Sutli naylarida zaxarli modda alkaloidlar va boshqa moddalarni uchratish mumkin. Zamburug‘lar 1 yillik, 2 yillik, hamda ko‘p yillik bo‘ladi. Zamburug‘larning ko‘pchiliga 2 yillikdir.

Zamburug‘lar 3 xil yo‘lda ko‘payadi:

1.VEGATATIV

2.JINSSIZ

3.JINSLI

Vegetativ ko‘payishi Oidio kurtaklanib va Xlomdosporalar yordamida bo‘ladi. Ba‘zi bir zamburug‘larda 82oospore82e ko‘payishda kurtaklanib ko‘payadi. Bunga achitqi zamburug‘ini misol qilish mumkin.

Jinssiz ko‘payish sporalar yoki zoosporalar yordamida bo‘ladi. Suvda yashaydigan zamburug‘lar 82oospore tuzib ko‘payadi. Quruqlikda yashaydiganlari esa spora hosil qilib ko‘payadi. Sporalari nihoyatda

mayda, quruq va ko‘p miqdorida tayyorlanadi. Masalan: SHAMPINION deb atalgan zamburug‘ ikki sutkada ikki mlrd spora hosil qiladi.

Yong‘oqning tanasida uchraydigan Po‘kak parazit zamburug‘ida bir yilda 10 mlrd spora tayyorlanadi.



Rasm 4.

Jinsli urchishi ikki xil usulda bo'ladi:

a) **Ooganiya**

b) **Konyugatsiya**

YUqori murakkab tuzilgan zamburug'larning jinsiy urchishi bir oz soddalashgan bo'ladi. Ularda fiziologik jixatdan har xil bo'lgan 2 (hujayra) sporalar qo'shib ko'payadi. Bu sporalarni bipolyar sporalar, ya'ni 2 qutbli sporalar deyiladi. Bittasi "-", 2 chisi "+" qutbli bo'ladi.

Zamburug'larni tipi 5 sinfga bo'linadi.

1. Qadimgi zamburug'lar- Achinycetes

2. Suv o'tlariga o'xshash zamburug'lar-

Phycomycetes.

3. Xaltachali zamburug'lar-
Ascomycetes.

4. Murakkab bazideal zamburug'lar-
Basidionycetes.

5. Aniqlanmagan zamburug'lar- Fungi
imperfect.

Zamburug'larni bazi birlari mas: qo'ziqorinlar oqsil va N li moddalarga boy bo'ladi. Shuning uchun odamlar tomonidan ular iste'mol qilinadi. Shampin'on, Smorchok, Djodevik, Belli grib va boshqalar. Zamburug'lar qishloq xo'jaligida ham ahamiyatga ega. O'simliklar ildizida mikorizalar bo'ladi.



Rasm 5.

Grekcha: Miks- ildiz, ridza- zam. Zamburug'lar ildizning tashqi tomonida joylashgan bo'lsa ektotrof, ildizining ichki organlarida joylashgan bo'lsa, endotrof mikoriza deyiladi. Mikorizalarning axamiyatini 1881 yilda rus olimi Kamenskiy aniqlagan. Mikorizalar o'simliklar ildizini vitaminlar bilan masalan: B₁ bilan ta'minlab turadi. B₁ vitamin o'simlik ildizining o'sishiga yordam beradi. Mikorizalar moddalarni eriydigan xolga keltiradi. Ularning bazi birlari xavodagi erkin N ni yutish xususiyatiga ega. Shu bilan o'simlikni azot bilan taminlab, yerni N bilan boyitadi.¹

Zamburug'larning sanoatda axamiyati kattadir. Masalan: achitqi zamburug'i Saccharomycetes glyukozani etil spirtiga aylantiradi. Zamburug'larning tibbiyotda ham axamiyati kattadir. Masalan: shoxkuya (qoramux) Claviceps pupuriea. Bu zamburug' parazit holatda g'alladon o'simliklarida uchraydi. Xaltachali zamburug'ga kiradi. Tarkibida ergotin gruppasiga kiradigan bir qancha alkaloidlar bor. Bu zamburug'dan tayyorlangan ekstrat genekologiya praktikasida qon to'xtatishda ishlatiladi. SHoxkuya alkaloidi mushaklarni qisqartirish xususiyatiga ega. 1942 yili rus olimi Ermoleva Penicilium deb atagan xaltachali zamburug'dan penselin oladi. 1938 yili rus olimi Krasilnikov xali yaxshi aniqlanmagan zamburug'lardan Actinomycetes dan streptomitsen oldi. Zamburug'lardan bo'yoq moddasi olinadi. Masalan: po'kak zamburug'idan. Zamburug'ning axamiyati bilan birga ularning zarari ham bor. Parazit zamburug'i qishloq xo'jaligiga juda katta zarar keltiradi. Masalan: bazidial zamburug'lari sinfiga kiruvchi qora kuya zamburug' (golovnya) Ustilago hamda zang zamburug'i (rjavchiona) Puccinia 1932 y qishloq xo'jaligida 300 million so'mlik zarar etkazgan. Bu zamburug'lardan qutilish yo'li qorakuya va zang zamburug'iga chidamli o'simlik navlarini etkazish, ekin ekiladigan dalalarni begona o'tlardan tozalash, urug'ini dorilab ekish va h.k.

LISHAYNIKLAR-Lichenes


Lishayniklar 2 xil o'simlikning birga yashashidan xosil bo'lgan organizmdir. Lishayniklarda suvo'ti hamda zamburug' bor. Lishayniklarda bo'lgan suvo'ti va zamburug' bir-biri

¹Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. -48 p

bilan simbioz holatda yashaydi. Simbioz bu bir-biriga hamkorlik va qarama-qarshi kurashdir. Zamburug‘lardan asosan xaltachali zamburug‘lar, ba‘zan bazidial zamburug‘lar, suvo‘tlaridan ko‘k-yashil yoki yashil suvo‘tlari ishtirok etadi. Lishaynikni tashkil etgan bu 2 organizm bir-biridan foydalanib, qisman bir-biriga zarar etkazib, yashashni davom ettiradi.

Zamburug‘lar suvo‘tiga suv va mineral modalarni beradi, suvo‘tidan esa organik modalarni oladi. Suvo‘ting hujayrasida yashil rang beruvchi pigment bo‘lmagani uchun, fotosintez bo‘lib, organik modda tayyorlanadi.

1867 yil rus olimlari Fomitsen va Baranetskiylar lishayniklarning tanasidan suvo‘tlarini ajratib olgan. Erkinlikka chiqqan suvo‘tlari kuchli taraqqiy etib, zoosporalar hosil qilib ko‘paya boshlagan. Suvo‘tlaridan ajrab qolgan zamburug‘lar esa normal taraqqiy eta olmagan. Fomitsen va Baranetskiylar suvo‘tlari zamburug‘ga tushgan asir degan xulosaga kelgan. Bu 2 xil o‘simlikni bir-biri bilan qo‘shilib yashashgan nixoyat darajada sovuqqa va issiqqa chidamli organizm kelib chiqqan. Lishayniklar, suv- o‘tlari yoki zamburug‘lar yashay olmaydigan joylarda o‘sadi va taraqqiy etadi. Masalan: toshlarning ustida, daraxtlarning po‘stlog‘ida, cho‘llarda va boshqa erlarda.



Rasm 6.

Lishayniklar tashqi ko‘rinishi jihatdan 3 ta guruppaga bo‘linadi:

1. Ko‘pikka o‘xshash bo‘lgan lishayniklar.
2. Bargga o‘xshash lishayniklar.
3. SHoxlanib o‘sadigan lishayniklar.

Ko‘pikka va bargga oxshash lishayniklar toshga, daraxtlarning po‘stlog‘iga yoki biror narsaga yopishgan xolda gorizontol o‘sadi. Shoxlanib o‘sadigan lishaynik esa, vertikal o‘sadi.

Lishayniklarning anatomiyasi ham 2 xil tipda bo‘ladi.

Lishayniklar tanasining tashqi tomonini zamburug‘ giflari o‘rab olgan. Ichki tomonida suvo‘ti hujayralari joylashgan bo‘ladi. Lishayniklarning tanasining ma‘lum bir joyda suvo‘ti hujayralari bo‘lsa, suvo‘ti qavatini gonidiya qavat deyiladi. Lishaynikning o‘zini geteromer deyiladi. Lishaynikda suvo‘ti hujayralari tarqoq holda joylashgan bo‘lsa, gomeomer deyiladi .

Lishayniklar 3 xil yo‘lda ko‘payadi:

- a) **VEGETATIV**
- b) **JINSSIZ**
- c) **JINSLI**

Vegetativ ko‘payishda tanasi bo‘linib ko‘payadi yoki tanasida o‘simtalar hosil bo‘ladi. Sorediya – bu koptoksimon (tugunsimon) bo‘lib, suvo‘tlarini zamburug‘lar o‘rab oladi. (1ta yoki 2ta suvo‘tlarini).

Sorediya etilgandan keyin lishaynikni tanasi bosim ta‘sirida yoriladi va sorediya shamol yordamida uchib ketadi va qulay sharoitda nam erda o‘sib, ko‘payadi.

Izideya – lishaynik tanasida yonidan o‘sib chiqqan o‘simlik bo‘lib, shuni yordamida uzilib qulay erga tushib ko‘payadi.

Jinssiz ko‘payish sporalar yordamida bo‘ladi. Zamburug‘ bilan suvo‘ti birgalikda sorediya yoki izideya xosil qilib ko‘payishi mumkin. Suvo‘ti qaysi suvo‘tidan tashkil topgan bo‘lsa, shu bo‘yicha ko‘payadi. Lishayniklarning ba‘zi birlari odamlar tomonidan ovqatga ishlatiladi. Masalan: Islandiya lishaynigi. Ba‘zi lishayniklardan lakmus bo‘yog‘i olinadi. Tundrada o‘sovchi lishayniklar bug‘ular

uchun ovqat. Lishayniklar juda sekin o‘sadi. Masalan: tundrada o‘sovchi lishayniklar 1yilda 3,5 sm o‘sishi mumkin. Ba’zi bir lishayniklardan efir moyi olinadi. Ba’zi bir lishayniklar zaxarli bo‘lgani uchun ovchilar bo‘rilarni zaharlash uchun ishlatadilar

Nazorat savollari

1. Suvo‘tlarining tuzilishi, yashash sharoiti va klassifikatsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Suvo‘tlarining ko‘payishini tushuntirib bering?
3. Suvo‘tlarining ahamiyati to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
4. Zamburug‘lar qanday o‘simlik, ularning tuzilishi va klassifikatsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Zamburug‘larning ahamiyati qanday?
6. Lishayniklar qanday organizmlardan tashkil topgan?
7. Lishayniklarni qanday xillari mavjud?
8. Lishayniklarni ko‘payishi va ahamiyati?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A. Botanika. – T.: O‘zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A., Samatova SH. O‘simliklar sistematikasidan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O‘.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –48 p
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. Василева А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Ma’ruza –10

Yuksak sporalı o‘simliklarga tasnif. Moxsimonlar, plaunimonlar.

Ma’ruzaning maqsadi:

1. Yuqori sporalı o‘simliklarga qisqacha tasnif.
2. Moxsimonlilar bo‘limi.
3. Jigarsimon moxlar.
4. Poya va bargli moxlar.
5. Torf hosil qiluvchi moxlar.
6. Moxlarning yashash sharoiti.
7. Plaunlar. Cho‘qmoqli plaun.
8. Plaunlar tuzilishi, ko‘payishi.

9. Bir xil va har xil sporali plaunlar.

Tayanch iboralar: Yuksak sporali o'simliklarga tasnif. Moxsimonlar. qirqquloqsimonlar. Yuksak sporali o'simliklarni tuban sporali o'simliklardan ustunligi. Moxlar va qirqquloqsimonlarning umumiy xususiyati. Yuksak o'simliklarning umumiy tasnifi va kelib chiqishi. havodan oziqlanish asoslari. Yuksak o'simliklarda qonuniy nasl gallanish sodir bo'lishi. Yuksak o'simliklarning asosiy bo'limlari. Moxsimonlar bo'limi. Bo'limning umumiy xususiyatlari. Moxsimonlar sinfi: jigarsimon va poya bargli moxlar, ularning xususiyatlari. Tanasining tuzilishi va ko'payishi. Rivojlanish davri va ularda nasl gallanish. Poya va bargli moxlarning kenja sinflari: torf moxlar, kakku zig'iri.

YUQORI SPORALI O'SIMLIKLAR

Tuban sporali o'simliklarning jinsiy organlari bir hujayrali, sodda tuzilgan. Tuban sporali o'simliklar organlarga bo'linmaydi. Yuqori sporali o'simliklarning ko'pchilik vakillari organlarga bo'linadi. Ba'zi bir vakillari organlarga bo'linmaydi. Jinsiy organlari ko'p hujayrali, murakkab tuzilgan. Yuqori sporali o'simliklarga 2 ta tip kiradi.

1. Moxsimonlar
2. Qirqquloqsimonlar

MOXSIMONLAR

Bu tipga yuqori sporali o'simliklarning eng sodd tuzilganlari kiradi. Shunday bo'lsa ham ular tuban sporali o'simliklarga nisbatan yaxshi taraqqiy etgan bo'ladi. Moxlar quruqlikda yashashga moslashgan bo'lsa ham ular asosan nam yerni yaxshi ko'radi. Moxlarni ariq bo'ylarida, botqoqliklarda, zax yerlarda uchratish mumkin. Moxlarning ba'zi bir vakillari organlarga bo'linmaydi. Mas: jigarsimon moxlar. Ko'pchilik vakillari organlarga bo'linadi. Bularda haqiqiy tuzilgan barg, poya mavjud. Lekin ildiz bo'lmaydi. Ildiz vazifasini rizoidlar bajarib turadi. Rizoid-epidermisdan o'sib chiqqan mayda tukka o'xshaydi. Moxlarda yuqori o'simliklarga nisbatan to'qimalari yaxshi taraqqiy etmagan. Moxlarning otaligi- anteridiya, onaligi- arxegoniya deyiladi.

Moxlarning jinsli nasli yaxshi taraqqiy etgan. Jinsli naslini gametofit deyiladi. Jinssiz nasli yomon taraqqiy etgan. Jinssiz naslini sporofit deyiladi. Moxlar 3 xil yo`lda ko`payadi.

1. Vegetativ
2. Jinsli
3. Jinssiz

Jinsli va jinssiz ko'payish gallanib turadi. Oldin jinsli, so'ngra jinssiz ko'payish bo'ladi. Jinsli ko'payish natijasida spora hosil bo'ladi. Jinssiz ko'payganda yangi o'simlik hosil bo'ladi. Moxlar 2 sinfga bo'linadi:

1. Jigarsimon moxlar

Bularning ba'zi vakillarining tashqi ko'rinishi jigarga o'xshash bo'ladi. Jigarsimon moxlar organlarga bo'linmagan.

2. Poya va bargli moxlar

Ularda haqiqiy poya va barg bo'ladi.

JIGARSIMON MOXLAR.

Jigarsimon moxlarga vakil qilib Marshansiyani olamiz. Marshansiyani birinchi marta fransuz vrachi Marshanse topgan va o'z nomiga qo'ygan. Marshansiya zax yerlarda, ariq bo'ylarida o'sadi. Uning tanasining tashqi ko'rinishi bargga o'xshash bo'ladi. Tanasining pastki tomonidan, ya'ni

epidermisdan o`sb chiqqan rizoidlar yordamida yerga yopishib o`sadi. Marshansiyaning ko`ndalang kesimida tashqi tomoni epidemis bilan qoplangan. Epidermisda ustitsalar joylashgan. Ustitsaning ichkari tomonida havo kamerasi bor. Assimilyatsion hamda zapas oziq moddalarni to`playdigan to`qimalar uchraydi.

Assimilyatsion to`qima hujayralarida xlorofill donachalari bor. Bu hujayralarda fotosintez protsessi bo`lib turadi. Marshansiya tanasining pastki epidermisidan rizoid o`sb chiqqan bo`ladi. Marshansiya 3 xil yo`lda ko`payadi:

1. Vegetativ
2. Jinsli
3. Jinssiz

Vegetativ ko`payish kurtaklar yordamida bo`ladi. Kurtaklar marshansiyaning ustki tomoniga joylashgan. Kurtaklar shamol yordamida uzilib ketib, bu uzilgan kurtaklardan marshansiya o`sb chiqadi. Ya`ni kurtaklar marshansiya tanasiga aylanadi. Marshansiya bir jinsli ikki uyli o`simlik hisoblanadi. Bitta marshansiya onalik ekzemplar hisoblanadi. Otalik va onalik marshansiyalar bir-birlaridan quyidagicha farq qildi: Otalik marshansiyaning tanasining ustidan o`sb chiqqan plastinka kamroq qirqilgan. Onalik ekzemplaridagi plastinka ko`proq qirqilgan. Otalik ekzemplaridagi plastinka dastasi tuksiz va kaltaroq. Onalik ekzemplaridagi plastinkaning dastasi tukli bo`ladi. Otalik va onalik ekzemplaridagi plastinkalar ichida jinsiy organlar taraqqiy etadi. Otalik ekzemplaridagi plastinka ichida bir nechta yumaloq shaklda anteridiya uchraydi. Onalik ekzemplaridagi plastinka ichida arxeginiyalar taraqqiy etadi.

Arxegoniya ikki qismdan ibborat :

1. Arxegoniyaning bo`yni
2. Arxegoniyaning qorni

Arxegoniyaning qornida tuxum hujayra taraqqiy etadi. Marshansiyaning jinsli ko`payishi yog`ingarchilik vaqtida suv yordamida sodir bo`ladi.

Anteridiyalar ishlab chiqargan spermatozoidlar (otalik ekzemplaridagi) suvda suzib yuradi. Spermatozoidlar onalik ekzemplaridagi arxegoniyaning uchiga kirib yopishadi. Natijada arxegoniyaning uchi yoriladi. Spermatozoidlarning kirishiga yo`l ochiladi. Spermatozoidlar arxegoniyaning bo`yni orqali kirib tuxum hujayrani otalantiradi. Otalanish bo`lib o`tgandan so`ng embrion hosil bo`ladi. Shu bilan jinsiy ko`payish tugaydi va jinssiz ko`payish boshlanadi.

Sporogon avval arxegoniyaning qornida joylashgan bo`ladi. Sporogon yorilgandan so`ng uning bandi, arxegoniyani yorib chiqadi. Sporalar yorilgandan so`ng sporogon ham yoriladi. Natijada juda ko`p sporalar va ellateralalar chiqadi.

Ellateralalar –bu jinssiz hujayra. Sporalar qulay sharoitga tushib qolsa, o`sa boshlaydi. Sporalar marshansiyaga aylanadi. Sporalar tashqi ko`rinishi jihatidan bir xil bo`lsa ham, fiziologik jihatdan har xildir. Bitta sporadan otalik marshansiya o`sb chiqsa, 2-sporada onalik marshansiya o`sb chiqadi. Marshansiya oldin jigar kasalligiga ishlatilgan. Hozir esa meditsinada ishlatiladi.

POYA VA BARGLI MOXLAR

Poya va bargli moxlarda haqiqiy poyasi va bargi bor.

Ildizi bo`lmaydi. Ildiz vazifasini rizoidlar bajarib turadi. Bu sinfga vakil qilib “Kakku zig`iri”ni olamiz. Kakku zig`iri MDHning o`rmon zonasida, ba`zan botqoqliklarda o`sadi. Bo`yining uzunligi 40 sm gacha boradi. Bargi ko`ndalang kesimida tashqi tomondan epidermis bilan qoplangan. Bargida mehanik va assimilyatsion to`qimalarni uchratish mumkin.

Barg poyali moxlar sinfi 3ta tartibni o`z ichiga oladi :

1. Yashil moxlar. (Bryales)
2. Sfagnum moxlar. (Sphagnales)
3. Andrea moxlari (Andreales)

Yashil moxlar tartibiga kakku zig`iri va Respublikamizda uchraydigan Funariya moxi kiradi. Kakku zig`iri ikki uyli, ko`p yillik o`simlik bo`lib poyasi tik o`suvchi qizg`ish rangda bo`ladi .

Funariya ham boshqa moxlar kabi oʻrmon zonalarida oʻsadi. Uning bargi poyasiga zich oʻrnashgan boʻlib boʻyi 3 sm ga teng. Poyasi och-yashil rangli boʻlib yashil gilamlar tashkil qiladi poyaning yer osti qismida rizoidlar koʻp boʻladi.

Kakku zigʻirida haqiqiy poya va barg bor, ildiz boʻlmaydi, ildiz vazifasini rizoidlar bajarib turadi. Kakku zigʻiri uch xil yoʻlda koʻpayadi.

1. Vegetativ

2. Jinsli

3. Jinssiz

Vegetativ koʻpayish rizoidlar yordamida boʻladi. Oldin jinsli, soʻngra jinssiz koʻpayish boʻladi. Kakku zigʻiri marshansiyaga oʻxshash bir jinsli, ikki uylik oʻsimlik hisoblanadi. Bitta ekzempliyada arxegoniyalar taraqqiy etadi. Bitta ekzempliyada anteridiya taraqqiy etadi. Onalik kakku zigʻirining boʻyi uzun, otalik kakku zigʻirining boʻyi bir oz kaltaroq boʻladi. Otalik ekzempliyada anteridiyalarni oʻrab turgan qizil bargchalar **parafizalar** boʻladi. Bu qizil bargchalarni **perianti** deyiladi. Anteridiya uzun xaltachaga oʻxshash boʻladi. Anteridiyalar ikki xivchinli, harakatchan spermatozoidlarni vujudga keltiradi. Arxegoniyaning shakli kolbaga oʻxshash boʻlib ular ham parafizalar bilan oʻralgan. Otalanish protsesi suvning yordamida boʻladi. Suvda suzib yurgan spermatozoidlar kelib arxegoniyaga yopishadi. Boʻyni orqali kirib, tuxum hujayrani otalantiradi. Natijada embrion paydo boʻladi. Embrion koʻp hujayrali sporogonga aylanadi. Sporogon band tashkil etadi. Shu holicha u qishlaydi. Kelgusi yili sporogon bandi choʻzilib ketib, poyadagi bargdan uzoqlashadi. Sporogonning yuqori tomonida qalpoqchasi boʻladi. Bu qalpoqcha sporogonni sovuqdan va issiqdan saqlaydi. Bu qalpoqchalar bahorda tushib ketadi. Qalpoqcha ostidagi qalpoqcha esa sporogonning ichki tomonini yopib turadi. Sporogon ichida sporangiya hujayralari taraqqiy etadi. Sporangiya hujayralarining reduksion boʻlinishi natijasida sporalar vujudga keladi. Sporalar yetilgandan soʻng sporangiya devoriy yoriladi. Sporogonning qopqoqchasi ochilib, sporalar tarqalib ketadi. Sporalar juda mayda, sariq rangli boʻladi. Sporalar qulay joyga tushib qolsa, kakku zigʻiriga aylanadi. Sporalar fiziologik jihatidan har xil. Bitta sporadan otalik kakku zigʻiri, ikkinchi sporadan onalik kakku zigʻiri vujudga keladi.¹

TORF HOSIL QILUVCHI MOXLAR

Sfagnum bir-biriga oʻxshash boʻlgan 300 dan ortiq turga ega. Asosan u MDH ning shimol va gʻarbida, mineral moddalari kam boʻlgan suvlarida, nam va botqoqliklarda oʻsadi. Tarkibida Ca tuzlari bor suvga chidayolmaydi. Shuning uchun ham ohakli tuproqda oʻsmaydi. Sfagnum namlikning 99% inioʻzigashimib. Natijada sfagnum oʻsgan yer botqoqlikka aylanadi. Sfagnumning yuqori tomoni asta sekin oʻsib boraveradi. Pastki tomoni esa asta sekin qurib boradi. Natijada qurigan tomoni yigʻilib torf botqoqligiga aylanadi. Torf bakteriyalarini oʻldirish xususiyatiga ega. Shuning uchun u tibbiyotda yara bogʻlovchi material yaʼni paxta sifatida ishlatiladi. Torf yoquv ashyosi, hamda oʻgʻit sifatida qoʻllaniladi.²

PLAUNLAR TARTIBI

Plaunlarning poyasi dixatomik ravishda shoxlanishi bilan boshqa sinflardan farq qiladi. Plaunsimonlarga uncha katta boʻlmagan koʻp yillik yashil oʻtlar, poyasining uzunligi 1-3 metrgacha yetadigan yer bagʻirlab oʻsadigan oʻsimliklar kiradi. Plaunsimonlarda sporafit nasl ustun boʻladi.

Jinssiz koʻpayish sporalar yordamida, jinsli koʻp ayish jinsiy organlar yordamida boʻladi. Plaunsimonlilarda oldin jinssiz, soʻngra jinsiy koʻpayish boʻladi. Moxlarda aksincha boʻladi. Oʻsimtalar bir uyli ikki jinsli yoki ikki uyli bir jinsli boʻlishi mumkin. Otalanish protsessi yogʻingarchilik vaqtida boʻladi. Otaslangan tuxum hujayradan jinssiz nasl- sporafit oʻsib chiqadi.

¹V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaro nashr: Edinburg, London Nyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.

²Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –50 p

Sporafit – bu ildiz , poya, bargli haqiqiy o`simlikdir. Jinssiz nasli – sporofitda sporangiya hujayralarining reduksiyon yo`lda bo`linishi natijasida sporalar hosil bo`ladi. Sporalar shamol yordamida tarqaladi. Agar sporalar bir xil bo`lsa undan ikki jinsli o`simta o`sib chiqadi. Sporalar har xil bo`lsa ikki uyli bir jinsli o`simta o`si chiqadi. Sporalar katta va kichik bo`lishi mumkin. Kichik sporalarni mikrospora, katta sporalarni makrospora deyiladi.

Mikrosporalar mikrosporangiyalarda makrosporalar esa makrosporalarda taraqqiy etadi. Mikrosporadan otalik o`simtasi o`sib chiqadi. Bu otalik o`simtada anteridiyalar taraqqiy etadi. Makrosporadan onalik o`simtasi o`sib chiqadi. Unda arxegoniyalar taraqqiy etadi.

O`rmon qirqqulog`ining ildiz poyasidan gijja haydaydigan ekstrakt tayyorlanadi. qirqbo`g`imning poyasi siydik haydovchidori sifatida ishlatiladi. Apteka plaunning sporasi detskaya pudra va pilyula tayyorlashda , bir-biriga yopishib qolmasliga uchun sporadan sepiladi. Og`ir sanoatda metallarni quyishda , qolipga sporasi solib qo`yiladi.

Plaunlar sinfi 2 tartibga bo`linadi

1. Bir xil sporali plaunlar

2. Har xil sporali plaunlar

Bir xil sporali plaunlarga vakil qilib apteka plaunini olamiz.

Apteka plauni o`rmonlarda, qarag`ayzorlarda uchraydi. O`rta Osiyoda uchramaydi. Poyasining uzunligi 70 sm bo`ladi. Apteka plauni doim yashil, ko`p yillik o`t o`simlik. Poyasi dixatomik ravishda o`sadi. Bargi mayda, bigiz shaklida bo`ladi. Tik o`suvchi poyasi qo`shaloq yoki yakka boshqochalari bilan tamom bo`ladi. Boshqoqcha sporacha barglardan tashkil topgan.

Rasm 1.



Sporachi barglarning ichida shakli byurak simon sporangiylar taraqqiy etadi ichida sporalar vujudga keladi. Bu sporalar spo`rangiya hujayralarning reduksion yo`lida bo`linishi natijasida hosil bo`ladi. Sporalar nihoyatda mayda va yengil, quruq bo`ladi. Spo`ralar yetilgandan so`ng sporangiylar yoriladi. Natijada sporalar shamol yordamida tarqalib ketadi. Qulay sharoyitga tushib qolgan spora una boshlaydi. Sporadan tuganakga o`xshash o`simta o`sib chiqadi. Bu o`simtada anteridiya va arxegoniya taraqqiy etadi. Anteridiya va arxegoniyalarning tarqiy etishi

uchun 10-12 yil vaqt ketadi. Apteka plaunining o`simtasi bir uyli 2 jinslidir. Otalanish protsesi bahorda, yog`ingarchilikda bo`ladi. Anteridiyada ishlab chiqqan spermatazoidlar arhegoniyaning tuxum hujayrasini otalantirgandan so`ng embrion hosil bo`ladi. Embriondan yangi o`simlik o`sib chiqadi. Bu o`simlik jinsiz nasil-sporofit. Apteka plauni detskaya prisipka sifatida, pilyula tayorlashda sporadan sepib qo`yiladi, yani pilyulalar pirga yopishib qolmaydi. Og`ir sanoatda eritilgan metallarni qoliplashda ishlatiladi.

Har xil sporali plaunlarga selaginellani misol qilib olamiz. Bu o`simlik xam ko`p yillik o`simlik, doyim yashil o`tli o`simlik, poyasi dihatomik ravishda shoxlangan. Tik va yotib o`suvchi poyalari bo`ladi. Vertikal poyasida boshiqchasi bor. Boshqochasida ikki xil : katta – makrosporangiyalar va kichik mikro sporangeyalar bo`ladi. Mikrosporangiyalardan mikro spora taraqqiy etiladi, undan otalik o`sib chiqadi. Makrosporangiyalardan makrospora taraqqiy etiladi, undan onalik o`simta o`sib chiqadi. O`simtasi ikki uyli bir jinsli. Otalanish yog`ingarchilikda bo`ladi.

Nazorat savollari

1. Tuban va yuqori sporali o'simliklar farqi?
2. Moxlar qanday ko'payadi?
3. Jigarsimon moxlarning tuzilishi va ko'payishi?
4. Poya va bargli moxlarning tuzilishi va ko'payishi?
5. Qirqquloqlarning moxlardan farqi?
6. Plaunsimonlar, tuzilishi, ko'payishi?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –50 p
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. Василева.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа ”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pечатnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA – 11

Qirqbo'g'implilar, qirqquloqsimonlilar.

Ma'ruzaning maqsadi:

Chin qirqquloqlar va suv qirqquloqlari haqida tushuncha, qirqbo'g'implilar tuzilishi, ko'payishi.

Reja:

1. Qirqbo'g'implilarga tasnif.
2. Dala qirqbo'g'imining tuzilishi,ko'payishi.
3. Dala qirqbo'g'imini tibbiyotdagi ahamiyati.
4. Qirqquloqsimonlar bo'limi.
5. O'rmon qirqqulog'ining tuzilishi,ko'payishi.
6. Suv qirqqulog'ining tuzilishi,ko'payishi.

QIRQBO'G'IMLILAR

Bu sinfga 1ta oila,25 turdan iborat.Qirqbo'g'implilar ko'p yillik o't o'simlik hisoblanadi.Bular yer sharining Avstraliyadan boshqa hamma qismida tarqalgan.Shulardan 11 turi MDHning har xil joylarida,3turi O'z.Rda uchraydi.Janubiy Amerikaning tropic qismida uchraydigan qirqbo'g'imning poyasining yo'g'onligi 2sm,uzunligi esa 12mga yetadi.Ubutalarga osilib o'sadi.

Dala qirqbo'g'imi ko'p yillik o't bo'lib, uning ildizpoyasi yerga chuqur o'rinishgan. Ildizpoyada kattaligi danakdek keladigan tugunagi bor. Bu tugunakda zapas oziq moddalar to'planadi. Ildiz poyadan yer betiga poyalar o'sib chiqadi. Bu poyalarning uzunligi 1m gacha bo'lishi mumkin. Qirqbo'g'imning poyasi 2 xil bo'ladi.

1. Vegetativ yoki assimillatsion poya-yozgi.

2. Spora beruvchi poya-bahorgi.

Vegetativ poya yashil rangda bo'lib, kech bahorda o'sib chiqadi, kuzda qurib qoladi. Bu poyani "yozgi poya" deb ham yuritiladi. Spora beruvchi poya jigarang-pushti bo'lib, erta bahorda o'sib chiqadi. Sporalari yetilib to'kilgandan so'ng qurub qoladi. Poyasida bir qancha bo'g'in oraliqlari bo'lgani uchun bu o'simlikni halq orasida qiriq bo'g'im deyiladi. Poyasidagi epidermis hujayralari kremniziom (qumga o'hshash) bilan sug'orilgan. Bargi juda mayda, reduksiyalangan, uchburchakli bo'lib, poyaga tagi bilan doira shaklida o'rinishgan. Poyasining ko'ndalang kesimida tashqi tomonidan epidermis bilan qoplangan. Epidermis ostida ustitsalar joylashgan. So'ngra mehanik to'qima po'stloq hujayralari, peresikil bilan o'raglan o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari uchridi. O'tkazuvchi to'qima bo'g'lamlari yopiq, ya'ni floema bilan ksilema o'rtasida kambiy bo'lmaydiy bo'lmaydi. Dala qiriq bo'g'imni vegetative, jinssiz va jinsiy yo'l bilan ko'payadi. Vegetativ ko'payishi ildiz poya yoki tunganaklari yordamida bo'ladi. Jinsiz ko'payish sporalar yordamida, jinsli ko'payish o'simtada, ya'ni gametofitda taraqqiy etgan jinsiy o'rganlar yordamida bo'ladi. Sporalar bahorgi poyaning uchiga joylashgan boshqochalarda vujudga keladi. Spora beruvchi boshqochalar sporachi barglardan tashkil topgan. Sporachi barglarning ostki tomonidan 6-8 tagacha sparangiyalar doira shaklida joylashgan. Sparangiyalarning shakli ko'zachaga o'hshash bo'ladi. Sparangiyalar ichida ko'p miqdorda sporalar taraqqiy etadi. Sporasi sharsimon qoramtir – yashil hujayralardan iborat bo'lib, ikki qavat po'st bilan o'raglan. Tashqi po'sti "ekzina" ichki po'sti "intina" deb ataladi. Sporaning 4 ta spiral simon elaterasi bo'ladi. Elateralar havo nam bo'lgan vaqtda to'g'rilanib, yozilib ketadi. Bu elateralar sporalarning bir biriga ilashib tarqalishiga yordam beradi. Sporalar morfologik jihatdan bir hil bo'lsa ham, fiziologik jihatdan har hil bo'ladi. Bir hil sporadan otalik o'simta o'sib chiqsa, ikkinchi sporadan onalik o'simta o'sib chiqadi. O'simtalarning otalik yoki onalik bo'lishiga tashqi muhit ham bog'liq. O'simta ikki uylik, bir jinsli, agar spora organik moddasi ko'p bo'lgan unumdor yerga tushib qolsa, undan onalik o'simtasi, qumli yerga tushib qolsa, otalik o'simtaga aylanadi. Jinsi ko'payish suv yordamida sodir bo'ladi.¹

Anteridiya ishlab chiqqan spermatozoidlar suvda suzib borib, arhegoniyani bo'yni orqali kirib tuhum hujayrani otalantiradi. Natijada embrion hosil bo'ladi. Embriondan yangi o'simlik-jinsiz nasil- sporofit o'sib chiqadi. Qiriq bo'g'imning yozgi poyasi tibbiyotda siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Qiriq bo'g'imning epidermis hujayrasi kremnezem bilan sug'orilgani uchun misgarlikda ishlatiladi. Bahorgi poya ba'zan ovqat uchun istemol qilinadi.

QIRQQULOQSIMONLAR TIPI

Qirqquloqsimonlartoshko'mir davrida yer yuzida ko'p tarqalgan o'simlikhisoblanadi. U davrda daraxtsimon paporotniklarning juda katta o'rmonlari bo'lgan. Bu daraxtlarning balandligi 20-30m bo'lgan. Yerdan qazib olingan bu o'simliklarning toshga aylangan qoldiqlari va ularning tosh ko'mir davrining o'simligi ekanligini bildiradi. Hozirgi vaqtda ham Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya mamlakatlarida o'sadigantuzilgan turlari uchraydi. Bularning tashqi ko'rinishi palmaga o'xshaydi. Qirqquloqsimonlilar moxlardan shu bilan farqlanadiki, ularning sporofit nasli yaxshi taraqqiy etgan. Moxsimonlarda ildiz bo'lmaydi, qirqquloqsimonlilar haqiqiy ildiz bo'ladi. Qirqquloqsimonlilar quruqda o'ssa ham, ular soya salqinni yaxshi ko'radi. Qirqquloqsimonlilar orasida suvda o'sadigani ham uchraydi. Masalan: suv qirqqulog'i. qirqquloqsimonlilar o'tkazuvchi to'qimalari yaxshi taraqqiy etgan. Ularda floema va ksilema elementlarini ko'rish mumkin. O'tkazuvchi to'qima elementlari konsentrik, yani ksilema markazida joylashgan.

Qirqquloqsimonlilar 3 sinifga bo'linadi:

1. Qirqquloqlar

2. Qirqbo'g'inlar

¹Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –50 p

3. Plaunlar

Qirqquloqsimonlarning turlari 8000 dan oshadi. Qirqquloqlar yer sharining cho'l zonasidan tashqari hamma yerida tarqalgan. Havosi nam bo'lgan joylarda, o'rmonlarda, ba'zilar tog'li joylarda o'sadi. Ba'zi qirqquloqlar madaniy o'simliklar orasida begona o't sifatida uchraydi. Mas : Gruziyada choy plantatsiyasida orlyak deb atalgan qirqquloq uchraydi. Uning bargi shu darjada katta bo'ladiki, odam ko'rpasi o'rnida yopib yotsa bo'ladi.

Qirqquloqlarning urug'langan tuxum hujayrasidan vujudga kelganva rivojlangan sporafit moxlarnikiga nisbatan ancha yirik, tashqi va ichki tuzilishi ham murakkab bo'lib, unda barg, poya va ildiz bo'ladi. Ba'zi qirqquloqlarning sporafiti ancha yirik bo'lib, tashqi ko'rinishidan gulli o'simliklarga o'xshaydi.

Qirqbo'g'imlilar

Qirqbo'g'inlar poyasida bo'g'im va bo'gim oraliqlari bo'lishi bilan xarakterlidir. Bo'g'imida mayda reduksiyalangan barglar bo'ladi. Qirqbo'g'inlar ariq bo'ylarida, nam yerlarda, madaniy o'simliklar orasida begona o't sifatida uchraydi. O'rta Osiyoda o'sadigan vakillaridan biri dala qirq bo'g'imi (*Equisetum arvense*) dir. Dala qirqbo'g'imining ildiz poyasida tugunaklar bo'lib, yoz davomida zapas oziq moddalar (krahmal) saqlashga moslashgan.

Dala qirqbo'g'imi yoz faslida 2 xil novda chiqaradi. Erta bahorda qoramtir-to'q jigarrangli novda o'sib, bo'yi 8-12 sm ga yetadi. Bu tik o'suvchi bahorgi novda oziq moddalar bilan to'yingan bo'lib, ularning poyasi bo'g'im va bo'gim oraliqlarga bo'linganligi bilan xarakterlidir. Har qaysi bo'g'imda tangacha simon, nishtarga o'xshash reduksiyalangan barglar joylashadi. Yozgi novdalar yashil rangda bo'lib, asossan, assimlyatsiya qilishga moslashgan. Qirqbo'g'im o'simligida ham gallanib ko'payish kuzatiladi. Sparangiylar sporali boshqochalarida 6-8 tadan joylashadi. Sporangilar ichida ko'p miqdorda elaterali sporala pishib yetilgandan so'ng, tashqariga chiqib sochiladi. Spora to'q yashil rangli shar simon hujayradan iborat bolib, qalin po'st bilan o'raladi, uni spiral shaklda o'ralga 2 ta tasma-elaterlar o'rab turadi. Bir xil sporalar o'sib urg'ochi gametofit, 2 xillari esa erkak gametofit hosil qiladi. Urg'ochi o'simta ancha yirik bo'lib, unda arxegoniya yetiladi. Erkak o'simta mayda bo'lib, unda anteridiy hosil bo'ladi. O'talanish suv yordamida bo'ladi. O'talangan tuxum hujayralardan zigota, undan esa yangi qirqbo'g'im xosil bo'ladi.

CHIN QIRQQULOQLAR TARTIBI

Bu tartibga o'rmon qirqqulog'i kiradi.

O'rmon qirqqulog'i (*Dryopteris filixmas*) salqin o'rmonlarda, butalar orasida, nam yerda, O'rta Osiyoning tog'li rayonlarida uchraydi. O'rmon qirqqulog'i ko'p yillik o't o'simlik. Ildizpoyasi yo'g'on qoramtir bo'lib, tangacha barg bilan qoplangan. Ildizpoyaning uchida bo'yi 1m gacha yetadigan ko'p patsimon yashil rangli barg o'sib chiqadi. Yoshlik vaqtida bargning uchi gajaksimon qayrilgan bo'ladi. Barglar kuzda qurib, tushib ketadi. Bargning ostki qismi qoladi. Bu qolgan burglar hisobiga ildizpoya tobora yo'g'onlashib boradi. Yoz paytlarining oxirida bargning orqa tomonida mayda g'uddalar-soruslar paydo bo'la boshlaydi. Bularning shakli yumaloq bo'ladi. Soruslar barg o'rtasida tomirlar bo'ylab, ikki qator bo'lib joylashadi.

Soruslar-sporangiyaning yig'indisidir. Chunki sorusning ichida bir qancha tuxumsimon sporangiylar joylashgan bo'ladi. Sporangiyalarning o'sib chiqqan joyini planset deyiladi. Sporangiyalari ko'p hujayrali bo'lib, ularning tashqi tomonidagi bir qator hujayrasini tapetum deyiladi. Ichki tomonidagi hujayralarini arxepora deyiladi. Bu hujayralar reduksion tipda bo'linishi natijasida har bir hujayradan 4 tadan spora-tetraspora hosil bo'ladi. Sporalarning rangi qo'ng'ir bo'ladi. Sporalarning hujayra po'sti 2 qavat bo'lib yetilgandan so'ng tashqi qavati yorilib ketadi. Bir tup o'simlikda millionlab spora hosil bo'lishi mumkin. Nam yerga tushgan spora una boshlaydi. Natijada diametri 0,5-1 sm bo'lgan yashil rangli yuraksimon o'simta o'sib chiqadi. Bu o'simta rizoidlar yordamida yerga yopishgan bo'ladi. O'simtada xlorofill donachalari bo'lganligi sababli fotosintez protsessi ham bo'lib o'tadi. O'simta bir uyli ikki jinsli. Shu o'simtada anteridiya

ham, arxegoniya hamtaraqqiy etadi. O'simta o'rmon qirqqulog'ining jinsli nasli gametofit hisoblanadi. Spora hosil qilgan o'simlikning o'zi jinssiz nasl-sporafit hisoblanadi.

O'simta qisqa umrli efemerdir. U faqay 1-2 hafta yashay oladi. Jinsiy ko'payish yog'ingarchilik vaqtida bo'ladi. Anteridiya ishlab chiqqan spermatozoidlar suvda suzib yuradi. Bu spermatozoidlarni o'ziga jalb qilishi uchun arxegoniya "olma kislotasini" ishlab chiqadi. Spermatozoidlar arxegoniyaning bo'yniga kelib yopishadi. ..., natijada arxegoniyaning tuxum hujayrasini otalantirgandan so'ng embrion hosil bo'ladi. Embriondan yangi o'simlik o'sib chiqadi.



Rasm 2.

SUV QIRQQULOQLARI TARTIBI

Har xil sporal qirqquloqlarga suv qirqqulog'ini misol qilib olamiz. Suv betida suzib yuruvchi 1 yillik o't o'simlik. Poyasi gorizontall ravishda shoxlangan. Bargi 2xil bo'ladi.

a) Suvning betidagi bargi

b) Suvning ostidagi bargi

Suvning betidagi bargi yashil. Unda xlorofill donachalari bo'ladi. Bu bargda fotosintez protsesi bo'lib turadi. Suvning ostidagi bargi qo'ng'ir rangli bo'lib ildiz vazifasini bajaradi. Qo'ng'ir rangli barglarda soruslar joylashgan. Soruslar ichida sporangiyalar taraqqiy etadi. Sporangiyalar 2 xil bo'ladi: mikrosporangiyalar va makrosporangiyalar. Mikrosporangiyalarda mikrosporalar, makrosporangiyalarda makrosporalar yetiladi. Soruslar kuzda uzilib, suv tagiga cho'kib ketadi. Suv tagida qishlaydi. Bahorda makro-va mikrosporangiyalar sorusdan ajralmagan holda suvni yuziga ko'tariladi. Mikrosporalar sporangiyadan ajralmagan holda otalik o'simtasini hosil qiladi. Bu o'simtada 2ta anteridiya bo'lib, anteridiyalar spermatozoidlarni ishlab chiqaradi. Makrosporalar sporangiyadan ajralmagan holda onalik o'simtasini vujudga keltiradi. Onalik o'simtasida bir nechta arxegoniya yetiladi. Spermatozoidlar suvda suzib kelib arxegoniyaning bo'yni orqali kirib, tuxum hujayrani otalantiradi. Bunda embrion hosil bo'ladi. Embriondan yangi o'simlik o'sib chiqadi.

Nazorat savollari

1. O'rmon qirqqulog'ining morfologiyasi, ko'pyishi?
2. Suv qirqqulog'ining morfologiyasi va ko'pyishi?
3. Qirqbo'g'implarning morfologiyasi va ko'pyishi?
4. Yuksak o'simliklarning ahamiyati?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: "Высшая школа", 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.

3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –66 p
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. Василева.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа ”, 1988. –435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA – 12

Yuksak o'simliklar evolyutsiyasi. Ochiq urug'lilar.

Ma'ruzaning maqsadi:

Yuksak o'simliklar evolyutsiyasi, o'simliklarning kelib chiqishi. Ochiq urug'lilarga tasnif, klassifikatsiyasi, tuzilishi, ko'payishi haqida tushuncha berish.

Reja:

1. O'simliklarning kelib chiqishi.
2. Ochiq urug'lilarga tasnif, klassifikatsiyasi.
3. Ochiq urug'lilarning tuzilishi, ko'payishi.
4. Igna barglilar sinfiga harakteristika.
5. Igna barglilarning ko'payishi.

Tayanch iboralar: *Ochiq urug'li o'simliklar. Urug'li o'simliklar. Ochiq urug'lilarni asosiy vakillari. Urug'li o'simliklarni xususiyati. Evolyutsion jarayonda urug'ni kelib chiqishi. Ochiq urug'li o'simliklarni kelib chiqishi. Kubbalarning tuzilishi. Urug'kurtak va chang tuzilishi. Changlanish va otalanish. Ochiq urug'li o'simliklarning sinflari: sagovniklar, bennetitlar, ginkolar, gnetumlar va ignabarglilar. Ninabarglilar sinfiga tasnif. Ninabarglilar oilasi: qarag'aydoshlar, sarvidoshlar, toksodiyadoshlar, araukariyadoshlar, zarnabdosshlar.*

OCHIQ URUG`LILAR TIPI

Ochiq urug`li o`simliklar bir tomonidan yuqori sporali o`simliklarga o`xshaydi. Ochiq urug`li o`simliklar urug` beradigan qirq-quloqlardan, yopiq uru`gli o`simliklar ochiq urug`li o`simliklardan kelib chiqan.

Ochiq urug`li o`simliklarga butalar, daraxtlar kiradi

Yopiq urug`li o`simliklar orasida daraxtlar, butalar, yarim butalar va o`tli o`simliklar uchraydi. Ochiq urug`li o`simliklar asosan monopodial tipda shohlanadi . yopiq urug`li o`simliklar esa monopodial, simpodial va dixatomik ravishda shohlanadi.

Ochiq urug`li o`simliklarda suv naylari bo`lmaydi. Suv naylari traxeidlar bajarib turadi. Yopiq urug`li o`simliklarni to`qimasida suv naylari xamda traxeidlar bo`ladi. Ochiq urug`li o`simliklarning urug` kurtagi ochiq yerda taraqqiy etadi.

Yopiq urug`li o`simliklarni urug`I mevaning ichida taraqqiy etadi.

Ochiq urug`lilarda esa urug` g`uddalarda taraqqiy etadi. Bular da meva bo`lmaydi. Ochiq urug`li o`simliklardagini aksi, yopiq urug`li o`simliklarni mevasi bo`ladi. Ochiq urug`li o`simliklarining endosperma to`qimasi otalanish prosesidan oldin hosil bo`ladi.

Yopiq urug`li o`simliklarda esa endosperma to`qimasi otalanishdan keyin hosil bo`ladi.

Ochiq urug`li o`simliklarda qo`shaloq otalanish bo`lmaydi, yopiq urug`li o`simliklarda esa qo`shaloq otalanish bo`ladi. Ochiq urug`li o`simliklarning ko`pchiligi doimo yashil o`simlik hisoblanadi. Ochiq urug`li o`simliklar 7 sinfga bo`linadi:

- 1.Urug`li paprotniklar
- 2.Sagovniklar
- 3.Bennetitlar
- 4.Kordaitlar
5. Ginkgolar
- 6.Igna barglilar
- 7.Ignacha barglilar

URUG`LI QIRQQULOQLAR

Ular o`zining tashqi ko`rinishi bilan hozirgi daraxtsimon qirqquloqlarga o`hshaydi, lekin har xil sporali bo`lib, urug` yordamida ko`payishi bilan ulardan farq qiladi.

Uning poyasida qo`sh patsimon yirik-yirik murakkab burglar bo`ladi, ularning asosiy bandlari ko`pincha bixotomik shoxlanadi.

Poya o`zak qismining juda rivojlangan bo`lishi va kambiy halqasi yordamida ikkilamchi tartibda qalinlasha olgani bilan ajralib turadi. Ikkilamchi yog`och, hozirgi ochiq urug`lilardagiga o`hshash, traxeidlardan tuzilgan, po`stlog`i ancha qalin bo`lgan.Liginoptenis mikro, makrosporalar hosil qilgan.

SAGOVNIKLAR

Sagovniklar hozir yashab turgan o`simliklar bo`lib, eski (Cycas, Masrozamia, Bowenia, Encephalarhos, Stangeria kabi avlodlar) va yangi dunyoning (Zamia, Microcycas, Ceratoramia, Pion avlodlari) tropik va subtropik mintaqalarida taqalgan 9 ta avlodni o`z ichiga oladi.

Sagovniklar-ustunsimon oddiy poyali daraxtlardan, poyasi ahyon-ahyonda shohlangan bo`ladi. Poyasining uchida juda yirik, patsimon qalin- qattiq burglar tojdek bo`lib turadi. Mikrosparangilari tangacha simon mikrasporofillarning chetida turadi yoki tangacha simon makro sporofillardan joy olgan, mikrosporofinllari to`p-to`p bo`lib, otalik kubalarini hosil qiladim Makrosporongiyalar (urug`kurtaklar) makrosporofinlarning chetida turadi yoki tangachasimon mikrosporofillardan hosil bo`lgan onalik kubalaridan joy oladi. Bu tartibga Cucas (yoki sagovnik) misol bo`la oladi.

Barcha ochiq urug`lilar singari,Cucas har xil sporali o`simlik bo`lib, makro va mikrosporalar bilan ko`payadi.

Ko`pchilik sagovniklar Cucasga o`hshash, aksari shohlanmaydigan to`g`ri poyali o`simliklar bo`lib, poyasining uchida uzunligi 2,5-3 m ga boradigan yirik burglar chiqaradi. Sagovniklarning poyalari odatda metrlar bilan o`lchanadi. Eng katta barglar bilan qoplanishi gulning atrofidagi gulqo`rg`onini eslatadi. Ularning changlanishi shamol va hashorotlar yordamida sodir bo`ladi. Bennettetlarning urug`ida murtak to`la rivojlangan, oziq moddalar ikki pallada to`plangan.

Kordaitlar

Kordoitlar asosan paleozoy erasida o`sib, hozir qurib bitgan o`simliklar tartibidir. Tartibning eng myahshi o`rganilgan vakili Cordates avlodidir.

Tanasida yog`och zonasi bilan yahshi rivojlangan, o`sha yog`och qismi tuzulishi jihatidan ninabarglilarning yog`och qismiga o`hshab ketadi.

Ginkgolar

Ginkgoales tartibi hozir Ginkgoaceae degan atigi bitta oyilani o`z ichiga oladi, bu oilaninig birdan bir vakili Ginkgo (Ginkgo biloba) dir.

Ginkgo biloba daraxt o`simlik bo`lib, balandligi 30-40 metirga, yo`g`onligi 3-4 metr ga yetadi .Mas: Avstraliyada o`suvchi Macroramia Hopei ning poyasi shuncha keladi.

Bennetitlar

Bennetitlar tashqi ko`rinishidan sagovniklarga o`hshab yura davrida rivojlangan, yer yuzini qoplab so`ng yuqori bo`r davrida butunlay yo`qolib ketgan o`simliklardir. Bennetitlarning ichki tuzilishi urug`li qirqquloqlilar bilan sagovniklarning ichki tuzilishiga juda yaqin. Ularning poyalarida kambiyalarini, lub va ancha qalin po`stloq, birlamchi, ikkilamchi yog`ochlik xalqalarni xosil qiladi.

Bennetitlarni g`uddasi o`zidan oldingi sinf o`simliklarning g`uddasidan ikki jinslili gi bilan farq qiladi. G`uddaning tashqi tomonidagi ko`plab mikrosporangiylarda mikrosporalar yetilsa, g`uddaning markazidagi juda qisqargan makrosporofitda bitta urug` kurtak rivojlanadi. Sporofitlar tashqi tomondan po`stlog`i to`q kulrang va silliq bo`lib, keginchalik xar tomonga yoyilib ketadigan piramida shox- shabasini hosil qiladi.

Ginkgo barglari juda g`alati: ular odatda ikki bo`lakga bo`lingan uch burchak plastinkadan iborat bo`lib, uzun bandga aylanadi, ba`zan plastinkasi yaxlit bo`ladi.

Ginkgo-2 uyli o`simlikdir: uning mikro-va makrosporangiylari har xil individda hosil bo`ladi.



Rasm 3.

IGNA BARGLILAR

Bu sinifga 6 ta oyila, 40 avlod, 450 tur kiradi. Ular hozirgi zamon iqlimiga ham moslashgan. Igna barglilar sinfiga daraxtlar, qisman butalar kiradi. Bu sinfga kiruvchi o`simliklardan yer yuzida ko`p tarqalganlilari: Sosna-Qarag`ay, Archa, pixta kiparis, majavelnik va boshqalar. Ignabarglilarning bargi qattiq, ensiz, igna simon, ba`zan tangacha simon bo`lib, Yosh shoxchalarda spiral yoki qarama qarshi joylashgan. Igna barglilarning barglarining ko`pchiligi igna simon bo`lgani uchun ularga shunday nom berilgan. Igna barglilar asosan monopodial, qisman simpodial tipda shoxlanadi. Masalan: Mamont daraxti simpodial shoxlangan bo`ladi. Bu daraxt yer yuzida uchraydigan daraxtlarning eng kattasidir. Uning bo`yi 150 m, eni 40 m bo`lib, u uzoq yil yashaydi.

Igna bargli o`simliklarning ildizida ildiz qini bo`lmaydi. Ildiz qini o`rnida ektotrof mikorizlar bo`ladi. Igna barglilar jinssiz va jinsli yo`lda ko`payadi. Igna barglilarga vakil qilib oddiy qarag`ayni olamiz.

Oddiy qarag`ay 1 uyli, doim yashil 2 jinsli o`simlik bo`lib, yer yuzida juda ko`p tarqalgan. Qarag`ay daraxtining bo`yi 40-50 m bo`lib, u 500 y- gacha yashaydi. Qarag`aydaraxtining poyasida va bargida smola yo`llari bo`lib, unda smola ishlanib chiqadi. Shuning uchun ham poyasini

binokorlikda ko'p ishlatiladi. Qarag'ay poyasi uzoq muddatgacha chirimaydi. Qarag'ayning otalik va onalik gullari g'uddalarda joylashgan bo'ladi. Bu g'uddalarda turini o'zgartirgan barglardan tashkil topgan. Otalik guli-mikrosporalistik, onalik guli esa makrosporalistik deb ataladi. Otalik gulining pastki tomonida changdon /mikrosporangiyalar/ taraqqiy etadi. Mikrosporangiya hujayralarining reduksion bo'linishinatisida mikrosporalar, ya'ni changlar hosil bo'ladi. Chang 2 qavat po'st bilan qoplangan.

1. Ekzina –tashqi qavati

2. Intina – ichki qavati.

Qarag'ayni o'zi sporofit, chang, urug' kurtak arhegoniya-gametofit, chang bilan tuxum xujayra qo'shilib ya'ni gametofit bilan gametofit qo'shilib diploid jinsiz ganloid nasil xosil bo'ladi.

Ekzina bilan intina orasida bo'shliq bo'lib, u yer havo bilan to'lgan, shuning uchun xam qarag'ay chang havoda uzoq muddat tura oladi. Changda 2 xil yadro bo'ladi:

1. Anteridial yadro

2. Vegetativ yadro.

Onalik g'uddasi 2 hil turni o'zgartirgan barglardan tashkil topgan, 1- xili g'uddaning tashqi tomonida bo'lib, qoplag'ichlik vazifasini bajaradi. Buni "korushaya cheshuya" deyiladi. Bu-barg urug'I hosil qilmaydi. 2 xil bargi urug' beruvchi bargsemennaya cheshuya deyiladi. Urug' beruvchi bargni pastki tomonida 2 ta urug' kurtagi, ya'ni makrosporangiya joylashgan. Urug' kurtagi quyidagi qisimlardan tashkil topgan.

1. Urug' kurtagining bandi-funikulus.

2. Urug' kurtagining qoplog'ch to'qimasi- integument

3. Urug' kurtagining asosiy to'qimasi-nusellus

4. Chang yo'li-mikropille.

Urug' kurtagining markazida bola qopchig'i, endosperma hamda 2 ta arhegoniya- korpuskula joylashgan. Qarag'ay shamol yordamida changlanuvchi o'simlikga kiradi. Qarag'ay changchi shamol yordamida onalik g'uddasiga kelib tushadi. Onalik g'uddasidagi urug' kurtagining asosiy to'qimasi- nutsellusga chang kirib, 1 yil dam oladi. 2 yili una boshlaydi.

Changning anteridial yadro'si 2 ga bo'linadi. Natijada 2 xil yadro xosil bo'ladi:

1. Bazal yadro

2. Generativ yadro.

Changning vegetativ yadro'si esa, chang trubkasiga aylanib ketadi. Anteridial yadro'dan xosil bo'lgan bazal yadro chang trubkasining o'sishiga yordam beradi. Generativ yadro bolinib, 2 ta spermiya hosil qiladi. Spermiyalarning 1 si chang trubkasi orqali siljib kirib, arhegoniyalarning 1 tasini otalantiradi. 2 chi arhegoniya otalanmasdan qoladi. Otalangan arhegoniyadan embrion vujudga keladi. Onalik g'uddasi otalanish prosesidan oldin qizg'ish rangda bo'lib, otalanganidan so'ng yashil rangli bo'lib qoladi. Urug' yetilishi davrida qo'ng'ir rangga aylanadi. Qarag'ayni otalanish prosesini rus olimi Gorojanin tekshirgan.

Qarag'ay poyasidan skipidar, bargidan smola olinadi. Skipidar bod kasaligida surtiladi.

IGNACHA BARGLILAR SINFI

Bu sinfga kiruvchi o'simliklar 1 uyli 2 jinsli yoki 2 uyli 1jinsli bo'ladi. Bularda smola yo'lari mutlaqo bo'lmaydi. Ignacha barglilar sinfi quyidagi tartibga bo'linadi:

1. Efedralar

Efedra buta bo'lib, u tog'li rayonlarda va cho'larda uchraydi. Efedraning tashqi ko'rinishi qiriq bo'g'imga o'hshab ketadi. Efedra 2 uyli 1 jinsli o'simlik. Efedradan efedrin degan alkaloid olinadi. Efedrin alkaloidi tibbiyotda katta ahamyatga ega. U bod va boshqa kasalliklarga ishlatiladi.

2. Velvichiyalar.

Velvichiyalar tartibidan faqat 1 tur saqlanib qolgan. Bu tur, ya`ni velvichiya janubiy Afrikada o`sadi.

Nazorat savollari

1. Ochiq urug`lilar tasnifi ?
2. Urug`li qirqquloqlar tuzilishi va ko`payishi?
3. Sagovniklar tuzilishi va ko`payishi?
4. Ginkolar tuzilishi va tibbiyotdagi ahamiyati?
5. Oddiy qarag`ay o`simligining morfologiyasi va ko`payishi?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o`quv qo`llanmalar ro`yxati

12. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
13. Mustafaev S.M., Ahmedov O`A. Botanika. – T.: O`zbekiston, 2005.- 435 b.
14. Mustafaev S.M., Ahmedov O`A., Samatova SH. O`simliklar sistematikasidan amaliy mashg`ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
15. Ahmedov O`A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
16. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –66 p
17. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
18. Hamidov A., Nabiev M.M. “O`zbekiston o`simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
19. Василева А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. –435 с.
20. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O`A. va boshqalar. Dorivor o`simliklarning lotincha-o`zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug`ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
21. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
22. Xolmatov X.X., Ahmedov O`A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA`RUZA – 13

Yopiq urug`li o`simliklar. Reproduktiv organlarning paydo bo`lishi. Gul tuzilishi.

Ma`ruzaning maqsadi:

Yopiq urug`lilarni kelib chiqishi, xarakterli belgilari. Gul tuzilishi.

Reja:

1. Yopiq urug`li o`simliklarning kelib chiqishi.
2. Yopiq urug`li o`simliklarning xarakterli belgilari.
3. Yopiq urug`li o`simliklarning sinflari.
4. Gulli o`simliklarning kelib chiqishi haqidagi Vetshteyn va G.Galer nazariyalari.
5. Gulli o`simliklarning klassifikatsiyasi.

6. Gulning tuzilishi.
7. Gul qismlari.
8. Gulning urug'lanish va changlanishi.
9. Gul formulalari va diagrammasi.

Tayanch iboralar: *Yopiq urug'li o'simliklar o'simliklar evolyutsiyasida eng yuksak taraqqiy etganidir. Reproktiv organlarning paydo bo'lishi. Gul va to'pgullar. Yopiq urug'li o'simliklarning kelib chiqishi. Vegetativ va generativ organlardagi asosiy o'zgarishlar.*

Gul, gul o'rni, hashorotlar yordamida changlanishga moslanish, (qo'sh otalanish va meva) va vegetativ organlardagi (o'tkazuvchi to'qima mukammalashuvi) o'zgarishlar. O'simliklar hayotiy formalarini xilma – xilligi. hozirgi yopiq urug'li o'simliklarni shakllanishdagi o'rni. Yopiq urug'li o'simliklarni kelib chiqishidagi tasavvur. Yopiq urug'lilarni evolyutsion sistemalari: A.Engler, Ch.Bessi, X.Gallid, A.L.Taxtadjan va boshqalar. Evolyutsion sistemaning tuzilishini asosiy kriteriyalari. Evolyutsion morfologik belgilar.

Gulli o'simliklar yoki yopiq urug'li o'simliklar, o'simliklar dunyosining eng yosh va keng tarqalgan guruhi bo'lib hozirgi geologik davrining hukmron o'simligi hisoblanadi. Ularning tuzilishi nihoyatda xilma-xilligi, turlarning ko'pligi, kishilar va hayvonlar hayotida tutgan o'rni bilan o'simliklarning boshqa guruhlaridan keskin farq qiladi. Tarixiy manbalarga qaraganda yopiq urug'li o'simliklarning dastlabki vakillari mezazoy erasining yura davrlarida paydo bo'la boshlagan. Keyinroq davrlar o'tishi bilan ular yer yuziga keng tarqala boshlagan. Yopiq urug'lilar o'zidan oldin paydo bo'lgan o'simliklarning morfologik tuzulishidan tubdan o'zgarishi, tabiatga moslashishi va reproduktiv qismlar – gullarini mukammal hosil bo'lishi bilan ustun turadi.¹

Yopiq urug'li o'simliklarning keng tarqalishiga asosiy sabab, bu vaqtga kelib havoda quyuuq bulutlar kamayib havo namligi kamaygan, quyosh nuri erga ko'proq tushgan. Yalang'och urug'larning qurg'oqchilikka moslashgan igna barglardan boshqa vakillari nobud bo'lgan. Ular o'rniga tuzilishi va biologik xususiyatlari bilan yangi muhitda, ya'ni qurg'oq havoda yashashga moslashgan yangi yosh tip - yopiq urug'lilar keng tarqala boshlaydi, juda qisqa vaqt ichida ular biosferani egallab shu davrning hukmron o'simliklar guruhiga aylandi. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan urug' ochiq urug'lilarda ikkinchi yili hosil bo'lsa, yopiq urug'lilarda hatto ikki uch haftada hosil bo'lishi mumkin.

Reproduktiv yoki generative organlarni murakkablanishi bilan birga yopiq urug'lilarda morfologik va anatomik o'zgarishlar ham sodir boadi.

Yopiq urug'lilar guruhiga 200.000 dan ortiqroq tur kiradi. Bu ochiq urug'lilardan 400 marta ko'proq ekanligini ko'rsatadi. Yalang'och urug'lilarning taxminan 500 turi ma'lum.

Yopiq urug'li o'simliklarning vakillari odam uchun oziq-ovqat, hayvonlarga yem-xashak, sanoat uchun xom-ashyo manbai hisoblanadi. Yer shari aholisining asosiy ovqati bug'doy, sholi, jo'xori, kartoshka; mevalardan olma, o'rik, uzum, qovun-tarvuz; texnik o'simliklardan g'o'za, zig'ir, lavlagi, shakar qamish va xilma-xil dorivor o'simliklar yopiq urug'li o'simliklarning vakillaridir.

Yopiq urug'li o'simliklarning ko'payib, yer yuziga tarqalishiga asosiy sabab, ularning yashovchanligi, qurg'oqchilikka tez moslasha olishidir.

Hozirgi vaqtda ochiq urug'li o'simliklar faqat daraxt va butalardan iborat bo'lsa, yopiq urug'li o'simliklarning turli vakillari mavjud. Shu bilan birga ular organlarida metamorfozalar ham mavjud.

Yopiq urug'lilar anatomik tuzilishi ham yalang'och o'simliklardan ustun turadi. Ular poyasida traxeyalar va suv naylari bo'ladi. Bu o'simliklar ildizdan suvni osonroq so'rishga va butlatishga yordam beradi. Bulardan tashqari yopiq urug'lilar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

¹РейвнП., ЭвертР., АйкхорнС. Современнаяботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.

1. Yopiq urug'li o'simliklarning urug'i meva ichida bo'ladi, shuning uchun ham ular "Yopiq urug'li o'simliklar" deb ataladi.

2. Ularda otalik hamda mevacha (onalik)dan iborat gul bo'ladi. Ba'zi istisno e'tiborga olinmaganda, ularda gulqo'rg'on bor. Gullari juda xilma-xil shaklda bo'ladi.

3. Gullarning changlanishini va urug' hamda mevalarning tarqalishi har xil yo'llar bilan boradi, ya'ni shamol, hashoratlar, qushlar va suv yordamida changlanadi. Yopiq urug'lilarning qariyb 90% hashoratlar yordamida changlanadi.

4. Bu o'simliklar ikkilamchi urug'lanadi, buning natijasida faqat murtak emas, balki endosperm ham hosil qiladi.

5. Yopiq urug'lilarning urug' ko'rtagi urug'ga, tuguncha mevaga aylanadi va mevalar mevacha barglarining himoyasida etiladi.

6. Yopiq urug'li o'simliklar morfologik va anatomik jihatdan boshqa tipdagi o'simliklarga nisbatan juda ham murakkab tuzilgan.

Yopiq urug'lilarning nasllari changlanishda, yuqori o'simliklarning boshqalari singari, sporofit nasl hukmronlik qiladi. Ammo sporofit nasl yopiq urug'lilarda juda yaxshi taraqqiy etgan bo'lib qariyb individning hamma qismini tashkil etadi. Gametofit nasl nihoyatda reduksiyalangan bo'lib, sporofitdan ajralmagan holda gulda uning hisobiga taraqqiy etadi. Gametofit ayrim jinsli bo'ladi. Erkak gametofit changining o'sishdan hosil bo'lgan chang naychasi va uning ichidagi bitta vegetativ, ikkita spermioy deb yuritiladigan xivchinsiz generativ yadrodan, urg'ochi gametofit esa urug'ko'rtakda joylashgan 8 ta yadroli mo'rtak xaltasidan iborat.

Yopiq urug'lilarda arxegoniya taraqqiy etmaydi.

Yopiq urug'lilarning kelib chiqishi hali juda aniq hal etilmagan. Lekin bu haqda turli xildagi fikrlar ma'lum. Masalan, ayrim olimlar yopiq urug'li o'simliklar urug'li paporotniklardan, boshqalar bennetit yoki gnetumlardan kelib chiqqan deb taxmin qiladilar. Biroq yalang'och urug'lilar bilan yopiq urug'lilar o'rtasidagi oraliq shakllar noma'lum.

Yopiq urug'lilarning kelib chiqishi masalasini hal etishda gulning kelib chiqishini hal etish kerak.

Gulni kelib chiqishi haqida asosan 2 ta nazariya mavjud.

1. Avstraliyalik olim Vetshteyn nazariyasi.

2. Nemis olimi G.Galir va ingliz olimlari A.N.Arber va D.Parken nazariyalaridir.

Vetshteyn nazarisiga ko'ra, gul aslida efedraga o'xshash yalang'och urug'lilarning o'zgargan va soddalashgan tupguldand iborat. To'pguldagi har bir otalik va onalik ayrim gul hisoblanadi. Bu nazariya psevdant yoki soxtagul nazariya deb ataladi. Bu nazariyaga muvofiq sodda tuzilgan gullar ayrim jinsli, oddiy gulqo'rg'onli yoki gulqo'rg'onsiz bo'ladi.

Ikkinchi nazariya, bennetitlar topilib, fanga ma'lum bo'lgandan keyin, ya'ni 1905 yilda yaratiladi. Bu nazariyaga ko'ra yopiq urug'lilarni guli yalang'och urug'lilarga qarashli bo'lgan bennetitlar ajdodining ikki jinsli va o'zgargan qubyasi strobildan iborat. Biroq bennetitlar strobilgullarida chin onalikni yo'qligini va mikroprofilining shoxlangan bo'lishi bilan chin guldan farq qiladi. Ikkinchi tomonidan, bennetitlarning strobili o'zining umumiy tuzilishi jihatidan yopiq urug'lilarning eng ibtidoiy vakili bo'lgan mangoliyaning guliga o'xshab ketadi. Arber va Parkinlar bennetitlar strobilining yuqorida tasvirlangan tuzilishini hisobga olgan holda, bennetitlar strobili guli bilan yopiq urug'lilar guli oraligidagi taxminiy, ya'ni gipotetik gulning tasviriy sxemasini yaratadilar.

Yopiq urug'lilar shimoldan janubga tomon ko'proq tarqala boradi. Mas: Frans Iosif Erida gulli o'simliklarning 37 turi, O'rta Osiyoning togli qismida 6.000 (tekislik va sahro qismida 600) turi o'sadi. Hindistonda 21.000 turi, Afrikada 13000, Braziliyada 40.000 turi uchraydi. Tropik zonalarda hammasi bo'lib, yopiq urug'lilarning 12.0000, subtropiqaa esa 60.000 ga yaqin turi o'sadi.

Keying ma'lumotlarga asoslanib A.Taxtadjan hozirgi zamon oddiy formadagi yopiq urug'lilardan kelib chiqqan dastlabki joyi Sharqiy osiyodagi qadimgi materik – Katoziya deb hisoblaydi. Sernam tuproqlarda gulli o'simliklardan 80% ya'ni 120.000 ga taqin daraxt va bo'ta osimliklardan mavjudligi, shu hudud yopiq urug'lilar kelib chiqishidan boshlang'ich markazi ekanligini hisoblaydi.

Reproduktiv organlarning paydo bo'lishi:

Reproduktiv (generativ) organlar jinsiy ko'payish vazifasini bajaradi. Reproductiv organlar evolyusion taraqqiyotdan turli xil pog'onalarida faqat ko'payish organi vazifasini bajargan. Aksaryat hollarda bir hujayralilardan bu organi faqat jinsiy ko'payish vazifasini o'taydi. Reproductiv organlarda jinsiy jarayon mavjud bo'lgan barcha o'simliklarda hosil bo'lavermaydi. Xususan konyugat va diatom suv o'tlari hamda bazidiyoli zamburug'larda retroductiv organlar yuq. Jinsiy ko'payishda ularning vegetativ hujayralaridan protoplasti qo'shiladi. Ular ko'pincha gallanib, sporalar orqali ko'payadi.

Organizmni jinsiy ko'payishi uchun xizmat qiluvchi organlarga generative yoki reproductiv organlar deyiladi. Yuksak o'simliklarning ko'payish organi gul deb ataladi. Gul deganda changchi va urug'chi tushuniladi.

Poleobotanika ma'lumotlariga ko'ra, gulning qazilma qoldiqlari mezazoy erasidan yura davridagi qatlamlaridan topilgan. Gulning paydo bo'lishi haqida ham aniq va ko'pchilik tamonidan isbot qilingan gipotezaga ega emasmiz. Gulning kelib chiqishi to'g'risida strobilyar va Evant nazariyalari mavjud.

Strobilyar nazariyasiga ko'ra, gul ninabargli o'simliklar qubbasini o'zgarishi natijasida vujudga kelgan deb qaraladi. Evant nazariyasiga ko'ra esa gul metamorfozlashgan (shakli o'zgargan) novda hisoblanadi. Ko'proq Evant nazariyasiga tayaniladi.

Gulli o'simliklarning klassifikatsiyasi.

Jon Reydan keyin, ya'ni 1682 yildan boshlab, to shu kungacha gulli o'simliklarni 2 sinfga: ikki pallali yoki ikki urug'lilar va bir pallalilar yoki bir urug'lilarga bo'lish qabul qilingan. Bir pallalilarning mo'rtagi, bir urug' bargli bo'lib, bosh ildizi tezda nobud bo'ladi. Uning o'rniga qo'shimcha popuk ildizlar taraqqiy etadi. Barglari parallel tomirlangan, guli ko'pincha oddiy gul qo'rg'onli bo'lib, gul qismlari doirada 3 tadan joylashgan bo'ladi.

Bu ikki sinf orasidagi farqlarni tubandagi jadvaldan yanada yaqinroq ko'rish mumkin.

№	Organlar	2 pallalilarda	1 pallalilarda
1.	Murtagi	Ikki urug'bargli	bir urug'bargli
2.	Urug'i	Enosperm yoki endosperimsiz	Endosperimli
3.	Ildiz sis-si	O'q ildizli	popuk ildizli
4.	Nay tolalari to'plami	ochiq konsentrik joylashgan	yopiq tartibsiz joylashgan
5.	Kambiy	poyasi kambiyli yo'gonlasha oladi	kambiysiz yo'gonlasha olmaydi
6.	Barglari	har-xil shaklda, murakkab	oddiy, qirralari tekis, lentasimon
7.	Barg tomirlanishi	to'rsimon	parallel yoki yoysimon
8.	Gul tuzilishi va uning joylashishi	qo'sh gulqo'rg'onli 5-4 tadan bo'lib joylashgan ba'zan ko'p	gulqo'rg'oni oddiy, qismlari 3 tadan bo'lib joylashgan.

Umuman olganda har ikkala sinf ko'zga yaqqol tashlanadigan qator belgilarga ega. Bundan tashqari, bu sinf vakillari o'zaro vegetativ yo'l bilan ham jinsiy yo'l bilan ham hech bir chatishmaydi. Gul qismlarining joylanish qonuniyati, diagrammalari va formulalari.

Gul o'simliklarning turlariga, ularning biologiyasiga, gul a'zolarining joylashishiga qarab xilma-xil shaklda bo'ladi.

Ko'pchilik o'simliklarning gul qismlari doira yoki siklikba'zi bir ajdodlarda esa birin-ketin spiral yoki asiklikshaklda joylashadi. Asiklik gullar magnoliyadoshlar, ayiqtovondoshlar oilasining vakillarida uchraydi.

Gul qismlarining joylashishida asiklik gullarning siklik gullarga o'tish hollarini ham uchratish mumkin. Bunday gullar chala doirali yoki gemisiklik gullar deb ataladi. Shu xildagi gul qismlarining ba'zi biri (kosachabarglar) doira, boshqalari esa (otalik va onaliklar) spiral holda o'rnamshadi.

Gul qismlari karrali nisbatlar va doiraning gallanish qonuniyati asosida joylashadi.

Karrali nisbatlar qoidasi. Bu qoidaga muvofiq ikki pallali o'simlik gul doiralari ko'pincha 5, 4 va 2 qismli bo'ladi. Masalan: zig'ir o'simligining kosachabargi 5 ta, tojbargi 5 ta, otaligi 10 ta, meva bargi 5 ta.

Bir pallalilarda 3 qismli, masalan: lolada gultojbarglar 6 ta bo'lib, 2 qator joylashgan 3 + 3. Otaligi 3 + 3 tadan, onalik uch meva bargdan iborat.

Gul diagrammasi va formulasi. Gulning sxematik tuzilishi, gul qismlarining bir-biriga bo'lgan nisbati diagramma va formulalarda yaqqol ko'rinadi. Gul tuzilishida gorizontaal yuzaning sxematik proeksiyasi diagramma deb ataladi.

Doiradagi gulning ayrim qismlari har-xil shartli belgilar bilan ko'rsatiladi. Diagramma ochilmagan gul g'unchasining ko'ndalang kesimiga qarab tuzilgan. Diagrammada gulqo'rg'on qismlari yoy shaklida ko'rsatiladi. Kosachabarglar sirtidan o'rtasiga tumorchasi bor yo'ylar bilan, tojbarglar tumorchasiz oddiy yo'ylar bilan ifodalanadi. Otaliklar ochilmagan changdonning ko'ndalang kesimi shaklida, onaliklar tugunchaning ko'ndalang kesimi shaklida ko'rsatiladi. Agar gul qismlari tutashgan bo'lsa ular birlashtiriladi. Diagrammalar 2 xil bo'ladi.


1. Empirik diagrammada to'la ochilgan va voyaga etgan gul tasvirlanadi.
2. Nazariy diagramma gulning tarixiy rivojlanishi hisobga olingan holda tuziladi.

GUL-FLOS

Gul o'simliklarning urchuvchi, ya'ni ko'payuvchi generativ organidir. Gul qisqargan novdadan tashkil topgan. Gulning o'rni va bandi qisqargan novda, gulning boshqa qismlari esa qiyofasini o'zgartirgan barg. Gulning hamma qismlari gul o'rniga joylashgan. Gul qiyofasini o'zgartirgan novda, barg ekanligini XVIII asrda nemis shoiri va tabiatshunosi Gyote aniqlagan.

Gul asosan quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1. Gul bandi (*pediculus*)
2. Gul o'rni (*torus*)
3. Gultovaragi (gulqo'rg'oni) (*pereantium*)
4. Kosacha(*calyx*)
5. Gul tojisi (*Carolla*)
6. 1 ta toj barg (*Sepalla*)
7. 1 ta kosachabarg (*Petula*)



Rasm 1.

Demak gul qismlari dastlab gul kurtagi ichida shakllanadi.

Gul kurtagi tashqi tomondan qiyofasini o'zgartirgan barglar bilan qoplangan. Gul kurtagining 2 ta tipi mavjud bo'lib, biri haqiqiy, ikkinchini aralashdir. Haqiqiy gul kurtagida hosil qismi bilan kurtak qoplamasi bo'lsa, aralash kurtak hosil qismi bilan boshlang'ich vegetativ novda mavjud bo'ladi. Gul yon bargi bilan gul orasidagi novda gul bandi deb ataladi. Gul bandining uchki qismi kengayib, gul o'rni - torus hosil qiladi. Gul o'rni turli o'simliklarda turlicha bo'ladi. Gul o'rni ayrim hollarda gulqo'rg'onning pastki qismi, changchi va urug'chilar bilan birga o'sib, o'zigaxos shakliga kirish, gipantiya deyiladi.

Gipantiy atirgullilar vaayrim dukkakilargaxosdir. Gipantiy meva hosil bo'lishida ishtirok etadi.

Gul - steril vafertil (hosildor) qismlardan iborat. Steril qismiga - gulqo'rg'oni (kosacha va tojbarg) fertil qismiga (changchi va urug'chi) kiradi

Ba'zan gul qo'rg'oni oddiy bo'ladi. Gul o'rnida faqat kosacha yoki tojbarg joylashgan bo'lsa oddiy gulqo'rg'on deyiladi. Gul kosachasimonlargaotquloq, lavlagi misol bo'ladi. Gul

tojsimonlarga lola, gulsapsar, marvaridgul kiradi. Kosacha bo'lsa, tojisi bo'lmaydi vaaksincha. Gulning asosiy qismlari otalik vaonaliklaridir.

6. Otalik

Otalik 3 qismdan tashkil topgan.

- a) otalik ipi
- b) changdon
- v) chang

7. Onaligi

- 1. Onalik og'izchasi
- 2. Onalik ustunchasi
- 3. Onalik tugunchasi

Gul qo'rg'oni faqat kosachadan tashkil topgan bo'lsa, kosachasimon gul (nasha, lavlagi, krapiva) bo'ladi.

Rasm 2.



Gul qo'rg'onida faqat gul tojisi bo'lsa, tojsimon gul (lola, gulsapsar, liliya) deyiladi.

Raflezya guli

Oddiy gul qo'rg'onida kosacha yoki tojbargi bo'ladi. Murakkab gul qo'rg'onida ikkalasi ham bo'ladi. Kosacha Calex - bu kosacha barglardan tashkil topgan. Kosacha barglar bir-biri bilan birlashgan, gulhayrisimonlilar, dukkakililar, yasnotkaguldoshlar birlashgan.

Ba'zi o'simliklarda kosacha barglar yaxshi rivojlanmaydi. Masalan: uzumda, selderguldoshlar oilasiga kiradigan o'simliklarda esa, kosacha barg tukkaaylanib ketgan bo'ladi. Kosacha barglar odatda bir qator doira bo'lib joylashgan bo'ladi. Ba'zi o'simliklarda esa kosachabarg 2-3 qator joylashgan. Masalan; atirgullilar oilasi, gulxayrisimonlar oilasida.

Kosachaning 2 va 3 chi qatoridagi barglari kosacha tagi bargi deb ataladi. Kosacha barglar odatda yashil rangli bo'ladi, ya'ni kosacha bargdaxlorofill donachalari bor. Kosacha bargda fotosintez prosessi bo'lib turadi. Shuningdek kosachabarg gulning ichki qismini tashqi sharoitdan saqlab turadi. Ba'zi o'simliklarda kosacha barg gul ochilgandan so'ng tushib ketadi (lolaqizg'aldoq, ko'knori) ba'zi o'simliklarda barg uzoq saqlanadi. (olma, nok).

GUL TOJISI-COROLLA

Gul tojisi tojbarglardan tashkil topgan. Tojbarglar ham bir - biri bilan birlashgan yoki birlashmagan bo'ladi. Masalan: pechakgullilar oilasiga kiruvchi o'simliklarning tojbarglari birlashib ketgan, karamguldoshlar oilasida birlashmagan. Toj barglarning shakllari turlicha bo'ladi. Karamguldoshlar oilasiga kiradigan o'simliklarning toj bargi butsimon, astraguldoshlar oilasiga kiradigan o'simliklarning gul tojisi voronkasimon, chuchmomagullilar oilasiga kiradigan o'simliklarning gul tojisi qo'ng'iroqsimon, yasnotgullilar oilasiga kiradigan o'simliklarning gul tojisi labsimon, dukkakililar hamda binafshagullilar oilasida gul tojisi kapalaksimon. Gul toji har-xil rangda bo'ladi. Gul tojisining har-xil rangga bo'yalishi xujayra shirasidagi antosian, antoxlor pigmentlari hamdaxromoplastdagi karotin vaksantofill pigmentlariga bog'liq. Antosian, xujayra shirasining nordonlik yoki ishkriy bo'lishiga qarab har xil rang beradi: Oq va qora rang beruvchi pigment bo'lmaydi. Antosian qizil, ko'k, binafsha ranglar, antoxlor va ksantofill sariq rang beradi. Karotin qizg'ish rang beradi. Gullarning oq bo'lishi quyosh nurining qaytarilishiga bog'liq. Qoramtir rang esa to'q qizil va to'q ko'k rangdan hosil bo'ladi. Ba'zan toj barglarning rangi o'zgarishi ham mumkin. Mas. Paxtaning gul tojisi avval sariq, so'ngra pushti rangga bo'yaladi. Gulning tojisi o'z hidi va rangi bilan hashoratlarni o'ziga jalb etadi. Hashoratlari esa o'simliklarni changlatadi. Kosacha va toj barglar gulning o'rnida doira bo'yicha to'g'ri joylashgan bo'lsa, to'g'ri gul-aktinomorf deyiladi. To'g'ri

gulni bir necha barobar bo'laklarga bo'lish mumkin. Qiyshiq gulni esa, faqat 1 marta teng bo'lakka bo'lish (ajratish) mumkn.

To'g'ri gulni polisimmetrik qiyshiq gulni esa monosimmetrik deb ham yuritiladi.



Rasm 4.

Ba'zi o'simliklarning guli barobar qismlarga 1 marta ham bo'linmaydi. Masalan: Valeriana. Bunday gullarni asimmetrik gul deb yuritiladi.

Kosacha va toj barglar gulning eng kerakli qismi hisoblanadi. Gul qo'rg'oni bo'lmasligi ham mumkin. Masalan: qiyoch o't, tol, terak g'alladonli o'simliklar.

Gulning eng kerakli vaahamiyatli qismi - otalik vaonaliklaridir. Otaligi:

Otaligi 3 qismdan iborat: Otalik ipi, changdon, chang.

Otaliklar ham bir biri bilan birlashgan yoki birlashmagan bo'ladi. Masalan: Murakkabgullilar oilasiga kiradigan o'simliklarning otaliklari hatto changdonlari bilan bir-biriga yopishib ketgan. Dukkaklilar, gulgayrisimonlilar oilasiga kiradigan o'simliklarning otaliklari iplari bilan bir-biriga yopishgan.

Gulhayrisimongullilar oilasiga kiradigan o'simliklarning otaligi juda ko'p bo'lib, otaliklarning hammasi bir-biri bilan yopishib ketgan. Bunday otaliklarni "bir guruhli" (odnobratstvennie) deyiladi.

Dukkaklilar oilasidaotaligi 10 ta bo'lib, shundan 9 tasi bir-biri bilan birlashgan, 1 tasi birlashmagan. Bunday otaliklarni "ikki guruhli deyiladi". Lipa daraxtining otaligi "ko'p guruhli". Onaligi:

Onalik 3 qismdan tashkil topgan: Onalikning pastki kengaygan qismi-onalik tuguni, tugundan onalik ustuni o'sib chiqadi. Onalik ustunining yuqori tomonidaog'izcha bo'ladi. Ba'zi o'simliklarning onalik ustunchasi bo'lmaydi. Masalan: ko'knorida. Bundaonalik og'izchasi tugunchaga yopishgan bo'ladi. Onalik tugundan esa meva hosil bo'ladi. Shuning uchun mevaning ichida urug' bo'ladi. Onalik tuguni 1,2,3 yoki ko'p xonalik bo'lishi mumkin. Guldaonaliklar ko'p bo'lib, birlashmagan bo'lsa, apokarp, birlashib ketgan bo'lsa, senokarp deyiladi. Masalan: ayiqtovon, qulupnay o'simliklarining onaligi apokarp: lola, gulsafsardasenokarp. O'simlik gullarida ham otalik ham onaliklari bo'ladi, buni 2 jinsli deyiladi. Guldaotalik yoki faqat onaligi bo'lsa, bir jinsli deyiladi. Bir jinsli gullar bitga o'simlikda bo'lsa, buni bir uyli o'simlik deyiladi. Masalan: jo'xori, qarag'ay.

Agar otalik gullari bir o'simlikda, onaliklari esa 2 bir o'simlikda bo'lsa, buni 2 uyli o'simlik deyiladi. Masalan: Tol, nasha, ba'zi o'simliklar 3 uyli ham bo'ladi. Bular, 1-sidaotalik gul, 2-sidaonalik gul, 3-sida ham otalik ham onalik bo'ladi. 3 uyli o'simliklarga chinni gullilar oilasiga kiruvchi o'simliklar misol bo'ladi. Agar bir o'simlikda ham otalik ham onalik guli, hamda 2 jinsli guli bo'lsa, bunday o'simliklarni poligam o'simliklar deyiladi. Masalan: qovun, kungaboqar va boshqalar.

Gulning qismlari gul o'rnida doira bo'ylab joylashgan bo'lsa, sikliq agar gul qismlari gul o'rnida baland-past joylashgan bo'lsa, asiklik gul-spiral gul deyiladi. Gulning kosachasi va toj barglari doira bo'ylab joylashib, faqat otalik vaonaliklari bilan baland - past joylashgan bo'lsa, yarim spiral-gemesiklik gul deyiladi.

Doira bo'ylab joylashgan gulga lola, spiral gulga magnoliya, gamesiklik gulgaayiqtovon misol bo'ladi.

Changdondan chiqqan chang donachalarining urug'chining tumshuqchasiga tushushigachanglanish deb ataladi. O'simliklar olamida o'zidan changlanish va chetdan changlanishi mavjud. Bitta gulning changi aynan shu gul urug'chisining tumshuqchasiga kelib tushushiga o'zidan changlanish deyiladi. O'zidan changlanuvchi o'simliklarning guli odatda ko'rimsiz va hidsiz bo'ladi. O'zidan changlanish salbiy xodisa hisoblanadi.

Bir o'simlikning chang donachalarini boshqa o'simlik urug'chisining tumshuqchasiga tushishi chetdan changlanish deyiladi.

O'simliklarning chetdan changlanishda shamol va hashoratlar yordamida changlanishi muhim rol o'ynaydi. Chetdan changlanish ijobiy hisoblanadi. Shamol yordamida changlanishga anemofiliya (yunoncha: «anemos» - shamol, «fileo» - hoxlamoq) deyiladi. Bunga yong'oq, terak makkajo'xori, eman, kanop va qand lavlagilarning changlanishini misol qilishimiz mumkin. Bunday gullar mayda va changlari engil bo'lib, uzoq joylarga tarqalishi mumkin (2 km gacha). O'simliklarning hashoratlar yordamida changlanishi entomofiliya (yunoncha. «entomon» - hashorot, «fileo» - sevaman) deb ataladi. Bunday gullar yirik toj bargi uzoqdan ko'zga tashlanadigan, nektarlari esa sershira suyuqlik chiqaradi.

Changlanishda toj barglarning ahamiyati juda katta hisoblanadi.

GUL FORMULASI VA DIAGRAMMASI

- Bir yillik o'tli o'simlik -
- 2 yillik o'tli o'simlik -
- Ko'p yillik o'tli o'simlik -
- Daraxt va butalar -
- To'g'ri gul aktinomorf -
- Qiyshiq gul zigomorf -
- Bir jinsli otalik gul - Mars -
- Bir jinsli onalik gul-Venera -
- 2 jinsli gul -
- K yoki Ca-kosacha bargi-
- C yoki Co-toj bargi-
- A-otaligi-
- G-onaligi-

Kosacha, toj barg, otalik va onalikalarning soni raqam bilan ko'rsatiladi. Agar ular birlashib ketgan bo'lsa, raqam qavs ichiga olib qo'yiladi. Ularning soni 10 tadan 12 tagacha bo'lsa, raqam ko'rsatiladi. Undan ko'p bo'lsa, cheksiz alomati qo'yiladi.

Onalik tuguni yuqorida joylashgan bo'lsa onalik sonining pastiga chizib qo'yiladi. Agar onalik tuguni pastda joylashgan bo'lsa, onalik sonining yuqorisiga chiziq qo'yiladi.

Gul qo'rg'oni oddiy bo'lsa, R harfi qo'yiladi. + Ca₄ Co₄A₄₊₂ U₍₂₎ - karamgullilar - rediska, turup, karom gullarining formulasi + Ca₍₅₎ Co₅AU₍₃₋₅₎ g'o'za gulining formulasi. + Ca₅ Co₅A U - Ayiqtovongullilar: sedana, ayiqtovon.

Nazorat savollari

1. Yopiq urug'li o'simliklarga umumiy tasnif.
2. Yopiq urug'lilar qanday kelib chiqan?
3. Bir va ikki pallali o'simliklarni farqi nimada?
4. Gul tuzilishini izohlab bering?
5. Gultoj barglarining ahamiyati?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.

4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elektron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа ”, 1988. - 435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. –Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
12. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.

MA’RUZA – 14

To’pgullar. Changlanish va otalanish.

Ma’ruzaning maqsadi:

To’pgullarning xillari va ahamiyati. Changlanish va otalanish haqida tushuncha.

Reja:

1. To’pgullarning xillari?
2. Changlanish va otalanish haqida tushuncha.
3. O‘z-o‘zidan va chetdan changlanish.
4. Mikrosporogenez va makrosporogenezni taraqqiy etishi va rivojlanishi.
5. Urug‘lanish.
6. Gulli yoki yopiq urug‘li o‘simliklar.
7. Yopiq urug‘li o‘simliklar urug‘ kurtagining tuzilishi
8. Yopiq urug‘li o‘simliklarning qo‘shaloq otalanishi.

Tayanch iboralar: *Megasporogenez. Megasporalar. Bola qopchig‘i embrion xaltasi, changlanish va otalanish (urug‘lanish). O‘z – o‘zidan va chetdan changlanish. Chetdan changlanish tiplari: entomofil va anemofil changlanishlar. O‘z – o‘zidan va chetdan changlanishga moslanishlar: dixogamiya, geterostiliya va boshqalar. Kleystogamiya, geterostiliya va qo‘shaloq urug‘lanish. Urug‘ni hosil bo‘lishi, endosperm va uning tuzilishi. Gulning kelib chiqishidagi asosiy qonuniyatlar: evant, psevdant nazariyalari. Gul to‘g‘risida yangi tushunchalar. Gul evolyutsiyasining asosiy yo‘nalishlari. Bir va ikki pallali o‘simliklarning gullarini farqlari.*

Ko‘pchilik o‘simliklarning guli bir nechta bo‘lib gul to‘plamlarini tashkil etadi. To‘pgullarning shakllari bir nechxil bo‘ladi:

1. Shingil.

Shingilga o‘xshash gul tuplarida gulning o‘qida pastdan yuqoriga qarab gullari ochiladi. Pastki gullarning bandi yuqori gullarnikiga nisbatan bir oz uzunroq bo‘ladi. Masalan; butasimon gullilar oilasi: jag‘-jag‘, supurgi o‘t, gorchisa.

2. Qalqonsimon to‘p gul. Qalqonsimon to‘pgullar bir sathga joylashgan bo‘ladi. Chunki ularning gul o‘qidagi pastki gullari uzun bandli, yuqoridagi gullari esa qisqa bandli bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda gul o‘qidan o‘sib chiqqan gullar bitta sathni egallaydi: olma, do‘lana, nok.

3. Oddiy boshqoq. Oddiy boshqoq shingilga o‘xshash tupgul. Lekin uning gullari gul o‘qida bandsiz joilashgan bo‘ladi, masalan; zupturum, qayoq o‘t.

4. Murakkab boshqoq-

Bunda gullarning asosiy o'qi tarmoqalanib ketadi. Asosiy o'qining tarmog'idaayrim boshqalar joylashgan bo'ladi. Masalan. Bug'doy, arpa, so'li.

5. Oddiy soyabon.

Oddiy soyabonda gul o'qining yuqori tomonidan barobar bandli gullar o'sib chiqib, 1 ta sathni egallaydi. Masalan; olcha, piyoz, chesnok.

6. Murakkab soyabon.

Bundaasosiy gul o'qidan qo'shimcha gul o'qchalar o'sib chiqadi. Bu gul o'qchalarda barobar bandli gullar joylashgan. Masalan; sabzi, ukrop, kashnich.

7. Supurgi boshqoq. Bu tarmoqlanib ketgan shingildan iborat. Masalan: uzum, siren, sholi, tariq, makkajo'xorining otalik guli.



Rasm 1.

8. So'ta. So'tada gul o'q yo'g'on bo'lib, yaxshi taraqqiy etgan, gullar esa gul o'qiga bandsiz joylashgan. So'tani qoplag'ich barglari o'rab olgan.

9. Boshcha. Boshchada gulining uchi kengaygan bo'lib, bandsiz, gullari zich joylashgan bo'ladi. Masalan. yovvoyi beda-klever

10. Savatcha.

Bunda gullar savatchaga to'plangan bo'ladi. Ularda gullarning uchi tarelka yoki plastinkaga o'xshab o'sgan bo'ladi. Gullar shu gulning o'qiga bandsiz o'rnashgan. Masalan: astragullilar oilasi-qoqi o't, romashka.



Rasm 2.

11. Kuchala. Kuchalada gul o'qi ingichka bo'ladi. Gullar gul o'qiga bandi bilan joylashgan bo'lib, pastga qarab osilgan bo'ladi. Masalan: yong'oq, tol.

Tibbiyotda ko'pchilik o'simliklar gullaridan foydalaniladi. Binobarin boychechak o'simligining guli tomoq og'riqlari kasalliklarini davolashda; yapon saforasi o'simligining gulidan vitamin P (rutin) olishda foydalaniladi.

Tirnoqgul o'simligining guli bo'yoq tayyorlashda ishlatiladi. Ba'zi bir mamlakatlarda o'simlik g'unchalari sabzavot sifatida foydalaniladi. Gulidagi nectar asal olishda (grechixa lipa kabi o'simliklar) olishda ahamiyatga ega.

CHANGLANISH- OTALANISH (chang tuzilishi)

Changning otalik changdonidan onalik og'izchasiga kelib tushishi changlanish deyiladi. Changlanishi 2 xil bo'ladi:

1. O'z - o'zidan changlanish-Avtogamiya

2. Chetdan changlanish-Ksenogamiya

O'z-o'zidan changlanish, bu jarayon quyidagicha kechadi.

1) Avtogamiya - urug'chining tumshuqchasiga shu gulning changdonidan chiqqan chang tushadi. Bunday changlanish asosan 2 jinsli gullarda o'tadi.

2) Geyterogamiya - bir o'simlik individum o'rtasida bo'ladi, ya'ni bir gul changdonidan chiqqan chang shu o'simlik individumidagi ikkinchi gulning tumshuqchasiga tushadi.

3) Kleystogamiya - bunda gul ochilmasdan oldin, ya'ni yopiqlik paytida changlanish bo'ladi. Kleystogam gullarni binafsha (viola), eryong'oq (Arachis), arpa (Hordeum) o'simliklarida ko'rish mumkin.

Buyuk biolog Charlz Darvin o'zining 27 yil mobaynida o'simlik gulining tuzilishini o'rgandi. Ch.Darvin changlanish usullarini tekshirib ko'rdi. Darvin o'simliklarning o'zidan changlanishi tabiatda ozroq bo'lishi, chetdan changlanish esa ko'proq bo'lishini ko'rdi. Darvin o'simliklarning o'zidan changlanishida hosili sog'lom bo'lmasligini, chetdan changlanishda hosili sog'lom va o'zgaruvchan bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Ivan Vladimirdorovich, Michurin o'simliklarning chetdan changlanishini evolyutsiya taraqqiyot davrida progressiv faktor deb hisobladi. O'zidan changlanuvchi o'simliklarga: arpa, bug'doy, nuxat, loviya, so'li, tariq, pamidor, g'o'za, zig'ir kiradi. Bu o'simliklar ba'zan chetdan ham changlanib turadi. Ba'zan paxta, zig'ir 3-5% chetdan changlanadi. Ba'zida ularda chetdan changlanish 50% gacha boradi.

Faqat o'zidan changlanuvchi o'simliklar juda kam uchraydi. Bularning gullari mayda, ko'rimsiz va ochilmaydigan bo'ladi. Bunday gullarni kleystogam gullar deyiladi. Masalan: Eryong'oq (Arachis), arpa (Hordeum). Yeryong'oqning er ustidagi gullari hosil bermay, tuproq ostki kleystogam gullari hosil beradi. Binafsha (viola) ning bahorgi chiroyli gullari hosil bermaydi. Yozgi ko'rimsiz gullari esa hosil beradi, o'zidan changlangan bo'ladi. (Fabaceae) Dukkaklilar oilasidagi ba'zi o'simliklarning - loviya, nuxat g'unchalik vaqtida o'zidan changlanadi. Arpa, bug'doylarning ham gullari qinli barglardan ochilmasdan turib changlanib qo'yadi. O'simliklarning ko'pchiligi odatda chetdan changlanadi. Shu jumladan 2 jinsli gullar ham chetdan changlanadi. Chunki bu gullarda otalik-onalikasi bo'lsa ham ular bir vaqtda voyaga etmaydi. Bunday hodisani dixogamiya deyiladi. (dixo-ayrim). Ba'zan o'simliklarning otaligi oldin etishadi. Bunday o'simliklar protandriya deyiladi. (protos-oldin, gandriya-mujchina). Bularga astradoshlar (Asteraceae), chinniguldoshlar (Caryophyllaceae), yasnotkaguldoshlar (Lamiaceae) oilasiga kiruvchi o'simliklar misol bo'ladi.

O'simliklarda otaliklaridan oldin onalikasi etishish xodisasi ham bo'ladi. Bu protogoniya deyiladi, karamguldoshlar (Brassicaceae), atirguldoshlar (Roseaceae), zirkdoshlar (Berberidaceae). Ba'zi o'simliklarda otalik onalikasi baland past joylashgan bo'ladi, bular geterostiliya deyiladi. Masalan: primula (Primula), grechixa (Fagopyrum). Shuningdek ba'zi o'simliklarning otalik changi onaligi uchun zaharli hisoblanadi. Buni orxid deb ataluvchi tropik o'simliklarda ko'ramiz. Qora bug'doy o'simligining otalik changi onaligini changlata olmaydi. Shuning uchun ham ko'pchilik o'simliklar chetdan changlanadi. Chetdan changlanish 2 narsa ishtirokida bo'ladi:

1. Shamol -Anemofil

2. Hashoratlar yordamida -Entomofil

Ba'zi o'simliklar, mayda qushlar, mayda hayvonlar yordamida changlanadi. Hashoratlar yordamida changlanishni entomofiliya deyiladi. Entomofil o'simliklarning guli yaxshi rivojlangan, ko'pincha tupgullarga birlashgan bo'ladi. Gultoj barglari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ranglari: oq, pushti, sariq, ko'k qizil. Gullarida nektar bezlari yaxshi rivojlangan, changlari yirik tukli, yopishqoq bo'ladi. Urik, gilos, shaftoli, anjir, nok kabi daraxt o'simliklar hashoratlar yordamida changlanadilar. Masalan: tropik mamlakatlarda ba'zi o'simliklar va mayda daraxtlar kalibri degan kichkina qush yordamida changlanadi. Avstraliya o'rmonlaridagi o'simliklar olmaxonlar yordamida changlanadi. O'simliklar suv yordamida ham changlanadi. Bunday changlanish gidrofiliya, o'simliklar esa gidrofil o'simliklar deyiladi. Suvda o'sadigan elodeya, valisneriya o'simliklari suv yordamida changlanadi. Bularning changlarining po'sti bir qavat, changni tashqi qavatida ekzina bo'lmaydi. Changning shakli

ipsimon. Changning solishtirma og'irligi suvning solishtirma og'irligi bilan teng. Shamol bilan changlanadigan o'simliklar anemofil o'simliklar, changlanish esa anemofiliya deb ataladi. Anemofil o'simliklarning gullari ko'rimsiz, mayda va ko'pincha kuchala tupgulga birlashgan. Nektar bezlari yo'q. Shamol yordamida changlanuvchi o'simliklarga ochiq urug'li o'simliklardan: archa, qarag'ay, yopiq urug'li o'simliklardan: terak, tol, yong'oq, nasha, jo'xori kiradi. Masalan: qand lavlagining otalik changi shu qadar engilki 2000 m balandlikka ko'tarila oladi. Shamol yordamida changlanuvchi o'simliklarning changlari juda ko'p bo'ladi va kichikroq bo'ladi. Masalan: o'rmon yong'og'ining 1 ta otalik gulining kuchalasida 4 mln. chang bo'ladi.

1 ta jo'xorining otalik tup gulida 50 mln. chang bo'ladi.

Shamol yordamida changlanuvchi o'simliklarning gul to'plamlari, otaliklari, tebranib turadi. Onalik og'izchasi ham katta bo'ladi. O'simliklarning ko'pchilik qismi hashoratlar yordamida changlanadi. Gulli o'simliklarning 9/10 qismi hashorat, 1/10 qismi shamol yordamida changlanadi. Hashoratlar yordamida changlangan o'simliklarning gullari katta, chiroyli, hidli bo'ladi. Ko'knori, gulsafsar, beda, mevali daraxtlar. Hashoratlar yordamida changlanuvchi o'simliklar gullarida shira ishlab chiqaradigan nektarniklari bor. Bo'lar shirani ishlab chiqaradigan nektar deyiladi. Uning tarkibida 25-90% suv, 3-72% saxaroza, glyukoza bo'ladi. Bulardan tashqari hashoratlar o'simlik changidan oziqlanadi. Masalan: asalari chang bilan lichinkalarini boqadi. Hashoratlar yordamida changlanuvchi o'simliklarda nektarning qaerda bo'lishini ko'rsatuvchi belgilari bor. Masalan: gulsafsarning toj bargida sariq tukchalar, lola, lolaqizg'aldoq ko'knorini tojbargida qora dog'lar bor.

OTALIK CHANGNING TARAQQIY ETISHI VA RIVOJLANISHI MIKROSPORAGENEZ

Otalik changi changdoni ichida; changdonning epidermisida, ya'ni subepidermal qavatida bo'lgan meristemaning ba'zi bir hujayralari boshqalariga nisbatan kuchliroq taraqqiy etgan bo'ladi. Bu hujayralar birlamchi arxeporalar deyiladi. Birlamchi arxeporalar kariokinez yulida 2 marta bo'linib ko'payib 4 ta xujayrani hosil qiladi. Hosil bo'lgan xujayralarning 2 tasi fibroz, 3-si tapetum, 4-si ikkilamchi arxepora deb ataladi. Ikkilamchi arxeporalarning xujayrasi reduksion yo'lda bo'linib, 4 ta qiz xujayrani hosil qiladi. Bu 4 ta xujayrani tetrada deyiladi. Tetradaning har bir xujayrasi rivojlanib changga aylanadi. Chang 2 qavat pust bilan o'ralgan. Tashqi qavati ekzina, ichki qavati intina. Ekzina qalin bo'ladi. Intina yupqa bo'ladi, sellyulozadan tashkil topgan. Changning ichida 2 ta yadro vegetativ va generativ yadro bo'ladi. Generativ yadrodan ikkita spermiy (otalik gametalari) hosil bo'ladi. Vegetativ hujayradan chang naychasi o'sib spermiylarning mo'rtak xaltachasiga etib borish yo'li hisoblanadi.

ONALIK EMBRION XALTACHASINING RIVOJLANISHI VA TUZILISHI MAKROSPORAGENEZ

Onalik tugunining subepidermal qavatida meristemadan birlamchi arxepora hosil bo'ladi. Birlamchi arxepora 2 marta bo'linib, 4 ta xujayra hosil qiladi. Birlamchi arxepora 2 marta bo'lingandan 4 ta hujayra hosil bo'lgandan so'ng hujayralarning yuqoridagi 2 tasi pariental qavat, 3 - chisi tapetum, 4 - si 2 - lamchi arxepora deyiladi. 2 -lamchi arxepora reduksion yo'lda ko'payadi. Natijada 4 ta qiz hujayra - tetrada hosil bo'ladi. Tetradaning 3 tasi nobud bo'ladi, 1 tasi rivojlanadi. Tetradaning 1 ta hujayrasining yadrosi 3 marta bo'linadi. Natijada bu hujayrada 8 ta yadro hosil bo'ladi. Yadroning 4 tasi hujayraning shimol qutbida, 4 tasi janub qutbida joylashadi. Yuqoridan 1 tasi o'rtaga tushadi. Pastdan ham 1 tasi o'rtaga chiqadi. Bu yadrolar qo'shiladi. Bu qo'shilgan yadrolarni bola qopchig'ining markaziy yadrosi yoki ikkilamchi yadro deyiladi.

Yuqorida qolgan 3 ta yadroning 1 tasini tuxum xujayra, qolgan 2 tasini sinergida deyiladi. Pastdagi 3 tasini esa antipodalar deyiladi. Demak, yetilgan bola qopchig'ida 7 ta yadro bo'ladi.

Makrosporagenez- urug'kurtak ichida murtak xaltachasi joy oladi va bu yerda urug'lanish sodir bo'ladi. Urug'kurtak kichik bo'rtmachalar shakldagi meva bargchalardan boshlanadi. Bunda dastlab nutsellus, keyin ichki, so'ngra tashqi integument qoplag'ichlar vujudga keladi. Nutsellusning shakillanishida epidermis ostidagi eng yirik hujayradan biri meyoza bo'linishi natijasida to'rtta yirik gaploid xromosomali makrospora vujudga keladi. Ulardan uchtasi keyinchalik nobud bo'ladi va qolgan bittasidan murtak xaltachasi rivojlanadi.

YOPIQ URUG'LI O'SIMLIKLAR URUG' KURTAGINING TUZILISHI

Urug' kurtagi quyidagi qismlardan tashkil topgan.

1. Urug' kurtagina bandi-funikulus
2. Urug' kurtagina krplogich tuqimasi-intugument.

Odatda intugument 2 qavat bo'ladi. Tashqi va ichki intugument. Intugumentning yuqorisi ochiq bo'ladi. Bu ochiq qolgan joyi changni kirish yo'li, yoki mikropile deyiladi. Urug' kurtakning ostki qismi, ya'ni funikulusga o'tish joyi esa xalaza deyiladi.


3. Urug' kurtagina asosiy to'qimasi-nutsellus.
4. Bola qopchig'i.

Urug' kurtagina o'sib chiqqan joyini plasant deyiladi. Onalik tugunida urug' kurtagi 1 tadan bir nechta minggacha bo'lishi mumkin. Bunda changlanish va otalanish prosessi bo'lib o'tgandan so'ng urug' kurtakdan urug' hosil bo'ladi. Onalik tuguni ichida urug' kurtagi to'g'ri, qiyshiq yoki teskari joylashgan bo'ladi.

To'g'ri joylashgan urug' kurtakni atrop deyiladi. Bunda mikropile funikulusining qarama-qarshi tomoniga joylashgan. Buni astraguldoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklarda ko'ramiz. Urug' kurtak qiyshiq joylashgan ham bo'ladi. Bunda urug' kurtak 90° ga aylangan.

Qiyshiq joylashgan urug' kurtakni kampilotrop deyiladi. Bunda mikropile funikulusning yon tomonidan joylashgan. (karamguldoshlar, chinigullilar). Onalik tugunida urug' kurtak teskari joylashgan bo'lsa anotrop deyiladi. Teskari joylashgan urug' kurtak 180° ga burilgan. Mikropile funikulusining yoniga joylashgan. Masalan: bug'doy, paxtaning urug' kurtagi, anotrop ko'p uchraydi.

YOPIQ URUG'LI O'SIMLIKLARNING QO'SHALOQ OTALANISHI.



Rasm 3.

Chang onalik og'izchasiga tushgandan so'ng changning ichki po'sti intinadan chang trubkasi o'sib chiqadi. Changning vegetativ yadrosi changning trubkasini o'sishiga yordam beradi.

Chang trubkasi bola krpchigiga usib kiringach vegetativ yadro erib ketadi. Benerativ yadro esa chang trubkasida bo'linib, 2 ta spermiya hosil qiladi. Bu spermiyalar bola qopchig'iga kirib, 1 tasi bola qopchig'idagi tuxum xujayra bilan, 2 - si esa bola qopchig'idagi 2 - lamchi markaziy yadro bilan qo'shiladi. Bu tipdagi otalanish – qo'shaloq otalanish deyiladi. Qo'shaloq otalanishni 1898 yili rus olimi Navashin topgan. O'talanish prosessi bo'lib o'tgandan so'ng tuxum xujayradan urug'ning embrioni vujudga keladi. Bola qopchig'ining 2 - lamchi markaziy yadrosidan esa urug'ning endospermasi hosil bo'ladi. Urug' kurtagina qoplovchi to'qimasi - intugumentdan urug'ning pusti hosil bo'ladi.¹

¹Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005. - 435 b.

Nazorat savollari

1. Changlanish deb nimaga aytiladi va ularning usullari necha xil bo'ladi?
2. Otalik changining taraqqiy etishi va rivojlanishi qanday boradi?
3. Onalik tugunchasining rivojlanishi va tuzilishi qanday?
4. Urug' kurtak tuzilishi?
5. Qo'sh urug'lanishning mohiyati nimalardan iborat?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA – 15

Meva, to'pmeva va urug' tuzilishi.

Ma'ruzaning maqsadi: Mevani hosil bo'lishi. To'pmeva va urug' tuzilishi to'g'risida tushuncha berish. To'pmeva va urug' tuzilishi to'g'risida tushuncha berish.

Reja:

1. Mevalarning xillari.
2. To'pmeva xillari va tuzilishi
3. Urug' tuzilishi.
4. Urug' taraqqiy etishi va rivojlanishi.
5. Endospermli, endospermsiz va persperimli urug'lar.

Tayanch iboralar: Meva turlari *apokarp, monocarp, senokarp va psevdomonokarp mevalar.* Mevalarning tarqalishi. Urug'ni hosil bo'lishi, endosperm va uning tuzilishi.

MEVA- Fructus

Changlanish va otalanish prosessi natijasida onalik tugunidan meva, urug' ko'rtigidan esa urug' rivojlanadi. Onalik tugunining o'zidan hosil bo'lgan mevaga chin meva deyiladi (olcha, shaftoli). Ba'zan mevalarning hosil bo'lishida onalik tugunidan tashqari gul o'rni yoki kosacha bargi

ishtirok etsa soxta meva deyiladi. Masalan: olma, o'rik nok, qulupnay, tarvuz, qovun. Meva qati tugunchaning devoridan hosil bo'lib, uch qavatga ega:

1. Ekzokarp
2. Mezokarp
3. Endokarp

Agar meva 1 ta onaliqaan hosil bo'lsa oddiy meva deyiladi. Masalan: Shaftoli, o'rik. Meva bir necha onaliklardan hosil bo'lsa, murakkab meva deyiladi. Masalan: maymunjon, ayiqtovon. Ba'zi o'simliklarning mevasi bir qancha gullarining onaliklaridan hosil bo'lsa tup meva deyiladi. Masalan: tut, anjir, lavlagi mevasi.

Mevalar tarkibidagi suvning miqdoriga qarab 2 ga bo'linadi. Quruq mevalar va ho'l mevalarga. Quruq mevalar tarkibida 10-15 %, ho'l meva tarkibida 70-90 % suv bo'ladi.


Quruq mevalar 2 ga bo'linadi.

1. Pishganda ochiladigan quruq mevalar

2. Pishganda ochilmaydigan quruq mevalar. Pishganda ochilmaydigan quruq mevalar:

1. Doncha-bir urug'li meva bo'lib, urug' mevasiga yopishib ketgan. Masalan: Bug'doy, sholi, arpa, jo'xori.

2. Pista-bir urug'li, pishganda ochilmaydigan quruq meva bo'lib, mevasi urug'ga yopishmagan. Masalan: qoqio't, kungaboqar, qiyog o'tlarining mevasi.



3. Qo'shaloq pista - Selderguldoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklarning mevasi: Masalan: sabzi, o'krop, kashnich, petrushka.

4. Qanotli pista-bunga manzarali daraxtlar - zarang, qayrag'och, qayinlarning mevasi.

Rasm 1.

5. Yong'oq bir urug'li pishganda ochilmaydigan quruq meva, urug'i mevaga yopishmagan bo'ladi. Mevasi yog'ochlangan toshsimon xujayradan tuzilgan. Masalan: o'rmon yong'og'i, nasha, dubning mevasi, kashtanning mevasi.

Pishganda ochiladigan quruq mevalar:

1. Bargcha.

Bir xonali, ko'p urug'li, pishganda bir tomoni bilan yorilib ochiluvchi meva. Masalan: ayiqtovon, parpi, sedana.

2. Dukkak-bob.

Bir urug'li, asosan ko'p urug'li, ba'zan 1 yoki 2 urug'li, pishganda har 2 tomoni bilan yorilib ochiladigan quruq meva. Masalan: dukkaklilar oilasiga kiruvchi o'simliklar: mosh, nuxat, loviya, beda, yeryong'oq, akasiya.

3. Qo'zoq -qo'zoqcha.

Ikki xonali, ko'p urug'li, pishganda har tomoni bilan yorilib, pastdan yuqoriga ochiluvchi quruq meva. Qo'zoqning bo'yi enidan 4 va undan ortiq marta katta. Qo'zoqchanning bo'yi eni bilan barobar bo'ladi, yoki sal kattaroq bo'lishi mumkin. Masalan: Karamdoshlar oilasi (Brassicaceae) Qo'zoq - karam, sholg'om, rediska. Qo'zoqcha-jag'-jag'.

4. Ko'sak.

Bir xonali yoki ko'p xonali, hamma vaqt ko'p urug'li, pishganda har xil usullar bilan ochiluvchi quruq meva. Masalan: G'o'za, ko'knori, gulsafsar, bangidevona, mingdevona, choy, xina.

Xo'l mevalar ham 2 ga bo'linadi: 1. Danakli xo'l mevalar.

2. Danaksiz xo'l mevalar.

Danakli mevalar bir urug'li bo'lib, mevasining ichki qavatini, toshsimon xujayradan tuzilgan.

1. Ekzokarp-tashqi.

2. Mezokarp-o'rta.

3. Endokarp-ichki.

Danaksiz mevalar ko'p urug'li bo'ladi. Masalan: uzum, anor, qovun, tarvuz, pamidor.

URUG'. URUG'NING UNIB CHIQISHI VA TUZILISHI.

Urug' o'simlikning jinsiy ko'payishi natijasida hosil bo'lib, nasl tarqatishda xizmat qiladi. Urug' asosan urug'lanish jarayonidan so'ng hosil bo'ladi. Lekin ayrim hollarda urug'lanish sodir bo'lmay ham urug' hosil bo'lishi mumkin (apomixsis).


Urug'da oziq moddalar, nasl murtagi va ularni himoya qilish uchun o'rab turgan alohida qobig'i bo'ladi.

Sporaga nam tegishi bilan o'simlik o'sib chiqadi.

Lekin urug' ma'lum bir tinim davrni o'tmay turib ko'karib chiqmaydi. Urug' sporaga nisbatan ishonchli universaldir. Taraqqiyot natijasida endosperm ham rivojlanadi, lekin murtakning kattalashishi natijasida oziq moddalar murtakning o'zida tuplanib endosperm qisqaradi, hatto reduksiyaga uchrashi ham mumkin.

Urug' onalik tugunidagi urug' kurtakdan hosil bo'ladi. Urug' kurtakning qoplag'ich to'qimasi intugumentdan, urug'ning po'sti, bola qopchig'idan urug'ning endosperma to'qimasi, tuxum hujayradan urug'ning urug' embrioni hosil bo'ladi. Bir pallalilar sinfiga kiruvchi o'simliklarning urug' pallasi 1 ta, 2 pallali o'simliklar sinfiga kiruvchi o'simliklarning urug' pallasi 2 ta bo'ladi. Bir pallali va ba'zi bir 2 pallali o'simliklar (sabzi, zig'ir, nasha, kanakunjutlarda) oziq moddalar urug'ning endospermasida to'planadi. 2 pallali o'simliklarning ko'pchiligida endosperma bo'lmaidi. Chunki ularda endosperma urug' pishguncha embrionning rivojlanishiga sarf bo'ladi. Bunday o'simliklarda zapas oziq moddalar urug'ning pallasiga to'planadi. Masalan: chigit, loviya, oshqovoq, nuxat. Nusellus oziq modda sifatida sarflanmay qolsa, u endosperm kabi vazifani bajaradi. Nusellus urug'da saqlanib qolsa, uni perisperm deb ataladi. Masalan; Chinniguldoshlar (Caryophyllaceae), Ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasi o'simliklarida.

G'alladoshlarning urug'lari ba'zan qobiqsimon bargga o'ralib, yopishib ketgan bo'ladi. Masalan: arpa, so'li, sholi. Ba'zilarida yopishmagan – bug'doy, jo'xori. Urug'lar odatda mayda bo'ladi. Ba'zi o'simliklarning urug'i katta bo'ladi. Masalan: yong'oq, palma, xurmo. Yovvoyi holdagi o'simliklarning urug'i madaniy o'simliklarning urug'iga nisbatan juda ko'p bo'ladi. Masalan: 1 tup shumgiya (zarazixa) 200 ming dona urug' bo'ladi. Yovvoyi gultojxo'roz 500.000 dona urug' beradi.



Rasm 2.

Urug'ning unib chiqashi uchun suv, T^0 , havoning O_2 bo'lishi shart. Suv ishtirokida urug'dagi oziq moddalar eriydi, kraxmal shakarga aylanadi. Suvni shimib olgan urug' shishadi, bukadi, natijada po'stlog'i yorilib, embrion o'sib chiqadi. T^0 esa, urug' xujayrasidagi fermentlarni harakatga keltiradi. Fermentlar ta'sirida oziqli moddalar eriydi. T^0 3 ta darajaga bo'linadi.

1. Eng past daraja - minimum

2. O'rta daraja - optimum

3. Yuqori daraja - maksimum

Har xil o'simliklar har-xil T^0 ni talab etadi. Masalan: Bada $+1^0 + 30^0 + 37^0$

Bug'doyning $+ 3^0 + 25^0 + 30^0$

G'o'za $+ 12^0 + 32^0 + 40^0$; Oshqovoq $+ 1^0 + 37^0 + 44^0$.

Havoning O_2 o'simliklarning unib chiqayotgan urug'ining nafas olishi uchun zarur. Unayotgan urug' kuchli nafas oladi. Nisbatan olganda odamning nafas olishi bilan teng.

Tinim holatdagi urug'lar har xil vaqtda, har xil holatda chiqishi mumkin. Bir pallali o'simliklar urug'ining tinim holati juda osonlik bilan nam va issiqlik ta'sirida rivojlanishga o'tadi. Ba'zi urug'lar sovuq ta'sirida unib chiqsa, ba'zilari iliq suvda ivitilgandan so'ng unib chiqadi. Tabiatda shunday urug'lar borki, ularning urug' po'stini mexanik yo'l bilan tilinmasa unib chiqmaydi. Ba'zi bir urug'lar unuvchanligini yuz yillargacha saqlab qoladi masalan: yantoq, ajriq.

Nazorat savollari

1. Meva gulning qaysi qismidan hosil bo'ladi va ularning xillari?
2. Urug' qanday qismlardan hosil bo'ladi?
3. Urug'ning unib chiqishi uchun qanday sharoitlar kerak?
4. Meva gulning qaysi qismidan hosil bo'ladi va ularning xillari?
5. To'pmevani tuzilishi?
6. Urug' qanday qismlardan hosil bo'ladi?
7. Urug'ning unib chiqishi uchun qanday sharoitlar kerak?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA – 16

Yopiq urug'li o'simliklar tasnifi. Bir va ikki pallali o'simliklar. Magnoliyadoshlar, lavrdoshlar.

Ma'ruzaning maqsadi:

Yopiq urug'li o'simliklar tasnifi. Bir va ikki pallali o'simliklar. Ikki pallali o'simliklardan magnoliyadoshlar, lavrdoshlar.

Reja:

1. Yopiq urug'lilarning kelib chiqishi va tasnifi.

2. Yopiq urug'lilar bo'limining xilma-xilligi sabablari va ularning geografik-ekologik tarqalishi.
3. Bir va ikki pallali o'simliklar.
4. Ikki pallalilar sinfi – Dicotyledones.
5. Magnoliyadoshlar oilasi tasnifi.
6. Lavrdoshlar oilasi tasnifi.

Tayanch iboralar: *Yopiq urug'li o'simliklar tasnifi. Bir va ikki pallali o'simliklarni farqlari. Urug' murtak. Ildiz tuzilishi. Anatomik tuzilishi. Poyalardagi o'tkazuvchi to'qima bog'lamlar. Poya va ildizlarning eniga yo'g'onlashishi. Barglarning tuzilishi. Barg qirralarining shakli, tomirlanishi. Gul qo'rg'on a'zolari. Magnoliyadoshlar oilasi: magnoliya, lola daraxtlari lavrdoshlar oilasi lotincha nomi, geografik tarqalishi, morfologik tuzilishi.*

Yopiq urug'li o'simliklar bo'limi – Agniospermatophyta yoki Anthophyta.

Yopiq urug'lilar – hozir yer yuzidagi barcha o'simliklar orasida ustunlik qilayotgan eng katta bo'limdir.

Ular bir qancha belgilari bilan o'simliklar olamining boshqa vakillaridan keskin farq qiladi.

Gulli o'simliklar yoki yopiq urug'li o'simliklar, o'simliklar dunyosining eng yosh va keng tarqalgan guruxi bo'lib hozirgi geologik davrning xukmron o'simligi hisoblanadi. Ularning tuzilishi nihoyatda xilma-xilligi, turlarning ko'pligi, kishilar va xayvonlar hayotida tutgan o'rni bilan o'simliklarning boshqa guruxlaridan keskin farq qiladi. Tarixiy manbalarga qaraganda yopiq urug'li o'simliklarning dastlabki vakillari mezazoy erasining yura davrlarida paydo bo'la boshlagan. Keyinroq davrlariga kelib ular yer yuziga keng tarqala boshlagan.

Yopiq urug'li o'simliklarning keng tarqalishiga asosiy sabab bu vaqtga kelib havoda quyuk bulutlar kamayib havo namligi kamaygan, quyosh nuri yerga ko'proq tushgan. Yalang'och urug'larning qurg'oqchilikka moslashgan igna barglardan boshqa vakillari nobud bo'lgan. Ular o'rniga tuzilishi va biologik xususiyatlari bilan yangi muxitda, ya'ni qurg'oq havoda yashashga moslashgan yangi yosh tip-yopiq urug'lilar keng tarqala boshlaydi, juda qisqa vaqt ichida ular biosferani egallab shu davrning xukmron o'simliklar guruxiga aylandi.

Yopiq urug'lilar guruxiga 200 000 dan ortiqroq tur kiradi. Bu ochiq urug'lilardan 400 marta ko'proq ekanli-gini ko'rsatadi. Yalang'och urug'lilarning taxminan 500 turi ma'lum. Yopiq urug'li o'simliklarning vakillari odam uchun oziq-ovqat, xayvonlarga yem-xashak, sanoat uchun xom ashyo manbai bo'ladi. Yer shari aholisining asosiy ovqati bug'doy, sholi, jo'xori, kartoshka, mevalardan olma, o'rik, uzum, qovun-tarvuz texnik o'simliklardan g'oz, zig'ir, lavlagi, shakar qamish va xilma xil dorivor o'simliklar yopiq urug'li o'simliklarning vakillaridir.

Yopiq urug'li o'simliklarning ko'payib, yer yuziga tarqalishiga asosiy sabab, ularning yashovchanligi, qurg'oqchilikka tez moslasha olishi. Hozirgi vaqtda ochiq urug'li o'simliklar faqat daraxt va butalardan iborat bo'lsa, yopiq urug'li o'simliklarning turli vakillari mavjud. Shu bilan birga ular organlarida metamorfozalar ham mavjud.

1. Yopiq urug'lilarning urug'i meva ichida bo'ladi, shuning uchun ham bu o'simliklar "Yopiq urug'lilar" deb ataladi.

2. Ularning changchi va urug'chidan tashkil topgan guli bor. Gullari juda xilma-xil, shakli bilan bir-biridan farq qiladi.

3. Changlanishi hamda urug' va mevalarning tarqalishi turli usullarda: shamol, hasharotlar, qushlar, suv orqali amalga oshadi. Qariyb, ularning 90%ga yaqini hasharotlar, 10%i shamol yordamida changlanadi.

4. Ularda qo'sh urug'lanish sodir bo'ladi va natijada faqat murtak emas, balki endosperm ham vujudga keladi. Ularning urug'lanishi uchun

suvli muhit bo'lishi shart emas. Bu xususiyat faqat gulli o'simliklar ya'ni yopiq urug'lilar uchun xos.

5. Yopiq urug'lilarning urug' kurtagi urug'ga, tugunchasi esa mevaga aylanadi, urug'i meva barglar ichida yetiladi.

6. Yopiq urug'lilar boshqa o'simlik guruhlari nisbatan juda murakkab morfologik va anatomik tuzilishga ega. Yopiq urug'lilarning meva qobig'i bilan himoyalanganligi va boshqa bir

qator o'ziga xos belgilari bilan ularning o'zidan oldingi, biologik-morfologik jihatdan ungacha takomillashmagan o'simliklarga nisbatan yerdagi hozirgi hayot sharoitiga yaxshi moslashgan, yuksak darajada tuzilgan o'simlik ekanligini ifodalaydi. Ularning hayot tarzi turli-tumandir.

Reproduktiv yoki generativ organlarni murakkablashishi bilan birga yopiq urug'lilarda morfologik va anatomik o'zgarishlar ham sodir bo'ladi. Barglarida simpodial tomirlanish, poyalarining o'tkazuvchi sistemasida traxeidlarni asosiy vazifasini bajaradigan suv naylari va floemadagi elaksim on hujayralar elaksim on naylarga aylanadi, uning yonida yo'ldosh hujayralari paydo bo'ladi.

Yopiq urug'li o'simliklar ikki sinfga : Ikki pallalilar va bir pallalilar sinflariga bo'linadi. Bu sinflarning har birining o'ziga xos belgi, xususiyatlari yig'indisi bilan xarakterlanadi.

Magnoliyatoifali yoki yopiq urug'li o'simliklar o'zlarining tuzilishi va tarqalishi bo'yicha nafaqat o'simliklar dunyosida, balki butun organik olamdagi eng katta gurux hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ularning 250 mingdan ortiq turi ma'lum bo'lib, 533 ta oila va 13 ming turkumni tashkil etadi. Bular shakli va xajmi bo'yicha ham eng yirik organizmlar hisoblanib, ular orasida 1 sm. dan (suvda o'suvchi Lemna) 150 metr balandlikdagi (Avstraliyada o'suvchi evkalipt) o'lgan daraxtlar mavjud. Gulli o'simliklar yoshi, kelib chiqishi bo'yicha eng yosh Mezozoy erasining bo'r davridan boshlab rivojlangan o'simliklar hisoblanadi. Hozirda ular Er yuzi bo'ylab tarqalishi va tuzilishi bo'yicha eng murakkab va xilma-xil moslashuvga ega bo'lgan o'simliklar hisoblanadi. Ular dunyoning hamma qit'alarida ekvatorning issiq tropik o'rmonlaridan tortib, Shimoliy Arktika muzliklarigacha tarqalgan. ekologik nuqtai-nazardan ham ular turli xil sharoitlarda (muhitda) o'sishga moslashgan: issiq jazirama cho'ldan eng baland tog' cho'qqilarigacha, chuchuk va sho'r suv xavzalaridan (ko'l, soy, daryo, dengiz, okean) boshlab ohakli, gipsli, toshli va boshqa jinlardan iborat bo'lgan joylarda tarqalgan. Gulli o'simliklarning bu darajada turlar sonining ko'p bo'lishi, shaklan xilma-xiligi, geografik va ekologik diapazonining kengligi ularning murakkab tuzilganligiga va qator o'ziga xos belgilarga ega ekanligiga olib kelgan.

2. Gulli o'simliklar quyidagi belgilari bilan ochiq urug'li va sporal o'simliklardan farq qiladi:

1. Urug'ning to'liq ximoyalanganligi (yopiqligi), urug' kurtagini tuguncha ichida joylashganligi.

2. Bularda urug'chining va eng muhimi mevaning hosil bo'lishidir.

3. Bularda haqiqiy gulning paydo bo'lishi bilan changlanish va urug'lanishi jarayonida qo'sh urug'lanishni amalga oshirishidir (S.Navashin, 1898).

4. Gulli o'simliklarda gametofit nasl ochiq urug'lilarga qaraganda o'ta qisqarganligi va juda tez taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi.

Gametofit nasl-ayrim jinsli. erkak gametofit-chang, chang naychasi va unda harakat qilayotgan vegetativ va generativ xujayralardan iborat. Urg'ochi gametofit-bu urug'chidagi murtak xaltasi va unda joylashgan 8-ta xujayradan (tuxum xujayra markaziy xujayra, antipod va sinergitlar) tashkil topgan. Sporofit nasl mohiyati jihatidan 2-ta o'simlikdan: asosiy o'simlik va zigota tarqqiyotidagi embriondan (murtak) iborat.

5. Ichki anatomik tuzilishi bo'yicha ular rivojlangan bo'lib, ikkilamchi yog'ochligida ksilema, floema, haqiqiy o'tkazuvchi naychalar traxeyalar va yo'ldosh xujayralarning bo'lishidir.

6. Morfologik tuzilishi jihatidan bularning xilma-xil ko'rinishiga, turli hil moslamalarga egaligi va turli hil sharoitda yashovchanligidir.

7. Hayotiy shakllarining xilma xil bo'lishi kelib chiqishi bo'yicha, eng yoshi-o't o'simliklar ekanligi, bulardagi muhim belgi hisoblanadi.

3. Gulli o'simliklarning kelib chiqishi.

Gulli o'simliklar dastlabki qazilma holdagi qoldiqlari (chaglari, barglari) Mezozoy erasining oxiri Bo'r davrining 2-yarmiga xos yotqiziq-laridan boshlab uchray boshlaydi. Umuman shu davridan boshlab gulli o'simliklarga mansub paleobotanik ma'lumotlar dunyoning ko'p joylaridan topilgan. Gulli o'simliklar filogeniyasining to'g'ri, ilmiy asosda hal qilishda dastlab qachon, qaerda,

qanday yoʻl bilan gulli oʻsimliklar paydo boʻlgan degan savolga javob berish bilan oydinlashadi. Koʻpchilik botanik (paleobotanik) olimlar tomonidan qachon degan savolga «Mezozoy» erasining oxiri boʻr davrining 2- yarimidan boshlab gulli oʻsimliklar paydo boʻlgan degan fikr bir xilda bildiriladi.

Bunga sabab oʻsha- boʻr davrida er planetasida qator kosmogonik oʻzgarishlar boʻlgan, quyosh radiatsiyasi koʻchaygan, havo harorati keskin koʻtarilgan, soʻng yana haroratning pasayishi kuzatilgan. Ayniqsa shimol tomonda erning juda koʻp qismi «Buyuk muzlik» bilan qoplangan. Bu oʻzgarishlar geograf, geolog, klimatolog, paleogeograf va boshqalar tomonidan tasdiqlangan. Shu sababdan ham boʻr davrida gulli oʻsimliklar paydo boʻlgan deb hisoblanadi. Qaerda? degan savolga hozirgacha turlicha fikrlar bildiriladi. Aksariyat paleobotanik topilmalar ekvatorga yaqin boʻlgan tropik va subtropik xududlaridan topilgan. Paleobotanik olimlar A. Krshifovovich, V.Sveshnikovalar fikricha gulli oʻsimliklar dastlab qadimgi Gondvana qitʼasining shimolida paydo boʻlgan deb qaraladi. Ular tomonidan Shpitsbergan oroli, Grelandiya hududlaridan topilgan gulli oʻsimliklarning changlari Boʻr davriga xosligi aytiladi.

Bu yoʻnalishda bir muncha toʻliq, asosli fikrlarni taniqli paleobotanik olim A.Taxtadjyan (1964), Toron R.Thorne (1976) nazariyalari: dastlab paydo boʻlgan joy qadimgi Panfik qitʼasining tropik hududlari yoki hozirgi Osiyo qitʼasining sharqiy-janubidagi orollar-Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya qitʼasining Filippin, ayniqsa Fidji orollari hisoblanadi. Chunki u erda hozirda ham gulli oʻsimliklarning eng qadimgi va sodda tuzilgan vakillari koʻp uchraydi. Maslan: magnoliya, lola daraxti va boshqalar.

Bular qanday yoʻl bilan kelib chiqqan? Degan savolga ham turli fikrlar bildiriladi. Ularning filogeniyasining hal qilishidagi muhim masala gulning paydo boʻlishini hal qilish bilan bogʻliq. Bu yoʻnalishda qator fikrlar, nazariyalar oʻrtaga tashlangan. Shulardan muhimlari quyidagilar:

1. Nemis, (Avstraliya) olimi P.Vettshteyn (1901) tomonidan fanga kiritilib keyinchalik «soxta-gul»- Pseudanthos – nazariya nomini olgan. Bu nazariyaga muvofiq gul ochiq urugʻlilar vakili boʻlgan gnetumlar (oraliq formasi efedralar) qubbasining shakl oʻzgarishdan kelib chiqqan deb qaraladi. Bulardagi qubbalaridagi ayrim jinsli boʻlishi, toʻliq 2 jinsli gulning paydo boʻlishiga zamin boʻldi deyishiga toʻgʻri kelmadi.

2. Bu nazariya ingliz paleobotaniklari Arber, Parkin va ular bilan deyarli bir vaqtda boshqa ingliz botaniklari Besi, Gallir (1869) ishlab chiqqan «Chin gul» - Euanthos nazariya. Bu nazariyaga muvofiq «2 jinsli gul-bu shakli oʻzgargan bennettitlarning 2 jinsli qubbasidir. Bennettitlarning qubbalaridagi mikrosporofil bargchalarining oʻzgarishidan changchilar, megasporafillarning oʻzgarishidan urugʻchilar paydo boʻlgan» deb talqin qilinadi.

Bu nazariyani toʻldiruvchi yana muxim asos shundaki, bennettitlar va urugʻli paporotniklarning yuqolib ketgan davri (boʻr davri) gulli oʻsimliklarning paydo boʻlishiga toʻgʻri keladi. Akademik A.Taxtadjyan (1986) yuqoridagi «chin gul» nazariyasini maʼqullagan xolda, «gul-bu shakli oʻzgargan bennettitlarning 2 jinsli qubbasidir. Bennettitlar oʻz yoʻlida urugʻli paporotniklardan paydo boʻlgan» degan toʻldirishni kiritadi. Lekin, shuni qayd etish kerakki, shu kunga qadar bu fikrlar toʻliq isbotini topmagan. Sababi, keyingi tekshirishlar shuni koʻrsatmoqdaki, gulli oʻsimliklarning koʻpchiligi uchun xos boʻlgan urugʻdagi oqsil moddalar bennettitlar urugʻida yoʻq ekanligi aniqlangan. Gulli oʻsimlikni kelib chiqishi boʻyicha yana koʻp olimlar oʻz fikrlarini bildirganlar. Masalan: Nazariyotchi botanik olim, Oʻrta Osiyo florasining taniqli tadqiqotchisi M. G. Popov «Gulli oʻsimliklar gibridizatsiya – duragaylanish» yoʻli bilan kelib chiqqan degan fikrni bildiradi. Bu gipoteza ham munozarali va koʻp isbot talab qiladi.

Ikki pallalilar sinfi – Dicotyledones.

Bu sinf vakillari quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi: murtagi ikki urugʻpallali, urugʻlari endospermsiz yoki endospermli va perspermli. Anatomik tuzilishi jihatidan birlamchi va ikkilamchi. Barglari oddiy va murakkab. Barg qirralari va shakllari har xil. Barg tomirlanishi toʻrsimon tomirlangan. Hayot shakllari daraxtsimon, butasimon, chalabutasimon va oʻtsimon. Asosiy ildizi yaxshi rivojlangan. Kambiy qavati boʻlganligidan, tanasi ikkilamchi yoʻgʻonlashish xususiyatiga ega. Naychalar toʻdasi ochiq. Gullari besh boʻlakli tipda. Gulqoʻrgʻoni koʻpincha qoʻsh boʻladi.

Biroq bu barcha belgilar emas, ammo ular ikki pallali o'simliklarni bir pallalilardan farq qilishga imkon beradi. Ikki pallali o'simliklarni birontasi bir pallalilar bilan chatishmaydi, hatto ular bir-biriga payvand qilinsa, payvand ham tutmaydi.

Ikki pallalilarning ichki tuzilishi

Bir pallalilar sinfi – Monocotyledones.

Bu sinf vakillari yer yuzining hamma joylarida tarqalgan bo'lib, tarkibida 4ta kenja sinf, 104 oila, 3000 avlod, va 63000 turni birlashtirgan.

Bir pallali o'simliklar o'ziga xos belgilari bilan ikki pallalilardan farq qiladi. Bu sinfga kiradigan o'simliklarning ichki tuzilishi ham bir-biridan farq qiladi. Ularning urug' murtagi bir pallali. Urug'lari endospermlil. Anatomik tuzilishi faqat birlamchi.



Rasm 1.

Bir pallalilarning ichki tuzilishi

Poyadagi o'tkazuvchi bog'lamlari yopiq (kambiysiz), kollateral va tartibsiz joylashgan. Ularda poya va ildizlarining yo'g'onlashmasligiga sabab po'stloq bilan markaziy silindr qismi o'rtasida ikkilamchi paydo qiluvchi to'qima – kambiy qavatining bo'lmasligidir. Lekin ayrim bir pallalilardan yog'ochsimon dratsena, yukkalarda kambiyning hosil bo'lishi bilan birga ular eniga yo'g'onlashadi. Bir pallali o'simliklarning bir vaqt qurib qolishi tufayli poyasining pastki tomonidan qo'shimcha ildizlar o'sib chiqib sochma – popuk ildizni hosil qiladi. Barglari faqat oddiy, qirralari butun, parallel yoki yoysimon tomirlangan. Barg shakllari lansetsimon, lentasimon, chiziqsimon, naychasimon, tuxumsimon bo'ladi. Gulqo'rg'oni oddiy, asosan uch a'zoli. Hayot shakllari o't, qisman daraxtsimon o'simliklar.

Hozirgi yopiq urug'lilardan ko'p mevalilar (magnoliyagullilar, ayiqtovongullilar, zirkgullilar) va ba'zi boshqa o'simliklar eng oddiy o'simliklar hisoblanadi. Ko'p mevalilarning juda ko'p oddiy belgilari xos bo'lgan tipik gulining spetsifik tuzilganligi buning isbotidir. Ularning gul o'rne konussimon, gultoji ayrim gulbargli, gulbarglari ko'p, ular spiralsimon joylashgan va hokazo. Changchi va urug'chilarning ko'pligi bu o'simliklar uchun ayniqsa xarakterli.

Ko'p mevalilar qabilasi – (Polycarpicae).

Ko'p mevalilar qabilasi 23ta oilani o'z ichiga oladi. Bu qabilaga kiruvchi daraxtlardan magnoliyadoshlar, lavrdoshlar, zirkdoshlar, o't o'simliklardan esa ayiqtovondoshlar eng tipikdir.

Ko'p mevalilarning gullari xilma-xil bo'lgani bilan ular sodda tipda tuzilgan.

Biz faqat magnoliyadoshlar va ayiqtovondoshlarni ko'rib chiqamiz.

Magnoliyadoshlar oilasi – Magnoliaceae.

Bu oilaga faqat daraxt va butasimon o'simliklar kiradi. Ularning 12 avlod 100 ga yaqin turi bor. Ularning asosiy vatani Shimoliy yarim sharimizdagi subtropik iqlimli joylardir. Barglari oddiy, ko'pincha yon bargchalari bo'ladi, yirik, navbat bilan joylashgan. Bu oila vakillarining ba'zilari doim yashil tursa, ba'zilari kuzda bargini to'kadi. Barglarida efir moy chiqaradigan ichki bezchalar bor. Bu oilaga mansub bo'lgan ayrim o'simliklarning ikkilamchi o'tkazuvchi naychalari o'rnida ochiq urug'lilar kabi teshikchalar bilan o'ralgan traxeidlar bo'ladi. Gullari ko'pincha ikki jinsli, aktinomorf bo'lib, gul o'rne cho'ziq. Gulqo'rg'on bargchalari har xil sonda, 6 tadan 12 tagacha va bundan ko'proq bo'lib, ba'zi vakillarida spiral holda joy olsa, ba'zilarida doiralar hosil qiladi, ko'pincha uch bo'lakli bo'ladi. 3tadan doira bo'lib joylashganlarida tashqisi ranggi bilan boshqalardan farq qiladi va kosacha hosil qiladi. Talaygina otaliklar, urug'kurtaklari tugunchalar chetidan joy oladigan ko'p a'zoli apokarp genitsey hosil qiluvchi meva barglari senokarp spiral bo'lib joylashgan. Gulqo'rg'on bargchalari ranglari odatda oq yoki pushti. Mevasi barglardan iborat bo'lgan g'uddaga o'xshagan

to'pmeva.

Bu oilaning tipik vakili magnoliya avlodidir.

Uning qisman Sharqiy Osiyoda, qisman Shimoliy Amerikada uchraydigan 30 ga yaqin turi bor. Magnoliyalarning ba'zi turlari Floridada yovvoyi holda o'sadi. Subtropik iqlimli rayon bo'lgan Qrim va Zakavkazda ekib o'stiriladi. Park va bog'larda, asl vatani shimoliy Amerika bo'lgan yirik gulli magnoliya (*M.grandiflora*) ekiladi. Bu o'simlik kalta bandli, barglari katta-katta va oddiy, cheti butun, qalin, yaltiroq bo'ladigan daraxtdir. Shu barglarining yonbarglari kurtakdan hali ochilmagan yosh barglarni saqlab turadi. Yakka-yakka bo'ladigan yirik-yirik gullarining diametri 10 smga boradi va bundan ham oshadi. Gullari oq yoki pushti rangda bo'lib, juda xushbo'y.

Gul o'rni cho'ziq konussimon shaklda. Unda gulqo'rg'oni 6-12ta nimrang, yirik-yirik, bargchalari uch a'zoli doira bo'lib turadi. Changdonlar cho'zinchoq bo'lib, bog'lam atrofidan joy oladi. Gul o'rni 2/3 bo'lagini yuqori qismini ginetsiy egallagan. Spiral holda joylashgan talaygina meva bargchalarining har qaysisi mustaqil onalik hosil qiladi, shu bilan birga o'rta tomirdan bukilib turadigan meva bargchasining chetlari bir-biriga qo'shilib ketadi va shu tariqa yuzaga kelgan bir uyali tugunchadan, ko'pincha 2 ta urug'kurtak joy oladi(ba'zi turlarida urug'kurtaklar 6 donagacha bo'ladi). Onalik ustunchasi yo'q, shuning uchun og'izchaning chang ushlaydigan yuzasi meva bargchasining chetida, yuqori qismida turadi. Tugunchasi ustki.

Gullash tamom bo'lgandan keyin gulqo'rg'on bargchalari bilan otalıkları tushib ketadi, ularning o'rni esa chuqurcha-chuqurcha bo'lib qoladi: gul o'rni qalinlashadi va onalıklardan kulrang tukli bir talay bargsimon meva hosil bo'ladi, ular qorin chokidan ochiladi. Shu mevalarni bo'yi 5-7 sm va bundan ko'proq keladigan cho'zinchoq "qubba" hosil qiladi. Pishib yetilgan urug'lari qizil rangda bo'ladi va etdor po'st bilan qoplanib ipdek uzun bandida pastga osilib turadi.



Rasm 2. Magnoliya daraxtining gullari.

Magnoliyagullilarning boshqa vakillaridan lola daraxti (Liriodendron) ni ko'rsatish mumkin. Bu avlod vakillari Kavkaz, Qrim va O'rta Osiyoning janubidagi Ashxobod va Dushanbedagi parklarda, hozirgi vaqtda Toshkentdagi parklarda ham o'stirilmoqda. Lola daraxtining bo'yi magnoliyaning bo'yidan biroz balandroq, 40mga yetadi. Lola daraxtining barglari oddiy, panjasimon o'yilgan bo'lib, poyada ketma-ket joylashgan. Gulqo'rg'oni uch qavat. Gullarining diametri 6-8sm, changchilari cheksiz, mevalari ikki urug'li qanotcha. Bu darxtning gullari sirtidan lolaga birmuncha o'xshaydi, lekin rangi loladek ochiq bo'lmaydi, ko'kimtir-sariq rangli bo'ladi. Lola daraxti Amerikada "oq terak" deb ataladi. Uning yog'ochidan har xil asboblar tayyorlanadi. Magnoliyagullilarning ko'pchiligi dekorativ o'simlik sifatida o'stiriladi. Bu oila vakillari eng qadimgi o'simliklardan biridir. Bo'r davriga taaluqli qazilma qoldiqlar shundan guvohlik beradi. Oddiy novdaga xos ko'pgina belgilarni saqlab qolgan oddiy tuzilishli gullar, shuningdek boshqa morfologik belgilar bu oilaning qadim zamonlardan qolganligiga mos keladi. Ularning ba'zi vakillarining yog'och qismida suv naylari yo'q, shunga ko'ra suv o'tkazuvchi elementlar hoshiyador teshikchali trxeidlardangina iborat bo'ladi, shu tufayli bularning yog'och qismi ninabarglarning yog'och qismiga juda o'xshab ketadi.¹

¹V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaro nashr: Edinburg, London Nyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.

Nazorat savollari

1. Yopiq urug'lilarga tasnif?
2. Magnoliyatoifalar yoki yopiq urug'lilar bo'limining xilma-xilliligini sabablari va ularning geografik-ekologik tarqalishi. Filogeniyasi?
3. Magnoliyadoshlar oilasiga tasnif?
4. Lavrdoshlar oilasiga tasnif

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988.-435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA 17

Ayiqtovondoshlar, zirkdoshlar, ko'knordoshlar oilalari.

Ma'ruzaning maqsadi:

Ayiqtovondoshlar, zirkdoshlar va ko'knoriguldoshlar oilalariga xarakteristika.

Reja:

1. Ayiqtovondoshlar oilasi tasnifi.
2. Zirkdoshlar oilasi tasnifi.
3. Ko'knoriguldoshlar oilasi tasnifi.

Ayiqtovondoshlar oilasi – Ranunculaceae.

Bu oila 45 turkum 2000 dan ortiq turni o'z ichiga oladigan katta oila bo'lib, ko'pchilik vakillari bir va ko'p yillik o'tlardir. Ba'zan buta va lianasimon butalar ham uchraydi. Ularning barglari navbatlashib joylashgan, ko'pincha panjasimon yoki patsimon qirqilgan yon barglari bo'lmaydi. Bu oila vakillarining gullari har xil tuzilgan: ba'zilarida aktinomorf, ba'zilarida zigomorf bo'lsa, goho siklik, goho doirali bo'ladi. Ularning guli shingil va boshhoqsimon gul to'plamlaridan iborat yoki yakka holda joylashgan. Gullari ikki jinsli. Gulqo'rg'oni murakkab ba'zan oddiy (qarg'atuyoqlar-Anemone). Gulkosa 5ta, ba'zan 3-20 ta, gultoji ochiq rangli, toj bargi 2-20 ta, ba'zan mayda bo'lib,

shiradonlarga aylangan. Onaligi ko'p, erkin, changdoni esa gulning ichkarisiga yoki tashqarisiga qaragan bo'ladi. Genitseyi ko'p, ba'zan bitta, apokarp tipda tuzilgan, onaligi bir meva bargli. Tugunchasi ustki, bir uyali, 1ta yoki bir nechta urug'kurtakli.



Rasm 1.

Ayiqtovondoshlarning asosiy gul tuzilishi

Bu oila vakillarining xarakterli belgisi otaliklarining magnoliyadoshlar oilasining vakillaridagi singari cheksiz bo'lib, ko'pincha spiral joylanishi, onaligining qariyb hamma vaqt erkin bo'lishidir. Ayiqtovondoshlarning to'qimasida efir moyi bezlari bo'lmasa ham, lekin tarkibida chorva mollari uchun zaharli bo'lgan alkaloidlar, glikozidlar, saponinlar bo'ladi. Shuning uchun bu oila vakillarini mollar xush ko'rib yemaydi, ko'plari zaharli o'tlar hisoblanadi. Ovqat uchun faqat bir turi sedana (*Nigella sativa*) ekiladi.

Ayiqtovondoshlar oilasi ba'zi turlarining mevasi bargsimon bo'lsa, ba'zilarining mevalari ochilmaydigan yong'oqchalar holida bo'ladi. Ba'zan rezavor va ko'sakcha mevalilari ham uchraydi.

Bu oilaga kiruvchi tipik vakillardan biri **ayiqtovon (*Ranunculus*)** avlodidir. Bu avlod 600 turga ega. Bular orasida o'rta mintaqada eng ko'p uchraydiganlaridan *zaharli ayiqtovon (R. sceleratus)*, *o'rmalovchi ayiqtovon (R. repens)*, *o'yuvchi ayiqtovon (R. acer)* ni aytib o'tish mumkin.

O'rmalovchi ayiqtovon (*Ranunculus repens*) .

Nam joylarda ko'p uchraydigan o't bo'lib, ildiz yonidan chiqqan uchta-uchtalik yopirma barglari (rozetkasi) bor. Gullari simoz tipda shoxlanadigan yopiq to'pgulda joylashgan. Gulning qo'sh gulqo'rg'oni bor. Bu gulqo'rg'on, 5 ta gulkosacha va och sariq rangli 5 ta gultojbarglardan tashkil topgan. Har qaysi gulbarg tagida nektardonli kichkina chuqurcha bor, bu chuqurcha sariq rangli tangacha bilan bekilib turadi. Otaliklar soni cheksiz sonda bo'lib, spiral holda joylashgan. Ulardan yuqoriroqda talaygina onaliklar joylashgan. Har qaysi onalik bitta meva bargchasidan iborat bo'lib, ularda ko'zga arang ilashadigan ustuncha bor. Bir uyali tugunchada bitta urug'kurtak bo'ladi. Mevasi ochilmaydigan quruq meva – yong'oqchadan iborat.



Rasm 2.

O'rmalovchi ayiqtovon – *Ranunculus repens*

Dala ayiqtovoni (*R. parvensis*).

Bir yillik o't o'simlik, bo'yi 10-30 sm. Mevalari ilmoqli tugunchalarga ega. zararli va zaharli begona o't hisoblanadi.

Zaharli ayiqtovon (R. Sceleratus).

Ko'p yillik o't o'simlik, bo'yi 20-55 sm, poyasi yumshoq va kovak. Botqoqlarda, daryo va ariq bo'ylarida o'sadi.

O'yuvchi ayiqtovon (R. Acer).

Ko'p yillik, zaharli o't o'simlik, bo'yi 80 sm gacha yetadi. Barglari barmoqsimon qirqilgan. Ildizoldi barglari uzun bandli, poyaga o'rnashgan barglarining bandi qisqa bo'lishi ham mumkin. Daryo bo'ylari, zax yerlarda va ariq bo'ylarida o'sadi.

Severtsev ayiqtovoni (R. Severtsovii).

Ko'p yillik o't o'simlik. Adir va tog' etaklarida tarqalgan.

Bu oilaga: *Adonis yoki suvur o't - Adonis, sedana - Nigella, isparak - Delphinium, akonit - Aconitum, uchma - Ceratocephalus* kabi avlodlar ham kiradi.



Rasm 3. R. aquatilis

R. bulbosus

R. ficaria

R. multifidus

Uchma avlodi (Ceratocephalus).

Ular erta bahorgi, efemer o't o'simliklar. Barglari uchta qirqilgan va ildiz oldiga o'rnashgan. O'simlikning bo'yi 1dan 10 smgacha, poyasi bargsiz. Gullari aktinomorf, ikki jinsli, hasharotlar yordamida changlanadi. Gulkosa va gultojbarglari 5 tadan, erkin o'sgan, changchilari 5 -15 tagacha, urug'chisi cheksiz. Gullagan davrida hayvonlar uchun zaharli hisoblanadi. O'zbekistonda 2 turi: *C. orthoceras* va *C. falcatus* uchraydi.

Trollius avlodi (Trollius). Ular ko'p yillik o't o'simlik. Barglari oddiy panjasimon.

Kalujnitsa avlodi (Caltha). Erta bahorda gullaydigan zaharli o't o'simlik. Nam yerlarda o'sadi. Botqoq kalujnitsasi (*C. palustris*) gullari yirik va sariq rangda.

Anemone avlodi (Anemone) ko'p yillik o't o'simlik. Barglari uchta yoki panjasimon, poyaga ketma-ket o'rnashgan, ildizoldi barglari ham bo'ladi.

Bandchali anemone (A. petilosa) bo'yi 20 sm atrofida bo'ladi. Efemorand, erta bahorda gullaydi, gultojbarglari sariq rangda. Zaharli o'simlik.

Adonis avlodi (Adonis).

Bu avlodning hamdo'stlik mamlakatlarida tarqalgan 11 turidan 9 tasi O'rta Osiyoda uchraydi. Ularning jamisi ko'p yillik o't o'simlik. Gul qo'rg'oni murakkab, to'g'ri gul, ikki jinsli, kosachabarglari 5 ta birlashmagan, tojbarglari cheksiz, changchi va urug'chilari cheksiz. Mevasi ko'p urug'li. O'zbekistonda bu avlodning *turkiston suvur o'ti (A.chrysocastus)* deb yuritiladigan turi Zarafshon, Oloy va Turkiston tizma tog'larining mayin tuproqli yon bog'irlarida keng tarqalgan. U baland bo'yli, yirik sariq gulli, o'ziga xos xushbo'y hid taratadi. Tibbiyotda dori-darmon olish uchun ishlatiladigan adonizin shu o'simlikdan olinadi.

Akonit avlodi - (Aconitum).

Bu avlod vakillari ildizlari tugunaksimon, bo'rtgan, poyasi tik chiqqan, barglari panjasimon qirqilgan, yirik gulli o't o'simliklar bo'lib, ularning gullari noto'g'ri, ko'k, binafsha, sariq ba'zan oq

ranglidir. Gulqo'rg'oni tojsimon. Mevasi ko'p urug'li, bargsimon bo'ladi. Akonitning barcha turlarida akonitin alkaloidi bor. Tanasining barcha qismi zaharlidir. Ko'pincha dorivor va dekorativ o'simlik sifatida ekib o'stiriladi. Dori bo'ladigan o'simliklar orasida bahor suvur o'ti (*Adonis vernalis*) hammadan ko'proq ishlatiladi. Bularning yer ustki qismidan yurak kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan preparat tayyorlanadi. Pionlar, isparaklar manzarali o'simliklar sifatida ekib o'stiriladi.



Rasm 4. Akonit o'simligi

Delphinium avlodi (Delphinium) - Isparak avlodi. Bir va ko'p yillik o't o'simlik. Barglari chuqur qirg'ilgan. Gullari zigomorf, sochoq to'pgulga yig'ilgan. Hamma vakillari tarkibida delfinin moddasini saqlaydi. Gullari chiroyli bo'lgani uchun ayrim turlari manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.

Klematis avlodi (Clematis). Bu avlodning vakillari liana, chala buta va daraxtsimon shakllarda mavjuddirlar. Sharq klematisi (*C. orientalis*) iloncho'p deb ataladi, bu o'simlik to'qaylarda yovvoyi holda uchraydi. Poyasi sut shiraga boy. Urug'lari uzun tukchalarga ega.

Taliktrum avlodi (Thalictrum) ning vakillari ko'proq tog'larda tarqalgan bo'lib, shamol yordamida changlanadi.

Sallaguldoshlar - *Paeoniaceae*

Yovvoyi sallagul

Paeonia hybrida Pall. O'zbekistonda soni qisqarib borayotgan kamyob, manzarali tur.

Qisqacha tavsifi.

Bo'yi 25-75 sm oralig'idagi ko'p yillik o't. Ildizi urchuqsimon yo'g'onlashgan. Barglari bandli, ikki karra uch bo'lakli, bo'laklari qalami-nashtarsimon. Gullari yirik, diametri 6-10 sm. Mevasi tarvaqaylagan, qalin tukli. Urug'i yaltiroq, qora rangli. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda mevasi yetiladi.

Tarqalishi.

Chotqol, qurama, Zarafshon va Hisor tizmalarida tarqalgan (Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari). Qirg'iziston, Qozog'iston, G'arbiy Sibirda hamda Jung'oriyada ham uchraydi.

O'sish sharoiti.

Dengiz sathidan 1500-2000 m balandlikda chirindili mayda jinsli tuproqlarda va daraxtlarning tagida o'sadi.

Soni.

Tabiatda 200-250 tupa borligi aniqlangan bo'lib, bulardan ayrimlari yo'qolib ketgan. Masalan, 1960 yillargacha Chotqol biosfera qo'riqxonasi (Boshqizilsoy)da o'sib turgan sallagullar butunlay yo'qolib ketgan. Ular faqat qo'riqlanadigan va chiqib bo'lmaydigan joylarda saqlanib qolgan.

Ko'payishi.

Urug'idan ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari.

Gullarining uzib olinishi va tuplarining ildizi bilan qazib olib hovlilarga ekilishi hamda chorva mollarining ko'plab boqilishi oqibatida kamayib bormoqda.

Madaniylashtirilishi.

Ko'pgina botanika bog'larida muvaffaqiyatli ravishda ekib kelinmoqda.

Muhofaza choralari.

Qizil kitobga kiritilgan. Chotqol biosfera qo'riqxonasining Maydantol bo'limida qo'riqlanadi.

Zirkdoshlaroilasi –Berberidaceae tashqi ko'rinishi har xil bo'lgan 150 ga yaqin o'simliklar turi, asosan butalar, qisman shingilsimon to'pgulli ko'p yillik o'tlar. Gulqo'rg'on barglari ikki xil bo'ladi, gul bargsimon tashqi va gul bargsimon ammo nektardonlari bor ichki barglar. Tashqi va ichki barglar xuddi otalıklar singari uch a'zoli doiralar bo'lib, joy oladi. (doiralar oltitacha shulardan ikkitasi nektardonli bo'ladi). Bitta meva bargchasidan hosil bo'lgan birdan bir onalıklarning bir uyali ustki tugunchasida bittadan yoki bir nechtagacha urug' kurtaklar bor. Urug' kurtaklar qorin choki bo'ylab, yoki shu choktagida yotadi. Mevasi rezavor meva yoki yong'oqcha.

Bu oilaning tipik vakili zirk avlodidir. Oddiy zirk butasimon o'simlik bo'lib, shaklan ovalga uxshagan barglarining chetlari arrasimon, ular kalta tortgan yon novdalardan chiqadi. Uzun novdalarning barglari uch ayrili tikanga aylangan. Sariq rangi gullari osilib turadigan shingilsimon to'pgullarni hosil qiladi. Bir uyali ustki tugunchasidan och qizil sersuv nordon etli chuzinchoq meva paydo bo'ladi. Zirk asosan dekorativ o'simlik sifatida ekib o'stiriladi. Zirk barglaridan tayyorlangan spirtli damlama ginekologiyada bachadon muskullar tonusini ko'tarish, to'qqandan so'ng ba'zi kasalliklarini davolashda, qon ketishini to'xtatishda, o't xaydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Ildizidan berin alkaloidining tuzi tibbiyotda surunkali gepatit, gepatoxolesistit va o'tpufagidagi tosh kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Ko'knoridoshlar oilasi – Papaveraceae.

Bu oilaning aksariyat qismi bir va ko'p yillik o'tlardir, ularda, odatda bo'gimlarga bo'lingan sut naylari yoki sut hujayralari bo'ladi. O'simlikda sutsimon shira bo'lmasa, maxsus moddsi bor cho'ziq hujayralar yuzaga keladi. U 26 avlodga oid 250 turni o'z ichiga oladi. O'rta Osiyoda 8 turkumga oid 35 turi uchraydi. Bu oilaga kiradigan o'simliklar asosan o'tlar, qisman butalardir. Barglari ko'pincha patsimon qirqilgan, navbatlashib yoki qarama-qarshi joylashgan, yonbargsiz.

Gullari yakka-yakka yoki to'pgulda joylashadi. Aktinomorf ba'zan zigomorf. Kosachabargi 2 ta, gultojbargi 4 ta, ba'zan 6ta, kosachasi faqat g'unchaligidagina bo'ladi, guli ochilishi bilan tezda tushib ketadi. Otaligi 2-4 ta, yoki cheksiz, doira bo'lib joylashgan. Onaligi 2 ta yoki bir nechta mevabargli, senokarp tipda, tugunchasi ostki yoki qisman yarim ostki, bir uyali, mevasi ko'p urug'li ko'sakcha yoki yong'oqchadir. Urug'lari mayda, endospermlı, hasharotlar vositasida changlanadi.

O'zbekistonda oilaning ko'knor (Papaver) va qizg'aldoq (Roemeriya) turkumlariga mansub turlar keng tarqalgan.

Bu oilaning eng tipik vakillaridan biri – **Ko'knoridir (Papaver)**. Bu avlodning yer yuzida 110 dan ortiq turi keng tarqalgan. Hamdo'stlik mamlakatlarida 50 tur, shu jumladan, O'zbekistonda 5 turi tarqalgan bo'lib, shundan bitta *Papaver povoninum* turi madaniylashtirilgan. U bir yillik o't, poyasi sut suyuqligi aralash mum qatlami bilan qoplangan bo'lib, ko'kimtir zangori rangli. U bo'yi 1mga yetadi. Uning gullari yirik, ko'pincha binafsha, pushti, va oqish rangli, ko'sakchasi yirik, bochkasimon va silliq, tarkibida 26 xil alkaloid saqlaydi, urug'lari mayda, ko'p va seryog' bo'ladi. Ba'zan otalıklarining bir qismi metamarfozlanishi sababli gulbarglari to'rttadan oshiq bo'ladi, doira bo'lib turadi. Onaligi 8-12 meva bargchadan tuzilgan bo'lib, kattakon tugunchasi va chetlari go'yo shu'laga o'xshab, parrak-parrak bo'lib turadigan disksimon tumshuqchasi bor. Urug'ining 50% ini yog' tashkil etadi. Nonvoychilikda ishlatiladi.

Ko'sakchasi ko'kligida ko'ndalanggiga tilinganda chiqqan oqimtir sut-shira havoda qo'ng'ir tus oladi. O'simlik mevasida 1,5-2,5 % alkaloidlar bo'ladi. Shu modda "opiy" yoki "chakida" deb ataladi. Opiy tarkibidagi alkaloidlar 2-20 %ni tashkil etadi. Shu tarzda olinib ko'paytirilgan opiylar farmatsevtika sanoatiga jo'natiladi. Undan tibbiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan morfin, kodein, papaverin singari alkaloidlar olinadi. Ulardan tayyorlangan dorilar og'riq qoldirishda, yo'talga qarshi, me'da-ichak kasalliklari; gipertoniya, bronxial astma va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Bulardan tashqari organik kislotalar va fermentlar glikozidlar ham uchrab turadi. O'simlikning urug'idan tashqari boshqa organlari ham zaharli hisoblanadi.

Ko'knorining mayda-mayda bo'ladigan urug'larida 40% dan ortiq, goho 50% moy bo'ladi. Ko'knori moyi ma'zali va hadeganda ochilmaydigan bo'lganligidan juda yaxshi masalliq

hisoblanadi. Ko'knori moyi qizitmasdan presslash yo'li bilan qora rangli badxo'r fraksiya ajratib olinadi.



Rasm 5. 1) Qizil gulli ko'knor (*Papaver parsoninum*); 2) Ko'knor o'simligi (*Papaver somniferum*)

Ko'knor (*P. somniferum*) bir yillik o't o'simlik. bo'yi 1m gacha o'sadi. Bu o'simlik oqimtir sut shiraga boy. Sut shiraning tarkibida morfin, kodein, papaverin, tabeinga o'xshash 26 xil alkaloid bor. Ko'knor urug'ining tarkibidan 50 % gacha yuqori sifatli yog' olinadi va ovqat uchun ishlatiladi.

Qizilgulli ko'knor (*P. parsoninum*).

Bir yillik o't o'simlik bo'lib, guli qizil rangda. Apreldan boshlab chamandek ochiladigan va keng tarqalgan o'simlik. *Sharq ko'knorisi (P. orientalis)*. U bo'yi 1m ga yetadigan tukli, ko'p yillik o't o'simlik. Toj barglari yirik, uzunligi 9 sm, to'q qizil rangli, tag tomoniga yaqinlashgan sari qora dog'li bo'la boradi. Manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

Sharq ko'knorisi (*P. orientales*) ko'p yillik o't o'simlik. Bo'yi 1m gacha o'sadi. Gullari yirik va chiroyli, manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi.

Remeriya avlodi (*Roemeria*).

Bu avlod vakillari barglari odatda ikki karra patsimon, chuqur qirqilgan, kichikroq, bir yillik, ikki va ko'p yillik o't o'simliklardir.



Qizg'aldoq (*R. refracta*).

Qizil gulli ko'knordan qizil toj bargning ostida qora dog'i bo'lishi va mevasining dukkakga o'xshashligi bilan farq qiladigan bir yillik o't o'simlik.

Sharq qizg'aldog'i (*R. orientalis*) esa toj bargi binafsha rangli, pastida dog'i yo'q, bo'yi 5-20 sm o'simlik.

Rasm 6.

Glaucium avlodi (*Glaucium*). Bir va ko'p yillik o't o'simlik. Ildizi sut shirasini saqlaydi. *G. elegans* va *G. fimbriigerum* turlari keng tarqalgan. Zaharli o'simlik. Tog' etaklari va adirlarda o'sadi. Bu o'simlikning barglari va poyasi oqimtir tusda.

Ko'knorining opiy beradigan navidan tibbiyotda dori sifatida ishlatiladi. Yog' beradigan navining urug'ida 48% gacha yog' bo'ladi. Urug'idan yog' olishdan tashqari, konditer sanoatida ham ishlatiladi, chunki uning tarkibida alkaloid bo'lmaydi. Lolaqizg'aldoqdan konditer sanoatida ishlatish uchun bo'yoq olinadi. Uning toj barglarini xalq tibbiyotida qizamiq kasalligini davolashda keng ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. Ayiqtovondoshlar oilasiga tasnif?
2. Zirkdoshlar oilasiga tasnif?
3. Ko'knoriguldoshlar oilasiga tasnif?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elektron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA – 18

Chinniguldoshlar, grechixadoshlar, choydoshlar oilalari.

Ma'ruzaning maqsadi: Chinniguldoshlar, grechixadoshlar, choydoshlar oilalariga tasnif va ularning asosiy vakillari to'g'risida tushuncha berish.

Reja:

1. Grechixadoshlar oilasiga tasnif.
2. Choydoshlar oilasiga tasnif.
3. Chinniguldoshlar oilasiga tasnif.

CHINNIGULDOSHLAR TARTIBI (CARYOPHYLLALES)

Asosan o't o'simliklar, kam hollarda buta o'simliklari kiradi. Chinnigullilar tartibiga mansub oilalar oddiy va murakkab gulqo'rg'onli bo'ladi. Oddiy gulqo'rg'onli o'simliklarning gullari ko'rimsiz, ko'pincha shamol yordamida changlanadi, murakkab gulqo'rg'onli o'simliklarda esa tiniq rangdor, hasharotlar yordamida changlanadigan bo'ladi. Oilani birlashtiradigan xususiyat bu – murtagining bukilganligi va perispermning mavjudligi (endosperm yo'q).

Chinnigullilar (*Caryophyllaceae*) oilasi. Ko'p yillik va bir yillik o'tlar va butalar bo'lib, shoxlanishi dixazial tipda, barglari poyada suprotiv, kam hollarda navbat bilan joylashadi, yon bargchasiz yoki yon bargchali ham bo'lishi mumkin. Gullari dixaziy to'pguliga yig'ilgan yoki yakka, to'g'ri, ikki jinsli, yoki bir uyli, ba'zan ikki uyli bo'ladi. Gulqo'rg'oni murakkab, kam hollarda oddiy,

5 qismli. Kosachabarglari birikib o'sgan yoki alohida birikmagan, 4-5 tishchali. Tojibarglari kosachabarglarning tishchalari bilan navbatlashadi, 4-5 ta bo'ladi. Changchilar soni 10 ta yoki 5 ta bo'ladi. Urug'chisi bitta, 2-5 meva bargchadan tashkil topgan, tugunchasi ustki, bir uyali, ustunchasi erkin yoki birlashib o'sgan. Mevasi – ustki lizikarp tipdagi ko'sak meva yoki ustki lizikarp rezavor meva. Urug'i perispermli.

Chinnigul (*Dianthus*) turkumi. Mazkur turkum vakillari ko'p yillik va bir yillik o'tsimon o'simliklar, kam hollarda – chala butalar. Gullari yakka yoki soyabonsimon dixaziy to'pgullariga yig'ilgan. Kosachasi naysimon, yuqorisida 5 tishchali bo'ladi. Tojibarglari bo'yalgan, yuqori qismi duxobasimon bo'ladi. Changchilar soni 10 ta, ustunchasi 2 dona. Urug'lari ko'p sonli.

Turk chinniguli (*D. barbatus*). Ko'p yillik o'simlik. Gullari bo'yalgan, ko'pincha to'q ranglarda. Gulli o'simlik sifatida ekib o'stiriladi.

Ersovun (*Saponaria*). Bu turkumga ko'p yillik yoki bir-, ikki yillik o't o'simliklar kiradi.

Dorivor yersovun. (*S. officinalis*). Ko'p yillik, gullari ikki jinsli, kosachabarglari shishgan, tojibarglari oq yoki pushti rangda. Ildizlari 58% texnik va 36% toza saponin tutadi.

Bo'ritikon (*Acanthophyllum*). Turkum vakillari ko'p yillik turlar, saponinlarga boy bo'lgan ildizpoya va yo'g'on ildizli.

Etmak. Ildizpoyasi uzun, tik poyali, asosidan tarmoqlangan, kuchli yo'g'onlashgan bo'g'inli va uzun shoxchali. To'pguli ro'vaksimon, gullari gul o'qining uchki qismida dixaziylarga yig'ilgan. O'simlik O'rta Osiyoning quruq qiyaliklarda, chala cho'llarda uchraydi.

Grechixadoshlar oilasi – Polygonaceae

Bu oila 30 avlod, 800 ga yaqin turdan iborat. Bu oila vakillari asosan shimoliy mintaqalarda o'sadi. O'zbekistonda 7 avlod, 150ga yaqin tur mavjud. Bu oilaga asosan o't, buta, tropik mintaqalarda daraxt o'simliklar kiradi. Barglari qarama-qarshi joylashgan, ikkita pardasimon yon barglari birikib o'sib, naycha hosil qiladi.

Gullari mayda, to'g'ri, ikki jinsli yoki bir jinsli, ko'pincha murakkab tuzilgan ro'vak yoki boshoqsimon to'pgulga yig'ilgan. Gullari anemofil yoki entomofil. Nektar saqlovchi qo'sh bezlari tojibarglarning tub qismida joylashgan. Gulqo'rg'oni oddiy kosachasimon yoki tojsimon, oq, yashil, pushti rangli, 3-6 tagacha, ba'zan o'zgarib, urug'i bilan saqlanib qoladi. Changchilari 6-9 tagacha, ikkita bargchadan tuzilgan. Tugunchasi ustki, bir uyali.

Mevasi ko'pincha uch qirrali, yong'oqcha, ko'plarida gulqo'rg'oni bilan o'ralgan, bu esa ularning shamol yordamida tarqalishiga moslashgan. Urug'ida unsimon endosperm rivojlangan.

Grechixadoshlar oilasiga mansub o'simliklarda ko'p miqdorda antotsionlar, pigmentlar, flavanoidlar, antraglikozidlar, oshlovchi moddalar saqlanadi.

Grechixa avlodi (*Fagopyrum*).

Bu avlodning vakillari bir yillik, ko'p yillik, o'simliklardir. Ularning otaligi 8ta, onaligi 3 meva bargli va 3 tumshuqli, mevasi 3 qirrali yong'oqcha bo'ladi. Gulqo'rg'oni 3 a'zoli, ikki doiradan, androtseyi ham 3 a'zoli, 2 doiradan joy olgan, genitseyi 3 a'zoli senokarp holida bo'lgan trimer gulni asosiy gul tipi deb hisoblansa bo'ladi. Bu oilaning ba'zi vakillarida otaliklarining soni 9 tagacha bo'ladi va bundan ham oshadi.

Grechixa – *F. sagittatum* .

Bir yillik o't bo'lib, poyasi shoxlanib o'sadi va bo'yi 70 sm gacha boradi. Bu o'simlik yuraksimon uchburchak yoki yuraxsion nayza barglar chiqaradi. Gullari qalqonsimon to'pgullarda joylashgan. Guli 5 bo'lakli oq yoki pushti rangli oddiy gulqo'rg'ondan iborat. Onaligida 3ta ustunchasi bor, ularda boshoqsimon tumshuqcha bo'ladi. Mevasi 3 qirrali, silliq yong'oqchadir. Urug'i kraxmalli, doni uchun ekiladi va yaxshi asal beruvchi o'simliklardan hisoblanadi. Urug'i ovqatga ishlatilgani uchun "shimoliy guruch" ham deyiladi.

Tatar grechixasi – *F. tataricum*. Begona o't sifatida uchraydi.

Ravoch – *Rheum*.

Ko'p yillik, yo'g'on ildizpoyali o't o'simlik. Yer usti poyasining bo'yi 2 m gacha o'sadi. Barglari ildiz oldiga o'rnashgan, katta, barg bandi uzun va go'shtdor bo'lib, organik kislotalarga vitaminlarga hamda mineral tuzlarga boy hisoblanadi. Bahorgi barglari ovqatga ishlatiladi va kompot, murabbo tayyorlanadi. Grechixalardan faqat ikki otaligi bilan farq qiladi, shunda guldagi otaliklar atigi 8ta bo'lib qoladi, shu bilan birga ichki gulqo'rg'on doirasining bir bargi yo'qolib, gulqo'rg'oni 5 a'zoli bo'lib qoladi.

Rheum tataricum

R. maxima, *R. tataricum* turlari ko'p uchraydi, bularning ildizlarida 10% gacha tannid moddasi bo'ladi. Ravoch turkumining O'rta Osiyoda 12 turi tarqalgan. O'zbekistonda ravoch turlari dorivor, oshlovchi, bo'yoqbop va sabzavot o'simligi sifatida foydalaniladi. *Maksimovich ravochi* (*Rh. maximovich*)ning balandligi 40-100 sm, poyasi dag'al, tubi zangsimon qo'ng'ir, barg qini bilan o'ralgan. Bo'yi 40-85 sm keladigan *yirik mevali katta bargli ravoch* (*Rh. macroarpum*) va poyasi tubidan shoxlangan, silliq poyali, balandligi 50-100sm *yuraksimon ravoch* (*Rh. cardatum*) keng tarqalgan.

Otquloq avlodi – Rumex. Bu avlodning O'rta Osiyo tog'larida 23 turi tarqalgan bo'lib, ularning aksariyat qismi ko'p yillik o't-o'simlik. Gullari ikki va ayrim jinsli. Bir yoki ikki uyli o'simliklarning turlari tog'lar, zax yerlar va ariq bo'ylarida o'sadi. O'zbekistonda 10 ta turi uchraydi. Otquloq ildizida 18% gacha teri oshlash sanoatida keng qo'llaniladigan oshlovchi tannid moddasi bor. Uning *mayda bargli otquloq* (*R. crispus*), *tugunchali otquloq* (*R. conglomeratus*), *Suriya otquloq'i* (*R. syriacus*), *shovul yoki nordon otquloq* (*R. acetosa*), *oddiy otquloq* (*R. confertis*) va boshqa turlari tarqalgan. Shovul otquloq (*R. acetosa*) ovqatga ishlatiladi.



Rasm 1.

Rumex obtusifolius *Rumex crispus*

Toron avlodi – Polygonum

Polygonum scandens L

Toron turkumining 56 turi O'rta Osiyoning cho'l, adir, tog' va yaylov zonasida keng tarqalgan. Ular bir yillik va ko'p yillik o't, buta va yarim butacha.

Polygonum polymorphum.

Turkumning asosiy turlari: *Oshlovchi toron* (*R. cariarium*). Bo'yi 60-150 sm. Ildizi yo'g'on, undan bir nechta poya chiqadi. Barg pardasi qoramtir, qo'ng'ir, 20-25 mm. To'p guli yirik, kuchli shoxlangan ro'vak, uzunligi 35 sm gacha, iyun, avgust oylarida gullab urug'laydi. Tog' zonasidagi toshloqli yoki sernam mayin tuproqli yerlarda o'sadi. Toron ildizidan 20 % gacha oshlovchi modda olinadi. Toronning O'zbekistonda *kelintil toroni* (*P. persicaria*), *qamchigul toroni* (*P. lapatifolium*) singari turlari keng tarqalgan.¹

Qush tili, qizil tasma – P. aviculare.

Bir yillik o't-o'simlik, poyasi yarim yotib o'sadi. Bu o'simlik hamma yerda mavjud, mollar va parrandalarga beriladi, meditsinada undan qon to'xtatadigan dori olinadi.

Polygonum aviculare

Suv qalampir – P. hydropiper.



¹Hamidov A., Nabiev M.M. "O'zbekiston o'simliklarini aniqlash uchun". -T.:1987.-235 b.

Bir yillik o't o'simlik, ariq yerlari va zax yerlarda o'sadi. Bu o'simlikdan qon to'xtatadigan dori olinadi. Gullari va barglari qalampirning mazasini bergani uchun bu o'simlik *suv qalampiri* . deyiladi *Polygonum hydropiper*.

Tomir dori – P.amphibium.

Rasm 2

Ko'p yillik ildizpoyali o't o'simlik. Ildizpoyasida 18 %, barglarida 10 % gacha dubil moddasi bo'ladi, meditsinada undan dori olinadi.

Polygonum affine.

Juzg'un avlodi (Calligonum) cho'llarda o'suvchi buta yoki daraxt o'simliklardir. Barglarining shakli o'zgarib, ipsimon shaklga kirgan. Pizil qandim (*C. caput Medusae*) va to'rsimon juzg'un (*C. canselatum*) ko'chma qumlarni mustahkamlash va to'xtatish uchun ekilmoqda.

*Tomir dori (P.amphibium), suv qalampiri (P.hydropiper), qiziltasma (P.aviculare), toron (P.coriarum)*lar tibbiyotda keng qo'llaniladi. Ulardan olingan moddalar turli kasalliklar qatori qon to'xtatishda ishlatiladi. *Xitoy yoki tangut ravochi (Rheum palmatum var. tanguticum)* ko'p mamlakatlarda madaniy holda o'stirilib, tibbiyotda ich yuritish sifatida sano bargi bilan bir qatorda ishlatiladi.

Shovullar (Rheum), taram-taram ravoch (R.undulatum), qora dengiz ravochi (R. rhaponticum) sabzavot sifatida ekiladi. Ular qandolatchilikda ham ishlatiladi. Ko'pgina grechixadoshlar serasal o'simliklardir.

Choydoshlar oilasi – Theaceae.

Bu oila vakillari ko'pincha doimiy yashil daraxt yoki butalardir. Ularning barglari oddiy, chetlari tekis, birin-ketin joylashgandir. Yonbarglari bo'ladi yoki bo'lmaydi. Gullari to'g'ri, ikki jinsli yoki ayrim jinslidir. Kosachabargchalari 5-7 ta . Tojibarglari 5ta, ba'zan 4ta yoki bir qancha va kosachabarglari singari tagi qo'shilib o'sgan yoki erkin bo'ladi. O'taligi ko'pincha cheksizdir, 5 ta bog'lam tashkil etadi va tojibarglarining tagiga birikkan bo'ladi. Onaligi 2 yoki ko'p, ko'pincha 3-5 mevakbargli, tugunchasi ustki, ikki va ko'pincha 3-5 uyali, mevasi ko'sakcha yoki kamdan-kam rezavor mevadir. Bu oila 30 avlod 400 turdan tashkil topgan bo'lib, uning vakillari tropik va subtropik mamlakatlarda tarqalgan. Muhim avlodlariga choy (*Thea*) va kameliya (*Camellia*)lar kiradi.

Choy avlodi (Thea).

Bu avlod vakillari doimiy yashil buta yoki kichikroq daraxt o'simliklardir. Ularning barglari etli, ovalsimon, uchiga tomon ensizlangan va qisqa bandlidir. Barglari yoshligida tukchalar bilan qoplanib turadi, keyinchalik barg yetilganidan keyin tuklari to'kilib, yalang'och bo'lib qoladi. Gullari bittadan, tojibarglari 5-9 ta, tagi tutash, oq va sarg'ish, pushtiga moyilroq rangli bo'ladi.

Mevasi yog'ochlangan ko'sakcha, har qaysi uyasida bittadan olchadek urug'i bo'ladi.

Choy o'simligi asli Sharqiy-Janubiy Osiyodan chiqqan , bu o'simlik asosan tropik va subtropiklarda (Hindiston, Seylon, Yava, Xitoy) ko'p ekiladi. Choyning yer shari bo'yicha 4 ta turi ma'lum. Shundan ikkitasi Xitoy choyi (Th. Sinensis) va assam yoki hind choyi (Th. Assana) nam subtropik mamlakatlarda ekiladi. Hind choyi bo'yi 10-15 m balandlikdagi daraxt, barglari cho'ziq bo'ladi. Xitoy choyi esa 2-3m balandlikdagi butadir. Uning barglari esa cho'ziq tuxumsimon bo'ladi. Xitoy choyi va hind choyi gibridlari asosan G'arbiy Gruziyada, Ozarbayjonning Lenkoran rayonida, Krasnodar o'lkasining janubida ekiladi. Asli vatani Hindixitoy tog'li o'rmonlari hisoblanadi.

Nerv faoliyatini yaxshilash, hordiq chiqarish maqsadida yer kurrasining qariyb barcha aholisi tomonidan ichiladigan choy shu o'simlikning bargidan tayyorlanadi. Choy o'simligining bargida 20-28% tannidlar, 2-5% kofein, 0,01% efir moyi, C, B1,B2, K vitaminlari, rutin va organik kislotalar hamda mineral moddalar bor. Choy bargining tarkibida 5% ga qadar *tein* deb ataladigan kishining asabiga tez ta'sir qiluvchi modda mavjud. Choyning ho'l barglari yig'ilib, maxsus usulda quritiladi, undan ko'k choy va qora choy olinadi. Yer yuzining iliq, iqlimli mamlakatlarida har yili 8 mln sentner choy tayyorlanadi. Yevropaga choy birinchi bor Portugaliyaga 1517-yilda, Rossiyaga 1639-yilda keltirilgan. O'rta Osiyo bilan Xitoy savdo-sotiq ishlari 1000 yildan ortiq ekanligini inobatga olsak, xalqimizning choyni iste'mol qilish tarixi ham shu vaqtga teng desak xato qilmaymiz.

Choy plantatsiyasi.

Kamelia (Camellia japonica) ham shu avlodga mansubdir. Bu o'simlik chiroyli buta holda bo'ladi va asli Janubiy Sharqiy Osiyodan chiqqan. Kamelia yirik-yirik bo'ladigan oq yoki pushti rangli seryaproq gullari



Rasm 3.

uchun dekorativ o'simlik o'rnida ekiladi, uning har xil navlari bor. Kamelianing gullari ostki tomonidan spiral holda joylashgan 5-8 ta tangachasimon bargchalar bilan o'ralgan, o'sha bargchalar sekin-asta kosachabargchalarga

Rasm 3.

Kamellia gullari aylanadi, shu sababli kosacha bilan tangachasimon 130ropic130 o'rtasidagi chegara hamisha ham aniq bo'lavermaydi. Ba'zan gulkosachabarglar ham asta-sekin gulbarglariga aylanadi, shu bilan birga gulbarglarning soni noaniq, ammo, odatda kamida 5ta bo'ladi. Gulbargi 5ta bo'lsa, 5ta yuqori kosachabarglar bilan navbatlashib turadi va gulqo'rg'oni ikki doirali bo'lib qoladi. Kamelianing otlagi bir talay, onaligida bir uyali tuguncha bor.

Nazorat savollari

1. Chinnidoshlar oilasiga tasnif
2. Chinnidoshlar oilasining tarqalishi va tibbiyotdagi ahamiyati?
3. Grechixadoshlar oilasiga tasnif?
4. Grechixadoshlar oilasining tarqalishi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati?
5. Choydoshlar oilasiga tasnif?
6. Choydoshlar oilasining tarqalishi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv

qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитько В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. Василева.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Dalachoydoshlar, qovoqdoshlar oilalari.

Ma'ruzaning maqsadi: Dalachoydoshlar, qovoqdoshlar oilalariga tasnif va ularning asosiy vakillari to'g'risida tushuncha berish.

Reja:

1. Dalachoydoshlar oilasiga tasnif.
2. Qovoqdoshlar oilasiga tasnif.

Tayanch iboralar: *Dalachoydoshlar oilasi: dalachoy, qizilpoycha. Qovoqdoshlar oilasi: oddiy qovoq, oddiy bodring, eyiladigan tarvuz, qovun, qozonyuvgich.*

Kamellia

Dalachoydoshlar oilasi – Guttiferae.

Bu oila vakillari daraxt, ba'zan ko'p yillik o't, goho epifit va liana o'simliklardir. Ularning barglari oddiy, qarama-qarshi mutovka shaklida joylashgan, ko'pincha yonbarglari bo'lmaydi. Barglarida yorug' nuqtalar, ya'ni moy kameralari yoki hatto shoxlarga ham o'tadigan uzun-uzun moy yo'llari bor. Gullari ikki jinsli yoki bir jinsli va tog'ri, spiral holda yoki doira bo'lib, chala qalqonsimon yoki ro'vak to'pgulda joylashgan. Qo'sh gulqo'rg'onli bo'lib, kosacha va tojbarglarining soni har xildir. Tojbarglari ko'pincha 5ta, ba'zan 4ta, sariq goho qizil, to'q qizil rangda bo'ladi. O'taligi ko'p, ba'zan 16-18ta, aksari osti birikkan bo'lib, 3-5 bog'lamni tashkil etadi. Onaligi ko'pincha 3-5 uyali. Tugunchasi uch xonali, uch ustunchali va tumshuqchali. Mevasi ko'sakcha, danakcha yoki rezavor meva.

Dalachoydoshlar oilasi 47avlod 850 turdan iborat bo'lib, asosan 131ropic mamlakatlarda tarqalgan. Shundan O'zbekistonda faqat 3 turdan iborat dalachoy avlodi tarqalgan.



Rasm 1.

Dalachoydoshlar oilasi gullarii

Dalachoy avlodi (Hypericum).

Bu avlod vakillari o't yoki chala buta o'simliklaridir. Ularning barglari qarama-qarshi joylashgan, qariyb bandsiz. Gullari sariq, kosacha va tojbarglari 5tadan, otalıkları cheksiz, tagi qo'shilib o'sgan. Mevasi 3uyali ko'sakcha, urug' ko'p va endospermsizdir. Dalachoyning 3turi O'zbekiston florasida uchraydi.

Dalachoy (H. perforatum).

Bu o'simlik ko'p yillik o't o'simlik. Bo'yining bir qadar uzunligi, poyasining silliqiligi, to'pgulining qalqonsimon yoki dumaloq tuxumsimonligi bilan xarakterlanadi. Tojbarglari 15-20mm bo'lib, otaligi gultojidan qisqa bo'ladi. U keng tarqalgan o'simlik bo'lib, ko'proq bedapoyalarda va bog'larda begona o't sifatida o'sadi, adir va tog' zonasining sernam yerlarida keng tarqalgan. Tibbiyotda yarani bitiruvchi va qon to'xtatuvchi dori sifatida, shuningdek, bod kasalini davolashda ishlatiladi.

Qizilpoycha (H.scabrum).

Bu bo'yi 20-40sm keladigan tanasining hammasi g'adir-budur, ildizlari yog'ochlangan ko'p yillik

o'tdir. Uning gullari sariq, otaliklari tojbarlardan uzunroq, adir va tog'larning yon bag'irlarida tarqalgan.

Choy o't – Hypericum elogaum.

Bo'yi 40-50 sm. Barglari qarama-qarshi o'rnashgan, gullari ro'vaksimon to'pgulda joylashgan. Tog' zonasining toshloq va mayin tuproqli yerlarida o'sadi.

Ahamiyati.

Bu oila vakillari orasida foydali vakillari ko'p. Ammo ularning dalachoylar avlodidan boshqa hammasi tropik mamlakatlarda tarqalgan. Ularning bargida efir moyi juda ko'p bo'ladi. Ba'zi vakillaridan smolali moddalar va yelim, ba'zilarining urug'idan moy olinadi. Undan tashqari uning tarkibida oshlovchi, oq bo'yoq bo'luvchi moddalar ham uchraydi. Tunda beixtiyor siyish kasaliga duchor bo'lgan bolalarga yotish oldidan dalachoyning bir stakan damlamasi ichiriladi. Tropik o'lkalarda o'sadigan talaygina vakillari qora yog'och beradigan bo'lganidan iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Qovoqdoshlar oilasi – Cucurbitaceae.

Qovoqguldoshlar oilasi 90 turkumga mansub 800 turdan ortiq o'simlikdan iborat. Ular asosan tropik mamlakatlarda keng tarqalgan. Hamdo'stlik mamlakatlarida 14 turkumga mansub 24 turi turli-tuman ob-havo sharoitlarida o'sadi. Bu oila vakillari asosan bir yillik va ko'p yillik o'rmalab o'suvchi o't o'simliklar,

ba'zan chala buta, buta va kichik daraxtlardir. Ularning barglari oddiy, navbatlashib o'rnashgan, ko'pincha bo'lakchali yoki anchagina o'yilgan, panjasimon yoki patsimon, yonbargchalari bo'lmaydi.

Ilashuvchi poyalarida barg qo'ltig'idan chiqqan oddiy yoki murakkab gajaklari bo'ladi, ular shu gajaklar vositasida tayanchlarga ilashadi. Gajaklari metamorfozga uchragan novdadir, unda metamorfozga uchragan yo bitta birinchi barg bo'ladi (bu xildagi gajak sodda gajak deb ataladi) yoki metamorfozga uchragan bir nechta barg bo'ladi (shoxlangan gajak).

Gullari yolg'iz yoki barg qo'ltig'idan to'p bo'lib chiqib, kichik simozli to'pgullardan joy olishi ham mumkin. Ko'pincha bir jinsli, aktinomorf va 4 doirali. Gulqo'rg'on a'zolari doirada 5tdan bo'lib joylashadi. Gultojsi tutash, kamdan-kam holarda ayrim-ayrim tojbarlardan iborat. Changchisi 3-5 ta bo'lib, ular o'zaro har xil birikib o'sgan yoki erkin (yakka-yakka) bo'ladi. Onaligi 2-5 ko'pincha 3 mevbargli bo'ladi. Tugunchasi ostki, 3 uyali va ko'p urug' kurtakli. Mevasi yirik rezavor (qovoq deb ataladi), kamdan-kam holda ko'sak mevadir. Urug'i endospermsiz bo'ladi.

Qovoqdoshlar 90 avlod 760 turdan iborat bo'lib, yer sharining tropik va subtropik mamlakatlarida tarqalgan. Gullarining shakliga qarab, bu oila **qo'ng'iroqdoshlar** va **varonkadoshlar** oilachalariga bo'linadi.

Qo'ng'iroqdoshlarga tubandagi avlodlar kiradi:

Qovoq avlodi (Cucurbita).

Bu avlod vakillari bir yillik va ko'p yillik o'rmalab o'suvchi o'simliklardir. Palagi yirik, poyasining ichi bo'sh bo'ladi. Qovoqlarning anatomik tuzilishida bikollateral o'tkazuvchi bog'lamlari bo'lishi bilan farqlanadi. Gajaklari sershox, guli ayrim jinsli, qo'ng'iroqsimon va sariq rangli. Qovoqlar Janubiy Amerikadan kelib chiqqan. Bu avlodning 23 turi bor. Shulardan 3 turi ekiladi:

Kartoshka qovoq (C.maxima).

Uningmeva bandi va palagi silindsimon. Mevasi juda yirik bo'lib, ogirligi 60-80 kg ga yetadi. Bu turning ovqatga ishlatiladigan, yem-hashak va manzarali o'simlik sifatida ekiladigan navlari bor.

Oddiy qovoq (C.pepo).

Uning palagi va mevbarglari o'tkir qirrali bo'ladi. Oddiy qovoqning palak bermay, tanasi to'p bo'lib o'sadigan va mevasi cho'ziq silindrik xili "kabachki", yassi mevali xili *patisondeb* ataladi.

Oshqovoq (C.moschata).

Palagi o'tmas qirrali silindrik, uzun bo'lib, mevbandi qirrali.

Varonkadoshlarga quyidagi avlodlar(turkumlar) kiradi:

Qovun(Melo), bodring(Cucumis), tarvuz(Citrullus), qozonyuvgich (Luffa) va boshqalar.

Tarvuz – Citrullus.

Poyasi palakli, tana barglari tuklar bilan qoplangan, bir va ko'p yillik. Barglari ikki qayta patsimon qirqilgan. Gajaklari 2-3 bo'lakchali. Gullari ikki jinsli, mayda, sarg'ish. Mevasi ko'p urug'li, sersuv, soxta meva. Unga 7 tur kiradi. Afrika va Osiyoning cho'l va chala cho'llarida tarqalgan. Ayrim turlari Afg'oniston va Hindistonda yovvoyi holda o'sadi. Tarvuz avlodining 2 turi ekib o'stiriladi. Tarvuz issiqni qovunlardan ham ko'proq talab qiladi.

Yeyiladigan tarvuz (C. edulis).

Mevalarining eti qattiq bo'ladi. Vatani Kalaxari sahrosi bo'lib, O'rta Osiyoda ko'p ekiladi.

Hashaki tarvuz (C. vulgaris).

Poyasi yo'gon bir yillik, gullari va mevalari yirik, o't o'simlik. Eti qattiq, mazasi bir oz taxir. Quruq yerlarda o'sishga moslashgan, hashaki tarvuz yem-hashak sifatida o'stiriladi.

Qovun (melo).

Mazkur avlod vakillari bir yillik, palakli, o'simlik. Gajaklari oddiy. Gullari bir va ikki jinsli. Poyasi va bargi dag'al tuklar bilan qoplangan. Urug'chi guli changchi guliga nisbatan yirik. Mevasi yirik, seret, hushbo'y, suvli va shirin. Bu avlodga 10 tur mansub bo'lib, ularning turli navlari o'stiriladi. Qovunlar Osiyoning tropik va subtropik mamlakatlarida tarqalgan.

Qovunlarning xilma-xil navlari Markaziy Osiyo respublikalari va Janubiy Qozog'istonda o'stiriladi. *Tarrak – M.flexiosus* yoki *pechak qovun* yoki *atirqovun – M. dudaim* xillari turli qit'alarda o'stiriladi.

Bodring (Cucumis).

U yer bag'irlab o'sadigan palakli o'simlik. Barglari yuraksimon 5 bo'lakli, o'tkir burchakli. Gullari ayrim jinsli. Changchi gullari shingil to'pgulda, urug'chi gullari yakka-yakka joylashgan. Gullari barg qo'ltig'ida hosil bo'ladi. Gajagi oddiy, mevasi cho'ziq, 3 uyalidir. Bu avlodga 30 tur kiradi. Afrika va Osiyoning issiq mamlakatlarida tarqalgan. Ekiladigan bodringning

Cucumis sativus L *Cucumis anguria*

Cucumis metuliferus.

(*C. sativus*) yovvoyilari no'malum. Vatani quyi Hindiston va Hindixitoy, navlari ko'p, mevasi yangiligida yeyiladi.

Qozonyuvgich (Luffa).



Rasm 2. *Luffa aegyptiaca*



Luffa cylindrica



Luffaning ichki tuzlishi

Mazkur avlod vakillari bir yillik o'tsimon o'simlik. Poyasidagi gajaklari bilan ilashib o'suvchi gullari sariq, oq rangli. Mevasi cho'ziq, uch uyali, quruq meva. Qozonyuvgichlarning 7 turi ma'lum, 2 turi mochalka sifatida o'stiriladi.

Xo'jalikdagi va tibbiyotdagi ahamiyati.

Bu oilaga kiruvchi o'simliklarning ko'pchiligi oziq-ovqat, yem-hashak, dorivor va manzarali o'simliklar sifatida ishlatiladi. Tarvuzdan shinni qilinadi, urug'idan esa ovqatga va sovungarchilikda ishlatiladigan yog' olinadi. Bu oila vakillari urug'ida moy bo'lishi bilan, barcha organ va to'qimalarida achchiq glikozidlar, golotsitin, brionin, brioidin, alkaloidlardan xomen, emetin va har xil organik kislotalarning bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Shimoliy Afrika bilan Janubiy Osiyoning sahrolarida tarvuzga juda yaqin o'simlik – kolotsint yoki kolokvint (*Citullus colocynthis*) o'sadi; uning zaharli taxir mevalaridan olinadigan ekstrakt meditsinada kuchli surgi dori sifatida qo'llaniladi. Qovoq urug'larini ham iste'mol qilsa bo'ladi, ulardan ovqatga ishlatiladigan moy ham olish mumkin. Shifokorlar me'da-ichak kasalligi bilan kasallangan bemorlarga qovoqdan tayyorlangan taomlar iste'mol qilishni tavsiya etadilar.

Qovunlar eramizdan 500-600 yil muqaddam ekila boshlagan. Hozir ularning tarkibida qandning miqdori 6-11%ga yetadi. Bodring o'simligi urug'i ham juda foydalidir.

Nazorat savollari

1. Dalachoy avlodiga tasnif va uning vakillaridan qaysilarini bilasiz?
2. Qovoq avlodiga mansub o'simliklariga tasnif bering va ularning tibbiyotdagi va xo'jalikdagi ahamiyatini ayting?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилеваА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988.-435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA 20

Karamdoshlar, gulxayridoshlar oilalari.

Ma'ruzaning maqsadi: Karamguldoshlar, gulxayridoshlar oilalariga tasnif va ularning asosiy vakillari to'g'risida tushuncha berish.

Reja:

1. Karamguldoshlar oilasiga tasnif.

2. Gulxayridoshlar oilasiga tasnif.

Karamdoshlar oilasi – Cruciferae.

Bu oilaga mansub o'simliklar bir yillik, ikki yillik o't o'simliklar, buta va chala butalardan iborat, asosan Shimoliy yarim sharning mo'tadil va sovuq iqlimli viloyatlarida tarqalgan. Bu oilaning o'stiriladigan vakillari va begona o'tlari juda ko'p. Barglari oddiy, yon bargsiz, butun yoki qirqilgan bo'lib, poyada ketma-ket joylashgan. To'pgullari asosan shingilda o'rnamashgan. Gullari aktinomorf, kamdan-kam zigomorf, ikki jinsli, gulqo'rg'oni murakkab. Gulkosa barglari 4ta erkin, toj bargi 4ta, qarama-qarshi holda butsimon joylashgan. Changchilari 6 ta, ikki guruxli, ya'ni ikkitasi qisqa va to'rttasi uzun changchi iplariga ega. Urug'chisi bitta, 2 ta meva barglarning birikib o'sishidan hosil bo'ladi, tugunchasi ustki. Gullari hashorot yordamida changlanadi. Mevalari qo'zoq yoki qo'zoqcha, ba'zan yong'oqcha. Urug'lari endospermsiz, ammo moy ko'p to'planadi. Karamdoshlar oilasi karam (*Brassica*), gorchitsa (*Sinapis*), qurtena (*Sisymbrium*), chitir (*Euclidium*), indou (*Eruca*), katran (*Crambe*), jag'-jag' (*Capsella*), lepidium (*Lepidium*), turp (*Raphanus*) turkumlariga bo'linadi.

Gul formulasi: * $\text{Ca}_4 \text{Co}_4 \text{A}_{2+4} \text{G}_{(2)}$

Jag'-jag' turkumi – Capsella

Jag'-jag' (achambiti) – *Capsella bursa pastoris*. Bir yillak, bo'yi 20 – 30 (ba'zan 60) sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi shoxlangan yoki shoxlanmagan. Ildizoldi barglari bandli, cho'ziq lansetsimon bo'lib, turlicha qirqilgan barg plastinkasiga ega. Poyadagi barglari mayda bo'lib, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari shingilga to'plangan. Mevasi – qo'zoqcha. Aprel oyidan boshlab kuzgacha gullaydi, mevasi iyundan boshlab yetiladi. Jag'-jag' o'simligi preparatlari tuqqandan keyin va bachadon kasalliklarida qon oqishini to'xtatish ucun hamda bachadon zaiflashganda uni tonuslovchi vosita sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari uning tarkibida "C" va "K" vitaminlari mavjud.

Gorchitsa turkumi – Sinapis.

Bir yillik o't o'simlik. Poya va barglari oddiy tuklar bilan qoplangan. Bu avlodga: oq gorchitsa (*Sinapis alba*), dala gorchitsasi (*Sinapis arvensis*), sarept gorchitsasi, qo'ng'ir gorchitsa (*Sinapis juncea*), qora gorchitsa (*Sinapis nigra*) kabi turlar kiradi. Gorchitsa preparatlari yallig'lanish xarakteriga ega bo'lgan kasalliklarda, miozit, bronxit va bod kasalliklarida qo'llaniladi. Uni yog'I ovtatga ham ishlatiladi.

Karam turkumi – (Brassica).

Bu avlodning vakillari bir, ikki yoki ko'p yillik o't o'simliklar. Eng muhim turlaridan biri karamdir. Bosh karam (*Brassica oleracea var capitofa*) muhim sabzavot o'simlik hisobida ekiladi.

Brassica oleracea - Bosh karam

Capsella – Jag' –jag'

O'sma turkumi – Isatis.

Bo'yoqbosh o'sma (*Isatis tinctoria*) ikki yillik o't o'simlik bo'lib bo'yi 30- 100 sm ga yetadi. Ildizoldi barglari cho'zinch'q, bandli, chetlari notekis. Poyaga o'rnamashgan barglari qalami-nashtarsimon yoki qalamibarg, o'troq, yubi bilan poyani bir oz o'rab turadi. Gullari sariq. Qo'zoqchasi 13-16 mm. Aprel-santabr oylarida gullab meva beradi. Asosan vohalarda madaniy va yovvoyi holda uchraydi. Bo'yoq olishda sanoatda keng foydalaniladi.

Chitir turkumi – Euclidium.

Bu turkumning keng tarqaldan turlaridan biri oq chitir (*Euclidium syriacum*) – erta bahorgi o'simlik, gullagan davrida oqsilga boy bo'ladi. Meva hosil qilgandan keyin, qattiq bo'lib efemer o'simlik hisoblanadi.

Turp turkumi – Raphanus.

Yovvoyi turp (*Raphanus raphanistrum*) bir yillik o't o'simlik bo'lib, bo'yi 20-60 sm. Poyasi bir oz tukli. Barglari qilsimon tukli, arra tishli. Poyaning uchidagi barglari butun. May-iyun oylarida gullaydi va urug'laydi.

Madaniy turp (*Raphanus sativus*) ikki yillik sabzavot o'simlik bo'lib bo'yi 80 sm.ga yetadi. Ildizi yo'g'on, etdor. Guli oq, ppushti yoki binafsha rang. Aprel-iyun oylarida gullab urug'laydi.

Xulosa qilib aytganda bu oilaga kiruvchi madaniy turlar sabzavot o'simlik sifatida, tabiiy holda o'sadiganlari tibbiyotda ishlatiladi.

Gulxayridoshlar oilasi – Malvaceae.

Bu olianing vakillari daraxtsimon, butasimin va o'tsimon o'simliklar bo'lib, eng sovuq rayonlardan tashqari hamma yerda tarqalgan. Barglari oddiy, butun, bo'lakli, uzun bandli. Barg plastinkasining tomirlanishi panjasimon. Gullari yakka yoki to'pgulda o'rtnashgan, ko'pincha barg qo'ltig'ida joylashgan. Gullari aktinomorf, ikki jinsli, gulqo'rg'ni murakkab. Gulkosachabarglari 5 ta koosachabargning qo'shilishidan, gultojbarglari 5 ta erkin, ba'zan ostki qismidan birikkan bo'ladi. Changchilari cheksiz, ba'zan chang iplari qo'shilib urig'chini o'rab oladi. Urug'chisi 3 ta mevacha bargning qo'shilishidan hosil bo'ladi, tugunchasi ustki. Mevasi ko'p urug'li ko'sak meva yoki qanoyli meva. Bu oilaga mansub ko'pgina o'simliklar ximiyaviy tomonidan yaxshi o'rganilmagan. O'rganilgan o'simliklarda fenol kislotalar, saponinlar, oshlovchi va qand moddalari, flavonoidlar, vitaminlar uchraydi. Alkaloidlar bu oilda aniqlanmagan.

Gul formulasi: * $\text{Ca}_{(5)} \text{Co}_5 \text{A}_{\infty} \text{G}_{(3)}$

Gulxayridoshlar oilsi quyidagi turkumlarga bo'linadi: gulxayri (*Althaea*), xibiskus (*Hibiskus*), g'o'za (*Gossypium*), tugmachagul (*Malva*), baxmalgul (*Alcea*), dag'al kanop (*Abutilon Adans*).

Gulxayri turkumi – *Althaea*.

Bu turkum dorivor gulxayri (*Althaea officinalis*), arman gulxayrisi (*Althaea armeniaca*), kanopsimon gulxayri (*althaea cannabina*) kabi turlarni o'z ichiga oladi.

Gulxayri ko'p yillik, bo'yi 150-160 sm bo'ladigan o't o'simlik. Ildizpoyasi kalta, yo'g'on. O'q ildizi 50 sm uzunlikda bo'lib, yuqori qismi yog'ochlashgan bo'ladi. poyasi bitta yoki bir nechta, tik o'suvchi, silindirsimon, kam shoxli, pastki qismi yog'ochlashgan. Bargi oddiy bo'lib poyada bandi bilan ketma-ket joylashgan, poyaning yuqori qismidagilari butun, tuxumsimon, o'rta va pastkilari esa uch yoki besh bo'lakli, qo'shimcha bargi mayday, ingichka lansetsimonyoki chiziqsimon. Barg plastinkasi o'tkir uchli va tishsimon qirrali bo'ladi. Gullari barg qo'ltig'ida, poya va shoxlari uchida joylashgan bo'ladi. Gulkosasi ikki qavatli, pastki kosacha 8-12 bo'lakka ajralgan, ustki kosachasi esa besh bo'lakli. Kosachabarglari meva bilan qoladi. Tojbargi 5 tabo'lib, pushti rangda. Chanchilari ko'p, ipi bilan birlashib, naycha hosil qiladi.

Dorivor gulxayri – *Althaea officinalis*

Urug'chi tuguni 15-25 xonali, ustki. Mevasi yassi, yumaloq, serurug, quruq meva. Gulxayri ildizi preparatlari o'rab oluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda yallig'lanishga qarshi dori sifatida ishlatiladi.

Tugmachagul turkumi – *Malva*.

Tugmachagul bir yillik o't bo'lib bo'yi 10-40 sm. Poyasi yer



Rasm 1.

bag'irlab, ba'zan bi oz ko'tarilib o'sadi, shoxlangan. Barglari uzun bandli, 5-7 bo'lakli. Gullari barg qo'ltig'ida joylashgan, gulbandli. Guli pushti. Aprel-sentabr oylarida gullab urug'laydi. Sug'oriladigan va bahorikor yerlarda o'sadi. Begona o't.

G'o'za turkumi – Gossipium.

G'o'za turkumidan oddiy g'oza (*Gossipium nirsutum*), misr g'o'zasi (*Gossipium barbadense*), jaydari g'o'za (*Gossipium herbaceum*) kaki turlar kiradi.

G'o'za 1-2 m keladigan bir yillik o't o'simlik sifatida o'stiriladi. Poyasi shoxlangan. Bargi besh, ba'zan uch bo'lakli bo'lib, poya va shoxlariga bandi bilan ketma-ket joylashgan. Guli ko'p va yirik bo'lib, yakka holda uzun bandlari bilan barg qo'ltig'iga joylashgan. Gulkosachasi yashil rangli va ikki qavatli: tashqi tomonidabir-biri bilan birlashmagan uchta kosachabargi, ichki tomonida bir-biri bilan birlashgan 5 ta kosachabargi bo'ladi. Gultojisi varonka shaklida bo'lib, 5 ta alohida-alohida bo'ladi. Tojbargning rangi g'o'za turiga qarab och sariqdan to sariq rangacha bo'ladi. Tojbargning rangi otalaninsh jarayonidan keyin ham o'zgaradi. Changchilari ko'p sonli, bir-biri bilan birlashib urug'chini o'rab oladi. Mevasi 3-5 xonali, pishganda ochiladigan ko'sak. G'o'za urug'i (chigit)dan o'sib chiqqan tuklar paxta deyiladi. Tibbiyotda oddiy paxta kompress qilish uchun ishlatiladi. Bu o'simlikni sanoatda, xo'jalikda va tibbiyotdagi o'rni beqiyosdir.



Rasm 2. G'o'za turkumi - Gossipium

Nazorat savollari

1. Karamguldoshlar oilasi va ularning vakillari?
2. Karamguldoshlar oilasi vakillarining tarqalish areallari?
3. Gulhayridoshlar oilasi va ularning vakillari?
4. Gulhayridoshlar oilasi vakillarining tarqalish areallari?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaeв S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaeв S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

Atirguldoshlar, selderdoshlar oilalari.

Ma'ruzaning maqsadi: Atirguldoshlar, selderguldoshlar oilalariga tasnif ularning asosiy vakillari to'g'risida tushuncha berish.

Reja:

1. Atirguldoshlar oilasiga tasnif.
2. Tobulg'iguldoshlar va Itburunlar(atirgullilar) kenja oilalari vakillari
3. Olmagullilar kenja oilasiga kiruvchi vakillari
4. Olxo'rigullilar kenja oilasiga kiruvchi vakillari
5. Selderguldoshlar oilasiga tasnif.

Tayanch iboralar: *Atirguldoshlar oilasi: na'matak, malina, er tut. Olmaguldoshlar oilasi: olma, nok, behi, do'lana. Olho'riguldoshlar oilasi: bodom, tog'olcha, o'rik, olcha, shaftoli o'simliklar. Tobulg'idoshlar oilas iyapon tobulg'si. Selderguldoshlar oilasi: qora zira, sassiq kavrak, dorixona ukropi, kashnich, sabzi.*

Atirguldoshlar oilasi – Rosaceae.

Bu oilaga kiruvchi o'simliklarning hayotiy shakllari doim yashil yoki barglarining to'kadigan daraxt, buta, ko'p yillik o't o'simliklaridan iborat. Barglari turli shakllarda bo'lib, oddiy va murakkab, yon bargchali bo'lib poyada ketma-ket joylashgan. Murakkab barglari asosan uch yoki toq patsimon. Gullari to'pgul yoki yakka o'rnashgan, ikki jinsli, aktinomorf, murakkab gulqo'rg'onli. Gulkosasi 4-5 ta bargchaga ega, kosacha barglarining soni ikki barobar ortganda ost kosacha hosil qiladi. Gultojbarglari erkin o'sadi, 4-5ta. Changchilari 5 -10 tadan doira bo'lib joylashgan. Urug'chisi bitta ba'zan ko'p. Ra'noguldoshlarning gullaridagi xarakterli xususiyat ularni boshqa oilalardan ajratib turadi. U ham bo'lsa, guldon-gipantiya. Guldon o'ziga hos bo'lib, gulkosacha, tojbarglarning chanchi bilan gul o'rin to'qimalarini birlashishidan vujudga keladi. Gipantiya-guldonning shakllari turlicha: likopcha, kosacha, qo'ng'iroqcha, tekis, do'ng bo'lishi mumkin. Gul tuguni ustki va yarim pastki bo'lishi mumkin. Asosan hashoratlar bilan changlanadi. Mevalari bargmeva, ko'sakmeva, yong'oqcha, pista, olma, danakli meva, to'pmeva va soxta meva. Urug'lari endospermsiz. Bu oilaning vakillari har xil qandlarga, vitaminlarga, turli fermentlarga, organic kislotalar va efir moylariga boy. Atirguldoshlar oilasi xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan xilma-xil meva daraxtlar hamda manzarali o'simliklarni o'z ichiga oladi. Atirguldoshlar oilasining gullari, mevalari turli xilda bo'lgani uchun ular 4 ta kenja oilaga bo'linadi:

1. Tobulg'iguldoshlar – Spiraeoideae – $Ca_{(5)} Co_{(5)} A_{\infty} G_{6-10}$
2. Itburunlar(atirgullilar) – Rosoideae – $Ca_{(5)} Co_5 A_{\infty} G_{\infty}$
3. Olma gullilar – Pomoideae – $Ca_{(5)} Co_5 A_{\infty} G_{(5)}$
4. Olxo'ri gullilar – Prunoideae – $Ca_{(5)} Co_5 A_{\infty} G_1$

Tobulg'iguldoshlar kenja oilasi – Spiraeoideae

Oila vakillari buta o'simliklardir. Barglari oddiy yoki murakkab, gullari mayday, sochoq yoki qalqonsimon to'pgulda joylashgan. Mevalari bargmeva. Bu kenja oilaga tobulg'i avlodi (Spiraea) kiradi. Bu avlod vakillari barglari butun, cheti tekis yoki tishli. Tugunchasi bir nechta urug'chidan tashkil topgan – murakkab, mevasi ham murakkab: bir nechta mevacha yeg'indisidan tashkil topgan, ularning hammasi gulning ustidan ko'rinib turadi. Gullari oq, pushti yoki qizil. Urug'lari qanotsiz. Bu

turkum yapon tobulg'isi (*S. japonica*), o'rtancha tobulg'i (*S. media*), dalachoybarg tobulg'i (*S. hypericifolia*), tukdor tobulg'i (*S. pilosa*) kabi turlarni o'z ichiga oladi.

Itburunlar(atirgullilar) kenja oilasi - Rosoideae

Bu oilaning vakillari buta, chala buta, o't o'simliklardir. Barglari poyada ketma-ket joylashgan bo'lib toq patsimon, murakkab yoki o'yilgan oddiy bo'lib yon bargchalarga ega. Bu kenja oilaning gul formulasiga nazar solar ekanmiz ularning urug'chisi ko'plagini bilishimiz mumkin. Shu belgisi bilan atirguldoshlar oilasining boshqa kenja oilalaridan farqlanib turadi. Bu kenja oila malina (*Rubus idaeus*), qulupnay (*Fragaria*), g'ozpanja (*Potentilla*), na'matak yoki itburun (*Rosa*) turkumlrini o'z ichiga oladi.

Malina turkumi – *Rubus idaeus*.

Boyi 1-2 m ga yetadigan yarim buta. Ildizpoyadan ikki yillik yer ustki novdalar o'sib chiqadi. Birinchi yilgi novdalari yashil, yog'ochlanmagan, mayday tikanli bo'lib, meva qilmaydi. Bu poya qishga borib yog'ochlanadi, tikanlari ham yo'qoladi va kelasi yili iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi pishgandan keyin eski poyasi qurib qoladi. Ildizpoyadan har yili yangi poyalar o'sib chiqadi. Barglari toq patli murakkab, 5-7 ta bargchadan tashkil topgan bo'lib, poyada uzun bandi bilan ketma-met joylashgan. Poyaning yuqori qismidagibarglari ko'pincha uch plastinkali bo'ladi. Bargchasi tuhumsimon, yuqori tomoni tuksiz, pastki tomoni esa tukli. Qo'shimcha barglari ipsimon shaklga ega. Gullari ko'rimsiz, yashil-oq rangli, qalqonsimon ro'vakka to'plangan. Gulkosasi 5 ta qirqilgan, meva bilan birga qoladi. Tojbargi 5 ta, otaligi va onaligi ko'p sonli. Mevasi – qizil rangli, danakli, murakkab ho'l meva. Quritilgan mevalari turli shamollash kasalliklarida terlatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Ho'l mevadan tayyorlangan sharbat farmasevtikada suyuq dorilar ta'mini yaxshilash uchun ishlatiladi.

Qulupnay turkumi – *Fragaria*

Bu turkumga o'rmon qulupnayi (yertut) – *Fragaria vesca* turini misol qilib olsak, u ko'p yillik, bo'yi 5-20 sm bo'lgan qo'ng'ir rang ildizpoyali va mayday ildizli o't o'simlik. Barglari uzun bandli, uch plastinkali. Gullari yirik, uzun bandli. Mevasi – tuxumsimon yoki keng ellipsimon, qizil rangli, gul o'rnidan hosil bo'lgan soxta meva. Bu o'simlik barg va mevasidan dorivor preparatlar tsinga va boshqa avitominoz kasalliklarida, siydik haydovchi dori sifatida, podagrada, kam qonlikda, bachadondan qon oqishini to'xtatish uchun yara, teri va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

G'ozpanja turkumi – *Potentilla*.

Bu turkumga sharq g'ozpanjasi (*P. orientalis*), pakana g'ozpanja (*P. supina*), tik o'suvchi g'ozpanja (*P. erecta*), osiyo g'ozpanjasi (*P. asiatica*) va boshqa turlarni o'z ichiga oladi.

Tik o'suvchi g'ozpanja lo'p yillik, bo'yi 15-20 sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi ko'tarilib o'suvchi yoki tik o'suvchi, yuqori qismi shoxlangan. Poyadagi barglari doimo uch plastinkali, ketma-ket joylashadi. Bu o'simlikning dorivor preparatlari burushtiruvchi va antiseptic dori sifatida og'izning shilliq qavatlarini yallig'lanishida va anginada og'iz chayish uchun ishlatiladi.

Na'matak yoki itburun turkumi - *Rosa*



Rasm 1. Na'matak – *Rosa* Umumiy ko'rinishi va mevasi

Na'matak turlari bo'yi 2 m ga yetdigan tikanli buta. Novdasi egiluvchan bo'lib, yaltiroq, qo'ng'ir-qizil va qizil-jigarrang tusli po'stloq bilan qoplangan. Barglari (5-7 ta) tuxumsimon shaklli va

arrasimonqirrali. Gullari yirik, yakka yoki 2-3 tadan shoxlarga o'rnashgan. Guli qizil, pushti, sariq yoki oq rangli, hushbo'y hidli. Guloldi barglari lansetsimon. Kosacha va toj bargi 5 tadan, otalik va onalıkları ko'p sonli. Mevasi – gul o'rnidan hosil bo'lgan shirali soxta meva. Ichida onaliklaridan hosil bo'lgan bir nechta haqiqiy meva - yong'oqchalar bor. Yong'oqcha o'tkir uchli, sertuk bo'lib, burchaksimon shaklga ega. Na'matak turlari o'rmonlarda, ariq bo'ylatida, butalar orasida, tog'larning quruq toshloq yon bag'irlarida va boshqa yerlarda o'sadi. Uning ayrim turlari bir-biridan mevasining, novda po'stlog'idagitikanning rangi, shakli, katta kichikligi hamda novdadagi tikanlar soni va joylashishiga qarab farq qiladi.

Olmagullilar kenja oilasi – Pomoideae

Bu kenja oila vakillari daraxt, ba'zan buta o'simliklardir. Barglari asosan oddiy plastinkasi butun yoki qirqilgan. Urug'chi tugunchasi ostki, kosachabarg soxta meva hosil bo'lishida ishtirok etadi. Bu kenja oilga kiradigan o'simliklar, asosan mo'tadil iqlimli kenglikda o'sadigan mevali o'simliklardir. Olmagullilar kenja oilasi olma (Malus), nok (Pirus), bexi (Cydonia), do'lana (Crataegus) turkumlarni o'z ichiga oladi.

Olma turkumi – Malus.

Bu avlod daraxt va buta o'simliklarni o'z ichiga oladi. Barglari tuxumsimon, ostki tomoni bir hujayrali, soyabon to'pgulga o'rnashgan. Urug'chining ustunchalari 5 ta bo'lib yarmigacha birikib o'sgan bo'ladi. Changchilari ko'p bo'lib 18-50 tagacha, chang xaltachalari sariq tusda. Mevasida 5 – 15% qand, olma kislotasi, temir, pectin moddalari bo'ladi.

Bu avlodning keng tarqalgan turlari uy olmasi (M.domestica), do'lana olma, xitoy olmasi (M. prumifolia).

Nok turkumi - Pirus

Bu avlod vakillari barglari asosan, butun, faqat bir qismigina patsimon bo'lingan. Novdalari tikansiz. Mevasi bandiga qarabingichkalashadi. Barglari oddiy, gullari esa shoda to'pgulga joylashgan. Changchilarining chang xaltalari binafsha tusda. Urug'chining ustunchalari 5 ta erkin o'sgan. Mevasida tosh xujayralari bo'ladi. Bu avlodning ahamiyatli vakillari oddiy nok (P. communis), turkman noki (P. turkomanica).

Do'lana turkumi - Crataegus

Do'lana turlari bo'yi 5 m ga yetadigan buta yoki kichik daraxt. Novdalari qizil yoki kul rangli bo'lib, siyrak joylashgan yo'g'on, qattiq, 2.5-4 sm uzunlikdagi tikanlar bilan qoplangan. Bargi oddiy, tukli, teskari tuxumsimon yoki romb shaklda, uncha chuqur bo'lmagan 3-7 bo'lakli (bo'laklari arrasimon qirrali) bo'lib, poyada bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Qo'shimcha barglari o'roqsimon yoki qiyshiq yuraksimon shaklli va yirik tishsimon qirrali. Gullari qalqonsimon to'pgulni hosil qiladi. Mevasi to'q qizil, qora, sariq yoki to'qsariq tangli, sharsimon, ellipsimonyoki tuxumsimon shaklli, 2-5 ta danakli ho'l meva. Do'lananing mevasi tarkibida triterpin saponinlar, xlorogen, kofe kislota, efir moyi va boshqa moddalar bor. Do'lananing dorivor preparatlari yurak kasalliklarida ishlatiladi.

Olxo'ri gullilar kenja oilasi – Prunoideae

Daraxt va buta o'simliklar bo'lib barglari oddiy, butun, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari yakka yoki oddiy soyabon to'pgulda joylashgan. Hashoratlar yordamida changlanadi. Mevalari danakli. Olxo'ri gullilar kenja oilasi bodom (Amygdalus), tog'olcha (Prunus), o'rik (Armeniaca), shaftoli (Persica), olcha (Cerasus) turkumlarini o'z ichiga oladi.



Rasm 2. Olcha – *Cerasus*, Shaftoli - *Persica*

Bodom avlodi – Amygdalus

Bodom daraxtining bo'yi 2-5, ba'zan 8 m bo'ladi. Novdalari qizg'ish jigarrang, shoxlarining po'stlog'I kulrang-qo'ng'ir, tanasiniki esa qoramtir. Bargi oddiy, lansetsimon yoki ensiz ellipsimon, o'tkir uchli, cheti esa o'tmas, mayday tishsimon bo'lib, bandi bilan poyada ketma-ket o'rnashgan. Gullari oq yoki och pushti rangda bo'li, shoxlarida yakka-yakka joylashgan. Mevasi qiyshiq yoki choziq tuxumsimon danakli meva. Bodomning ikki tur xili uchraydi, ularni faqat mag'izini achchiq – chuchukligiga qarab ajratish mumkin: chuchuk bodom – *A. communis* L. varietas D. C. va achchiq bodom – *A. communis* L. varietas amara D.C.

Po'sti olib tashlangan chuchuk bodom urug'idan tayyorlangan emulsiya me'da-ichak og'riqlarini qoldirish uchun, moyi esa ich yumshatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Farmasevtikada bodom moyi ba'zi dorilar (kamfora va boshqalar) ni eritish hamda surtma tayyorlash uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda atirguldoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklarning ko'pchiligi iste'mol qilinadi, vitaminlar, efir moylari, yog'lar olinib, ular tibbiyotda atir-upa sanoatida qo'llaniladi.

Selderdoshlar (soyabonguldoshlar) oilasi - Apiaceae.

Bu oilaga kiradigan o'simliklarning ko'pchiligi o'tsimon o'simliklar bo'lib, chala buta va buta o'simliklari kam uchraydi. O'tsimon o'simliklar asosan shimoliy yarim sharning mo'tadil iqlimli zonasida, buta va chala buta o'simliklari esa tropik va subtropik mamlakatlarda o'sadi. Barglari navbat bilan joylashgan, yonbargsiz, chetlari tekis yoki bir necha joyidan chuqur qirg'ilgan bo'lib poyani qinlari bilan birmuncha o'rab oladi. Poyaning er ustki qismini ichi kovak, unda moy yo'llari bor, bo'g'im va bo'g'im oraliqlari bilinib turadi. Gullari mayda bo'lib, soyabonsimon to'pgullarga to'planadi. Murakkab soyabonning asosi gulyonbarglardan iborat umumiy o'rama ichiga olingan, soyabonlarning asosida ham mana shunday kichik o'ramachalar bor. O'rama va o'ramachalarning shakli, kattaligi va qay xilda joylashganligi o'simliklarni to'g'ri sistemasiga imkon beradigan muhim belgi hisoblanadi. Gullari aktinomorf, ikki jinsli, ba'zan bir jinsli (bir yoki 2 uyli) lari ham uchraydi. Ba'zi bir o'simliklarda to'pgullarning chetidagi tashqi toj barglar ichkaridagilarga qaraganda yirikroq bo'ladi. Gul kosachalari juda ham qiyalangan, kosachasi 5 tishli, mayda ko'pincha rivojlanmay ham qoladi. Toj barglari 5 ta, tutashmagan, uchi gulning ichkarisiga qarab bukilgan bo'ladi. Otaligi ham 5 ta, g'unchada toj bargiga o'xshab ichkari tomon qaragan holda yotadi. Urug'chisi 2 meva bargli, tugunchasi ostki, 2 uyali, har qaysi uyasi bir urug'kurtakli. Tuguncha 2 ustunchali bo'lib, har qaysi ustunchaning asosini nektardon o'rab turadi. Gullari proteandrin tipda (otaliklari onaliklaridan ilgari etiladi), hashoratlar yordamida chetdan changlanadi. Mevasi pishgandan keyin 2 ta mevachaga ajralib, karnoforda, ya'ni ipsimon qo'shoq mevaband uchida bir qancha vaqt osilib turuvchi qo'sh pistachadir. Urug'i endosperimli va mevaqati bilan zich qo'shilib o'sgan. Selderguldoshlar oilasi 3500 taga yaqin turni o'z ichiga olgan. Gul formulasi: $\text{Ca}_{(5)} \text{Co}_5 \text{A}_5 \text{G}_{(1)}$

Bu oilaning katta ahamiyatga ega bo'lgan turlari quyidagilardir:

Sabzilar avlodi - *Daucus*

Bu avlod vakillari 2 yillik va ko'p yillik o't o'simliklardir. Ularning gullari 1 yoki 2 jinsli, oq yoki sarg'ish, o'rtasidagi gullari qizil rangda. Mevasi cho'ziq, 5 ta tikanaksimon qovurg'ali. Bu avlod 60 turdan iborat. Shimoliy yarim sharda, shu jumladan O'zbekistonda ham tarqalgan.

Yovvoyi sabzi.(*D. carota*). Yevropa va Osiyo mamlakatlarida uchraydi. 2 yillik o't o'simlik. Bu sabzi ildizining dag'al va mayda bo'lishi bilan ekma sabzidan farq qiladi.

Ekma sabzi (*D. sativus*) 2 yillik o'simlik. Chala buta va buta o'simliklari kam uchraydi. O'tsimon o'simliklar asosan shimoliy yarim sharning mo'tadil iqlimli zonasida, buta va chala buta o'simliklari esa tropik va subtropik mamlakatlarda o'sadi. Birinchi yili uzun bandli 2-3 marta patsimon qirqilgan to'pbarg va ildizmeva hosil qiladi. Ikkinchi yili sershox poya chiqaradi va oq gullar hosil bo'ladi. Mevasi o'ziga xos hidli ingichka o'tkir tikanchalar bilan qoplangan. Shuning uchun bular o'zaro bir-biriga yopishishadi. Sabzi sabzavot sifatida va mollarga oziqa sifatida ekiladi.

Kashnich (*Coriandrum sativum*). U gullari oq 2 jinsli, urug'i silliq, bir oz dumaloq yoki ovalsimon, barglari qirqilgan bir yillik tuksiz yashil o'simlikdir. Vatani O'rta dengiz. Kashnich mevasida 0,8% gacha korindrin efir moyi bor. 18% gacha yog' bo'lib, u sovun ishlab chiqarishda va to'qimachilik sanoatida ishlatiladi. Bargi taomlarga ko'k sifatida ishlatiladi.

Petrushka (*Petroselinum crispus*). U ildizlari urchiqsimon, barglari 2-3 marta patsimon qirqilgan, gullari sarg'ish, oq, qizg'ish tusli 2 yillik o'simlik. Uning hamma qismi yoqimli hid va ta'mga ega. Urug'ida efir moyi bor.

Tmin yoki qora zira (*Carum*). Bu ko'p yillik yoki 2 yillik, ko'pincha tunganaksiz o't o'simlikdir. Barglari 2-3 marta

patsimon qirqilgan. Gullari 2 jinsli oq pushti yoki qizil rangli. Mevasi cho'ziq, yonidan siqilgan, egatidagi moy yo'llari bitta. Urug'ining ich tomoni yassi. 2 ta turi (*C. carvi* va *C. atrisanguineum*) O'zbekiston florasida tarqalgan. Birinchi turi 2 yillik tuksiz o'simlik. U guli oq yoki pushti, bo'yi 40-60 sm poyasi yakka egatli ichi bo'sh ayri bo'lib shoxlangan. Urug'i cho'ziq xushbo'y hidli, jigarrang. Tog'li rayonlarda o'sadi.



Rasm 3. Ukrop – *Foeniculum Selder* – *Apium*

Nazorat savollari

1. Atirguldoshlar oilasi va ularning vakillari?
2. Olxo'ri gullilar kenja oilasi va ularning vakillari?
3. Tobulg'iguldoshlar va Itburunlar(atirgullilar) kenja oilalari vakillari
4. Olmagullilar kenja oilasiga umumiy xarakteristika va ularning qaysi vakillarini bilasiz?
5. Olxo'rigullilar kenja oilasiga umumiy xarakteristika va ularning qaysi vakillarini bilasiz?
6. Selderguldoshlar oilasiga umumiy xarakteristika va muhim ahamiyatga ega bo'lgan vakillarini ayting?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv

qo'llanmalar ro'yxati

12. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
13. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
14. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
15. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elektron darslik.-T.: 2008.
16. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
17. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
18. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
19. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
20. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
21. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manufaktura, 2004.-294 s.
22. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA 22

Dukkakdoshlar, araliyadoshlar oilalari.

Ma'ruzaning maqsadi:

Dukkakdoshlar, araliyadoshlar oilalariga tasnif ularning asosiy vakillari to'g'risida tushuncha berish.

Reja:

1. Dukkakdoshlar tartibiga tasnif.
2. Mimosagullilar oilasiga tasnif.
3. Kapalakgullilar oilasining vakillari.
Sezalpingullilar oilasiga tasnif.
4. Araliyadoshlar oilasiga tasnif.

Tayanch iboralar *Dukkakdoshlar tartib va uning oilalari: akatsiya, sano, tikan daraxti (gledichiya), no'xat, chuchukmiya, beda, termopsis. Araliyadoshlar oilasi: pechak, fatsiya, araliya, jenshen turkumlari.*

Dukkaklilar tartibi - Fabales.

Bu tartibga kiradigan o'simliklar daraxtlar, lianalar, butalar va o'tlar holida bo'lib, odatda qatorma-qator turadigan yonbargli murakkab barglar chiqaradi. Gullari pentamer (ba'zan tetramer), zigomorf yoki aktinomorf bo'lib, dumaloq gulqo'rg'oni besh a'zoli doiralardan tashkil topgan changchilari va bir a'zoli urug'chisi bor. Gul tugunchasi yuqori tomonda, bir uyada. Bu tartibga o'simliklarning eng tipik belgisi mevalarning loviya shaklida (yoki loviyaga o'xshaydigan boshcha shaklda) bo'lishidir.

Dukkaklilar tartibi 3 ta oilaga bo'linadi:

1. Mimosagullilar oilasi – Mimosaceae – $Ca_{(5)} Co_5 A_{\infty} G_1$

2. Kapalakgullilar oilasi –Papilionaceae – $\text{Ca}_{(5)}\text{Co}_{1+2+(2)}\text{A}_{(9)+1}\text{G}_1$
3. Sezalpingullilar oilasi – Ceasalpiniaceae – $\text{Ca}_{(5)}\text{Co}_{(5)}\text{A}_{10}\text{G}_1$

Mimozagullilar (Mimosaceae) oilasi.

Bu oilaga kiradigan o'simliklar asosan daraxtlar holida bo'lib, yonbarglari bor, patsimon yoki qo'shpatsimon murakkab barglar chiqaradi. Gullari aktinomorf, ahyon-ahyonda zigomorf va maydamayda bo'lib, kallak yoki boshhoqsimon to'pgul hosil qiladi. Gulqo'rg'onidan ochiq rangli uzun-uzun otalik iplari chiqib turadi, o'sha iplarning ochiq rangi(sariq, pushti yoki qizil) changlovchi hashoratlarni jalb qiladi. Gulqo'rg'oni qo'shaloq yoki gultoji taraqqiy qilmay qolganligi natijasida ba'zan oddiy bo'ladi.

Kosachabarg asosan beshta (lekin, ko'pincha to'rtga, uchta yoki oltita) bo'lib, bir-biriga qo'shilib, goho qo'shilmay o'sadi. Gulbarglarining soni kosacha barglarning soniga baravar, ular qo'shilmagan yoki ba'zan bir-biriga birmuncha o'sgan bo'ladi.

Otaliklarining soni turlicha. Ba'zi avlodlarida ularning soni kosachabarglar soniga baravar bo'lsa, ba'zilarida ikki marta ko'p, yoki bir talay. Otalik iplari goho mutlaqo erkin tursa, goho qo'shilib o'sib naycha hosil qiladi, yoki gultoij bilan qo'shilib ketgan bo'ladi. Birdan-bir meva bargchasi ustki, tugunchali, bir uyali onalik hosil qiladi. Mevasi loviya shaklida bo'lib, ochiladi.

Mimozagullilar oilasining vakillari ikkala yarim sharning tropik va subtropik zonalarida keng tarqalgandir. Bu oilaning eng katta vakili akatsiya (Acacia) avlodiga taxminan 500 tacha tur kiradi, ularning yarmidan ko'prog'i Avstraliyada tarqalgan.



RASM 1.

MIMOSA PUDICA

ACACIA NEGEV

Avstraliyada o'sadigan akatsiyalar ko'pincha plastinkalari hiyla yoki tamoman reduktsiyalangan, bandi vertikal tekislikda keng tortgan barglar chiqaradi (fillodiy), bu assimilyatsiya qiladigan yuza yetarli darajada keng bo'lgani holda bug'lanishning haddan tashqari kuchayishiga yo'l qo'ymaydi. Akatsiya (Acacia) avlodining turlari Afrikada ham keng tarqalgan bo'lib, barglarini to'kadigan tropik daraxtlari o'rmonlarda uchraydi va savannalarga manzara berishda xissa qo'shadi. Afrika akatsiyalari ba'zan tepasidan bosilgandek bo'lib ko'rinadigan g'alati shox-shabba chiqaradi, soyabon akatsiya deb shuni aytiladi. Ba'zi akatsiyalarning yonbarglari tikanga aylangan, ularni ichi kavak bo'lishi ham mumkin, ichi kovak shunday tikanlar chumolilarga in bo'ladi. Chumolilar barglarning uchida bo'ladigan yassi qsimon alohida ortiqlar to'qimasi (oziqli tanalar) bilan oziqlanadi, o'sha tanalarda azotli moddalar bilan moy bo'ladi. Talaygina akatsiyalar gulli moddasini beradi, ayniqsa senegal akatsiyasi (Acacia arabia) va boshqa ba'zi turlari, shu jihatdan juda qadrli va qimmatli mahsulot beradi. Akatsiyalardan olinadigan gummi texnikada Gummi arabicum deb ataladi. Akatsiyalarning po'stlog'ida oshlovchi moddalar ko'p, bu moddalar import qilinib Yevropaga keltiriladi.

Kapalakgullilar (Papilionaceae) oilasi.

Bu oilaga kiradigan o'simliklar o'tlar, yarim butalar, goho daraxtlar holida bo'lib, yonbargli patsimon yoki barmoqsimon murakkab, ba'zan oddiy barglar chiqaradi. Gullari odatda o'rtacha yoki mayda bo'ladi, gullari mayda bo'lsa, odatda shingil, ba'zan boshcha, soyabon yoki boshoqsimon To'pgul holida bo'lib turadi. Gulning tuzilishi juda tipikdir. Beshta kosachabargi qo'shib o'sgan va goho aktinomorf, goho zigomorf. Gultojining 5 ta gulbargidan elkan deb ataladigan orqa bargi hammasidan katta bo'lib ajralib turadi, uning yuqori qismi (qayirmasi) bandchasiga nisbatan deyarli to'g'ri burchak ostida joy oladi. Elkanning chetlari bandchani eshkak yoki qanotlar deb ataladigan ikki yonbargini yopib turadi, bu barglar assimetrik tuzilgan. Qanotlar, o'z navbatida ikkita pastki barglarni qoplab turadi, bu barglar ham assimetrik

tuzilgan bo'lib, bandchasi bor, ular boshdan oyoq yoki faqat yuqori qismdan bir-biriga qo'shib o'sadi va qayiqcha deb ataladigan bir tuzilma hosil qiladi. Gulning otaligi 10 ta, gulida otaligi 9 ta yoki 5 ta bo'ladigan kapalakgullilar oilasi kamdan-kam istisno tariqasidagina uchraydi. Ko'pincha 9 ta otalik iplari onalik atrofida bir-biri bilan qo'shib, tutashmas naycha hosil qiladi, qo'shib o'smay, erkin turadigan 10-otalikning birmuncha keng tortgan, ipi o'sha naychani tirqishini yopib turadi. Ahyon-ahyonda 10 ta otalikning hammasi bir-biri bilan qo'shib ketadi, yoki aksincha, hammasi erkin qoladi.

Onaligi, dukkaklilarning hamma vakilaridagidek, bir uyali, ustki tugunchasi bor bitta meva bargchadan iborat. Mevalari ikki palla bo'lib ochiladigan loviya shaklida, ular quruq yoki ba'zan suvli bo'ladi. Ba'zan loviya holidagi mevalar ochilib, munchoqsimon bo'lib qoladi va bir mevali bo'g'imlarga bo'linadi. Ba'zi kapalakgullilar oilasining mevalari mayda, bir urug'li, ya'ni yong'oqchaga aylangan bo'ladi. Kapalakgullilar oilasining ko'pchiligi hashoratlar bilan changlanadi, gullarning murakkab tuzilganligi ham shunga bog'liq. Ochiq rangli gultojida elkan qayirmasi yaqqol bo'lib ko'rinib turadi: changlovchi hashoratlarni jalb etishda shu tuzilma asosiy rolni o'ynasa ajab emas. Kapalakgullilar oilasi o'zining xo'jalikda tutgan ahamiyati jihatidan yopiq urug'li o'simliklarning eng muhim oilalaridan biridir. Ularning ahamiyati birinchi galda kapalakgullilarning va umuman dukkaklilarning *Bacterium radicola* degan umumiy nom bilan ataladigan bakteriyalar bilan birga yashashga bog'liq. *Bacterium radicola* turlari orasida fiziologik jihatdan mustaqil bo'lgan bir qancha formalar borki, ularning har biri kapalakgullilar oilasining ma'lum bir turlari yoki tur guruxlari bilan birga yashaydi. Ildiz tuklari orqali tuproqdan birlamchi ildiz po'stiga o'tadigan tugunak bakteriyalarning urchishi natijasida ildiz parenximasi o'sib qalinlashadi va tugunaklar deb ataladigan o'simtalar hosil qiladi. Ildizdan joy oladigan bakteriyalar atmosferadagi azotni (uning zapasi tugunmasdir) juda yaxshi o'zlashtira oladi va shu azotni tabiatda biologik moddalar almashinuviga kiritadi. Tugunak bakteriyalar ishlab chiqaradigan oqsil moddalarni dukkakli o'simliklar o'zlashtiradi, shunga ko'ra azot kam tuproqda ham yaxshi o'saveradi. Dukkakli o'simlikning ildizi va boshqa qismlari chiriganda birikmalar holida to'plangan organik azot zapasi tuproqqa o'tadi va chirib hamda boshqa bakteriyalar ishtiroki bilan yashil o'simliklarga azotli oziq beradigan manba bo'lib qoladi.

Dukkaklilar tartibi turlarining yarmidan ko'prog'ini o'z ichiga oladigan kapalakgullilar oilasi butun yer yuzidagi o'rta iqlimli mamlakatlarga tarqalgan bo'lib, o't va butasimon formalar ko'rinishida o'sadi, ammo kapalakgullilar orasida tropiklarga yaqin joylarda, asosan daraxtlar holida o'sadigan vakillar

ham uchraydi. Kapalakgullilar oilasi odatda ikki gruppaga bo'linadi: a) otaliklari erkin turadigan kapalakgullilar oilasi va b) 10 ta otalikning hammasi yoki ko'pincha faqat 9 tasi qo'shib o'sadigan va 10-si erkin qolib, otalik naychasi tirqishini berkitib turadigan kapalakgullilar. Birinchi gruppaga kiradigan kapalakgullilar oilasi *Caesalpiniaceae* ga hammadan yaqin turadi va shu o'simliklar vositasi bilan atirgullilar oilasiga bog'lanadi.

Kapalakgullilar oilasi orasida oziq - ovqat bo'ladigan o'simliklardan quyidagilar ayniqsa muhimdir. No'xat (*Pisum sativum*) juft patsimon barglar chiqaradigan o'tsimon o'simlikdir,

barglari yirik yonbargli bo'ladi va uchidan shoxlangan jingalaklar chiqaradi, gullari oq. No'xat ovqatga ishlatilishi jihatidan juda katta ahamiyatga ega, chunki urug'lari oqsillarga boyligi jihatidan go'shtga yaqin turadi (lekin dukkaklilarning oqsillari hayvon oqsillariga nisbatan kamroq xazm bo'ladi), bundan tashqari, talaygina kraxmali bo'ladi. Ba'zi navlarning mevalari shakarga boy bo'ladi va yetilmagan hoida ovqatga ishlatiladi. No'xatning asosiy mahsuloti (urug'i) dan tashqari yer ustki vegetativ qismlaridan ham foydalaniladi, ular oqsilga boy bo'lganidan qimmatli em-xashak o'rnini bosadi. No'xat ko'p azot to'playdigan o'simlik bo'lgani uchun, keyin ekiladigan o'simliklarning hosiliga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Loviya (*Phaseolus vulgaris*) ning bir qancha navlari bor, ular urug'larning katta-kichikligi, shakli va rangi bilangina emas, balki quruqlikka chidamligi, tezpisharligi bilan ham ajralib turadi va hokazo. Bu o'simlikning ona vatani janubiy Amerikadir degan ma'lumotlar bor. Loviya ko'pincha janubiy rayonlarda ekiladi, shimolda havoning nam va salqin bo'lishi loviyaning o'sishiga to'sqinlik qiladi. O'rta Osiyoda loviyaning alohida bir turi mosh (*Phaseolus Mungo*) ko'p tarqalgan, mosh ham ovqatga ishlatiladi.

Yeryong'oq (*Arachis hypogara*) - o't o'simligi bo'lib, juft patsimon barglar va sariq gullar chiqaradi. Guli ochilib to'kilgandan keyin tuguncha bandi (ginofor) cho'zilib, pastga qayriladi, natijada tuguncha tuproqqa kiradi va shu yerda loviyasimon meva tugadi. Meva yoni quruq bo'lib yuzasi turlaydi. Har qaysi mevada (dukkakda) bir nechtadan doni bo'ladi. Donida 55% ga yaqin moy va 25-35% oqsil bor. Yeryong'oqdan olinadigan moy eng yaxshi o'simlik moylaridan hisoblanadi va zaytun moyidan uncha qolishmaydi.

Sebarga (*Trifolium*) uch qo'shaloq (ba'zan besh qo'shaloq) g'alati barglar chiqaradigan o't o'simliklarini o'z ichiga oladi. Boshcha-boshcha bo'lib turadigan gullari birmuncha mayda va qizil, pushti oq, goho sariq va qo'ng'ir bo'ladi. Mevalari bitta ba'zan 2-6 ta urug' tugadigan va sal yoriladigan loviya holidadir. Qishloq xo'jaligida qizil sebarga yoki yovvoyi sebarga (*Trifolium pratense*) katta ahamiyatga ega.

Termopsis (*Thermopsis lanceolata*) - qirlarda, Volga bo'ylarida, Sibir va O'rta Osiyoda ko'p uchraydi va ba'zan begona o't hoida o'sadi.

Bu o'simlikdan yo'talga qarshi dori olinadi, shu bilan birga termopsisning chetdan keltiriladigan ipekakuana ildizining o'rnini bosa olishi hozir aniqlangan.

Bo'yoq beradigan drok (*Genista tinctoris*) - qirlarda, qisman o'rmonlarda o'sadigan buta o'simlikligining shingil - shingil sariq gullaridan och sariq rangli yaxshi bo'yoq olinadi. Tropik, qisman subtropik mintaqada ko'p ekiladigan Indigofera tinctoria indigo degan aynamas ko'k bo'yoq beradi. Kapalakgullilarning ba'zi daraxtsimon formalari juda qattiq, qimmatli yog'och beradi; masalan, qizil sandal daraxti va afrika qora daraxti shular jumlasidandir.

Bizda o'sadigan sariq akatsiya (*Caragana arborescens*) va shunga yaqin turadigan derez (*G. frutex*) turi yashil devor qilib ekiladi.

Bir yillik kapalakgulli o'simliklardan lyupin (*Lupinus*) o't o't o'simlik bo'lib, barmoqsimon-murakkab g'alati barglar chiqaradi. Gullari oq, sariq yoki ko'p rangda, shingil -shingil bo'lib turadi. Qishloq xo'jaligida sariq lyupin (*L. luteus*), ingichka bargli lyupin (*L. angustifolius*) va oq lyupin (*L. albus*) ning ahamiyati bor. Lyupinlar ikki jihatdan ahamiyatga ega. Ular juda ko'p azot to'playdi, shunga ko'ra qum tuproqli ariq yerlar ham azotga ancha boy bo'lib qoladi. Ikkinchi tomondan, lyupinlar oqsilga juda boy bo'lib, yaxshi em - xashak o'rnini bosadi.

Sezalpingullilar (Ceasalpiniaceae) oilasi.

Bu oilaga kiradigan o'simliklar daraxtlar, lianalar, butalar goho o'tlar hoida bo'ladi va ketma-ket joylashgan, qo'sh patsimon, goho oddiy barglar chiqaradi (oddiy barglar murakkab barglarning reduksiyalanishi natijasida

yuzaga keladi) va hamisha yonbarglari bo'ladi. Gullari ba'zan deyarli aktinomorf, lekin odatda zigomorf, siklik bo'lib, odatda besh a'zoli, ba'zan to'rt a'zoli doiralardan tashkil topadi.

Kosachabarglari odatda erkin turadi. Gulbarglarning soni kosachabarglarning soniga teng yoki undan kamroq, ular katta-kichik bo'ladi, shu bilan birga orqa tomondagi eng yirik gulbargi yon gulbarglarning chetlari bilan qoplanib turadi, yon gulbarglarini esa pastki gulbarglar bekitib turadi. Otaliklari

o'nta bo'lib, ikkita doira hosil qiladi. Ular bir-biriga qo'shilmaydiyu, lekin iplari ba'zan bir-biriga birmuncha qo'shilib o'sadi. Ba'zan otaliklar butunlay reduksiyanib ketadi, natijada changchilari besh a'zoli bo'lib qoladi. Onaligi bir uyali, tugunchasi bor meva bargchadan iborat bo'lib, ba'zan gul o'rnida hosil bo'lgan band chiqaradi. Mevasi ba'zan ochiladigan ba'zan ochilmaydigan loviya shaklida. Ba'zi vakillarining urug'i endospermlidir.

Shimoliy Amerikada o'sadigan gledichiya degan daraxt (*Gleditschia trianthos*) juda diqqatga sazovordir, bu daraxt uzunligi 10 santimetrdan oshadigan oddiy yoki shoxlangan tikanlar chiqaradi. Gledichiya Krim, Kavkaz va O'rta Osiyoda dekorativ daraxt o'rnida o'stiriladi, bu o'simlik yaxshi asal beradi, uni Ixoto o'rmonlari barpo qilishda ko'plab ekiladi.

ARALIYADOSHLAR OILASI (ARALIACEAE)

Bu oilaga asosan daraxt va buta, ayrim hollarda tikanli hamda ilashuvchi liana va o't o'simliklari kiradi. O'simliklarning barglari poyada ketma-ket joylashgan, ba'zan qarama-qarshi yoki halqa bo'ylab joylashgan, oddiy, chekkasi tekis, o'yilgan yoki murakkab bo'lishi ham mumkin. Gullari sariq rangli, aktinomorf, mayda, ikki yoki ayrim jinsli, besh a'zoli, ko'pincha soyabon to'pguliga yig'ilgan. Kosachabarglari yaxshi rivojlanmagan, tojibarglari esa tezda to'kilib ketadi. Urug'chisi 1-5 tagacha mevabargli. Tuguncha ostki, ba'zan yarim ostki hamda ustki ham bo'lishi mumkin. Mevasi rezavor yoki danakcha. Oila vakillarining ko'p qismi asosan tropik va mo'tadil iqlimli zonalarda joylashgan.

Bu oilaning pechak (*Hedera*), fatsiya (*Fatsia*), araliya (*Aralia*), jenshen kabi turkumlari bor. Chin jenshen (*Panax ginseng*) bo'yi 40-50 sm keladigan, uzoq yillar davomida o'sadigan, mevasi qizil rangli dorivor o't o'simlikdir. Xitoyda, Rossiyaning Dengizoldi o'rmonlarida yovvoyi holda uchraydi. Bu oilaning vakillaridan exinopanaks (*Echinopanax*), yovvoyi murch eleuterokokk (*Eleutherococcus*) lar daraxt va buta shaklidagi o'simliklardir. Jenshen dorivor o'simlik sifatida Yaponiya, Xitoy, Sobiq Ittifoq yerlarida, shuningdek Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlarida, Yevropa mamlakatlarida ham ekib o'stiriladi. Ilmiy manbalardan yaxshi ma'lumki, 1753-yilda K. Linney tomonidan jenshen turkumiga berilgan nom aslida rapassa so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi barcha kasalliklarning davosi demakdir. Qizil jenshen (*Panax ginseng*) ildizi tarkibidagi saponinlar immun tizimini mustahkamlaydi, xotirani yaxshilaydi, insonning aqliy faoliyatini kuchaytiradi, charchoqlik, horg'inlikni bartaraf etadi. Shuningdek, saponin bosh miya hujayralarining sintezini ta'minlaydi, xolesterin metabolizmining yaxshilanishiga yordam beradi, jigarni himoya qiladi.

Fatsiya turkumi vakillari doimo yashil, yirik, panjasimon o'yilgan, murakkab panjasimon shaklda bo'ladi. Gullari mayda, soyabonsimon to'pgulga yig'ilgan, buta yoki daraxtlardir. Bu turkumning ikki turi bor. Qog'ozli fatsiya (*Fatsia papyrifer*) Xitoy va Yaponiyada ekiladi va uning poyasining o'zagidan presslash usulida yuqori sifatli qog'oz tayyorlanadi. Yaponiya fatsiyasi (*Fatsia japonica*) sovuqqa chidamli o'simlik bo'lib, asosan manzarali o'simlik sifatida yetishtiriladi. Araliyadoshlar oilasiga kiruvchi Manchjuriya araliyasining ildizidan asablarni qo'zg'atish xususiyatiga ega bo'lgan dorilar olinadi.

Nazorat savollari

1. Dukkakdoshlarning oilasi va ularning kenja oilalari?
2. Mimosadoshlar kenja oilasi va ularning vakillari?
3. Sezalpidoshlarning va Kapaladoshlar kenja oilalari vakillari?
4. Araliyadoshlar oilasiga umumiy xarakteristika va ularning qaysi vakillarini bilasiz?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv

qo'llanmalar ro'yxati

23. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
24. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
25. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
26. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
27. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
28. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
29. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
30. Василева.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
31. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
32. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
33. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA 23

Ituzumdoshlar, yasnotkadoshlar oilalari.

Ma'ruzaning maqsadi: Ituzumdoshlar, yasnotkadoshlar oilalariga tasnif ularning asosiy vakillari to'g'risida tushuncha berish.

Reja:

1. Ituzumdoshlar oilasiga tasnif.
2. Ituzumdoshlar oilasining vakillari va tibbiyotdagi ahamiyati.
3. Yasnotkadoshlar oilasiga tasnif.
4. Yasnotkadoshlar oilasining vakillari va tibbiyotdagi ahamiyati.

Tayanch iboralar *Ituzumdoshlar oilasi: ituzum, bangidevona, mingdevona, belladonna, fizalis, garmdori, chin tamaki, chilim tamaki, pomidor, baqlajon, kartoshka. Yasnotkaguldoshlar oilasi: yalpiz, dorivor mavrak.*

Ituzumdoshlar oilasi – Solanum.

Bu avlod vakillari gullari to'g'ri tuzilgan, oq, ko'k, qizil, binafsha, sariq rangli, gultoiji yulduzsimon, qisqa naylidir. Otaligi 5 ta,bandi qisqa, changdoni chetlari bilan birlashib nay hosil qiladi. Changdoni uchidagi teshikchalari orqali yorilib, ochiladi. Urug'lari endospermli. Bu gulli o'simliklarning eng yirik avlodlaridan bo'lib, 1300 dan ortiqroq turni o'z ichiga oladi. Uning vakillari asosan markaziy va janubiy Amerikada, Afrikada, bir qismi Yevro Osiyo va Amerikaning o'рта iqlimli zonalarida o'sadi. Ituzumning MDX florasida 18, O'zbekistonda 7 turi uchraydi. Dexqonchilikdagi bir necha muhim o'simliklar shu avlodga kiradi.

Gul formulasi: $Ca_5 Co_{(5)} A_5 G_{(2)}$



Rasm 1. *S. tuberosum*

S. Melongena

Nicotiana

Kartoshka- *S. tuberosum*. Bu yer ostidagi ipchalarda o'zgargan ildizpoya tunganaklar hosil qiladigan ko'p yillik o't o'simliklardir, to'p gullari murakkab gajak, gullari to'g'ri tuzilgan oq sariq, pushti va och binafsha rangli, gultoji voronkasimon. Changdoni sariq, mevasi 2 uyali, kattaligi olchadek, yashil rangli rezavor meva. Kartoshkaning vatani Janubiy Amerika bo'lib, 16 asr oxirlarida Yevropaga keltirilgan.

Tuganagida 12-25% kraxmal, 2% chamasida moy, shu miqdorda oqsil hamda "A", "B₁", "B₂", "B₆", "C", "K" vitaminlari bo'lganligidan bir yillik sabzavot va texnika o'simligi sifatida yer sharining ko'p qismida ekiladi. Kartoshka yovvoyi holda janubiy markaziy Amerikaning And tog'larida o'sadi. Rossiyada 18 asrdan boshlab, O'zbekistonda esa 19 asrning 2 yarmidan ekila boshlandi. Kartoshkaning 2000 dan ortiq navi bor. Dunyo dexqonchiligi bo'yicha kartoshka ekiladigan maydon 20 million ga etadi. O'zbekistonda kartoshkaning ertagi navlaridan Kurer, Nimrang, Epikuo, Ekron, Pochki navlaridan Lorx, Qaychi barg,

Gollandskiy va boshqalar ekiladi.

Ituzum - *S. nigrum*. Bu bir yillik, mevasi dumaloq, urug'i sariq begona o'tdir. U hamma yerda uchraydi. Bizda mevasi qora ituzum o'sgan joylarda qizil mevali ituzum ham o'sadi. Har ikki turning mevasida "S" vitamini juda ko'p.

Pomidor avlodi. Ituzumlarga eng yaqin avlod hisoblanadi.

Pomidor – *L. esculentum*. Bu mayin tukli o'ziga xos hidli, bir yillik o'simlikdir. Barglari uzuk-uzuk katta qismi toq patsimon, bo'lakchalarga bo'lingan. Gullari murakkab yoki oddiy gajak yoki shingil tipida to'pgul hosil qiladi. Gultoji sariq, changdonlari yonidagi tik yoriqchalar orqali ochiladi. Mevasi sersuv mevadir. Vatani janubiy Amerikadir. U erda ko'p yillik o'simlik hisoblanadi va daraxtga o'xshash turlari yovvoyi holda o'sadi. Navlari g'oyat ko'p bo'lib, keng miqyosda ekiladi. 16 asrning oxirida (1569 yil) pomidor urug'i ekib, tajriba qilish maqsadida Angliyaga keltiriladi. Pomidor Rossiyada ham birinchi marta 1780 yili ekilib ko'riladi. Odessada 1850 yildan ekila boshlaydi. 19 asrning 1 yarimlaridan boshlab

O'rta Osiyoda ham ekila boshlaydi. Pomidorning mevasi "C", "B₁", "B₂", "B₆", "P", "PP", "K" vitaminlarga va karotinga (provitamin A) juda boydir. O'zbekistonda pomidorning tez pishar navlaridan Bizon va sporka-grebovakiy, kechpishar navlaridan Chudo-Riika, Budyoka, Maglob va boshqalar ekiladi.

Garmdori avlodi-Capsicum. Bu avlod 30 turdan tashkil topgan. Ularning Vatani Janubiy Amerikaning shimolidir. U yerda bir necha turlari ekiladi va yovvoyi holda o'sadi.

Qalampir- *C. annum*. Bu bir yillik, poyasi tik chiqqan ayri-ayri bo'lib o'sgan o't o'simlikdir. Gullari och xira, oq yoki binafsha rangli, mevasi cho'ziq konussimon, tuxumsimon, sharsimon, ko'pincha och qizil rangli rezavor mevadir.

Mevasi vitamin "A", "C" ga boyligi jihatidan (270 mg% gacha) sabzavot o'simliklari orasida birinchi o'rinda turadi. Vatani Mexikadir. Uning navlari ko'p. Achchiq navlarida kapsitsin alkaloidi ko'p bo'ladi, ziravor sifatida ishlatiladi. Shirin navlari esa salat va do'lma qilib ovqatga ishlatiladi.

Belladonna – Atropa belladonna. Bu mevasi olchaga o'xshash, ammo 2 uyali, ko'p urug'li, suvli rezavor - meva hamma qismi zaxarli o't o'simlikdir. Qrim, Kavkaz va Karpat tog'larida o'sadi. Ba'zi tadqiqotchilar Kavkazda o'suvchi belladonnani alohida mustaqil tur deb hisoblaydilar. Bu eng muxim dori o'simliklardan bo'lib, Ukrainada ekiladi. Hamma organida ham atropin, giosiamin, beladonain, skopolamin alkaloidi bor.

Mingdevona avlodi – Hyoscyamus Bu avlod vakillari 11 turdan iborat zaharli begona o'tlar bo'lib, Yevropada, Osiyoda va Shimoliy Amerikada tarqalgandir. MDX florasida 8, O'zbekistonda 5 turi bo'lib bulardan qora mingdevona ayniqsa ko'p tarqalgan, bu barglari yirma, tuxumsimon, chetlari o'yilgan, patsiz tanasi yopishqoq bezlar bilan qoplangan. Ikki yillik o't o'simlikdir. Gullari biroz zigomorf tuzilgan gajaksimon to'p gul hosil qiladi. Kosachasi ko'sakchasimon, tishlari keng uchburchakli. Gultoji och sariq, bo'g'zi qoramtir ko'k rangli taram-taram, binafsha tomirli. Mevasi uchidagi

bo'rtganroq qopqoqchasi orqali ochiluvchi ko'p urug'li ko'sakcha, ko'sagi cho'ziq idishga o'xshash bo'lganidan mingdevona, ba'zi yerlarda shayton kosa ham deb ataladi. Barglari va tanasi tibbiyotda keng qo'llaniladi.

Bangidevona avlodi – Datura Bu avlod vakillari 15 turdan iborat o't va butalardir. Ular ko'proq issiqroq mamlakatlarda tarqalgan. Mevasi sirtidan tikanli ko'pincha to'rt pallaga bo'linuvchi, kosachasi tag qismida qoluvchi ko'p urug'li ko'sakdir. O'zbekistonda 4 turi bor, shundan oddiy bangidevona (D.stramonium) juda ko'p tarqalgan. Oddiy bangidevonaning guli oq, yakka-yakka voronkasimon, xila yoqimsiz hidli, poyasi

yashil, yuqori qismi ayri bo'lib shoxlangan bir yillik o't o'simlikdir. Qishloqlarda xonadonlar tevaragida, xususan axlatlar tashlangan yerlarda begona o't sifatida g'o'zalar orasida o'sadi. Hamma qismi zaharli atropin, giossiamin, sikopolamin

alkaloidlari bor. Barglari tibbiyotda ishlatiladi. Mollar tegmaydi.

Tamaki avlodi - Nicotiana. Bu avlod 40dan ortiqroq turdan iborat bo'lib, asosan Amerikada, bir qismi boshqa qitalarda tarqalgan. Tamaki buta yoki o't o'simlik bo'lib, gullari yirik, gultoji varonkasimon, nayi varonkasimon yoki qo'ng'iroqsimon bo'ladi. Mevasi tuxumsimon yoki qariyb sharsimon, mayda urug'li ko'sak bo'lib, uchidan yorilib

2 yoki 4 pallaga ajraladi. Tamakining 2 turi bir yillik o'simlik sifatida ekiladi.

Ituzumguldoshlarning xo'jalikdagi ahamiyati.

Bu oilaga qarashli turlari dexqonchilikda muhim ahamiyatga ega. Chunki kartoshka, pomidor, baqlajon, qalampir, pag'-pag' va shu kabilar keng miqyosda ovqat va sabzavot o'simligi sifatida ekiladi. Belladonna, mingdevona, bangidevona, skapoliya va boshqalar dorivor o'simlik sifatida ekiladi. Tamaki va moxorkalar narkotik o'simlik sifatida ekiladi. Tamakining urug'idan tamaki yog' olinadi. Moxorka bargidan limon kislotasi olinadi. Ituzumdoshlarda har xil zaharli alkaloidlar -salonin, leropin, giossiamin va boshqalar, ba'zan glikozidlar bo'lganidan ularning ko'pchiligi zaharli bo'ladi. Shu sababdan mollar emaydi, bular orasida ituzum, bangidevona, mingdevona, oq shingil va boshqa begona o'tlar ham uchraydi.

Yasnotkadoshlar (Labguldoshlar) oilasi – Lamiaceae.

Bu katta oilaga o't, chala buta va buta o'simliklari kiradi. Poyasi 4 qirrali, barglari qarama-qarshi joylashadi. Yon barglari bo'lmaydi. Gullari zigomorf, ikki jinsli, gultojsi 2 ta tojbargining qo'shilib o'sishidan vujudga kelgan bo'lib, qalpoqsimon yoki yassi shaklda bo'ladi. Ostki lab 3 ta tojbargdan vujudga kelgan bo'lib, yotiq holatda yoki pastga egilib turadi va aksariyat o'simliklarda bu tojbarglarning o'rtadagisi 2 ga ajralgan bo'ladi. Kosachalari besh tishli, barglari qo'shilib o'sgan bo'lib ba'zan ikki labli bo'ladi va lablarning ustki 3 ta tojbargdan, ostkisi 2 ta tojbargdan tuziladi,

changchilari 4 ta gultoj naychasiga qo'shilib o'sadi va oldingi 2 tasi keyingi 2 tasiga qaraganda uzunroq bo'ladi. Ba'zan 2 tagina changchi bo'lib, qolgan changchilar reduksiya qilangan, Urug'chilari 2 ta mevacha bargdan tuzilgan tugunchali ustki 4 uyalidir. Gullarning bandi juda qisqa bo'lib gullar uchki barglarining qo'ltiqida oddiy to'pgullarga to'plangan bu kichik to'p gullar esa shingil boshcha yoki ro'vakga o'xshash murakkab to'pgullar hosil qiladi. Gulning changgi tumshuqchasidan oldin etiladi. Gullar hashoratlar yordamida chetdan changlanadi. Mevalari bir urug'li 4 ta yong'oqchaga ochiladi. Urug'ida endosperm bo'ladi. Labgullilarning aksari turlari efir moyli o'simliklardir. Labgullilar oilasining 200 turkumi va 3500 turi bor. Ular butun yer yuzining deyarli hamma joyida uchraydi va o'rmon, dasht, sahro va tog'larda o'sadi. Gul formulasi $\text{C}_{15}\text{O}_{2/3}\text{A}_4\text{G}_{(2)}$

Mavrak turkumi - (Salvia). Ko'p yillik o't, chala buta o'simliklar. Uning Osiyoda 20 dan ko'p turi uchraydi. Ular tog'li rayonlarda ko'p tarqalgan. S.officinalis turi dori tayyorlashda ishlatiladi.

Yalpiz turi (Mentha) –Ko'p yillik o't o'simliklari bo'lib efir moylidir. Bu oilaning vakillari asosan zax yerlarda, ariq va kanal bo'ylarida tarqalgan. O'zbekiston florasida Osiyo yalpizi (M.asiatica) keng tarqalgan. Cho'l yalpiz (M.arvensis) va jingalak yalpizlar (M. crispa) ekiladi.

Oddiy rayhon-(Acimum basilicum). Bir yillik o't o'simlik, uning oq rayhon, qora rayhon, osh rayhon turlari ma'lum. Ular ziravor va xushbo'y o'simlik sifatida ekiladi.

Yasnotkalar turkumi-Lanium. Bir va ko'p yillik o't o'simliklar. O'zbekiston florasida pushti yasnotka (L.amplexicanle) va oq yasnotka (L.alba) turlari begona o't sifatida o'sadi. L.alla dori tayyorlashda ishlatiladi. Ular asal beruvchi o'simlik hisoblanadi.

Kiyik o'tlar turkumi-Ziziphora. Bular tarkibida efir moylari bor, bir yillik va ko'p yillik o'tlardir.

Tog' jambuli (origanum)- Faqat bir turi (o.typhantum) O'zbekiston florasida tarqalgan.

Lavanda turkumi-Lavandula. - Asl lavanda L.vera, bu gullari ko'p yoki to'q binafsha rangli juda xushbo'y hidli chala butadir. Efir moyi olish uchun Qrimda, Kavkazda va Moldaviyada ekiladi. Efir moyidan odikalonlar tayyorlanadi. Qurtilgan gullari kiyimlarni kuyadan saqlash uchun sepiladi.

Yasnotkaguldoshlarning (Labguldoshlarning) xo'jalikdagi ahamiyati. Bu oila vakillari efir moyiga boy bo'lgandan ularning ko'pgina vakillari efir moyi olish uchun ekiladi. Masalan: Mavrak(muskat mavragi), lavanda va boshqalar. Bulardan olingan efir moyi atir - upa sanoatida, ovqat va likyor-arok ishlab chiqarish sanoatida qo'llaniladi. Bir necha turlari masalan: tog' jambuli, logaxilus, limon o'ti, dorivor mavrak, arslonquyruq va boshqalar tibbiyotda ishlatiladi. Yalpiz, osh rayhon, jambul va boshqalar ovqat mazasini yaxshilashda ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. Ituzumdoshlar oilasi va ularning vakillari?
2. Ituzumdoshlar oilasi vakillarining tibbiyotdagi va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati?
3. Yasnotkadoshlar oilasiga umumiy xarakteristika ?
4. Yasnotkadoshlar oilasining muhim ahamiyatga ega bo'lgan vakillarini ayting?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv

qo'llanmalar ro'yxati

34. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
35. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
36. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
37. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
38. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –

39. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
40. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
41. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
42. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
43. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
44. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA’RUZA 24

Astradoshlar, zaytundoshlar oilasi.

Ma’ruzaning maqsadi: Astradoshlar, zaytundoshlar oilalariga tasnif ularning asosiy vakillari to’g’risida tushuncha berish.

Reja:

- 1.Astradoshlar oilasiga tasnif.
- 2.Astradoshlar oilasining vakillari va tibbiyotdagi ahamiyati.
- 3.Zaytundoshlar oilasiga tasnif.
- 4.Zaytundoshlar oilasining vakillari va tibbiyotdagi ahamiyati.

Tayanch iboralar *Astraguldoshlar oilasi: kungaboqar, bo’tako’z, romashka, qoqio’t, topinambur (ernok), bo’ymadaron, shuvoq, sachratqi. Zaytundoshlar oilasi: ligistrum, zaytun, jasmin turkumlari.*

Astradoshlar (Murakkabgullilar) oilasi –Asteraceae (Compositae)

Astraguldoshlar (murakkabgullilar) - eng katta o‘simliklar oilasi bo‘lib, 800 dan ortiq avlodni va 14 mingdan ko‘proq turni (ba'zan sistematiklar hisobicha hatto 25 ming turni) o‘z ichiga oladi, bu oilaning ko‘pchilik vakillari o‘tlar, ba'zilar yarim butalar, butalar va xatto kamdan kam daraxtsimon o‘simliklardir. Ko‘pchiligining barglari navbatma navbat joylashgan yon bargsiz. Bu oilaning nomi savatchasimon to‘pgullarga qarab qo‘yilgan, ularning to‘pguli sirdan qaraganda alohida-alohida guldek bo‘lib ko‘rinadi. Gul savatchalari o‘z navbatida talaygina vakillarda murakkab supurgisimon, qalqonsimon to‘pgullar hosil qiladi va hakozi. Savatchaning asosida (past tomonida) mayda - mayda bargdan

tuzilgan va to‘pgulga zich taqalib turgan o‘rama bor, bu tuzilmani hosil qilgan barglar talaygina vakillardan cherepitsaga o‘xshab joy oladi va yashil yoki boshqa rangda bo‘ladi, ular turmushda yanglishib gulkosacha deb o‘ylaydilar. Gul o‘rni yassi tarelkaga o‘xshaydi. Yoki bo‘rtgan yo bo‘lmasa botiq

bo‘ladi: ba'zan avlodlarda gul o‘rin yalang‘och, boshqalarda esa tokchalar yoki tukchalar bilan qoplangan. Gullari 4 doirali, 5 a‘zoli (genetsiydan boshqasi), ko‘pchiligida mayda-mayda bo‘ladi: ba'zilarida savatchadagi gullarining hammasi bir xil, boshqalarida esa tashqi gullari ichki gullaridan farq qiladi. Tipik gul kosachasi yo‘q, ba'zi vakillarida tugunchasining uchida gul kosachabargida to‘g‘ri keladigan 5 ta pardachasimon o‘simta bor, ko‘pchiligida (lekin hammasida emas) .



Rasm 1.

Gulkosachaga to'g'ri keladigan bir talay sodda yoki murakkab tukchalar, goho ipchalar bo'ladi, ular mevada saqlanib qoladi va o'sib, popuk yoki qanotchaga aylanadi, bular mevalarning shamol yordamida tarqalishiga yordam beradi. Gul tojbarglari hamisha qo'shilib o'sadi, har xil shaklda, aktinomorf yoki zigomorf bo'ladi. Gultojsi tuzilishiga ko'ra 4 xil tipda bo'ladi:

1. Naysimon - aktinomorf, ikki jinsli, tojbarglari 5 ta, birlashgan. Changchilari 5 ta urug'chisi ikkita meva bargning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Tugunchasi ostki. Naychasimon gullar savatchaning (kungaboqar) o'rtasida joylashgan bo'ladi.

2. Varonkasimon – zigamorf, jinsiz yani changchi va urug'chisi bo'lmaydi. Tojbarglari varonkasimon 5 ta birlashgan. Bu gullar meva bermasdan, hashoratlarni jalb qilish uchun xizmat qiladi. Bunga bo'tako'zning chetki gullari misol bo'ladi.

3. Tilsimon – zigamorf, ikki jinsli, gultoji tilsimon bo'lib 5 ta toj bargning birikishidan hosil bo'lgan. Changchilari 5 ta birlashgan, urug'chilari esa 2 ta meva bargning birikishidan hosil bo'lgan. Meva beruvchi gul hisoblanadi. Bularga qoqi o't, sachratqi va bo'ztikanlar misol bo'ladi.

4. Soxta tilsimon – zigamorf, bir jinsli ya'ni urg'ochi gul. Gultojsi 3 ta gultojbargning birikishidan hosil bo'lgan. Ular 2 labli bo'lib, ustki 2 ta labi reduksiyalangan, pastki 3 ta labi birlashgan. Tashqi ko'rinishidan chin tilsimon gullarga o'xshaydi, lekin undan tishning uchta bo'lishi hamda savatchaning chetida joylashishi bilan farq qiladi. Soxta tilsimon gullar rangli bo'lib, hashoratlarni jalb etadi. Bunga moychechak, kungaboqarlarning chekka gullari misol bo'ladi.

To'rt xil gulning ichida naychasimon qadimiy hisoblanadi. Qolgan uch xili tabiiy tanlanish jarayonida biologic moslanish natijasida naychasimon guldin kelib chiqqan. mevasi bir urug'li pista. Urug'i endospermsiz.



Astragullilarda kaychuk to'playdigan smola yo'llari, sut naychalari mavjud. ildizlarida inulin to'playdi.

Kungaboqar avlodi – Helianth

Oddiy kungaboqar (*H. annuus*) – bir yillik o't o'simlik, urug'ida 35-47% moy bor. Poyasi 3-4 m gacha tik o'sadi. Barglari oddiy, butun qirrali, poyaga ketma-kret joylashgan, poyaning ostki bo'g'inlarida barglari esa qarama-qarshi o'rnashishi mumkin. Poya va barglari bezli va qattiq tuklar bilan qoplangan. Savatchalarida ikki xil gullar bor. Markazida

naychasimon, chetlarida esa soxta tilsimon gullar joylashgan. Savatchalari ikki qavat o'rama barglarga ega. Savatchada 200-1000 tagacha guli bo'ladi.

Bo'tako'zlar avlodi – Centaurea Bu kattagina avlodning ko'pchilik turlari o'rta dengiz oblastlarida uchrasa, 100 ga yaqin turi boshqa joylarda uchraydi. Ularning savatchasi chetidagi gullari shaklan voronkaga o'xshaydi va jinssiz bo'ladi.

Sikoriylar avlodi – Cichorium Bu kichkina avloddan sobiq ittifoqning o'rta va janubiy mintaqasida yalangliklarda, yo'l chetlarida yovvoyi holda o'sadigan (*C. intybus*) ko'proq tarqalgandir. Bu ko'p yillik o'simlik, chiroyli, havo rang gullar chiqaradi va yo'g'on ildizli xillari bir yillik ekin tariqasida ekiladi. Uning ildizlari qovurilib surogat kofe o'rnida ishlatiladi, shuningdek tabiiy kofega qo'shiladi (10-20%) shunda kofe ancha qorayadi va mazasi taxirroq bo'lib qoladi. (Glikozid intibit). Bu avlodning endiviy degan boshqa turi sabzavot qatorida ekiladi.

Zaytundoshlar oilasi (*Oliaceae*)

Tartib vakillarining gullari to'rt doirali, gulqo'rg'oni to'rt qismli, changchilar soni ikkitagacha reduksiyalangan, gullari aktinomorf, urug'chisi ikki mevbargli, tuguncha ustki, ikki uyli o'simliklar. Bu tartibga zaytundoshlar oilasi kiradi.

Bu oilaga 25 ga yaqin turkum va 400 dan ortiq turi bo'lib, ular yer oilaga daraxt va butalar kiradi. Barglari oddiy, ba'zan murakkab, chetlari tekis bo'ladi. Gullari ro'vaksimon to'pgulga yig'ilgan, ikki jinsli, ba'zan ayrim jinsli, ikki uyli, qo'sh gulqo'rg'onli, birikkan va ayrim toj bargli yoki yalang'och gulli bo'ladi. Changchi ikkita, uning ikkita bo'lishi bu oilaning muhim belgilaridan hisoblanadi. Urug'chisi ikki mevbargli, tugunchasi ustki, ikki uyali. Mevasi rezavor meva, danakli meva, yong'oqcha, qanotli pistacha yoki ko'sakcha. Ko'pincha mevasi bir uyali va bir urug'li bo'ladi. Oilaga kiruvchi o'simliklarning gulqo'rg'on qismlari va androtseylari reduksiyalangan.

Ligistrum turkumi (*Ligustrum*). Turkumga doimiy yashil kichik buta yoki kichikroq daraxtlar kiradi. Barglari oddiy, chetlari tekis, qarama-qarshi joylashgan, yonbargchasiz. Gullari ikki jinsli, kosachasi qo'ng'iroqsimon, to'rt tishli, gulto'ji oq voronkasimon, kalta tishli, toj bargi to'rtta, qo'shilib o'sgan. O'simlikning mevasi 1 tadan 4 gacha urug'li rezavorga o'xshash danakli meva. Turkumga 50 ga yaqin tur kiradi. Bu turkumga oddiy ligistrum *L.vulgare* kiradi. O'simlikning gullari oq, barglari cho'ziq, tuxumsimon, mevasi yumaloq, qora rangli rezavor meva hisoblanadi.

Zaytun turkumi (*Olea*). Bu turkumga kiruvchi o'simliklar doimiy yashil rangdagi daraxt yoki butalardir. Turkum o'z ichiga 60 ta turni oladi. Yevropa zaytuni *O.Europaea* ning bo'yi 5-6 metr ga yetadi, ba'zan undan ham baland, tagining diametri 2-3 metr ga boradigan daraxtdir. Qadimdan zaytun daraxti mevasi va yog'i uchun ekilib kelingan. O'simlikning mevasi etli va seryog', yon mevali tuxumsimon shakldagi danakli meva. Undan olingan moy konserva sanoatida keng miqyosda qo'llaniladi. Zaytun mevasining mezo-karp qavatida 40 %, ba'zan hattoki 75% gacha moy bo'ladi. Zaytun daraxti O'rta dengiz atrofi mamlakatlarida ko'p ekiladi.

Bu oilaga yana **jasmin turkumi** ham kiradi. O'simlikning gullari voronkasimon shakldagi oq, sariq rangli, ayrim hollarda qizil rangda ham bo'lib, xushbo'y hidga ega. O'simlikning hayotiy shakli buta, ayrim turlari bargini to'kadi, boshqalari doim yashil. Dori jasmin manzarali o'simlik hamda efir moyi beradigan o'simlik sifatida ekiladi.

Nazorat savollari

1. Astradoshlar oilsi va ularning vakillari?
2. Astradoshlar oilasi vakillarining gul tuzilishi?
3. Naychasimon, voronkasimon gullarning bir biridan farqlari?
4. Tilsimon, soxtatilsimon gullarning bir biridan farqlari?
5. Zaytundoshlar oilasiga umumiy xarakteristika va muhim ahamiyatga ega bo'lgan vakillarini ayting?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv

qo‘llanmalar ro‘yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A. Botanika. – T.: O‘zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A., Samatova SH. O‘simliklar sistematikasidan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O‘.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа ”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA‘RUZA 25

Sho‘radoshlar, mirtadoshlar va jo‘kadoshlar oilalari.

Ma‘ruzaning maqsadi: Sho‘radoshlar, mirtadoshlar va jo‘kadoshlar oilasining umumiy tasnifi, tuzilishi, vakillari, tibbiyotdagi va xo‘jalikdagi ahamiyati. Bir pallalilar sinifiga qisqacha tasnif. Loladoshlar, piyozdoshlar, qiyoqdoshlar va g‘alladoshlar oilalariga tasnif va ularning asosiy vakillari to‘g‘risida

Reja:

1. Sho‘radoshlar oilasiga tasnif .
2. Sho‘radoshlar oilasi vakillarining ahamiyati.
3. Mirtadoshlar oilasining o‘ziga xos xarakterli xususiyatlari.
4. Mirtadoshlar oilasi vakillarining ahamiyati.
5. Jo‘kadoshlar oilasining umumiy tasnifi.

Tayanchiboralar: *Sho‘radoshlar oilasi lavlagi, qand lavlagisi, ismalog o‘simliklari. mirtadoshlar oilasi, mirta, evkalipt o‘simliklar, jo‘kadoshlar oilasi, yuraksimom jo‘ka.*

SHO‘RADOSHLAR OILASI – CHENOPODIACEAE

Bu oila 105 turkum va 1600 ta turni o‘z ichiga olgan bo‘lib, o‘simliklarning hayotiy shakllari o‘t, buta, ba‘zan daraxtlar bo‘lib, ular asosan Yer sharining cho‘l va chalacho‘l joylarida uchraydi. Poyasi odatda deyarli bargsiz, unimon qavatli. Barglari ketma-ket joylashgan, oddiy, ba‘zan judayam sersuv, etdor, tangachalar ko‘rinishigacha reduksiyalangan, yon bargchasi. Gullari mayda, ko‘rimsiz, ro‘vak yoki boshqoq to‘pgullarga yig‘ilgan. Gullari aktinomorf, oddiy kosachabargli

gulqo'rg'onidan iborat, ikki jinsli yoki bir jinsli. Changchilar soni 5 ta, urug'chisi bitta, tuguncha ustki, asosan shamol yordamida, kam hollarda o'z o'zidan changlanish kuzatiladi. Gulining formulasi * $R_5A_5G_{(2..5)}$. Mevasi yong'oqcha. Urug'i endospermli emas, balki perispermli.

Sho'radoshlar oilasining vakili oddiy lavlagi (*Beta vulgaris*) ikki yillik o'simlik bo'lib, vegetatsiyasining birinchi yili tupbarg va ildizmevasini hosil qiladi, ikkinchi yili esa balandligi 60-120 sm keladigan, ko'p bargli poyani hosil qiladi. O'simlikning gullari uzun boshqosimon to'pgulga yig'ilgan. Gulining formulasi * $R_5A_5G_{(2..3)}$. Gulqo'rg'oni oddiy, kosachabargli. Bir urug'li mevalari o'zaro qo'shib o'sib, to'pmevani hosil qiladi. Qand lavlagi (*B.v.var.altissima*) muhim ahamiyat kasb etadi, chunki uning ildizmevasida 23% gacha qand moddasi bo'ladi.

Qoragachin (*Anabasis aphylla*) balandligi 0,5 m ga yetadigan chala buta. O'simlikning barcha qismi zaharli, 5% gacha alkaloidlar, asosan anabazin alkaloidini saqlaydi. Mazkur alkaloid kimyoviy xususiyatlariga ko'ra nikotinga yaqin turadi. Nikotin kislotasining sintezi (RR), kordiamin va boshqa dorilarni ishlab chiqarishda dastlabki mahsulot bo'lib hisoblanadi.

Ushbu oilaning yana bir foydali o'simliklaridan biri bu ismaloq (*Spinacea oleracea*) bo'lib, erta bahorda ovqatga ishlatiladigan sabzavot sifatida ekiladi. Bu o'simlik bir yillik, avval 10 tadan 12 tagacha tupbarglarini hosil qiladi, so'ng esa kam bargli poyasini hosil qiladi. Ismaloqning ayrim tuplarida och yashil rangdagi ro'vaksimon to'pgullarida changchi gullari, boshqa tuplarida esa barg qo'ltig'ida bandsiz bo'lgan urug'chi gullari joylashadi. Demak, ismaloq ikki uyli o'simlik. Ovqatga ismaloq tupbarglari qaynatilgan va xom shaklda ishlatiladi.

Mirtadoshlar Myrtaseae- oilasi. Bu oilaga kiradigan o'simliklar daraxt vabutalar xolida bo'lib, qarama-qarshi joylashgan.yonbargsiz barglar chiqoradi. To'qimalarida doimo efir moy chiqoradigan dumaloq lizigen bezchalari bo'ladi. Gullarida turtta yeki beshta kosacha barglar va shuncha gulbargalaridan keyin bir talay otalıkları keladi. Ular bir-birlariga qo'shib turadi. Tugunchasi bir yeki ko'p uyali bo'lib, qadaqsimon gulo'rniga otib turadi, ko'pincha pastki bo'ladi. Mevalari har xil shirali rezavor, danakli, quruq (ko'sakcha,pista). Avstraliyaning janubida o'rmon bo'lib o'sadigan Eucalyptus amygdalina shu jumladandir. Bu juda balan bo'yi daraxt. Barglarida mumg'ubor borligidan kulrang tusda bo'ladi. Yesh daraxtlarda barglar odatda serbarg bo'lib, qarama-qarshi joy oladi. Hamda gorizantal tekislikda keng tortadi., bir muncha qariroq daraxtlarda esa barglar boshqacha shaklga kirib (geterofiliya)xodisasiga yaxshi misob bula oladi. Barg uchi qayrilgan qilichga o'xshab qoladi. Barg plastinkasi esa vertikal joylashadi bu esa suvni ortiqcha bo'g'lanishiga yo'l qo'ymaydi. Evkalipt barglarida efir moylari bo'lib, ular parfumeriya sanoatida va texnikada ishlatiladi.

Jo'kadoshlar (Tilliaceae) oilasi. Bu oilaga kiradigan o'simliklar daraxtlar, butalar, ba'zan o'tlar xolida o'sadi va oddiy, yaxlit yoki bo'laklarga bo'lingan barglar chiqaradi. Barglarida yon bargchalari bo'ladi. Po'stlog'i bilan o'zagida odatda shilimshiq moddalar turadigan kameralari bor. ularning gulkosachasi va gultoji bor, gul barglari ancha yirik, ochiq rangli va nektardonli bo'ladi. Otalıklarning soni xar – xil. Gullari xidli ko'kimtir – sariq to'g'ri tuzilgan ikki jinsli, ba'zan ayrim jinsli bo'ladi. Kosacha va tojibarglari beshtadan, ba'zan tojibargsiz bo'ladi. Otalıkları ko'p yoki 5 – 10 ta. Changdonlari ikki uyali bo'lmay, xamisha 4 uyali bo'ladi. Onaligi bitta ustki tugunchali, mevasi oddiy ko'sakcha yoki bir urug'li yong'oqcha. Urug'i endospermli va seryog' bo'ladi. MDX davlatlarida yurakbarg jo'ka *Tilia cordata* eng ko'p tarqalgvn. Bu simpodial ravishda shoxlangan katta daraxt bo'lib, bargi qalin shox – shabba chiqaradi. Yuraksimon barglari birin – ketin joy olib turadi va kurtaklari yozilganida pardasimon nozik yonbarglarini tashlaydi. Kurtaklar paydo bo'lganda yuzaga keladigan eng birinchi barglarining yonbargchalari metamorfozga uchrab, pushti kurtak tangachalariga aylanadi. Jo'ka yozning o'rtalarida gullaydi va diametri 3 – 5 sm. keladigan qalqonsimon bir talay yirik to'pgullar bilan qoplanadi. To'pgulning umumiy bandida pardaga o'xshagan oppoq yirik gul yon bargi bo'ladi. Bu barg mevalarda xam saqlanib qoladi va mevalarning shamol bilan tarqalishiga yordam beradi. Gulda besh bargli gulkosacha, beshta oq va sal sariq rang gulbargi va besh bog'lam bo'lib turadigan birtalay otalıklar bor. Tugunchasi besh uyali bo'lib yuqorida joylashgan. Xar qaysi uyasida ikkitadan urug' kurtagi bor. Ustuncha boshchasimon tumshuqcha bilan tugallanadi. Mevasi pishib yetilgan paytda tugunchaning beshta uyasidan to'rttasi yoki uchtasi yetilmay qoladi, natijada meva ochilmaydigan va bir yoki ikki urug'li bo'lib qoladi.

Jo'ka o'ziga xos xushbo'y xid chiqadi, guollarining shu xidi va chiroyli rangi xashorotlarni, jumladan asalarini jalb etadi. Jo'kalar yaxshi asal beruvchi o'simliklar bo'lib, gullagan davrida ertalab va kunning ikkinchi yarmida ko'p miqdorda nektar chiqaradi. Quritilgan gullari esa tibbiyotda ter chiqaruvchi dori sifatida ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. Sho'radoshlar oilasiga umumiy xarakteristika va shu oilaga kiruvchi o'simliklar hayotiy formasini ayting?
2. Mirtadoshlar oilasining umumiy xarakteristika va asosiy vakillari?
3. Jo'kadoshlar oilasining xarakterli belgilari va vakillarining ahamiyati?

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитько В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA 26

Bir pallalilar sinfi. Liliyagullilar va qo'ng'irboshlilar tartibi.

Ma'ruzaning maqsadi: Bir pallalilar sinfiga qisqacha tasnif. Loladoshlar, piyozdoshlar, qiyozdoshlar va g'alladoshlar oilalariga tasnif va ularning asosiy vakillari to'g'risida

Reja:

1. Bir pallalilar sinfiga qisqacha tasnif.
2. Loladoshlar oilasiga tasnif.
3. Greyg lolasi, daraxtsimon aloy
4. Piyozdoshlar oilasiga tasnif.
5. Sarimsoq piyozi
6. May marvaridguli
7. Dorivor sarsabil
8. Qiyokdoshlar oilasiga tasnif.

9. G'alladoshlar oilasiga tasnif.
10. Makkajo'xori o'simligi
11. Suli o'simligi

Tayanchiboralar: *Lolaguldoshlar oilasi: kaufman shirachi, olcha shirachi, sariq savrinjon, grey lolasi, Farg'ona lolasi, kaufman lolasi.* *Piyozguldoshlaroilasi: oddiypiyoz, sarimsoqpiyoz, aptekasarsabili.* *Bardidoshlaroilasi: qumrangi, iloq, tunganaklisalomalaykum.*
G'alladoshlaroilasi: bambuksimonlar, tariqsimonlar, qo'ng'irboshsimonlar. *Bambuksimonlaroilasi: bambuk, saza, arundinariya, filostaxis.* *Tariqsimondoshlaroilasi: ekiladigan makkajo'xori, oddiyo'xori, oqjo'xori, g'umoy, shakarqamish, ekiladigansholi.*

BIR PALLALILAR SINFI- MONOCOTYLEDONEAE.

Gulli o'simliklarning bu katta sinfiga, asosan mo'tadil iqlimli, shimoliy kengliklarda tarqalgan o't o'simliklar, shuningdek subtropik va ayniqsa tropik oblastlarga xos bir muncha kam tarqalgan daraxtsimon o'simliklar kiradi.

Bir pallali o'simliklar o'ziga xos quyidagi belgilari bilan ikki pallalilardan farq qiladi.

1. Bu sinfga mansub ko'pchilik o'simlik vakillarining urugida faqat bitta urug' palla bo'ladi.
2. Bosh ildizi barvaqt qurib qolib qo'shimcha ildizlari rivojlanadi.
3. Barglari asosan, paralel yoki yoysimon ba'zan to'rsimon tomirlangan bo'ladi.
4. Naychalar bog'lami tutash (kambiy qatlamisiz) bo'ladi va ular ko'pincha sochilib joylashadi.
5. Ko'pchilik hollarda gullari 3 bo'lakchali va besh qinrralidir.

Bu sinfga kiradigan ko'pchilik bir pallali o'simliklarning poya va ildizlari kambiy qatlami bo'lmaganligidan ular, odatda yo'g'on tortib (ikkilamchi) o'smaydi. Ikkilamchi o'sish bir pallalilarning faqat ba'zi turigagina (yog'ochsimon drasena, yukkalarga) xos, bu poyaning periferik qismida hosil bo'ladigan ikkilamchi meristema (hosil qiluvchi to'qima) ning bo'lishi natijasida ro'y beradi.

Bir pallalilar turlarining soni ikki pallalilar turlari sonining 1/3 ko'ra kamrog'ini tashkil qiladi. Lekin birpallalilar individdarning soni jihatidan o'tloqlar, cho'llar, katta - katta daryolarning sohilidagi sersuv erlari asosiy manzara fonini hosil qiladi.

Bizning floramızda bir pallalilardan faqat o't o'simliklar bo'lib, ular o'tloq, dasht, shuningdek, tog' va cho'l yaylovlarda o'sadi. Odatda, bir pallali o'simliklar orasida ildiz poyali ko'p yillik, shuningdek, tunganakli va piyozli o'simliklar uchraydi. Piyozsimonlar asosan yilning qurg'oqchilik davri aniq ifodalangan oblastlar uchun xosdir. Bir pallali o'simliklar inson hayotida katta ahamiyatga ega. Bug'doy, javdar, makkajo'xori, shakarqamish, palma kabilardan oziq - ovqat tayyorlanadi, shuningdek, har xil em - xashak, texnika xom ashyosi va manzarali o'simliklar sifatida qo'llaniladi.

Loladoshlar tartibi-Liliales.Loladoshlar oilasi-Liliaceae.

Bu oilaga 10 avlod, 470 tur kiradi, ulardan 230 ga yaqini madaniy holda o'stiriladi. Bu oilaga mansub o'simliklar asosan o'rta iqlimli mintaqalarda, Sharqiy Osiyoda, Himolayda tarqalgan.

Bu oilaga asosan yo'g'on ildiz poyali, piyozli yoki tugunakli ko'p yillik o't o'simliklar kiradi. Ba'zi daraxtlar (yukka, drasena, aloe kabilalar) va qisman lianalar kiradi. Barglari lansetsimon chizikdi, ba'zan elips shaklli, parallel yoki yoysimon tomirli, guli 2 jinsli aktinomorf, odatda shingil, boshqoq, ro'vak va shu singari to'p gullarga yig'ilgan. Yirik gullari yakka bo'zoli. Gul formulasi $R_{33} A_{3.3G} (3)$ Ko'pchiligining tutunchasi ustki. Mevasi chokidan chatnaydigan ko'sakcha. Bu oilaga kiradigan avlodlardan Savrijon (*Colchicum*), shirach (*Eremurus*), piyozgul (*Lilioideae*), boychechak (*usaqea*), lola (*tulipa*), va liliya (*Lilium*) kabilarni misol qilish.

Greyg lolasi - T. gregii

Greyg lolasi lolalar avlodiga mansub bo'lib, u aprelning oxiri - mayning boshlarida adir va tog'larning quyi qismidagi yonbag'irlarda ochiladi, yirik gulli, kurkam o'simlik. Bo'yi 20 -45 sm. Piyoz tuxumsimon yoki yumaloq. Barglari 3-4 dona, ustida to'q binafsha rangli doglari bor. Guli bitta, yirik sargish -kizil, changchi iplari qora va sariq, changdonlari sariq, binafsha rang yoki kulrang. Uning mevasi 3 chanoqqa bo'linib ochiladigan ko'sakcha, iyulda pishadi. Greyg lolasi urugidan va piyozidan ko'payadi. Urugdan o'sgan lola 9-10 yilda, piyozchasidan o'sgani esa 4-5 yilda gullab urug beradi. Uning guli juda chiroyli. Keyingi paytlarda odamlarning shavqatsiz yulishi, piyozchalarini kovlab olishi natijasida juda kamayib ketdi. Hozirgi paytda u muhofaza qilinadi va O'zbekistonning qizil kitobiga kiritilgan.

Daraxtsimon aloy - Aloe arborescens Mill.

Er yuzida aloening 250 dan ortiq turi mavjud. Ular orasida bo'yi 10 m ga etadiganlari ham mavjud. Aloelar yovvoyi holda Afrikada, Hindistonda, Madagaskar, va Saudiya Arabistonida tarqalgan. Bizda xonalarda va issikxonalarda o'stiriladigan aloe Afrikadan chiqqan. Daraxtsimon aloe bo'yi 4 m ga etadigan sershira doim yashil daraxtsimon o'simlik, poyasi tik o'suvchi bo'lib, pastki qismi shoxlangan. Poyasining asos qismidan chiqqan juda ko'p yon kurtaklar o'simlikning vegetativ ko'payishida katta ahamiyatga ega. Bargi yumshoq, etdor, sershira yashil qilichsimon yuqori tomoni botiq, pastki tomoni do'ng qirrali tikanli uzunligi 20-65 sm, qalinligi 12-15 mm ga teng bo'lib, qini bilan poyada ketma ket joylashgan. Gullari to'pbarg, o'rtasidan chiqqan uzun silindrsimon gul o'qiga joylashib shingil to'pgulni hosil qiladi. Gulqo'rg'oni oddiy tojsimon naycha shaklida qizg'ish gultojbargli b ta bo'lib 3 tadan 2 qator joylashgan. O'taligi 6 ta bular ham 2 qator o'rnashgan. Mevasi o'tmas 3 qirrali, silindrsimon, ko'sakcha. Aloe xona sharoitda kamdan kam gullaydi. Shunday qilib loladoshlar oilasiga bir va ko'p yillik o'simliklar kiradi. Ularni ichida aloe singari dorivorlari ham, lola kabi manzarali o'simliklar ham ko'p uchraydi.

Aloe tarkibida antrasen unumlari, smola, efir moylari saqlaydi. U tibbiyotda turli xil kasalliklarda, xususan, ichni yumshatadigan, o't haydaydigan va bakteresid ta'sir ko'rsatadigan, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadigan vosita sifatida foydalaniladi.

Amarillislar tartibi - Amarilidales. Piyozguldoshlar oilasi - Alliaceae.

Bu oilaga 32 avlod 750 tur o'simliklar kiradi. Shulardan 310 tasi piyozlar avlodiga mansubdir. O'zbekiston florasida bu oiladan 165 turi uchraydi. Piyozguldoshlar er qismining hamma qismida, xususan dasht va cho'l zonalarida keng tarqalgan. Barcha piyozguldoshlar o't o'simligi bo'lib-, er ostida piyozboshi yoki ildizpoyasi bo'ladi. Efemeroidlari ham uchraydi. Barglari ildizoldi, bandsiz, ensiz lentasimon, trubkasimon shakllarda uchraydi. Gullari ochilguncha pardasimon o'rama bilan qoplangan bo'lib, oddiy soyabon hosil qiladi va u gul strelkasining uch qismiga joylashgan. Gulqo'rg'oni oddiy, 6 a'zoli erkin yoki pastki qismi birlashgan, ko'pincha ikki doira bo'lib o'rnashadi. Gulqo'rg'oni rangli, tojbargli yoki rangsiz yupqa pardasimon bo'lsa, kosachabargli. Changchisi 6 ta gulqo'rg'oni bilan birlashgan. Urug'chisi 3 ta meva bargdan tuzilgan, qo'shib o'sgan 3 uyali, tuguncha ustki. Ba'zan ustunchasi ostki, mevasi chokidan chatnovchi ko'sakcha, ba'zan ho'l meva.

Gulning formulasi $R_{3-3} A_{3-3} G_{(3)}$

Piyozguldoshlarning xarakterli belgisi uning «tirik tug'uvchanligidir», chunki piyozboshi yonida mayda piyozchalar hosil bo'ladi. Masalan sarimsoq piyozi (A. Sativum) doim shu yo'l bilan ko'payadi. Bu oilaga oddiy piyoz Allium sepa L., sarimsoq -A. Sativum L., yovvoyi cho'l piyozi ASiffithianun, cho'l piyozi - A caspium lar kiradi. Ular ichida cho'lpiyoz zaharli o'simlik hisoblanadi.

Ko'pgina piyozguldoshlarga mansub o'simliklarda oltingugurt sakdovchi moddalar bo'ladi. Ularning ko'pchiligi tibbiyotda qo'llaniladi. Shulardan biri sarimsoq piyozi.(Asativum.L)

Sarimsoq piyozi - *Allium sativum* L

Bo'yi 100 sm gacha boradigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Piyozi tuxumsimon shaklda bo'lib, 7 donadan 30 donagacha boradigan mayda - mayda piyozchalardan tashkil topgan. Bu pallalari oqish rangda bo'ladigan, pardadek umumiy pust bilan o'ralgan. Pallalari ham, o'z navbatida pushti yoki binafsha rang pust bilan qoplangan, uzunligi 4 sm gacha boradi. Poyalari taxminan yarmiga qadar barg qinlari bilan o'ralgan, ustki qismi gullagunicha halqaga o'xshab qayrilib turadi. Gullari uzun bandli bo'lib, soyabonsimon to'pgul hosil qiladi. Odatda meva va urug tugmaydi.

Sarimsoq piyozi jahonning ko'p mamlakatlarida, jumladan O'rta Osiyoning hamma rayonlarida ekiladi.

Sarimsoq piyozi tarkibida 0,3% gacha alanin, 0,4% gacha efir moyi, 0,06% atrofida yogli- moy fitosterin, azotli moddalar, fitonsidlar, anchagina mikdordagi askarbinat kislota bor.

Sarimsoq piyozi tarkibidagi moddalar me'da ichak yo'lini ishini kuchaytiradi, o't, siydik haydaydigan, og'riq qoldiradigan, balg'am ko'chiradigan va bakteresid xususiyatlarga

May marvaridguli - *Convallaria majalis* L

Marvaridgul o'simligi Kavkaz va Uzoq Sharq o'rmonlarida tarqalgan. Ildizpoyali o't o'simlik. Poyasi shoxlanmaydi, barglari yoysimon tomirlangan, oddiy. Gullari unchalik katta emas, xushbo'y oq gullar, tojbargli, bir tomonlama shingilga to'rlangan.

Gulformulasi $R_{(6)} A_{(3+3)} G_{(3)}$

Mevasi kizil rangda, rezavor meva. Urugi endospermli. Marvaridgul barglaridan yurak glikoziddari olinadi, shuningdek saponinlar ham to'planadi. Tibbiyotda yurak kasalliklarini davolashda keng ishlatiladi. Gullaridan olingan efir moylari parfyumeriyada qo'llaniladi.

Dorivor sarsabil - *Asparagus acutifolius* L

Sarsabil - bo'yi 150 sm gacha boradigan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Ildizpoyasi yo'g'on bir talay ildizlar chiqaradi. Poyalari to'g'ri o'sib, ko'p shoxlanadi, tuksiz. Barglari reduksiyalanib pardasimon kichik - kichik tangachalarga aylangan. Gullari mayda, yashil - sariq rangda, uzun - uzun bandli. Mevasining diametri 5 mm gacha boradigan olti urugli dumaloq rezavor meva. Urug'lari ikki tomondan qisilib kelgan, dumaloq shaklda.

May - iyulda gullaydi, iyun oxirlari - iyulda mevalari etila boshlaydi.

Tojikiston, Kavkaz va G'arbiy Sibirda dasht - qirlar, butazorlar orasida o'sadi. O'rta Osiyoda kup joylarda ekiladi

Uning ildizpoyasi bilan ildizlari va yosh novdalari dorivorlik xususiyatiga ega, bu organlar o'z tarkibida asparagin va saponin moddalarini saklaydi. Etilgan mevalarida 36% gacha qand moddalari, kapsantin bilan fizamin, uruglarida 16% yogli moy topilgan.

Tibbiyotda sarsabil siydik haydovchi, yurak ishini yaxshilovchi, o't haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Qiyogullilar tartibi - Cyperales. Qiyogullilar oilasi - Suregaseae

Bu oilaga 120 taga yaqin avlod va 5600 taga yaqin tur kiradi. Uzbekistan florasida 16 avlod 90 turi uchraydi. Er yuzining hamma xududlarida, asosan botqoqliklarda o'simlik qoplamini hosil qiladi. Bu oilaga kiradigan o'simliklarning ko'pchiligi ko'p yillik, **ILDIZPOYAAI**, poyasinint uzunligi 4 m gacha etishi mumkin. Ularning poyalari 3 qirrali, silindrsimon.

Barglarining ko'pchiligi 3 qator bo'lib joylashgan, ularning ko'pi poyaning pastidan chiqadi. Barglari poyani mahkam o'rab olgan va ko'pincha chetlari qo'shilib o'sadigan qin va ingichka plastinkaga bo'linadi. Barg qini barg plastinkasiga aylangan joyida poyani o'rab turadigan tilcha bo'ladi. Gullari mayda, ko'rimsiz, ikki jinsli yoki bir jinsli bo'lib, shamol yordamida changlanadi. Ular boshqosimon simoz to'pgullar hosil qiladi. To'pgullar o'z navbatida boshchasimon, soyabonsimon, supurgisimon murakkab to'pgullar bo'lib bir biriga qo'shiladi. Gullarning gulqo'rg'oni 6 ta pardacha yoki tangacha ko'rinishida yoki 1-6 ta yoki bir talay qilchalar ko'rinishida bo'ladi. Yoki bo'lmasa butunlay reduksiyalanib ketadi, bu hollarda gullari yalang'och bo'lib qoladi.

Changdonlar asosi bilan otaliklar ipiga birlashgan. Onaligi 1 ta, unda bir uyali ustki tuguncha va 2 ta yoki 1 ta ustunchalari hamda tumshuqchalari bor, tugunchasi 3 ta, goho 2 ta meva bargchadan yuzaga keladi.

Urug' kurtagi 1 ta, anatrof mevasi - yong'oqcha hamda urug'idagi embrioni unimon endosperm bilan o'ralgan.

Qiyoslarning amaliy ahamiyatlari juda kam. Ular xashak bo'ladigan o'tlar sifatida, ko'pchiligi dag'al bemaza xashak beradi, tarkibida fosfor va kal'siy kam bo'ladi.

Qiyogullilarning eng ko'p tarqalgan avlodlari quyidagilar dir:

Rang avlodi (Sagex) - bu avlodga 2000 ga yaqin tur kiradi. O'zbekistonda 43 turi uchraydi. Bu avlod vakillari ildizpoyali ko'p yillik bo'lib, nam va botqoq erda, soy va ariq bo'ylarida, cho'l hamda baland tog'larda o'sib, qalin o'tzorlar hosil qiladi. Qum rangi (S. arenaria) - ko'chma qumlar harakatini to'xtatish va em - xashak uchun ekiladi.

Salomalaykum avlodi (Cyperus) Bu avlodning 14 turi O'rta Osiyoda, 8 turi O'zbekistonda uchraydi. Ular sernam va botqoq erlarda o'sadi. Tugunakli salomalaykum (S. rotundus) havfli begona o't hisoblanadi, dalada juda tez ko'payadi, ko'p yillik o't o'simlik, ildizpoyasi 2 xil

1) pastga qarab o'sgan ildizpoyasi

2) gorizontol o'sgan ildizpoyalari bor.

Qiyog avlodi (Scirpus) O'rta Osiyda 19, O'zbekistonda 11 turi uchraydi. Zax va botqoq joylarda, ko'l va soy qirg'oqlarida qo'lqiyog'i (S. fucstris), qirg'oq qiyog'i (S. littorales) turlari o'sadi.

G'alladoshlar tartibi Graminales Boshokdoshlar oilasi - Graminerae

Bu oilaga bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik o'simliklar va ba'zan bo'yi bir necha metr ga etadigan daraxt o'simliklar kiradi. Poyalari poxol bo'lib, bo'g'im va bo'g'im oraliqlari bor, poyaning bo'g'im oralari ichi bo'sh (kovak). Barglari chiziqli oddiy barg qini va barg plastinkasidan iborat bo'lib ko'pincha barg ko'rinib turadigan tilchasi bor: Barglari poyaga navbat bilan joylashadi. Tilchaga yopishib turib, barg qini bilan poxol poya oralig'idagi bo'shlikdagi bo'shliqqa suv kirishiga yo'l bermaydi. Tilcha sistematik belgi bo'lib, uning shakli va katta kichikligi har xil bo'ladi. Qin bo'g'inlar oralig'idagi o'sish zonalarini himoya qiladi. Va ayni vaqtda poyani chidamliligini orttiradi.

Boshokdoshlarning oilasi tuproq yuzasidagi yoki undan yuqori turgan qismida to'planish bo'g'imidan shoxlaydi. G'alladoshlarining guli bir yoki ikki jinsli bo'lib, ular dastlabki to'pgul-boshokchalarga yig'ilgan. Boshokchalar ham o'z navbatida murakkab to'pgullar: murakkabboshok, murakkab rovak, popuk va so'tani hosil qiladi. Boshokchanning tuzilishi har xil bo'lib, u sistematik belgi hisoblanadi. Tipik boshokning butun boshokchani maxkam o'rab oladigan bir juft po'sti bo'ladi. Po'sti ichida 1 ta yoki ko'p gul turadi. Ustki gul po'stining 2 ta qirrasini bor, bu uning gulqo'rg'onini tutashib o'sgan 2 ta bargchasidan iborat ekanligini ko'rsatadi. Bundan keyin 2 ta, ba'zan 3 ta va undan ham ko'p 2 ga ajralgan gulqo'rg'on pardasi (Lodikulae) joylashgan. Bu parda galladoshlarining gullash biologiyasida katta ahamiyatga egadir. Gullash oldidan pardalar nihoyatda shishib ketadi va shuning uchun gul pusti ochiladigan, bu esa changchi va urugchilarning gul ichida chiqishiga imkon beradi.

Changchi ko'pincha 3 ta, ba'zan 1, 2, b ta yoki undan ko'p bo'ladi. Changchilarning ko'p mikdorda quruq va engil chang chikaradigan yirik changdoni bo'ladi. Changchi iplari o'simlik gullaguncha qisqa bo'ladi, lekin gullash vaqtida tez uzayadi va changdonlarini guldan tashqariga chiqaradi. Changchi tushib o'sgan 2-3 ta meva bargchadan tuzilgan. Changchi og'izchasi 2 bo'lakchali, ba'zan 1-3 bo'lakchali patsimon, faqat makkajo'xorining urug'chi og'izchasi ipsimon. Tugunchasi ustki, bir uyali to'g'ri yoki bir oz egilgan 1 ta urug'kurtakda bo'ladi.

Boshokdar shamol yordamida, faqat ba'zilar o'z-o'zidan changlanadi. Mevasi don bo'lib, u gulqo'rg'on bilan zich tutashib o'sadi. Endosperma juda rivojlangan.

Ko'p yillik boshoklar to'planish usuliga qarab 3 ta tipga bo'linadi.

1.	Ildizpoyali	boshoklar	boshokdoshlarning	to'planish			
bo'g'imlaridan	birmuncha	uzun	novdalar	chiqadi,	ular	er	tagiga
gorizontol	holatda	o'suvchi	ildiz	poyalardir.	Bug'doyiq,		suv
bugdoyiq,	qamish	ildizpoyali	boshokdoshlarga	misol bo'la	oladi.		

2. Siyrak to'planuvchi boshokdoshlar Bularning bo'g'imi ham er yuzasida bo'ladi, lekin bo'g'imdan chiqqan novdalar er ustidagi asosiy poyaga nisbatan o'tkir burchak bilan ko'tariladi.


3. Zich to'planuvchi boshokdoshlar Bularning ildizpoyali hamda siyrak to'planuvchi boshokdoshlardan farqi shuki, to'planish bo'gimi er yuzasidan yuqorida bo'ladi. Har qaysi bo'g'imidan oralikdari juda qisqa bo'lgan novdalari chiqadi. Har bir novda o'zining to'planish bo'g'imini hosil qiladi. Undan xuddi yuqorida aytilganidek ichki yon novdalar paydo bo'ladi. Natijada, zich to'p vujudga keladi, zich to'planuvchi boshokdoshlarga chalov betagalar misol bo'la oladi.

Boshokdoshlarning to'planish tipi tuproq hosil bo'lishda katta ahamiyatga ega. Boshokdoshlar oilasi 3 ta kenja oilaga bo'linadi.

1. Bambuksimonlar
2. Tariqsimonlar
3. Qo'ng'irboshsimonlar

Bulardan MDX da 2 tasi ya'ni tariqsimonlar va qo'ng'irboshsimonlar kenja oilalariga mansub o'simliklar

Bambuklar kenja oilasi -Bambuseae Bu oilaning deyarli hamma vakillari ildiz poyali ko'p yillik o'simliklar bo'lib, juda shoxlab ketadigan ko'p yillik daraxtsimon poyalar chiqaradi. Poyalarining bo'yi ba'zilarida 40 m ga, yo'g'onligi 30 sm ga boradi. To'pgullari supirgisimon,



Rasm 1.

ko'pchiligining gullarida 3 ta lodikula, b ta otalik, 3 -2 ta ustuncha bor. Mevasi don, ba'zilarida yong'oqcha yoki rezavor meva holida 200 dan oshiq turi tropik va subtropik mintaqalarda o'sadi. Yovvoyi holda o'sadigan bambuklarni erli aholi deyarli hamma ho'jalik ishlarida ishlatadi.

Tariqsimonlar kenja oilasi-Panicoideae.

Oilacha vakillari asosan o't o'simliklar, ba'zan poyalari yog'ochlashadi. Oddiy boshqochalari 1 gulli, bittasi bir jinsli erkak gul bo'lib, ikkinchisi ikki jinsli gul. Boshkacha qobikdari ikkitadan ko'p. Bu oilachaga bir qancha muhim ekinlar kiradi. Eng muhimlari makkajo'xori avlodi (Zea) , jo'xori avlodi (Sorghum) (bu avlodga oddiy jo'xori, oq jo'xori, qand jo'xori, sudan o'ti, g'umay kabi o'simliklar kiradi), shakarqamish avlodi (Saccharum), tariq avlodi (Panicum) Suli avlodi (Avena), Chalov avlodi (Stipa), Sholi avlodi (Oryza), Silen avlodi (Aristida) kabilar hisoblanadi.

Makkajo'xori -Zea mays

1 yillik don o'simlik. Poyasining bo'yi 1-3 m gacha boradigan va bundan balandroq bo'ladi, boshqochali ro'vak, pastki qismlaridan esa murakkab to'pgullar chiqaradi. Barglari navbat bilan joylashgan, cho'ziq shaklda. Gullari - bir jinsli, mayda, gul qo'rg'oni yo'q. Mevasining rang tusi har xil, ancha yirik bo'ladigan yalang'och don hosil qiladi.

Hamma joylarda ekiladi, asl vatani janubiy Amerika Makkajo'xori popugida sintosterol, stigmasterol, efir moyi, S va K vitaminlar, alkaloidlar, organik kislotalar va boshqa moddalar bor.

Tibbiyotda makkajo'xori popugi siydik, o't haydaydigan vosita sifatida tavsiya etilgan.

Qo'ng'irboshsimonlar kenja oilasi - Poaeoideae. Boshqochalari bir yoki ko'p gulli. Bu oila o'z ichiga muhim don va xashak o'simliklarini qamrab oladi. Bu oilachaga qo'ng'irbosh avlodi (Roa), javdar avlodi (Secale) , Arpa avlodi (Hordeum) kabilar kiradi.

Sulilar turkumi-Avena

Bo'yi 120 sm gacha boradigan, poyasi yalong'och bo'ladigan bir yillik o'tsimon o'simlik. Poyasi ichi kovak bo'lib, qavarib chiqib turadigan qattiq bo'g'imlari bor. Barglari uzun nashtarsimon uchi o'tkirlashib kelgan. Gullari - ikki jinsli, mevasi boshqalarda bo'ladigan cho'zinchoqroq shaklli don. May - iyulda gullaydi, doni iyun' - avgustda etiladi.

Suli donlarida anchagina (16% gacha) oqsil, uglevodlar yog' moddalari, kletchatka, va ko'pgina makro va mikroelementlar bor. Unda avenin degan alkaloid va efir moyi ham bor. Shuni

takidlab o'tish kerakki, ekiladigan suli egallaydigan maydon jihatidan jahon ho'jaligida g'alla ekinlari orasida 4 -o'rinda turadi. (bug'doy, makkajo'xori, sholilardan keyin) Zamonaviy tabobatda sulidan tayyorlangan qaynatmalar siydik o't, el haydaydigan va odamni terlatadigan xossalarga ega ekanligi anikdangan. Suli yallig'lanishga qarshi ta'sirga ham ega bo'lib, markaziy nerv sistemasi va yurak ishini ham

Nazorat savollari

4. Loladoshlar oilasiga umumiy xarakteristika va shu oilaga kiruvchi o'simliklar hayotiy formasini ayting?
5. Qiyoqgullilar oilasining umumiy xarakteristika va asosiy vakillari?
6. Bir pallali o'simliklarning xarakterli belgilari.
7. Piyozdoshlar kenja oilasiga umumiy xarakteristika
8. Bu oilaga kiradigan o'simliklarning axamiyati.
9. Marvaridgullilar avlodi vakillarining tuzilishi.
10. Liliyagullilar kenja oilasiga umumiy xarakteristika
11. Bu oilaga kiradigan o'simliklarning axamiyati
12. Shirachlar avlodi vakillarining tuzilishi va turlari.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
8. Василева А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
9. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
10. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
11. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.

MA'RUZA 27

Ekologiya, fitosenologiya va o'simliklar geografiyasi

Ma'ruzaning maqsadi: O'simliklar ekologiyasi, fitosenologiya va geografiyasi haqida tushuncha berish.

Reja:

1. Ekologiya fani , predmeti.
2. Tabiatni muhofaza qilishning madaniy va estetik ahamiyati.
3. Ekologiyaning rivojlanish tarixi.
4. Tabiatni muhofaza qilishda jamoatchilik.

5. Ekologik ta'lim - tarbiya -biosferani saqlab qolishning muhim omillari.
6. Biosenoz haqida tushuncha.
7. Geobotanika asoslari.
8. Tabiatni muhofaza qilish.
9. Ekologik omillar.

Tayanch iboralar: *O'simliklar ekologiyasi, ekologik faktorlar, fitotsenologiya va o'simliklar geografiyasi. O'simliklarni hayotiy formalari, o'simliklar qoplami, o'simliklar florasi, o'simliklar areali va tarqalishi, o'simliklarni ma'daniylashtirish, o'simliklar qoplami xillari. Endem va kosmopolit o'simliklar. Relekt (qadimgi davrdan saqlanib kelayotgan) o'simliklar. Endemizm xodisasi. Flora va fora elementlari. O'zbekiston florasidagi eng muhim elementlar. Yer sharining floristik viloyatlari. O'simliklarning ekologik elementlari. O'simliklar ekologiyasi vazifa va uslublari. Ekosistemalar. Organizmning yashash muxiti. Muxit faktorlari haqida tushuncha. Muxit faktorlari va populyatsiyalari. Biotik, abiotik va antropogen omillar. Iqlim omillari: yorug'lik, issiqlik, namlik (suv), havo tarkibi va x.k. Gidrofît, mezofît, kserofît va sukkulent o'simliklar. Issiqlik – ekologiya omili sifatida. Yorug'lik – ekologik omillar. Yorug'sevor, issiqsevar va soyaga chidamli o'simliklar.*

EKOLOGIYA PREDMETI, VAZIFALARI, TARIXI VA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI

Inson tabiat ogushida yashaydi, ijod etadi, faoliyat ko'rsatadi, uning kurkam manzarasidan zavq oladi, sahovatli marhamatlaridan bahramand bo'ladi. Tabiat, u qanday ko'rinishida bo'lishidan qat'iy nazar o'zgacha gashtli fusunkor bo'lishi mumkin. Bizni o'rab turgan tabiatning kurkam manzarasi nafaqat qushlar, musavvirlar, shoirlar, bastakor-mashshoqlar, xonandalar uchun ilhombaxsh ko'rinishi bo'libgina qolmasdan, balki kishilarining ruhiyatini engillashtiruvchi ma'naviy ozuqa beruvchi tabiiy manbaa bo'lib xizmat qiladi.

"Ekologiya" so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, - "oykos" -uy, joy, "logos" - fan demakdir. Bu so'z nemis olimi E.Gekkel' tomonidan 1869 yilda "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" deb nomlangan asarida berilgan.

Botanika faniga esa 1895 yil Varming tomonidan kiritilgan. 1910 yili botaniklar kongressida ekologiya mustaqil fan sifatida vujudga keldi.

Ekologiyaning predmeti - organizmlar gruppasi va tashqi muhit orasidagi bog'lanishlarning tuzilishi va unta bog'liq bo'lgan jonlanish, taraqqiy etish, tarqalish va konkurentlar xususiyatlarini o'rganadi.

Hayotning hamma ko'rinishlari- o'simliklarning formasi, evolyusiyasi tashqi muqitning ta'siriga bog'likdir. Masalan, o'simlik namlik etarli bo'lgan joyda va quruq adir sharoitida ekilsa, bir xil urug'dan unib chiqqan o'simliklar bir-biridan butunlay kuchli farq qiladi. Namlik etarli joyda o'simlik barglari katta-katta, o'simlik baland bo'lib o'sadi. Qurg'oqchilik joyda esa mayda bargli, past bo'yli, barglari tukchalar bilan qoplangan.

Ekologiya antropogen va har xil omillar ta'sirida tabiatdagi bog'lanishlarning buzilishi to'grisida ma'lumot beradi. U tabiiy resurslardan rasional foydalanishda va tabiatni muhofaza qilishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, har yili o'rmon ho'jaliklari tabiatda o'suvchi dorivor o'simliklarni yig'ib, olib dori tayorlash uchun topshiradi. Bunda agar yig'ib olinayotgan o'simliklar mikdori qayta o'sib chiqayotgan o'simliklar mikdoridan oshsa, unda o'simliklar sekin-asta yo'qola boshlaydi. Shuning uchun dorivor o'simliklarni yig'ish faqatgina ilmiy tomondan asoslangan normalar asosida terib topshirilishi kerak.

Bu normalar va yig'ish muddatlari o'simliklar jamoasi qayta tiklanishi uchun asos bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda ekologiya fani bir necha fanlar kompleksidan iborat bo'lib - ekonomika, texnika, madaniy fanlarning vazifalarini o'z ichiga oladi, lekin biologik muammolar bu kompleksda

asosiy bo'lib qoladi, chunki odam, hayvonlar va o'simliklar dunyosi, bu biologik ob'ektlar bo'lib bir-birlari bilan va tashqi muhit bilan o'zaro bog'likdir.

Hozirgi zamon ekologiyasining mazmunini quyidagi biologik spektr tuzilishida yozsa bo'ladi.

A'zo gen—hujayra—to'qima----- organ-----organizm-----
populyasiya-----jamoat + abiotik muhit = ekosistema.

Ekologiya asosan bu spektorning o'ng qismida joylashgan, ya'ni organizm darajasidan yuqori bo'lgan sistemalarni o'rganadi.

Ekologiya organizmlardan boshlab ekosistema va biosferagacha bo'lgan ma'lumotlarni o'rganadi.

Organizmlar birgalikda o'sib abiotik muhit bilan aloqaga kirib ekologik sistemani tashkil qiladi. Sistema deganda bir-biriga tartibli ta'sir qiladigan va bir-biri bilan bog'langan komponentlarning tarkibiy qismlarining bir butunligini tushunamiz. Eng katta ekologik sistema bu biosferadir.

Populyasiya - bu bir turga mansub individdarning ma'lum territoriyada tarkalganligidir. Biosfera yoki koinot-bu erdagi tirik organizmlarning erting fizik muhiti bilan birlik hosil qilishdir.

Hozirgi zamonda ekologiyaning ma'nosi-ekosistema shaklida kengaytirilgan. Ekosistema deganda biz butun biosferani tushunamiz. Bu shuni ko'rsatadiki, biologiyaning hamma bo'limlarida ekologik metod qo'llanilishi kerak.

Ekologiya - bu organizmlar va tashqi muhit orasidagi bog'lanishlarni o'rganuvchi fan bo'lib, u hayvon va o'simliklarning moslashuvini, hosildorligini, ko'payish dinamikasini, populyasiyalar va biosenozlar biomassasini o'rganadi.

Ekologiya kuyidagi kislarga bo'linadi. autekologiya -organizmlar ekologiyasi, sinekologiya-jamoalar ekologiyasi. Evolyusion ekologiya, qishloq xo'jaligi ekologiyasi, radiasion ekologiya, koinot ekologiya, biosfera ekologiyasi, fiziologik ekologiyasi, embriologik, anatomik ekologiya, morfologik ekologiya, ijtimoiy ekologiya, landshaftlar ekologiyasi. Ekologiyaning vazifalari

Atrof-muxitdagi antropogen o'zgarishlarni o'rganish va bu muhitni yaxshilash usullarini asoslash. Atrof muhitni sog'lomlashtirish, uning musaffoligini asrash borasida so'z borar ekan, avvalo bizni o'rab turgan tabiatga hurmat bilan qarash lozim bo'ladi.

Tabiiy resurslardan rasional, unumli, foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Inson, ho'jalik faoliyati ta'siri ostida tabiatda ro'y beradigan o'zgarishlarni oldindan bilish, inson yashaydigan muhitni saqlab qolish.

Ekologik xavfning oldindan anikdash va uning oldini olish. Tabiatda kam uchraydigan va yo'qolib borayotgan o'simliklar va hayvonlarning muxofazasi, ko'paytirish yo'llarini ishlab

Muhitning sifatini yaxshilash. Hayvonning tozaligini, suvning tozaligini asrash,ifloslanishga yo'l qo'ymaslik. Atrof muhitning ifloslanishi, sanoat korxonalari, bo'rdoqichilik majmualari chiqarib tashlaydigan chiqindilarni etarlicha zararsizlantirmaslik ham sabab bo'ladi.

Fan - texnika nihoyatda taraqqiy etgan hozirgi paytda, qishloq ho'jalik maqsulotlari etishtirishda o'ta ta'sirchan kimyoviy moddalarni ko'plab ishlatish, atrof - muhit va etishtirilgan ne'matlar ifloslanishiga, shuningdek odamlar orasida bir kancha xastaliklar avj olishiga olib kelmokda.

So'z tabiatning ozor topishi, ekologik muvozanatning buzilishi ustida borar ekan, hozir Orol dengizining kurib borishi bilan bog'liq ekologik vaziyat naqadar noxush asoratlar berayotganligini eslatib o'tmasdan bo'lmaydi.

Yuqori hosildorlikning asosi - o'simliklarning optimal zichligini aniqlash. Biz o'zimiz yashayotgan sayyora nazar tashlasak, ko'p narsalarning guvohi bo'lamiz: inson so'nggi 100-50 yil davomida tabiatning er qobig'i bo'lmish biosferani shunchalik o'zgartirib yubordiki, -natijada uning million yillar davomida tarkib topgan go'zalligi va musafoligiga rahna solindi, noyob nabotot va jonivorlar namunalari kamayib ketdi.

Populyasiyalarning mikdorini tartibga solish.

Biologik rekul'tivasiya ishlari. Buzilgan tabiiy sistemalarni tiklash, shu jumladan.foydalanishdan chiqarib tashlangan qishloq xo'jalik ekin maydonlarini yana ishga solish - rekul'tivasiya. Yaylovlarni, suv xavzalari va boshqa ekosistemalar maxsuldorligini tiklash.

Biosenozlar hosil qilish: Sun'iy yaylovlar hosil qilish (qumlarining ko'chishini to'xtatish, tuproq eroziyasiga qarshi kurashish, shaharlarni obodonlashtirish).

Qishloq xo'jalik ekinlarini ekologik rayonlashtirish.

Ekologik ongni tarbiyalash, ekologik madaniyatni yaratish, ommaviy axborot vositalari ishini faollashtirish. Ekologik ta'lim va tarbiya quyidagi asosli bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Talaba va o'qituvchilarni tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar, shuningdek, inson ho'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri oqibatlarini haqida bilim berish.

3. Talaba va o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash. Tabiatni sevish, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish, vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, o'quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mumkin emas. Insonning tabiat quchog'ida bo'lishi uni ruhan tetiklashtirib, uning mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini oshiradi. Ekologik tarbiya quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

a) kishilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada muayyan malaka hosil qilish;

b) ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishni tarbiyalash;

v) ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash;

g) kishilarni tabiat «in'omlari» dan to'g'ri foydalanish ruhida tarbiyalash.

Ekologik tarbiya ahloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong, tafakkurni, ekologik dunyo qarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ekologik ta'lim va tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifaning muhimligini va mas'uliyatini yaxshi bilgan insonni tayyorlash zarur.

EKOLOGIYANING QISQACHA RIVOJLANISH TARIXI.

Fandagi boshqa yo'nalishlar kabi, ekologiya ham doimo rivojlanib kelgan. Gippokrat, Aristotel va boshqa qadimgi yunon mutafakkirlarining mehnatlarida biz ekologik yo'nalishlarni aniq ko'ramiz. Lekin ular "ekologiya" terminlarini ishlatishmagan.

Bu termin nemis biolog, evolyusionist Ernest Gekkel tomonidan 1869 yil taklif kilingan. Ungacha 18-19 asrlarda buyuk olimlar o'zlarining bu sohaga hissalarini qo'shib kelishgan, ular ham "ekologiya" terminini ishlatishmagan.

Ingliz botanigi Richard Bredlinning ishlarini ko'rib chiqilsa u biologik hosildorlik aniq bir tushunchaga ega bo'lgan mana bu masalalarni o'rganish hozirgi zamon ekologiyasi muxim yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Ekologiyaning rivojlanishi tabiatni o'rganish va uni kuzatib yozish bilan boshlangan, bu fransuz Jan Anri Faber o'zining entomologiya estaliklari yozgan davr edi (1870-1871).

Ekologiyaning rivojlanishi muhitni o'rganish bilan unda yashaydigan turlar va ularning o'zaro munosabati, simbioz, boshqa turlar bilan munosabatlarini o'rganish bilan boshlangan edi. Bu ekologiyaning rivojlanishida birinchi vazifadir. Ikkinchi vazifasida ekologiya o'z rivojlanishida ko'proq ekosistemalarni funksional birlik sifatida karay boshladi. Rivojlanishning 3 chi vazifasida ekologiyani butun e'tiborini ekosistemalarning o'zaro ta'siriga qaratdi. Biosfera-tirik organizmlar va insoniyat yashash muxitidir. U erda hamma ekosistemalarning birligini tashkil qiladi. Planeta - erimizni ham ekosistema deb qarashimiz mumkin. Rivojlanishning 4 vazifasida -insoniyatning biosferada tutgan o'rnini o'rganiladi.

Biz ekologiyaning tarixida 4 ta davrni ajratishimiz mumkin, 1-davr kadimgi davrdan to 18 asr oxirigacha o'rganuvchilarning zoologiya va botanika sohasidagi ishlarida ekologik bilish elementlarning paydo bo'lishi bilan tarflanadi.

"Zoologiyaning otasi" hisoblanmish Aristotel' (384-322 y. eramizdan avval) va "botanikaning otasi" Teofrast (272-28) ishlarida va qadimgi xitoy olimlarining ishlarida hayvon va o'simliklar - yashash sharoitiga bog'liq holda ko'rib chiqilgan ya'ni ekologik jihatdan.

Aristotel' 500 ta tur hayvonni o'rganib, ularning xulq atvori, ko'chib yurishi, xaqida ma'lumotlar qoldirgan.

Toefrast o'simliklarning shakli va o'sishi-iklim, tuproq sharoitiga bog'liqligini aniqladi. U o'simliklarning hayot formalarini ekologik klassifikatsiyasini berdi.

Muxim ekologik kuzatishlarni 18 asr tabiatshunoslari K. Linney, J.Byuffen, Pallas va hokazo asarlarida uchramiz.

K.Linney (1707-1779) tur doimiyligi gipotezasini yaratdi, va o'simlik, hayvon ilmiy sistemasini asoslab berdi, binar nomenklaturani kiritdi.

AT.Bologov (1738-1833 y) muhitning o'simliklarga ta'sirini o'rgatdi.

Rus akademigi P.S.Pallas (1741-1811) organizmlarning tashqi muxit ta'sirida tarqalishi, yashashi va o'zgaruvchanligini ta'riflab berdi.

Yuqorida nomlari aytilgan olimlar, zoologlar, botaniklar va boshqa tabiatshunoslarning faoliyati natijasida 18 asrning oxiriga kelib zoologiyada va botanikada juda katta ekologik material to'plandi, tabiiy sharoitda turli organizmlarning yashashiga oid bo'lgan tajribalar yigildi.

2- davrda ekologiyaning rivojlanishi botanik va zoologik geografiyaning rivojlanishi bilan bog'likdir.

Botanika va geografiyaning asoschilaridan biri nemis tabiatshunosi AGumbol'd (1769-1859), u fanga o'simlik formalari, assosiasiya haqida, assosiasiya tushunchasini va shunga o'xshash muhim, ekologiya uchun tushunchalarni kiritadi. Bu tutyanchalar keyinchalik keng ishlatila boshlandi.

Moskva universitetining professori, zoolog K.F.Rul'e hayvonlar ekologiyasi sohasida katta ishlar olib bordi va bir qator asarlar qoldirdi. 1814-58 y. hayvonlar va tashqi muhit o'rtasidagi murakkab munosabatini o'rgandi. Rul'ening o'quvchisi Seversev Rossiyada hayvonlar ekologiyasi to'g'risida chuqur ma'lumotlar qoldirdi. Bu klassik ish 1950 yil boshqatdan nashr etildi. Bu dunyo miqyosidagi zoolog olim edi.

Shvesiyalik botanik olim Ogyust Pirma dekanol' o'simliklar va tashqi muhit orasidagi bog'lanishni o'rganuvchi fan - epireologiya yoki auteekologiya fanini ajratdi.

O'simliklar ekologiyasini asoslagan olimlardan biri O.P. Dekandolning ugli - Al'fonis Dekandol' xisoblanadi. U o'zining "O'simliklar geografiyasi" kitobida issikdik, yorug'lik, namlik, tuproqqa asoslanib, o'simliklar yashaydigan muhit klasifikatsiyasini beradi. U o'simlik turlarining turli tuproqlar bilan bog'liqligini birinchi marta ko'rsatib berdi.

Ekologiya rivojlanishining 3-davri davrimizning galabasi bilan bog'likdir. Bu davrda biologiyaning e'tibori moslanish, adabtasiya ni o'rganishga qaratildi.

Ch. Darvinning tarixiy xizmati shundan iborat ediki, u o'zining tabiatda tanlanish va turlarining kelib chiqishi " kitobida, 1859 y. organizmning rivojlanishini evolyusion ilmiy nazariyasini berdi, bu esa ekologiya tarixida yangi davr bo'ldi. Tabiatdagi yashash uchun kurash, ya'ni tur va muhit o'rtasidagi har qanday qarama-qarshiliklarning ko'rinishi tabiiy tanlanishga olib keladi.¹

Bu haqida K.A.Temiryazov o'z asarlarida shunday deb yozadi. "Moslanish tushunchasining kelib chiqishi, aniqlanishi bilan -Gekkel' tomonidan o'ylab chiqilgan va ekologiya nomini olgan yangi oblast' paydo bo'ldi".

Xaqiqatdan ham, davrinizm 2 ta biologik fan -genetika va ekologiyaning paydo bo'lishida asosiy rol' o'ynadi.

Ekologiyaning keyingi taraqqiyotida 1877 y. nemis olimi K.Mebius tomonidan biosenoz ta'limotining ishlab chiqilishi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu munosabat bilan ekologiyada yangi yo'nalish-jamoa ekologiyasi rivojlana boshladi .4

1898 yilda Shimperning " Geografiya rasteniy na fiziologicheskoy osnove" degan kitob bosmadan chikdi. Bu kitobda ekologiyaning o'simliklar fiziologiyasi bilan yaqinlashish ko'rsatilgan.

¹Mustafaev S.M., Ahmedov O.A., Samatova Sh. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: "YUNAKS-PRINT" MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.

Ekologiyaning rivojlanish 4 davri ekologiyaning umumiy biologik fan sifatida rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu vaqtga kelib V.Shelfordning 1933 y " Muhit va jamoa", bu asar keyinchalik F.Klemints "Hayvonlar ekologiyasi asoslari" nomi bilan yozilgan darslik bo'lib qoldi va V.Shel'fordning 1933 "Bioekologiya", E.Odushning "Ekologiya" 1963, Riklefsning "Ekologiya" 1979 yil kitoblari paydo bo'ldi.

20 asrda ekologik metodlarning takomillashishi bilan yangi ekologik omillar: kun uzunligi, tuproq eritmasining reaksiyasi, mikroelementlar ta'siri o'rganila boshlandi.

Antropogen omillarning tabiatga ta'siri kuchayishi natijasida ekologiya o'rganadigan masalalar kengaydi Masalan, havoning gazlar bilan zaxarlanishi, radiasiyalash va Sanoat ekologiyasi vujudga keldi.

Amerikada bu yillarda indikasion botanika rivojlandi ya'ni tuproqning har xil xususiyatlarini ko'rsatuvchi o'simliklar xaqida.

B.Ch.Bernadskiyning ilmiy ishlarida Biosfera to'g'risidagi ta'limotlar berilib, tirik organizimlarning roli to'g'risida aytilgan.

B.V.Dokuchaevning ilmiy ishlari Morozov tomonidan "O'rmon to'g'risidagi ma'lumotlar" kitobida davom ettirildi. Bunda o'rmon o'simliklari ekologiyasi asosi berilgan. Bu soxada Visoskiyning ilmiy ishlari katta ahamiyatga ega.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashagan olimlardan Muxammad muso al Xorazmiy ,Abu Nosir Farobiy ,A.R. Beruniy va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishida katta hissa qo'shdilar.

O'rta asrda Abu Ali Ibn Sino dorivor o'simliklarning morfologiyasi nomlarining kelib chiqishi, tarkibi va geografiyasini o'rganib, shu to'g'risida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. U o'z fikrini bayon etishda doimo muhit bilan odamning o'zaro munosabatlarini eslatib o'tadi.Uning aytganlari hali ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Maxmud Qoshg'ariyning ishlarida ekologiya haqida fikrlarini uchratamiz.Ular yozgan kitobida 200 ta o'simlik to'g'risida ekologik,morfologik va geografik ma'lumotlar bor.

Hali ekologiya fani yo'q bo'lgan davrda tabiat va undagi muvozanat, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytilgan. Masalan: Al-Xorazmiy o'zining bir risolasida shunday dedi:"Bilinki,daryoning ko'z yoshlari uning boshida ham-kulfat tushganligini bildiradi. Odamlar daryodan mehringizni darig' tutmanglar!".Bu bilan buyuk olim nimalarni ko'zda tutdi ekan. Extimol u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir !.

O'rta Osiyo o'simliklari va hayvonlari to'grisida botanik va geografik ma'lumotlarni Bobur asarlarida uchratamiz.

Bobur nomi aytilganda bazilar uni shoir deb biladi.Bir chekkasi bu tushuncha to'g'ri ham. Bobur g'azallari juda jozibador,har kimga manzur. Ammo Bobur faqat shoirgina bo'lmay, balki podshoh, sarkarda, tarixchi va bog'bon, sayyoh va tabiatshunos bo'lgan.

Bobur asarlari misoli tagi yo'q bir xazina/"Boburnoma" yoki Boburiya - Z.M.Boburning eng yirik asaridir. Bu Boburning Fargonadagi yoshlik kunlaridan, to Hindistonda podshox bo'lgungacha yuz bergan jami voqealarning mufassal tarifidir. Asarda Boburning yurgan, ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odati, hayvonoti va ekinlari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobda o'ziga xos, keragicha ma'lumot topali. Unda er, suv, havo turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi.

"Boburnoma"ni o'qigan va o'rgangan har bir kishi, uni tabiat va geografiyani yaxshi bilgan o'lkashunos va olim yozgan degan xulosaga keladi.

Bobur o'lkani bilgan kishilarni xurmat qilgan,ularning qadriga etgan va ular bilan xamisha maslahatlashgan.

"Biron safarga chiqishdan oldin er, suv bilur kishilarni chorlab, atrof va tomonlarni surishtirar edi".

Bobur har bir xududni ma'lum bir tartibda tasvirleydi. Avvalo joyning geografik o'rni, so'ngra qaysi iqlimga mansubligi, har xil shifobaxsh joylari, o'simliklari, qazilmalari, hayvonot va aholisi beriladi.

Bobur tabiatdagi ba'zi hodisalarni tasvirlaganda, ularni mutlaqo mo'jizalarga bog'lamaydi.Bobur iqlim va meterologik hodisalar bilan qiziqqan. U o'zi bergan har bir mamlakatning qaysi ikdimiga mansubligini yozadi.

Bu haqiqatdan ham ajoyib fikrlardir, bunda Farg'ona ikdimining qisqa holati nimaga bog'liq ekanligi to'ppa-to'g'ri aytilgan.

Demak, havo oqimlari g'arbdan sharqqa qarab esishi ham unga ma'lum bo'lgan.

Bobur ajoyib geobotanik bo'lgan. U o'simliklarni sevgan yaxshi bilgan. U O'zbekistondagi juda ko'p dorilarni, ularning hosiylari va ahamiyatini tariflagani; bog'bon bo'lgan kishi, mirishkor kishi, asl tabiatshunosgina buning uddasidan chiqa oladi.

Bobur o'simliklar to'grisida juda ko'p qimmatli fikrlarni aytganki, ularni maxsus o'rganmoq kerak. Uning ilmiy geografik merosini o'rganish uchun, uning asarlaridan har bir tabiatshunos ilxom topadi.

Boburning "tabiat viloyatlari shaydosi bo'lishi uning avlodlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatganki, o'g'illari Xumoyun, Kamron, qizi Gulbadanbegim hayotida ham ko'ramiz.

Biz yuqorida nomlari tilga olingan va ko'plab bobolarimiz merosini chuquroq o'rganishimiz va kelajak avlodni tarbiyalashda foydalanishimiz lozimdir.

Global ekologiyaning taraqqiyotida V.N.Sukachevning biosnoz to'g'risidagi ta'limoti kuchli burilish vujudga keladi. Umumiy ekologiyaning rivojlanishida katta xissa qo'shgan olimlar bularga: - D.N. Kashkarov, S.A. Seversov. Ekologik parazitologiyada: V.N.Beklemishev, V.A. Dogel', E.N.Pavlovskiy: ekologik entomologiyada - V.Vasesov, N.A.Gerbil'skiy, K.M.Deryugin, L.A.Zenkevich, S.A.Zernov: o'simliklar ekologiyasida: I.G.Serebryakov, E.P.Korovin, K.Z.Zokirov va boshqalar.

Ekologik fiziologiyaning rivojlanishida olimlarimiz-ning qilgan ishlari kattadir. O'simliklarning qurg'oqchilikga chidamliligini Maksimov, Yu.S.Grigor'evlar o'rgandilar, yorug'lik ta'sirini Ivanov, fotosintez ekologiyasini Lyubimenko, Nichiprovich, Zalenskiy, Voznesenskiylar: o'simliklarning sho'rga chidamliligini G.A.Xenkellar o'rgandilar, sovuqqa chidamliligini Tumanov o'rgandi. Shuningdek ekologiyaning rivojlanishida Ramenskiy, Shennikovlarning xizmati katta bo'ldi.

Populyasiya ekologiyasi 1930 yilda ekologiyaning yangi tarmog'i, ingliz olimi El'ton tomonidan rivojlantirildi. U ayrim organizmlarni o'rganishdan populyasiyalarni o'rganishga o'tish kerakligini aytdi, chunki moslanish proseslari populyasiyada bo'ladi. Populyasion ekologiyaning rivojlanishida Seversov, Shvars, Naumov, Viktorov, Rabotnov va Uranovlar katta rol' o'ynadilar 1940 yillarda tabiiy sistemalarni o'rganish asosida yangi yo'nalishlar kelib chikdi.

1935 yilda fanga "ekosistema" terminini ingliz Tensli

1942 yilda esa V.N.Sukachev "biosenoz" terminini berdi. Biosenoz haqida ta'limotni ilgari surdilar. Bu tushunchalarda organizmlar va abiotik muhit orasida boglanishlar ifodalanadi va modda aylanishi to'grisida aytilgan.

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIYA FANINING QISQACHA RIVOJLANISH TARIXI

Yuqorida aytib o'tganimiz kabi, bizning bukiy allomalarimiz tabiat, tirik organizmlar va ularning tashki muxit bilan o'zaro aloqasiga doyr masalalarga to'xtalganlar.

O'zRFA qoshidagi Botanika, Zoologiya va Parazitologiya instituta olimlari o'simlik va hayvonlar ekologiyasiga bog'langan ishlar olib borishgan, hozirda ham bu ishlar olib borilmokda.

O'rta Osiyo o'simliklar olamini o'rganishda-M.S.Popov akademiklar: K.P.Korovin, K.Z.Zokirov, AM.Muzaffarov, I.I.Granitov, S.Saxobidinov, A.I.Vvedenskiy kabi olimlarning nomi bilan bog'liq.

O'zbekistonda ekologik yo'nalishdagi ishlarning asoschilari-D.N.Kashkarov, E.P.Korovinlar edi. 30 yillarda Kashkarovning ekologiya masalalari hal qiladigan qaror: Muqim va jamoa, Turkiston hayvonlari", Hayvonlar ekologiyasi asoslari" kabi yirik ilmiy asarlar chop etiladi. Ular ekologik ilmiy tadqiqot ishlarini rejalashtirish, ekolog mutaxasislar tayyorlash masalasini o'rtaga tashlaydilar, ularning nihoyatda zarurligini aytishgan.

Shu yillarda Korovin-o'simliklar jamoasi va muxitni birgalikda o'rganish kerakligini aytdi. Cho'l zonasining imliklarini o'rganish maqsadida kompleks ekspedisiyalar tashkil qiladi.

Korovin, Granitov kabi olimlar rahbarligida cho'l mintaqasidagi yaylovlarni yaxshilash borasida, u erdagi kserofit guruhiga oid o'simliklarni o'rganishga kirishiladi.

1950 yilda ekologiya ishlarining dolzarbligi munosabatini hisobga olib, UzRFA Botanika institutida V.A.Burgin rahbarligida xodimlari tomonidan cho'l va chalacho'l sharoitida o'simliklarning qurg'oqchilikga moslanish yo'llari o'rganildi.

O'rta Osiyoda ekologiya sohasida katta ilmiy ishlar D.N.Kashkarov, E.P.Korovin, M.G.Popov, K.Z.Zokirov, I.I.Grani-tovlar tomonidan olib borildi.

Danil Nikolaevich Kashkarov tomonidan bizning sobiq davlatimizda birinchi marta kompleks zoekologik kuzatishlar metodikasi ishlab chiqildi. U bir qator ekologiya masalalarini hal qilishda rol o'ynagan kitoblar qoldirdi. Bu "Sreda i soobshestvo"/"Jivotnie Turkestana, "Osnovi ekologii jivotnix va boshqalar.

O'zbekistonda ekologik izlanishlarning yana bir asoschisi va tashkilotchisi E.P.Korovin edi. U 30-yillarda o'simliklar jamoasi va muxitini birgalikda o'rganish kerakligini aytdi. Bunday ilmiy kuzatish keyinchalik 1967-1987 yillarda Fargona vodiysi sharoitida kompleks ekologik ishlar b.f.d.O.X.Xasanov va R.S.Vernik va boshqalar tomonidan davom ettirildi. Natijada adir o'simliklarning ekologik klassifikatsiyasi berildi.

Hozirda bunday ishlar Jizzax cho'llarida, Orol sharoitida davom ettirilmokda.

D.N.Kashkarovning dastlabki ishlari kemiruvchilarni o'rganishga bagishlangan edi. Ularning biologiyasi, sistemasi va zarariga e'tibor berish bilan birga hayvonlar ekologiyasi bo'yicha ham ish olib borildi.

1928 y. u AQSh ga boradi va 7 oy davomida yirik ekologlarning ishlari bilan tanishadi. UzRFA ning akademiklari T.Z.Zohidov, AM.Muhammadiev, muxbir a'zolaridan M.A.Sultonov, R.O.Olimjonov, V.V.Yaxantovlar O'zbekistonda zoologiya tadqiqotlarining rivojlanishida o'z hissalarini qo'shgan olimlardir. Zoologiya tadqiqotlari UzRFA ning Zoologiya va parazitologiya ishlari faoliyati bilan bog'likdir. M.A.Sultonovning "O'zbekiston qushlarining gel'mentlari", 1963 y V.V.Yaxantovning "Hashoratlar ekologiyasi" 1963 y. Vohidovning "qizilqum cho'lining biosenozlari kabi asarlari paydo bo'ldi.

1981-85 yillarda Uzbeki stoila ovlanadigan kamyob hayvonlar. Ekosistemasini o'rganishga kirishildi. Sut emizuvchi noyob hayvonlarning sonini kamayib ketish sabablari, ularning arealini tanlash, kamyoblarini sakdash va ulardan oqilona foydalanish yo'llari ishlab chiqildi.

1979 yillarda ixtiologiya va gidrologiya laboratoriyasi xodimlari O'zbekistonning suv atroflari, suv ifloslanishi, suv hayvonlari ekologiyasi va suv resurslaridan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Hozirgi paytda Botanika institutida ekologik fiziologiya, ekologik anatomiya, ekologik embriologiya sohasida ilmiy ishlar olib borilmokda.

20-asrning 2-yarmida odamlarning koinotga ta'sirining kuchayishi natijasida atrof-muhitdagi antropogen o'zgarishlarini o'rganish va bu muhitni yaxshilash katta ahamiyatga ega. Atrof-muhitning zaharlanishi odamlar sog'lig'iga, o'simlik va hayvonlarning hayotiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Masalan: Tojikistondagi alyuminiy zavodi, ftor birikmalari chiqarib turadi, natijada mevalar, o'simliklar va hayvonlar zaharlanmokda. Shuning uchun zavod va fabrikalar qurish uchun oldin ekologik ekspertizadan ruxsat olinadi.

BIOSENOZ XAQIDA TUSHUNCHA

Tabiatda hayot uchun zarur bo'lgan biogen moddalar to'xtovsiz ravishda aylanib turadi. Avtotrof organizmlar atrof-muhitdan kimyoviy moddalarni o'zlashtiradi, bu moddalar geterotroflar orqali qaytadan atrof-muhitga qaytadi. Bu jarayon juda murakkab formalarda boradi. Har qaysi tur organik moddasi energiyaning faqat bir kesimidan foydalaniladi va uni ma'lum bosqichga parchalaydi.

Tirik mavjudotlar guruhini va ularning yashash muhitini o'z ichiga olgan funksional sistema - ekologik sistema deb ataladi.

Bizga yaxshi ma'lumki, tabiatda o'simlik va hayvonlar jamoa holida yashaydilar. Jamoa deganda-rivojlanishning turli bosqichlarida bo'lgan bir gurux organizmlarning muayyan sharoitda, birgalikda yashashi tushuniladi. Bunda ular o'zaro munosabatda bo'ladilar. Bundan kelib chiqib: muayyan sharoitda o'simlik, hayvon, zamburug' va mikroorganizmlarning birgalikda yashashi-biosenoz deyiladi.

Agarda bir qancha o'simlik birgalikda qavm bo'lib yashasa fitosenoz, (o'sish jamoasi) bir qancha tur hayvonlar birgalikda qavm bo'lib yashasa-zoosenoz (hayvonlar jamoasi) deyiladi. Yoki oddiyroq qilib aytganimizda muayyan maydonda tarkalgan, birgalikda yashovchi va bir-biri bilan bog'liq bo'lgan organizmlar gruppasi-biosenoz deyiladi.

Biosenoz-latin tilidan olingan so'z bo'lib, "bios"-hayot, "senoz" umumiy deb tarjima qilinadi.

"Biosenoz" terminini nemis biolog Mebius tomonidan 1877 y. berilgan. Bu o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning birga yashashi bo'lib, ular ma'lum erda eki suv xavzasida bo'lishi mumkin. Biosenozdagi organizmlar bir-birovi bilan va abiotik muhit bilan bog'liqdir.

GEOBOTANIKA ASOSLARI

Tabiatdagi o'simliklarning kelib chikishi va turlarini sistematiklar, tuzilishini morfologlar va o'simliklar jamoalarini geobotaniklar o'rganadilar, Demak, geobotanika — Er sharidagi jamiki o'simliklarning tuproq muhitiga bo'lgan munosabati va tuproqning o'simliklarga ta'sirini, o'simlik turlari yig'indisini tashkil etadigan jamoasini o'rganadi.

U ma'lum o'simlik jamoasidan tortib yer sharidagi o'simliklar koplamini ham o'rganadi.

Tabiatdagi o'simliklar dunyosi ikki tomonlama o'rganiladi. Biri o'simliklar florasida bulsa, ikkinchisi o'simliklar jamoasi. «O'zbekiston florasida» deganda, O'zbekiston xududida usuvchi o'simlik turlarining yig'indisi yoki ruyxati tushuniladi. «O'zbekiston o'simliklari» deganda esa mazkur x,ududda uchrovchi tabiiy va sun'iy o'simliklar jamoasi tushunilib, bu ma'lumotlarni geobotanika yoki fitosenologiya" fani o'rganadi. O'simliklar jamoasi — *fitosenoz* deb atalsa, xayvonlar jamoasi *zoosenoz* deyiladi. Fitosenoz va zoosenoz birgalikda umumiy biologik *biosenozni* tashkil etadi. Biosenoz tabiatdagi barcha tirik organizmlar jamoasi demakdir.

Tabiatdagi tirik organizmlar o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan adlda, ular tashqi muhit iklim va tuproq, muhiti bilan aloqada bo'ladi. Bunday o'zaro munosabatlar biogeosenologiya soxasida o'rganiladi. Biogeosenologiyaning bir qismi bo'lgan geobotanika faqat o'simliklar jamoasini o'z ichiga oladi.

O'simliklar tashqi muxit bilan boglangan xolda, xayotining turli bosqichlarida o'zaro munosabatda bo'ladi. Bunday munosabatlar yoruglik uchun, usish va rivojlanish uchun bo'lgan intilishda ruyobga chiqadi. Bu munosabatlar o'zaro x,amkorlik va rakobatlik kabi kurinishda namoyon bo'ladi. Natijada, individlar (yoki turlar) ichida tanlanish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday tanlanishda ayrim individlar jadal rivojlanish imkoniyatiga ega bulsalar, ayrimlari inkirozga tomon boradilar.

Xozirgi vaqtda geobotanika fani oldida turgan muadm vazifa o'simliklar koplamining ahamiyatini aniklash, tabiiy resurslarni o'rganish, ularni xaritaga tushirish va eng muximi mazkur resurslardan oqilona foydalanib, salbiy yullarni ijobiy yo'llarga o'zgartirishni ilmiy asosda tushuntirib berishdan iboratdir.

Tabiatni muhofaza qilish

MDXda o'simlik olami ya'ni florasida (flora bu o'simlik olami so'zidan iborat) 19 ming turdan iborat. O'zbekistonda esa 4183 turga etadi. Ularning orasida sanoat, qishloq ho'jaligi va tibbiyotda katta ahamiyatga ega bo'lgan o'simliklar tashkil etadi.

O'simliksiz hayot er yuzida bo'lmagan bo'lar edi. Odamlarning va hayvonlarning hayoti o'simliklarga bog'liq. Masalan, nafas olishimiz va ovqatlanishimiz ham o'simliklarga bog'liq. O'simliklar havoni O₂ bilan boyitib turadi, SO₂ gazini kamaytirib turadi.

Oziq - ovqat o'simliklariga bug'doy, arpa, makkajo'xori, tariq, suli, sholi, mosh, loviya, no'xat, kungaboqar, eryleng'oq, zig'ir, kunjut, g'o'za. Zig'ir bilan g'o'zani oziq-ovqat hamda texnika o'simliklariga kiritiladi. Dorivor o'simliklarga kanakunjut, shaftoli, makkajo'xori, yalpiz, mavrak, qora zira, archa (kubba preparatlari siydik haydovchi, siydik yo'llarini dizinfeksiya qiluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda ovqat xazm qilish prosesini yaxshilaydi). Valeriana, qarag'ay kurtagi (archa qubbasiga o'xshash, bargi singa kasalligini davolashda ishlatiladi), Kamfora daraxti, arpabodiyon bu o'simliklarning mevasi va moyi ishlatiladi. Mevasi va moyi medisinada bronxit kassaligida balgam ko'chiruvchi, ichak faoliyatini yaxshilovchi, el haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Moychechak (ichak yopishib qolganda va ich ketganda va ginekologik kasalliklarni davolashda ishlatiladi, ogiz tomoq chayqashda shifobaxsh vanna tayyorlashda ishlatiladi), kora andiz - balgam ko'chiruvchi dori sifatida hamda meda va ichak kasalliklarida ishlatiladi, ermon - ishtaxa ochadigan va ovqat hazm qilishni yaxshilaydigan hamda, jigar, o't pufagi va gastrit kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Bo'ymadaron me'da - ichak kasalliklarini va qon to'xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi. Gulhayri, zupturum, gorchisa(xantal), achchiq bodom, achchiq bodom suvi bemorni tinchlantiruvchi va og'riq qoldiruvchi dori, chuchuk bodom urugi ich yumshatuvchi, emulsiya tayyorlashda ishlatiladi. Qoqio't -ishtaxa ochuvchi, o't haydovchi dori sifatida ishlatiladi, sanbitgul xonalarda o'stiriladi, yurak kasalligida, nashasimon kendir, adonis, marvaridgul, erizimum, angishvona gul, jen'shen aqliy va jismoniy jihatdan charchaganda, mehnat qobiliyati susayganda, qon bosimi pasayganda organizmning umumiy tonusini ko'taruvchi dori sifatida ishlatiladi. Araliya, eluterokokk, xitoy limonnigi, levezeya, exinopanaks bular jeninenga o'xshash ishlatiladi.

Serquyosh o'lkamiz shifobaxsh o'simliklarga boy. Muqaddas tuprog'imizdagi xar bir giyoh mo'jiza, inson dardiga davo, umriga umr qo'shadi. Viz ana shu giyohlarni yanada ko'paytirish uchun qayg'urishimiz kerak, zeroki bu giyoxlar dardimizga davo, o'lkamiz xusni.

Siz tibbiyotda xodimlari shifobaxsh o'simliklarni kamayib ketishiga yo'l. qo'ymakg, ularni ko'paytirish. uchun. yordam ber'tt, qaysi vaqtda o'simlikni yig'ishni o'zingiz bilib oling va boshqalarga o'rgating.

Hayvonlardan olinadigan dorivor mahsulotlar ustida to'xtalib o'tmoqchiman.

QIZIL KITOB TO'G'RISIDA

Tabiatni muxofaza qilish, o'simlik dunyosini, hayvonot dunyosi bilan birga saqlashda qo'riqxonalar muqim rol' o'ynaydi.

Qo'riqxonalardan barcha tabiiy kompleks shundayligicha saqlanadi. Ularning xududidagi daraxt va butalarni kesish, pichan tayyorlash, mol boqish, baliq va boshqa hayvon va qushlarni ovlash, meva va boshqa narsalarni yig'ish taqiqlanadi. Davlat qo'riqxonalarining asosiy vazifasi mazkur tabiat zonasi uchun tipik bo'lgan zonani tabiiyligicha saqlash va undagi o'simlik, hayvon va qushlarni o'rganishdir. Bu erda qimmatli hayvon va o'simliklar sonini tiklash bo'yicha ulkan ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi.

Mashhur bo'lgan qo'riqxonalardan: O'rta Osiyoda qoraqum cho'lida Repetek qo'riqxonasi. Orol dengizining cho'l orolida Borsakelmas qo'riqxonasi, maydoni 18,5 ming km Amudaryo

havzasidagi Payg'ambar orol qo'riqxonasi, Tyan'-Shan' Chotkol tog'-o'rmon qo'riqxonasi, Sari-Chelak qo'riqxonasi, Jizzax viloyatida Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi.

EKOLOGIK OMILLAR

Ekologiya so'zi grekcha «*oykos*» — uy, «*logos*» — bilim degan ma'noni bildirib, 1866 yili E. Gekkel tomonidan tavsiya qilingan. Hozirgi vaqtda ekologiya deganda tirik tabiatga, o'zi yashab turgan tashqi muhitining kursatadigan ta'sirini o'rgatadigan fan tushuniladi.

Tashqi muhit deganda tirik tanani qurshab olgan barcha abiotik va biotik omillar (faktorlar) tushuniladi. Er sharida dayot bundan 1 milliard 700 million yil ilgari paydo bo'lgan. Unda xujayragacha bo'lgan sodda to'zilgan avtotrof va getyerotrof xoldagi orga-nizmlarning tashqi muhit ta'sirida rivojlanishidan eng yuksak bosqichda turgan gulli o'simliklar paydo bo'lgan. Tarixiy evolyusion tarakkietda tashqi muhit o'zgarishiga moslasha olgan o'simlik individlari saklanib kolgan va tarkala borgan.

Xulosa qilib aytganda tirik organizmning xayotini tashqi muxitsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Keyingi bir necha un yillar ichida insonning tirik tabiat va tashqi muhitga kilgan ta'siri natijasida ona vatanimiz, zilol suvlarimiz, musaffo xavomiz zaxarlandi. Tabiiy o'simliklar o'sadigan joylar rejasiz bir tomonlama o'zlashtirilib genafondimiz juda qisqarib ketdi. Tabiiy o'simliklar, jumladan dorivor o'simliklar, xar xil tabiblar, pulga uch insonlar, xatto ayrim geologlar tomonidan yukotilyapti. Buning oldi olinmasa kelajak avlod kechira olmaydi gan vokealar . sodir bo'ladi. Shularni xisobga olgan xolda o'simliklar ekologiyasiga insonlar katta e'tibor bilan karashlari, tabiatni muxofaza kilishlari lozim. Tashqi muhit *ekologik omil* (faktor) deb yuritiladi.

O'simlikka ta'sir qiladigan xar bir ekologik omil bula oladi. Ekologik omillarning biri ikkinchisi o'rmini bosa olmaydi.

Ekologik omilni 3 ta guruxga bo'lib o'rganish mumkin.

1. *Abiotik omillar.* Bunga iklim (issiklik, yoruglik, xavo okimi, shamol, suv) tuproq va rel'ef kabi omillar kiradi.

2. *Biotik omillar.* Bunga o'simliklarga xayvonlarning va xayvonlarga o'simliklarning ta'siri, xatto o'simliklarni o'zaro ta'siri xam kiradi.

3. *Antropogen omillar.* Bunga o'simliklarga insonlarning kursatadigan ta'siri kiradi.

Ayrim tarixiy omillar xam aloxida omil sifatida o'rganiladi.

Jamiki ekologik omillar asosan o'simliklarga birgalikda ta'sir kursatadi. Masalan, tuproqning tarkibi, suv, xavo, issiklik kabilar o'simliklarga bevosita ta'sir kursatsa, umumiy ta'sir etuvchi omillarga rel'ef, tog jinslari, tuproq tarkibining o'zgarishi, muayyan xudud iklimining o'zgarishi kiradi.

Birlamchi qobiq to‘qimalar — epiderma(grek. epiderma— tashqi teri). Qachonki u shox va ildizlar ikkilamchi qalinlashganda va shikastlanganda buziladi, bunda ko‘p qatlamli ikkilamchi

to‘qimalarga almashadi.¹

2.O‘quv jarayonining mazmuni:

1. Qoplovchi to‘qimaning vazifasi va uning xillari.
2. Birlamchi qoplovchi to‘qima-epidermisning hosil bo‘lishi
3. Ikkilamchi qoplovchi to‘qima-peridermaning hosil bo‘lishi
4. Uchlamchi qoplovchi to‘qima-quruq po‘stloq, uning hosil bo‘lishi, vazifasi
5. Mexanik to‘qimaning xillari va vazifasi.
6. Kollenximaning qalinlashishi, xillari uchraydigan joyi.
7. Sklarenximaning tuzilishi, xillari uchraydigan joyi
8. Sklereidlar tuzilishi, uchraydigan joyi.

3. O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash).

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Bumerang, Vertushka
- v) Forma – (shakl) guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, mikroskop, tayyor preparatlar, fiksirlangan material, tablisa
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko‘rish)
- j) Baholash – o‘z-o‘zini va umumiy baholash

4. Metod – Vertushka, Bumerang

Bumerang treningi

Talabalar kichik guruhlariga bo‘linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Har bir guruh o‘z fikrini bayon qiladi va guruhlar orsida savol-javob ketadi.

1-guruhga beriladigan vazifa

1. Qoplovchi to‘qima, paydo bo‘lishi va vazifasi
2. Birlamchi qoplovchi to‘qima-epiderma
3. Epiderma hujayralaridagi og‘izcha va tukchalar

2-guruhga beriladigan vazifa

1. Periderma, tuzilishi, uchraydigan joyi
2. Fellema, fellogen, fellodermaning tuzilishi, vazifasi
3. Yasmiqchanning paydo bo‘lishi, vazifasi

3-guruhga beriladigan vazifa

1. Uchlamchi qoplovchi to‘qima-quruq po‘stloq-paydo bo‘lishi, tuzilishi
2. Mexanik to‘qima vazifasi, xillari
3. Kollenximaning tuzilishi, xillari

4-guruhga beriladigan vazifa

1. Sklarenxima, tuzilishi, xillari
2. Sklereidlar tuzilishi, uchraydigan joyi
3. Mexanik to‘qimalarning ahamiyati

¹П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.

Vertushka metodi

Bu treningda guruhlarga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda to'g'ri javobni belgilaydi. Keyin bu materiallar guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi. Guruhlar soniga qarab aylangandan keyin o'qituvchi va talabalar bilan umumiy to'g'ri javob belgilaniladi.

№	Mexanik to'qima xillari, tuzilishi	Plastinkali kollenxima	Burchakli kollenxima	YUmshoq kollenxima	Sklerenxima	Lubtola	YOg'ochlik tolasi	Stereid
1.	Poyaning po'stloq qismida joylashgan, ingichka uchli cho'zinchoq hujayralardan tashkil topgan, hujayra qobig'i sellyulozali bo'lib, o't o'simliklar poyasida uchraydi							
2.	Hujayralari tirik hujayra po'sti sellyulozali, qalin, epiderma ostidagi birlamchi po'stloqning parenxim hujayralaridan paydo bo'lgan hujayra po'stining burchaklari qalinlashgan							
3.	Qobig'i juda qalin yog'ochlashgan po'stli, radial kanalchalar shaklidagi ingichka teshikchalari bo'lgan o'lik parenxim hujayralardan tuzilgan							
4.	Kambiydan hosil bo'lgan va yog'ochlik (ksixema)qismida joylashgan mexanik to'qima							
5.	Poyaning po'stloq qismida joylashgan sklerenxima turi							
6.	Hujayraning tangental devorlari qalinlashgan mexanik to'qima							
7.	Hujayra devorlari orasida bo'shliq bo'lgan mexanik to'qima							

5. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Ob'ektlar bo'yicha ma'lumotlar.

Qoplovchi to'qimalar

Qoplovchi to'qimalar o'simliklar tanasini tashqi qismida joylashgan bo'lib, uning organlarini tashqi noqulay sharoit ta'siridan, ya'ni haddan tashqari qizib ketish yoki sovub ketishdan, to'qimalar ichiga suv, zararli bakteriyalar va zamburug'lar kirishidan, o'simlikni ortiqcha suv bug'latishdan, mexanik shikastlanishdan saqlaydi.

Qoplovchi to'qima kelib chiqishiga ko'ra uch xil bo'ladi: epiderma yoki po'st, periderma, po'stloq bo'ladi.

Epiderma. Epiderma o'simlikning barg va yosh novdalarini tashqi tomondan o'rab turuvchi bir qator, ba'zan ikki, uch qator bo'lib zich joylashgan tirik hujayralardan iborat.

Epiderma hujayralari rangsiz uning ichida protonlazma va vakuolalar mavjud. Epiderma tashqi ko'rinishi jihatidan turli o'simliklarda turlicha bo'ladi.

Masalan: ikki pallali o'simliklarda epiderma hujayralarining bo'yi bilan eni baravar, hujayra po'sti egri-bugri bo'lsa, bir pallali o'simliklarda esa cho'ziq, hujayra devorlari tekis bo'ladi.

Epidermaning sirti ko'pincha mumsimon modda kutin bilan qoplangan bo'lib, yaltiroq tashqi qavat-kutikulani hosil qiladi. Kutikula o'zidan suv va gazlarni o'tkazmaydi, natijada himoya vazifasini yanada oshiradi. O'simliklarda gaz almashinish va suv bug'lanish jarayonlari alohida

teshikchalar-og'izchalar orqali bo'ladi; bu og'izchalar epidermis hujayralari orasiga joylashgan bo'ladi, Og'izchalar ikkita loviyasimon shaklli qamrovchi hujayradan tuzilgan bo'lib, bu hujayralar gaz va suv bug'latib turadigan teshikni hosil qiladi. Qamrovchi hujayralar epidermining boshqa hujayralaridan tarkibida xloroplast bo'lishi bilan farq qiladi. Hujayralar devorining bir xilda qalin emasligi hamda ularning bir xilda tarang bo'lib turmasligi sababli og'izcha ochilib yoki yopilish turishi mumkin. Qamrovchi hujayralar tarang vaqtida og'izcha ochiq, so'ligan vaqtda esa bekiladi.

Epiderma sirti tukchalar bilan qoplangan bo'ladi. tukchalar bajaradigan vazifasi va tuzilishi jihatidan bir hujayrali, ko'p hujayrali, oddiy va bezli bo'ladi; shakliga ko'ra-to'g'ri, shoxlangan, boshchali, yulduzsimon bo'ladi. Bezli tukchalarda efir moylari, kislotalar hamda fermentlar bo'ladi.

Periderma. Ko'p yillik o'simliklarning organlarida epiderma o'rnini ikkilamchi qoplovchi to'qima-probka (periderma) egallaydi. Periderma uch qavatdan: fellema, fellogen, fellodermadan iborat.

Fellema (po'kak) bir necha qavat o'lik hujayralardan tashkil topgan bo'lib, o'zidan suv va havoni o'tkazmaydi.

Fellogen Hujayrasi ichida sitoplazma va yassi shaklli hujayralardan iborat yupqa po'stli yadrosi bo'ladi. Fellogen hujayralari bo'linib ko'payib tashqi tomondan felloderma to'qimasini hosil qiladi.

Periderma ba'zi o'simlikda fellogen epidermaning o'zidan yoki subepidermal qavat hujayrasidan paydo bo'ladi.

Po'kak to'qimaning ayrim hujayralari uzilib yasmiqchalar hosil qiladi. Ular orqali suv parlanish va havo almashinish jarayoni sodir bo'ladi.

Po'stloq. Ko'p yillik daraxt o'simliklarining poyasida probka o'rnini quruq po'stloq egallaydi. Daraxtsimon o'simliklar poyasi kambiy qavatining uzluksiz rivojlanishi hisobiga eniga o'sib yo'g'onlashib turadi. Natijada periderma ham yoriladi. Po'stloqning chuqurroq qismida yangidan periderma qavatini hosil qiladigan fellogen to'qimasi hosil bo'ladi. Fellogen qavatining qayta-qayta hosil bo'lishi natijasida po'stloq to'qimalari qurib, o'lik qoplovchi to'qima-quruq po'stloq hosil qiladi.

Mexanik to'qima

Mexanik to'qima o'simlikka mustahkamlik beradi. Bu to'qimalarning uch xili mavjud: kollenxima, sklerenxima, sklereidlar.

Kollenxima-to'qimasi tirik parenxima hujayralaridan iborat. Ularda protoplazma, yadro va xlorofill donachalari bo'ladi. Hujayra po'sti selyulozadan tashkil topgan. Kollenxima to'qima hujayralarining devorlari har xil qalinlashishi mumkin. Hujayra burchaklari qalinlashgan bo'lsa, buni burchakli kollennxima deyiladi. Hujayraning tangektal devorlari qalinlashib, radial devorlari yupqaligicha qolsa, plastinkali kollennxima, qalinlashgan hujayra devorlari orasida hujayralararo bo'shliq bo'lsa yumshoq kollennxima deb ataladi. Kollenxima to'qimasi ikki pallali o'imliklarning yosh poyalari va barg bandida uchraydi.

Sklerenxima. Bu to'qima poya epidermasining ostida hamda o'tkazuvchi bog'lamlar atrofida joylashadi. Hosil bo'lishiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi sklerenxima mavjud. Birlamchi sklerenxima prokambiy va peresikldan, ikkilamchi sklerenxima kambiydan hosil bo'ladi. Sklerenxima-poyaning po'sloq qismida uchrasa, lub tolalari yoki stereid deb ataladi. Agar sklerenxima o'simlikning yog'ochlik qismida uchrab, kambiydan hosil bo'lsa, yog'ochlik tolasi yoki libriform deyiladi. Ba'zi libriform hujayralar bo'shlig'ida to'siqlar libriform deyiladi. Bunday hujayralar tok va shu kabi o'simliklarda uchraydi.

Sklereid. Bu hujayralarning po'sti qalinlashgan va yog'ochlangan. Sklereidlar o'lik hujayralar hisoblanadi. Bular o'simliklarning turli organlarida: o'simlik poyasi va bargida, nok va behi mevasining etida, shaftoli, o'rik danagida, yong'oq po'chog'ida uchraydi.

6. Mustaqil ishlash tartibi

Kerakli jihozlar: O‘simlik organidan tayyorlangan fiksirlangan material. Safranin, Sudan III eritmasi va tayyor preparatlar.

1-tajriba. Bir pallali o‘simliklar bargining epidermis tuzilishi. Gulsafsar bargining pastki tomonidan shilib, mikroskopik preparat tayyorlang va mikroskopning katta ob’ektivida ko‘rib, quyidagilarga e’tibor bering:

1. Epidermis hujayrasi. 2. Og‘izchaning tutashtiruvchi hujayralari xloroplastlari bilan, og‘izcha teshigi, og‘izcha atrofidagi hujayralar. Bir pallali o‘simliklar epidermis hujayralarining shakliga e’tibor bering.

2-tajriba. Ikki pallali o‘simlik bargi epidermisining tuzilishi. Bu tajribani marjon (buzina) daraxti bargida ko‘riladi. Bu preparatni xuddi 1-tajriba kabi tayyorlanadi. Bir va ikki pallali o‘simlik epidermisini solishtirib ko‘ring.

3-tajriba. Tayyor preparat: oshqovoqning poyasidan tayyorlangan preparatdan qoplovchi va mexanik to‘qimalarni joylanishini, tuzilishini ko‘ring.

4 – tajriba: - Makkajo‘xori poyasidan ko‘ndalangiga kesib preparat tayyorlanadi. Qilinadigan ishlar oshqovoq poyasidagiga o‘xshash bajariladi. Poya tashqi tomonidan epidermis bilan qoplangan. Epidermis tagida qizil rangga bo‘yalgan sklerenxima halqasi joylashgan. So‘ngra hamma tomoni asosiy to‘qima bilan o‘ralgan holda joylashgan o‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamlari ko‘rinadi. O‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamlari sinchiklab ko‘riladi. U kollateral (ksilemaning bir tomoniga floema joylashgan) va ochiq (floema bilan ksilema o‘rtasida kambiy bo‘ladi) bog‘lam ekanligi aniqlanadi.

Topshiriqlar: birlamchi va ikkilamchi qoplovchi to‘qimalar, kollenxima, sklerenxima rasmi chiziladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A. Botanika. – T.: O‘zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A., Samatova SH. O‘simliklar sistematikasidan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O‘.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans. Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василева.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

Mavzu: O'tkazuvchi to'qimalar. O'tkazuvchi to'qima ksilema va floema elementlari, bog'lamlari va ularning bajaradigan vazifasi

1. Darsning maqsadi:

O'tkazuvchi to'qima, ularning xillari vazifasi, bog'lamlari, uchraydigan joylari haqida tushuncha berish. O'simlik organizmida suv va suvda erigan moddalar doimo harakatda bo'ladi. Bu moddalarning harakati o'tkazuvchi to'qimalar orqali, ya'ni ksilemadan suv va unda erigan moddalar pastdan yuqoriga, bunda ildizdan poya va bargga ko'tariladi (ko'tariluvchi oqim), floemadan esa assimilyatsiya natijasida hosil bo'lgan organik moddalar yuqoridan pastga, ya'ni bargdan poya va ildizlarga harakatlanadi (tushuvchi oqim).

Ksilema to'qimasi tarkibiga – traxeya, traxeidlar, ksilema tolasi – libriform va ksilema parenximasi kiradi.

Traxeyalar ingichka kapillyarlardan tashkil topgan bo'lib, ular hujayralarning uzun qator bo'lib joylashishidan hosil bo'ladi. Kapillyar silindr shaklida bo'lib, ichida ko'ndalang to'siqlar bo'maydi, qobig'i notekis qalinlashib yog'ochlangan bo'ladi. Traxeyalarning qobig'i spiral, halqasimon, narvonsimon, to'rli va nuqtali shaklda qalinlashgan bo'ladi.

Traxeidlar – ingichka uchli, yog'ochlashgan, qalin devorli, o'lik prozenxim hujayralardan tashkil topgan bo'lib, asosan nina bargli daraxtlarda, paporotniksimonlarda uchraydi.

Floema tushuvchi oqim bo'lib, uning tarkibiga elaksimon naylar, yo'ldosh hujayralar, floema tolasi – stereid va floema parenximalari kiradi.

Elaksimon naylar uzunasiga birlashgan naysimon hujayralardan iborat, ularning birlashgan ko'ndalang to'siqlarida mayda teshiklar xuddi elakga o'xshab joylashgan bo'lgani uchun elaksimon naylar deyiladi. Elaksimon naylar yonida maxsus tirik yadroli hujayralar bo'lib ular yo'ldosh hujayralar deyiladi. Elaksimon nay va yo'ldosh hujayralar yonma yon joylashgan bo'lib, har ikkalasi ham kambiy va prokambiyning bitta hujayrasidan hosil bo'ladi. SHuning uchun bu hujayralar harindosh hujayralar bo'lib, elaksimon naylar nobud bo'lsa, yo'ldosh hujayra ham halokatga uchraydi.¹

Ochiq urug'li o'simliklarda yo'ldosh hujayra bo'lmaydi.

O'tkazuvchi to'qimaning barcha elementlari qo'shib, o'tkazuvchi bog'lamni hosil qiladi. har bir o'tkazuvchi bog'lam keng ovalsimon yoki tuxumsimon bo'lib turli xil to'qimalardan tuzilgan.

Daraxt o'simliklar

Floema va ksilemaning joylashishiga harab o'tkazuvchi bog'lamlar quyidagicha bo'ladi.

Yopiq kollateral bog'lamda prokambiy to'liq sarflanib, floema bilan ksilema yonma – yon joylashadi (masalan makkajo'xorida).

Ochiq kollateral bog'lamda prokambiyning bir qismi kambiyga aylanib floema bilan ksilema o'rtasida joylashgan bo'ladi (ikki pallali o'simliklarda uchraydi).

Ochiq bikollateral bog'lamlarda, floema ksilemaning ikki tomonida, floema bilan ksilema o'rtasida kambiy joylashgan bo'ladi (masalan qovoq poyasida).

Kontsentrik bog'lamlarda floema ksilemani batamom o'rab olgan bo'ladi yoki aksincha ksilema floemani o'rab oladi (bunday bog'lam ildizpoyalarda uchraydi).

Radial o'tkazuvchi bog'lamlarning asosiy qismini ksilema tashkil qilib, radial nur shaklida joylashadi. Radial nurlar orasida floema joylashadi. (bu bog'lam birlamchi ildiz tuzilishiga ega bo'lgan o'simliklarda uchraydi).da floema daraxtning po'stloq qismida, ksilema yog'ochlik qismida joylashib, o'tkazuvchanlik vazifasini bajaradi. O't o'simliklarining po'stloq va yog'ochlik qismi yaxshi rivojlanmagan shuning uchun floema bilan ksilema bog'lam hosil qiladi. Bu bog'lamlar orqali moddalar harakatda bo'ladi.

¹Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.

Metod – Bumerang, Vertushka

Bumerang terningi

Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. har bitta guruh o‘z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar orasida savol – javob

1 – guruhga beriladigan vazifa

1. O‘tkazuvchi to‘qimalarning vazifasi
2. YUqoriga ko‘tariluvchi oqim
3. Past ga tushuvchi oqim

2 – guruhga beriladigan vazifa

Floema va uning elementlari

- a) elaksimom nay
- b) yo‘ldosh hujayra
- v) floema parenximasi
- g) lub tolasi – stereid

3 – guruhga beriladigan vazifa

Ksilema va uning elementlari

- a) traxeya
- b) traxeidlar
- v) yog‘ochlik parenximasi
- g) yog‘ochlik tolasi – libriform

4 – guruhga beriladigan vazifa

O‘tkazuvchi to‘qima bog‘lamlari

- a) Yopiq kollateral
- b) Ochiq bikollateral
- v) Kentsentrik
- g) Radial

Vertushka metodi.

Bu treningda guruhlarga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda to‘g‘ri javobni belgilaydi. Keyin bu materiallar guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi. Guruhlar soniga harab aylangan-dan keyin o‘qituvchi va talabalar bilan umumiy to‘g‘ri javob belgilaniladi.

O‘tkazuvchi bog‘lam xillari	Yopiq kollateral bog‘lam	Ochiq kolle-teral bog‘lam	Ochiq bikollateral bog‘lam	Radial bog‘lam	Konsentrik Bog‘lam
1. Floema ksilemaning atrofini o‘rab oladi, ba‘zan ksilema floe-mani atrofini o‘rab oladi 2. Ksilemaning ikki tomonida floema joylashgan bo‘ladi 3. Floema ksilema bilan yonma-yon joylashib turadi 4. Ksilema markazda radial nurlar hosil qilib joylashadi, nurlar orasida floema joylashadi. 5. Prokambiyning bir qismi kambiyga aylanib, floema bilan ksilema o‘rtasida joylashgan bo‘lsa					

Mustaqil bajarish uchun vazifalar.

Ob'ektlarni o'rganish: O'tkazuvchi to'qimalar, ksilema va floema elementlari va o'tkazuvchi to'qima bog'lamlari.

O'simlik organizmida suv va suvda erigan moddalar doimo harakatda bo'ladi. Bu moddalarning harakati o'tkazuvchi to'qimalar orqali, ya'ni ksilemadan suv va unda erigan moddalar pastdan yuqoriga, bunda ildizdan poya va bargga ko'tariladi (ko'tariluvchi oqim), floemadan esa assimilyatsiya natijasida hosil bo'lgan organik moddalar yuqoridan pastga, ya'ni bargdan poya va ildizlarga harakatlanadi (tushuvchi oqim).

Ksilema to'qimasi tarkibiga – traxeya, traxeidlar, ksilema tolasi – libriform va ksilema parenximasi kiradi.

Traxeyalar ingichka kapillyarlardan tashkil topgan bo'lib, ular hujayralarning uzun qator bo'lib joylashishidan hosil bo'ladi. Kapillyar silindr shaklida bo'lib, ichida ko'ndalang to'siqlar bo'lmaydi, qobig'i notekis qalinlashib yog'ochlangan bo'ladi. Traxeyalarning qobig'i spiral, halqasimon, narvonsimon, to'rli va nuqtali shaklda qalinlashgan bo'ladi.

Traxeidlar – ingichka uchli, yog'ochlashgan, qalin devorli, o'lik prozenxim hujayralardan tashkil topgan bo'lib, asosan nina bargli daraxtlarda, paporotniksimonlarda uchraydi.

Floema tushuvchi oqim bo'lib, uning tarkibiga elaksimon naylar, yo'ldosh hujayralar, floema tolasi – stereid va floema parenximalari kiradi.

Elaksimon naylar uzunasiga birlashgan naysimon hujayralardan iborat, ularning birlashgan ko'ndalang to'siqlarida mayda teshiklar xuddi elakga o'xshab joylashgan bo'lgani uchun elaksimon naylar deyiladi. Elaksimon naylar yonida maxsus tirik yadroli hujayralar bo'lib ular yo'ldosh hujayralar deyiladi. Elaksimon nay va yo'ldosh hujayralar yonma yon joylashgan bo'lib, har ikkalasi ham kambiy va prokambiyning bitta hujayrasidan hosil bo'ladi. Shuning uchun bu hujayralar harindosh hujayralar bo'lib, elaksimon naylar nobud bo'lsa, yo'ldosh hujayra ham halokatga uchraydi.

Ochiq urug'li o'simliklarda yo'ldosh hujayra bo'lmaydi.

O'tkazuvchi to'qimaning barcha elementlari qo'shib, o'tkazuvchi bog'larni hosil qiladi. har bir o'tkazuvchi bog'larni keng ovalsimon yoki tuxumsimon bo'lib turli xil to'qimalardan tuzilgan.

Daraxt o'simliklar

Floema va ksilemaning joylashishiga harab o'tkazuvchi bog'larni quyidagicha bo'ladi.

Yopiq kollateral bog'larni prokambiy to'liq sarflanib, floema bilan ksilema yonma – yon joylashadi (masalan makkajo'xorida).

Ochiq kollateral bog'larni prokambiyning bir qismi kambiyga aylanib floema bilan ksilema o'rtasida joylashgan bo'ladi (ikki pallali o'simliklarda uchraydi).

Ochiq bikollateral bog'larni floema ksilemaning ikki tomonida, floema bilan ksilema o'rtasida kambiy joylashgan bo'ladi (masalan qovoq poyasida).

Kontsentrik bog'larni floema ksilemani batamom o'rab olgan bo'ladi yoki aksincha ksilema floemani o'rab oladi (bunday bog'larni ildizpoyalarda uchraydi).

Radial o'tkazuvchi bog'larni asosiy qismini ksilema tashkil qilib, radial nur shaklida joylashadi. Radial nurlar orasida floema joylashadi. (bu bog'larni birlamchi ildiz tuzilishiga ega bo'lgan o'simliklarda uchraydi).da floema daraxtning po'stloq qismida, ksilema yog'ochlik qismida joylashib, o'tkazuvchanlik vazifasini bajaradi. O't o'simliklarining po'stloq va yog'ochlik qismi yaxshi rivojlanmagan shuning uchun floema bilan ksilema bog'larni hosil qiladi. Bu bog'larni orqali moddalar harakatda bo'ladi.

Mustaqil ishlash tartibi.

1 – tajriba: - Oshqovoq poyasidan ko'ndalangiga kesib, preparat tayyorlanadi. Bir nechta qirgib olingan poyadan eng yupqasini ajratib olib, safranin reaktividan tomiziladi va

qoplag'ich oyna bilan yopiladi. Mikroskopning kichik ob'ektivida poyaning umumiy ko'rinishi kuzatiladi. Bunda katta va kichik o'tkazuvchi to'qima bog'larni ko'rish mumkin. Barcha yog'ochlangan hujayralar qizil ranga bo'yalib ko'riladi. Poyaning hamma qismi, poya epidermisi va undan chiqqan hujayrali tuklar, epidermis ostidagi burchakli kollenxima va sklerenxima halqasi ko'zdan kechiriladi. Asosiy to'qima bilan o'ralgan o'tkazuvchi to'qima bog'lari ko'riladi. O'tkazuvchi to'qima bog'lari doira bo'yicha tartibli ravishda joylashgan. Bu preparatdan bitta o'tkazuvchi to'qima bog'lari o'rganiladi. O'tkazuvchi to'qima bog'lari bikollateral ravishda tuzilgan (ksilemaning har ikkala tomoniga floema joylashgan, ya'ni tashqi va ichki floema) va ochiq (tashqi floema bilan ksilema o'rtasida kambiy bor) bog'lari bo'ladi.

- 2 – tajriba: - Makkajo'xori poyasidan ko'ndalangiga kesib preparat tayyorlanadi. qilinadigan ishlar oshqovoq poyasidagiga o'xshash bajariladi. Poya tashqi tomonidan epidermis bilan qoplangan. Epidermis tagida qizil rangga bo'yalgan sklerenxima halqasi joylashgan. So'ngra hamma tomoni asosiy to'qima bilan o'ralgan holda joylashgan o'tkazuvchi to'qima bog'lari ko'rinadi. O'tkazuvchi to'qima bog'lari sinchiklab ko'riladi. U kollateral (ksilemaning bir tomoniga floema joylashgan) va ochiq (floema bilan ksilema o'rtasida kambiy bo'ladi) bog'lari ekanligi aniqlanadi.
- 3- tajriba: - Kungaboarning uzunasiga kesilgan tayyor preparatidan foydalaniladi. Mikroskopning kichik ob'ektivida qizil rangga bo'yalgan suv naylar va traxeidlar ko'riladi. Eng yirik suv naylaridan to'rsimon, teshiksimon, halqasimon, narvonsimon suv naylari hamda sklerenxima va elaksimon naylar mikroskop ostida ko'riladi.
- 4 – tajriba: - Makkajo'xori poyasining uzunasiga kesilgan tayyor preparati mikroskop ostida ko'riladi. Shu bilan birga oshqovoqning uzunasiga kesilgan poyasi bilan taqqoslanadi. Makkajo'xori poyasida suv naylari bor yo'g'ligi aniqlanadi.
- 5 – tajriba: - Orlyak paporotnigining ildizpoyasidan kesilgan tayyor preparatidan foydalaniladi. Bu preparatdan kentsentrik holda joylashgan o'tkazuvchi to'qima bog'lari ko'riladi. Yuqorida ko'rsatilgan preparatlarni o'rganish davrida to'qimalarni joylanishi hamda alohida o'tkazuvchi to'qima bog'lari rasmi chiziladi.
- 6 – tajriba: - Tayyor preparat: gulsafsar ildizining ko'ndalang kesimi. Radial o'tkazuvchi to'qima bog'lari ahamiyat berib.

Topshiriqlar: - Ksilema va uning elementlari, floema va uning elementlari. O'tkazuvchi to'qima bog'larni, to'qimalarni ildizpoyalarda joylanishini chizib oling.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elektron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.

7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василев А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG‘ULOT— 8

Mavzu: Asosiy va ajratuvchi to‘qimalar, bezlar va ularning xillari. Smola yo‘llari.

1. Darsning vazifasi:

Asosiy va ajratuvchi to‘qimalarning tuzilishi, organlarda joylashuvi, ayrim o‘simliklarda o‘ziga xos bezlar uchrashi va ularda to‘planadigan moddalar haqida tushuncha berish.

O‘simlik organlarining ko‘pchilik qismi yirik, hujayra po‘sti yupqa, modda almashinuvi jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu hujayralar asosan birlamchi va ikkilamchi meristemalardan hosil bo‘ladi va asosiy to‘qimalar deb ataladi. Asosiy to‘qimalar bir necha guruhga bo‘linadi:

Assimilyatsion to‘qima (xlorenxima) - Xlorofill donachalari ko‘p bo‘lgan to‘qima assimilyatsion to‘qima (xlorenxima) deb ataladi. Bu to‘qima asosan barglarda, gullarda, yashil mevalarda va o‘t o‘simliklarning poyalarida uchraydi. To‘qimaning asosiy vazifasi – fotosintez.

G‘amlovchi to‘qima- Fotosintez natijasida hosil bo‘lgan moddalar oziq modda sifatida to‘planishi mumkin. Bunday to‘qima urug‘li o‘simliklarning hamma organlarida bor. Kraxmal, aleyron donachalari, yog‘ moddalar guruxiga kirib, ular g‘amlovchi parenxima hujayralarining sitoplazmasida saqlanadi.

Shamollatuvchi to‘qima.(aerenxima) - hujayralararo bo‘shliqlari ko‘p va keng bo‘lgan parenximaga aerenxima deb ataladi. Aerenxima o‘simlikning qamma havo, ya‘ni nafas olish uchun kerak bo‘lgan kislorodni etkazib beradi. Aerenxima suvda va botqoqlikda o‘sadigan o‘simliklarning poya, barg va ildizlarida yaxshi rivojlanadi. Parenximaning asosiy vazifasi assimilyatsion to‘qimalarni kislorod bilan taminlashdir.

So‘ruvchi to‘qima - Bu to‘qima o‘simlik hayotida katta rol o‘ynaydi. So‘ruvchi to‘qima ildizning so‘rish zonasida joylashgan bo‘lib, u ildiz tuklari va po‘stloqning yosh parenxima hujayralaridan iborat.

Vellamen - Ko‘p qavatli suv shimuvchi ilma-teshik o‘lik hujayralardan tashkil topgan bo‘lib, epifitlarning havo ildizlarida uchraydi. Bunga misol qilib, solabdoshlar, kuchaladoshlar oilasidagi o‘simliklarning havo ildizlarini olish mumkin.

Ajratuvchi to‘qimalar

Moddalar almashinuvi jarayonida o‘simliklar o‘zidan har xil moddalarni ajratib chiqaradi. Ajratuvchi to‘qimaning ikki turi: ichki va tashi sekretiya to‘qimalari mavjud. Ichki sekretiya to‘qimalariga sxizogen va lizigen yo‘llar deb ataluvchi to‘qimalar, maxsus idioblastlar va qismlarga ajralgan murakkab sut naychalari yoki sutdonlar kiradi. Bu to‘qimalarda ko‘pincha oshlovchi moddalar, smolalar, efir moylari va kristallar to‘planadi. Sut naychalari o‘simliklar tanasida tarmoqlanib ketgan

kanallar sistemasidan iborat. Ular ayrim parenxima hujayralardan yoki bir qancha hujayralarning birlashib ketishidan hosil bo‘ladi. Sut naychalari doimo tirik bo‘lib, unda kauchuk, smola tomchilari, kraxmal donachalari va alkaloidlar mavjud. Sutsimon shira ko‘knori, sachratqi, qoqi o‘ti kabi o‘simlik organlarida uchraydi.

Murakkab yoki qismlarga ajralgan sutdonlar murtak rivojlanayotgan paytda gipokotilda va urug‘ pallarida hosil bo‘la boshlaydi. Apikal meristemaning differentsiatsiyalanishi natijasida yangi sutdon yo‘llari hosil bo‘ladi, keyinchalik ular birlamchi sutdon yo‘llari bilan qo‘shilib, umumiy murakkab sutdon yo‘llari sistemasini tashkil qiladi. Astraguldoshlar, ko‘knoridoshlar oilasiga mansub o‘simliklarda bu qildagi sutdon uchratiladi.

Oddiy yoki qismlarga ajralmagan sutdon yo‘llari murtakdagi boshlang‘ich ildizga va urug‘ palla o‘rtasida joylashgan bitta yoki bir necha xil xujayralarning kengayib rivojlanishi natijasida paydo bo‘ladi. Bunday sutdonlarning ba‘zilar tarmoqlanmasdan silindrsimon ko‘rinishni oladi. Chayon o‘ti va nashada sutdonlar kuchli tarmoqlangan, ya‘ni ular o‘simlik tanasi bo‘ylab tarqalgandir.

Sxizogen va lizigen bo‘shliqlar.

Sxizogen yo‘llar to‘qimalardagi hujayralararo bo‘shliqlarning kengayishi natijasida hosil bo‘ladi. Bu xildagi bo‘shliqlar suv o‘tlaridan laminariyada uchraydi. Lizigen bo‘shliqlarning kelib chiqishi biroz boshqacharoq ular to‘qimalardagi guruh hujayralarning erib ketishi natijasida hosil bo‘ladi. Bunday bo‘shliqlar sitrus o‘simliklarida, qarag‘aylarda esa smola yo‘llari shaklida ko‘rinadi.

Organlarda smola yo‘llari vertikal va gorizantal joylashgan bo‘lishi mumkin.

4. Metod – Vertushka

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu material guruhlarga aralastirib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o‘qituvchi va talabalar bilan umumiy to‘g‘ri javob o‘rtoqlashiladi.

No	Asosiy to‘qima xillari	Xloren-xima	G‘am-lovchi	So‘ruvchi	Aeren-xima	Vella-men	Urug‘-murtakdan so‘ruvchi qatlam
1	Ildizining so‘rish zonasida joylashib, markaziy o‘t-kazuvchi to‘qimaga etkazib beradi						
2	Bu parenxima hujayralarida oziq modda to‘planadi						
3	Xloroplastlari bo‘lgan parenxima hujayralar						
4	hujayralararo bo‘shliqlari bo‘lgan parenxima						
5	hujayralarda suv to‘playdigan paren-xim hujayralar						
6	Urug‘murtak qalqo-nida bo‘ladigan asosiy to‘qima						

2. O'quv jarayonining mazmuni:

1. Asosiy to'qima vazifasi, uning xillari
2. Assimilyatsion (xlorenxima) to'qima
3. hamlovchi to'qima
4. Shamollatuvchi (aerenxima) to'qima
5. So'ruvchi to'qima
6. Vellamen – suv shimuvchi to'qima
7. Ajratuvchi to'qima vazifasi, uning xillari
8. Tashqi chiharuvchi to'qimalar:
 - a) bezchali tuklar (trixomalar)
 - b) o'smalar (emergentlar)
 - v) nektardonlar
 - g) gidatodalar
 - c) hazm bezlari
 - e) osmaforalar
9. Ichki chiharuvchi to'qimalar:
 - a) idioblastlar
 - b) sxizogen bo'shliq
 - v) lizigen bo'shliq
 - g) efir moy kanallari
 - d) smola yo'li
10. Sut naylari:
 - c) bo'g'imli sut naylari
 - d) bo'g'imsiz sut naylari

3. O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi - suhbat
- b) Metod – Vertushka
- v) Forma – (shakl) guruh
- g) Vosita – doska, taqatma material, mikroskop, tayyor preparatlar, tablitsa
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko'rish)
- j) Baholash – o'z-o'zini va umumiy baholash

4. Metod – Vertushka

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu material guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o'qituvchi va talabalar bilan umumiy to'g'ri javob o'rtoqlashiladi.

№	Asosiy to'qima xillari	Xloren-xima	G'am-lovchi	So'ruvchi	Aeren-xima	Vella-men	Urug'-murtakdan so'ruvchi qatlam
1	Ildizining so'rish zonasida joyla-shib, markaziy o't-kazuvchi						

	to'qimaga etkazib beradi						
2	Bu parenxima hujayralarida oziq modda to'planadi						
3	Xloroplastlari bo'lgan parenxima hujayralar						
4	hujayralararo bo'shliqlari bo'lgan parenxima						
5	hujayralarda suv to'playdigan paren-xim hujayralar						
6	Urug'murtak qalqo-nida bo'ladigan asosiy to'qima						

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu material guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o'qituvchi va talabalar bilan umumiy to'g'ri javob o'rtoqlashiladi.

№	Tashqi chiharuvchi to'qima	Bezchali tuklar	O'smalar	Nektardonlar	Gidatodalar	Xazm bezlari	Osmatoralar
1	Fermentlar va kis-lotalar yordamida hashoratlarni tu-tib oziqlanadi						
2	O'simlikning guli-da bo'lib, qandsi-mon – suyuqlik aj-ratadi						
3	Bezchalarning hosil bo'lishida paren-xim hujayralari ishtirok etgan, osonlik bilan sinadigan o'yuvchi moddasi bo'lgan						
4	Suv tomchilatib turadigan to'qima						
5	O'simlik guli toj-barglarida uchuvchan efir moylari ajratib turadigan to'qima						
6	Epiderma hujayralaridan hosil bo'ladigan, sekretlar (suyuqliklar) bo'l-gan kutikula qavat						

5. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Ob'ektlarni o'rganish : Asosiy to'qima. Ajratuvchi to'qimalar.

Ob'ektlar bo'yicha ma'lumotlar.

O'simlik organlarining ko'pchilik qismi yirik, hujayra po'sti yupqa, modda almashinuvi jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu hujayralar asosan birlamchi va ikkilamchi meristemalardan hosil bo'ladi va asosiy to'qimalar deb ataladi. Asosiy to'qimalar bir necha guruhga bo'linadi:

Assimilyatsion to'qima (xlorenxima) - Xlorofill donachalari ko'p bo'lgan to'qima assimilyatsion to'qima (xlorenxima) deb ataladi. Bu to'qima asosan barglarda, gullarda, yashil mevalarda va o't o'simliklarning poyalarida uchraydi. To'qimaning asosiy vazifasi – fotosintez.

G'amlovchi to'qima - Fotosintez natijasida hosil bo'lgan moddalar oziq modda sifatida to'planishi mumkin. Bunday to'qima urug'li o'simliklarning hamma organlarida bor. Kraxmal, aleyron donachalari, yog' moddalar guruxiga kirib, ular g'amlovchi parenxima hujayralarining sitoplazmasida saqlanadi.

Shamollatuvchi to'qima.(aerenxima) - hujayralararo bo'shliqlari ko'p va keng bo'lgan parenximaga aerenxima deb ataladi. Aerenxima o'simlikning qamma havo, ya'ni nafas olish uchun kerak bo'lgan kislorodni etkazib beradi. Aerenxima suvda va botqoqlikda o'sadigan o'simliklarning poya, barg va ildizlarida yaxshi rivojlanadi. Parenximaning asosiy vazifasi assimilyatsion to'qimalarni kislorod bilan taminlashdir.

So'ruvchi to'qima - Bu to'qima o'simlik hayotida katta rol o'ynaydi. So'ruvchi to'qima ildizning so'rish zonasida joylashgan bo'lib, u ildiz tuklari va po'stloqning yosh parenxima hujayralaridan iborat.

Vellamen - Ko'p qavatli suv shimuvchi ilma-teshik o'lik hujayralardan tashkil topgan bo'lib, epifitlarning havo ildizlarida uchraydi. Bunga misol qilib, solabdoshlar, kuchaladoshlar oilasidagi o'simliklarning havo ildizlarini olish mumkin.

Ajratuvchi to'qimalar

Moddalar almashinuvi jarayonida o'simliklar o'zidan har xil moddalarni ajratib chiqaradi. Ajratuvchi to'qimaning ikki turi: ichki va tashqi sekretiya to'qimalari mavjud. Ichki sekretiya to'qimalariga sxizogen va lizigen yo'llar deb ataluvchi to'qimalar, maxsus idioblastlar va qismlarga ajralgan murakkab sut naychalari yoki sutdonlar kiradi. Bu to'qimalarda ko'pincha oshlovchi moddalar, smolalar, efir moylari va kristallar to'planadi. Sut naychalari o'simliklar tanasida tarmoqlanib ketgan kanallar sistemasidan iborat. Ular ayrim parenxima hujayralardan yoki bir qancha hujayralarning birlashib ketishidan hosil bo'ladi. Sut naychalari doimo tirik bo'lib, unda kauchuk, smola tomchilari, kraxmal donachalari va alkaloidlar mavjud. Sutsimon shira ko'knori, sachratqi, qoqi o'ti kabi o'simlik organlarida uchraydi.

Murakkab yoki qismlarga ajralgan sutdonlar murtak rivojlanayotgan paytda gipokotilda va urug' pallarida hosil bo'la boshlaydi. Apikal meristemaning differentsiatsiyalanishi natijasida yangi sutdon yo'llar hosil bo'ladi, keyinchalik ular birlamchi sutdon yo'llari bilan qo'shib, umumiy murakkab sutdon yo'llari sistemasini tashkil qiladi. Astraguldoshlar, ko'knoridoshlar oilasiga mansub o'simliklarda bu qildagi sutdon uchratiladi.

Oddiy yoki qismlarga ajralmagan sutdon yo'llari murtakdagi boshlang'ich ildizga va urug' palla o'rtasida joylashgan bitta yoki bir necha xil xujayralarning kengayib rivojlanishi natijasida paydo bo'ladi. Bunday sutdonlarning ba'zilar tarmoqlanmasdan silindrsimon ko'rinishni oladi. Chayon o'ti va nashada sutdonlar kuchli tarmoqlangan, ya'ni ular o'simlik tanasi bo'ylab tarqalgandir.

Sxizogen va lizigen bo'shliqlar.

Sxizogen yo'llar to'qimalardagi hujayralararo bo'shliqlarning kengayishi natijasida hosil bo'ladi. Bu xildagi bo'shliqlar suv o'tlaridan laminariyada uchraydi. Lizigen bo'shliqlarning kelib chiqishi biroz boshqacharoq ular to'qimalardagi guruh hujayralarning erib ketishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday bo'shliqlar sitrus o'simliklarida, qarag'aylarda esa smola yo'llari shaklida ko'rinadi.

Organlarda smola yo'llari vertikal va gorizantal joylashgan bo'lishi mumkin.

Tashqi sekretsiya to‘qimalarga o‘simlikning vegetativ va generativ organlarining sirtida joylashgan har xil bezli tuklar hamda guldagi nektar bezlari kiradi. Bu to‘qimalar efir moylari, nektar va suv ajratib turadi.

Epiderma hujayralaridan hosil bo‘lgan bezli tuklar (trixomalar)¹ o‘zlarida to‘planadigan smola va efir moylarini qattiq, suyuq yoki gaz holatda tashqi muhitga ajratib turadi. Ixtisoslashgan epidermis xujayralarining smola,

yelimvashilimshiqishlab chiqarish o‘simliklardajudako‘puchraydigan xodisadir. Masalan, chinnigullilaroilasigakiradigan viscaria viscose nomli yopishqoq o‘simlikdapo yasining bo‘g‘imlaritagi yopishqoqtasmalarxosil bo‘ladi.

Butasimonlarning epidermisiajratuvchixujayralarniya’nidonorprotoplazmagaboytashqidevoridaso‘r g‘ichsimon, o‘siqlaribo‘lganyirik – yirikxujayralarnixosilqiladi. Ko‘p o‘simliklarda bezsimon ko‘p xujayrali tuklar mavjud. Bu tuklar bir xujayrali masalan navruzgul, pelargoniyada yoki ko‘p xujayrali boshchadan iborat masalan xmel, qoraqatda. Tuklarning xamma xujayralari tirik bo‘lib, boshcha xujayralari donador protoplazmaga boy bo‘lib, yirik yadrosi bor. Bu xujayralarning chiqaradigan suyuqliklari, asosan efir moylari yoki shu moylarda erigan smolalardan iborat bo‘lib, kutikula ostida to‘planadi, bunda kutikula pufakcha ko‘rinishida bir yoki bir tup xujayralar ustida ko‘tarilib turadi va o‘z – o‘zidan yoki hayvon, yo bo‘lmasa odam tekkanida yoriladi, shundan keyin kutikula yana asliga kelishi va sekret chiqara boshlashi mumkin. Hashoratxo‘r o‘simliklarda bunday tuklar yopishqoq pepsin va tripsin moddalarni ajratib turadi. Gidatodalar suv ustitsalari (og‘izchalari) bo‘lib, eng faol ajratuvchi organlardan biridir. Ular orqali suv tashhariga tomchilab turadi. Masalan: ko‘zacha bargli koloxaziya o‘simlik bargidagi gidatodalar 1 minutda 180 tomchiga yaqin suv ajratishi mumkin. Nektar bezlaridanqandlisuyuqlik (nektar) chiqaruvchi organlarbo‘lib, odatda, guldandjoyoladi: nektarchetdanchanglanadigan o‘simliklardahayvonlarniodatdaxashorotlarnio‘zigajalbetadi.

Kerakli jihozlar: 1. O‘simlik organidan tayyorlangan fiksirlangan material. 2. Safranin, flyuroglyutsin bo‘yog‘i, Sudan III eritmasi va kontsentrik xlorid kislotasi.

6. Mustaqil ishlash tartibi.

1-tajriba: - Qoqi o‘tni ildizdan uzunasiga yupqa qilib kesib preparat tayyorlanadi. Mikroskop ostida sut naylari ko‘riladi.

2-tajriba: - Tayyor preparat: qarag‘ay novdasidan tayyorlangan preparatdan sxizogenli to‘qimalarni ko‘ring.

3-tajriba: - Mandarin, apelsin yoki limon bargidan (tayyorlangan preparatdan) lizigenli chiharuvchi to‘qimalarni ko‘ring.

4-tajriba: - Bezli tuki bo‘lgan o‘simliklarni bargini epidermisidan preparat tayyorlab, bezli va bezsiz tuklarni aniqlash (geran, jiyda, kampirchopon barglari ko‘riladi).

Topshiriqlar: - Sut naylari, tashqi va ichki ajratuvchi to‘qimalar, tuklar, bezli tuklarni rasmi chiziladi.

2. ¹Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василева А.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pечатnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

Mavzu: Birlamchi va ikkilamchi ildizning ichki tuzilishi. Kambiy hosil bo'lishi.

1. Darsning maqsadi:

Ildizning birlamchi tuzilishi, ildiz zonalari, ikkilamchi ildizning tuzilishi, kambiyning hosil bo'lishi, ildizmevalarning ichki tuzilishini o'rganish.

Ob'ektlar bo'yicha ma'lumotlar.

Ildiz o'sish konusining tuzilishini o'rganish uchun bir pallali o'simlik ildizining uchki qismini uzunasiga kesib, mikroskop ostida qaraganimizda ildiz uchi g'ilof bilan qoplanganligini ko'rish mumkin. g'ilof o'sayotgan ildizning nozik uchini – ildizning o'sish konusini shikastlanishdan saqlab turadi. Ildiz g'ilofi hujayralari yirik bo'lib, sirt tomonidan doimo ajralib, ichki tomondan beto'xtov o'sib turadi. O'sish nuqtasi ichki hujayralarning ko'ndalang bo'linishi natijasida o'sish nuqtasi uzayadi, uzunasiga bo'linish natijasida esa yo'g'onlashadi. Bo'linish nuqtasidan birmuncha yuqoriroq o'sish zonasi bo'lib, uning uzunligi bir necha mmga etadi. Bu zona hujayralari tez o'sadi va cho'ziladi. O'sish zonasidan keyin so'rish zonasi boshlanadi, bunda ildiz tukchalari borligini ko'rish mumkin. SHu tukchalar orqali suv va unda erigan mineral moddalar so'rilib turadi. Tukchalar uzunligi 1 mmga etadi.

Mustaqil ishlash tartibi

1 – tajriba: - Bug'doy ildizining uzunasiga kesimidan ildiz zonalarini ko'rish:

- a) ildiz qini
- b) bo'linish qismi
- v) o'suvchi qismi
- g) so'ruvchi qismi

2 – tajriba: - Gulsafsar ildizidan vaqtinchalik preparat tayyorlab, so'rish zonasidan, ildizning birlamchi tuzilishini o'rganish:

- a) epiblema
- b) ekzoderma
- v) mezoderma
- g) endoderma
- d) peretsikl
- e) radial bog'lam
- j) o'zak

3 – tajriba: - Tayyor preparatdan kambiyning hosil bo'lishini ko'rib, birlamchi ildizni ikkilamchi ildizga o'tishini o'rganish.

Metod – Vertushka, Blits o'yin

Vertushka metodi

№	Ildiz zonalari	Ildiz hinchasi	Bo'linuvchi zona	O'suvchi zona	So'ruvchi zona
1	Ildiz o'sish nuqtasining eng uchida joylashgan bitta bo'linadigan hujayra initsial hujayra deyilib bo'linish xususiyatiga ega hujayralardan tuzilgan				

2	Ildizning bu zonasidagi epiblema hujayralarining bir qismi tashqi tomonga boʻrtib oʻsib, tukchalarni hosil qiladi. Bu tukchalar suvni shimadi.				
3	Ildizning uchki qismida, tashqi tomoni sellyulozali, shilim-shiqlangan parenxim hujayralar yigʻindisi				
4	Boʻlinish zonasidan yuqoriga hujayralar ajralib chiqib, boʻli-nishdan toʻxtab yirik-lashadi. Bu zona -				

2. Oʻquv jarayonining mazmuni:

1. Ildiz qanday zonalaridan tuzilgan
2. Ildiz zonalarining vazifasi va tuzilishi.
 - a) ildiz qini
 - b) boʻlinuvchi zona
 - v) oʻsuvchi zona
 - g) soʻruvchi zona
3. Ildizning ichki tuzilishini qaysi zonadan oʻrganish mumkin
4. Soʻruvchi zona qanday toʻqimalardan paydo boʻladi.
5. Birlamchi ildiz qismlari:
 - a) epiblema
 - b) birlamchi poʻstloq
 - v) markaziy silindr
6. Markaziy silindrda joylashgan toʻgʻima turlari, vazifasi
7. Kambiyning hosil boʻlishi
8. Ikkilamchi ildiz tuzilishi
9. Ildizmevalarning ichki tuzilishi

4. Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Blits oʻyin, Bumerang
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, tayyor preparat, fiksirlangan material, mikroskop.
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (koʻrish)
- j) Baholash – oʻz-oʻzini va umumiy baholash

5. Metod –Blits o‘yin

Blits o‘yin

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Guruh ichidan chetlatish	Ildizning birlamchi tuzilishi
						<p>1. Doira shaklini olgan kambiy hujayralari ich-kariga ikkilamchi ksilemani, tashqariga ikkilam-chi floemani hosil qiladi.</p> <p>2. Ularning hujayralari bo‘linishi natijasida esa ikkilamchi ksilema yuzaga keladi.</p> <p>3. Ikki pallali va ochiq urug‘li o‘simliklarda ildiz ikkilamchi tuzilishga o‘tadi.</p> <p>4. Bu halqani hosil qilishdan oldin, paren-xima hujayralarning kambiy yoylari bo‘linib, floemaga nisbatan ikki-lamchi ksilemani ko‘proq hosil qiladi va birlamchi floemani o‘z o‘rnidan siqib chiqaradi, kambiy doi-ra shaklini oladi.</p> <p>5. Markaziy silindrda floema va ksilema orasi-dagi yupqa po‘stli paren-xima hujayrasi cho‘zilib ikkilamchi hosil qiluvchi to‘g‘ima kambiy yoylarini hosil qiladi.</p> <p>6. Kambiydan tashqarida qolgan peretsikl hamda po‘stloq parenximasining tashqi hujayralaridan fellogen qavati hosil bo‘ladi. Fellogen qavati peridermani hosil qiladi.</p> <p>7. SHu paytda ksilema nurining uchida joylash-gan peretsikl va parenxi-ma hujayralari hosil qilgan kambiy yoylari tutashib, kambiy halqasi-ni hosil qiladi.</p>

6. Mustaqil bajarish uchun vazifa

Ob’ektlarni o‘rganish: Ildizning birlamchi tuzilishi, ildizning ikkilamchi tuzilishi.

Ob’ektlar bo‘yicha ma’lumotlar.

Ildiz o'sish konusining tuzilishini o'rganish uchun bir pallali o'simlik ildizining uchki qismini uzunasiga kesib, mikroskop ostida qaraganimizda ildiz uchi g'ilof bilan qoplanganligini ko'rish mumkin. g'ilof o'sayotgan ildizning nozik uchini – ildizning o'sish konusini shikastlanishdan saqlab turadi. Ildiz g'ilofi hujayralari yirik bo'lib, sirt tomonidan doimo ajralib, ichki tomondan beto'xtov o'sib turadi. O'sish nuqtasi ichki hujayralarning ko'ndalang bo'linishi natijasida o'sish nuqtasi uzayadi, uzunasiga bo'linish natijasida esa yo'g'onlashadi. Bo'linish nuqtasidan birmuncha yuqoriroq o'sish zonasi bo'lib, uning uzunligi bir necha mmga etadi. Bu zona hujayralari tez o'sadi va cho'ziladi. O'sish zonasidan keyin so'rish zonasi boshlanadi, bunda ildiz tukchalari borligini ko'rish mumkin. SHu tukchalar orqali suv va unda erigan mineral moddalar so'rilib turadi. Tukchalar uzunligi 1 mmga etadi.

7. Mustaqil ishlash tartibi

1 – tajriba: - Bug'doy ildizining uzunasiga kesimidan ildiz zonalarini ko'rish:

- a) ildiz qini
- b) bo'linish qismi
- v) o'suvchi qismi
- g) so'ruvchi qismi

2 – tajriba: - Gulsafsar ildizidan vaqtinchalik preparat tayyorlab, so'rish zonasidan, ildizning birlamchi tuzilishini o'rganish:

- a) epiblema
- b) ekzoderma
- v) mezoderma
- g) endoderma
- d) peretsikl
- e) radial bog'lam
- j) o'zak

3 – tajriba: - Tayyor preparatdan kambiyini hosil bo'lishini ko'rib, birlamchi ildizni ikkilamchi ildizga o'tishini o'rganish.

4 – tajriba: - Oshqovoq ildizidan tayyorlangan preparatdan ildizning ikkilamchi tuzilishini o'rganish

5 – tajriba: - Tayyor preparatdan ildizmevalarning ichki tuzilishini o'rganish

Topshiriq: - birlamchi va ikkilamchi ildiz tuzilishi va ularda to'g'imalarni joylanishini rasmini chizib, nomlarini yozish.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elektron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. ВасилеваА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.

10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. "Nizim" bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: "Ibn Sino" nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG'ULOT– 10

Mavzu: Bargning anatomik tuzilishi.

1. Darsning maqsadi:

Bargning ichki tuzilishi uning irsiy xususiyatiga, ekologik sharoitga va boshqa omillarga bog'liq. Barg ikki asosiy qismdan: barg eti (mezofill) va tomirlaridan iborat.

Barg mezofill qismida assimilyatsion to'g'imalar joylashgan. Tomir qismida o'tkazuvchi naylar bo'lib, suv va unda erigan mineral moddalar oqadi.

Assimilyatsion to'g'imalar – bulutsimon va uutsimon hujayralardan iborat bo'lib, ustunsimon hujayralarda fotosintez protsessi ketadi, bulutsimon hujayralarda gaz almashinuv protsessi ketadi.

Assimilyatsion to'qimalarning joylanishiga harab, bargning ichki tuzilishi 3 xil guruhga bo'linadi: a) dorzoventral b) izoloteral v) radial.

Bir pallali o'simliklar bargining ichki tuzilishi ikki pallalilar bargidan birmuncha farq qiladi. Bir pallali o'simliklar bargida ustunsimon parenxima bo'lmaydi, hamma hujayralar bulutsimon hujayralardan iborat.

2. Darsning vazifasi:

Bargning ichki tuzilishidagi to'g'imalar, ularning vazifasi, assmilyatsion to'g'imalarning joylanishiga harab bargning guruhlarga bo'linishini o'rganish.

TEZKOR SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Bargning ichki tuzilishi qanday omillarga bog'liq
2. Bargda necha xil to'g'ima mavjud, va ularning vazifasi qanday
3. Bargning ostki va ustki tomoni epiderma hujayralarining tuzilishi qanday
4. Barg eti (mezofill) qismidagi parenxima hujayra turlari va ularning vazifasi
5. Assimilyatsion to'g'imalar joylanishiga qarab, barg xillari
6. Dorzoventral barg tuzilishi
7. Izoloteral barg tuzilishi
8. Radial barg tuzilishi
9. Bargning tomir qismidagi o'tkazuvchi sistema tuzilishi
10. Bir pallali o'simliklar bargining ichki tuzilishini ikki pallalilardan farqi

Metod - Vertushka

Vertushka metodi

№	Assimilyatsion to'g'ima-ning joylanishiga harab, bargning ichki tuzilishi	Dorzoventral	Izolotal	Radial
1	Barglarda yuqori va pastki epiderma tomonida, ya'ni ikki tomonlama ustunsimon to'g'ima joylashgan bo'ladi.			
2	Barglarda yuqori tomonida ustunsimon, pastki tomonida bulutsimon yoki g'ovaksimon to'g'imalar joylashgan bo'ladi.			
3	Barglarda assimilyatsion to'g'ima radius bo'ylab, ya'ni aylana bo'ylab joylashadi. Barg epidermi-sining o'sishi barvaqt to'xtashi natijasida assimilyatsion to'g'ima o'sishda davom etib, egri-bugri holatdagi xoshiyali parenximani hosil qiladi.			

Bumerang metodi

1 – guruhga beriladigan vazifa

1. Bargda necha xil to'g'imalar mavjud
2. Bargda epiderma hujayralarining tuzilishi, vazifalari.

2 – guruhga beriladigan vazifa

1. Bargda assimilyatsion to'g'ima turlari va vazifasi
2. Assimilyatsion to'g'imaning joylanishiga harab, barg xillari

3 – guruhga beriladigan vazifa

1. Dorzoventral barg tuzilishi va undagi to'g'imalarning joylanishi
2. Izolotal barg tuzilishi va undagi to'g'imalarning joylanishi.

4 – guruhga beriladigan vazifa

1. Radial barg tuzilishi va undagi to'g'imalarning joylanishi
2. Barg o'tkazuvchi sistema tuzilishi

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1 – tajriba: - Kameliya bargining ko‘ndalang kesimini (tayyor preparat) mikroskop ostida ko‘rish, dorzoventral bargning yumshoq qismidagi qoziqsimon va bulutsimon to‘g‘imalarni o‘rganish. Bargning tomir o‘tgan qismidagi mexanik va o‘tkazuvchi to‘g‘imalarni aniqlash, rasmini chizib, nomlarini yozish.

2 – tajriba: - Qarag‘ay bargining radial tuzilishi. qarag‘ay bargini ko‘ndalangiga kesib, vaqtinchalik preparat tayyorlash va quyidagi to‘g‘imalarni o‘rganish:

- | | |
|---------------------|-----------------------------|
| a) kutikula | j) endoderma |
| b) epidermis | z) peretsikl |
| v) og‘izcha | i) yopiq kollateral bog‘lam |
| g) gipoderma | l) sklerenxima |
| d) chokli parenxima | k) asosiy to‘g‘ima |
| e) smola yo‘llari | |

3 – tajriba: - Qarag‘ay bargining ko‘ndalang kesimini tayyor preparatda ko‘rib, bargning radial tuzilishini o‘rganish

4 – tajriba: - Sambitgul, sho‘ra bargini kesib, preparat tayyorlang. Ustunsimon, bulutsimon to‘g‘imalarning joylanishiga qarab izolateral barg tuzilishini o‘rganish. Bargning orqa tomonidagi chuqurchalarga joylashgan og‘izcha va tukchalarni toping.

Topshiriq: Dorzoventral, izolateral va radial barglarda to‘g‘imalarning joylanishini rasmini chizib, qismlarini nomlarini yozing.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A. Botanika. – T.: O‘zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A., Samatova SH. O‘simliklar sistemikasidan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O‘.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василева.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. -435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

Mavzu: Bir va ikki pallali o'tli o'simlik poyasining anatomik tuzilishi.

1. Darsning maqsadi:

Gulli o'simliklarning har qanday poyasi uchidagi kurtak bilan o'sadi. Kurtakning uchida o'sish nuqtasi yoki konus bo'ladi. O'sish konusining birlamchi meristemasidan hosil bo'lgan hujayralar poyaning birlamchi tuzilishini hosil qiladi. Bir pallali o'simliklar poyasi tashqi tomondan epidermis bilan qoplangan. Epidermis ostida bir necha qavat mexanik to'g'ima – sklerenxima, sklerenxima ostida asosiy parenxima joylashgan. Asosiy parenxima hujayralarining oralarida yopiq tolali nay bog'lamlari bo'lib, ular tartibsiz joylashgan.

Ikki pallali o'simliklarning poyasi birlamchi yo'g'onlashgach, prokambiyning bir qismidan kambiy hosil bo'ladi, natijada ularda ikkilamchi yo'g'onlashish boshlanadi. Epiderma ostida kollenxima va po'stloq parenximi bo'lib, po'stloqda ba'zan sklerenxima ham kuzatiladi. Poyaning o'rtasiga yaqin joylashgan parenxima hujayralarida ochiq kollateral o'tkazuvchi bog'lam aylana bo'ylab, bir sathda joylashadi.

2. Darsning vazifasi:

O'tli o'simliklar poyasidagi to'g'imalarning joylanishi, ularning vazifasi, bir va ikki pallali o'simlik poyalarining ichki tuzilishidagi farqlarni o'rganish.

TEZKOR SO'ROV UCHUN SAVOLLAR

1. O'tli o'simliklarning poyasida qanday qoplovchi to'g'imalar mavjud
2. O'tli o'simliklar poyasida hosil qiluvchi to'g'ima turlari va vazifalari
3. Bir pallali o'simliklar o'tkazuvchi to'g'ima bog'lamlarining ikki pallalilarnikidan farqi
4. Bir pallali o'simliklar poyasining ichki tuzilishi
5. Ikki pallali o'simliklar poyasining birlamchi tuzilishi
6. Ikki pallali o'simliklar poyasining ikkilamchi tuzilishi

Blits o'yin

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Guruh ichidan chetlatish	Ikki pallali o'tli o'simlik poyalarining ichki tuzilishi
						1. Kollenxima asosan epidermis ostida, skleren-xima esa poyaning marka-ziga yaqinroqhalqasimon yoki bo'lak-bo'lak bo'lib joylashadi. 2. Birlamchi po'soq asosan xlorofill donachalari bo'lgan parenxima to'g'imalardan tashkil topgan. 3. Endodermaga yaqin turgan peretsikldan bosh-lab, markaziy silindr boshlanadi. 4. Uning tarkibiga mexa-nik

					<p>to'g'ima – kollinxima va sklerenximalar kiradi.</p> <p>5. Ikki pallali o'simlik-larda poya – epidermis birlamchi po'stloq, marka-ziy silindrga bo'linadi.</p> <p>6. Birlamchi po'stloqning markazga yaqin qismi endoderma deb ataladi.</p> <p>7. O'tkazuvchi bog'lamlar ochiq kollateral tipda bo'ladi.</p> <p>8. Peretsikldan markazga harab floema va ksilema orasida kambiy bo'lgan o'tkazuvchi bog'lamlar joylashgan.</p> <p>9. Peretsikldan ko'pchilik o'simliklarda qo'shimcha ildiz va kurtak hamda ikkilamchi meristema hosil bo'ladi.</p>
--	--	--	--	--	---

Bumerang metodi

1 – guruhga beriladigan vazifa

1. Poyaning ichki tuzilishida meristema hujayralarining vazifasi
2. O'tli o'simliklar poyasida qanday qoplovchi to'g'imalar mavjud

2 – guruhga beriladigan vazifa

1. Bir pallali o'simliklar poyasining ichki tuzilishi
2. Bir pallali o'simliklar o'tkazuvchi to'g'ima bog'lamlarining ikki pallalilarnikidan farqi

3 – guruhga beriladigan vazifa

1. Ikki pallali o'simliklar poyasining birlamchi tuzilishi
2. Ikki pallali o'simliklar poyasining bir pallali o'simliklar poyasining anatomik tuzilishidagi farqi

4 – guruhga beriladigan vazifa

1. Ikki pallali o'tli o'simliklar poyasining ikkilamchi tuzilishi
2. Poyaning ichki tuzilishida, yo'g'onlashishida kambiy hujayralarining vazifasi

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

- 1 – tajriba: - Makkajo'xori poyasidan ko'ndalang kesik tayyorlab, unga safranin eritmasidan tomiziladi. Bunda kollateral bog'lamni, ya'ni ksilemaning bir tomonida floema joylashgan bo'lib, yopiq bog'lam ekanligi kuzatiladi. Bir pallali o'simlikda o'tkazuvchi to'g'ima bog'lamlari tartibsiz joylashgan bo'ladi.
- 2 – tajriba: - Ikki pallali o'simlikni poyasi, oshqovoqdan ko'ndalang kesik tayyorlab, unga safranin reaktividan tomizib, mikroskopda ko'riladi va o'tkazuvchi to'g'ima bog'lamlari bikollateral tipda tuzilganligi aniqlanadi. Bunda ksilemaning har ikki tomonida floema joylashgan bo'lib, kambiy borligi uchun ochiq bog'lamligi kuzatiladi. Ikki pallali o'simliklarni o'tkazuvchi to'g'ima bog'lamlari tartibli joylashganini ko'riladi.

3 – tajriba: - Ikki pallali o‘simlikni poyasidan kesik tayyorlab, floema va ksilema bog‘lam shaklida bo‘lmay, balki tutash, ya‘ni aylana shaklida joylashganini ko‘rish.

Topshiriq: - Bir va ikki pallali o‘tli o‘simlik poyalarida to‘g‘imalarning joylanishini rasmini chizib, qismlarini yozing. Bog‘lamsiz poya tuzilishining rasmini chizib, nomini yozing.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A. Botanika. – T.: O‘zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A., Samatova SH. O‘simliklar sistematikasidan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O‘.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG‘ULOT– 12

Mavzu: Yog‘ochli o‘simlik poyasining anatomik tuzilishi. Ochiq urug‘li o‘simliklar poyasining ichki tuzilishi.

1. Darsning maqsadi:

Yog‘ochli o‘simliklar poyasi 3 qismga bo‘linadi: po‘stloq, yog‘ochlik va o‘zak. Daraxtlar poyasining ustki tomoni periderma bilan qoplangan. Daraxtning po‘stloq qismi ikkiga bo‘linadi: birlamchi po‘stloq unga peridermadan ikkilamchi floemagacha bo‘lgan to‘g‘imalar kiradi. Bu to‘g‘imalar - kollennima, oziq moddalar to‘plovchi asosiy to‘g‘imalar, peretsikl qoldig‘i va birlamchi floemadan iborat. Ikkilamchi po‘stloqqa ikkilamchi floema elementlari va o‘zak nur hujayrasi kiradi. Po‘stloq bilan yog‘ochlikni kambiy chegaralab turadi.

Yog‘ochlik qismida o‘tkazuvchi to‘g‘ima har xil naycha va traxeidlardan iborat. Yog‘ochlik parenximasida oziqli moddalar to‘planadi. O‘zak nur hujayralari poyada radius bo‘ylab joylashgani uchun, radial nurlar deb ham ataladi.

Daraxtli o‘simliklarning eniga yo‘g‘onlashuvi kamby faoliyatiga bog‘liq. O‘zak qismi poyaning markazida joylashgan bo‘lib, uning hujayralari har xil moddalar - oshlovchi moddalar ta‘sirida qoramtir, sariq, qo‘ng‘ir tusga kiradi.

Igna bargli daraxtlar yog‘ochi asosan traxeidlardan tashkil topgan bo‘lib, ancha gomogen va bir tarzdadir. Zich jipslashgan traxeidlar bu yerda, bir vaqtning o‘zida suv o‘tkazuvchi va mexanik tizimlarishini bajaradilar. Suv naylari yo‘q. Parenxima yog‘och nurlari va smola yo‘llarining (agar ular bo‘lsa) bezli epiteliysidan tashkil topgan.

Traxeidlar va yog‘och nurlarining parenxima hujayralari orasida yarim hoshiyalangan teshiklar (poralar) hosil bo‘ladi. Bunday teshiklar (poralar) ayniqsa qarag‘ayda ancha yirik. Yog‘och nurlarining yuqori va pastki chegaralari bo‘ylab nurli traxeidlarning tasmasi o‘tadi. Nurli traxeidlar – bo‘ylamasiga cho‘ziq, devorlarida hoshiyalangan teshiklari (poralar) bor o‘lik hujayralardir. Ushbu hujayralar radial suv transportini ta‘minlaydilar.¹

2. Darsning vazifasi:

Daraxtli o‘simliklar poyasidagi to‘g‘imalarning joylanishini, vazifalarini, poyalarning eniga yo‘g‘onlashuvi kamby faoliyatini o‘rganish.

TEZKOR SO‘ROV UCHUN SAVOLLAR

1. Ikkilamchi qoplovchi to‘g‘ima – periderma va uning tuzilishi
2. Daraxtsimon o‘simliklar poyasining ichki tuzilishidagi qismlari
3. Birlamchi po‘stloqdagi to‘g‘imalar va ularning vazifasi
4. Ikkilamchi po‘stloqdagi to‘g‘imalar va ularning vazifasi
5. Ikilamchi yog‘ochlikdagi to‘g‘imalar va ularning tuzilishi
6. O‘simlik poyasining yo‘g‘onlashuvida kamby faoliyati
7. Yillik halqaning hosil bo‘lishi
8. Yog‘ochlik yarosi tarkibi va vazifasi
9. Nina bargli o‘simliklar poyasining ichki tuzilishi

5. Metod - Vertushka

№	Yog‘ochli o‘simliklar poyasidagi hujayralar	Periderma	Birlamchi po‘stloq	Ikki-lamchi po‘stloq	Ikki-lamchi yog‘ochlik	Birlamchi yog‘ochlik	O‘zak
1	Epiderma qoldiqlari						
2	Kollenxima						
3	Sklerenxima – lib-riform						
4	O‘zak nur hujayralari (birlamchi)						
5	Yog‘ochlik yadrosi						
6	Birlamchi floema						
7	Yirik suv naychalari						
8	Radial nurlar						
9	Ikkilamchi lub						
10	Prokambiy qoldiqlari						
11							

¹П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.

12	Fellema, fello-gen,						
13	felloderma						
14	Kuzgi yog'ochlik						
15	Po'stloq parenximasi						
16	Floema tolasi						
	Bahorgi yog'ochlik (yillik halqa)						
	Ikkilamchi nur hujayralari						

Blits o'yin

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Guruh ichidan chetlatish	YOg'ochli o'simliklar poyasining ichki tuzilishi
						<p>1. Birlamchi po'stloqda peretsikl qoldiqlari, oziq modda to'plovchi pa-renxima hujayralari, birlamchi floema hujay-ralari bo'ladi.</p> <p>2. Bahorda kambiy hujay-ralari ichkariga harab, bo'linib, yog'ochlikning yirik suv kanalchalarini hosil qiladi.</p> <p>3. Ikkilamchi yog'ochlikda har xil naychalar va tra-xeidlardan, oziq moddalar to'plovchi yog'ochlik parenximasidan iborat.</p> <p>4. Po'stloq qism ikkiga bo'linadi: birlamchi po'st-loq va ikkilamchi po'stloq</p> <p>5. Daraxtsimon o'simlik-lar poyasining ko'ndalang kesimi 3 qismdan iborat: po'stloq, yog'ochlik, o'zak.</p> <p>6. Hosil bo'lgan bu yirik suv naychalar kuzdagi mayda hujayralardan farq qilib, yillik halqani hosil qiladi.</p> <p>7. Ikkilamchi yog'ochlikda joylashgan mexanik to'qi-ma vazifasini bajaruvchi sklerenxima libriform deb ataladi.</p> <p>8. Daraxtlar poyasining ustki tomoni periderma bilan qoplangan.</p> <p>9. O'zak nurlari yirik</p>

						parenxima hujayralardan iborat bo'lib, poyada ra-dius bo'ylab joylashgan. 10. Ikkilamchi po'stloqda ikkilamchi foema ele-mentlari va o'zak nur hujayralari joylashgan 11. Po'stloq bilan yog'och-likni kambiy chegaralab turadi.
--	--	--	--	--	--	--

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

- 1 – tajriba: - Ko'p yillik tok o'simligining novdasidan kesma tayyorlab, yog'ochlik qismini safranin eritmasi bilan bo'yab to'g'imalarni joylanishini aniqlang
- 2 – tajriba: - Lipa daraxtining novdasidan tayyorlangan tayyor preparatni ko'rib, to'g'imalarni joylanishini aniqlang:
- peridermadagi fellema, fellogen, fellodermanni kuzating
 - birlamchi po'stloqni chegarasini kuzating
 - ikkilamchi to'g'imadagi floema elementlarini kuzatib, o'zak nur hujayrasini ajrating
 - kambiyni o'rganish
 - yog'ochlikda joylashgan mayda va yirik suv kanalini kuzatib, yillik halqalarini sanash
 - o'zakdagi hujayralarni o'rganish
- 3 – tajriba: - Qarag'ay poyasidagi smola yo'llari, po'stloq va yog'ochlik qismidagi to'g'imalar bilan tanishish.

Topshiriq: - Yog'ochli poyaning ichki tuzilishidagi to'g'imalarni o'rganib, rasmini chizish.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

- Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
- Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
- Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
- Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
- Pharmaceutical Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
- V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
- П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
- Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
- ВасилеваА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
- Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
- Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manufaktura, 2004.-294 s.
- Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
- Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994

14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
 15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

Laboratoriya mashg'ulot– 13, 14

Mavzu: Fiksirlangan material asosida yuksak o'simliklarning anatomik tuzilishini aniqlash.

1. Darsning maqsadi:

Talabalar amaliy mashg'ulot davomida olgan bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi mashg'ulot o'tkaziladi. O'simlik organlarining aniqlash kalitidan foydalanib, to'g'imalarning joylanishini o'rgangan xolda o'simlik organlarini (ildiz, poya, barg) va sinfini (bir, ikki pallali) aniqlaydilar.

2. Darsning vazifasi:

Yuksak o'simliklar organlaridan kesik tayyorlash, kesiklardagi to'g'imalarning joylanishini o'rganish va o'simlik organlarini va sinfini aniqlash.

3. O'quv jarayonining mazmuni:

1. Ildiz zonalari
2. Birlamchi ildiz tuzilishi
3. So'ruvchi zonasining ko'ndalang kesimi:
 - a) epiblema b) birlamchi po'stloq qismi
 - v) markaziy silindr tuzilishi
4. Ikkilamchi ildiz tuzilishi
5. Ildizmevalarning ichki tuzilishi
6. Ko'p yillik daraxtlarning ildizining tuzilishi
7. Bargning ichki tuzilishi
8. Bargdagi assimilyatsion to'g'ima turlari
9. Bir pallali o'simliklar poyasining ichki tuzilishi
10. Ikki pallali o'simliklar poyasining ichki tuzilishi
11. Ikki pallali o'tli o'simliklar poyasida o'tkazuvchi to'g'imalarni bog'lamsiz tuzilishi
12. Ildizpoyadagi bog'lamlarning turlari va joylanishi

4. O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Bumerang, Vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tablitsa, tarqatma material, fiksirlangan material
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko'rish)
- j) Baholash – o'z – o'zini, va umumiy baholash

**5. Metod – Vertushka
 Vertushka metodi.**

№	To'qimalar	hosil qiluvchi	qoplovchi	Mexanik	O'tkazuvchi	Asosiy	CHiharuvchi

1	Periderma						
2	Peritsikl						
3	Sxizogen yo‘llar						
4	Fellojen						
5	Sklerenxima						
6	Assimilyatsion to‘g‘ima						
7	Kambiy						
8	Floema						
9	Qobiq						
10	Lizigen						
11	Prokambiy						
12	Gidatodlar						
13	Epidermis						
14	Ksilema						
15	Kollenxima						
16	g‘amlovchi parenxima						
17	Bezli tuklar, o‘smalar						
18	Sklereid						

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar.

Har bir talabaga shisha idishga solingan o‘simliklarni vegetativ organlari beriladi. Berilgan o‘simliklarning bittasini olib, lezviya bilan kundalangiga bir necha marta yupqa kesik tayyorlang.

Preparatingizni yog‘ochli qismini safranin reaktivi bilan bo‘yang. Natijada sklerenxima, suv kanallari va yog‘ochlangan hujayralar qizil ranga bo‘yaladi. Preparatingizni ikkinchisiga Sudan III tomizing. Natijada probka, kutikula qizqish ranga bo‘yaladi. Uchinchi preparatingizga xlor – sinkyod eritmasini tomizsangiz, klechatka va kraxmal ko‘kimtir – binafsha tusga kiradi. Uch xil bo‘yalgan preparatingizdagi to‘g‘imalarning joylanishini aniqlang va xarakterli belgilarini aniqlab, plan va tablitsadan foydalanib, preparatingizni o‘simlikning qaysi organi va qaysi sinfga mansub ekanligini quyidagi kaliy orqali aniqlang:

O‘simliklarning ko‘ndalang kesigidan ichki tuzilishini aniqlaydigan kalit.

Topshiriq: 1) Kesiklarni tayyorlab mikroskoid ko‘riladi va qaysi organ ekanligi aniqlanadi.

2) Preparatlar rasmlari ishlanib, o‘qituvchi tomonidan tekshirib, baholanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A. Botanika. – T.: O‘zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O‘.A., Samatova SH. O‘simliklar sistematikasidan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O‘.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –

6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василева.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа ”, 1988. -435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG‘ULOT-15

Mavzu: Vegetativ organlar morfologiyasi. Ildiz morfologiyasi

1. Darsning maqsadi:

O‘simlikning ildizi, poyasi, bargi vegetativ organi hisoblanadi. Vegetativ organlari bir yillik o‘simliklarda ko‘pincha urug‘ning unib chiqishidan boshlanib va yangi urug‘ning paydo bo‘lishi bilan tugaydi. Ildiz o‘simlikning muhim vegetativ organlaridan biri bo‘lib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) tuproqdan suv va unda erigan mineral organik moddalarni so‘rish
- b) o‘simlik tanasini tuproqda mustahkam tutib turadi
- v) ildizda oziq moddalar to‘playdi
- g) vegetativ ko‘payish uchun xizmat qiladi
- d) ildiz tuproqda mikroorganizmlar bilan aloqada bo‘ladi.

Ildizlar kelib chiqishiga ko‘ra asosiy, yon va qo‘shimcha ildizlarga, tashqi ko‘rinishidan o‘q ildiz va popuk ildizga bo‘linadi.

2. Darsning vazifasi:

O‘simlikning vegetativ organlari – ildiz tuzilishi, xilma-xilligi, vazifalari, shakl o‘zgarishini o‘rganish. Vegetativ organlarning biologik va xo‘jalikdagi ahamiyatini o‘rganish.

3. O‘quv jarayonining mazmuni.

1. O‘simlikning vegetativ organlari
2. Ildizning asosiy vazifalari
3. Ildizning kelib chiqishiga ko‘ra xillari
4. Ildizning tashqi ko‘rinishiga qarab xillari
5. SHakli o‘zgargan ildizlar va ularning vazifasi

4. O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi - suhbat
- b) Metod – F.S.M.U, Vertushka, Bumerang

- v) Forma – (shakl) guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko‘rish)
- j) Baholash – o‘z-o‘zini va umumiy baholash

5. Metod – F.S.M.U, Vertushka, Bumerang

F.S.M.U. – texnologiyasi

Mavzu: Ildiz va uning xillari

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil ko‘rsating

U – fikringizni umumlashtiring

Bu metodni o‘tkazish uchun, talabalarni kichik guruhlariga bo‘lamiz va bitta guruh fikr va dalillarini to‘rtta bosqich bilan yozma yoki og‘zaki namoyon qiladi.

Trening oxirida o‘qituvchi tomonidan fikrlar umumlashtiriladi.

F – Ildiz – vegetativ organ

S – Ildiz ko‘payish organi, suv va unda erigan moddalarni so‘rish, o‘simlikni mustaham tutadi.

M – havo ildizlar, o‘simliklar poyasidan ildizlar chiqib havoda osilib turadi, bunday ildizlar havoda suv bug‘larini o‘zlashtirish xususiyatiga ega.

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu material guruhlariga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o‘qituvchi va talabalar bilan umumiy to‘g‘ri javob o‘rtoqlashiladi.

№	Shakli o‘zgargan ildizlar	Ildiz-mevalar	Ildiz – tugunaklar	Tayanch ildizlar	So‘rg‘ich ildiz	Havo ildizlari
1	Parazit o‘simliklarda xlorofill donachalari bo‘lmaganligi uchun ular boshqa o‘simliklardagi oziq moddalar hisobiga yashaydi					
2	Yon va qo‘shimcha ildizlar o‘zida zapas oziq moddalar to‘playdi					
3	O‘simlik poyasidan ildiz-lar chiqib, havoda osilib turadi va bu ildizlar havodagi suv bug‘larini o‘zlashtiradi					
4	Asosiy ildiz shaklini o‘zgartirib yo‘g‘onlashadi va o‘zida zapas oziq moddalar to‘playdi					
5	Poyadan chiqqan qo‘shimcha ildizlar uni tik tutib turishiga yordam beradi.					

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu material guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o'qituvchi va talabalar bilan umumiy to'g'ri javob o'rtoqlashiladi.

№	Poyaning shoxlanish turlari	Monopodial	Simpodial	Dixotomik	Soxta dixotomik	To'planish
1	Asosiy poyadagi uchki kurtak ma'lum vaqtdan so'ng o'sishdan to'xtaydi, uchki kurtak tikancha yoki jingalakka aylanadi, uning ostidagi yon kurtak esa o'sishni davom ettiradi					
2	Poyaning uchki kurtagi o'simlik nobud bo'lguncha o'sishni davom ettira-veradi. Uning yon kurtak-laridan yon novdalar ham hosil bo'lib turadi. O'simlikni asosiy poyasi yo'g'onlashadi					
3	Novdaning uchki kurtagi o'sishdan to'xtab, gulga aylanadi, uning ostida harama-harshi joylash-gan kurtak esa o'sib, ikkita novda hosil qila-di.					
4	Poya ma'lum bir miqdorda o'sgach, uchki qismi ikkiga bo'linadi, keyinroq birining uchi yana ikkiga bo'linib ketadi					
5	G'allasimon o'simliklar-da er osti va er ustki bo'g'imlaridan bir qancha qo'shimcha ildizlar hosil qiladi, ularning ba'zi birlari bo'g'imli novda-lar hosil qiladi.					

Bumerang metodi

1 - guruhga beriladigan vazifa

1. Poya vegetativ organ va uning vazifasi
2. Poyaning tuzilishi va o'sishi qanday

2 - guruhga beriladigan vazifa

1. O'simliklar turiga qarab, poyaning shakllari
2. Tabiatning tashqi muhitiga moslashgan poyaning xillari

3 - guruhga beriladigan vazifa

1. Poyaning shoxlanish xillari
2. Poyaning shoxlanish xillarini ta'riflang

4 - guruhga beriladigan vazifa

1. Er osti shakli o'zgargan poyalar
2. Er ustki shakli o'zgargan poyalar

Atamalar zanjiri

Atamalar zanjiri- bu atamalar va ularning ta'riflari bo'lib, ulardan talabalar o'tgan mavzuni yakunlash yoki yangi mavzuni mustaxkamlashga yordam beradi.

1	geliotropizm	a	erning tortishish kuchi, ya'ni o'simlik organlarning erga nisbatan yo'nalishi xususiyati
2	geotropizm	b	o'simlik organlarning quyoshga nisbatan yo'nalish xususiyati
3	gipokotil	s	poyaning urug'palla bargi bilan birinchi chin bargi orasidagi qismi
4	Epikotil	d	poyaning ildiz bo'ynidan urug'palla bargchasigacha bo'lgan qismi
5	metamorfoz	e	bitta o'simlikda har xil barglarning uchrashi
6	geterofiliya	j	o'simlikning tarixiy taraqqiyot jarayonida muayyan vazifani bajarishga moslasha borishi natijasida organlarning o'zgarishi

3. Zanjir javoblari: 1-b, 2-a, 3-d, 4-s, 5-j, 6-e

4.

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar.

- 1 – tajriba: - Bir pallali o'simliklar uchun xos bo'lgan sochma ildizni bug'doy, arpa makkajo'xori o'simligi gerbariyidan qo'shimcha va yon ildizlarni lupa orqali ko'rib, ularning tuzilishiga e'tibor berish
- 2 – tajriba: - Ikki pallali o'simliklar uchun xos bo'lgan o'q ildizni qovoq o'simligi gerbariyidan asosiy, qo'shimcha, yon ildizlarni tuzilishini o'rganish
- 3 – tajriba: - Tablitsadan foydalanib, shakli o'zgargan ildizlar – ildizmeva, ildiztugunaklarni tuzilishini o'rganish
- 4 – tajriba: - Poyalarning shakli va o'sishiga qarab xillarini tablitsa va gerbariy va gerbariydan foydalanib o'rganish
- 5 – tajriba: - Tablitsa va gerbariydan foydalangan holda, shakli o'zgargan poyalarni o'rganish

Topshiriq: - Ildiz va poyalarning xillari, va metamorfozlarni rasmini chizib, nomlarini yozish

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. Василева А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG'ULOT – 16

Mavzu: Poya morfologiyasi. Kurtak tuzilishi. Vegetativ va generativ kurtaklar. Tinim davridagi kurtaklar.

1. Darsning maqsadi:

Poya o'simlikning er ustidagi bargsiz, kurtaksiz qismi bo'lib, bargni ildiz bilan bog'laydi. Uning vazifasi suv va unda erigan mineral moddalarni ildizdan bargga etkazish hamda bargda hosil bo'lgan organik moddalarni ildizga o'tkazishdan iborat. Bargli poya novda deb ataladi. Barglarning poyaga birikkan joyida odatda kichik bo'rtmalar xosil bo'ladi, ular poya bo'g'imlari deb ataladi. Bir bo'g'im bilan ikkinchi bo'g'im orasidagi masofa bo'g'im oralig'I deb ataladi. Novda o'qi bilan barg orasida hosil bo'ladigan burchak barg qo'ltig'I deb ataladi. Har bir novda uchki kurtakdan rivojlanadi. Uchki kurtak poyaning bo'g'imlar oralig'I qisqargan va bir – biri ustiga cherepitsa singari mingyashgan barg boshlang'ichlari bilan qoplangan boshlang'ich murtagidir. Uchki kurtakning boshlang'ich barglari birinchi meristemadan iborat va u poyaning o'sish konusi deb ataladigan konus shaklidagi uchki qismini himoya qiladi. Poyaning o'sish konusi asosida boshlag'ich bargning kichik do'mboqchalari bo'ladi. Birlamchi do'mboqchalar qo'ltig'ida ikkilamchi do'pboqchalar joylashgan bo'lib, bulardan keyinchalik novdani qo'ltiq kurtaklar vujudga keladi. Uchki va yon kurtaklar sovuq tushishi bilan tinim xolatiga o'tadi, bunday kurtaklar qishlovchi kurtaklar deb ataladi. Qo'shimcha kurtaklar ham bo'ladi. Ular ildiz va poyalarda muayyan morfologik qonuniyatdan qat'iy nazar joylashadi.

2. Darsning vazifasi:

O'simlikning vegetativ organlari –poyaning tuzilishi, xilma-xilligi, vazifalari, shakl o'zgarishini o'rganish. Vegetativ organlarning biologik va xo'jalikdagi ahamiyatini o'rganish.

3. O'quv jarayonining mazmuni.

1. Poyaning asosiy vazifasi
2. Poyaning tuzilishi va o'sishi
3. Poyaning shakllari
4. O'sishiga qarab poyaning xilma – xilligi
5. Poyaning shoxlanish xillari
6. O'simliklarning hayotiy formasi (daraxt, buta, chala buta, o't o'simlik)
7. Qiyofasini o'zgartirgan er ustki va er ostki poyalar

4. O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi - suhbat
- b) Metod – F.S.M.U, Vertushka, Bumerang
- v) Forma – (shakl) guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko'rish)
- j) Baholash – o'z-o'zini va umumiy baholash

5. Metod – F.S.M.U, Vertushka, Bumerang

F.S.M.U. – texnologiyasi

Mavzu: Ildiz va uning xillari

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil ko'rsating

U – fikringizni umumlashtiring

Bu metodni o'tkazish uchun, talabalarni kichik guruhlariga bo'lamiz va bitta guruh fikr va dalillarini to'rtta bosqich bilan yozma yoki og'zaki namoyon qiladi.

Trening oxirida o'qituvchi tomonidan fikrlar umumlashtiriladi.

F – Ildiz – vegetativ organ

S – Ildiz ko'payish organi, suv va unda erigan moddalarni so'rish, o'simlikni mustaham tutadi.

M – havo ildizlar, o'simliklar poyasidan ildizlar chiqib havoda osilib turadi, bunday ildizlar havoda suv bug'larini o'zlashtirish xususiyatiga ega.

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu material guruhlariga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o'qituvchi va talabalar bilan umumiy to'g'ri javob o'rtoqlashiladi.

№	Poyaning shoxlanish turlari	Monopodial	Simpodial	Dixotomik	Soxta dixotomik	To'planish
1	Asosiy poyadagi uchki kurtak ma'lum vaqtdan so'ng o'sishdan to'xtaydi, uchki kurtak tikancha yoki jingalakka aylanadi, uning ostidagi yon kurtak esa o'sishni davom ettiradi					
2	Poyaning uchki kurtagi o'simlik nobud bo'lguncha o'sishni davom ettira-veradi. Uning yon kurtak-laridan yon novdalar ham hosil bo'lib turadi. O'simlikni asosiy poyasi yo'g'onlashadi					
3	Novdaning uchki kurtagi o'sishdan to'xtab, gulga aylanadi, uning ostida harama-harshi joylash-gan kurtak esa o'sib, ikkita novda hosil qila-di.					
4	Poya ma'lum bir miqdorda o'sgach, uchki qismi ikkiga bo'linadi, keyinroq birining uchi yana ikkiga bo'linib ketadi					
5	G'allasimon o'simliklar-da er osti va er ustki bo'g'imlaridan bir qancha qo'shimcha ildizlar hosil qiladi, ularning ba'zi birlari bo'g'imli novda-lar hosil qiladi.					

Bumerang metodi

1 - guruhga beriladigan vazifa

3. Poya vegetativ organ va uning vazifasi
4. Poyaning tuzilishi va o'sishi qanday

2 - guruhga beriladigan vazifa

3. O'simliklar turiga qarab, poyaning shakllari
4. Tabiatning tashqi muhitiga moslashgan poyaning xillari

3 - guruhga beriladigan vazifa

3. Poyaning shoxlanish xillari
4. Poyaning shoxlanish xillarini ta'riflang

4 - guruhga beriladigan vazifa

5. Er osti shakli o'zgargan poyalar
6. Er ustki shakli o'zgargan poyalar

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar.

- 1 – tajriba: - Bir pallali o'simliklar uchun xos bo'lgan sochma ildizni bug'doy, arpa makkajo'xori o'simligi gerbariyidan qo'shimcha va yon ildizlarni lupa orqali ko'rib, ularning tuzilishiga e'tibor berish
- 2 – tajriba: - Ikki pallali o'simliklar uchun xos bo'lgan o'q ildizni qovoq o'simligi gerbariyidan asosiy, qo'shimcha, yon ildizlarni tuzilishini o'rganish
- 3 – tajriba: - Tablitsadan foydalanib, shakli o'zgargan ildizlar – ildizmeva, ildiztugunaklarni tuzilishini o'rganish
- 4 – tajriba: - Poyalarning shakli va o'sishiga qarab xillarini tablitsa va gerbariy va gerbariydan foydalanib o'rganish
- 5 – tajriba: - Tablitsa va gerbariydan foydalangan holda, shakli o'zgargan poyalarni o'rganish

Topshiriq: - Ildiz va poyalarning xillari, va metamorfozlarni rasmini chizib, nomlarini yozish

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

Mavzu: Barg morfologiyasi

1. Darsning maqsadi:

Barg o'simliklarning asosiy vegetativ organi, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) barg organik moddalar hosil qiladi
- b) barg suvni bug'lantirib, transpiratsiya vazifasini bajaradi
- v) barg orqali o'simlik nafas oladi
- g) o'simliklarning tashqi sharoitga moslashish organi bo'lib xizmat qiladi
- d) barglar to'kilib o'simlik hayotini saqlab qoladi
- e) zapas oziq moddalar to'playdi.

O'simliklarning barglari shakli jihatidan xilma – xil bo'lishiga qaramay, ikki gruppaga – oddiy va murakkab barglarga bo'lib o'rganiladi. Oddiy bargda bitta barg bandida bitta barg plastinkasi joylashadi. Oddiy barglarning shakli, uchining tuzilishi, tomirlanishi va qirralari xilma – xil tuzilgan bo'ladi. Murakkab barglar – barg bandida bir nechta barg plastinkasi bo'lgan barglarga aytiladi. Barg bajaradigan funktsiyasiga qarab o'z shaklini o'zgartirishi mumkin.

2. Darsning vazifasi:

Bargning tashqi tuzilishi, barg qirralari, tomirlanish, qirqilishi, barglarning poyada joylashishi, barg metamorfozini o'rganish

3. O'quv jarayonining mazmuni

Barg qanday vazifalarni bajaradi
To'liq barg to'liqsiz bargdan nima bilan farq qiladi.
Barglarning morfologik tuzilishi
Oddiy barg formalari
Barg qirralari xilma-xilligi
Barg plastinkasining qirqilishiga qarab xillari
Barg plastinkasining tomirlanishi
Barglarning katta – kichikligi va yashovchanligi
Barglarning novdalarda joylashishi
SHakli o'zgargan barglar (barg metamorfozi)

4. O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi - suhbat
- b) Metod – Vertushka, Bumerang
- v) Forma – (shakl) guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko'rish)
- j) Baholash – o'z-o'zini va umumiy baholash

5. Metod – Vertushka, Bumerang

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu material guruhlarga aralastirib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o'qituvchi va talabalar bilan umumiy to'g'ri javob o'rtoqlashiladi.

№	Barg tomirlanishi	yoysimon	parallel	to'rsimon	patsimon	barmoqsimon
1	Bir xil yo'nalishdagi tomirlar boshlanish va tugallanish joylarida birlashsa					
2	Bir xil yo'nalishdagi tomirlar tutashmasa					
3	Barg tomirlari shoxla-nib ketgan bo'lsa					
4	Barg tomirlari shoxlan-gan bo'lib, barg plas-tinkasi butun bo'lsa					
5	Barg tomirlari shoxlan-gan bo'lib, barg plastin-kasi qirqilgan bo'lsa					
№	Barglarning novdalarda joylashishi	navbat bilan	harama - harshi	xalqa-simon		
1	Novdani har qaysi bo'qimida bir biriga qarab ikkita barg joylashsa					
2	Novdani har qaysi bo'qimidan faqat bittadan barg chiqib, novda bo'ylab pastdan yuqoriga qarab joylashsa					
3	Novda bo'g'imida uch va undan ziyod barglar joylashsa					

Bumerang metodi

1 - guruhga beriladigan vazifa

1. Barg vazifasi nimadan iborat
2. Barg necha qismdan tuzilgan
3. Barg necha xil guruhga bo'linadi.

2 - guruhga beriladigan vazifa

1. Barg shakllari
2. Barg plastinkasining qirralari
3. Barg plastinkasining qir qilishiga qarab xillari

3 - guruhga beriladigan vazifa

2. Barg plastinkasining tomirlanishi
3. Barglarning katta-kichikligi va yashovchanligi
4. Barglarning poyada joylashishi

4 - guruhga beriladigan vazifa

1. Murakkab barg turlari
2. SHakli o'zgargan barglar
3. hashoratxo'r o'simliklar

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Dars davomida barg morfologiyasiga oid gerbariyalar va fiksirlangan materiallardan foydalanib

- a) barg plastinkasining shakli
- b) barg qismlarini (to'liq, to'liqsiz)
- v) barg plastinkasining qirralarini
- g) barg plastinkasining qirqilishi (bo'lakli, kesik, ajralgan)
- d) barg tomirlanish turlarini
- e) murakkab barg turlarini
- j) shakli o'zgargan barglar, ularning xilma –xilligi va poyada joylashuvi bilan tanishish

Topshiriq: - Barg morfologiyasiga oid rasmlarni chizib, ularning qismlarini yozish, barg tomirlanishini kuzatib, sinflarga ajratib, rasmini chizing.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elektron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG'ULOT – 18

Mavzu: Gerbariy namunalari asosida o'simliklarning morfologik belgilarini (ildiz, poya va barglarni) aniqlash

1. Darsning maqsadi:

Dars jarayonida talabalar amaliy mashg'ulotlardan olgan bilimlarini yanada mustahkamlash uchun o'simlik vegetativ organlarini (ildiz, poya, barg) gerbariyga qarab, morfologik analiz qilib o'rganadilar.

2. Darsning vazifasi:

Gerbariydan foydalanib o'simliklarning ildiz, poya va barglarining tashqi tuzilishini o'rganadilar.

3. O'quv jarayonining mazmuni:

1. Ildizning asosiy vazifasi
2. Ildizning kelib chiqishiga ko'ra xillari
3. Bir pallali o'simliklarning ildiz sistemasi
4. Ikki pallali o'simliklarning ildiz sistemasi
5. SHakli o'zgargan ildizlar va ularning vazifasi
6. Poyaning shakllari
7. O'sishiga qarab poyaning xilma-xilligi
8. Poyaning shoxlanish xillari
9. O'simliklarning hayotiy formasi (daraxt, buta, chalabuta, o't o'simlik)
10. Qiyofasini o'zgartirgan er ustki va er ostki poyalar
11. To'liq barg to'liqsiz bargdan nimasi bilan farq qiladi
12. Oddiy barg formalari
13. Barg qirralari xilma-xilligi
14. Barg plastinkasining qir qilishiga qarab xillari
15. Barg plastinkasining tomirlanishi
16. Barglarning katta kichikligi va yashovchanligi
17. Barglarning novdalarda joylashishi
18. SHakli o'zgargan barglar (barg metomorfozi)

4. O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma, (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Vertushka
- v) Forma (shakl) – gurux
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko'rish)
- j) Baholash – o'z-o'zini va umumiy baholash

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va har bir gurux yakka holda to`g`ri javobni belgilaydi. Keyin bu materiallar guruhlarga aralastirilib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o`qituvchi va talabalar bilan umumiy va to`g`ri javob o`rtoqlashiladi.

№	Ildiz shakillari	Popuk ildiz	O`q ildiz	Ildiz meva	Ildiz tuganak	Tayanch ildiz
1	Makkajo`xori					
2	Sabzi					
3	Arpa					
4	Yantoq					
5	Sholg`om					
6	Georgin (kartoshka gul)					
7	Batat					
8	G`o`za					
9	Suli					
10	O`rik					

5. Mustaqil ishlash tartibi.

Har bir talaba gerbariy olib, undagi o`simlikning alohida organlarini morfologik tuzilishini sinchiklab tekshirib o`rganadi. O`simliklarning ta`rifini yozishda albatta, ma`lum rejaga rioya etish zarur.

Albomning chap tomoniga o`simlik vegetativ organlarining morfologik tuzilishini ta`rifi yoziladi. Morfologik analizning to`g`riligini talabalar, o`qituvchidan so`rab bilishlari kerak.

Albomning o`ng tomoniga ildiz, poya va barg rasmi chizib, qismlari yozib qo`yiladi.

O`simlik morfologiyasini ta`riflash rejasi:

1. Er osti organi:

a) Ildiz. Ildiz sistemasi tipini aniqlash (o`q ildiz, popuk ildiz) metamorfoz:

b) Ildizpoya. O`shish xususiyatlari (tik yoki yoniga)

v) Piyozbosh. Kattaligi, rangi.

g) Tuganak. SHakli, rangi, kattaligi

2. Poya. Poyaning turlari: yog`ochli, qisman yog`ochli, o`tli.

a) Shakli yumaloq, yumaloq bo`g`imli, uch qirrali, to`rt qirrali, ko`p qirrali, yassi;

b) O`shish yo`nalishi: tik o`suvchi, o`rmlab o`suvchi, ilashib o`suvchi, chirmashib o`suvchi, sudralib o`suvchi va boshqalar;

v) Shoxlanishlar: monopodial, simpodial, dixotomik, soxta dixotomik;

g) Poyaning metamorfozi: gajak, jingalak va tikanlarning necha mm yoki sm ekanligi o`lchab yoziladi.

3. Barg. Oddiy yoki murakkab bargligi aniqlanadi.

Agar oddiy barg bo`lsa:

a) Barg plastinkasining shakliga qarab lentasimon, lantsetsimon, ninasimon, tuxumsimon, teskari tuxumsimon, yumaloq, ellipssimon, panjasimon, yuraksimon, uchburchak, strelkasimon, buyraksimon, duksimon va boshqalar.

b) Tomirlanishi: parallel, yoysimon, to`rsimon, patsimon, panjasimon, yulduzsimon.

v) Barg plastinkasining qirralari: tekis, oddiy tishchali, qo`sh tishchali, arrasimon tishli, o`yiq, ilon izi va boshqalar.

g) Barg qir qilishi: bo`lakli, qir qilgan, ajralgan.

Endi murakkab barglarni ko`rib chiqamiz.

d) Uch bargchali, besh, etti bargchali (panjasimon), toq panjasimon, juft panjasimon. Qolgan qismlari oddiy barg singari aniqlanadi.

e) Barglarning poyalarda joylanishi: ketma-ket, qarama-qarshi va halqasimon.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа” , 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитге, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа ”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

IV- SEMESTR

LABORATORIYA MASHG'ULOTI – 1

Mavzu: Tuban sporalı o'simliklar: Suv o'tlari

Darsning maqsadi:

Tuban o'simliklar sodda tuzilgan organizmlar bo'lib, ularning tanasi organlarga bo'linmaydi. Ularning tanasi tallom deb ataladi. Tuban o'simliklar 1 xujayrali, ko'p xujayrali, koloniyali tuzilishga ega. Tuban o'simliklar: - Suv o'tlari-Algae, zamburug'lar – (Mucophyta), Lishayniklarga – (Lichenophyta) va Bakteriyalar (Bacteriophyta) ga klassifikatsiyalanadi. Lekin bakteriyalar bo'limini mikrobiologiya kafedrasida o'rganiladi.

Suv o'tlari Algae – autotrof organizmlar, chunki xujayralarida xlorofill bo'lganligi sababli autotrof oziqlanadi.

Xujayrasidagi xromotaforida turli pigmentlar saqlanadi. Pigmentlarning rangiga qarab, suv o'tlari xilma-xil .

Darsning vazifasi:

Suv o'tlarining tuzilishi, yashash sharoiti, koo'payishi, rivojlanishi, ahamiyati.

O'quv jarayonining mazmuni.

Tuban o'simliklarning xarakterli belgilari, tuzilishi, autotrof, geterotrof oziqlanishi, koo'payishi, rivojlanishi va klassifikatsiyasi

Suv o'tlarining tallomdan ya'ni hujayraviy tuzilishga ega ekanligi

Suv o'tlarining autotrof oziqlanishi

Suv o'tlari hujayralarida turli pigmentlarning bo'lishi

Suv o'tlarida koo'payish xillari (vegetativ, jinssiz, jinqli)

Pigmentlarning xillariga qarab, suv o'tlarining xilma-xilligi

- a) Yashil suv o'tlari – Chloprophyta
- b) Ko'k – yashil suvo'tlari – Cyanophyta
- v) Diatom suv o'tlari – Diatomeae
- g) qizil suv o'tlari – Rhodophyta
- d) qo'ngir suv o'tlari – Rhaeophyta

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod: - Bumerang, Vertushka, FSMU.
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, tayyor preparat, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko'rish)
- j) Baholash – o'z-o'zini va umumiy baholash

Vertushka metodi

Bu treningda 3 ta yoki 5 ta guruhga material tarqatiladi va xar bir guruh yakka holda belgilaydi. Keyin bu material guruhlarga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi, 3 yoki 5 marta aylangandan keyin o'qituvchi va talabalar bilan umumiy to'g'ri javob o'rtoqlashiladi.

№	Suv o'tlari va zamburug'lar	Oddiy (vegetativ)	Jinssiz	Jinsli
1	Ostsillatoriya			
2	Vosheriya			
3	Laminariya			
4	Volvoks			
5	Xara			
6	Spirogira			
7	Xlamidomonada			
8	Moqor zamburug'i			
9	Achitqi zamburug'i			
10	Shoxkuya zamburug'i			
11	qorakuya zamburug'i			

Suv o'ti

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil ko'rsating

U – fikringizni umumlashtiring

Suv o'tlari – tuban sporali o'simliklar va xilma – xilligi

Umumiy vazifa

Kichik guruhlarga bo'lamiz va xar 1 ta guruh fikr va dalillarini 4 ta bosqich bilan yozishadi. Kichik guruhlar yozgan fikrlarini himoya qiladi. Trening – o'qituvchi tomonidan fikrlar umumlashtiriladi.

Masalan 1 ta guruh javobi

F – Suv o'ti – tuban sporali o'simlik – tallomli, xilma –xil turlari ko'p

S – 1 xujayrali, ko'p xujayrali, xromataforlari turlicha

M – Ostsillatoriya, ko'p xujayrali, xromatoforida fikotsian (ko'k yashil) pigmenti bor

U – umumlashtirish

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Ob'ektlarni o'rganish: Suv o'tlari, zamburug'lar, lishayniklar

Ob'ektlar bo'yicha ma'lumotlar

Suv o'tlari – Algae. hayoti suv bilan bog'liq, tanasi tallomdan iborat, xlorofilli o'simliklarga suv o'tlari deyiladi. Suv o'tlari chuchuk va sho'r suvlarda, nam tuproq va zaxkash erlarda uchraydi. Tanasining tuzilishiga qarab, 1 hujayrali, ko'p hujayrali, kolloniyali bo'ladi.

hujayradagi xromatoforlarida pigmentlar saqlaydi. Suv o‘tlari ko‘k yashil, sariq, qo‘ng‘ir, qizil rangda bo‘ladi. Lekin hamma suv o‘tlarida xlorofill mavjud bo‘ladi. Suv o‘tlari vegetativ, jinssiz, jinsli yo‘l bilan ko‘payadi.

Ko‘k – yashil suvo‘tlari – Cyanophyceae bo‘limi tanasining tuzilishi jihatidan bir hujayrali yoki koloniyali bo‘lib yashaydigan organizmlar. Bu o‘simliklarga yashil rang beruvchi xlorofill va ko‘k rang beruvchi fikotsian pigmentlar bo‘ladi. Ularda yaxlit yadro bo‘lmasdan, sochilgan xolatda yadro moddasi bo‘ladi. Oddiy bo‘linish yo‘li bilan ko‘payadi. Noqulay sharoitga tushganda spora xosil qiladi.

Ko‘k – yashil suvo‘tlarini o‘rganish uchun – ipsimon tuzilishga ega bo‘lgan Ostsillatoriya (ossillatoria), Lingbiya (Lyngbia), koloniyalilarga nostok (Noctok) suvo‘tlari kiradi.

Yashil suv o‘tlari - Chlorophyceae bo‘limi tanasining tuzilishida xlorofill pigmenti bo‘lib, ular bir hujayrali, koloniyali bo‘lib yashaydigan organizmlar. Yashil suv o‘tlari vegetativ, jinssiz va noqulay sharoit tug‘ilganda jinsli yo‘l bilan, ya‘ni koopulyatsiya va kon‘yugatsiya usulida ko‘payadi.

Yashil suv o‘tlari 3 sinfga bo‘linadi.

- a) chin yashil suv o‘tlari – Euchlophyceae
- b) konyugantlar – Conigotae
- v) Xaralar – Charae

Chin yashil suv o‘tlariga – volvokslar, xlorokokk, xlorella, ulotriks, kaulerpa suvo‘tlari kiradi. Konyugantlarga – spiragira suv o‘ti kiradi.

Xaralarga – xara suvo‘tlari misol bo‘ladi.

Diatom suv o‘tlari – Diatomea. Bir hujayrali, kolloniyali organizmlar. Ular oqar suvlarda, ko‘lmak suvlarda, tuproqda uchraydi. Ular uchun xarakterli belgi po‘stining 2 qavatli bo‘lishi. Tashqi qavat gil tuproqli va ichki qavati pektinlidir. Tanasining tashqi qavati 2 palladan iborat bo‘lib, tashqi epiteka, ichki gipoteka qavatlari bir – birini qoplab turadi. Xromatoforlarida diatomin pigmenti sariq rangni beradi. hujayra oddiy vegetativ, jinsli yo‘l bilan ko‘payadi.

Qo‘ng‘ir suv o‘tlari - Rhaeophyta. Ko‘p hujayrali dengiz o‘simliklari. Xromatoforlarida fukoktsiantin pigmenti bo‘lib, qo‘ng‘ir rang beradi. qo‘ng‘ir suv o‘tlarining tallomi xilma-xil shaklli, tuzilishi jihatidan birmuncha yuksak o‘simliklarga o‘xshab ketadi. Ularning tanasi murakkab tuzilgan bo‘lib, ayrimlarida «ildiz, poya, barg» kabi organlarni eslatadi. qo‘ng‘ir suv o‘tlari vegetativ, jinssiz, jinsli yo‘l bilan ko‘payadi. Ularga – laminariya, fukus kabi vakillar kiradi.

Qizil suv o‘tlari - Rhodophyta. Ko‘p hujayrali, tallomli oddiy yoki tarmoqlangan ip, plastinka va poya xamda bargsimon qismlarga ajralgan tuzilishda bo‘ladi. qizil suv o‘tlari hujayra po‘sti ichki selluloza va tashqi qavati pektin moddasidan iborat. Bu modda suv o‘ti tallomining shilimshiqqlanishiga sabab bo‘ladi. Ularning tarkibidagi shilimshiqsimon moddalardan shakar, pektin, oqsildan iborat agar-agar olinadi. Xromatoforida qizil rang beruvchi fikoeitritin pigmenti bo‘ladi. qizil suv o‘tlari jinsli va jinssiz yo‘l bilan ko‘payadi.

Qizil suv o‘tlaridan ko‘p uchraydigan vakillari Delesseriya, anfeltsiya kiradi.

Keys

Suv o‘tlarning tarkibida xlorofill pigmenti bo‘lganligi sababli avtotrof organizmlar hisoblanadi. Xlorofill pigmentining asosiy funksiyasi fotosintezni amalga oshirish. Ammo ba‘zi suv o‘tlarda masalan qizil va qo‘ng‘ir suv o‘tlarida xlorofill pigmentidan tashqari fikotsian va fukoksantin pigmentlari mavjud. Aytingchi bu pigmentlar suv utlariga rang berishdan tashqari qanaqa vazifani bajaradi.

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar:

1. Suv o'tlarning tuzilishi, ko'payishi va rivojlanishi haqida ma'lumot bering
2. Suv o'tlarni pigmentlariga qarab klassifikatsiyasini tushuntiring
3. Dengiz va okeanlarda o'sadigan suv o'tlarda fotosintez jarayoni qanday amalga oshishini tushuntiring.

Mustaqil ishlash tartibi

- 1 – **tajriba.** Tayyor preparatdan, gerbariydan foydalanib, yashil suv o'tlari ko'riladi. Vosheriya, spirogira, suv o'tlari bilan tanishib chiqiladi. Tablitsadan foydalanib, ularning morfologiyasi va ko'payishi bilan tanishib chiqiladi.
 - 2 – **tajriba.** Sariq suv o'tlaridan va ularning xillari tablitsa orqali pinnulariya bilan tanishib chiqiladi. Xarakterli pigmenti ko'rsatiladi.
 - 3 – **tajriba.** Qo'ng'ir suv o'tlari va qizil suv o'tlariga oid o'simliklar tayyor preparatdan, tablitsadan tanishib chiqiladi. Ularning o'ziga xos pigmentlari bilan tanishib chiqiladi. Fukus, laminariya gerbariylari bilan tanishib chiqiladi.
- Topshiriq.** Talabalar tajribalarni bajarganlaridan keyin, albomlariga suv o'tlari rasmlarini chizadilar.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elektron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forscha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

Mavzu: Zamburug'lar va lishayniklar

Darsning maqsadi:

Zamburug'lar Mucophyta, Fungi – geterotrof organizm, sababi ularda plastidalar bo'lmaydi. Ular saprofit va parazit holda hayot kechirishadi. Zamburug' tanasi mitselliidan tuzilgan. Mitselliy mayda ipchalar yig'indisi gifalardan tuzilgan.

Lishayniklar Lichenophyta – tanasi zamburug' va suv o'tlarining simbioz holda yashashi natijasida vujudga kelgan. Lishayniklar autotrof organizmlardir.

Darsning vazifasi:

Zamburug'larning tuzilishi, oziqlanishi, klassifikatsiyasi, ahamiyati. Lishayniklarning tuzilishi, xillari, yashash sharoitini, ahamiyatini o'rganish.

O'quv jarayonining mazmuni.

1. Zamburug'larning tuzilishi, tanasining mitselliidan tuzilganligi
2. Parazit, saprofit hayot kechirish
3. Zamburug'larning ko'payish usullari
4. Zamburug'lar klassifikatsiyasi
 - a) Arximitsetlar – Archimycetes
 - b) Oomitsetlar – Oomycetes
 - v) Zigomitsetlar – Zygomycetes
 - g) Xaltachali yoki askomitsetlar - Ascomycetes
 - d) Bazidiyali zamburug'lar – Basidiomycetes
 - e) Takomillashmagan zamburug'lar - Fungi imperfecti
5. Lishaynik tanasining tuzilishi
 - a) Suv o'tlari va zamburug'larning simbioz hayot kechirishi natijasida yuzaga kelgan organizm
 - b) Lishaynik autotrof organizm
 - v) Lishaynik xilma-xilligi
 - g) Ko'payish usullari
 - d) Lishayniklarning ahamiyati

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod: - Bumerang, Vertushka, FSMU.
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, tayyor preparat, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko'rish)
- j) Baholash – o'z-o'zini va umumiy baholash

Metod – Bumerang, Vertushka, FSMU

Bumerang treningi

Talabalar kichik guruhlarga bo'linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Xar 1 ta guruh o'z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar orasida savol – javob ketadi.

1 – guruhga beriladigan vazifa

1. Zamburug'lar tuzilishi
2. Yashash sharoiti
3. Oziqlanishi
4. Ko'payishi
5. Klassifikatsiyasi

2 – guruhga beriladigan vazifa

1. Arximitsetlar sinfi vakillari
2. Sinf va xillari
3. Tuzilishi, yashash sharoiti
4. Ko'payishi, ahamiyati

3 – guruhga beriladigan vazifa

1. Oomitsetlar sinfi vakillari
2. Tuzilishi, yashash sharoiti
3. Ko'payishi, ahamiyati

4 – guruhga beriladigan vazifa

1. Zigomitsetlar sinfi vakillari
2. Tuzilishi, yashash sharoiti
3. Ko'payishi, ahamiyati

5 – guruhga beriladigan vazifa

1. Xaltachali zamburug'lar
2. Uchrash joylari
3. Ko'payishi, ahamiyati

6 – guruhga beriladigan vazifa

1. Bazidiyali zamburug'lar
2. Uchrash joylari
3. Ko'payishi, ahamiyati.

Zamburug'lar

Zamburug'lar plastidalari bo'lmaydigan geterotrof organizmlar, ular parazit va saprofit holda hayot kechiradi. Ularning tanasi gifalardan, gifalar to'planib mitselliidan tuzilgan.

Zamburug' mitselliysi substrat singib, oziq moddalarni butun yuzasi bilan o'rab oladi. Substrat ustida qolgan mitselliidan spora hosil qiluvchi organlar hosil bo'ladi. Ko'payishi vegetativ, jinssiz va jinsli usulda boradi.

Zamburug'lar tanasining tuzilishiga qarab:

- | | |
|------------------|------------------------------------|
| 1) Arximitsetlar | 4) Xaltachali zamburug'lar |
| 2) Oomitsetlar | 5) Bazidiyali zamburug'lar |
| 3) Zigomitsetlar | 6) Takomillashmagan zamburug'larga |
- bo'linadi.

Arximitsetlar – Archimycetes – tanasi yalong'och yoki uncha rivojlanmagan mitselliylardan iborat. Bir xivchinli zoosporalar yordamida jinssiz, jinsiy yo'l bilan ko'payadi. Bunday zamburug'lar karam ko'chatlarida uchraydigan Olpidium – Olpidium brassica dir. o'simlikning zararlangan joyida yalong'och hujayradan iborat bo'lgan parazit tanalar hosil bo'ladi. Keyinchalik bu tanalar po'st bilan o'ralib, zoosporangiyalarga aylanadi. Zoosporangiyalar o'sib, tashqariga chiqib turadigan uzun bo'yincha hosil qiladi, va shu bo'yinchalardan ko'plab bir xivchinli zoosporalar tashqariga chiqadi. Qulay sharoitga tushgan zoosporalar, yangi karam ko'chatlariga tushib, ularni zararlanishi davom etadi.

Oomitsetlar – mitselliysi shoxlangan alohida hujayralarga bo'lingan vakili – fitoftora sabzavotlarda parazit hayot kechiradi. Kartoshka pishib etilishi oldidan, uning barglarida qo'ng'ir doqlar paydo bo'ladi. Ular bargning xamma qismiga tarqalib, o'simlikni nobud qiladi.

Zigomitsetlarga – eng ko'p tarqalgan, saprofit holda yashovchi vakillaridan oq pupanak – Mycor mucedo zamburug'idir. Uning mitselliysi asosan substrat ichida, qisman uning yuzasida joylashib, ularda sporangiy bandlari ko'tarilib turadi. Shar shaklidagi sporangiyalarni hosil qiladi. Ularning asosida to'siq yuzaga keladi va u sporangiy ichiga botib, kichkina ko'rinishdagi ustuncha hosil qiladi. Sporangiy ichidagi ko'p yadroli sitoplazma aloqida – aloqida bir qancha sporalarga aylanadi. Sporangiy po'sti yorilishi bilan sporalar tashqariga chiqadi va tarqaladi. qulay sharoitda yangi mitselliya aylanadi.

Xaltachali zamburug'lar - bu zamburug'larda sporalar maxsus xaltachalar ichida etiladi. Mitselliysi bir yoki ko'p yadroli hujayralardan tashkil topgan.

Mitselliyning ikkita qujarasi bir – biri bilan qo'shilib, hosil bo'lgan zigota xaltachaga aylanadi. Shuning uchun ularni xaltachali zamburug'lar deyiladi. Xaltacha ichida ko'pincha sakkiztadan spora xaltacha, ya'ni askospora etiladi. Xaltachasi bevosita mitselliya hosil bo'ladigan zamburug'larga achituvchi zamburug'lar misol bo'ladi. Uning tanasi aloqida – aloqida hujayralarga ajraladigan, kurtaklanib shoxlangan zanjir hosil qiluvchi hujayralardan iborat. Kurtaklanish paytida, hujayrada o'simta yoki kurtakcha hosil bo'ladi. Bu o'simta asta – sekin kattalashib o'saveradi va ona hujayradan ajralib ketadi. Xuddi shunday yo'l bilan 2 – chi, 3 – chi kurtaklar paydo bo'laveradi, natijada yumoloq yoki ovalsimon hujayralardan tashkil topgan va osongina uzilib ketadigan zanjir hosil bo'ladi. Ayni paytda ularning yadrolari qam qo'shilib, yadro 3 marta bo'lingach, hujayrada 8 – ta askospora vujudga keladi.¹

Bazidiyali zamburug'lar sinfi – mitselliysi ko'p xujayrali, yaxshi rivojlangan sporalari maxsus bazidiyalarda etiladi. Ularda ona hujayra bazidiya vujudga keladi. Bazidiyaning sirtida bazidiya sporalari ekzogen usul bilan hosil bo'ladi.

Mitselliyning ikki hujayrasi o'zaro qo'shilgandan keyin, yadro ikki marta bo'linib, bazidiyada to'rtta o'simta xosil bo'ladi. Bu o'simtalarning uchi sharsimon qavarib, ularga bittadan yadro o'tadi va bazidiya spora deb ataladigan to'rtta spora vujudga keladi. Bu bazidiyali zamburug'larga parazit holda hayot kechiradigan qorakuya zamburug'i misol bo'ladi. Kasallangan o'simlik organlari zamburug' sporalari yig'indisidan qorayib kuygandek bo'lib qoladi.

Takomillashmagan zamburug'lar – mitselliysi yuksak darajali, ko'p hujayradan tashkil topgan, biroq xaltacha yoki bazidiya hosil qilmaydi. Ular konidiyalari yordamida qamda bevosita mitselliya bilan ko'payadi. Ular tuproqda va o'simliklar qoldiqlarida saprofit, yuksak o'simliklarda parazit holda yashaydi. Masalan o'simliklarning o'tkazuvchi to'qimalarida parazit yashab, vilt yoki vertitselyoz – so'lish kasalliklarini keltirib chiqaradi. o'simlikni poya va ildiz o'zaklarini chiritadi.

Lishayniklar – Lichenes – ikki organizmlarni simbioz qolatida yashashidan vujudga kelgan organizmlar. Lishayniklar ko'k – yashil suv o'tlari va zamburug'lardan; bazidiyali va

¹V. Ch. Evans Farmakognosiya. – Xalqaronashr: Edinburg, London Nyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.

xaltachalilardan tashkil topgan. Lishayniklar hosil bo'lishida ba'zan azot o'zlashtiruvchi bakteriyalar qam ishtirok etadi. Lishayniklar tashqi ko'rinishidan po'stloqsimon, bargsimon va shoxlangan bo'ladi. Po'stloqsimon lishayniklar tosh qoyalariga va daraxt po'stloqiga yopishib yashaydi.

Keys stadi

Keys stadi ya'ni - muammoli ta'lim texnologiyasi o'qitishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishga asoslanib, uni maqsadga muvofiq holda, darsning turli bosqichlarida, jumladan uy vazifani so'rash, yangi mavzuni o'rganish, o'rganilgan mavzuni umumlashtirish va yakunlashda tavsiya etiladi.



Lishayniklarni dastlab olimlar bitta organizm deb qabul qilingan, 1867 yili rus biologi A.S.Faminn va O.V.Baronetskiylar lishayniklar tanasidagi yashil suv o'ti ksanoriya bo'lib, u mustaqil oddiy bo'linish yo'li bilan ko'payishi, sporalar orqali tarqalishini aniqladilar. Demak ksanoriya mustaqil hayot kechiruvchi so'v uti ekan, lishayniklar qanday organizm, ularni qaysi bo'limga kiritishimiz mumkin.

Mustaqil ishlash tartibi

1 – tajriba Nondagi moqor zamburug'idan vaqtinchalik preparat tayyorlab mikroskopda ko'riladi.

2 – tajriba Xaltachali zamburug'lar bilan tanishish uchun penitsillin, aspirin, achitqi zamburug'larini tablitsalarda tanishib chiqiladi.

3 – tajriba Bazidiyali zamburug'lar bilan tanishib chiqish uchun – qora kuya, zang zamburug'lari gerbariy va tayyor preparatlar orqali o'rganiladi.

4 – tajriba Ko'piksion yoki bargsimon lishayniklarni mikroskopda ko'rish

5 – tajriba Shoxlangan, ko'piksion, bargsimon lishayniklarni tablitsadan, jonli ko'rgazmali qurollardan va gerbariydan o'rganiladi.

Topshiriq. Talabalar tajribalarni bajarganlaridan keyin, albomlariga suvo'tlari, zamburug'lar, lishayniklar rasmlarini chizadilar.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.

7. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O‘zbekiston o‘simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
9. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа ”, 1988. - 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG‘ULOTI – 3

Mavzu: Yuqori sporali o‘simliklar, moxsimonlar, plaunlar, qirqbo‘g‘imsimonlar, qirqquloqsimonlilar.

Darsning maqsadi.

Yuqori sporali o‘simliklar tanasining tuban o‘simliklarga nisbatan murakkab tuzilishi bilan farqlanadi. Yuksak o‘simliklarning ko‘pchiligida ildiz, poya, barg bo‘lib, ular qoplovchi, o‘tkazuvchi, assimilyatsion, qamlovchi, mexanik va boshqa to‘qimalarga ajralgan. o‘simliklarning quruqlikka chiqishida tana tuzilishlari murakkablashgan va bu bilan birga ko‘payish organlarining o‘zgarishiga qam sababchi bo‘ladi. Yuksak o‘simliklar uchun ko‘p hujayrali jinssiz (sporangiyalar) va jinsli organ (gametangiy) bo‘lishi xarakterlidir. Erkak jinsiy organ-anteridiy, urqochi jinsiy organ-arxegoniy deb ataladi. Yuksak o‘simliklarning taraqqiyot davrida gametofit (jinsiy) nasl va sporafit (jinssiz) nasllar gallanadi.

Yuksak o‘simliklardan: Moxsimonlar, plaunlar, qirqbo‘qimli-lar, qirqquloqsimonlar o‘rganiladi.

Moxsimonlar – Bryophyta – tanasida poya va barg takomillashgan bo‘lib, ko‘p xujayrali rizoidga ega. Tuban vakillari tanalari tallomdan iborat. Moxsimonlarning ko‘payishida gametofit nasl ustun turadi.

Moxsimonlar:

jigarsimon moxlar

poya bargli moxlarga bo‘linadi.

Plaunlar – Lycopodiophyta – qaqiqiy barg poyali o‘simliklar bo‘lib, ularda qam nasllarning navbatlashib ko‘payishi kuzatiladi.

Sporafit nasl ustunlik qiladi. Sporafit poyasining uchki qismida joylashgan boshqochalarda sporangiyli sporofillar rivojlanadi.

Qirqbo‘qimsimonlar – Sphenophyta – poyasining ichi kovak bo‘lishi, barglari mayda bo‘lib, poyaga doira bo‘lib joylashgan. qirqbo‘qimsimonlar spora etishtirish yo‘li bilan ko‘payadi. Sporalar sporagiylarda etishib, sporangiyalar shakli o‘zgargan barg qisoblanadi. Sporofillar qalqon shaklida bo‘lib, poya uchidagi xalqalarda joylashadi. Sporofillar ichida sporangiy mavjud. Sporangiy ichida ko‘p miqdorda elaterali sporalar pishib etilgandan so‘ng, tashqariga chiqib sochiladi. Sporalar tashqi ko‘rinishidan bir – biridan farq qilmasa qam, lekin ular fiziologik xususiyati bilan farq qiladi va xar xil bo‘ladi. Ba’zi bir sporalar o‘sib urqochi gametofit, ikkinchi xillari esa erkak gametofit hosil qiladi. Urqochi o‘simta yirik bo‘lib, unda arxegoniy etiladi. Arxegoniyda tuxum hujayra rivojlanadi. Erkak o‘simta mayda bo‘lib, unda anteridiy hosil

bo'ladi. Unda esa spermagen hujayralar rivojlanadi. O'talanish suv yordamida shudring tushganda bo'ladi. O'talangan tuxum hujayradan zigota, undan esa yangi qirqbo'qim, ya'ni sporofit nasl rivojlanadi.¹

Darsning vazifasi:

Yuqori sporali o'simliklar xilma-xilligi, yashash sharoitlari, ularning ko'payishida nasl gallanishi va biologik xususiyatlari o'rganiladi.

o'quv jarayonining mazmuni.

1. Yuqori sporali o'simliklarning tuzilishi, ko'payishidagi nasl gallanishi, klassifikatsiyasi
2. Moxsimonlarning tuban sporali o'simliklardan farqi
3. Moxsimonlarning asosiy belgilari
4. qattanali va poya bargli moxlarga bo'linishi.
5. Ularning ko'payishida nasl gallanishi
6. Jigarsimon moxlar tuzilishi va ko'payishi
7. Poya bargli moxlar tuzilishi va ularning ko'payishi
8. Plaunsimonlarning umumiy xarakteristikasi va xilma – xilligi
9. Bir xil sporali plaunlarning tuzilishi va yashash sharoiti
10. Xar qil sporali plaunlarning tuzilishi va yashash sharoiti
11. Plaunlarning ko'payishi va rivojlanishi
12. Plaunlarning tibbiyotda va qo'jalikdagi ahamiyati.
13. Qirqbo'qimlarning qadimgi va qozirgi tur vakillari
14. Dala qirqbo'qimining tuzilishi va yashash sharoiti
15. Dala qirqbo'qimining ko'payishi va rivojlanishi
16. Dala qirqbo'qimining ahamiyati

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita usul, nazorat, baqolash)

- a) Darsning turi – suqbat
- b) Metod – blits o'yin, bumerang, vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazarot – kuzatish
- j) Baqolash – o'z – o'zini baqolash, umumiy baqolash

Metod - Blits o'yin, Bumerang, Vertushka

Blits – o'yin

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Guruh ishidan chetlanish	Kakku ziniri o'simligini morfo-logiyasi, ko'payishi va rivojlanishi
						1. Zigotadan jinssiz nasl sporo-fit o'sib chiqadi 2. Rizoid, ildiz va poya bo'ladi 3. Sporafit sporalaridan o'simta protonema o'sib

¹Mustafaev S.M., Ahmedov O.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: "YUNAKS-PRINT" MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.

					<p>chiqadi</p> <p>4. Gametofit organlar otalik – onalik o‘simliklarda aloqida – aloqida joylashadi.</p> <p>5. Uruqlangan tuxum xujayradan zigota o‘tib chiqadi</p> <p>6. Kakku-ziqiri poyasining balan-ligi 20 – 40 sm bo‘ladi</p> <p>7. Otalanish xodisasi erta baqor-da suvli muxitda sodir bo‘ladi</p> <p>8. Protonema o‘simta ingichka shoxlangan xlorofilga boy bo‘ladi</p> <p>9. Anteridiydan chiqqan sperma-tazoid arxegoniya kiradi va uni otalantiradi</p> <p>10. Protonema o‘simtasidan ke-yinroq kakku – ziqiri o‘sadi</p>
--	--	--	--	--	---

Bu metodning o‘tkazilish tartibi. qar bir guruh talabalari yuqorida ko‘rsatilgan vazifa tarqatiladi. Talabalar to‘g‘ri deb xisoblagan raqamni “yakka baqo” qatoriga yozib chiqishadi. o‘qituvchi to‘g‘ri javob e‘lon qilgandan keyin, xar 1 guruh o‘z qatolarini, “guruh xatosi” qatoriga yozadi. Natijada to‘g‘ri, noto‘g‘ri javoblar solishtirilib, guruh bahosi xisoblab chiqiladi.

Bumerang metodi

Talabalarni kichik guruhlariga bo‘linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Xar 1 ta guruh o‘z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar orasida savol – javob ketadi.

1- guruh vazifasi

Plaunlarning qadimgi vakillari
 Plaunlarda qaysi nasl ustunligi
 Jinssiz nasl tuzilishi
 Jinsiy nasl tuzilishi

2 – guruh vazifasi

Teng sporali plaunlar tuzilishi
 Nasl ustunligi
 Ko‘payishi va rivojlanishi
 Ahamiyati

3- guruh vazifasi

Har xil plaunsimonlar tuzilishi
 Yashash sharoiti
 Ko‘payishi va rivojlanishi

Blits – o‘yin

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka baho	Yakka xato	Guruh ishidan chetlanish	Dala qirqbo'g'ining ko'payish va rivojlanish sikli
						1. Sporalı boshqqa urchuqsimon shaklda bo'lib, ularda qalqonsimon sporafillar joylashadi 2. Otalanish suv yordamida , yomqir yoqqanda yoki shudring tushganda bo'ladi. 3. Qirqbo'qim o'simligida gallanib ko'payish kuzatiladi 4. Olti burchakli plastinka shakldagi sporofillar ichki qis-mida 8-10 sporangiy mavjud. 5. Erta bahorda ildizpoyadan qo'n-qir rangli poya o'sib chiqib, sporalı boshq xosil qiladi. 6. Otalangan tuxum xujayralari-dan zigota, undan esa yangi qirqbo'-qim o'simligi rivojlanadi 7. Sporangiy ichida elaterali spo-ralar pishib etilgandan so'ng tash-qariga chiqib sochiladi 8. Ba'zi bir sporalar urqochi ga-metofit (arxegoniy), ikkinchi xillarida erkak gametofit (anteridiy) hosil bo'ladi 9. Sporalar tashqi tomondan farq qilmasada, fiziologik xususiyati xar – qil

Bumerang metodi

Talabalar kichik guruhlarğa bo'linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Xar bitta guruh o'z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar orasida savol – javob ketadi.

1- guruh vazifasi

Qirqbo'qimsimonlarning umumiy belgi xususiyatlari
Yashash sharoitiga qarab xilma – xilligi.

2 – guruh vazifasi

Dala qirqbo'g'ining yashash sharoiti
Dala qirqbo'g'ining 2 xil novdasining tuzilishi

3 – guruh vazifasi

Boshqchalardagi sporangiylarning tuzilishi
Jinsiy naslning tuzilishi va otalanish protsessi

Yuqori sporalı o'simliklarning ko'payishi va rivojlanish sikli

Moxsimonlar, plaunlar, qirq-bo'qimlar, qirqquloqlar	vegetativ	sporafit	gametofit
---	-----------	----------	-----------

1	Erkak paporotnik			
2	Cho'qmoqli plaun			
3	Sfagnum			
4	Dala qirqbo'qimi			
5	Salviniya			
6	Marshantsiya			
7	Selaginella			
8	Kakku ziqiri			
9	Funariya moxi			

Mustaqil bajarish uchun vazifalar.

Ob'ektlarni o'rganish: Moxsimonlar, plaunlar, qirqbo'qimlilar, qirqquloqsimonlar.

1 – tajriba. Moxsimonlar. Gerbariy va tablitsadan foydalangan holda moxsimonlarni morfologiyasini o'rganib quyidagi belgilarga e'tibor berish:

- a) o'simlik organlari (rizoid, poya, barglari)
- b) barglarning joylanishi
- v) jinsiy organlarning joylanishi

2 – tajriba. Plaunlar. Gerbariy va tablitsadan foydalangan holda apteka plauni morfologiyasini o'rganish:

- a) o'simlik organlari (ildiz, ildizpoya, bargi)
- b) poyasining shoxlanishi va shakli
- v) barglarining shoxlanishi va shakli
- g) sporali boshhoqi
- d) sporalarni mikroskop ostida ko'rish

3 – tajriba. Qirqbo'qimlilar. Gerbariy va tablitsadan foydalangan holda qirqbo'qimning tashqi tuzilishini o'rganish.

- a) o'simlikning ildizpoyasi va undagi tugunak
- b) baqorgi va yozgi poyalarini rangi va tuzilishi
- v) bargining tuzilishi
- g) sporalari

Topshiriq: Dars davomida gerbariy va tablitsadan foydalanib yuqori o'simliklarga oid rasmlarni chizib, rasmlarning qismlarini yozib qo'yadilar.

qirqquloqsimonlilarda jinsli va jinssiz ko'payish (nasl gallanish) ga oid rasmlarni chizing.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
2. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
4. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
5. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
6. V. Ch. EvansFarmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
7. П.Зитге, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
8. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.

9. Василев А.Е. “Морфология, анатомия растений”. – М.: Изд-во “Высшая школа”, 1988. – 435 с.
10. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O‘.A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklarning lotincha-o‘zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug‘ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
11. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
12. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
13. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
14. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
15. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG‘ULOTI – 4

Mavzu: Urug‘li o‘simliklar. Ochiq urug‘lilar

1. Darsning maqsadi:

Ochiq uruqli o‘simliklar toshko‘mir davrining oxirlarida qirquuloqsimonlardan keyin paydo bo‘lgan. Ochiq uruqlilarda birinchi bo‘lib, uruq hosil bo‘lgan. Ularning uruqlari yopiq uruqlilar singari mevaning ichida emas, balki megasporofillarda ochiq xolda joylashgan. Shuning uchun ularni ochiq uruqlilar deyiladi. qozirgi ochiq uruqlilarning vakillari, ninabarglilarda poyaning po‘stloqi yupqa bo‘lib, yoqochlik qismi rivojlangan. Mego va mikrosprorofillari maxsus qubbalarga birlashgan va bir jinsli bo‘ladi. Ochiq uruqlilar 3 – sinfga bo‘linadi: Sagovniklar, qubbalilar, qobiqli uruqlilarga

2. Darsning vazifasi:

Ninabarglilarning xarakterli belgilari, yashash sharoiti, ko‘payishi va rivojlanishi, ahamiyati va xilma – qilligi. Efedra o‘simligining tuzilishi va ahamiyati.

3. O‘quv jarayonining mazmuni

- 1) Ochiq uruqli o‘simliklarni yuqori sporali o‘simliklardan farqi
- 2) Ochiq uruqli o‘simliklar klassifikatsiyasi
- 3) Ninabarglilar sinfiga kiradigan o‘simliklar tuzilishi
 - a) otalik va onalik quddalarining shakli va tuzilishi
- b) changning tuzilishi
 - v) uruqkurtakning tuzilishi
 - g) changlanish va otalanish
 - d) uruqning taraqqiy etishi
- 4) Ochiq uruqli o‘simliklar deb atalishi
- 5) Ninabargli o‘simliklarning ahamiyati
- 6) qobiqli uruqlilar tuzilishi va xillari
- 7) Zoqoza (efedra) o‘simligining tuzilishi va yashash sharoiti

4. O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita usul, nazorat, baqolash)

- a) Darsning turi – suqbat
- b) Metod – F S M U texnologiyasi
- v) Forma (shakl) – guruh

- g) vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, tayyor preparat, gerbariy
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish, ko'rish
- j) Baqolash – o'z – o'zini va umumiy baqolash

5. Metod – F. S. M. U. treningi

F S M U – texnologiyasi

Ninabarglilar yoki qaraqaydoshlar oilasi

O'qituvchi tomonidan umumiy vazifa beriladi.

Masalan: “qaraqay o'simligining morfologik belgilari, changlanishi va otalanishi”.

Talabalarni kichik guruhlar bo'lamiz va xar bitta guruh fikr va dalillarini 4 ta bosqich bilan yozishadi. Kichik guruhlar yozgan fikrlarini qimoya qiladi va o'qituvchi tomonidan fikrlar umumlashtiriladi.

F – qaraqay – ochiq uruqli o'simlik

S – Uruqlari megosporofillarda ochiq holda joylashadi

M – quddalarda joylashgan chang va uruqkurtak orqali changlanish va otalanish qodisasi sodir bo'ladi

U – qaraqay o'simligida ketadigan protsesslar umumlashtiriladi

6. Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Ob'ektlarni o'rganish: Ninabarglilar. qobiq uruqlilar.

Keys

Yuksak taraqqiy etgan o'simliklarda ya'ni ochiq va yopiq urug'li o'simliklarda gametofit nasli urug'kurtak ichida joylashgan. Urug'kurtaklar tuzilishi jihatidan ham deyarli farq qilmaydi. Ammo urug'lanish jarayonida farqlar mavjud, ushbu farqlarni aytib o'ting. Bunday urug'lanish o'simliklarning yashash muhitining ta'siri bor yo'qligini isbotlang.

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar:

1. Ochiq va yopiq urug'li o'simliklar haqida ma'lumot bering

2. Urug'kurtakning shakllanishini tushuntiring va changlanish jarayonlari haqida ma'lumot bering

3. urug'lanish jarayoniga tashqi omillarning ta'siri haqida ma'lumotga ega bo'ling.

Ob'ektlar bo'yicha ma'lumotlar

Ninabarglilar doimiy yashil o'simliklar. Ular 5 ta oilaga: qaraqay-doshlar – (Pinaceae) , Sarvidoshlar – (Cupressaceae), Taksodiyadoshlar-Taxodiaceae), araukariyadoshlar – (Araucariaceae), zarnabdoshtlar – (Taxaceae) ga bo'linadi. qaraqaydoshlar oilasiga qaraqaylar avlodi kirib – bir uyli

doimiy yashil daraxtlar bo'lib, 100 dan ortiq turi mavjud. Shulardan o'rmon qaraqayi – Pinus silvestris 1 uyli, ayrim jinsli, poyasining diametri 1m, buyi 50 m, poyasi monopodial shoxlanadi. Ular ko'payishi uchun xar xil tuzilgan erkak va urqochi qubbalar hosil qiladi. Erkak qubbalar cho'ziq sariq rangda baqorda o'sib chiqqan yosh novdalar uchida joylashadi. Xar bir qubbada 1 ta o'q bo'lib, ularga tangacha shaklidagi mikrosporofillar joylashadi. Mikrosporofillarda mikrosporangiyalar bo'lib, uning ichida mikrospora yoki chang etiladi. Chang 2 qavat: tashqi "ekzina", ichki "intina" po'st bilan o'ralgan. Tashqi po'stning 2 tomonida ichiga qavo to'lgan bo'rtma qavo pufakchasi bor. Chang mikrosporangiyada o'sib, yadrosi bo'linib, 2 ta hujayra anteridial va vegetativ hujayra hosil bo'ladi. Anteridial hujayradan spermiy vegetativ xujayradan chang yo'li hosil bo'ladi. Urqochi qubbalar yosh novdaning ichida hosil bo'ladi. qisqa o'qdan iborat urqochi qubba 2 xil, tashqi va ichki tangacha barglar bilan qoplangan. Bu tangachalar qo'ltiqida mikrosporofillar joylashib qaraqay gullaganda qubba tangachalari bir – biriga zich taqalib turmay, tirqish hosil bo'lib, shamol uchirib keltirgan chang ana shu tirqish orqali qubba ichiga kiradi. Uruq tangachasining o'qqa birikib turgan joyida 2 ta uruq kurtak hosil bo'ladi. Uruq kurtak ko'p xujayrali nutsellus va uni o'rab olgan 2 qavat intugumentdan iborat. Intugumentning yuqori tomonida kanalcha bo'lib, mikropile deb ataladi. Nutsellusning mikropilega yaqin turgan joyidagi hujayralarining biri meyoza bo'linib, 4 ta hujayra paydo bo'ladi. Ulardan bittasi kengayib, endospermani hosil qiladi. qolgan 3 tasi nobud bo'ladi. Endospermaning yuqori qismida, mikropile tomonida 2 ta arxegoniy hosil bo'lib, ularning ichida bittadan tuxum hujayra etiladi.

Uruq kurtakka tushgan chang rivojlanib, mikropile orqali endospermdagi arxegoniya borgach yoriladi. Ichidan chiqqan spermiylardan biri arxegoniydagi tuxum xujayra bilan qo'shiladi va uruqlanish sodir bo'ladi.

Qobiqli uruqlilar – Chlamydaspermatophyta ga kiradigan o'simliklarga Efedradoshlar oilasi bilan tanishamiz. Zoqoza o'simligi Osiyo, Xindiston, Xitoy, Janubiy Amerikada keng tarqalgan. Uncha katta bo'lmagan yashil buta yoki o'simlikning bo'yi 90 sm ga etadi.

Zoqozaning 1 xil poyasida juftlashib joylashgan mayda barglarining qo'ltiqida shar shaklidagi kichik changchi quddalar bor. Ularda mikrosporangiy mavjud. Ikkinchi xil poyasida kichik quddacha bo'lib, unda bitta bola qopchiqi rivojlanadi. Bu bola qopchiqining atrofini qshtdor qobiq o'rab olgan.

Bola qopchiqining tashqi qavati intugument cho'zilib, trubkani hosil qiladi va mikrosporalarni ushlab olishga moslashgan. Intugumentning ichki tomonidagi nutsellusda uruqchi maysa rivojlanadi. Uruqchi maysa gaploid xromosomali endosperm va uni ichida joylashgan arxegoniyadan iborat. Intugument trubkasining ichida mikrosporadan spermiya hosil bo'ladi va 1 ta arxegoniya bilan uruqlanib uruq hosil qiladi. Uruqning atrofini qshtdor qobiq bilan o'ralgan bargchalar qizarib suvli bo'ladi va tashqi ko'rinishidan rezavor mevaga o'xshab ketadi. Zoqozadan efedrin alkaloidi olinib, tibbiyotda markaziy nerv sistemasi kasalliklarida foydalaniladi.

7. Mustaqil ishlash tartibi.

1 – tajriba: Oddiy qaraqay Gerbariy va tablitsadan foydalanib, oddiy qaraqayni umumiy ko'rinishini (bargning shakli, joylanishi, otalik, onalik quddalari) o'rganish.

a) otalik quddasi: umumiy ko'rinishi, tangachalar, changdon,

changdon tuzilishi – ekzina, intina, vegetativ, generativ hujayra

b) onalik quddasi: umumiy ko'rinishi, qoplaqich tangacha, uruq

beruvchi

tangacha, uruq kurtak

uruq kurtak tuzilishi: intugument, nutsellus, mikropile, embrion, arxegoniya

2 – tajriba. Zoqoza. Gerbariy va tablitsadan foydalanib, zoqoza o'simligining morfologik belgilarini o'rganish

Topshiriq. Dars davomida talabalar gerbariy, tablitsalardan foydalangan holda albomlarga o'rganilgan o'simliklarning barcha belgilari ko'rsatilgan holda rasmlarini chizib olish.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

2. Яковлев Г.П., Челомбитко В.А. Ботаника. – М.: “Высшая школа”, 2001.-230 с.
3. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. – T.: O'zbekiston, 2005.- 435 b.
4. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A., Samatova SH. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. – T.: “YUNAKS-PRINT” MCHJ bosmaxonasi, 2007.- 127 b.
5. Ahmedov O'.A., Yulchieva M.T. Botanika fanidan elaktron darslik.-T.: 2008.
6. Pharmaceutikal Botany, a Text-Books for students of pharmacy and science. Published by forgotten books, 2013. –
7. V. Ch. Evans Farmakognoziya. –Xalqaronashr:Edinburg, LondonNyu– York, Filadelfiya, Sidney, Toronto (16 nashr).- Saunders Elsevier Limited, 2009.
8. П.Зитте, Э.В.Вайлер, И.В.Кодерайт, А. Бруинский, К.Кейнер. Ботаника. Москва, перевод с немецкого языка, 2007 г. -361 с.
9. Hamidov A., Nabiev M.M. “O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi”.-T.: 1987.-235 b.
10. ВасилевА.Е. “Морфология, анатомиярастений”. – М.: Изд-во “Высшая школа ”, 1988. - 435 с.
11. Xolmatov X.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A. va boshqalar. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati.-T.: X.F. “Nizim” bosmaxonasi, 2004. – 239 b.
12. Berezovskaya T.P., Dmitruk S.E., Grishinna e.I., Belousov M.V. Основы farmatsevticheskoy botaniki. – Tomsk: Pechatnaya manifaktura, 2004.-294 s.
13. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. 1-2 qism. – T.: “Ibn Sino” nashiryoti, 2007.- 806 b.
14. Гилберт С. Биология развития: в 2 т. /пер. с англ. - М., 1994
15. Рейвн П., Эверт Р., Айкхорн С. Современная ботаника. Т. 1-2. – М.: «Мир», 1990.
16. Эсау К. Анатомия семенных растений: в 2 кн. /пер. с англ. - М., 1980.

LABORATORIYA MASHG'ULOTI – 5

Mavzu: Yopiq urug'lilar. Gulning tuzilishi. Gul formulasi va diagrammasi

1. Darsning maqsadi:

Yopiq urug'lilar jinsiy ko'payishi jihatidan boshqa o'simliklarga qaraganda yuqori bosqichda turadi. Ularda jinsiy ko'payish uchun maxsus reproduktiv (hosil) organlari – gul hosil bo'ladi. Gul juda murakkab va unda muhim rivojlanish sodir bo'ladi: mikro va makro sporogenez, changlanish, urug'lanish va mevaning hosil bo'lish jarayonlarini kuzatish mumkin.

Gul novdaning o'sish nuqtasidan paydo bo'ladi. Gulqo'rg'on, bargchasi, changchi va urug'chi ichki meristemadan hosil bo'ladi. Gul qismlari dastlab gul kurtagi ichida shakllanadi.

Changlanish changdonda etilgan changdonachasini urug'chi tumshuqchasiga kelib tushishidan iborat bo'lib, ikki xil turi bo'ladi: o'z – o'zidan changlanish va chetdan changlanish.

Urug'lanish – erkak va urg'ochi jinsiy gametalarning o'zaro qo'yilish jarayoni hisoblanadi. Erkak gametaspermiya, urg'ochi gameta tuxum hujayra deyilib, bu jarayon urug'chida ketadi. Ya'ni chang naychasi murtak xaltachaga o'tganda, uning uchi yorilib, ichida ikki spermiya murtak xaltachaga to'kiladi. Bu spermiyalardan bittasi tuxum hujayra bilan, ikkinchi spermiya markaziy yadro bilan qo'shiladi. Bu jarayon qo'sh urug'lanish deyiladi.

2. Darsning vazifasi:

Evolyutsion taraqqiyot natijasida gulning hosil bo'lishi, gulning tuzilishi (qismlari), formulasi, diagrammasi, gul qismlarining gul o'rnida joylanishiga qarab xillari, changchi, urug'chining tuzilishi, gulda ketadigan changlanish, urug'lanish jarayonlarini o'rganish.

3. O'quv jarayonining mazmuni:

1. Yopiq urug'li o'simliklar bo'limiga tasnif
2. Yopiq urug'li o'simliklar qanday sinflarga bo'linadi
3. Gul deb nimaga aytiladi va u qanday funksiyalarni bajaradi
4. Gulning kelib chiqishi, to'liq va to'liq bo'lmagan gullar
5. Gul qismlari. Ularning lotincha nomlari
6. Oddiy va murakkab gul qo'rg'on
7. To'g'ri gul bilan qiyshiq gulni farqi
8. Qanday gullar yalong'och gullar
9. Changchi qanday vazifani bajaradi va qanday organlardan tuzilgan
10. Chang donachalarining shakli, tuzilishi qanday?
11. Urug'chi qanday vazifani bajaradi va u qanday tuzilgan?
12. Gul tugunining gul qo'rg'oniga nisbatan joylanishi va tuzilishi
13. Urug' kurtakning va murtak xaltachaning tuzilishi
14. Gul formulasi
15. Gul diagrammasi
16. Changlanish va uning xillari
17. Qo'shaloq otalanish
18. Yopiq urug'li o'simliklarni otalanishi, ochiq urug'li o'simliklarni otalanishidan farqi.

4. O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (metod, forma (shakl), vosita, usul, nazorat, baholash)

- a) Darsning turi – suhbat
- b) Metod – Blitz – o'yin, Bumerang, Vertushka
- v) Forma (shakl) – guruh
- g) Vosita – doska, tarqatma material, tablitsa, gerbariy, mulyaj
- d) Usul – nutqli
- e) Nazorat – kuzatish (ko'rish)
- j) Baholash – o'z-o'zini va umumiy baholash

5. Metod – Blitz – o'yin, Bumerang, Vertushka

Blitz – o'yin “Urug'lanish jarayoni”

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Guruh ishidan chetlatish	Harakatlar mazmuni
						1. Murtak xaltachaning yadrosi ketma-ket 3 marta mitoz bo'linib, 8 ta yadroni hosil qiladi 2. Chang naychasi onalik tugunchasiga etib borgach, mikropile orqali urug'chi haltachasi ichiga kiradi va uchki qismi yorilib, hamma moddasi xaltacha ichiga to'kiladi 3. Murtak xaltachaning xa-laza qismida

					<p>qolgan 3 ta yadro - antipodalar deyiladi, mikropile tomondagi 3 ta yadroni bittasi tuxum hujayra, qolgan 2-si sinergidalar deyiladi</p> <p>4. Urug' kurtakdagi nutsellus ichida murtak xaltacha bo'lib, bu erda urug'lanish sodir bo'ladi</p> <p>5. Ikkinchi sperma esa markaziy hujayraning yadrosi bilan qo'shilib, triploid xromosomal hujayrani hosil qiladi</p> <p>6. Urug'kurtak qopchasida chang donachasining spermalari bilan tuxum hujayra va markaziy yadroga o'zaro qo'shilishi urug'lanish deyiladi</p> <p>7. So'ngra har qaysi tomondan bittadan yadro murtak xaltachaning markazi tomon harakatlanib, o'zaro qo'shiladi va diploid xromosomal markaziy yadro hosil qiladi</p> <p>8. Spermalardan biri tuxum hujayraning yadrosi bilan birikadi va diploid xromosomal urug' murtagini vujudga keltiradi</p> <p>9. Bu hujayradan keyin-chalik urug'ning oziq moddalar to'plovchi to'qimasi – urug' endospermi rivojlanadi</p>
--	--	--	--	--	---

Bu treningda – talabalarni guruhlariga bo'lib, material tarqatiladi. Guruh talabalari ketma-ket yozilgan, chalkashtirilgan jummalarni to'g'ri holatda joylashtirishlari kerak. Avvalo “to'g'ri” deb hisoblagan jumla raqamini, tablitsadagi “yakka baho” grafasiga yozib chiqadi. So'ngra o'qituvchi tomonidan to'g'ri javob aytilgandan so'ng, noto'g'ri raqamlarini “yakka xato” grafasiga yoziladi. hisoblangandan keyin “guruh bahosi” grafasi o'qituvchi tomonidan belgilanadi.

Bumerang metodi

Bu metodda – talabalar kichik guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi har bir guruhga vazifa yozilgan material tarqatadi. har bir guruh talabalari berilgan vazifa bo'yicha o'z fikrlarini bayon qiladi va undan so'ng guruhlar orasida savol - javob ketadi.

1 – guruhga beriladigan vazifa

1. Yopiq urug'li o'simliklarga tasnif
2. Gulning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar

2 - guruhga beriladigan vazifa

1. Gul deb nimaga aytiladi va u qanday vazifani bajaradi
2. Gul qismlari. (lotincha nomlari bilan)
3. Oddiy va murakkab gul qo'rg'on

3 - guruhga beriladigan vazifa

2. Chang, vazifasi, ichki va tashqi tuzilishi
3. Urug'chi, vazifasi, tashqi va ichki tuzilishi
4. Tugunchaning gul o'rnida joylashishi

4 - guruhga beriladigan vazifa

1. Changlanish, uning xillari
2. Urug'lanish jarayoni

Keys.

Bizga ma'lumki gulning urug'chisi biomorfogeneziga ko'ra monokarp, apokarp, senokarp va psevdomonokarp tuzilishga bo'linadi. Monokarp tuzilishi bitta mevachibargdan hosil bo'ladi va gulda bitta bo'lishi bilan xarakterlanadi. Urug'chisi monokarp tuzilishga ega bo'lgan o'simliklarga urik, shaftoli, olxurilarni misol keltirishimiz mumkin. Bu o'simliklar bir danakli bo'lishi bilan farq qiladi. Bundan tashqari dukkadoshlar oilasi vakillarining urug'chisi ham monokarp tuzilishga ega. Ammo ularning ba'zi vakillari ko'p urug'li bo'ladi masalan loviya, mosh, akatsiya. Nima uchun dukkakli o'simliklar urug'chisi bitta bo'lishiga qaramay ko'p urug' hosil qiladi.

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar:

1. Gulning tuzilishini tavsiflab bering
2. Urug'chi tuzilishini, qanday qismlardan tashkil topganligini tushuntiring
3. Monokarp, apokarp, senokarp, psevdomonokarp urug'chilarni bir biridan farqini izohlang va jadvalni to'ldiring
4. Urug'ni hosil bo'lishi urug' kurtaklar soniga bog'liqligini tushuntiring

monokarp	apokarp	senokarp	psevdomonokarp

Vertushka metodi

Bu treningda guruhlariga material tarqatiladi va har bir guruh yakka holda to'g'ri javobni belgilaydi. Keyin bu materiallar guruhlariga aralashtirib beriladi, yana belgilanadi. Guruhlar soniga qarab aylangandan keyin, o'qituvchi talabalar bilan umumiy to'g'ri javobni belgilaydilar.

Gulning kelib chiqish nazariyalari						
